M.Y. RAXIMOV
N.N. KALANDAROVA

MOLIYAVIY TAHLIL



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

M.Y. RAXIMOV, N.N. KALANDAROVA

MOLIYAVIY TAHLIL

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT
"IQTISOD-MOLIYA"
2019

UO'K: 657.622(075.8)
KBK: 65.261

Taqrizchilar: *i.f.n., dots.* **Z.A. Sagdillaeva;**
i.f.n., dots. **Muqimov Z.**

R 29 Moliyaviy tahlil. *Darslik.* / M.Y.Raximov, N.N.Kalandarova; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 736 b.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati, uning samaradorligi, moliyaviy axvoli va natijaviyligi, ularning pul ishlab topish va kapitalni o'stirish imkoniyatlarini aniqlash muhim axborotlar oqimini shakllantirish bilangina hal etilmaydi. Ushbu axborotlar oqimi qayta ishlanishi, real holat aniq baxolanishi, uning kelgusidagi kutilishlari oldindan bashorat qilinishi, turli tahlikalar hisobga olinishi talab etiladi. Faqat shu orqaligina samarali boshqaruvni yo'lga qo'yish va yuritish mumkin.

Moliyaviy tahlil etish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarining naqakat aktivlari va ularning kelgusidagi ko'payishi, kapitali va uning o'sishi, majburiyatlarining holati, moliyaviy natijasi va rentabelligi, pul oqimlari va ularning kutilishlari boshqaruvning barcha obyektlari bo'yicha axborotlarni chuqur qayta ishlash orqali faoliyatni turi va maqsadli yo'lga qo'yish imkoni tutiladi.

UO'K: 657.622(075.8)
KBK: 65.261

ISBN 978-9943-13-798-1 **© M.Y.Raximov, N.N.Kalandarova, 2019**
© "IQTISOD-MOLIYA", 2019

KIRISH

Iqtisodiyotdni liberallashtirish, globallashuv jaryonlari o‘z navbatida hisob va audit tizimining ham xalqaro gormonizatsiyasini va standartlashtirilishini talab etmoqda. Mazkur vazifani hal etish boshqaruvning muhim elementlari bo‘lgan hisob, iqtisodiy tahlil va auditning ham nazariy, metodologik va amaliy jihatlarini yagona tartiblarini belgilashni, ularni unifikatsiyalashni, muqobillikdagi tartiblarni yagona mezonlarga keltirishni taqozo qilmoqda.

Xalqaro kapital va kredit bozorining shakllanishi, xorijiy investitsiyalarning ko‘payishi, eksport-import operatsiyalarining jadallashuvi, transmilliy korxonalar rolining ortib borishi bilan moliyaviy hisobotlarni tuzishning xalqaro standartlarini belgilash, hisob ma’lumotlarini qiyosiyligini ta’minlash zaruriyati tobora ortib bormoqda. Axborotlarni olish va taqdim etishning eng muhim vositasi bu moliyaviy hisobotlardir.

Moliyaviy hisobotlar axborot foydalanuvchilarining keng doirasi uchun:

- investitsiyalar bilan bog‘liq xatarlar, dividendlarni to‘lash, aksiyalarni sotib olish, saqlash yoki sotish haqidagi;
- kreditlar va foiz to‘lovlari haqidagi;
- mol yetkazib beruvchilarga tegishli bo‘lgan summalarning o‘z vaqtida to‘lanishi haqidagi;
- uzluksiz faoliyati to‘g‘risidagi;
- faoliyat barqarorligi va rentabelligi to‘g‘risidagi;
- resurslarning taqsimlanishi, faoliyatni tartibga solib turilishi, soliqqa tortish, milliy daromadni hamda boshqa statistik ma’lumotlarni shakllantirish to‘g‘risidagi;
- rivojlanish, taraqqiyot va farovonlikka erishish yuzasidan erishilgan so‘nggi yutuqlar to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta’minlaydi.

Bunday axborotlar xo‘jalik subyekti yoki tadbirkorlik subyektining moliyaviy ahvoli, uning hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy

natijasi va pul mablag'larining aylanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni retrospektiv tahlil etishni va prognozlashni, moliyaviy natijalarni shakllantirgan asosiy omillar va ta'sirlar, subyekt faoliyat ko'rsatadigan muhitdagi o'zgarishlarga javoban qo'llaydigan choralari, subyektning moliyaviy natijalarni saqlab qolish va ko'paytirishga qaratilgan investitsion siyosati, dividend siyosati; uning faoliyatni moliyalashtirish manbalari va majburiyatlari holatini qamrab olgan kompleks moliyaviy tahlilini amalga oshirishni talab etadi.

Moliyaviy tahlil investitsiyalar va kreditlarga doir qarorlarni qabul qilishga; subyektning bo'lg'usi pul oqimlariga; ularga ishonib topshirilgan resurslarga, majburiyatlarga; rahbar organlarning ishiga baho berishda biznes samaradorligi va boshqaruvning sifat menejmentiga erishishda muhim dastak vazifasini bajaradi.

Moliyaviy tahlilning eng muhim obyektlariga: subyekt nazorat qilib turadigan iqtisodiy resurslari va ularning moliyaviy tuzilmasi; likvidligi; to'lovga qobiliyati; moliyaviy ahvoli va uning kelgusidagi kutilishlari; moliyaviy natijalari va rentabelligi; pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari; kapital hajmi, moliyaviy va iqtisodiy salohiyati; iqtisodiy nochorlikka yuz tutmasligi, investitsion jozibadorlik; kreditga qodirlik; moliyaviy ahvoli bo'yicha reyting baholashlar kiradi.

Mazkur darslik moliyaviy tahlilning nazariy, metodologik va amaliy jihatdan xalqaro normalarga mos ravishda tuzib chiqilgan. Fan doirasida nafaqat obyekt yoki predmet balki, mavzular birligiga ham alohida ahamiyat qaratildi.

Fanni o'rganish davomida talabalar boshqaruv, moliyaviy va investitsion qarorlar qabul qilish uchun xo'jalik subyektlarida resurslardan foydalanish holatini, faoliyat samaradorligini, moliyaviy holatini hamda ularning o'zgarishlarini, o'zgarishlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, hisob-kitob qilish, baholash yo'llarini o'rganadilar. Shuningdek, xo'jalik subyektlarining moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish holatiga, ularning ishlab chiqarish, tijorat va moliya faoliyati samaradorligiga, subyektlarning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatiga, boshqaruv samaradorligiga obyektiv baho berish,

faoliyatning kuchli jihatlari va zaif tomonlarini aniqlash asosida aktivlarning bugungi va kelajakdagi qiymatini oshirishda aniq boshqaruv qarorlarini tayyorlash yuzasidan zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradilar.

Moliyaviy tahlil darsligi o'z ichiga quyidagi mavzularni qamrab olgan: moliyaviy tahlil fanining nazariy asoslari; moliyaviy tahlilni tashkil etish va axborot manbalari; korxona operatsion faoliyatining tahlili; ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili; buxgalteriya balansi tahlili; moliyaviy barqarorlik tahlili; kreditga layoqatlik tahlili; debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili; moliyaviy natijalar va rentabellik tahlili; pul oqimlari tahlili; xususiy kapital tarkibi va uning tahlili; korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish; korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish; moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash.

Har bitta mavzu keng, metodik jihatdan yangi, amaliy ma'lumotlar tahlili asosida atroflicha yoritib berilgan. Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari, nazorat savollari, adabiyotlar ro'yxati, glossariylar bilan boyitilgan.

Mualliflar tarkibi darslikni yozishda yaqindan amaliy yordam bergan bir guruh professor o'qituvchilarga jumladan i.f.n., dots. Xakimov B. ga (moliyaviy tahlilda iqtisodiy matematik usullardan foydalanish), o'q. Quvvatov G.ga (moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash) o'z minnatdorchiliklarini bildiradi.

Mazkur darslik talabalarning xo'jalik subyektlari tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlar va ularning tahlilini amalga oshirishda, faoliyat va biznes samaradorligini baholashda, boshqaruvning muhim qarorlarini tayyorlashda, moliyaviy holatni kompleks baholashda, reyting baholashda, moliyaviy hisobot elementlarini prognozlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Darslikdan shuningdek, mustaqil ekspertlar, tahlilchilar, buxgalter va iqtisodchilar amaliy jihatdan keng foydalanishlari mumkin.

Darslik yuzasidan o'z fikr mulohazalaringizni mualliflarning quyidagi manziliga yo'llashingiz mumkin va siz tomondan bildirilgan

har bitta tavsiya darslikning keyingi nashrlarini yanada mukammal qilishda muhim manba bo'lishiga umid bildirib qolamiz:

Manzil: Toshkent moliya instituti, A.Temur ko'chasi 60-A uy, audit va iqtisodiy tahlil kafedrasi, www.tfi.uz;

1-BOB. MOLIYAVIY TAHLIL FANINING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Tahlilning zamonaviy boshqaruvdagi roli, o'rni va ahamiyati.

1.2 Moliyaviy tahlil fanining predmeti, obyekti, maqsadi, vazifalari, prinsiplari.

1.3 Moliyaviy tahlil fanining metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

1.4 Moliyaviy tahlil: ichki moliyaviy tahlil, tashqi moliyaviy tahlil.

1.5 Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan usullar: an'anaviy (qiyoslash, balans, zanjirli almashtirish, indeks, farqli, nisbiy ko'rsatkichli kabi) va iqtisodiy-matematik (integral, chiziqli va chiziqsiz dasturlash, nazariy o'yin, korrelyatsiya va regressiya, determinant, logarifm kabi) usullar.

1.6 Moliyaviy tahlilning maxsus usullari: moliyaviy hisobotni o'qish, gorizontal, vertikal, trend, qiyosiy, omilli, koeffitsiyentlar tahlili.

1.7 Moliyaviy tahlilning boshqa fanlar o'rtasida tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlari.

1.8 Moliyaviy tahlil subyektlari (haqiqiy va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, xodimlar, shuningdek hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar) va ularning qiziqishlari.

1.1 Tahlilning zamonaviy boshqaruvdagi roli, o'rni va ahamiyati

Iqtisodiyotni globallashuvi, integratsion jarayonlar, innovatsion jadallik va kuchli raqobat muhitidagi talablar hisob-kitoblarga oid fanlar tizimini ham zamonaviy biznes qoidalariga mos tarzda takomillashtirishni talab etmoqda. Negaki, manfaatlar ustuni sifatida tan olingan bozor modeli avvalo, aniq hisob-kitoblar algoritmini, ularni baholashni va chuqur tahliliy yechimlarni talab etadi[1].

[1]Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. T.: "Iqtisod-Moliya", 2015.-316 б.

XXI asr – dunyo iqtisodiyotining yangicha shakllanish asridir. Bu dunyo insoniyatni, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotning o'zgarishini, iqtisodiy modellar transformatsiyasini, xalqaro munosabatlarni, globallashuv va yangi geoiqtisodiy qurilishini shakllanishini anglatadi. Bugungi iqtisodiyot aybni o'zgalardan axtaradigan, muammolar yechimiga osongina kelinadigan, hammaning boshini bir xilda silaydigan, istagancha mol-mulkka ega bo'lishda ilmni, bilimni talab qilmaydigan, o'zgarish va rivojlanishda cheksiz imkoniyatlarni ochib beruvchi, tahlikalardan holi bo'lgan iqtisodiyot emasligini tan olish kerak. Zamonaviy iqtisodiyot avvalo chuqur tahliliy yechimlar asosida doimo o'zini yangilab boruvchi, tartibga soluvchi va turli tahlikalarga ta'sirchan murakkab tizimga aylanib bormoqda. Xo'sh iqtisodiyotda, uning makro va mikro ko'lamdagi boshqaruvida tahlilning roli, o'rni va ahamiyati nimada?

Makroko'lamda tahlil fan sifatida shakllanmagan. Lekin bu bilan makroko'lamda tahlil amalga oshirilmaydi degani emas. Uning muhim jihatlari boshqa fanlar (iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, marketing, statistika va h.k.) doirasida amalga oshiriladi. Mikroko'lamda esa tahlil oldiga bir qator murakkab vazifalar qo'yiladi va ularni hal etish orqali quyi bo'g'in hisoblangan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatining tashxisi qo'yiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o'rganish va tahlil etish orqali ularning samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va uni o'stirish imkoniyatlarini baholashda, korxona ishlab chiqarish, tijorat va moliya faoliyatidan moliyaviy resurslarning kirimiga va ulardan moliyaviy holatni o'stirishda foydalanish darajalariga, raqobatdoshlik, moliyaviy natijalarni kutilishini prognozlash va iqtisodiy rentabellikni xo'jalik faoliyatining real imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda oshirishning yo'llarini belgilashga, moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanishning chora-tadbirlarini belgilashga ahamiyat qaratiladi.

Moliyaviy raqobatdoshlikka va to'g'ri moliyaviy siyosatni yuritishga korxona foydasini maksimallashtirish, kapital tarkibini optimallashtirish va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash,

mulkdorlar (qatnashchilar, ta'sischilar), investorlar va kreditorlar uchun moliyaviy holatning jozibadorligini oshirish, korxona boshqaruvi yuzasidan samarali mexanizmni shakllantirish, shuningdek, moliyaviy resurslarni jalb etishda bozor mexanizmining barcha imkoniyatlaridan foydalanish orqaligina erishish mumkin.

O'z navbatida, iqtisodiyot subyektlari faoliyatidagi erkinlik, natijaga egalik, rivojlanish va taraqqiyotning yangicha mazmuni boshqaruvning butun bir tizimini ham takomillashtirishni talab etmoqda.

Bugungi kunda korxonalar oldida juda keng imkoniyatlar ochilmoqda. Nafaqat xo'jalik yurituvchi subyektlar jamoasi, mulk egalari, investorlar balki butun bir davlatlar va jamoatchilik tizimi ham boshqaruvdagi o'zgarish va rivojlanishdan manfaatdordirlar.

Zamonaviy boshqaruvni: [2]

- yaqin va uzoq davriylikni qamrab olgan – rejalashtirish;

- mulk egalari va maqsadli foydalanuvchilarni moliyaviy va boshqa axborotlar bilan ta'minlovchi – buxgalteriya hisobi;

- axborotlarni chuqur qayta ishlash, faoliyatga obyektiv baho berish, iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash orqali tezkor, joriy va istiqboldagi boshqaruv strategiyasini belgilab beruvchi – iqtisodiy tahlil;

- faoliyatni yo'lga qo'yish va maqsadli boshqarishning aniq yechimlari va natijaviyligini ta'minlovchi, innovatsion va aqlli iqtisodni ta'minlashga imkon beruvchi – ilmiy faoliyat;

- faoliyat samaradorligi va natijaviyligidan kelib chiqqan holda munosabatlarni muvofiqlashtirishning muhim mezoni bo'lgan – mehnatni munosib rag'batlantirish;

- va boshqa (ijtimoiy, ekologik, texnikaviy, tashkiliy) jihatlarni qamrab olgan – murakkab tizim deb qarash lozim.

Xo'jalik yurituvchi subyektlari oldida turgan muhim vazifalarni hal etilishiga albatta axborotlar oqimi va ularni tahliliy xulosalariga tayangan zamonaviy boshqaruvni yo'lga qo'yish va takomillashtirish orqaligina erishiladi.

---

[2] K. R. Subramanyam Financial statement analysis, Eleventh edition.Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, 2-бет

Boshqaruv obyekti va subyektlari, uning muhim birliklari va tasnifiy jihatlarini quyidagicha ifoda etish mumkin.

1.1-jadval

Boshqaruv, uning muhim elementlari

Ko'rsatkichlar	Tizimga kiruvchi birliklar	Tasnifi
Boshqaruv (Menejment)	Korxona faoliyat samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy tamoyillari, usullari, vositalari va shakllari majmui	Turli xil usullar, ishlarni tashkil etish va faoliyatni nazorat qilish bilan amalga oshiriladigan muayyan turdagi boshqaruv faoliyati
Boshqaruv obyekti	Iqtisodiy resurslar	Subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadidagi, shuningdek avvalgi faoliyat natijasida erishilgan barcha aktivlar
Boshqaruv subyektlari	Rahbar xodimlar, menejerlar	Resurslar, xarajatlar va daromadlar nazoratini amalga oshiruvchilar
Boshqaruvning muhim elementi	Rejalashtirish	Xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati, moliyaviy ahvoli, pul mablag'larining harakati yuzasidan asoslangan, operativ, joriy va istiqboldagi ko'rsatkichlarini belgilaydi
Boshqaruvning muhim elementi	Buxgalteriya hisobi	Xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat ko'rsatkichlari, moliyaviy ahvoli, pul mablag'larining harakati haqida samarali iqtisodiy qarorlar qabul qilish yuzasidan foydalanuvchilarning keng doirasini zarur bo'lgan axborotlar bilan ta'minlaydi
Boshqaruvning muhim elementi	Nazorat (audit)	Xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat ko'rsatkichlari, moliyaviy ahvoli, pul mablag'larining harakati haqidagi axborotlarning mulk egalari, davlat va boshqa subyektlarning manfaatlariga zid bo'lmagan talablarga mosligini nazorat qiladi
Boshqaruvning muhim elementi	Tahlil	Xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat ko'rsatkichlari, moliyaviy ahvoli, pul mablag'larining harakati haqida axborotlar yuzasidan analitik xulosalarni chiqaradi, joriy va istiqboldagi rivojlanish ko'rsatkichlariga baho beradi va ularni yaxshilash yuzasidan muhim chora-tadbirlarni belgilaydi.

Globallashuv sharoitida zamonaviy rahbar samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish mezonlarini bilishi, o'z faoliyat sohasidagi muammoni hal etishga tizimli yondashishi, tanqidiy tahlil qilishi, ishlab chiqarishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish masalalariga e'tibor qaratishi talab etiladi.

Subyektlar qabul qiladigan iqtisodiy qarorlarda pul mablag'larini ko'paytirish, ularning ko'payish vaqtini aniq hisob-kitob qilish va natijaga erishishga umid qilishdagi qobiliyatini baholash muhim masala hisoblanadi.

Bu borada tahlil:

- xo'jalik yurituvchi subyektlariga ichki va tashqi ta'sir birliklarini hisobga olgan holda faoliyatning tizimli tahlilini amalga oshirishga;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarining joriy va istiqboldagi ko'zlangan maqsadlariga erishish yuzasidan mavjud imkoniyatlarni aniqlashga;
- xo'jalik yurituvchi subyektining rivojlanish tendensiyalari dinamikasiga baho berishga;
- xo'jalik yurituvchi subyektni kelgusida yanada rivojlantirish, mavjud imkoniyatlarini ishga solishning iqtisodiy, moliyaviy manbalarini izlab topish va amalga oshirishga yordam beradi.

Tahlil – boshqaruv faoliyatining sifatini oshirish va samaradorligini ta'minlashning muhim dastagi sifatida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning barcha bosqichlarida ishtirok etadi.

Tahlilning zamonaviy shaklida aniq vazifalarni hal etishda yuksak professionallik, iqtisodiy-matematik modellar, axborot texnologiyalari, murakkab analitik yechimlarga tayanishi lozim.

Tahlil – xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida obyektiv reallikni, jarayonlar, erishilgan natijalar yuzasidan real analitik xulosalarni tayyorlash, aniq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirishda inson omilining ham muhim ekanligini qayd etadi.

O'z navbatida tahlil:

- boshqaruv jarayonini takomillashtirishga;
- boshqaruv samaradorligini oshirishga;

- boshqaruv sifatini ta'minlashga;
- raqobatbardoshlikni oshirishga imkon beradi.

Zamonaviy boshqaruvda tahlil – ilmlar va bilimlar tarmog'ining ham muhim bo'g'ini sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlarning samarali faoliyatini yo'lga qo'yish, yo'qotishlarning oldini olish va zararsiz ishlash, iqtisodiy va moliyaviy holatni yaxshilash, tahlikalarga bardoshlikni oshirishni ham muhim dastagi sifatida qaraladi.

Hozirgi vaqtda tahlil rivojlanishining yangi bir bosqichiga qadam qo'ymoqda. Bu borada tahlilning tubdan yangi nazariyasi, uslubiyoti, amaliyoti shakllanish jarayoni kechmoqda. O'zbekiston va xorijlik olimlar tomonidan tahlilning boshqaruvda operativlikni ta'minlashga imkon beruvchi, joriy va istiqboldagi rivojlanishini belgilab beruvchi, iqtisodiy va moliyaviy axborotlar oqimining shakliga (moliyaviy, boshqaruv) mos tushuvchi, kommunikatsiya texnologiyalar, matematik modellar, statistik metodlarga asoslangan shaklini yo'lga qo'yishga harakatlar qilinmoqda.[3]

Tahlilning raqobatdosh iqtisodiyotda, doiraviy kengligi yanada kuchayadi. Ayniqsa jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlari sharoitida ularning yuzaga kelishini makro va mikroko'lamdagi sabablarini tahlil qilish zaruriyati yanada ortadi. Negaki, har bitta (iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va h.k.) jarayondagi o'zgarishlar sabab va oqibat, ichki va tashqi omillar ta'sirida tashxislanishi va yakuniy xulosalar bilan izohlanishi lozim.

Bugungi kun iqtisodiyoti xo'jalik subyektlari oldiga texnik-texnologik taraqqiyotga, ilm fanga asoslangan iqtisodiyotni yo'lga qo'yishga undamoqda. Bu esa o'z navbatida boshqaruvchilardan samarali faoliyat shakllarini yo'lga qo'yishni, tadbirkorlikni faollashtirishni, individuallik va namunaviylikni kuchaytirishni talab etadi. Bu vazifalarning birontasini iqtisodiy, moliyaviy tahlilsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu borada avvalo, boshqaruvning o'zini ham takomillashtirish masalasiga alohida ahamiyat qaratish lozim.

---

[3]Пронина В. С. Экономический анализ: перспективы развития // Молодой ученый.-2016. №27. С. 485-487. URL https://moluch.ru/archive/131/36374/ (дата обращения: 05.02.2018).

Boshqaruv tizimi takomillashtirilmas ekan, uning muhim dastaklari takomillashtirilmaydi. Bugungi kunda boshqaruvning takomillashgan shakli sifatida uning korporativ shakliga o'tish yuzasidan dunyo amaliyotida yangi bir davr boshlanganligini qayd etish lozim.[4]

An'anaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish nazariyalarida boshqaruvning kompleks tahlil konsepsiyasiga alohida urg'u beriladi. Boshqaruvning kompleks tahlil konsepsiyasi – boshqaruv qarorlarini qabul qilishda barcha jihatlarni hisobga olishni, ko'plab soha mutaxassislarining hamkorlikda ishlashini talab etadi. Mazkur konsepsiyada qaror qabul qilishda samaradorligini belgilovchi mezonlar faqat miqdor ko'rsatkichlar (quantitative indicators) bilan emas, balki sifat ko'rsatkichlari (qualitative indicators) bilan ham baholanadi.

Tahlilning boshqaruvdagi roli – boshqaruv subyektlariga boshqaruv obyektini (xo'jalik jarayonlari va hodisalari, ularning samarasi va natijalari yuzasidan boshqaruvning) maqbul yechimlarini berish yuzasidan zaruriy axborotlar bilan ta'minlashdan iborat.

Tahlilning boshqaruvdagi o'rni – xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalik-tijorat-moliya faoliyatining joriy holatiga baho berish va uni kelgusida yanada rivojlantirish yuzasidan tizimli yechimlarni boshqaruv subyektlariga yetkazib berishdan iborat.

Tahlilning boshqaruvdagi ahamiyatini – xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy, moliyaviy ahvoli, uning kelgusidagi kutilishlari, pul mablag'lari kirimi va chiqimidagi ijobiy farqlanishlar, kapital hajmini oshirishdagi kompleks o'rganishlarning zaruriyligini ifodalaydi.

1.2. Moliyaviy tahlil fanining predmeti, obyekti, maqsadi, vazifalari, prinsiplari

Raqobatdosh iqtisodiyot xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruvini tubdan takomillashtirish, uning sifat jihatidan yangi tuzilmasini shakllantirish va samaradorlikni o'z-o'zidan ta'minlaydigan mexanizm

[4] Д. Рахимова. Корпоратив бошқарув: Замонавий усул ва ёндашувлар. Халқ сўзи газетаси. 20 Февраль 2016.

emas. Birinchi navbatda, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, innovatsion mahsulotlarni yaratish orqali raqobatdoshlikni ta'minlash, tarkibiy o'zgarishlarni talab etadi. Bu jarayonlar albatta ishdagi unum va samarani, natijaviylikdagi ijobiylikni ta'minlashning muhim garovi hisoblanadi. Ishdagi unum va samara, natijaviylikda ijobiy o'zgarishlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini keng qamrovli va tizimli shaklda doimiy o'rganishni, baholash va tahlil qilishni talab etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati, uni yo'lga qo'yishdagi kafolatlangan erkinliklari hamda ma'lum bir dastaklar asosida tartiblanuvchi birliklari doimo tahliliy yechimlar asosida boshqarib boriladi. Xuddi shu boshqaruv oddiydan murakkabga, maydadan yirikka, sabab-oqibat bog'lanishlaridagi iqtisodiy, moliyaviy tahlilni yo'lga qo'yishni talab etadi.

Har bitta fan obyektiv zaruriyat tufayli paydo bo'lishi va oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etishi, moddiy va nomoddiy olamdagi savollarning aniq yechimini berishi, hayot va uni go'zalligini ta'minlashning muhim vositasiga aylanishida tobora rivojlanib borishini hisobga oladigan bo'lsak, iqtisodiy, moliyaviy tahlil fanining ham tashkil topganiga bir necha asrdan oshganligini qayd etish lozim.

Fan shakllanishining ilk ko'rinishlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Jumladan uning ilk manbalari Konfutsiylik ta'limotiga, Qadimgi Gretsiyadagi Ksenofot, Aristotel, Qadimgi Rimdagi Varroon, Sanekalar tomonidan yozib qoldirilgan manbalarga borib taqaladi.

O'rta asrlarda tahlilga oid manbalarni iqtisodiy nazariya fanining tarkibida makro va mikro iqtisodiy tahlil yechimlaridan foydalanilganligini ko'rish mumkin (Antuan Monkret, U.Petti, D.Rikardo, A.Smit, S.Sismondi va boshqalar).

Zamonaviy iqtisodiy tahlil fanining vujudga kelishini va rivojlanishini olimlar ko'pincha buxgalteriya hisobi, nazorat, audit fanlarining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'lashadi.

Fanning rivojlanishida xorijlik olimlardan: I.Arinushkin, M.I.Bakanov, L.E.Basovskiy, D.Bliss, B.Barngolts, M.A.Baxrushina,

V.V.Bocharov, S.Yu.Buevich, O.N.Volkov, R.Ya.Veytsman, N.V.Voytolovskiy, N.R.Veytsman, L.T.Gilyarovskaya, A.I.Gingzburg, P.Gerstnera, L.V.Dontsova, D.A.Endovitskiy, O.V.Efimova, B.T.Jarilgasov, I.I.Karakoz, V.E.Kerimov, V.V.Kovalev, L.I.Kravchenko, V.G.Kogdenko, A.Ya.Lokshin, N.P.Lyubushin, E.I.Maydanchik, A.Sh.Margulis, M.V.Melnik, A.I.Muravev, E.V.Negashev, N.A.Nikiforova, A.Yu.Petrov, V.I.Petrova, G.V.Savitskaya, S.K.Tatur, V.I.Sambrovskiy, A.I.Sumtsova, A.Ya.Usachev, I.Sher, A.E.Xorin, P.N.Xudyakov, A.D.Sheremet, I.A.Sholomovich, O‘zbekistonlik olimlardan N.A.Xan, S.X.Abdulyatipov, I.T.Abdukarimov, Yo.Abdullayev, A.T.Ibragimov, A.V.Vaxobov, M.Q.Pardayev, M.Yu.Raximov, A.Usanov, N.F.Ishonqulov, B.J.Xakimov, A.A.Abdug‘aniyev, U.A.Nurmanov, G.A.Ibragimov, U.Q.Yaqubov, Z.A.Sagdillayeva, T.Sh.Shog‘iyasov, S.Shoalimov, B.Isroilov, Yu.S.Sattarov, R.Ko‘chqorov, D.Q.Qudbiyev, I.O.Voljin, V.V.Ergashbayev, Z.N.Qurbonov va Sh.U.Xaydarovlarning hissalari kattadir. Tahlil fanining rivojlanishida ayniqsa Toshkent va Samarqand maktabi vakillarining hissasi alohida e’tirof etiladi.

1.2-jadval

Moliyaviy tahlil fanining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyot jarayonida atalgan nomlari[5]

Nomlanishi	Izoh
Balansshunoslik	Balans ma’lumotlarini o‘rganganligi sababli
Balans talqini	Ko‘rsatkichlarning davriy o‘zgarishlariga baho berish zaruriyati tufayli
Balansni tahlil qilish	Davriy o‘zgarishlarda erishilgan natijalar yoki boy berilgan imkoniyatlarga qarab kelajakni baholash zaruriyatining paydo bo‘lishi bilan
Hisobot tahlili	Moliyaviy hisobot shakllarining sonini ko‘payishi va ularda aks etuvchi elementlarni baholash zaruriyati tufayli
Iqtisodiy tahlil	Barcha iqtisodiy o‘zgarishlarga bo‘lgan talabning kuchayishi bilan
Sotsial-iqtisodiy tahlil	O‘rganiladigan masalalar ko‘lamining faqat iqtisodiy jihatlarini emas, balki ijtimoiy jihatlarini

[5] Муаллифлар томонидан мустақил тузилган

	ham o'rganishga zaruriyatning paydo bo'lishi bilan
Xo'jalik faoliyati tahlili	Xo'jalik faoliyatining barcha qirralarini qamrab olinishiga bo'lgan talab tufayli
Moliyaviy va boshqaruv tahlili	Buxgalteriya hisobining moliyaviy va boshqaruv hisobi tarkiblanishiga uyg'unlikda
Moliyaviy tahlil, Moliyaviy hisobot tahlili	Rivojlangan davlatlarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlar tizimiga uyg'unlikda

Buxgalteriya hisobi, auditning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi ham iqtisodiy, moliyaviy tahlil fanining paydo bo'lishiga muhim turtki bo'ldi deyish mumkin.

Uning shakllanishi va rivojlanishiga oid manbalarda italyan matematigi Luka Pochiolining "Schyotlar va yozuvlar haqidagi traktati" alohida o'rin tutadi.

Tahlil fanining fan sifatida shakllanganligiga uncha ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Unga doir chop etilgan fundamental manbalar XX asrning 20–30-yillariga kelibgina chop etila boshlandi.

Fanlarning yuzaga kelishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Dunyoni bilish nazariyasini iqtisodiyotga bog'langan so'rovlarini hal etishda muhim vosita hisoblangan tahlil nafaqat aniq fan sifatida balki barcha fanlarga metodologik asos sifatida ham qaraladi.

Tahlil fanining predmetiga keng ma'noda e'tibor beradigan bo'lsak, u tahlil qilinayotgan obyekt (firma, kompaniya, konsernlar)ning butun xo'jalik faoliyatidir. Tahlil fani xo'jalik faoliyatida nafaqat sodir bo'lgan, balki bo'layotgan va kelgusida bo'ladigan jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan ushbu fan boshqa fanlardan tubdan farq qiladi.

Tahlil fanining predmetiga manbalarda berilgan ta'riflar shu darajada ko'p bo'lishiga qaramasdan ularning barchasini bir mazmunda tushunish mumkin. Bu mazmun, jarayonlarning doiraviyligi, faoliyat natijalarining manbalarda ifoda etilganligi, ko'rsatkichlar tizimida baholanishi, sabab-oqibat bog'lanishlari, ichki va tashqi omillar ta'sirida o'rganishning yagonaligi bilan izohlanadi.

Tahlil fanining predmeti – turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini, uning samaradorligi va natijaviyligini ko'rsatkichlar tizimida, uzviylik va

aloqadorlikda, omillarga bog'liq ravishda turli axborot manbalaridan foydalangan holda davriy o'rganishga aytiladi.

Moliyaviy-xo'jalik faoliyati:

- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar) hajmining, quvvatlardan foydalanish darajasining, resurslar naqdligi va ulardan samarali foydalanishni, xodimlarning tarkibi va mehnat unumining, mahsulot tannarxining, foyda hajmi va rentabellik darajasining, moliyaviy holatning murakkab tuzilmasidir;

- tashkil topishdan likvidlik jarayonigacha bo'lgan davrda korxonani iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning resurslar bazasini shakllantirish va ulardan foydalanishning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir;

- xo'jalik yurituvchi subyekt nazorat qilib turadigan iqtisodiy resurslar, uning moliyaviy tuzilmasi, likvidligi, to'lovga qobiliyati, ishlayotgan muhit o'zgarishlariga munosabat bildira olishidagi keng qamrovli faoliyatdir.

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatining tahlili – xo'jalik yurituvchi subyektning kelgusida pul mablag'larini va ularning ekvivalentini ko'paytirish imkoniyatini, moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida to'lay olishi, kreditlarga bo'lgan ehtiyojni, daromadlar bilan pul oqimlarini oqilona taqsimlashni, iqtisodiy resurslardagi potensial o'zgarishlarni baholashni, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyekt keyinchalik o'zining moliyaviy ahvolini qanchalik muvaffaqiyat bilan yaxshilay olishini baholashning muhim usulidir.

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatining tuzilmaviy ko'rinishi quyidagi bog'lanishlarda ifoda etiladi.

1.3-jadval

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil etishning siklik jarayoni

1	Resurs-lar tahlili	Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tahlili	Ishlab chiqarish va sotishni tahlili	Moli-yaviy natija tahlili	Likvid-lik tahlili	To'lov layoqati tahlili	Moli-yaviy holat tahlili
2	...	...	...	...	...	...	...
3	...	...	...	...	...	...	...

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil etishning asosiy maqsadi – xo'jalik subyektining muhim (axborot beruvchi) ko'rsatkichlari orqali faoliyat natijaviyligiga, foyda va zararlarga, pul mablag'lari oqimiga va moliyaviy holatiga obyektiv baho berish, yo'l qo'yilgan xato, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali uni kelgusida yanada yaxshilash choralarini ko'rishdan iborat.

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatni tahlil etishda faoliyat samaradorligi va natijaviyligiga ta'sir etuvchi omillarga alohida ahamiyat qaratiladi. Ularni obyektiv va subyektiv omillarga tarkiblash mumkin.

Subyektiv (ichki) omillar deyilganda korxonalarning amaliy faoliyati bevosita bog'liqlikda yuqori samaradorlikka va natijaviylikka erishish mumkin bo'lgan omillar kiradi. Bunday ta'sir birliklariga mehnatni to'g'ri tashkil etish, rag'batlantirish, moddiy resurslardan tejab foydalanish, xarajatlarni iqtisod qilish, quvvatlardan foydalanish, to'lovlar intizomiga rioya qilishning o'ziga bog'liq bo'lgan jihatlari kiradi.

Obyektiv (tashqi) omillar deyilganda, korxona faoliyatiga mutlaqo bog'liq bo'lmagan omillar tushuniladi, ya'ni davlat siyosatining o'zgarib turishi, bozordagi talab-taklifning o'zgarishi, inflyatsiya va hokazo jihatlar.

Axborot manbalardan foydalangan holda o'rganish deganda moliyaviy-xo'jalik faoliyatining aniq o'lchangan, jamlangan, umumlashtirilgan hisobot holiga keltirilgan axborotlardan, shuningdek hisobdan tashqari (rejalar, normalar va h.k.) turli manbalardan foydalangan holda o'rganish tushuniladi.

Davriy o'rganish deganda uni axborot manbalarining tahliliyligida operativ, joriy va istiqbolli o'rganishning zaruriyati nazarda tutiladi.

Fanning predmeti bilan bir qatorda uning obyektiga ham alohida ahamiyat qaratiladi. **Tahlil fanining obyekti** turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar va ularning tarkibiy bo'g'inlari (bo'lim, sex, brigadalar) faoliyati, iqtisodiy natijalari, mulkiy-moliyaviy holati, ishlab chiqarish, ta'minot, sotish, moliyaviy faoliyati hisoblanadi.

1.4-jadval

Moliyaviy tahlil fanining predmeti va obyekti

Ko'rsatkichlar	Ta'rifi	Tasnifi
Tahlil predmeti	Turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini, uning samaradorligi va natijaviyligini ko'rsatkichlar tizimida, uzviylik va aloqadorlikda, omillarga bog'liq ravishda turli axborot manbalaridan foydalangan holda davriy o'rganish	Iqtisodiy o'zgarishlarni ochib berish
		Erishilgan natijalarga to'g'ri baho berish
		Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash
		Reja va boshqaruv qarorlarini asoslash
Tahlil obyekti	Turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar va ularning tarkibiy bo'g'inlari (bo'lim, sex, brigadalar) faoliyati, iqtisodiy natijalari, mulkiy-moliyaviy holati, ishlab chiqarish, ta'minot, sotish, moliyaviy faoliyati hisoblanadi	Mahsulot ishlab chiqarish va sotish
		Resurslardan foydalanish
		Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi
		Moliyaviy natijalar va moliyaviy holat

Korxonaning moliyaviy holati iqtisodiy kategoriya sifatida xo'jalik subyektining o'z faoliyatini yuritish, rivojlantirish va o'z-o'zini moliyalashtirish imkoniyatlari yuzasidan kapitalning holatini ifodalaydi. Ya'ni xo'jalik subyektining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish darajasini, ularning maqsadli joylashtirilishi va samarali foydalanish darajasini, boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan moliyaviy munosabatlarni, to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorlik holatini tavsiflashni ifodalaydi.

Moliyaviy tahlil etish orqali xo'jalik subyektining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va uni o'stirish imkoniyatlarini baholashda, korxona ishlab chiqarish, tijorat va moliya faoliyatidan moliyaviy resurslarning kirimiga va ulardan moliyaviy holatni o'stirishda foydalanish darajalariga, moliyaviy natijalarni kutilishini prognozlash va iqtisodiy rentabellikni xo'jalik faoliyatining real imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda oshirishning yo'llarini belgilashga, moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanishning chora-tadbirlarini belgilashga ahamiyat qaratiladi.

Moliyaviy raqobatdoshlikka va to‘g‘ri moliyaviy siyosatni yuritishga korxona foydasini maksimallashtirish, kapital tarkibini optimallashtirish va uning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, mulkdorlar (qatnashchilar, ta’sischilar), investorlar va kreditorlar uchun moliyaviy holatning jozibadorligini oshirish, korxona boshqaruvi yuzasidan samarali mexanizmni shakllantirish, shuningdek, moliyaviy resurslarni jalb etishda bozor mexanizmining barcha imkoniyatlaridan foydalanish orqali erishish mumkin.

Moliyaviy tahlil oldiga qo‘yiladigan **asosiy vazifalar**:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yaqin va uzoq davriylikdagi reja, prognoz ko‘rsatkichlarini (ilmiy, iqtisodiy jihatdan) asoslash;
- reja va prognoz ko‘rsatkichlarining bajarilishiga, natijaga erishish yuzasidan ularning ta’sirchanligiga baho berish;
- xo‘jalik yurituvchi subyekt nazorat qilib turadigan iqtisodiy resurslarga, ularning samaradorligiga baho berish;
- faoliyatning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga, erishilgan natijalariga baho berish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning pul mablag‘larini ko‘paytirish, ularning ko‘payish vaqtini hisob-kitob qilish va natijaga erishishga umid qilishdagi qobiliyatini baholash;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning likvidligi, to‘lovga qobiliyati, ishlayotgan muhit o‘zgarishlariga munosabat bildira olishini moliyaviy holatga ta’sirini baholash.
- iqtisodiy natijaviylikni o‘stirish, faoliyatning tijorat hisobdorligi, daromadlarni orttirish va moliyaviy holatni yaxshilash yuzasidan ichki imkoniyatlarini aniqlash va ularni yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlarini belgilash;
- belgilangan chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirishdan iborat.

Moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil etishda fanning muhim prinsiplari sifatida quyidagilar tarkiblanadi. Mazkur tamoyillar mikro ko‘lamdagi tahlilning barcha turlariga xosdir.

1.5-jadval

Tahlil tamoyillari

Tamoyillar	Tasnifi
Davlat manfaati nuqtayi nazaridan yondashish tamoyili	Iqtisodiy hodisalarni, xo'jalik jarayonlari natijalarini baholashda davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va xalqaro siyosatlarini va qonunchiliklarini inobatga olish lozimligini tasniflaydi
Ilmiylik	Dialektik bilish nazariyasiga asoslanishi, ishlab chiqarishni rivojlantirishning iqtisodiy qonunlari talablarini hisobga olishi, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini, ilg'or tajribalarni va iqtisodiy tadqiqotning eng yangi usullarini hisobga olishi lozim
Tizimlilik	O'rganilayotgan obyekt murakkab dinamik tizim va u bir qator mayda unsurlardan va ularning o'zaro bog'lanishidan tashkil topgan deb qaralishi lozim
Kopmlekslik	Tahlil qilinayotgan obyektning barcha birliklari, bo'g'inlari va tomonlarini hisobga olish hamda ularning o'zaro bog'liqliklarini atroflicha o'rganishni taqozo qiladi
Obyektivlik, aniqlik va ishonchlilik	Haqiqatni aks ettiradigan ishonchli va tasdiqlangan tahlil ishonchli, tekshirilgan va real voqelikni aks ettiruvchi ma'lumotlarga asoslanishi zarur. Faqat shundagina tahlil natijalari talabga javob beradi. Shu sababli ham korxonada doimo hisob, nazorat (audit) takomillashtirib borilishi talab etiladi
Ta'sirchanlik	Tahlil ishlab chiqarish jarayonlarining borishiga uning natijalariga bevosita aralashishi, rezervlarni, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni qidirib topishga bevosita ta'sir ko'rsatishi lozimligini ifoda etadi
Rejalilik	Bu tamoyilga muvofiq korxonalarda amalga oshiriladigan analitik ishlar rejalashtirilishi, uni bajaruvchilar o'rtasida taqsimlanishi va nazorat qilib borilishi lozimligini ifoda etadi
Samaradorlik	Tahlilni o'tkazish uchun ketgan sarf-xarajatlar bir necha barobar qoplanishi kerakligini ifoda etadi
Operativlik	Bu tamoyil iqtisodiy tahlilni o'tkazish, qarorlar qabul qilish va ularni amaliyotga joriy qilishda aniq va tezkorlikni taqozo qiladi
Demokratik	Tahlilni o'tkazishga korxonaning keng jamoatchiligini jalb qilish va tahlil natijalarini muhokama qilishda keng jamoatchilik ishtirokini taqozo qiladi

Tahlil so‘zi *grekcha* “analyzis” so‘zini o‘zbek tilidagi tarjimasi bo‘lib, u **“bo‘laman”** yoki **“ajrataman”** degan ma’noni bildiradi. Demak, tahlil deganda, tor ma’noda butunni qismlarga (unsurlarga) ajratish, bo‘laklarga bo‘lish yo‘li bilan uning tarkibiy qismini o‘rganish tushiniladi.

“Tahlil” deganda o‘zi nimani tushunamiz? Tahlil o‘zi nimani o‘rganadi yoki o‘rgatadi? Tahlil bu fanmi yoki metodmi? Bunday savollarni biz juda ko‘p uchratamiz.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, real voqelikda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni o‘rganishda faqat tahlilni o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Inson tafakkuriga mos keluvchi boshqa usullardan ham foydalanishga zaruriyat tug‘iladi. Shu jihatda tahlilga muqobillikda “sintez” usuli ham tarkiblanib, uning yordamida o‘rganilayotgan to‘plamning ayrim birliklari orasidagi aloqalar va o‘zaro bog‘liqliklari aniqlanadi.

“Sintez” atamasi ham grekcha “syntezis” so‘zidan olingan bo‘lib, “birlashtiraman”, “qo‘shaman” degan ma’noni bildiradi.

Shunday qilib, tahlil deganda, keng ma’noda butunni tarkibiy qismlarga ajratish va ularni barcha o‘zaro aloqalari hamda bog‘liqliklarini o‘rganishga asoslangan atrof-muhitdagi hodisa va predmetlarni bilish usuli tushiniladi.

Ma’lumki, tahlil tushunchasi juda keng ma’noga ega bo‘lib, u turli soha va yo‘nalishlarda qo‘llaniladi. Fan va amaliyotda tahlilni juda ko‘p turlarini uchratish mumkin: iqtisodiy, moliyaviy, ximiyaviy, fizik, matematik, statistik va h.k. Ular albatta bir-biridan o‘rganayotgan obyektlari, maqsadlari va o‘rganish uslublari bilan farq qiladi.

Iqtisodiy jarayonlarni, ularning o‘zgarish tendensiyalarini, rivojlanishi va taraqqiyotini mavhum-mantiqiy tekshirish usullari orqaligina anglash mumkin. Bu borada mikroskoplardan, ximiyaviy reaktivlardan, o‘lchov vositalaridan foydalanib bo‘lmaydi.

1.3. Moliyaviy tahlil fanining metodi va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Metod juda keng ma’no va tushunchaga ega. Fanning metodi obyektni o‘rganish usullari, vositalari, yo‘llarini ifodalaydi. Metod grekcha “metodos” so‘zidan olingan va “o‘rganish yo‘li, usuli” degan ma’noni anglatadi.

Metod deganda voqelikda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni o‘rganishga yondashish usuli tushuniladi. Tahlil va sintez umum dialektik o‘rganishning, ilmiy usuli sifatida qaraladi. Uning o‘ziga xos xususiyati shuki, ushbu usul o‘zaro bog‘liqlik, aloqadorlikda o‘rganishni ifodalaydi.

Tahlil fanining (uning mikro ko‘lamdagi barcha turlariga nisbatan) metodini aniqlash ham uning predmetini belgilashdagi kabi juda tortishuvli masalaga aylangan va bu borada hozirgacha yagona fikrga kelingani yo‘q.

Juda ko‘p olimlar N.R.Veytsman, M.Rubinov, P.I.Savichev, V.V.Osmolovskiy, V.A.Beloborodov, S.B.Borngolts, M.I.Bakanov, A.D.Sheremet, N.A.Xan, A.V.Vaxobov, A.T.Ibragimov, N.P.Ishonqulov, M.Q.Pardayev va M.Yu.Raximovlar tomonidan tahlil fanining metodlariga turlicha ta’riflar berilgan[6]. Lekin ularning barchasi bir-biriga yaqin va qarama-qarshiliklardan holi bo‘lgan ta’riflardir.

Moliyaviy tahlil fanining metodi – xo‘jalik subyektlarining xo‘jalik jarayonlarini o‘rganishga dialektik yondashgan holda, turli axborot manbalarida aks ettirilgan ko‘rsatkichlar tizimini maxsus usullar yordamida qayta ishlash yo‘li bilan ularning o‘zgarish tendensiyalarini,

---

[6] Вейцман Н.Р.Очерки по бухгалтерскому учету и анализу М.Госфиниздат,1958,с.112-113, Рубинов М. Основы экономического анализа работы предприятий М.Госфиниздат, 1962,с.13, Хан Н.А. Қишлоқ хўжалик корхоналари хўжалик фаолиятининг анализи, Тошкент, Ўкитувчи,1978 12 б., Савичев П.И.Экономический анализ орудие выявления внутрихозяйственных резервов М.,Финансы,1968,с.17, Теория АХД Под.ред. В.В.Осмоловского, Минск Вышейшая школа,1989 с.49, Анализ хозяйственной деятельности Под.ред. В.А.Белобородовой М., Финансы и статистика, 1985,с.17, Экономический анализ хозяйственной деятельности предприятий и объеденений. Под.ред. С.Б.Боригольц и Г.М.Тация. М.,Финансы и статистика,1986 с.21, Баканов М.И.,Шеремет А.Д., Теория экономического анализа. М. Финан сы и статистика, 1997 с.44, Вахабов А.В. ва бошқалар Молиявий ва бошқарув таҳлили. Т.:Иқтисод –молия, 2013 йил.47-б. М.Қ.Пардаев Иқтисодий таҳлил. Т.:2017 24б. Ё.Абдуллаев , А.Ибрагимов,М.Рахимов Иқтисодий таҳлил Т.: Меҳнат 2001.34 б.

sabablarini aniqlash, ular orasidagi o'zaro bog'liqliklarni tizimli, kompleks o'rganish, o'lchash va umumlashtirishdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, tahlilning har bir turiga o'zining uslubi to'g'ri keladi. Uslub deganda u yoki bu ishni bajarishning usullari, maqsadga muvofiq qoidalari majmui tushuniladi.

Moliyaviy tahlil uslubi deganda moliyaviy-xo'jalik faoliyatni analitik tadqiq qilishning usullari va tartiblari tushuniladi.

Tahlil uslubini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: umumiy va xususiy uslublarga.

Umumiy uslub – barcha tahlil turlari va turli fanlar doirasida qo'llaniladigan, fan obyektlarini o'rganishda bir xilda foydalanadigan usullar va tartiblar tizimidir.

Xususiy uslub – faqat shu fanning o'ziga tegishli bo'lgan, tadqiqot obyektiga qarab tanlanadigan usullar va tartiblar tizimidir.

Moliyaviy tahlilni o'tkazish, albatta uning tartibini aniqlab olishni taqozo qiladi. Mazkur tartiblarni quyidagi bosqichlarda tasniflash mumkin.

1.6-jadval

Moliyaviy tahlil bosqichlari

1-bosqich	Tahlilning obyekti, maqsadi va vazifalari belgilab olinadi, tahlil rejasi tuziladi
2-bosqich	Tahlil obyektini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar tanlanadi, tartiblanadi va tizimlashtiriladi
3-bosqich	Tahlil uchun zarur bo'lgan axborotlar yig'iladi va tayyorlanadi (ishonchliligi tekshiriladi, taqqoslanma ko'rinishga keltiriladi)
4-bosqich	Xo'jalik faoliyatining natijalari reja, o'tgan yil, ilg'or korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi
5-bosqich	Omilli tahlil o'tkaziladi va natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi birliklar hisob-kitob qilinadi
6-bosqich	Faoliyat samaradorligini oshirishda foydalanilmayotgan va istiqboldagi imkoniyatlar aniqlanadi
7-bosqich	Turli omillar ta'sirini, aniqlangan va ishlatilmayotgan imkoniyatlarni hisobga olib, xo'jalik faoliyatini baholash amalga oshiriladi va aniq chora-tadbirlar belgilanadi

1.4. Tahlil metodining o'ziga xos xususiyatlari, uning boshqa fanlardan farqli jihatlari nimalardan iborat?

Moliyaviy tahlil metodining muhim xususiyati shundaki, unda faqat o'zgarish, rivojlanishning o'zigina emas, balki uning sabab-oqibat bog'lanishlari ham o'rganiladi. Ko'rsatkichlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklarni aniqlashga muhim ahamiyat qaratiladi.

Moliyaviy tahlil metodining yana bir muhim xususiyati shundaki, ko'rsatkichning nafaqat sabab-oqibat bog'lanishlaridagi natijalari balki ularning kelgusidagi kutilishlarini prognozlash imkoni ham tug'iladi. Ya'ni, moliyaviy tahlilda nafaqat real holat, balki uning kutilayotgan natijalari haqida ham ogoh bo'linadi.

Moliyaviy tahlil metodining yana bir o'ziga xos tomoni o'rganilayotgan ko'rsatkichlarni o'zaro ta'sirini va bog'liqligini aniq hisoblab ko'rsatib berishdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tahlil metodining muhim xususiyati o'rganiladigan muayyan iqtisodiy ko'rsatkich alohida tarzda, boshqa omillardan ajratilgan holda tahlil qilinmaydi. Ularning o'zaro bog'liqligi doimo e'tiborda tutiladi.

Tahlilning usullari to'g'ri tanlansa, ulardan ilmiy, ijodiy foydalanilsa, tahlil muvaffaqiyatli chiqadi. Bu esa o'rganilayotgan obyektga dialektik yondashuvni talab etadi.

Tahlil qilishda dialektik usuldan foydalanish, korxona xo'jalik faoliyatini o'rganib chiqishda barcha bog'liq tomonlarini hisobga olinishini talab etadi.

Moliyaviy tahlilning o'ziga xos xususiyatlarida moliyaviy analitiklar quyidagi muhim jihatlarga ahamiyat berishlari lozim:

- operatsion jarayonning tashkil etilishiga;
- naqd mablag'larning harakatiga;
- boshqaruvning maqsadliligiga;
- tarmoq risklarini baholashga;
- bozorni o'rganishga;
- faoliyat ko'lamini o'rganishga;

- yuridik maqomini o‘rganishga.

1.5. Moliyaviy tahlilda qo‘llaniladigan usullar: an’anaviy (taqqoslash, balans, o‘rtacha miqdorlar, zanjirli almashtirish, indeks, farqli, nisbiy ko‘rsatkichli kabi) va iqtisodiy matematik (integral, chiziqli va chiziqsiz dasturlash, nazariy o‘yin, korrelyatsiya va regretsiya, determinant, logarifm kabi) usullar.

Tahlilning asosiy (umumiy) usullari sifatida quyidagilarni tarkiblash lozim.

Taqqoslash usuli.

Taqqoslash – tahlilda eng ko‘p qo‘llaniladigan usul hisoblanadi. Uning gorizontal, vertikal, trendli usullari tarkiblanadi.

Amalda taqqoslashning muhim shartlariga amal etish talab etiladi. Ular qatoriga o‘lchov birligi (hajm, qiymat, miqdor ko‘rsatkichlar), davriy oraliqlari, faoliyat shakli, ishlab chiqarish sharoitlari, ishbilarmonlik muhiti bir xilligi, hisob-kitoblarning metodik jihatdan yagonaligini kiritish mumkin.

Taqqoslashning mazmuni – qiyoslashdan iborat. Taqqoslash asosida o‘rganilayotgan obyektdagi o‘zgarishlar, ularning rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlari o‘rganiladi.

Qiyosiy tahlil quyidagi turlarga ajratib o‘rganiladi: gorizontal, vertikal, trend va shuningdek bir o‘lchamli va ko‘p o‘lchamli tahlillar.

Gorizontal tahlil tayanch (bazaviy) ko‘rsatkichi (reja, o‘tgan yil, o‘rtacha, ilg‘or xo‘jaliklar ko‘rsatkichi)dan haqiqiy ko‘rsatkichning mutlaq va nisbiy o‘zgarishlarini aniqlash va baholash uchun qo‘llaniladi.

Vertikal tahlil iqtisodiy hodisalar tuzilmasini o‘rganish maqsadida uning alohida qismlarini jamidagi salmog‘ini hisoblash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Trend tahlili ko‘rsatkichlarni bir qator yillar mobaynida nisbiy miqdorlarda o‘sish va qo‘shimcha o‘sish sur’atlarini o‘rganishda qo‘llanadi.

Bir o'lchamli tahlilda taqqoslash bir obyektning bitta yoki bir nechta ko'rsatkichlarini, yoki bir nechta obyektni bitta ko'rsatkichini taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ko'p o'lchamli tahlilda bir nechta korxonalarni katta spektrdagi ko'rsatkichlari taqqoslab o'rganiladi. Bu tahlil korxonalar va ularning bo'linmalari faoliyatini kompleks baholashda keng qo'llaniladi.

Taqqoslashda real voqelikning, haqiqatdagi ko'rsatkichlarning reja, o'tgan yillar, bazis yili, o'rtacha tarmoq, ilg'or, qoloq, xorij ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishlariga, ularning dinamikasiga, mutlaq va nisbiy ifodalarda baho beriladi.

1.7-jadval

Taqqoslash usulida mahsulot (ish va xizmatlar) sotish hajmi o'zgarishini tahlil etish metodikasi

Taqqoslash birligi	Ko'rsat-kichning mutlaq o'zgarishi	Ko'rsatkich-ning nisbiy o'zgarishi, %	Ko'rsatkich indeksi	Bir foizli o'zgarishning mutlaq ifodasi
Rejaga nisbatan ($\sum q_r p_r$)	$\sum q_h p_h - \sum q_r p_r$	$\sum q_h p_h / \sum q_r p_r * 100-100$	$\sum q_h p_h / \sum q_r p_r$	$\sum \Delta qp\% * \sum q_r p_r$
O'tgan yilga ($\sum q_{o'} p_{o'}$)	$\sum q_h p_h - \sum q_{o'} p_{o'}$	$\sum q_h p_h / \sum q_{o'} p_{o'} * 100-100$	$\sum q_h p_h / \sum q_{o'} p_{o'}$	$\sum \Delta qp\% * \sum q_{o'} p_{o'}$
Bazis yiliga nisbatan ($\sum q_b p_b$)	$\sum q_h p_h - \sum q_b p_b$	$\sum q_h p_h / \sum q_b p_b * 100-100$	$\sum q_h p_h / \sum q_b p_b$	$\sum \Delta qp\% * \sum q_b p_b$
O'rtacha tarmoq ko'rsatkichga nisbatan ($\sum q_t p_t$)	$\sum q_h p_h - \sum q_t p_t$	$\sum q_h p_h / \sum q_t p_t * 100-100$	$\sum q_h p_h / \sum q_t p_t$	$\sum \Delta qp\% * \sum q_t p_t$
Ilg'or ko'rsatkichga nisbatan ($\sum q_i p_i$)	$\sum q_h p_h - \sum q_i p_i$	$\sum q_h p_h / \sum q_i p_i * 100-100$	$\sum q_h p_h / \sum q_i p_i$	$\sum \Delta qp\% * \sum q_i p_i$
Qoloq ko'rsatkichga nisbatan ($\sum q_q p_q$)	$\sum q_h p_h - \sum q_q p_q$	$\sum q_h p_h / \sum q_q p_q * 100-100$	$\sum q_h p_h / \sum q_q p_q$	$\sum \Delta qp\% * \sum q_q p_q$
Xorij ko'rsat kichiga nisbatan ($\sum q_x p_x$)	$\sum q_h p_h - \sum q_x p_x$	$\sum q_h p_h / \sum q_x p_x * 100-100$	$\sum q_h p_h / \sum q_x p_x$	$\sum \Delta qp\% * \sum q_x p_x$

1.8-jadval

Mahsulot sifati bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishi tahlili

Choraklar	Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushum, mln so'm		Haqiqatdagi darajaning rejadan farqi	Reja bajarilishi, %
	Reja	Haqiqat		
1	22 500	21 600	-900 (21600-22500)	96 (21600/22500)
2	20 200	20 800	+600	102.9
3	28 000	28 200	+200	107.1
4	27 000	26 300	-700	97.4
Jami	**97 700**	**96900**	**-800**	**99.18**

Korxona mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum rejaga qiyosan 800 mln so'mga kam bo'lgan. Bu esa mahsulot (ish, xizmat)larni sotish rejasi 99.18 foizga bajarildi degani. Choraklar bo'yicha birinchi va to'rtinchi choraklar bo'yicha tushum rejasi bajarilmagan. Ikkinchi va uchinchi choraklar bo'yicha reja nisbiy ifodada 102.9 va 107.1 foizga bajarilgan.

Iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan hodisa va jarayonlar miqdoriy o'lchamga ega bo'lib, ular mutlaq va nisbiy miqdorlar bilan ifodalanadi.

Mutlaq miqdorlar iqtisodiy hodisa va jarayonlarni hajmi, miqdori, o'lchami va darajasini ifodalaydi.

Nisbiy miqdorlar bir mutlaq miqdorni ikkinchi mutlaq miqdorga bo'lish natijasida olingan hosilani ifodalaydi. Nisbiy miqdorlar turli shaklda: koeffitsiyentlarda (taqqoslash bazasi 1), foizlarda (taqqoslash bazasi 100), promillarda (taqqoslash bazasi 1000) va promillarda (taqqoslash bazasi 10000) ifodalanishi mumkin.

Tahlil jarayonida nisbiy miqdorlarning quyidagi turlari keng qo'llanadi: reja vazifalarining nisbiy miqdorlari; rejani bajarishning nisbiy miqdorlari; dinamika nisbiy miqdorlari; tuzilmaviy nisbiy miqdorlar; koordinatsiya nisbiy miqdorlari; intensiv nisbiy miqdorlar; obyektlararo va hududiy taqqoslash nisbiy miqdorlari; samaradorlik nisbiy miqdorlari.

1.9-jadval

Nisbiy miqdorlarning turlari, ifodasi va ularning tasnifi

Taqqoslash turlari	Taqqoslashning nisbiy ifodasi	Tasnifi
Reja vazifalari nisbiy miqdorlari	$K_{rv}=K_{jr}/K_{o'y}$	Joriy yil reja ko'rsatkichini (K_{jr}) o'tgan yil yoki o'tgan yillarning o'rtacha ko'rsatkichlariga ($K_{o'y}$) nisbati
Rejani bajarishning nisbiy miqdorlari	$K_{rb}=K_h/K_r$	Haqiqatda erishgan daraja (K_h) bilan reja ko'rsatkichlari (K_r) nisbati
Dinamika nisbiy miqdorlari	$K_{dn}=K_b/K_{bv}$	Iqtisodiy ko'rsatkichlarni (K_b), (K_{bv}) vaqt ichida nisbiy o'zgarishini tavsiflaydi
Tuzilmaviy nisbiy miqdorlar	$K_{tn}=K_{ab}/K_{uh}$	O'rganilayotgan to'plamning ayrim birliklarini (K_{ab}) uning umumiy hajmiga (K_{uh}) nisbati
Koordinatsiya nisbiy miqdorlari	$K_{kn}=K_{ab}/K_{bb}$	To'plam ichidagi ayrim birliklarni (K_{ab}, K_{bb}) o'zaro nisbatlarini tavsiflaydi
Intensiv nisbiy miqdorlar	$K_{in}=K_{sm}/K_{tm}$	Turli nomdagi lekin o'zaro bog'langan ko'rsatkichlarni (K_{sm}, K_{tm}) o'zaro nisbati
Obyektlararo va hududiy taqqoslash	$K_{oh}=K_{xk}/K_{bxk}$ $K_{oh}=X_o/R_{bo}$	Nisbiy miqdorlari bir xil nomdagi lekin turli obyekt yoki hududlarga taalluqli bo'lgan ko'rsatkichlarni(K_{xk}, K_{bxk}), (X_o, R_{bo}) o'zaro nisbatini tavsiflaydi.
Samaradorlik nisbiy miqdorlari	$K_{sn}=K_s/K_r$	Samara (K_s) va resurs (K_r) yoki xarajatlar orasidagi nisbatni tavsiflaydi

O'rtacha miqdorlar.

Mutlaq va nisbiy miqdorlarning hodisa va jarayonlarni o'rganish, baholash va tahlil etishdagi ustunliklari, ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, ularning qator kamchiliklari ham mavjud. Ya'ni ular

o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarga umumlashtirib ta’rif bera olmaydi. Bu vazifani o‘rtacha miqdorlar bajaradi.

O‘rtacha miqdorlardan rejalashtirish, boshqarish, ilmiy-tadqiqot ishlarida keng qo‘llaniladi.

O‘rtacha miqdorlar deb, bir xildagi va bir turdagi hodisalarni o‘zgaruvchan belgilari asosida umumlashtirib xarakterlovchi, ta’riflovchi miqdorlarga aytiladi.

Moliyaviy tahlil jarayonida o‘rtacha miqdorlarning qator turlaridan foydalaniladi: o‘rtacha arifmetik miqdorlar; o‘rtacha garmonik miqdorlar; o‘rtacha geometrik miqdorlar; o‘rtacha xronologik miqdorlar; o‘rtacha kvadratik miqdorlar.

O‘rtacha miqdorlarning sodda va amaliyotda keng qo‘llaniladigan turi bu o‘rtacha arifmetik miqdordir. O‘rtacha arifmetik miqdor o‘z navbatida oddiy va tortilgan ko‘rinishga bo‘linadi.

Oddiy arifmetik o‘rtacha variantlar (x) bir yoki teng marta takrorlangan paytda qo‘llaniladi.

$$\bar{x} = \frac{x_1 + x_2 + x_3 + ... + x_n}{f} = \frac{\Sigma x}{f}$$

Tortilgan ko‘rinishdagi o‘rtacha arifmetik miqdor quyidagi bog‘lanishlar orqali topiladi.

$$\bar{x} = \frac{x_1 f_1 + x_2 f_2 + x_3 f_3 + ... + x_n f_n}{f_1 + f_2 + f_3 + ... + f_n} = \frac{\Sigma xf}{\Sigma f}$$

Tahlilda o‘rtacha arifmetik bilan bir qatorda o‘rtacha garmonik ham keng qo‘llaniladi. O‘rtacha garmonik – bu o‘rtacha arifmetik miqdorning teskari bo‘lgan darajasidir.

O‘rtacha garmonik miqdor ham o‘rtacha arifmetik miqdorga o‘xshab oddiy va tortilgan shakllarga ega.

Oddiy o‘rtacha garmonik miqdorlarni aniqlash formulasi:

$$\bar{x} = \frac{n}{\Sigma \frac{1}{x}}$$

Tortilgan o‘rtacha garmonik miqdorlarni aniqlash formulasi:

$$\bar{x}_{ap} = \frac{\Sigma xf}{\Sigma \frac{xf}{x}} = \frac{\Sigma M}{\Sigma \frac{M}{x}} = \frac{M_1 + M_2 + \ldots + M_n}{\frac{M_1}{x_1} + \frac{M_2}{x_2} + \ldots + \frac{M_n}{x_n}} = \frac{\sum M}{\sum \frac{M}{x}}$$

Tahlilda o'rtacha geometrik miqdorlardan odatda o'sish sur'atlarini o'rganishda keng foydalaniladi.

$$X_{geom} = \sqrt[n]{x_1 * x_2 * \ldots x_n}$$

1.10-jadval

Mahsulot hajmining o'sish sur'atlari

Choraklar	I	II	III	IV
O'sish sur'ati	1,08	1,12	1,15	1,17

Oddiy o'rtacha o'sish sur'atini aniqlasak, ularning barchasini qo'shib to'rt soniga bo'lish orqali natijaga ega bo'linadi.

Ya'ni: 1,08+1,12+1,15+1,17=1,13

Agar narxlar o'zgarishi yillik 1,18 foizga ortishini yagona mezon qilib olsak, u holda yillik o'sish sur'ati quyidagicha bo'lishi lozim.

1,18·1,18·1,18·1,18 = 1,94 ni tashkil etadi

Bunday qarama-qarshilik yuzaga kelmasligi uchun geometrik formuladan foydalanish lozim.

$$\sqrt[4]{1,08 \cdot 1,12 \cdot 1,15 \cdot 1,17} = 1,6275 = 1.2757$$

Tahlilda o'rtacha xronologik formuladan ham keng foydalaniladi.

$$O'_x = (X_1/2+X_2+\ldots+X_{n-1}+X_n/2)/\ n-1$$

1.11-jadval

Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini aniqlash

Ko'rsatkichlar	1-yanvar 2017yil	1-aprel 2017 yil	1-iyul 2017 yil	1-oktyabr 2017 yil	1-yanvar 2018 yil
Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, mln so'm	8000	8500	9200	10500	11600

Yuqoridagi formula bo'yicha asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati quyidagicha bo'ladi.

O'_x= (8000/2+8500+9200+10500+11600/2) / (5-1) = 9500 mln so'm

Balans usuli.

Balans usuli – o'zaro bog'langan va tenglashtirilgan ikki guruh iqtisodiy ko'rsatkichlar tengliklarini aks ettirish usulidir. Bu metod buxgalteriya hisobi va rejalashtirish amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan metod hisoblanadi.

Balans usuli korxonani aktivlar, kapital va majburiyatlar balansi, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari balansi, valyuta balansi, byudjet balansi, resurs balansi tahlilida keng qo'llaniladi.

1.12-jadval

Balansning muhim turlari va ularning birlik elementlari

Balans turlari	Ifodasi	Belgilar izohi
Buxgalteriya balansi	A=K+M	Aktivlar (A)=Kapital (K)+majburiyatlar (M)
Tovar balansi	$T_b+T_{i/ch}+T_{bk}=T_o+T_s+T_{bch}$	Tovarlar davr boshiga qoldig'i (T_b) + Ishlab chiqarilgan tovarlar ($T_{i/ch}$) + Tovarlarning boshqa kirimi (T_{bk}) = Tovarlar davr oxiriga qoldig'i (T_o) + Tovarlar sotilgani (Ts) + tovarlarning boshqa chiqimi (T_{bch})
Byudjet balansi	D=X	Daromadlar (D)=Xarajatlar (X)
Valyuta balansi	$V_b+V_k=V_o+V_{ch}$	Valyuta mablag'larining davr boshiga qoldig'i (V_b) + Valyuta kirimi (V_k) = Valyuta mablag'lari davr oxiriga qoldig'i (V_o) + Valyuta chiqimi (V_{ch})
Majburiyatlar balansi	DM+(-) ortiqchalik (yetishmovchilik) = KM+(-) ortiqchalik (yetishmovchilik)	Debitorlik majburiyatlari (DM) = Kreditorlik majburiyatlari (KM), Debitorlik kreditorlik majburiyatlaridan farqi (+,-)

Ushbu usuldan moliyaviy xo'jalik faoliyatining barcha bo'g'inlarda keng foydalaniladi. Balans metodi ko'proq omilli modellarni tuzishda ham qo'llanishi mumkin.

1.13-jadval

Modellar va ularning tuzilishi

Balans	Modellar		
Buxgalteriya balansi	**Aktivlar**	**Kapital**	**Majburiyat**
A=K+M	A=K+M	K=A-M	M=A-K
Tovar balansi	**Tovarlarning davr boshiga**	**Tovarlarning davr oxiriga qoldig'i**	**Tovarlarning sotilgan qismi**

	qoldig'i		
$T_b+T_{i/ch}+T_{bk}=T_o+T_s+T_{bch}$	$T_b=(T_o+T_s+T_{bch})-(T_{i/ch}+T_{bk})$	$T_o=(T_b+T_{i/ch}+T_{bk})-(T_s+T_{bch})$	$T_s=(T_b+T_{i/ch}+T_{bk})-(T_o+T_{bch})$
	Tovarlarning ishlab chiqarilgan qismi	Tovarlarning boshqa kirimi	Tovarlarning boshqa chiqimi
	$T_{i/ch}=(T_o+T_s+T_{bch})-(T_b+T_{bk})$	$T_{bk}=(T_o+T_s+T_{bch})-(T_b+T_{i/ch})$	$T_{bch}=(T_b+T_{i/ch}+T_{bk})-(T_o+T_s)$
Valyuta balansi	**Valyuta mablag'larini kirimi**	**Valyuta mablag'larini chiqimi**	**Valyuta mablag'larini davr oxiriga qoldig'i**
$V_b+V_k=V_o+V_{ch}$	$V_k=(V_o+V_{ch})-V_b$	$V_{ch}=(V_b+V_k)-V_o$	$V_o=(V_b+V_k)-V_{ch}$

Indeks usuli.

Indeks so'zi lotincha "Index" atamasidan olingan bo'lib belgi, ko'rsatkich degan ma'noni bildiradi. Har qanday ko'rsatkich ham indeks ma'nosida bir xilda ishlatilmaydi. Tahlilda, statistikada indeks deganda – bevosita qo'shib bo'lmaydigan bo'laklardan tashkil topgan ikki to'plamni taqqoslash tushuniladi.

Tahlilda shunday hodisalar uchraydiki, ularga mumkin bo'lmagan sharoitda umumlashtirib baho berish zaruriyati tug'iladi. Bu kabi muammolarni yechish uchun tahlilda mahsulot hajmi indeksi, baho, tannarx, mehnat unumdorligi va boshqa indekslar hisoblanadi.

Indekslar to'plam birliklarini qamrab olishiga qarab individual va umumiy indekslarga bo'linadi. Individual indekslar to'plamning ayrim elementlarining o'zgarishini ta'riflaydi. Taqqoslanish asosiga qarab indekslar bazisli va zanjirsimon indekslarga bo'linadi. Baza o'rnida qabul qilingan miqdor bilan qolganlari taqqoslansa bu indekslar bazisli, o'zidan oldingi davr bilan taqqoslansa zanjirsimon indekslar deyiladi.

Indekslashtirilayotgan miqdorlarning xarakteri va mazmuniga qarab indekslar miqdor (fizik hajm) va sifat ko'rsatkichlari indekslariga bo'linadi.

Indeks usulida hodisaning miqdori (fizik hajmi) – q; narxlar – r; tannarx – s; unumdorlik - ω harflar bilan belgilanadi. Joriy davr ko'rsatkichi "1" satr osti ishorachasi, o'tgan davr esa "0" bilan ifodalanadi. "i" va "I" lar individual va umumiy indekslarni ifodalaydi, "Σ" – yig'indini bildiradi.

Individual indekslar quyidagicha ifodalanadi:

Mahsulot fizik hajmi individual indeksi (i_q):

$$i_q=q_1/q_0$$

Bu yerda: q_1 va q_0 – joriy va o'tgan davrlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning fizik hajmi. Bu indeks yuqorida ta'kidlaganimizdek, mahsulot fizik hajmini vaqt, hudud va obyektlar bo'yicha faqatgina bitta mahsulot uchun o'zgarishini ifodalaydi.

Baho individual indeksi (i_r):

$$i_r=r_1/r_0$$

Bu yerda: p_1 va p_0 – joriy va o'tgan davrlarda mahsulot bir birligini bahosi (narxi).

Tannarx individual indeksi (i_z):

$$i_z=z_1/z_0$$

Bu yerda: z_1 va z_0 – joriy va o'tgan davrlarda mahsulot birligini tannarxi.

Umumiy indekslar agregat va o'rtacha shakllarda bo'ladi. Agregat indekslar deb, maxsus taqqoslagichlar (vazn) yordamida joriy va o'tgan davrlar uchun hisoblangan to'plamlarni o'zaro taqqoslashga aytiladi.

Agregat shakldagi indeksni ham quyidagicha formula ko'rinishida yozish mumkin.

$$I_{pq} = \frac{p_1'q_1' + p_1''q_1'' + \ldots + p^{n}{}_1 q^{n}{}_1}{p_0'q_0' + p_0''q_0'' + \ldots + p^{n}{}_0 q^{n}{}_0} = \frac{\Sigma p_1 q_1}{\Sigma p_0 q_0}$$

Bu indeks mahsulot (yoki tovar oboroti) hajmining umumiy indeksidir. Bu yerda q_1p_1 va q_0p_0 joriy va bazis davrlardagi mahsulot qiymati.

Ko'rinib turibdiki, bu indeks mahsulot fizik hajmini emas, uni qiymatining o'zgarishini xarakterlamoqda, ya'ni baho o'zgarsa, qiymat ham o'zgaraveradi.

Fizik hajmi indeksini tuzishda vazn sifatida o'tgan davr baholari olinsa, formulani quyidagicha yozish mumkin.

$$I_q = \frac{q_1p_0' + q_1''p_0'' + \ldots + q^{n}{}_1 p^{n}{}_0}{q_0'p_0' + q_0''p_0'' + \ldots + q^{n}{}_0 p^{n}{}_0} = \frac{\Sigma q_1 p_0}{\Sigma q_0 p_0},$$

Bu yerda: $\Sigma q_1 p_0$ – joriy davrdagi mahsulotning qiymati (o'tgan davr bahosida); $\Sigma q_0 p_0$ – bazis davridagi mahsulotning qiymati.

Umumiy indekslarni agregat shaklda hisoblash uchun indekslashtirilayotgan belgi va uning vaznlari haqida har bir mahsulot va davrlar bo'yicha alohida ma'lumotlar mavjud bo'lishi shart.

Indekslar yordamida nafaqat miqdor ko'rsatkichlari, balki sifat ko'rsatkichlari ham o'rganiladi. Ularga baho, tannarx, hosildorlik, mehnat unumdorligi, rentabellik darajasi va boshqalar kiritiladi.

Agarda o'rganilayotgan qatorning hadlari baza sifatida qabul qilingan bitta had bilan taqqoslansa, bunday indekslar bazisli indekslar, agarda har bir had o'zidan oldin keladigan had bilan taqqoslansa unday indekslar zanjirsimon indekslar deb yuritiladi.

1.14-jadval

Sotilgan mahsulot miqdori bo'yicha bazisli va zanjirsimon indeks

Choraklar	I	II	III	IV
Miqdor darajalari	q_1	q_2	q_3	q_4
Bazisli indeks	-	q_2/q_1	q_3/q_1	q_4/q_1
Zanjirsimon indeks	-	q_2/q_1	q_3/q_2	q_4/q_3
Bog'liqlik	q4/q1= q2/q1x q3/q2xq4/q3 yoki q4/q1:q3/q1=q4/q3xq			

Yuqorida keltirilgan misolimizda tovar miqdori emas, balki qiymati berilgan deb faraz qilaylik.

1.15-jadval

Sotilgan mahsulot hajmi bo'yicha bazisli va zanjirsimon indeks

Choraklar	I	II	III	IV
Miqdor darajalari	$\Sigma q_1 r_1$	$\Sigma q_2 r_2$	$\Sigma q_3 r_3$	$\Sigma q_4 r_4$
Bazisli indeks	-	$Iq_{2/1} = \frac{\Sigma q_2 p_1}{\Sigma q_1 p_1};$	$Iq_{3/2} = \frac{\Sigma q_3 p_1}{\Sigma q_2 p_1};$	$Iq_{4/3} = \frac{\Sigma q_4 p_1}{\Sigma q_3 p_1};$
Zanjirsimon indeks	-	$\frac{\Sigma q_2 p_1}{\Sigma q_1 p_1};$	$\frac{\Sigma q_3 p_2}{\Sigma q_2 p_2};$	$\frac{\Sigma q_4 p_3}{\Sigma q_3 p_3};$

Indekslardan murakkab ko'rsatkichlarni o'zgarishida omillarning ta'sirini o'lchashda ham foydalaniladi. Omillar ta'sirini baholashda agregat shakldagi umumiy indekslardan foydalaniladi.

1.16-jadval

Omillar ta'sirini hisoblash yo'llari

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili shartli	Hisobot yili
Mahsulot sotishdan sof tushum	$\Sigma q_0 r_0$	$\Sigma q_1 r_0$	$\Sigma q_1 r_1$
Sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi	$\Sigma q_0 s_0$	$\Sigma q_1 s_0$	$\Sigma q_1 s_1$
Sotishdan yalpi foyda	$\Sigma q_0 r_0 - \Sigma q_0 s_0$	$\Sigma q_1 r_0 - \Sigma q_1 s_0$	$\Sigma q_1 r_1 - \Sigma q_1 s_1$
Sotuv rentabelligi	$\Sigma q_0 r_0 - \Sigma q_0 s_0 / \Sigma q_0 r_0$	$\Sigma q_1 r_0 - \Sigma q_1 s_0 / \Sigma q_1 r_0$	$\Sigma q_1 r_1 - \Sigma q_1 s_1 / \Sigma q_1 r_1$
Sotishdan yalpi foydaga baho omilining ta'siri	x	x	$\Sigma q_1 r_1 - \Sigma q_1 r_0$
Sotishdan yalpi foydaga miqdor omilining ta'siri	x	x	$\Sigma q_1 r_0 - \Sigma q_0 r_0$
Sotishdan yalpi foydaga tannarx omilining ta'siri	x	x	$\Sigma q_1 s_1 - \Sigma q_1 s_0$

Guruhlash usuli.

Guruhlash deganda o'rganilayotgan to'plamni taalluqli belgilari bo'yicha sifat jihatdan bir xil bo'lgan guruhchalarga ajratish tushiniladi. Agar statistikada guruhlash hodisalarni umumlashtirish va tiplarga ajratish maqsadida foydalanilsa, tahlilda o'rtachalarni mohiyatini tushintirishga, bu o'rtachadagi alohida birliklarni rolini ko'rsatishga, o'rganilayotgan ko'rsatkichlar orasida o'zaro bog'liqliklarni aniqlashga yordam beradi.

Hal qiladigan masalalari (vazifalari) nuqtayi nazardan guruhlashlar tipologik, strukturali va analitik turlarga bo'linadi.

Tipologik guruhlash – to'plamni sifat jihatdan bir xil bo'lgan guruhlarga ajratishni;

Strukturali guruhlash – ko'rsatkichni ichki tuzilishini, uning alohida qismlarini o'zaro nisbatlarini o'rganish maqsadida guruhlarga ajratishni;

Analitik guruhlash – ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishlarni o'rganish maqsadida amalga oshiriladigan guruhlashlarni anglatadi.

Tuzilishining murakkabligi jihatdan oddiy guruhlashlar va kombinatsiyali guruhlashlar tarkiblanadi.

Bitta belgi bo'yicha amalga oshirilgan guruhlashlar oddiy guruhlash deb aytiladi. Agar bitta belgi bo'yicha bitta guruhlashni, shu guruhga

kiruvchi boshqa bir belgi bo'yicha yana boshqa guruhlashni amalga oshirilsa, bunday guruhlash kombinatsiyali guruhlash deb aytiladi.

Guruhlarni tuzishda to'plamni guruhlarga bo'lish, guruhlar sonini belgilash va guruh intervalini aniqlash masalasiga jiddiy yondashish zarur.

Guruhlashlar algoritmini quyidagi ketma-ketlikda belgilash mumkin:

- tahlilning maqsadini aniqlash;
- axborotlarni yig'ish;
- guruhlash uchun asos qilib olingan belgi bo'yicha to'plamni ranjirlash;
- to'plamni taqsimlash intervali (oralig'i)ni tanlash va uni guruhlarga ajratish;
- guruhlash va omilli belgilar bo'yicha o'rtacha guruh ko'rsatkichlarini aniqlash;
- olingan o'rtacha miqdorlarni tahlil qilish, o'zaro bog'liqlarni va natijaviy ko'rsatkichga omilli ko'rsatkichlarni ta'sir yo'nalishini aniqlash.

Moliyaviy tahlilda guruhlashdan ko'pincha qiyosiy tahlilda foydalanish mumkin.

1.17-jadval

Moliyaviy holat reytingi bo'yicha guruhlash

Moliyaviy holat reytingi	Guruhdagi korxonalar soni	Guruh bo'yicha moliyaviy holatning o'rtacha reyting bahosi
1,5 – 4,5	20	2,250
4,6 – 6,0	30	3,760
6,1 dan yuqori	12	6,230
Jami	**62**	**4,560**

Zanjirli bog'lanish usuli.

Zanjirli bog'lanish usulida natijaviy ko'rsatkichning o'zgarishi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tizimli almashtirishlar orqali hisob-kitob qilinadi. Biroq, tahlil qilinadigan ko'rsatkichlarning ta'sir birliklari funksional bog'liqlikda bo'lishi talab etiladi.

Zanjirli bog'lanish usulida zanjirli tizimdan foydalanilganligi sababli uning nomi zanjirli usul deb nomlangan. Bu tartib natijaviy ko'rsatkichga har bitta omilning ta'sir darajasini hisoblashda ushbu omilning yangilangan ifodasi olinishi bilan farq qiladi. Qolgan barcha ta'sir birliklar o'zgarishsiz qoldiriladi va h.k. Ushbu omillar oxirgi omil ta'sirini aniqlashga qadar davom ettiriladi.

Zanjirli usulni turli ifodalarga nisbatan qo'llash mumkin va bu uni qo'llash imkoniyatlarini oshiradi va universalligini ta'minlaydi.

1.18-jadval

Zanjirli bog'lanish usulida ta'sir etuvchi birliklarni hisoblash metodikasi

Ifoda	Ko'rsatkichlar	O'zgarishga ta'sir etuvchi birliklar hisob-kitoblari			
		Reja	Shartli1	Shartli2	Haqiqat
Q=xu	Jami o'zgarish Q_1-Q_0	x_0*u_0	x_1*u_0	x	x_1*u_1
1	Birinchi omil (x) ta'siri	x	x	x	$x_1*u_0 - x_0*u_0$
2	Ikkinchi omil (y) ta'siri	x	x	x	$x_1*u_1 - x_1*u_0$
Q=xuz	Jami o'zgarish Q_1-Q_0	$x_0*u_0*z_0$	$x_1*u_0*z_0$	$x_1*u_1*z_0$	$x_1*u_1*z_1$
1	Birinchi omil (x) ta'siri	x	x	x	$x_1*u_0*z_0 - x_0*u_0*z_0$
2	Ikkinchi omil (y) ta'siri	x	x	x	$x_1*u_1*z_0 - x_1*u_0*z_0$
3	Uchinchi omil (z) ta'siri	x	x	x	$x_1*u_1*z_1 - x_1*u_1*z_0$
Q=x/y	Jami o'zgarish Q_1-Q_0	x_0/u_0	x_1/u_0	x	x_1/u_1
1	Birinchi omil (x) ta'siri	x	x	x	$x_1/u_0 - x_0/u_0$
2	Ikkinchi omil (u) ta'siri	x	x	x	$x_1/u_1 - x_1/u_0$
Q=z/x+u	Jami o'zgarish Q_1-Q_0	z_0/x_0+u_0	z_1/x_0+u_0	z_1/x_1+u_0	$z_1/x_1 + u_1$
1	Birinchi omil (x) ta'siri	x	x	x	$z_1/x_0+u_0 - z_0/x_0+u_0$
2	Ikkinchi omil (y) ta'siri	x	x	x	$z_1/x_1+u_0 - z_1/x_0+u_0$
3	Uchinchi omil (z) ta'siri	x	x	x	$z_1/x_1+u_1 - z_1/x_1+u_0$

Sotuv rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobida buni ko'rib o'tishimiz mumkin. Sotuv rentabelligi quyidagi bog'lanishda aniqlanadi

$$Rc=Syaf/Sst$$

Bunda: *Syaf*-sotishdan yalpi foyda

Sst-sotishdan sof tushum

1.19-jadval

Sotuv rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Ifoda	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi	O'sishi
Sotishdan sof tushum, mln so'm	Sst	100	125	+25	1.25
Sotilgan mahsulot tannarxi, mln so'm	Smt	80	90	+10	1.12
Sotishdan yalpi foyda, mln so'm	Syaf	20	35	+15	1.75
Sotuv rentabelligi, %	Rc	0.20	0.28	+0.08	1.40
Yalpi foyda o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar	x	x		x	
Sof tushumning o'zgarishi	x	125-100		+25	
Sotilgan mahsulot tannarxining o'zgarishi	x	80-90		-15	
Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar	x	x		x	
Sof tushum o'zgarishi, %	O'sst	20/125-20/100=0,16-0,20		-0,04	
Sotishdan yalpi foyda o'zgarishi, %	O'syaf	35/125-20/125=0,28-0,16		+0,12	

Mutlaq farq usuli.

Mutlaq farq usuli natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillar soni ikki yoki undan ortiq ta'sir birliklariga ega bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Uning mazmunini natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi birlikning farqi qolgan omillarning reja, haqiqatdagi (uzviy ketma-ketlikda) ko'rsatkichlarga ko'payrilgan holda aniqlanadi.

Mutlaq farq usuli an'anaviy usullarning sodda modelli tizimi hisoblanib ko'pincha samaradorlik va natijaviylik ko'rsatkichlariga nisbatan qo'llaniladi.

Uning muhim xususiyati omillar ta'sirini hisob-kitob qilishda uzviylikning, aniqlikning ketma-ketlikning qat'iy belgilanishi. Analitik ketma-ketlikda birinchi navbatda sifat ko'rsatkichlari keyingi qatorlar bo'yicha bilik, miqdor ko'rsatkichlar tartiblanadi.

Masalan mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan omillarni mutlaq farq usulida hisob-kitob qilishimiz mumkin. Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan omillar qatoriga: asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi, asosiy vositalardan samarali foydalanish (asosiy vositalarning qaytimining o'zgarishi) ko'rsatkichining ta'siri.

1.20-jadval

Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat vositalari bilan bog'liq omillar ta'sirini tahlil qilish metodikasi

t/r	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi, +,-	O'sishi, %
1	Mahsulot(ish, xizmat)lar hajmi, mln so'm	Q0	Q1	ΔQ	Q1/Q0*100-100
2	Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, mln so'm	A0	A1	Δ A	A1/Q0*100-100
3	Asosiy vositalar qaytimi (fond qaytimi), so'm	F0	F1	Δ F	(Q1/A1)/ (Q0/A0)*100-100
4	Omillar ta'siri	x	x	x	x
4.1	Asosiy vositalarning	Δ A x F0=		Δ At	x

	o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishini ta'siri, mln so'm			
4.2	Asosiy vositalar qaytimi o'zgarishining ta'siri, mln so'm	Δ F x A1=	Δ Ft	x

Mutlaq farq usulida uch omillik ta'sir birliklari quyidagi bog'lanishlar orqali hisob-kitob qilinadi:

Omillar ta'sirini uchta omilli birlikka nisbatan qo'llashda quyidagi bog'lanishlar amalga oshiriladi.

1.21-jadval

Natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi birliklar soni uchta bo'lganda mutlaq farq usulining qo'llash metodikasi

t/r	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi, +,-	O'sishi, %
1	2	3	4	5(4-3)	6(4/3*100-100)
1	Natija (Q= X*Y*Z)	Q0	Q1	ΔQ	Q1/Q0*100-100
2	Birinchi ta'sir birligi(X)	X0	X1	ΔX	X1/X0*100-100
3	Ikkinchi ta'sir birligi(Y)	Y0	Y1	ΔY	Y1/Y*100-100
4	Uchinchi ta'sir birligi(Zr)	Z0	Z1	Δ Z	Z1/Z0*100-100
5	Omillar ta'sirining hisob-kitobi	x		x	x
51.	Natijaviy ko'rsatkichga birinchi omil ta'siri hisob-kitobi	ΔX*Yr*Zr		ΔQx	x

52.	Natijaviy ko'rsatkichga birinchi omil ta'siri hisob-kitobi	ΔY* Xx* Zr	ΔQy	x
53.	Natijaviy ko'rsatkichga birinchi omil ta'siri hisob-kitobi	ΔZ* Yx*Xx	ΔQz	x

Nisbiy farq usuli.

Tahlilda ushbu usulni qo'llash orqali mutlaq ko'rsatkichlardan tashqari nisbiy ko'rsatkichlar orqali ham sabab-oqibat bog'lanishlarini, omillarning natijaviy ko'rsatkichga ta'sirini hisob-kitob qilish imkoniyatini beradi. Ushbu usul ham mutlaq ifodalarga tayangan holda omillar ta'sirini foizli birliklarda, natijani o'zgartirishini uzviy ketma-ketlikda hisob-kitob qilishni talab etadi.

1.22-jadval

Natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni nisbiy farq usulida hisob-kitob qilish metodikasi

Ko'rsatkichlar	**Omillarning nisbiy ortishi,%**	**Oldingi hisobdan farqi,%**	**Omillar ta'siri**
Birinchi ta'sir omilining o'sishi(A)	A% (A1/A0*100)	A%-100=Qa	Qa*Qr
Ikkinchi ta'sir omilining o'sishi (B)	B% (B1/B0*100)	B%-A%=Qb	Qb*Qr
Uchinchi ta'sir omilining o'sishi (C)	C% (C1/C0*100)	C%-B%=Qc	Qc*Qr
To'rtinchi ta'sir omilining o'sishi (D)	D% (D1/D0*100)	D%-C%=Qd	Qd*Qr
Natijaviy ko'rsatkichning o'zgarishi	Qx-Qr= (Qa*Qr)+ (Qb*Qr)+(Qc*Qr)+ (Qd*Qr)		

Iqtisodiy matematik usullar va ularning mohiyati.

Faoliyatning samaradorligi va natijaviyligini, uzviy aloqadorlik va bog'lanishlardagi omilli tahlilini amalga oshirishda matematik usullardan foydalanish, analitik ishlar sifatligini, tahlilning chuqurligini va masalaning qanchalik chuqurligini ham ta'minlab beruvchi muhim omildir. Iqtisodiy matematik usullar masalani yechishning kompyuter algoritmini shakllantirishda ham qo'l keladi.

Iqtisodiy matematik usullar vaqt mezoni bo'yicha, tezlik, aniqlik masalasida, dasturlash va natijalarni mayda birliklariga qadar aniqlanishi sababli samaradorligi yuqori turadi.

Iqtisodiy matematik usullar iqtisodiy tahlil imkoniyatlarini oshirib, yanada ko'proq turdagi va murakkab tavsifdagi masalalarni qisqa muddatda to'g'ri hal qilish imkonini beradi.

Moliyaviy tahlilda matematik usullarni qo'llash korxona faoliyatida qator o'ziga xos shartlarni e'tiborga olishni talab qiladi. Ularning asosiylari quyidagilardir: korxona iqtisodiyotini to'laligicha axborot texnologiyalariga asoslangan bo'lishi, iqtisodiy-matematik modellar tuzish, axborot manbalarini takomillashtirish, xodimlar malakasi va shu kabilar.

Matematik usullarning integral, logarifm, korrelyatsion, regretsion, matematik dasturlash, nazariy o'yin turlarini tarkiblash mumkin.

Integral usul. Multiplikativ, karrali va karrali-additiv ko'rinishli aralash modellari tarkiblanadi.

Integral usul zanjirli usul, mutloq va nisbiy farq usullariga nisbatan omillar ta'sirini hisoblashda aniqroq natijalar olishga imkon beradi.

Turli modellar uchun omillar ta'sirini hisoblash algoritmlari quyidagicha bo'ladi:

1.23-jadval

Integral usul modellari

Modellar	**Omillar ta'sirini aniqlash**
f=xy	$\Delta f_x+\Delta f_y=\Delta f$
X omili ta'siri	$\Delta f_x = \Delta x y_0 + {}^1/_2\Delta x\Delta y$, yoki $\Delta f_x = {}^1/_2\Delta x(y_0+y_1)$
Y omil ta'siri	$\Delta f_y = \Delta y x_0 + {}^1/_2\Delta x\Delta y$, yoki $\Delta f_y = {}^1/_2\Delta y(x_0+x_1)$
f=xyz.	$\Delta f_x+\Delta f_y+\Delta f_z=\Delta f$

X omili ta'siri	$\Delta f_x = {}^1/_2\Delta x\,(y_0z_1+y_1z_0)+{}^1/_3\Delta x\Delta y\Delta z;$
Y omili ta'siri	$\Delta f_y = {}^1/_2\Delta y\,(x_0z_1+x_1z_0)+{}^1/_3\Delta x\Delta y\Delta z;$
Z omili ta'siri	$\Delta f_z = {}^1/_2\Delta z\,(x_0y_1+x_1y_0)+{}^1/_3\Delta x\Delta y\Delta z.$
f=xyzq	$\mathbf{\Delta f_x+\Delta f_y+\Delta f_z+\Delta f_q=\Delta f}$
X omili ta'siri	$\Delta f_x=1/6\Delta x*[3q_0*y_0*z_0+y_1*q_0(z_1+\Delta z)+q_1*z_0(y_1+\Delta y)+z_1*y_0(q_1+\Delta q)]+\Delta x*\Delta y*\Delta z*\Delta q\,/\,4;$
Y omili ta'siri	$1/6\Delta y*[3q_0*x_0*z_0+x_1*q_0(z_1+\Delta z)+q_1*z_0(x_1+\Delta x)+z_1*x_0(q_1+\Delta q)]+\Delta x*\Delta y*\Delta z*\Delta q\,/\,4;$
Z omili ta'siri	$f_z=1/6\Delta z*[3q_0*x_0*y_0+x_0*q_1(y_1+\Delta y)+y_1*q_0(x_1+\Delta x)+x_1*y_0(q_1+\Delta q)]+\Delta x*\Delta y*\Delta z*\Delta q\,/\,4;$
q omili ta'siri	$1/6\Delta q*[3z_0*x_0*y_0+x_0*z_1(y_1+\Delta y)+y_1*z_0(x_1+\Delta x)+x_1*y_0(z_1+\Delta z)]+\Delta x*\Delta y*\Delta z*\Delta q\,/\,4.$

Natijaviy ko'rsatkichga omillar ta'sirini quyidagi misollar asosida ko'rib chiqishimiz mumkin.

-jadval

Mahsulot hajmi o'zgarishiga ishchilar soni va mehant unumdorligining ta'sirini tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Haqiqatda	Farqi (+;-)
Ishchilar soni, kishi (X)	144	152	+8
Bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot, ming so'm (U_m)	1235	1207	-28
Mahsulot hajmi, ming so'm (F)	177840	183464	+5624

Omillar ta'sirini hisoblash quyidagicha bajariladi:

F = X * Y

1. Fx=(8*1235) + ½(8*(-28))=9880+(-112)= +9768.0
2. Fy=(-28*144)+1/2(-28*8)=-4032+ (-112)= - 4144.0

ΔF=ΔFx+ΔFy= 9768 + (-4144) = 5624.0

Ishchilar sonini 8 kishiga ko'payishi mahsulot hajmini 9768 ming so'mga oshirgan. Bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni 28 ming so'mga kamayishi esa mahsulot hajmini 4144 ming so'mga kamaytirgan.

1.24-jadval

Mahsulot hajmi o'zgarishiga ishchilar soni, o'rtacha ishlangan kun hamda bir kunga to'g'ri keladigan mahsulot hajmining ta'sirining tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Haqiqatda	Farqi (+;-)
Ishchilar soni, kishi (X)	203	212	+9
Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ishlangan kun, kishi kuni (Y)	278	270	-8
O'rtacha ishlangan bir kunga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, ming so'm (Z)	104	111	+7
Mahsulot hajmi, ming so'm (F)	5869136	6353640	484504

$F = X * Y * Z$

1. $Fx=(^1/_2*9)*(278*111+270*104) + {}^1/_3*9*(-8)*7=+265053$
2. $Fy=(^1/_2*(-8))*(203*111+104*212)) + {}^1/_3*9*(-8)*7=-178492$
3. $Fz=(^1/_2*7)*(203*270+212*278) + {}^1/_3*9*(-8)*7=+397943$

$\Delta F=\Delta Fx+\Delta Fy+\Delta Fz=265053 + (-178492) + 397943 =+484504$

1.25-jadval

Karrali va aralash modellar

Omilli model shakli	Omillar ta'sirini hisob-kitobi
$\Delta f = \frac{x}{y + z}$	$\Delta f_x = \frac{\Delta x}{\Delta y + \Delta z} In \left\lvert \frac{y_1 + z_1}{y_0 + z_0} \right\rvert;$ $\Delta f_y = \frac{\Delta f_{yм} - \Delta f_x}{\Delta y + \Delta z} \Delta y;$ $\Delta f_z = \frac{\Delta f_{yм} - \Delta f_x}{\Delta y + \Delta z} \Delta z.$
$\Delta f = \frac{x}{y + z + q}$	$\Delta f_x = \frac{\Delta x}{\Delta y + \Delta z + \Delta q} In \left\lvert \frac{y_1 + z_1 + q_1}{y_0 + z_0 + q_0} \right\rvert;$ $\Delta f_y = \frac{\Delta f_{yм} - \Delta f_x}{\Delta y + \Delta z + \Delta q} \Delta y;$ $\Delta f_z = \frac{\Delta f_{yм} - \Delta f_x}{\Delta y + \Delta z + \Delta q} \Delta z;$ $\Delta f_q = \frac{\Delta f_{yм} - \Delta f_x}{\Delta y + \Delta z + \Delta q} \Delta q.$

Logarifmlash usuli. Logarifmlash usuli multiplikativ modellarda omillar ta'sirini hisoblash uchun qo'llaniladi.

Integral metoddan farqli ravishda logorifmlashda ko‘rsatkichlarning mutlaq o‘sishi emas, balki ularning o‘sish (pasayish) indeksi qo‘llaniladi.

z = xy	lgz=lgx+lgy $lg\Delta z=lgz_1+lgz_0=(lgx_1-lgx_0)+(lgy_1-lgy_0)$ $lg(z_1:z_0)=lg(x_1:x_0)+lg(y_1:y_0)$, $lgz_1=lgx_1+lgy_1$; $lgz_o=(lgx_0+lgy_0)$
f = xyz	lgf=lgx+lgy+lgz. $lg(f_1 : f_0) = lg(x_1 : x_0) + lg(y_1 : y_0) + lg(z_1 : z_0) =$ $= lg I_x + lg I_y + lg I_z.$
x	$\Delta f_x = \Delta f_{umumu} \frac{Ig(x_1 : x_0)}{Ig(f_1 : f_0)}$
u	$\Delta f_y = \Delta f_{umumu} \frac{Ig(y_1 : y_0)}{Ig(f_1 : f_0)}$;
z	$\Delta f_z = \Delta f_{umumu} \frac{Ig(z_1 : z_0)}{Ig(f_1 : f_0)}$

Jadval ma’lumotlaridan foydalanib, omilli model bo‘yicha ishchilar soni (X), bir yilda bir ishchi tomonidan ishlangan kunlar miqdori (Y) va o‘rtacha kunlik ishlab chiqarish (Z) hisobiga mahsulot chiqarishni o‘sishini hisoblaymiz.

1.26-jadval

Mahsulot hajmi o‘zgarishiga ishchilar soni, o‘rtacha ishlangan kun hamda bir kunga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmining ta’sirini tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Haqiqatda	Farqi (+;-)
Ishchilar soni, kishi (X)	120	100	+20
Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishlangan bir ish kuni (Y)	208	200	-8
O‘rtacha ishlangan bir ish kuniga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi, ming so‘m (Z)	24	20	+4
Mahsulot hajmi, ming so‘m (F)	600.000	400.000	200.000

$$Q=X*Y*Z$$

$$\Delta Qx = \Delta Q_{умум} * \frac{Ig(X_1 : X_0)}{Ig(Q_1 : Q_0)} = 200 \frac{Ig(120:100)}{Ig(600:400)} = +89{,}9;$$

$$\Delta Qy = \Delta Q_{умум} * \frac{Ig(Y_1 : Y_0)}{Ig(Q_1 : Q_0)} = 200 \frac{Ig(208:200)}{Ig(600:400)} = +20{,}2;$$

$$\Delta Qz = \Delta Q_{умум} * \frac{Ig(Z_1 : Z_0)}{Ig(Q_1 : Q_0)} = 200 \frac{Ig(24:20)}{Ig(600:400)} = +89{,}9;$$

$\Delta Q_{umum}=\Delta Qx+\Delta Qy+\Delta Qz=89{,}9+20{,}2+89{,}9=200$ mln so'm.

Korrelyatsion (stoxastik) bog'lanish. Bu juda ko'p kuzatuvlardagina namoyon bo'ladigan ko'rsatkichlar orasidagi to'liq bo'lmagan, taxminiy bog'lanishdir. Odatda, juft va ko'p miqdorli korrelyatsiyalar farqlanadi. Juft korrelyatsiya – bu bitta omilli, boshqasi natijaviy bo'lgan ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishdir. Ko'p miqdorli korrelyatsiya esa natijaviy ko'rsatkichlar bilan bir nechta omillarning o'zaro ta'sirida ishlatiladi.

Korrelyatsion tahlilni qo'llash bir yoki bir nechta omillar ta'siri ostida bo'lgan natijaviy ko'rsatkichlar o'zgarishini aniqlash (mutlaq o'lchamda), har bir omildan natijaviy ko'rsatkichning nisbiy bog'lanish darajasini aniqlashda foydalaniladi.

1.27-jadval

Mehnat unumdorligi (*Y*) ning ishchilar yoshi (*x*) ga bog'liqligi

x	y	$x/10$	xy	x_2	x_2y	x_3	x_4	y_x
20	4,2	2,0	8,4	4,00	16,8	8,0	16	3,93
25	4,8	2,5	12,0	6,25	30,0	15,62	39	4,90
30	5,3	3,0	15,9	9,00	47,7	27,00	81	5,55
35	6,0	3,5	21,0	12,25	73,5	42,87	150	5,95
40	6,2	4,0	24,8	16,00	99,2	64,00	256	6,05
45	5,8	4,5	26,1	20,25	117,4	91,13	410	5,90
50	5,3	5,0	26,5	25,00	132,5	125,00	625	5,43
55	4,4	5,5	24,2	30,25	133,1	166,40	915	4,78
60	4,0	6,0	24,0	36,00	144,0	216,00	1296	3,70
Jami	46,0	36,0	183,0	159,00	794,0	756,00	3788	46,00

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ishchilarning mehnat unumdorligi 40 yoshgacha oshib, keyin pasayib boradi. Demak, qaysiki korxonaning 30-40 yoshli ishchilari ko'p bo'lsa, o'sha korxonaning mehnat unumdorligi

yuqoriroq bo‘lar ekan. Bu omilni mehnat unumdorligi darajasini rejalashtirishda va uning o‘sish zaxiralarini hisoblashda e’tiborga olish zarur.

Iqtisodiy tahlilda egri chiziqli bog‘lanishni yozish uchun, ko‘pincha, giperbola qo‘llaniladi

$$Y_x = a + \frac{b}{x}$$

Uning parametrlarini aniqlash uchun quyidagi tenglamalar tizimlarini yechish kerak:

$$\begin{cases} na + b\sum\left(\frac{1}{x}\right) = \sum y \\ a\sum\left(\frac{1}{x}\right) + b\sum\left(\frac{1}{x}\right)^2 = \sum\left(\frac{1}{x}\right)y. \end{cases}$$

Giperbola ikki ko‘rsatkich orasidagi quyidagi bog‘lanishni tavsiflaydi. Agar, bitta o‘zgaruvchi oshsa boshqasining qiymati ma’lum darajagacha o‘sadi, keyin esa o‘sish pasayadi, masalan, hosildorlik necha marta o‘g‘it solinganlikka, hayvonlarning mahsuldorligi ularning boqilishiga, mahsulot tannarxi ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligi va h.k.

Omilli va natijaviy ko‘rsatkichlar bog‘lanishlarining chambarchasligini o‘lchash uchun korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblanadi. O‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘lanishning to‘g‘ri chiziqli shaklida bo‘lgan holatida u quyidagi formuladan topiladi:

$$r = \frac{\sum xy - \frac{\sum x \cdot \sum y}{n}}{\sqrt{\left(\sum x^2 - \frac{(\sum x)^2}{n}\right) \cdot \left(\sum y^2 - \frac{(\sum y)^2}{n}\right)}}$$

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini formulaga $\sum xy, \sum x, \sum y, \sum x^2$ va $\sum y^2$ larning qiymatlarini qo‘yib, uning qiymati 0,66 ga tengligini olamiz.

$$r = \frac{22900 - \frac{900 \cdot 500}{20}}{\sqrt{\left(41500 - \frac{900^2}{20}\right) \cdot \left(12860 - \frac{500^2}{20}\right)}} = 0{,}66$$

Korrelyatsiya koeffitsiyenti 0 dan 1 gacha qiymat qabul qilishi mumkin. Qiymati 1 ga qancha yaqin bo‘lsa, o‘rganilayotgan holat bilan

bog'lanish shunchalik chambarchas bo'ladi va aksincha. Berilgan holatda korrelyatsiya koeffitsiyenti kattaroq (r=0,66). Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, yerning sifati ushbu tumandagi donli ekinlar hosildorligi darajasiga bog'liq bo'lgan asosiy omillardan biri hisoblanar ekan.

Agar korrelyatsiya koeffitsiyentini ikkinchi darajaga oshirsak, determinatsiya koeffitsiyentini (d=0,436). Bu shuni ko'rsatadiki natijaviy ko'rsatkich 43,5% asosiy omilga, 56,5%i qolgan omillarga bog'liq ekan.

Bog'lanishning egri chiziqli shaklda bog'lanish chambarchasligini o'lchashda esa chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyenti ishlatiladi va bu korrelyatsion munosabat quyidagicha ko'rinishga ega:

$$\eta = \sqrt{\frac{\sigma_y^2 - \sigma_{y_x}^2}{\sigma_y^2}};$$

Ushbu formula har tomonlama (universal) hisoblanadi. Bu formuladan korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash uchun istalgan shakldagi bog'lanishda foydalanish mumkin. Biroq, eng avvalo, regressiya tenglamasini yechish kerak, har bir kuzatuv uchun natijaviy ko'rsatkichning to'g'rilangan qiymati (Yx)ni hamda o'rtacha va to'g'rilangan darajasidan haqiqiy qiymatning og'ishlar kvadratini hisoblash kerak.

1.28-jadval

Egri chiziqli bog'lanishda korrelyatsion munosabatni aniqlash uchun boshlang'ich ma'lumotlarni hisoblash

Y	Y_x	$Y-\bar{Y}$	$(Y-\bar{Y})^2$	$Y-Y_x$	$(Y-Y_x)^2$
4,2	3,93	-0,9	0,81	+0,27	0,073
4,8	4,90	-0,3	0,09	-0,10	0,010
5,3	5,55	+0,2	0,04	-0,25	0,062
6,0	5,95	+0,9	0,81	+0,05	0,003
6,2	6,05	+1,1	1,21	+0,15	0,022
5,8	5,90	+0,7	0,49	-0,10	0,010
5,3	5,43	+0,2	0,04	-0,13	0,017
4,4	4,78	-0,7	0,49	-0,38	0,144
4,0	3,70	-1,1	1,21	+0,30	0,090
$\sum$46	46,0	-	5,19	-	0,431

Olingan qiymatlarni yuqoridagi formulaga qo'yib, ishchilar yoshi va mehnat unumdorligi orasidagi bog'lanish chambarchasligini xarakterlovchi korrelyatsion munosabat kattaligini aniqlaymiz:

$$\eta = \sqrt{\frac{5{,}19:9-0{,}43:9}{5{,}19:9}} = \sqrt{\frac{0{,}576-0{,}049}{0{,}576}} = 0{,}956$$

Xulosada qilib aytib o'tish kerakki, juft korrelyatsiya usulini qo'llashni faqat ikkita misoldagina ko'rib chiqdik. Biroq bu usul har xil iqtisodiy ko'rsatkichlar orasida munosabatni ham o'rganish uchun qo'llanilishi mumkin. Bu esa o'rganilayotgan holatni, uning o'zgarishida har bir omilning o'rni va ahamiyatini baholashda chuqurroq bilimga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

Korxonaning xo'jalik faoliyatidagi iqtisodiy holatlari va jarayonlari ko'p sonli omillarga bog'liq. Bu kabi kompleks omillarning o'zaro bog'lanishlari o'rganilayotgan holatni to'liqroq xarakterlaydi.

Korrelyatsion tahlil uchun omillarni saralash – eng muhim hisoblanadi. Chunki tahlilning yakuniy natijalari omillarning qanchalik to'g'ri tanlanganligiga bog'liq. Nazariya va tahlilning amaliy tajribasi omillarni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi qoidalarga bo'ysunish kerak:

1. Birinchi navbatda, ko'rsatkichlar orasidagi sababli bog'lanishlarni hisobga olish zarur, negaki, faqat ulargina o'rganilayotgan holat mohiyatini ochib beradi. Natijaviy ko'rsatkichli matematik munosabatlarda joylashgan bu kabi omillarning tahlili unchalik ahamiyat kasb etmaydi.

2. Ko'p omilli korrelyatsion model yaratishda amalda qilib bo'lmaydigan barcha shart va majburiyatlarni o'z ichiga olgan, natijaviy ko'rsatkichlarga hal qiluvchi ta'sir o'tkazadigan eng muhim omillarni tanlab olish zarur. Styudent bo'yicha kam jadvalli, ishonchlilik mezoniga ega bo'lgan omillarni hisobga olish tavsiya qilinmaydi.

3. Chiziqli turdagi korrelyatsion modellarga egri chiziqli xarakterga ega bo'lgan natijaviy ko'rsatkich bilan bog'lanishli omillarni qo'shish tavsiya etilmaydi.

4. Korrelyatsion modelga o'zaro bog'langan omillarni qo'shish mumkin emas. Agar ikkita omil o'rtasidagi juft korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,85 dan ko'p bo'lsa, korrelyatsion tahlil qoidasiga ko'ra bittasini chiqarib tashlash kerak, aks holda, natijaviy ko'rsatkichni xau holda bo'lishiga olib keladi.

5. Korrelyatsion modelga funksional xarakterdagi natijaviy ko'rsatkichda bog'lanishli omillarni korrelyatsion modelga qo'shish tavsiya etilmaydi.

Korrelyatsion model uchun omillarni saralashda analitik guruhlash, parallel va dinamik qatorlarni solishtirish, chiziqli grafiklar katta yordam beradi. Ular yordamida o'rganilayotgan ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanish mavjudligi, shakli va yo'nalishini aniqlash mumkin. Omillarni saralashni Styudent mezoni bo'yicha qiymatlarni baholash asosida korrelyatsion tahlil masalasini yechish jarayonida ham amalga oshirish mumkin.

Sanab o'tilgan shartlarni hisobga olgan holda va omillarni saralash usullarini qo'llagan holda ko'p omilli korrelyatsion modelning rentabellik darajasi (Y) uchun uning darajasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi omillar tanlab olingan.

x_1 – material unumi, so'm;

x_2 – jamg'arma unumi, so'm;

x_3 –mehnat unumdorligi (bir ishchining o'rtacha yillik ishlab chiqarishi), ming so'm;

x_4 – korxona aylanma mablag'ining aylanish davomiyligi, kun;

x_5 – yuqori sifatli mahsulotning solishtirma og'irligi %.

Modomiki, korrelyatsion bog'lanish ko'p sonli kuzatuvlarda to'laligicha namoyon bo'lar ekan, ma'lumotlarni tanlab olish hajmi yetarlicha katta bo'lishi kerak, negaki ko'p sonli kuzatuvlardagina boshqa omillarning ta'siri tekislanadi. O'rganilayotgan obyektlar majmui qanchalik ko'p bo'lsa, natijalar tahlili shunchalik aniq bo'ladi.

Bu shartni hisobga olgan holda sanab o'tilgan omillarning rentabellik darajasiga ta'siri 40 ta korxona misolida o'rganiladi.

Har bir omil va natijaviy ko‘rsatkichlardan yig‘ilgan boshlang‘ich ma’lumotlar aniqligi, bir turdaligi va me’yoriy taqsimot qonunlariga moz kelishi tekshirilgan bo‘lishi kerak.

Birinchi navbatda uning obyektiv mavjudligiga mos holda ma’lumotning aniqliligiga ishonch hosil qilish kerak. Negaki aniq bo‘lmagan ma’lumotdan foydalanish tahlil natijalarining noaniqligiga va noto‘g‘ri xulosalar chiqarishga olib keladi.

Ma’lumot o‘rtacha darajada taqsimlanishi bo‘yicha bir turda bo‘lishi kerak. Agar obyektlar guruhlari o‘rtacha darajadan katta farq qilsa, bu boshlang‘ich ma’lumotlarning bir turda emasligidan dalolat beradi.

Ma’lumotning bir turda bo‘lish mezoni bu har bir omilli va natijaviy ko‘rsatkichlarda hisoblanadigan o‘rta kvadratik og‘ish va variatsiya koeffitsiyenti hisoblanadi.

O‘rta kvadratik og‘ish alohida qiymatlarni o‘rta arifmetik qiymatlardan absolyut og‘ishini ko‘rsatadi. Uning qiymati ushbu formuladan topiladi:

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum (x_i - \bar{x})^2}{n}}.$$

Variatsiya koeffitsiyenti alohida qiymatlarni o‘rta arifmetik qiymatlardan nisbiy og‘ishi chegarasini ko‘rsatadi. U quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi

$$V = \frac{\sigma}{\bar{x}} \cdot 100$$

Variatsiya koeffitsiyenti qanchalik katta bo‘lsa, shuncha tarqoqlik nisbatan ko‘p va o‘rganilayotgan obyektlarning to‘g‘rilanishi kam bo‘ladi. Variatsion qatorlarning o‘zgarishi quyidagicha qabul qilingan: 10% dan oshib ketmasa – arzimas, 10-20% - o‘rtacha, 20% dan ko‘p bo‘lsa katta, lekin 33% dan oshib ketmasligi kerak. Variatsiya 33% dan oshib ketsa bu ma’lumotlarning bir turda emasligidan darak beradi va bir turda bo‘lmagan ma’lumotlarni chiqarib tashlash kerak bo‘ladi. Bular odatda tanlov qatorlarining boshida yoki oxirida bo‘ladi.

1.29-jadval

Boshlang'ich ma'lumotlarning statistik tavsifi ko'rsatkichlari

O'zgaruvchilar raqami	O'rtacha arifmetik qiymati	O'rtacha kvadratik og'ish	Variatsiya, %	Asimmetriya	Ekstsess	Asimmetriya xatosi	Ekstsess xatosi
Y	27,15	2,85	10,50	0,20	-1,16	0,37	0,73
x1	2,77	0,28	10,08	0,36	-0,81	0,37	0,73
x2	92,57	8,70	9,39	0,24	-0,69	0,37	0,73
x3	8,46	0,59	7,00	0,10	-0,52	0,37	0,73
x4	17,77	2,76	15,55	0,72	-0,08	0,37	0,73
x5	31,68	7,28	22,98	0,63	-0,13	0,37	0,73

1.29-jadvalda eng yuqori variatsiya x_5 da (V= 22,98), lekin u 33% oshib ketmaydi. Demak, boshlang'ich ma'lumot bir turda ekan va uni keyingi hisob uchun qo'llash mumkin.

Variatsiyaning eng yuqori ko'rsatkichi asosida korrelyatsion tahlil uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlar hajmini quyidagi formuladan topish mumkin.

$$n = \frac{V^2 t^2}{m^2} = \frac{22{,}98^2 \cdot 1{,}96^2}{8^2} = 32,$$

bu yerda n – tanlanadigan ma'lumotlarning kerakli hajmi;

V – variatsiya, %;

t – ehtimollik darajasi P= 0,05 da 1,96 ga teng bo'ladigan bog'lanish ishonchliligi ko'rsatkichi;

m – hisoblarning aniqlilik ko'rsatkichi (iqtisodiy ko'rsatkichlarda xau holda 5-8% gacha ruxsat beriladi).

Demak, qabul qilingan tanlov hajmi (40 ta korxona) korrelyatsion tahlil o'tkazish uchun yetarli bo'lar ekan.

Boshlang'ich ma'lumotlarning me'yoriy taqsimot qonuniga bo'ysunishi deganda o'rganilayotgan ma'lumotlarning asosiy qismi har bir ko'rsatkich bo'yicha uning o'rtacha qiymati atrofida guruhlangan bo'lishi kerak, juda katta va juda kichik miqdordagi obyektlar esa iloji boricha kamroq uchrashi kerakligi tushuniladi. Me'yoriy taqsimot grafigi -rasmda berilgan.



1.1-rasm. **Ma'lumotlarning me'yoriy taqsimoti grafigi.**

Ma'lumotlarni me'yoriy taqsimotdan og'ish darajasini sonli ifodalash uchun asimmetriya ko'rsatkichi ekstsessa ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Asimmetriya ko'rsatkichi (A) va uning xatosi (m_a) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$A = \frac{\sum (x_i - \bar{x})^3}{n\sigma^3}; \quad m_a = \sqrt{\frac{6}{n}}.$$

Ekstsess ko'rsatkichi (E) va uning xatosi (m_e) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E = \frac{\sum (x_i - \bar{x})^4}{n\sigma^4}; \quad m_e = \sqrt{\frac{24}{n}}.$$

Simmetrik taqsimotda A=0. Noldan farqli bo'lsa ma'lumotlar taqsimotida asimmetriya mavjudligini ko'rsatadi. Salbiy asimmetriya ma'lumotlarning katta qiymatga egaligidan, ijobiy asimmetriya esa kichik qiymatli ma'lumotlar ko'p uchrashidan dalolat beradi.

Me'yoriy taqsimotda ekstsess ko'rsatkichi E=0 bo'ladi. Agar E>0 bo'lsa, ma'lumotlar o'rtacha qiymati atrofida zich jamlangan, o'tkir uchli shakllangan bo'ladi. Agar E<0 bo'lsa, egri taqsimot yassi uchli shaklda bo'ladi. Biroq, A/m_a va E/m_e munosabat 3 dan kichik bo'lsa asimmetriya hamda ekstsess unchalik ahamiyat kasb etmaydi va o'rganilayotgan ma'lumot me'yoriy taqsimot qonunlariga mos keladi.

jadvalda A/m_a va E/m_e ning istalgan munosabatida 3 dan oshmaydi, demak, boshlang'ich ma'lumot bu qonunga bo'ysunadi.

Omilli va natijaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishni modellashtirish o'rganilayotgan bog'lanishni aniqroq aks ettiradigan mos tenglamani tanlashga e'tibor qaratadi.

Uni asoslash uchun ham mavjud bog'lanishni o'rnatuvchi usullar: analitik guruhlash, chiziqli grafiklar va h.k. qo'llaniladi.

Agar barcha omilli ko'rsatkichlar natijaviy bilan bog'lanishlar to'g'ri chiziqli xarakterda bo'lsa, bu bog'lanishni yozish uchun quyidagi chiziqli funksiyani qo'llash mumkin

$$Y_x = a + b_1 x_1 + b_2 x_2 + \ldots + b_n x_n;$$

Natijaviy va omilli ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishning egri chiziqli shaklida darajali funksiya ham

$$Y_x = b_0 \cdot x_1^{b_1} \cdot x_2^{b_2} \cdot \ldots \cdot x_n^{b_n};$$

yoki logarifmik funksiya ham qo'llanilishi mumkin.

$$\lg Y_x = b_0 + b_1 \lg x_1 + b_2 \lg x_2 + \ldots + b_n \lg x_n;$$

Keltirilgan modellarning yaxshi tomonlari shundaki, ularning (b_i) ko'rsatkichiga iqtisodiy tushuncha (izoh) berish mumkin. *Chiziqli modeldab$_i$* koeffitsiyentlar omilli ko'rsatkichlar birlikka o'zgarganda, absolyut ifodalashda darajali va logarifmik ko'rsatkichlar foizlarga o'zgarganda natijaviy ko'rsatkich necha birlikka o'zgarganligini ko'rsatadi.

Bog'lanish shaklini asoslash qiyin bo'lgan hollarda masalani yechish uchun har xil modellarni qo'llash va natijalarni taqqoslab ko'rish mumkin. Haqiqiy bog'lanishlarda turli modellarning mosligini tekshirish uchun approksimatsiyaning o'rtacha xatoligi va determinatsiyaning ko'p sonli koeffitsiyentlari o'lchamini ko'rsatuvchi Fisher mezonidan foydalanamiz. Bu haqda keyinroq to'xtalamiz.

O'rganilayotgan omillar va rentabellik darajasi o'rtasidagi bog'lanishni o'rganish shuni ko'rsatdiki, bizning misolda ko'rib o'tilgan barcha bog'lanishlar to'g'ri chiziqli xarakterga ega ekan. Shuning uchun ularni ifodalash uchun chiziqli funksiya qo'llanildi.

Ko‘p omilli korrelyatsion tahlil masalasini yechish EHM da «Statistika» paketida joylashgan namunali dasturlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Avvalo boshlang‘ich ma’lumotlar matritsasi (-jadval) tuzib olinadi. Birinchi ustunda kuzatuvlar tartib raqami, ikkinchi ustunga natijaviy ko‘rsatkichlar qiymati (Y), keyingisiga esa omilli ko‘rsatkichlar qiymati (xi) yozib olinadi.

1.30-jadval

Korrelyatsion tahlil uchun boshlang‘ich ma’lumotlar

T/r	Y	x_1	x_2	x_3	x_4	x_5
1	22,5	2,40	80,0	8,00	25,0	25,0
2	23,8	2,70	88,0	7,30	23,0	22,5
3	24,7	2,50	87,0	7,90	22,0	26,0
...	...	...	...	...	...	...
40	32,4	320	94,4	9,90	18,0	36,5

Bu ma’lumotlar elektron hisoblash mashinalariga kiritiladi. So‘ngra ular asosida juft va xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi, ko‘p miqdorli regressiya tenglamasi, korrelyatsiya koeffitsiyentlari ishonchliligi yordamida baholanuvchi ko‘rsatkichlar hamda bog‘lanish tenglamalari: Styudent mezoni (t), Fisher mezoni (F), approksimatsiyaning o‘rtacha xatoligi (?), korrelyatsiyaning ko‘p miqdorli koeffitsiyentlari (R) va determinatsiyalar (D) hisoblanadi.

Korrelyatsiyaning juft va xususiy koeffitsiyentlari matritsasini o‘rganib, ko‘rilayotgan holatlar bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq degan xulosaga kelish mumkin. Juft korrelyatsiyalar koeffitsiyenti umumiy holda, natijaviy ko‘rsatkichlar darajasini aniqlovchi boshqa omillar ta’sirini hisobga olgan holda, ikki ko‘rsatkich orasidagi bog‘lanish chambarchasligini xarakterlaydi.

1.31-jadvaldagi ma’lumotlar (birinchi ustun) shundan darak beradiki, barcha omillar rentabellik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatar ekan. Asosan rentabellik material unumi, jamg‘arma unumi, mahsulot sifati va mehnat unumdorligiga chambarchas bog‘liqdir. Ushbu ko‘rsatkichlar oshishi bilan rentabellik oshadi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri

bog'lanish); mablag' aylanishining davomiyligi oshsa, rentabellik kamayadi (aylanma bog'lanish).

1.31-jadval

Korrelyatsiyaning juft koeffitsiyentlari matritsasi

Ko'rsatkich	Y	x_1	x_2	x_3	x_4	x_5
Y	1					
x_1	0,75	1				
x_2	0,73	0,34	1			
x_3	0,74	0,29	0,40	1		
x_4	-0,51	-0,33	-0,46	0,45	1	
x_5	0,72	0,40	0,22	0,36	0,37	1

Biroq shuni ta'kidlash joizki, korrelyatsiyaning juft koeffitsiyentlari boshqa omillarning natijaga ta'siri holatida olingan. Ularning ta'siridan ajratib, natijaviy va omilli ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishni sof holdagi sonli xarakteristikasini olish uchun korrelyatsiyaning xususiy koeffitsiyentlari hisoblanadi.

1.32-jadval

Korrelyatsiyaning xususiy koeffitsiyentlari matritsasi

Ko'rsatkich	Y	x_1	x_2	x_3	x_4	x_5
Y	1					
x_1	0,59	1				
x_2	0,48	-0,136	1			
x_3	0,39	0,019	0,003	1		
x_4	-0,36	0,090	-0,14	-0,14	1	
x_5	0,31	0,098	0,16	0,48	0,082	1

Korrelyatsiyaning xususiy va juft koeffitsiyentlarini taqqoslaganimizda boshqa omillarning rentabellik darajasi va o'rganilayotgan omillar orasidagi bog'lanishga ta'siri yetarlicha ahamiyatli: korrelyatsiyaning xususiy koeffitsiyentlari juft koeffitsiyentlaridan ancha pastligini ko'rish mumkin. Bu korrelyatsion modelga kiruvchi omillar rentabellikka nafaqat bevosita, balki bilvosita ham ta'sir ko'rsatishidan darak beradi. Shuning uchun chalg'ituvchi omillar ta'siridan tozalagach, biroz chambarchas bog'lanish hosil bo'ldi.

Agar teskari yo'nalishdan ta'sir etuvchi omillar ta'siridan ham tozalasak, juda chambarchas bog'lanish hosil bo'ldi.

Bu sabablar orqali nafaqat korrelyatsiya koeffitsiyenti miqdori o'zgaradi, balki, bog'lanish yo'nalishi ham, umumiy ko'rinishda to'g'ri bo'lishi mumkin, aslida teskari tomonga o'zgarib ketgan bo'lishi mumkin yoki aksincha. Buni quyidagicha tushunish mumkin: korrelyatsiyaning juft koeffitsiyentlari hisoblanayotganda natijaviy va omilli ko'rsatkichlarning o'zaro bog'lanishi o'rganilayotganda, ularning boshqa omillar bilan ham o'zaro ta'sirlari hisobga olinadi. Masalan, agar mehnat unumdorligining o'sish sur'ati undagi to'lovni oshirish sur'atidan oshib ketsa, mehnatga haq to'lash darajasi oshganda rentabellik ham oshadi. Shuning uchun, umumiy holda rentabellik darajasi va mehnatga haq to'lash darajasi o'rtasidagi bog'lanish to'g'ri bo'ladi. Agar mehnat unumdorligi va boshqa omillarni o'zgartirmagan holda mehnatga haq to'lash darajasini oshirsak, u holda rentabellik pasayadi, ya'ni korrelyatsiyaning xususiy koeffitsiyenti minus belgisi bilan chiqadi.

Shunday qilib, korrelyatsiyaning xususiy va juft koeffitsiyentlari yordamida o'rganilayotgan holatlarning bevosita va umumiy hollardagi bog'lanishlari haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Omillarning o'zaro ta'sirini xarakterlaydigan korrelyatsiya koeffitsiyentlari ham muhim ahamiyatga ega. Ta'kidlab o'tilganidek, korrelyatsion modelga bir-biridan mustaqil bo'lgan omillar tanlab olinadi. Agar ikkita omilli ko'rsatkichning korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,85 dan yuqori bo'lsa, ularning bittasini modeldan chiqarib tashlash kerak. Korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasini o'rganish natijasida ushbu modelga kiritilgan omillar bir-birlari bilan zich bog'lanmagan degan xulosaga kelish mumkin.

Bog'lanishni chambarchasligini o'rganishda korrelyatsiya koeffitsiyentlari tanlash hajmiga bog'liq holda tasodifiyligiga e'tibor qaratish zarur. Ma'lumki, kuzatuvlar soni kamayishi bilan korrelyatsiya koeffitsiyenti ishonchliligi tushib ketadi yoki kuzatuvlar soni ortishi bilan korrelyatsiya koeffitsiyenti ishonchliligi oshadi.

Korrelyatsiya koeffitsiyenti ahamiyati Styudent mezoni bo'yicha tekshiriladi

$$t = \frac{r}{\sigma_r} = \frac{0,59}{0,103} = 5,72 \qquad (15)$$

bu yerda, σ_r – korrelyatsiya koeffitsiyentining o'rta kvadratik xatoligi bo'lib, u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$\sigma_r = \frac{1-r^2}{\sqrt{n-1}} = \frac{1-0,59^2}{\sqrt{40-1}} = 0,103 \qquad (16)$$

Agar t ning hisoblangan qiymati jadvaldagi qiymatdan katta bo'lsa, u holda korrelyatsiya koeffitsiyenti kattaligi ma'noga ega degan xulosa chiqadi. t ning jadvaldagi qiymati Styudent mezoni qiymati jadvalidan topiladi. Bunda erkinlik darajasi soni $(V = n-1)$ va ishonchli ehtimollik darajasi (iqtisodiy hisob-kitoblarda, odatda, 0,05 yoki 0,001) hisobga olinadi. Bizning misolda erkinlik darajasi soni $n-1=40-1=39$ga teng. Ishonchli ehtimollik darajasi esa $P = 0,05t = 2,02$ ga teng. Modomiki, t haqiqiy barcha holda t jadvaldan katta ekan, natijaviy va omilli ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanish ishonchli, korrelyatsiya koeffitsiyenti kattaligi esa ma'noga ega ekan.

1.33-jadval

Haqiqiy qiymati

O'zgaruvchi raqami	x_1	x_2	x_3	x_4	x_5
haqiqiy t	5,72	3,9	2,9	2,6	2,16

Korrelyatsion tahlilning keyingi bosqichi – bog'lanish tenglamasini (regressiyani) hisoblash bo'lib, u qadamli usulda olib boriladi. Dastlab natijaviy ko'rsatkichga ko'proq ta'sir ko'rsatadigan bitta omil qabul qilinadi, so'ng ikkinchi, uchinchi va h.k. Har bir qadamda bog'lanish tenglamasining ishonchliligini baholashga yordam beradigan bog'lanish tenglamalari, korrelyatsiyaning ko'p miqdorli koeffitsiyentlari (R), determinatsyalar (D), F-munosabat (Fisher mezoni), standart xau holda (?) va boshqalar hisoblab boriladi. Har bir qadamda ularning qiymati oldingisi bilan solishtirib boriladi. Korrelyatsiyaning ko'p miqdorli koeffitsiyenti, determinatsiya va Fisher mezoni qanchalik katta va standart xau holda qiymati qanchalik kichik bo'lsa, o'rganilayotgan

ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishni ifodalovchi bog'lanish tenglamasi shunchalik aniq bo'ladi. Agar keyingi qo'shilgan omil bog'lanish ko'rsatkichi bahosini yaxshilamasa, bu omilni tashlab yuborish kerak, ya'ni ko'rsatkich eng optimal bo'lgan bosqichda to'xtatilishi kerak.

Har bir qadamda natijalarni solishtirish beshinchi qatorda to'laligicha ifodalansa, bu bog'lanishni besh omilli model deyish mumkin.

1.34-jadval

Bog'lanish tenglamasini hisoblash natijalari

T/r	Bog'lanish tenglamasi	R	D	F	?
1	$Y_x = 5{,}81 + 7{,}68x_1$	0,59	0,35	50,3	895
2	$Y_x = -1{,}11 + 5{,}12x_1 + 0{,}15x_2$	0,75	0,56	57,6	1,548
3	$Y_x = -6{,}84 + 3{,}93x_1 + 0{,}11x_2 + 1{,}53x_3$	0,84	0,72	71,3	1,408
4	$Y_x = -2{,}44 + 3{,}89x_1 + 0{,}10x_2 + 1{,}37x_3 - 0{,}12x_4$	0,88	0,77	88,8	1,398
5	$Y_x = -0{,}49 + 3{,}65x_1 + 0{,}09x_2 + 1{,}02x_3 - 0{,}122x_4 + 0{,}052x_5$	0,95	0,85	95,6	1,358

Bu qadamda bog'lanish tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Y_x = 0{,}49 + 3{,}65x_1 + 0{,}09x_2 + 1{,}02x_3 - 0{,}122x_4 + 0{,}052x_5$$

bu yerda x_1 – material unumi, so'm;

x_2 – jamg'arma unumi, tiyin;

x_3 – mehnat unumdorligi (bir ishchi to'g'ri kelidigan bir yillik ishlab chiqarish), ming so'm;

x_4 – korxona aylanma mablag'ining aylanish davomiyligi, kun;

x_5 – eng yuqori sifatli mahsulotning solishtirma salmog'i, %

Tenglama koeffitsiyentlari har bir omilning natijaviy ko'rsatkichga sonli ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu holatda olingan tenglamaga quyidagicha izoh berish mumkin: material unumi 1 so'mga oshganda rentabellik 3,65%; jamg'arma unumi 1 kop.ga oshganda – 0,09%; bitta ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ishlab chiqarish 1 ming so'mga oshganda – 1,02%; eng yuqori sifatli mahsulotning solishtirma og'irligi 1% ga oganda – 0,052% ga oshadi. Mablag'ning aylanish davomiyligi 1 kunga oshsa, rentabellik o'rtacha 0,122% ga kamayadi.

Bog'lanish tenglamasidagi regressiya koeffitsiyentlari turli o'lchov birligiga ega. Bu esa natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir kuchi qanchaligi

haqidagi savol tug'ilganda, ularni solishtirilmaydigan qilib qo'yadi. Ularni solishtirish mumkin bo'lgan ko'rinishga olib kelish uchun regressiya tenglamasining barcha o'zgaruvchilari o'rta kvadratik og'ish ulushida ifodalanadi, boshqacha qilib aytganda, regressiyaning standart koeffitsiyentlariga mo'ljallanadi. Ular yana beta-koeffitsiyentlar ham deb nomlanib, (?) ko'rinishida ifodalash qabul qilingan.

Beta-koeffitsiyentlar va regressiya koeffitsiyentlari quyidagi munosabat orqali bog'langan:

$$\beta = b_i \frac{\sigma_{x_i}}{\sigma_y}$$

Beta-koeffitsiyentlar agan omil kattaligi bitta o'rta kvadratik og'ishga oshsa, unga mos, bog'liq bo'lgan o'zgaruvchi o'zining o'rta kvadratik og'ish ulushiga oshishi yoki kamayishini ko'rsatadi. Beta-koeffitsiyentlarni qiyoslash har bir omilning natijaviy ko'rsatkich kattaligiga ta'sir darajasini solishtirish to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bizning misolda rentabellik darajasiga material unumi, jamg'arma unumi va mehnat unumdorligi ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

1.35-jadval

Elastiklik koeffitsiyenti va beta-koeffitsiyentlar

O'zgaruvchi raqami	x_1	x_2	x_3	x_4	x_5
Elastiklik koeffitsiyenti	0,374	0,308	0,318	-0,080	0,061
Beta- koeffitsiyent	0,359	0,275	0,213	-0,118	0,133

O'xshashlik bo'yicha elastiklik koeffitsiyentini ham qiyoslash mumkin. Uni quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\acute{Y} = b_i \frac{\bar{x}_i}{\bar{y}}. \qquad (18)$$

Elastiklik koeffitsiyenti argument 1% ga o'zgarganda funksiya o'rtacha necha foizga o'zgarishini ko'rsatadi.

1.35-jadval ma'lumotlari bo'yicha rentabellik material unumi 1% ga oshganda 0,374% ga va jamg'arma unumi 1% ga oshganda 0,308% ga oshdi.

Korrelyatsion tahlil natijalarini baholash metodikasi. Bog'lanish tenglamasining ishonchliligi va uni amaliyotda qo'llash mumkinligiga ishonch hosil qilish uchun bog'lanish ko'rsatkichlarining ishonchliligiga statistik baho berish kerak. Buning uchun Fisher mezoni (*F*-munosabat), Darbin-Uotson mezoni (*DW*), approksimatsiyaning o'rtacha xatoligi (*?*), korrelyatsiyaning ko'p miqdorli koeffitsiyentlari (*R*) va determinatsiyalar (*D*) qo'llaniladi.

Fisher mezoni (*F*-munosabat) quyidagicha hisoblanadi:

$$F = \frac{\sigma^2_{\text{âîñò}}}{\sigma^2_{\text{îñò}}}, \text{ bu yerda } \sigma^2_{\text{âîñò}} = \frac{\sum\left(Y_{x_i} - \overline{Y}_x\right)^2}{m-1};$$

$$\sigma^2_{\text{îñò}} = \frac{\sum\left(Y_{i_i} - Y_{x_i}\right)^2}{n-m} \qquad (19)$$

bu yerda, Y_{x_i} – tenglama bo'yicha hisoblangan natijaviy ko'rsatkichning yakka tartibdagi qiymati;

$\overline{Y}_x$ – tenglama bo'yicha hisoblangan natijaviy ko'rsatkichning o'rtacha qiymati;

Y_i – natijaviy ko'rsatkichning haqiqiy yakka tartibdagi qiymati;

m – tenglamaning erkin qismlarini hisobga olgan holda bog'lanish tenglamasining parametrlari soni;

n – kuzatuvlar soni (tanlov hajmi).

F-munosabatning haqiqiy kattaligi jadvaldagilari bilan solishtirilib, bog'lanishning mustahkamligi haqida xulosalar qilinadi. Bizning misolda *F*-munosabat beshinchi qadamda 95,67 ga teng. *F* javdal *F* ning jadvaldagi qiymatli bo'yicha hisoblangan. Ehtimollik darajasi *P*= 0,05 va erkinlik darajalasi soni $(m - 1) = 6 - 1 = 5$, $(n - m) = (40 - 6) = 34$ bo'yicha u 2,49 ni tashkil qiladi. Modomiki, $F_{his} > F_{jad}$ ekan, rentabellik va o'rganilayotgan omillar orasida bog'lanish mavjud emas degan faraz rad qilindi.

Korrelyatsion tahlil natijalari borasida metodik aniqlikni oshirish maqsadida regression model Darbin-Uotson (DW) mezoni bo'yicha ham baholanishi kerak. Bu o'rganilayotgan omillar o'rtasida

avtokorrelyatsiyalar mavjudligini topishda ishlatiladi. Maxsus jadvallar bo'yicha kuzatuvlar soni, omillar soni va olingan natijalarni ularning darajalari hisobidan kelib chiqib, minimal va maksimal ruxsat etilgan chegaralari aniqlanadi.

Agar mazkur mezonning hisoblangan darajalari $d_u < DW < 4 - d_u$ chegarada bo'lsa, u holda regression modelda o'rganilayotgar omillar o'rtasida avtokorrelyatsiya mavjud emas degan xulosaga kelish mumkin. Avtokorrelyatsyalar mavjud bo'lsa, olingan bog'lanish tenglamasi qoniqarsiz deb hisoblanadi.

Bizning misolda $DW = 1{,}96$, keskin (kritik) nuqtalar d_1, d_2 lar esa kuzatuvlar soni $n = 40$, bog'lanish tenglamasidagi o'zgaruvchilar soni $m = 5$ va berilgan ahamiyatga ega daraja $a = 0{,}05$ da mos ravishda 1,23 va 1,786 ga teng.

Modomiki, DW o'zining mumkin bo'lgan boshlang'ich va oxirgi chegaralari orasida joylashgan ekan ($1{,}786 < 1{,}96 < 2{,}214$), bu avtokorrelyatsiya yo'qligidan dalolat beradi. Demak bu tasdiqlangan eng yuqori sifatli model hisoblanadi.

Bog'lanish tenglamasining aniqligiga statistik baho berish uchun approksimatsiyaning o'rtacha xatoligi (?) qo'llaniladi:

$$\bar{\varepsilon} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}\left(\frac{Y_{x_i} - \bar{Y}}{Y_i}\right)^2. \qquad (20)$$

Regressiyaning nazariy chizig'i (tenglamadan hisoblangan) haqiqiysidan (empirik) kamroq og'sa approksimatsiyaning o'rtacha xatoligi shunchalik kam bo'ladi. Bu esa bog'lanish tenglamasining shakli to'g'riligidan dalolat beradi. Bizning misolda u 0,0364 yoki 3,64% ga teng. Iqtisodiy hisob-kitoblarda 5-8% gacha xatolikka yo'l qo'yilishi mumkinligini hisobga olsak, ushbu tenglama o'rganilayotgan bog'lanishni yetarlicha aniq ifodalaydi degan xulosaga kelish mumkin. Bunday katta bo'lmagan xatolik bilan ushbu tenglama bo'yicha rentabellik darajasini oldindan taxmin qilish mumkin.

Korrelyatsiyaning ko'p miqdorli koeffitsiyentlari va determinatsiyalar kattaligi orqali bog'lanish tenglamasini to'laroq muhokama qilish mumkin. Bizning misolda, oxirgi qadamda $R = 0{,}92$ va $D = 0{,}85$ ga teng. Demak, rentabellik variatsiyasi o'rganilayotgan omillar o'zgarishiga 85% hisobga olinmagan omillar o'zgarishiga esa 15% bog'liq ekan. Demak, ushbu tenglamani amaliy maqsadda qo'llash

mumkin.

Korrelyatsion tahlil natijalarini amaliyotda qo'llash metodikasi. Barcha parametrlar bo'yicha tekshirilgan regressiya tenglamasidan quyidagicha foydalanish mumkin:

- xo'jalik faoliyati natijalarini baholash uchun;
- omillarni natijaviy ko'rsatkichlarning oshishiga ta'sirini hisoblashda;
- o'rganilayotgan ko'rsatkichlar darajasini oshirishda zaxiralarni hisoblashda;
- uning miqdorini rejalash va taxmin qilishda.

Bor imkoniyatlardan kelib chiqqan holda korxonaning xo'jalik faoliyati natijalarini baholashda natijaviy ko'rsatkichning haqiqiy qiymatlari ko'p miqdorli regressiya tenglamasi asosida aniqlangan nazariy (hisoblangan) ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Bizning misolda (-jadvalga qarang) №1 korxonada material unumi (x_1) – 2,4 so'mni, jamg'arma unumi (x_2) – 80 tiyinni, mehnat unumdorligi (x_3) – 8 ming so'mni, aylanma mablag'larning aylanish davomiyligi (x_4) – 25 kun, eng yuqori sifatli mahsulotning solishtirma og'irligi (x_5) – 25% ni tashkil qiladi. Bundan ushbu korxona uchun rentabellikni hisoblash darajasi quyidagicha:

$$Y_x = 0{,}49 + 3{,}65 \cdot 2{,}4 + 0{,}09 \cdot 80 + 1{,}02 \cdot 8 - 0{,}122 \cdot 25 + 0{,}052 \cdot 25 = 22{,}86\%$$

U 0,36% ga oshib ketyapti. Korxona o'z imkoniyatlaridan juda yomon foydalanmoqda degan xulosaga kelish mumkin.

Har bir omilning natijaviy ko'rsatkich o'sishiga (rejadan chetga chiqish) ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Y_{x_i} = b_i \cdot \Delta x_i \qquad (21)$$

bu yerda b_i – bog'lanish tenglamasida regressiya koeffitsiyenti;

Δx_i – omilli ko'rsatkichning hisobot davridagi o'zgarishi.

Demak, har bir omil ko'rsatkichlari bo'yicha reja oxirigacha bajarilmagan (-jadval), rentabellik darajasi rejadagiga 2,09% ga yetmadi.

1.36-jadval

Omillarning rentabellik darajasi o'sishiga ta'siri hisobi

Omilli ko'rsatkich	Hisobot davridagi ko'rsatkichlar darajasi		Δx_i	b_i	ΔY_{x_i}
	reja	haqiqiy			
x_1	2,5	2,4	-0,1	3,65	-0,365
x_2	90	80	-10	0,09	-0,900
x_3	8,2	8,0	-0,2	1,02	-0,204

x_4	22,0	25,0	+3,0	-0,122	-0,260
x_5	30	25	-5,0	+0,052	-0,260
Y	25,0	22,5	-2,5	-	-2,095

5. Chiziqli dasturlash usuli va uning tahlilda qo'llanilishi

Chiziqli dasturlash usuli iqtisodiyotda ko'p uchraydigan ekstremal masalalarni hal qilishda ko'p qo'llaniladi. Ushbu turdagi masalalarni yechimi funksiyalardagi o'zgaruvchan miqdorlarni chetki qiymatlarini (maksimum va minimum) topishga qaratilgandir.

Chiziqli dasturlash qat'iy funksional bog'liqlikda bo'lgan voqeliklarni o'rganib, chiziqli tenglamalar tizimini (tenglama va tengsizliklarni qayta shakllantirib) yechishga asoslangan. O'zgaruvchan miqdorlarning matematik ifodasi, ularning aniq tartibi, hisob-kitoblarning ketma-ketligi, mantiqiy tahlillarning chiziqli dasturlashga xos jihatlardir. Ushbu usulni faqat quyidagi holatlarda qo'llash mumkin:

A) o'rganilayotgan o'zgaruvchan miqdorlar matematik aniqlik va miqdoran cheklangan bo'lsa;

B) omillarni o'zaro almashtirish asosida aniq ketma-ket hisob-kitoblar amalga oshirilsa;

V) o'rganilayotgan obyektning tushunishdagi mantiqiy asoslash bilan hisob-kitoblardagi mantiq, matematik mantiq o'zaro mos kelsa.

Chiziqli dasturlash qo'llanib hal etiladigan barcha iqtisodiy masalalar aniq cheklangan sharoitlarda muqobil yechim topishi bilan farq qiladi. Demak, mazkur usulda masalani hal qilish - mavjud muqobil imkoniyatlar orasida eng maqbul hamda yaxshisini tanlab olishdir. Iqtisodiyotda chiziqli dasturlashdan foydalanishning qimmati va ahamiyati shu bilan izohlanadiki - mavjud ko'p miqdordagi ahamiyatli muqobil variantlar ichida eng maqbul variant tanlanadi. Boshqa usullar yordamida mazkur turdagi masalalarni hal qilishning imkoni mavjud emas.

Ushbu usul yordamida sanoat korxonalarida stanoklarning eng maqbul unumdorligi, qishloq xo'jaligida minimal miqdor va qiymatdagi ozuqa ratsioni, transport masalalari hal etiladi.

Nazariy o'yin usuli va tahlilda foydalanishning o'ziga xos tomonlari. Nazariy o'yin usuli o'rganilayotgan voqelik tafsifiga ko'ra undagi mavjud vaziyatlar ichida eng maqbul strategiyani topishni tadqiq qiladi. Bunda korxona uchun eng qulay va maqbul vaziyat strategiya qilib boshqaruv qarorlari asosida belgilab olinadi. Mazkur holatni matematik ko'rinishga keltirishda har bir vaziyatni alohida o'yin ishtirokchisi deb belgilab olinadi. Har bir ishtirokchi esa o'zining manfaatini maksimallashtirishni boshqa ishtirokchilar hisobidan amalga oshirishga harakat qiladi.

Nazariy o'yin usulida masala aniq formulalashtirishni talab qiladi. Bunda o'yin qoidasi va ishtirokchilar soni belgilanadi, ishtirokchilar imkoniyatidagi strategiyalar aniqlanadi, yutuqlar va yutqazishlar o'rganiladi.

Masalalarni hal qilishda algebraning chiziqli tenglamalar va tengsizliklar tizimi usullari va boshqa shu kabilardan foydalaniladi.

Nazariy o'yin usulining mazmunini quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin.

Korxona mavsumiy ishlab chiqarish sikliga ega bo'lib bolalar kiyimi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Qishki mavsum uchun kurtka va palto ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Biroq, mahsulotlarni qaysi birini qancha ishlab chiqarish qish mavsumidagi ob-havoga bog'liq. Agar, qish mavsumida o'ta sovuq bo'lishi kutilayotgan bo'lsa palto mahsuloti ko'p ishlab chiqariladi. Basharti, qish mavsumi iliqroq kelsa kurtka mahsulotiga talab ko'p bo'ladi. Yana, bu yerda shu holatlar kuzatiladiki qishning o'ta sovuq bo'lishi rejalashtirilgan bir paytda mavsum iliq kelishi mumkin, yoki aksincha. Bu esa, korxona ishlab chiqargan mahsulotlarini qaysi bir turini sotilmay qolishiga sabab bo'ladi. Demak, yuqorida ko'rib chiqilgan vaziyatlarda korxonaning mahsulot sotishdan tushum, pirovardda esa foydasi (zarari) turlicha bo'ladi. Maksimal tushumga, uning natijasida foydaga erishish (yoki zarar ko'rish) korxona uchun eng ma'qul variant hisoblanmaydi. Chunki, qaysidir bir vaziyat ushbu maqsadni yo'qqa chiqarishi mumkin.

Shuning uchun, bu holatda tushum hamda foyda olishning o'rtacha miqdorini belgilab olish eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Chunki, ob-havoni qanday bo'lishidan qat'iy nazar mahsulotlar miqdorini maqbul holatda rejalashtirish qo'yilgan maqsadga erishishdagi eng to'g'ri yo'ldir. Ushbu usulni quyidagi misol yordamida o'rganib chiqamiz.

Bolalar ustki kiyimi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik korxona oktyabr va noyabr oylarida bir dona kurtka ishlab chiqarish uchun 30,0 ming so'm xarajat qiladi, bir dona palto ishlab chiqarish uchun esa -40,0ming so'm xarajat qiladi. Sotish bahosi esa kurtka uchun - 35,0 ming so'm bo'lsa, Palto uchun esa – 50,0 ming so'm.

Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, korxona havo iliq kelsa 270 dona kurtka, 170 dona palto sotar ekan. Sovuq havoda esa 200 dona kurtka mahsuloti, 250 dona palto mahsulotini sotish imkoniyati mavjud.

Ob-havoni qanday bo'lishligi avvaldan bashorat qilish qiyinligini e'tiborga olib, ya'ni tabiat injiqligini hisobga olgan holda korxonaga tushadigan tushumni barqarorlashtirish talab etilsa, quyidagicha hisob-kitob ishlari amalga oshiriladi.

1. Mavsum iliq kelsa korxona tushumi quyidagicha bo'ladi.

$$270 * 35 + 170 * 50 = 19500,0 \text{ ming so'm;}$$

2. Mavsum sovuq kelsa korxona tushumi quyidagicha bo'ladi.

$$200 * 35 + 600 * 50 = 17950,0 \text{ ming so'm.}$$

Bu yerda korxonaning iliq havo uchun mo'ljallagan strategiyasini A hamda sovuq havo uchun esa V, tabiatning iliq havosi uchun S, sovuq havosi uchun D kabi belgilashlarni kiritamiz

Korxona uchun A va V strategiyalardan tashqari, tabiatning injiqligi ham mavjud. Bu holat ham erishiladigan tushum, natijada esa foydaga (zarar) o'z ta'sirini ko'rsatadi. Misol uchun, korxona A strategiyani qo'lladi, lekin havo sovuq (D) keldi. Bunda korxonaning tushumi:

$$200 * 35 + 170 * 50 - 80 * 40 = 12300 \text{ ming so'm.}$$

Agar korxona V strategiyani qo'llagan holda S iliq havo bo'lsa, u holda:

$200 * 35 - 70 * 30 + 170 * 50 = 1300$ ***ming so'mni*** tashkil etadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib esa, quyidagi matritsa jadvalini tuzamiz. Bunda korxona R_1- komanda, tabiatni esa R_2 shartli belgi bilan belgilab olamiz.

1.37-jadval

Nazariy o'yin usulida daromadlarni boshqarish strategiyasini belgilash

Ishtirokchilar	**R_2 (Tabiat)**			
	Strategiya	S	D	Min
P_1(Korxona)	A	19500	12300	12300
	B	13400	17950	13400
	Max	19500	17950	-

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning strategiyasi tabiat strategiyasi bilan bir xil bo'lsa 19500 yoki 17950 ming so'm foydaga erishishi mumkin. Aks holda mazkur ko'rsatkich 12300 yoki 13400 ming so'm holatida qoladi. Bu yerda P_1 va R_2 o'yinchilarni strategiyasi o'zaro muvofiq kelmaydi deb qaraladi. Demak, korxona eng kam foydaga erishadi deb olinadi. Ya'ni, o'yinda korxona yutqizadi.

Shu sababli, korxona bu ikki mahsulot turidan o'rtacha foydaga erishish yo'lini ishlab chiqadi.

Buning uchun

R_1 o'yinchining A strategiyasida chastotani noma'lum X bilan belgilaymiz. Mazkur holatda V strategiyadagi chastota esa (1-X) miqdorga teng bo'ladi.

Endigi navbatda quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshiramiz:

$19500X+12300(1-X)=13400X + 17950(1-X)$

$117500X=56500$

$X=0,48 \quad (1-0,48)=0,52$

$19500*0,48 + 12300*0,52=15756$

$13400*0,48 + 17950*0,52=15766$

$(200 + 250)*0,48 +(270+170)*0,52 = 236$ kurtka + 208 palto

Demak korxona shuncha assortimentdagi mahsulot ishlab chiqarishi uning omillar ta'sirida tushumning va daromadning bir xilligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Xo'jalik faoliyatining tahlili: ichki moliyaviy tahlil, tashqi moliyaviy tahlil

Moliyaviy tahlil yuzasidan rasmiy jihatlarning belgilanmaganligi sababli uni tashkil etishda an'anaviy yo'nalishlardan foydalanish mumkin.

Odatda, buxgalteriya hisobini yoki auditni (ichki, tashqi) tashkil etishda rasmiy jihatlar bilan belgilangan aniq tartib va qoidalar ushbu jarayonni tashkil etishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, yangi tahrirdagi "Buxgalteriya hisobi" to'g'risidagi qonunning "Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish" to'g'risidagi 11-moddasi buxgalteriya hisobi va hisobotini buxgalteriya hisobi subyektining rahbari amalga oshirishi qayd etiladi hamda buxgalteriya hisobi subyektining rahbari qanday huquqdarga ega ekanligi tarkiblanadi[7]. Ushbu huquqlar qatorida:

Buxgalteriya hisobi xizmatining rahbari boshchiligida buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish yoki shartnoma asosida jalb qilingan buxgalter xizmatidan foydalanish;

Buxgalteriya hisobini yuritishni ixtisoslashtirilgan tashkilotga (auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari va ustavida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatish nazarda tutilgan boshqa tashkilotlar) shartnoma asosida yuklashi;

Buxgalteriya hisobini mustaqil yuritishi qayd etiladi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning ushbu tartiblari bevosita, iqtisodiy tahlilga nisbatan ham to'la mos deyish mumkin.

Tahlilni tashkil etishda ichki moliyaviy tahlilni tashkil etilishi va tashqi moliyaviy tahlilni tashkil etilishini tarkiblash maqsadga muvofiqdir.

Tashqi moliyaviy tahlil cheklangan axborotlarni aks ettiruvchi moliyaviy hisobot shakllari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatini o'rganishni xarakterlaydi va korxona erishgan natijalarining barcha sirlarini ochib berish imkonini bermaydi. Ushbu tahlil ichki axborot bazasidan foydalanish imkoniga ega bo'lmagan,

[7] Узбекистон республикасининг «Бухгалтерия хисоби тугрисида»ги конуни 2016 йил 13-апрель

korxona faoliyati bilan qiziquvchi kontirgentlar tomonidan, mulk egalari yoki davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tashqi moliyaviy tahlilning ahamiyatli jihatlari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

-tahlil subyektlari va axborot foydalanuvchilarining ko'pligi;

-tahlilchilarning maqsadi va qiziqishlarining turli-tumanligi;

-hisobga olish va hisobotlashning normativ qoidalari, tahlil etishning rasmiy jihatlarini belgilanganligi;

-tahlilning faqat chop etiladigan moliyaviy hisobot shakllaridagi axborotlar bazasiga tayangan holda o'tkazilishi;

-qo'yiladigan analitik masalalarning cheklanganligi;

-axborot foydalanuvchilar uchun korxona faoliyati yuzasidan tahlil natijalaridan foydalanishning maksimal ochiqligi.

Tashqi moliyaviy tahlilning asosiy jihatlari moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida korxona aktivlari, o'z sarmoyasi va majburiyatlarining o'zgarishiga, to'lov layoqati va likvidlilik darajasiga, moliyaviy holati va barqarorligi, bozor va ish aktivligiga, moliyaviy va iqtisodiy salohiyatiga, iqtisodiy mustahkamligi va nochorligiga, foyda va rentabellik darajasiga, pul oqimi va xususiy kapitalning o'zgarishlariga, korxonaning iqtisodiy reytingini aniqlashga qaratiladi.

Ichki moliyaviy tahlil-korxonaning ichki bo'limlari, xodimlari tomonidan o'tkazilib o'rganiladigan masalalarning ko'lami bilan tashqi moliyaviy tahlildan farq qiladi. Ichki moliyaviy tahlilning axborotlar bazasi va o'rganiladigan masalalarning ko'lami tashqi moliyaviy tahlilga nisbatan keng hisoblanadi. Uning axborotlar bazasiga faqat chop etiladigan moliyaviy hisobotlarnigina emas, balki moliyaviy hisobning barcha manbalaridan va hisobdan tashqari manbalarini ham kiritish mumkin. O'rganiladigan masalalar ko'lamini boshqaruvchilar va tahlilchilarning qiziqishlari doirasidani kelib chiqib belgilash mumkin. Ushbu tahlil turining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin.

Ichki moliyaviy tahlilning o'ziga xos jihatlari:

-tahlil subyektlarining tor guruhi;

-tahlil natijalari faqat ichki talablarga, korxona boshqaruvi yuzasidan yo'naltirilganligi;

-teran moliyaviy tahlilni o'tkazishda axborotlarning keng doirasidan foydalanish imkoniyatini yuqoriligi;

-tahlilni o'tkazish bo'yicha normativ metodikalar bilan birgalikda aniq reglamentlari (tartiblarning) belgilanmagan usullaridan foydalanish imkoniyatlari;

-aniq boshqaruv qarorlarini tayyorlash yuzasidan chuqur moliyaviy tahlilni o'tkazishning imkoniyatligi;

-boshqaruv apparati talablaridan kelib chiqqan holda analitik ishni tashkil etilishi.

Moliyaviy tahlil mazmuni bo'yicha to'liq moliyaviy tahlil va tematik moliyaviy tahlil turlariga tarkiblanadi

To'liq moliyaviy tahlil korxona moliyaviy faoliyatining barcha jihatlarini kompleks o'rganishni xarakterlaydi. Tematik moliyaviy tahlil korxona moliyaviy faoliyatining alohida jihatlarini va akspektlarini o'rganishni xarakterlaydi. Tematik moliyaviy tahlil predmetiga: aktivlardan samarali foydalanish, aktivlarni moliyalashtirishda alohida manbalardan optimal foydalanish darajasi, to'lov layoqati va moliyaviy barqarorlik holati, optimal investitsion faoliyat, kapitalning moliyaviy tuzilishi kabi masalalarni kiritish mumkin.

Moliyaviy tahlilda obyektni qamrab olinishi yuzasidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'liq (bir butunlikdagi) moliyaviy tahlili, alohida bo'limlar va birliklarning moliyaviy holatini tahlili (iqtisodiy javobgarlik markazlari bo'yicha), hamda alohida moliyaviy jarayonlar tahlilini tarkiblash mumkin[8].

---

[8]Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., ЕфимоваО.В. [идр.]. Анализфинансовойотчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с., K. R. SubramanyamFINANCIALSTATEMENTANALYSIS, Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., ЕфимоваО.В. [идр.]. Анализфинансовойотчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с., K. R. SubramanyamFINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITIONPublished by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика

O‘tkazish davri bo‘yicha moliyaviy tahlil oldingi, joriy va istiqbolli tahlil turlariga tarkiblanadi.

Oldingi moliyaviy tahlil – korxona moliyaviy faoliyatini bir butunlikda yoki alohida olingan moliyaviy jarayonlar bo‘yicha shart-sharoitlarini bilish bilan bog‘lanadi (masalan, uzoq va qisqa muddatga bank kreditlarini olish yuzasidan korxonaning to‘lov layoqatini baholash).

Joriy (operativ) moliyaviy tahlil – alohida moliya rejalarini bajarilishida yoki moliya operatsiyalarini amalga oshirish davomida operativ tarzda moliyaviy holatga ta’sir etish yuzasidan o‘tkaziladigan tahlil turidir.

Istiqbolli moliyaviy tahlil – amaldagi holatni o‘rganish asosida moliyaviy holat va uning alohida birliklari bo‘yicha kelajakdagi o‘zgarishlarning kutilishlarini baholab beruvchi tahlil turidir.

Moliyaviy tahlilni tashkil etish bosqichlarini iqtisodiy tahlil va uning tarkibiy qismlariga nisbatan yagona asosda birday belgilash to‘g‘ri, lekin aynan moliyaviy tahlil yuzasidan uni quyidagi ketma-ketlikda o‘tkazish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

- Moliyaviy tahlil maqsadini belgilash va rejasini tuzish;
- Moliyaviy tahlil yuzasidan ma’lumotlar bazasini to‘plash;
- Moliyaviy tahlilni bevosita o‘tkazish bosqichi;
- Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi;
- Qarorlar tayyorlash bosqichi;
- Tahlil natijalarini realizatsiya qilish bosqichi.

2007. 367 стр, Пардаев М.К. ва бошкалар Молиявий ва бошкарув тахлили, дарслик.Т.:Чулпон. 2012,, 490 б., Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности. Минск: РИПО, 2012. — 367 с. Вахобов А.В., Ибрагимов А.Т., Ишонкулов Н.Ф.Молиявий ва бошкарув тахлили. Т.:Иктисод-молия. 2013,598 б., Ковальев В.В., Волькова О.Н. Анализ хозяйственной деятельности предприятия.М.: финансы и статистика, 2008, 415 с.ELEVENTHEDITIONPublishedbyMcGraw-HillEducation, 2 PennPlaza, NewYork, NY 10121. Copyright © 2014 by, Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр

Iqtisodiy tahlilni yoki moliyaviy tahlilni tashkil etishdagi yondashuvlar turlicha bo'lganligi bilan ularning mazmuni albatta bitta jihatga ya'ni tahlilni sifatli va foydali o'tkazishga qaratilgan.

Moliyaviy tahlil - moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida firma va kompaniyalarning moliyaviy holatiga iqtisodiy tashxis qo'yishni tavsiflaydi. Moliyaviy tahlilda firma va kompaniyalar mulki, kapitali va majburiyatlarining holatiga, faoliyat natijaviyligiga, asosiy va aylanma kapital holatiga va samaradorligiga, pul mablag'lari va xususiy mablag'larning holatiga baho beriladi.

Moliyaviy tahlilda o'rganiladigan masalalarni quyidagi 1.38-jadvalda ko'rib chiqish mumkin.

1.38-jadval

Moliyaviy tahlil va uni o'rganish obyektlari
(moliyaviy hisobot shakllarini tuzilishi bo'yicha)*

Moliyaviy tahlil			
Buxgalteriya balansini tahlili	Moliyaviy natijalar tahlili	Pul mabalag'larini tahlili	Xususiy kapitalni tahlili
O'rganiladigan masalalar			
Korxonaning mulkini tuzilishi va dinamikasi tahlili	Zararsizlik tahlili	Operatsion faoliyatdan pul oqimini tahlili	Xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi tahlili
Korxona mulkini manbalash tarkibi va dinamikasini tahlili	Marjinal foyda tahlili	Investitsion faoliyatdan pul oqimini tahlili	Xususiy kapital o'zgarishi tahlili
To'lov layoqati tahlili	Mahsulot sotishdan foyda tahlili		
Likvidlik tahlili	Asosiy faoliyatdan moliyaviy natijalar tahlili	Soliqqa tortishdan pul oqimini tahlili	
Moliyaviy barqarorlik tahlili	Moliyaviy faoliyatdan natijalar tahlili	Moliyaviy faoliyatdan pul oqimini tahlili	
Debitorlik va	Favqulodda	Valyuta	Xususiy kapital

kreditorlik majburiyatlari tahlili	daromadlar tahlili	mablag'larini tahlili	samarasi va daromadligi tahlili
Kreditga qodirlilik tahlili	Sof foyda va uning taqsimlanish tahlili	Pul oqimini diskontlash	
Ish aktivligi tahlili	Moliyaviy natijalarni omilli tahlili	Pul oqimini bashoratlash	
Bozor aktivligi tahlili	Rentabellik tahlili		Xususiy kapital rentabelligi tahlili
Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili			
Moliyaviy holat reytingi			
Iqtisodiy salohiyat tahlili			
Moliyaviy salohiyat tahlili			

*-shuningdek, investitsion loyihalar tahlili, moliyaviy rejalar tahlili, byudjet tahlili alohida tahlil obyekti sifatida olinishi mumkin

Moliyaviy tahlil asosida firma va kompaniyalarning moliyaviy ahvolidan, moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlardan voqif bo'linadi.

Tahlil natijalaridan nafaqat ichki balki, tashqi foydalanuvchilar ham foydalanishlari mumkin. Negaki moliyaviy hisobot va moliyaviy tahlil natijalarida sir saqlanadigan, ya'ni birovning zarari hisobiga boshqa birovning naf ko'rishi mumkin bo'lgan axborotlar kuzatilmaydi. Shu sababli, moliyaviy tahlilning ko'plab subyektlarini tarkiblash mumkin.

1.39-jadval

Ichi va tashqi moliyaviy tahlil

Farqlash belgisi	Ichki moliyaviy tahlili	Tashqi moliyaviy tahlil
1	2	3
1.Obyekti bo'yicha	Firma va kompaniyaning moliyaviy natijasi, moliyaviy holati, pul mablag'larini keng qamrovli tahlili	Firma va kompaniyaning moliyaviy natijasi, moliyaviy holati, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy nochorlik, reyting baholash, kreditga qodirlik
2.Subyekti bo'yicha	Firma va kompaniyaning o'z xodimlari	Firma va kompaniyalar faoliyati bilan

		qiziquvchilarning keng doirasi
3.Tartibga solinishi	Umumiy, firma va kompaniyalar ichki nizomi, qoidalari asosida	Umumiy Nizom, qoidalar asosida tartibga solinadi
4.Maqsadi	Firma va kompaniyaning moliyaviy natijasi, moliyaviy ahvoli, pul mablag'larini optimallashtirish, biznes samaradorligini o'stirish yuzasidan ichki imkoniyatlarni aniqlash va yo'lga qo'yish	Firma va kompaniyaning moliyaviy natijasi, moliyaviy holati, investitsion jozibadorligi, iqtisodiy nochorligi, reyting bahosini aniqlash tashqi subyektlarning qiziqishlarini, manfaatlarini boshqarish
5.Ma'lumot iste'molchilari	Faqat, shu firma, kompaniya boshqaruvi xodimlari, menejerlar	Tashqi tahlil subyektlari
6.Usullari bo'yicha	Tahlilni ananaviy, matematik, maxsus usullari	Moliyaviy tahlilni maxsus usullari
7.Ma'lumotlarni olish ko'lami	Ma'lumotlarni olish imkoniyatlari keng	Ma'lumotlarni olish imkoniyatlari cheklangan (faqat rasmiy moliyaviy hisobotlar orqaligina tahlil o'tkaziladi)
8.Tahlil natijalarini manfaatligi	Ko'proq o'zi uchun manfaatli	Firma va kompaniyalarning o'zi hamda tashqi qiziquvchilar guruhi uchun manfaatli
10. Vazifalarni hal etilishi	Vazifalarni hal etilishi faqat shu korxona boshqaruv xodimlari uchun xizmat qiladi.	Vazifalarni hal etilishi ham ichki, ham tashqi tahlil subyektlari uchun xizmat qiladi
11.Tahlilni tashkil etilishi	Ko'proq firma va kompaniyalar uchun maqbul shaklda tashkil etiladi	Tashqi tahlil subyektlari uchun maqbul shaklda tashkil etiladi

1.6. Moliyaviy tahlilning maxsus usullari: moliyaviy hisobotni o‘qish, gorizontal, vertikal, trend, qiyosiy, omilli, koeffitsiyentlar tahlili.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati yuzasidan obyektiv axborotlarni olish yo‘llarini belgilab beruvchi tahlil usullariga quyidagilarni kiritish mumkin[9]:

- moliyaviy hisobotni o‘qish
- gorizontal tahlil
- vertikal tahlil
- trend tahlili
- qiyosiy tahlili
- moliyaviy koeffitsiyentlar
- omilli tahlil

Moliyaviy hisobotlarni “o‘qish” – deganda moliyaviy hisobotni manzilli o‘rganish tartibi tushuniladi. Ya’ni korxonani bilishni dastlabki o‘rganish usulidir.

Gorizontal tahlil-moliyaviy hisobot elementlari va ularning moddalarini mutlaq va nisbiy farqlash orqali o‘zgarishlarini aniqlash usulidir.

Vertikal tahlil-mablag‘lar va ularning tashkil topish manbalarini, daromad va xarajatlarni, moliyaviy hisobotlarning boshqa elementlarini tarkibiy o‘rganish usulidir.

Trend tahlili – asos ko‘rsatkichiga nisbatan dinamik o‘rganish usulidir.

Qiyosiy tahlil – bir yoki bir nechta ko‘rsatkichlar tizimini, turli obyektlar bo‘yicha taqqoslash usulidir.

---

[9]Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., Ефимова О.В. [и др.]. Анализфинансовойотчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с., K. R. SubramanyamFINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITIONPublished by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр

Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili – moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini o‘zaro nisbatlash asosida aniqlanadigan ko‘rsatkichlar asosida baholash usulidir.

Omilli tahlil – natijaviy ko‘rsatkichga ta’sir etuvchi birliklarni va hisob kitob qilish mumkin bo‘lgan birliklarda aniqlash usulidir[10].

Moliyaviy tahlil usullari qatoriga ayrim manbalarda, shuningdek, taqqoslama (solishtirma) tahlil, loyihaviy tahlil, diskontlash usullari ham kiritiladiki ushbu usullar iqtisodchilar guruhiga kiruvchi boshqa mutaxassislar tomonidan ko‘proq qo‘llaniladigan usullardir.

Yuqorida keltirilgan usullar tahlilchilarning barcha qatlami uchun yagona usullar sifatida foydalaniladi.

Tahlil usullarining sxematik tushuntirish ularni anglashni yanada osonlashtiradi. Shu sababli, bir xil holatning har xil jihatlarini aks ettiruvchi moliyaviy hisobot elementlari moddalariga nisbatan, shuningdek, moliyaviy holat ko‘rsatkichlariga nisbatan ushbu usullarning tasnifini berib o‘tamiz.

Moliyaviy hisobotni «o‘qish». Moliyaviy hisobotni «o‘qish» deganda ko‘pincha moliyaviy hisobotning manzilligi (egasi) mulki shakli (xususiy, aksionerlik, h.k.), o‘lchov birligi (milliy va xorijiy valyuta), yuridik manzilli, davriyligi (qaysi davrga to‘zilishi) tasniflash tushuniladi. Aslida o‘qish kengroq tushuncha. Unda mulkning o‘ziga va qarzga olingan qismlarga bo‘linishi, agar korxonada pul mablag‘lari bo‘lsa, ular hozirda kimga tegishli ekanligi, agar korxona foydaga ega bo‘lsa, ular qaysi aktivlarda shakllanganligi (moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rinishda ekanligi), balansning o‘sishi nimani izohlashi, agar korxona moliyaviy barqaror bo‘lsa yoki nobarqaror bo‘lsa u balansda qanday joylashuvi kabi masalalarni ham qamrab olmog‘i lozim.

---

[10]Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., Ефимова О.В. [и др.]. Анализфинансовойотчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с., K. R. SubramanyamFINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITIONPublished by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр

Gorizontal tahlil – alohida moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash orqali moliyaviy holatdagi o‘zgarishlarga baho berish usuli hisoblanadi. O‘zgarishlar, mutlaq va nisbiy ifodalarda aniqlanadi.

Moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini, moliyaviy ko‘rsatkichlarni gorizontal tahlil asosida ularning o‘sish darajalariga baho beriladi.

Moliyaviy tahlilda gorizontal tahlilning quyidagi shakllaridan foydalaniladi.

1.Hisobot davri moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘tgan yilning shu davri (dekada, oy, chorak) ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash;

2.Hisobotning moliyaviy ko‘rsatkichlarini o‘tgan yilning shu davri ko‘rsatkichi bilan taqqoslash (masalan joriy davr 1-choragini o‘tgan yilning 1-choragi bilan taqqoslash)

3-Bir necha yillar bo‘yicha moliyaviy ko‘rsatkichlarni taqqoslash.

1.40-jadval

Buxgalteriya balansining gorizontal tahlili

Balans aktivi	**Hisobot davri boshiga**	**Hisobot davri oxiriga**	**Farqi +,-**	**O‘sishi, %**
1	**2**	**3**	**4(3-2)**	**5(3/2)*100-100**
Aktiv				
Uzoq muddatli aktivlar	UM0	Um1	UM1-UM0	UM1/UM0*100-100
Joriy aktivlar	JA0	JA1	JA1-JA1	JA1/JA1*100-100
Aktiv jami	A0	A1	A1-A0	A1/A0*100-100
Passiv				
O‘z mablag‘lari manbasi	O‘M0	O‘M1	O‘M1-O‘M0	O‘M1/O‘M0*100-100
Majburiyatlar	M0	M1	M1-M0	M1/M0*100-100
Passiv jami	P0	P1	P1-P0	P1/P0*100-100

Vertikal tahlil - gorizontal tahlilni to‘ldiruvchi usuli sifatida moliyaviy hisobot elementlari, moddalarining tarkibiy jihatlariga baho

berishni xarakterlaydi. Ushbu jihatlarni moliyaviy hisobotlarning barcha shakllariga nisbatan qo'llash mumkin. Umumiy tarkibda yakka birliklarninng salmog'i va ularning o'zgarishlari asosida korxona moliyaviy holatini tashxislash yanada osonlashadi. Korxonani moliyaviy ahvolini anglash, bilishda asosiy jihatlar jami tarkibda birlik qatorlarni to'g'ri nisbatlashga qaratiladi.

1.41-jadval

Buxgalteriya balansining vertikal tahlili

Balans moddalari	O'tgan yil		Hisobot yili		Farqi	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%
1	2	3	4	5	6(4-2)	7(5-3)
Aktiv						
Uzoq muddatli aktivlar	UM0	**UM/A0*100**	Um1	Um1/A1*100	Um1- UM0	Um1/ UM0
Joriy aktivlar	JA0	JA0/A0*100	JA1	JA1/A1*100	JA1- JA0	JA1/ JA0
Aktiv jami	A0	100	A1	100	A1- A0	A1/A0
Passiv						
O'z mablag'lari manbasi	O'M0	O'M0/P0*100	O'M1	O'M1/P1*100	O'M1- O'M0	O'M1/O'M 0
Majburiyatlar	M0	M0/P0*100	M1	M1/P1*100	M1- M0	M1/ M0
Passiv jami	P0	100	P1	100	P1- P0	P1/ P0

1.42-jadval

Moliyaviy natijalarning gorizontal va vertikal tahlili

Moliyaviy natija qatorlari	Belgi	O'tgan yil		Hisobot yili		Farqi		O'si-shi
		Summa	%	Summa	%	Summa	%	
1	2	3	4	5	6	7(5-3)	8(6-4)	9(5/3 *100 -100)
Mahsulot sotishdan yalpi foyda	Yaf	Yaf0	Yaf0/Sn 0*100	Yaf1	Yaf1/Sn 1*100	X	U	Z
Asosiy faoliyatning natijasi	An	An0	An0/Sn0 *100	An1	An1/Sn1 *100	X	U	Z
Moliyaviy faoliyat natijasi	Mn	Mn0	Mn0/Sn0 *100	Mn1	Mn1/Sn1 *100	X	U	Z
Favqulodda natija	Fn	Fn0	Fn0/Sn0 *100	Fn1	Fn1/Sn1 *100	X	U	Z
Soliq to'loviga qadar natija	Sn	Sn0	100	Sn1	100	X	U	Z
Foydadan soliq va	Fs	Fs0	Fs0/Sn0*	Fs1	Fs1/Sn1*	X	U	Z

boshqa soliqlar			100		100			
Sof foyda	Sf	Sf0	Sf0/Sn0* 100	Sf1	Sf1/Sn1* 100	X	U	Z

Xuddi shu jihat tarkibiy tahlilni pul oqimini umumiy qatorlarida, (operatsion faoliyatdan pul oqimi, investitsion faoliyatdan pul oqimi, moliyaviy faoliyatdan pul oqimi, soliqlanishdan pul oqimi qatorlari bo'yicha) asosiy vositalarning tarkibiy tuzilishida (yer, bino, inshoot, uzatuvchi moslamalar, mashina va uskunalar, transport vositalari va h.k.), xususiy kapitalni tarkibiy tuzilishida (ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda qatorlari bo'yicha) ham qo'llash mumkin.

Vertikal tahlil gorizonatal tahlil asosidagina bir butunlikka erishadi. Shu sababli ularni doimo birgalikda va umumiylikda foydalanish kuzatiladi. Ularni bir-biridan holi tarzda qo'llash orqali tahlilning to'liqligini ta'min etib bo'lmaydi.

Trend tahlili – asos tahlili sifatida dinamik o'zgarishlarni baholashda eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Ushbu usul yordamida yaqin va uzoq davriylikdagi o'zgarishlarga mutlaq va nisbiy ifodalarda baho beriladi. Trend tahlilidan ko'pincha aktivlar o'zgarishini baholashda, foyda va uning o'sishini baholashda, investitsiyalar hajmini baholashda foydalaniladi.

1.43-jadval

Moliyaviy hisobot elementlarini trend tahlili

Yillar	Avtonomiya koeffitsiyenti	O'zgarishi +,-			
		Oldingi yilga nisbatan		Bazis davriga nisbatan	
		summa	%	summa	%
2014	K1	x	x	x	x
2015	K2	K2-K1	K2/K1	K2-K1	K2/K1
2016	K3	K3-K2	K3/K2	K3-K1	K3/K1
2017	K4	K4-K3	K4/K3	K4-K1	K4/K1
2018	K5	K5-K4	K5/K4	K5-K1	K5/K1

1.44-jadval

Moliyaviy ko'rsatkichlarni o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlarini tahlili

Ko'rsat-kichlar	Foyda		Sotishdan tushum		Aktivlar summasi	
	Oldingi yilga nisbatan	Bazis davrga nisbatan	Oldingi yilga nisbatan	Bazis davrga nisbatan	Oldingi yilga nisbatan	Bazis davrga nisbatan
Mutlaq ifoda						
2014	F0	x	ST0	x	A0	x
2015	F1-F0	F1-F0	ST1-ST0	ST1-ST0	A1-A0	A1-A0
2016	F2-F1	F2-F0	ST2-ST1	ST2-ST0	A2-A1	A2-A0
2017	F3-F2	F3-F0	ST3-ST2	ST3-ST0	A3-A2	A3-A0
2018	F4-F3	F4-F0	ST4-ST3	ST4-ST0	A4-A3	A4-A0
Nisbiy ifoda						
2014	F0	x	ST0	x	A0	x
2015	F1/F0	F1/F0	ST1/ST0	ST1/ST0	A1/A0	A1/A0
2016	F2/F1	F2/F0	ST2/ST1	ST2/ST0	A2/A1	A2/A0
2017	F3/F2	F3/F0	ST3/ST2	ST3/ST0	A3/A2	A3/A0
2018	F4/F3	F4/F0	ST4/ST3	ST4/ST0	A4/A3	A4/A0

Trend tahlili asosida, shuningdek, ko'rsatkichlarning aloqadorlik darajasiga, o'rtacha o'sish darajalarining holatiga ham baho beriladi.

Koeffitsiyentlar tahlili usuli. Korxona faoliyatiga baho berishda mutlaq ifodalar moliyaviy holatning barcha qirralarini ochib bera olmaydi. shu sababli ko'p hollarda nisbiy ifodalardan ham foydalaniladi.

Nisbiy ifodalar fanda moliyaviy koeffitsiyentlar deb nomlanib ularning har biri korxona moliyaviy holatining muhim jihatlarini o'zida ifoda etishi bilan farqlanadi.

Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlashning quyidagi muhim jihatlarini xarakterlash lozim:

– moliyaviy koeffitsiyentlar – 2 yoki undan ortiq ko'rsatkichlarni o'zaro nisbatlash orqali topiladi (nisbatlash o'z mazmuniga va tasnifiga ega bo'lmog'i va moliyaviy holatiga baho berishda yangi bir ko'rsatkichni ifoda etishi lozim);

– moliyaviy koeffitsiyentlar – faqat rasmiy chop etiladigan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aniqlanadi (moliyaviy koeffitsiyentlar bitta yoki bir nechta moliyaviy hisobot qatorlarini,

shuningdek, ularning jamlangan birliklarini nisbatlash orqali hisoblanadi);

– moliyaviy koeffitsiyentlar – bir xil jaryonning har xil jihatlarini ifodalaydi (masalan korxona to'lov layoqatini baholashda, uning mutlaq, oraliq va umumiy ko'rsatkichlarini tarkiblanishi);

– moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlashda alohida ko'rsatkichlarni jamlash imkoniyati mavjud (masalan, korxona moliyaviy holatining reyting baholashda ko'rsatkichlarning jamlanishi yoki iqtisodiy nochorlikni aniqlashda ko'rsatkichlarning jamlanishi).

– moliyaviy koeffitsiyentlar – bir xìl o'lchovga ega;

– moliyaviy koeffitsiyentlar – korxona faoliyat samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi;

– moliyaviy koeffitsiyentlar – har xil jarayonning bir xil jihatlari mazmunini xarakterlaydi (Asosiy vositalarning eskirishi va yaroqlilik koeffitsiyentlari har xil jihat, ularning birligi esa bitta jihat)dan iborat;

– moliyaviy koeffitsiyentlar – mutlaq darajadagi qiymatning qanday bo'lishidan qat'iy nazar barcha korxona va tashkilotlar ko'rsatkichlarini qiyosiy taqqoslash imkonini beradi.

Moliyaviy koeffitsiyentlarning tarkibiy va muvofiqlashtiruvchi turlari xarakterlanadi. Tarkiliy moliyaviy koeffitsiyentlar bir xil asosli jamlangan qatorlarda birlik qatorlarning salomog'ini xarakterlasa, muvofiqlashtiruvchi koeffitsiyentlar esa har xil asosli ko'rsatkichlarni o'zaro nisbatlash orqali hisoblanadi.

Tarkibiy koeffitsiyentlarga – korxona mol-mulki tarkibida uzoq muddatli va joriy aktivlarning salmog'i, joriy aktivlar tarkibida likvid aktivlar (tovar moddiy zaxiralar, debitorlik majburiyatlari, pul mablag'lari)ning salmog'i, jami manbalar tarkibida o'z va qarz mablag'lari salmog'i, majburiyatlar tarkibida uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar salmog'i va boshqa tarkibiy koeffitsiyentlar kiradi.

Muvofiqlashtiruvchi koeffitsiyentlarga moliyaviy mustaqillik, barqarorlik, rentabellik ko'rsatkichlari, to'lov layoqati ko'rsatkichlari kiradi.

Moliyaviy koeffitsiyentlarni jamlangan qatori bo'yicha quyidagi tarkibini tuzib chiqish mumkin[11].

- -to'lov layoqati va likvidlilik koeffitsiyenti
- -moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari
- -daromadlik (rentabellik) koeffitsiyentlari
- -bozor aktivligi koeffitsiyentlari
- -ish aktivligi koeffitsiyentlari

Moliyaviy koeffitsiyentlarninn har bir guruhi o'z ichiga bir nechta ko'rsatkichlarni oladi.

To'lov layoqati va likvidlik koeffitsiyentlari qatoriga mutlaq; oraliq, umumiy to'lov layoqati ko'rsatkichlari kiradi (ayrim manbalarda ushbu ko'rsatkichlar mutlaq, tez likvidlik va joriy likvidlik deb nomlanadi).

1.45-jadval

To'lov layoqati va likvidlik ko'rsatkichlari

Koeffitsiyent-lar	Aniqlanish formulasi	Birliklar ifodasi	Izoh
To'lov layoqati ko'rsatkichlari			
Mutlaq to'lov layoqati	PM+QMMQ/TM	PM-pul mablag'lari QMMQ-qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar TM-to'lov majburiyatlari	
Oraliq to'lov layoqati	PM+QMMQ+DM/ TM	DM-debitorlik majburiyatlari	Muddati o'tgan majburiyatlari

[11]Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., ЕфимоваО.В. [идр.]. Анализфинансовойотчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с., K. R. SubramanyamFINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITIONPublished by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр, Пардаев М.К. ва бошкалар Молиявий ва бошкарув тахлили, дарслик.Т.:Чулпон. 2012,, 490 б., Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности. Минск: РИПО, 2012. — 367 с. Вахобов А.В., Ибрагимов А.Т., Ишонкулов Н.Ф. Молиявий ва бошкарув тахлили. Т.:Иктисод-молия. 2013,598 б., Ковальев В.В., Волькова О.Н. Анализ хозяйственной деятельности предприятия.М.: Финансы и статистика, 2008, 415 с.

			chegiriladi
Umumiy to‘lov layoqati	PM+QMMQ+DM + +TMZ/TM	TMZ-tovar moddiy zaxiralar	
Likvidlilik ko‘rsatkichlari			
Joriy	A1-P1 yoki A1/P1>=	A1=PM+QMMQ	P1=KM(kred.m ajb.)
Qisqa muddatli	A2-P1 yoki A2/P2>=	A2=DM	P2=KMKQ (qisqa muddatli kredit va qarzlar)
Uzoq muddatli	A3-P3 yoki A3/P3>=	A3=TMZ	P3=UMKQ (uzoq mudd. kredit va qarzlar
Doimiy	P4-A4 yoki P4/A4>=	A4=UMA	P4=O‘MM (O‘z mabla. manbayi)

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari qatoriga moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o‘z va qarz mablag‘lari nisbati koeffitsiyenti, moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti, o‘z sarmoyasining harakatchanlik koeffitsiyenti, qarz mablag‘larining jamlanganlik koeffitsiyenti, qarz va o‘z mablag‘lari nisbati koeffitsiyenti.

1.46-jadval

Moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari

Koeffitsiyentlar	**Aniqlanish formulasi**	**Birliklar ifodasi**
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	O‘MM/BJ	O‘MM-o‘z mablag‘lari manbasi BJ-balans (passiv) jami
O‘z va qarz mablag‘lari nisbati koeffitsiyenti	O‘MM/Maj	Maj-majburiyatlar
Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti	BJ/O‘MM	
O‘z sarmoyasining harakatchanlik koeffitsiyenti	O‘MM+UMKQ-UMA/O‘MM	UMKQ-uzoq muddatli kreditlar va qarzlar UMA-uzoq muddatli

		aktivlar
Qarz mablag'larining jamlanganlik koeffitsiyenti	Maj/BJ	
Qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyenti	Maj/O'MM	

Moliyaviy natijaviylik koeffitsiyentlari qatoriga aktivlar daromadliligi (rentabelligi), xususiy kapital daromadliligi (rentabelligi), qarz kapitali daromadliligi (rentabelligi), sof aktiv daromadliligi (rentabelligi) koeffitsiyentlari kiradi.

1.47-jadval

Moliyaviy natijalar bilar bog'liq ko'rsatkichlar

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Birlik ifoda
Balans aktiv daromadliligi (rentabelligi) koeffitsiyenti	Dar(SF)/A	Dar-daromad SF-sof foyda A-aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
Xususiy kapital daromadliligi (rentabelligi) koeffitsiyenti	Dar(SF)/XK	XK-Xususiy kapital
Qarz kapitali daromadliligi (rentabelligi) koeffitsiyenti	Dar (SF)/QK	QK-Qarz kapitali
Sof aktivlarning daromadliligi (rentabelligi) koeffitsiyenti	Dar(SF)/SA	SA-Sof aktivning o'rtacha yillik qiymati

G'arbiy kompaniyalarda (AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya) ko'proq moliyaviy koeffitsiyentlarning quyidagi turlaridan foydalanish amaliyoti kuzatiladi.

1.48-jadval

Moliyaviy koeffitsiyentlar va ularning aniqlanishi

Koeffitsiyentlar	Aniqlanish formulasi	Belgilar izohi

ROA koeffitsiyenti - Aktivlarning jami summasiga to‘g‘ri keladigan foyda summasi ko‘rsatkichi	ROA = SF + F x (1 – Ss) / JA	SF-Sof foyda F- Foizlar Ss-Soliq stavkasi JA-Jami aktivlar
ROE koeffitsiyenti - xususiy kapital foydaliligi ko‘rsatkichi	ROE = Sf / Ak x 100	Ak-Aksionerlik kapitali
ROLC koeffitsiyenti - Investitsiyalangan kapital foydaliligi ko‘rsatkichi.	ROLC=Sf + F x (1-Ss) / Umm + Ak	Umm-uzoq muddatli majburiyat

Korxonaning bozor aktivligi ko‘rsatkichlari qatoriga aksiyaning daromadliligi, aksiyaning foydaliligi, aksiyaning balansdagi qiymati, aksiya bahosi va foyda nisbati koeffitsiyentlari kiradi[12].

1.49-jadval

Bozor aktivligi ko‘rsatkichlari va ularning aniqlanishi

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Birlik ifoda
Aksiyaning daromadligi	SFa/Abn	SF-bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan sof foyda Abn-bitta aksiyaning bozor narxi
Aksiyaning foydalilik koeffitsiyenti	Ad/Ann yoki Ad/Abq	Ad-Bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan dividend summasi Ann-bitta aksiyaning nominal qiymati (nominal foydalilik normasini aniqlashda) Abq-bitta aksiyaning bozor qiymati (haqiqiy foydalilik normasini aniqlashda)

[12]Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., ЕфимоваО.В. [идр.]. Анализфинансовойотчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с., K. R. SubramanyamFINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITIONPublished by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр, Пардаев М.К. ва бошкалар Молиявий ва бошкарув тахлили, дарслик.Т.:Чулпон. 2012,, 490 б., Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности. Минск: РИПО, 2012. — 367 с. Вахобов А.В., Ибрагимов А.Т., Ишонкулов Н.Ф.Молиявий ва бошкарув тахлили. Т.:Иктисод-молия. 2013,598 б., Ковальев В.В., Волькова О.Н. Анализ хозяйственной деятельности предприятия.М.: финансы и статистика, 2008, 415 с.

Aksiya kurs bahosining o'zgarishi koeffitsiyenti	Asb-Aob/Ann	Asb-bitta aksiyaning bozor bahosi Aob-aksiyani sotib olish bahosi
Dividendlik koeffitsiyenti	D/SF	D-To'langan dividendlar summasi SF-korxona sof foydasi

Ish aktivligi koeffitsiyentlariga jami aktivlarning, uzoq muddatli aktivlarning, joriy aktivlarning, TMZ, tayyor mahsulot, tovarlar, debitorlik majburiyatlari, kreditorlik majburiyatlari aylanuvchanligi koeffitsiyentlari kiradi

1.50-jadval

Ish aktivligi ko'rsatkichlari va ularning aniqlanishi

Koeffitsiyent	Aniqlanishi	Birlik ifoda
Jami aktivlar aylanuvchanligi	MSST/A	MSST-Mahsulot sotishdan sof tushum
Uzoq muddatli aktivlar aylanuvchanligi	MSST/UMA	UMA-Uzoq muddatli aktivlar
Joriy aktivlar aylanuvchanligi	MSST/JA	JA-Jori yaktivlar
TMZ aylanuvchanligi	MSST/TMZ	TMZ-tovar moddiy zaxiralar
Tayyor mahsulot aylanuvchanligi	MSST/TM	TM-Tayyor mahsulot
Tovarlar aylanuvchanligi	MSST/T	T-Tovarlar
Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi	MSST/DM	DM-Debitorlik majburiyatlari
Kreditorlik majburiyatlari aylanuvchanligi	SMIChT/KM	SMIChT-Sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi

Taqqoslama (qiyosiy) tahlili. Moliyaviy tahlilda qiyosiy tahlil turi – ko'rsatkichlarni mutlaq va nisbiy ifodalarda keng doirada taqqoslash usuli sifatida ishlatiladi.

Metodik jihatdan ushbu usul gorizontal va vertikal, trend tahlili usullariga o'xshaydi. Lekin ulardan tubdan farq etadi. Taqqoslash tahlilida esa ushbu tahlil obyekti, yoki tahlil etilayotgan korxona bo'yicha ma'lumotlar boshqa subyektlar ma'lumotlari bilan, normativ me'yorlar bilan, reja ko'rsatkichlari bilan, tarmoq bo'yicha o'rtacha, ilg'or ko'rsatkichlar bilan ham taqqoslanishi nazarda tutiladi. Taqqoslash tahlilida moliyaviy hisobot elementlari va moddalarining o'zgarishiga, moliyaviy holatni xarakterlovchi ko'rsatkichlarga baho beriladi. Mutlaq ifodalar, nisbiy ifodalar bilan to'ldiriladi.

Moliyaviy tahlilda taqqoslash tahlilining shartlari:

-taqqoslashni inverval oraliqlar bir xilda olinishi;

-taqqoslash ko'rsatkichlari bir xil o'lchovli bo'lishi;

-taqqoslashni bazaviy ko'rsatkichi, normativ ko'rsatkichlarini belgilab olishda rasmiy jihatlarga amal etilishi;

-taqqoslashning obyektlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalari bir xilda bo'lishi;

-moliyaviy hisobot elementlari, moddalarini tarkiblash va ko'rsatkichlarini aniqlash metodikasi bir xilda bo'lishi lozim.

Taqqoslash usuli iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullari qatorida eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanib undan tahlilning boshqa usullari bilan birgalikda korxona moliyaviy holatini to'la ochib berishda foydalaniladi. Bu jihati bilan qiyosiy tahlil ham moliyaviy tahlilning ham boshqaruv tahlilining usuli sifatida qaraladi.

1.51-jadval

To'lov layoqati, moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili

Qiyosiy ko'rsatkichlar	To'lov layoqati	Moliyaviy mustaqillik	Xususiy kapital rentabelligi
Joriy davr	2.6	0.52	0.12
Moliya rejasi bo'yicha	2.5	0.55	0.15
O'tgan yilning shu davri	2.2	0.53	0.15
Normativ ko'rsatkich	3.0	0.50	0.10
Ilg'or korxona ko'rsatkichi	3.4	0.70	0.16

Tarmoq o'rtacha ko'rsatkichi	2.2	0.42	0.07
Farqi+,-			
Moliya rejasidan	+0.1	+0.03	-0.03
O'tgan yilga nisbatan	+0.4	+0.01	-0.03
Normativ ko'rsatkichga nisbatan	-0.4	-0.02	+0.02
Ilg'or korxonaga nisbatan	-0.8	-0.18	-0.04
Tarmoq o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan	+0.4	-0.10	+0.05

Omilli tahlil. Korxona moliyaviy holati haqidagi obyektiv ma'lumotlarni ifoda etuvchi natijaviy ko'rsatkichlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish imkoniyatlarni baholashda muhim usul hisoblanadi. Omilli tahlil natijaviy ko'rsatkichning qaysi omillar hisobiga o'zgarganligini, ularning ijobiy va salbiy ta'sirlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa korxona faoliyatini samarali boshqarishning muhim yo'nalishlarini belgilab olishda ahamiyatli hisoblanadi. Omilli tahlilni moliyaviy faoliyat va uning samaradorligi, natijaviyligini xarakterlovchi barcha jihatlarga nisbatan qo'llash mumkin.

Omilli tahlil quyidagi shartlar asosida bajariladi.

-natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi birlik ikki yoki undan ortiq bo'lishi lozim;

-natijaviy ko'rsatkich bir xil o'lchovli bo'lishi lozim;

-natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni hisob-kitoblar orqali aniqlash mumkin bo'lishi lozim;

-natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi birliklar o'rtasida uzviylik, bog'liqlik, aloqadorlik bo'lmog'i lozim;

-natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi birliklar turli jihatlarni aks ettirishi lozim (baho, tannarx, hajm, struktura va h.k. kabi).

Moliyaviy tahlilda omilli tahlildan ko'proq korxona moliyaviy faoliyati natijaviyligini baholashda, foyda va zararlar o'zgarishiga, rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklarni baholashda

foydalaniladi. Aslida har bitta natijaviy ko'rsatkichni omilli tahlilini amalga oshirish mumkin. Shu sababli moliyaviy holat tahlili yuzasidan omilli tahlil mavzularini quyidagicha tarkiblash mumkin

-iqtisodiy resurslar samaradorligi, natijaviyligi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarning omilli tahlili;

-aktivlar samaradorligi, natijaviyligi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarning omilli tahlili;

-kapital va majburiyatlar samaradorligi, natijaviyligi bilan bog'liq ko'rsatkichlarning omilli tahlili;

-moliyaviy faoliyat natijaviyligi va rentabelligi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarning omilli tahlili;

-korxonaning bozordagi faolligi va ish aktivligi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarning omilli tahlili.

Omilli tahlil metodikasini xalqaro amaliyotda mashhur bo'lgan, g'arb tahlil maktabining buyuk nomoyandasi Dyuponning uch faktorli modeli misolida ko'rib chiqish mumkin.

Rxk=SF/XK

Ushbu ifodani sotuv rentabelligi (SF/ST), aktivlarning aylanuvchanligi (ST/A) va aktivlarda xususiy kapitalni jamlanishi (A/XK)ga muvofiq quyidagi ko'rinishga keltirish mumkin:

Rxk=SF/ST*ST/A*A/XK

Bunda: Rxk- xususiy kapital rentabelligi;

SF-sof foyda;

ST-sotishdan sof tushum;

A-oxirgi hisobot sanasiga aktivlar summasi;

XK-oxirgi hisobot sanasiga xususiy kapital summasi.

1.52-jadval

Xususiy kapital rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

t/r	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili
1	Sof foyda	9000.0	9900.0
2	Sotishdan tushum	60000.0	63600.0
3	Aktivlar summasi	120000.0	126000.0
4	Xususiy kapital summasi	30000.0	30000.0

Xususiy kapital rentabelligi hisob-kitobi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklarning hisob-kitobini quyidagi jadvalda keltirib o'tamiz.

1.53-jadval

Omillar ta'sirining hisob-kitobi

Ko'rsat kichlar	Hisob-kitoblar	Natija	Ta'sir darajasi
o'tgan yili	Rxk(o'y)=9000.0/60000.0x60000.0/120000.0x120000.0/30000.0 x 100%	30%	
hisobot yili	Rxk(hy)=9900.0/63600.0x63600.0/126000.0x126000.0/30000.0 x 100%	33%	
		+3%	
Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi			
SF/ST ta'siri	Rxk(sf)=9900.0/63600.0x60000.0/120000.0x120000.0/30000.0 x100%	31.14%	1.14% (31.14-30.0)
ST/A ta'siri	Rxk(a)=9000.0/120000.0x63600.0/126000.0x120000.0/30000.0 x 100%	30,3 %	0,3 % (30,3-30.0)
A/XK ta'siri	Rxk(a)=9000.0/120000.0x60000.0/120000.0x126000.0/30000.0 x 100 %	31.5%	1.5 % (31.5-30.0)

Demak korxonada xususiy kapital rentabelligi o'tgan yilga nisbatan +3 foizga ortgan. Bu o'zgarish sof foydaning sotishdan tushumdagi salmog'ining o'zgarishi hisobiga +1.14% ga. (31.14-30.0) aktivlar

aylanuvchanligining o‘zgarishi hisobiga +0,3 %ga (30,3-30.0), kapitalning tarkibiy o‘zgarishi hisobiga +1.5 %ga (31.5-30.0) o‘sishi tufayli ro‘y bergan. Hisob-kitobdagi noaniqliklar +,-0.4 ga teng.

1.7. Moliyaviy tahlilning boshqa fanlar o‘rtasida tutgan o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari

Moliyaviy tahlilning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va ular o‘rtasida tutgan o‘rni g‘oyatda muhimdir. Moliyaviy tahlil quyidagi fanlar bilan uzviy bog‘liqlikka va aloqadorlikka ega:

- buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, audit, iqtisodiyot nazariyasi, makro va mikro iqtisodiyot, investitsiya, moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar, moliya matematikasi.

Tahlil fanining “Buxgalteriya hisobi” fani bilan bog‘liqligi.

Moliyaviy tahlil va buxgalteriya hisobi (Moliyaviy hisob, Boshqaruv hisobi) uzviy bog‘liqlik va aloqadorlik mavjud. Hech bir qayd etilgan, jamlangan va umumlashtirilgan hamda hisobotlangan axborot tahlilsiz, analitik qayta ishlovlarsiz boshqaruvda foydalanilmaydi. Uning eng muhim aloqasi tahlilda axborotlar oqimi bosh manbasi ekanligi bilan izohlanadi. Olingan axborotlarning 70-80 foizi buxgalteriya hisobidan olinadi.

Buxgalteriya hisobining xizmat vazifalariga hodisa va jarayonlarni qayd etadi, hujjatlashtiradi, analitik va sintetik hisobini yuritadi, moliyaviy hisobotlarni tuzish kiradi. Ularni qayta ishlab, tahlil etish va prognozlash tahlil yordamida amalga oshiriladi.

Xo‘jalik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, erkin raqobat, investitsion jarayonlarning o‘zi axborotlarni chuqur tahlil etishni va boshqarurning asosli qararlarini qabul qilishda tahlilni muhim dastakka xayotiy zaruriyatning o‘zi barcha subyektlarni tahlilni amalga oshirishini talab etadi.

O‘ navbatida analitiklar, tahlilchilar buxgalteriya hisobining asosiy qoidalarini, normalarini bilmasdan turib zamonaviy tahlilni amalga oshira olmaydilar.

Tahlil fanining "Moliyaviy hisobot" fani bilan bog'liqligi.

Moliyaviy hisobotlar moliyaviy tahlil fanining axborot asosi hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlar – foydalanuvchilar keng doirasining axborotga bo'lgan talabini qondirish uchun tuziladi va vaqti-vaqti bilan taqdim etiladi. Moliyaviy hisobot ko'pchilik foydalanuvchilar uchun asosiy moliyaviy axborot hisoblanadi. Ayrim foydalanuvchilar, tegishli vakolatlar bo'lganda, moliyaviy hisobotda bor bo'lgan axborotga qo'shimcha axborotni talab qilishlari mumkin. Moliyaviy hisobotlar Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) asosida tuziladi. Zarur hollarda kompaniyalar Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlari (MHXS) asosida tuzishlari mumkin.

Moliyaviy hisobot ana shu hisobotlarga asoslangan yoki ular bilan bog'liq bo'lgan izohlar, mo'ljallar va tushuntirishlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday axborot sanoat va jug'rofiy hududlarning faoliyat turlari to'g'risidagi moliyaviy axborotni aks ettirishi va narxlar o'zgarishining moliyaviy natijalarga ta'sirini tushuntirib berishi kerak.

Moliyaviy hisobot – investitsiya qarorlari, kreditlar berishga doir qarorlarni qabul qilish, subyektning bo'lg'usi pul oqimiga baho berish, unga ishonib topshirilgan resurslarga munosabatiga, majburiyatlariga baho berishda, rahbar organlarining ishiga baho berishda muhim manba hisoblanadi. Bu baho berishlarni tahlilsiz amalga oshirishni tasavvur qilish qiyin.

Foydalanuvchilar pul mablag'larini ko'paytirish qobiliyatini yaxshiroq baholaydilar, agar u xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoli faoliyatini va moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlarni aks ettiradigan axborot bilan ta'minlangan bo'lsa.

Xo'jalik yurituvchi subyektning kelgusida pul mablag'larini ko'paytirish, ularning ko'payish vaqtini aniq hisob-kitob qilish va natijaga erishish qobiliyatini baholash orqali boshqaruv qarorlarini sifatliligi albatta axborotlarning to'liqligi, ishonchligi, haqqoniyligiga bog'liqdir. O'z navbatida axborotlarning to'liqligi, ishonchligi, xaqqoniyligi tahlil sifatini ham belgilab beruvchi bosh omildir.

Moliyaviy tahlil shuningdek, turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini qiyoslashni imkonini beradi.

Moliyaviy hisobot – har bitta korxonaning hisob siyosatidan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun qabul qiladigan usullar va ularning qoidalari hamda asoslariga muvofiq ravishda tuziladi.

Buxgalteriya hisobini guruhlarga ajratish va xo'jalik faoliyati faktlariga baho berish, aktivlar qiymatini to'lash, hujjatlar aylanmasi, mol-mulkni ro'yxatga olishni tashkil etish usullari, buxgalteriya hisobida hisobotlarni qo'llanish usullari, hisob registrlari tizimi, axborotlarni ishlab chiqish va o'ziga tegishli usullar, uslubiyatlar buxgalteriya hisobini yuritish usullariga kiradi.

Moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi subyekt alohida mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektligi yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarning jamlangan guruhiga kirishidan qat'i nazar, shu xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum bir davrdagi faoliyatini ko'rsatuvchi moliyaviy axborotni taqdim etish usulidir.

Moliyaviy hisobotlar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektning rahbariyati tomonidan resurslarni boshqarish natijalarini ko'rsatadi.

Tahlil fanining "Audit" fani bilan bog'liqligi.

Audit – mustaqil ekspertlar, auditorlar tomonidan korxona moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishni anglatadi. Bunda nafaqat tekshirish balki korxonaning iqtisodiy, moliyaviy faoliyatini optimallashtirish bo'yicha ham tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Audit – ishonchlilik bo'yicha mustaqil tekshiruv hisoblanadi.

Audit – auditorlarning yoki auditorlik firmalarining buxgalteriya hisobi yoki moliyaviy hisobotlarni, buxgalteriya hujjatlari, soliqlar va boshqa majburiyatlarni auditorlik tekshiruvini amalga oshirishdan iborat tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi.

Audit – bu korxonaning moliyaviy hisobotlarini ekspertizadan o'tkazish, buxgalteriya hisobini yuritish tartibini, xo'jalik va moliyaviy operatsiyalarni qonunchilik normalariga muvofiqligini, hisobotlarning to'liqligi va to'g'riligini tekshirishga qaratilgan mustaqil faoliyat turidir.

Audit – bu firma va kompaniyalar uchun ishlamaydigan, mustaqil sertifikatlangan auditorlar tomonidan amalga oshiriladigan tashqi moliyaviy nazoratdir. Audit – bu sud-buxgalteriya ekspertizasini amalga oshiruvchi keng faoliyat turidir. Audit – bu bevosita va bilvosita manfaatdor bo'lgan tomonlarning nomidan ish ko'ruvchi mustaqil ekspertlar faoliyatidir.

Tahlilda audit va auditorlik faoliyati nafaqat axborotlar ishonchligi, to'liqligi, haqqoniyligini ta'minlab beruvchi sifatida balki korxona boshqaruvi va biznes samaradorligini ta'minlashda, zaruriy axborotlar ta'minotchisi sifatida ham qatnashadi. Shu bilan birga auditorlik faoliyatida eng maqbul yechimga tahliliy amallardan uddaburonlik bilan foydalanish orqaligina ega bo'linadi.

Auditorlik faoliyati va natijalari bo'yicha rasmiylashtiriladigan xulosalar tahlilda eng ishonchli manba bo'lib hisoblanadi.

Tahlil fanining iqtisodiyot nazariyasi fani bilan bog'liqligi.

Iqtisodiyot nazariyasi – cheklangan resurslardan odilona foydalanish orqali cheksiz ehtiyojlarni qondirishning eng samarali yo'llarini tanlashning ilmidir.

Iqtisodiyot nazariyasida makro va mikro iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, ularning o'zgarishi va rivolanish rendensiyalari tadqiq etiladi, baholanadi.

Tahlil sabab-oqibat, induksiya-deduksiya, analiz va sintez bog'lanishlaridan, bozor iqtisodiyotining muhim qonuniyatlari hisoblangan talab va taklif, qiymat, monetar qonuniyatlari, turli modellar tizimidan iborat metodologik, ilmiy va amaliy asoslarga tayangan holda rivojlanadi, taraqqiy etadi.

Tahlil fanining "Statistika fani" bilan bog'liqligi.

Tahlil fanining statistika fani bilan bog'liqligi shundaki, bunda hodisa va jarayonlarning, samara va natijaviylikning miqdoriy ko'rsatkichlari baholansa, tahlilda ko'proq qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlarga, moliyaviy ko'rsatkichlarga ustunlik beriladi. Jumladan, har ikkita fanda ham bir xil axborotlar va iqtisodiy usullar to'plamidan foydalaniladi. Shu bilan birga statistik ustunlik ko'proq makroiqtisodiy

ko'rsatkichlar va ularning o'zgarish tendensiyalariga qaratiladi. Tahlilda esa asosiy jihat mikrodarajada, ya'ni korxona uning bo'limlari va bo'g'inlari bo'yicha baholanadi. Shuningdek, statistika ko'proq dinamik o'zgarishlarni aniqlashga qaratilsa tahlilda sabab oqibat bog'lanishlariga, omilli o'zgarishlarga, ichki imkoniyatlarni aniqlashga, ularning yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ko'rishga qaratiladi. Shuningdek, statistik hisobotlar tahlil uchun zaruriy hisobot manbaa hisoblanadi.

Tahlil fanining iqtisodiy matematika fani bilan bog'liqligi. Tahlil, iqtisodiy matematika fani bilan mikro ko'lamda faoliyat samaradorligi va natijaviyligini analitik, tahliliy modelini yaratishda, matematik algoritmini shakllantirishda uzviy aloqada bo'ladi.

Yuqorida qarab chiqilgan korrelyatsion, regression, determinant, logorifmlar, nazariy o'yin, integral usullari tahlilda keng qo'llaniladigan usullar qatoriga kiradi.

Tahlil fani shuningdek moliya, investitsiya, soliqlar va soliqqa tortish, makro va mikro iqtisodiyot, muhandislik fanlari bilan ham uzviy aloqada bo'ladi.

1.8. Moliyaviy tahlil subyektlari (haqiqiy va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, xodimlar, shuningdek, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar) va ularning qiziqishlari

Moliyaviy tahlil subyektlariga tahlilchilarning keng qamrovli guruhi kiritiladi. Ularni shartli ravishda ichki va tashqi subyektlarga bo'lish mumkin. Ichki tahlil subyektlariga faqat shu firma, kompaniya xodimlari kirsa, tashqi subyektlarga haqiqiy va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, xodimlar, shuningdek, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qatoriga kiradi.

Moliyaviy hisobot axborotiga ehtiyoj quyidagilarda vujudga keladi:

Mulk egalari (qatnashchilar va ta'sischilar) va investorlarning e'tibori ko'proq xo'jalikning ustav kapitalida xissali qatnashishidan oladigan dividendlar summasini mavjudligiga, jalb qilingan investitsiyalar yuzasidan xavf-xatarlarning yo'qligiga qaratiladi.

Kreditorlar – o'zlariga tegishli kreditlar va foizlar o'z vaqtida to'lanadimi yoki yo'q ekanligini aniqlashga imkon beradigan axborotdan manfaatdorlar;

Mahsulot yetkazib beruvchilar va boshqa savdo kreditorlarida-o'zlariga tegishli summa o'z vaqtida to'lanadimi yoki yo'q ekanligini aniqlashga imkon beradigan axborotdan manfaatdorlar;

Xaridorlar – ayniqsa, (ular uzoq muddatli bitimga ega bo'lsalar yoki mazkur xo'jalik yurituvchi subyektga bog'liq bo'lsalar) xo'jalik yurituvchi subyektning uzluksiz faoliyati to'g'risidagi axborotdan manfaatdorlar;

Xodimlar – xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati barqarorligi va rentabelligi to'g'risidagi axborotdan manfaatdorlar. Ular ham xo'jalik yurituvchi subyektning o'z ish haqlarini, pensiyalarini va keyinchalik ham yollash bo'yicha ishlash imkoniyatlarini ta'minlash qobiliyatiga baho berish imkonini yaratadigan axborotni olishdan manfaatdorlar;

Davlat boshqaruvi organlari-resurslarning taqsimlanishi va binobarin, subyektlarning faoliyati to'g'risidagi axborotdan manfaatdorlar. Ularga ham xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini tartibga solib turish, soliqqa tortish siyosatini belgilash uchun va milliy daromadni hamda boshqa statistik ma'lumotlarni aniqlash uchun asos sifatida axborot kerak;

Jamoatchilikda ham, chunki xo'jalik yurituvchi subyektlar mahalliy iqtisodiyotga ko'pgina usullar bilan, shu jumladan aholini ish bilan ta'minlash va mahalliy mahsulot yetkazib beruvchilarni qo'llab-quvvatlash bilan katta hissa qo'shishi mumkin. Moliyaviy hisobot jamoatchilikni taraqqiyot yo'nalishlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning farovonligini yaxshilashda erishilgan so'nggi yutuqlar to'g'risidagi axborot bilan ta'minlab, ularga yordam beradi.

Tashqi tahlil subyektlari qatoriga shuningdek, reyting kompaniyalarini ham kiritish mumkin. Ushbu kompaniyalar alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqa xo'jalik subyektlarga nisbatan iqtisodiy o'rnini aniqlashga imkon beruvchi axborotlarni tahlil etish va ularni doimiy kuzatuvini olib borish bilan shug'ullanadilar.

Moliyaviy tahlil subyektlari xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini kompleks (to'liq) baholashlari ham mumkin. Bu borada auditorlik faoliyatida olib boriladigan tahliliy protseduralarni ham misol qilib keltirish mumkin. Qolgan hollarda analitiklarning va buyurtmachilarning maqsad, manfaatlaridan kelib chiqqan holda zaruriy bo'lgan obyektlar bo'yicha xulosalar chiqarishga etadigan tahlillar o'tkaziladi.

Moliyaviy holatning kompleks tahlili ko'proq faqat ichki moliyaviy tahlilga hos jihatdir. Tashqi tahlil subyektlari odatda o'zini qiziqtirgan masala yuzasidan axborotlarning jozibadorligiga ahamiyat qaratadilar.

Moliyaviy tahlil subyektlari va ularning manfaatlar mushtarakligini quyidagi -jadval ma'lumotlaridan ko'rib chiqish mumkin.

1.54-jadval

Moliyaviy tahlil subyektlari va ularning manfaatlari

t/r	Moliyaviy tahlil subyekt-lari	Subyekt manfaatlari	Qo'yilgan mablag'	Kompen-satsiya
1.	Korxona xodimlari	Firma va kompaniyaning moliyaviy ahvoli, uning hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag'larining aylanishi, shuningdek, ularning kelgusidagi o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganishdan	Jismoniy va aqliy salohiyatni yo'naltirilishi	Ish haqi va ragbatlantirishl arning turli shakllarida
2.	Investor lar	Investorlar – berilgan investitsiyalar bilan bog'liq xatarlar munosabati xo'jalik subyektining dividendlarni to'lash qobiliyatini baholashga imkon beradigan va	Xususiy kapital, sarmoya qo'yilishi	Dividend, ulush,

		aksiyalarni sotib olish, saqlash yoki sotish kerakmi yoki yo'qligini belgilashga ko'maklashadigan ma'lumotlarni o'rganishdan		
3.	Auditorlar	E'lon qilinadigan hisobot shakllarini to'g'riligini huquqiy tamoyillar asosida baholash va firma, kompaniyalar moliyaviy holatini yaxshilashni ichki imkoniyatlarini ko'rsatib berishdan, mulk egalari manfaatlarini himoya etishdan	Amaliy yechim va tavsiyalar berilishi	Auditorlik xizmatlari qiymati
4.	Yuqori tashkilot lar	Band qilingan moddiy va moliyaviy resurslar harakatini va samaradorligini o'rganishdan	Amaliy (moddiy va moliyaviy)ko'mak yordam berilishi	Faoliyat natijasidan ulushga ega bo'lish
5.	Soliq idoralari	Majburiy to'lovlar, soliqlar va ajratmalarni undirish yuzasidan resurslar holati, harakatini va faoliyat natijaviyligini o'rganishdan	Jamiyat manfaatlariga xizmat qilinishi orqali	Soliqlar, to'lovlar va yig'imlarning to'liq va o'z vaqtida yig'ib borish
6.	Sug'urta agentlik lari	Firma, kompaniya mulkini turli tahlikalardan himoya qilish, saqlanishi yuzasidan ma'lumotlarni o'rganishdan	Sug'urta polislarini olinishi	Sug'urta to'lovlari
7.	Mol yetkazib beruvchi lar	Shartnomaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishi, to'lov intizomiga rioya qilish, to'lovga qobillikni holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganishdan	Tovar moddiy zaxiralarni yetkazib berilishi	TMZning kelishilgan narxlardagi qiymatiga ega bo'lishi
8.	Haridor va buyurtmach ilar	Ta'minotdagi o'zilishlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan firma va kompaniyalarning moliyaviy va iqtisodiy salohiyatining tayanchi to'g'risidagi ma'lumotlardan o'rganishdan	Mahsulot(ish, xizmat)larni sotish yuzasidan ishonchli savdo hamkorligi	Mahsulot (ish, xizmatlar)ni kelishilgan narxlardagi qiymatiga ega bo'lish
	Kreditorlar	O'zlariga tegishli kreditlar va	Kredit va qarzlar	Kreditlar va

		foizlar o‘z vaqtida to‘lanadimi yoki yo‘q ekanligini aniqlashga imkon beradigan ma’lumotlarni o‘rganishdan	tushirilishi	qarzlar foizi
10	Jamoatchi lik	Korxona faoliyatining barcha qirralari	Korxona faoliyatida jamoat manfaatlarini qay darajada uyg‘unligini kuzatib borish orqali uning barcha bo‘g‘inlariga ta’sir etishi orqali	Jamoat manfaatlar uyg‘unligi ta’minlanadi

Moliyaviy holat tahlili subyektlarining keng qamrovliligi va ular manfaatlarining turlichaligi moliyaviy holat tahlilini o‘tkazish bo‘yicha aniq konseptual asoslarni belgilashni talab etadi. Lekin xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini baholashning me’yoriy hujjatlarga tayangan rasmiy va norasmiy jihatlari mavjud. Rasmiy jihatlarni xo‘jalik subyektlarining reyting bahosini chiqarishda, to‘lovga qobillik va kreditga qodirligini baholashda, iqtisodiy nochorlik va bankrotlik darajalarini belgilashda ko‘rish mumkin. Norasmiy jihatlar bo‘yicha tahlilchi, analitiklar o‘zlari uchun maqbul shaklda tartib va qoidalarni belgilashlari va ularga mos analitik jarayonlarni tuzib chiqishlari mumkin.

Takrorlash uchun savollar

“Tahlil” so‘zining ma’nosi, uning fan va tadqiqot usuli ekanligi.
Induksiya va deduksiya
Tahlil va sintez
Sabab va oqibat
Tahlilning boshqaruvdagi o‘rni va ahamiyati
Moliyaviy tahlil va uning fan sifatida shakllanishi
Moliyaviy tahlil va uning rivojlanishi
Zamonaviy moliyaviy tahlil va uning muhim xususiyatlari
Moliyaviy tahlil fanining perdmeti
Moliyaviy tahlil fanining obyekti

Moliyaviy tahlil fanining maqsadi va vazifalari
Moliyaviy tahlilning muhim tamoyillari
Moliyaviy tahlil fanining metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari
Moliyaviy tahlil fanida foydalaniladigan oddiy usullar
Moliyaviy tahlil fanida foydalaniladigan iqtisodiy matematik usullar
Moliyaviy tahlilning individual, maxsus usullari
Moliyaviy tahlil turlari: ichki va tashqi moliyaviy tahlil
Moliyaviy tahlil subyektlari va ularning manfaatlari

2-BOB. MOLIYAVIY TAHLILNI TASHKIL ETISH VA AXBOROT MANBALARI

2.1. Moliyaviy tahlilni tashkil etish, yuritish, xulosalarni shakllantirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning me'yoriy asoslari.

2.2. Moliyaviy tahlilni tashkil etish shakllari. Moliyaviy tahlilni tashkil etishda korxonaning tarmoq xususiyati, faoliyat ko'lami, raqobatdagi o'rni kabi jihatlarini hisobga olish.

2.3. Moliyaviy tahlilning asosiy bo'limlari: moliyaviy hisobot tahlili, investitsion tahlil, qimmatli qog'ozlar bozoridagi jarayonlar tahlili, moliyaviy hisobotni bashoratlash.

2.4. Moliyaviy tahlil bosqichlari.

2.5. Moliyaviy tahlilning axborot manbalari (tahlil obyektlari haqidagi ma'lumotlar), ularning ochiqligi va oshkoraligi.

2.6. Moliyaviy hisobot shakllari va ularning tavsifi. Jamlangan moliyaviy hisobotlar va ularni tahlil etish.

2.7. Moliyaviy hisobotni tuzishda milliy va xalqaro standartlarning moliyaviy hisobot mazmuniga ta'siri.

2.8. Moliyaviy tahlilni muammoli jihatlari (davriy oraliqdagi qiyosiylik, turli korxonalar o'rtasidagi qiyosiylik, axborot operativligi muammolari).

2.9. Auditor xulosalarini ko'rib chiqish. Auditdan o'tkazilmagan hisobotlar.

2.10. Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan boshqa axborotlar.

2.11. Moliyaviy tahlilda kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta'minotlardan foydalanish.

2.1. Moliyaviy tahlilni tashkil etish, yuritish, xulosalarni shakllantirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning me'yoriy asoslari

Moliyaviy tahlilning metodologik asoslari me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobi va auditni yo'lga qo'yish va yuritishda rioya etiladigan barcha me'yorlar (Qonunlar, standartlar, Nizomlar, yo'riqnomalar, buyruqlar, tartiblar) tahlil uchun ham ahamiyatli hisoblanadi. Shu bilan birgalikda tahlilning

o‘zi uchun ham qator normalar belgilanganki, ular xo‘jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruvi zaruriyatidan kelib chiqqan holda ijro etiladi va amalga oshiriladi.

Moliyaviy tahlilni odatda rasmiy va norasmiy me’yoriy asoslariga muhim e’tibor qaratiladi. Rasmiy asoslari majburiylik tartibida, aniq me’yoriy hujjatlar asosida tashkil etiladi va yuritiladi, norasmiy asoslarini esa boshqaruvchilar, menejerlar o‘z maqsadlaridan kelib chiqqan holda mustaqil belgilaydilar va yuritadilar.

Rasmiy me’yoriy asoslarga xo‘jalik yurituvchi subyektning moliya xo‘jalik faoliyatini tahlil etishning quyidagi tartiblarini kiritish mumkin:

- xo‘jalik yurituvchi subyektning muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy nochorligini baholash;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning kreditga layoqatliligini baholash;

Norasmiy asoslarda o‘rganiladigan masalalar ko‘lami juda keng doirada amalga oshirilib ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aktivlar, kapital va majburiyatlar tahlili;
- moliyaviy barqarorlik tahlili;
- to‘lov layoqati va likvidlik tahlili;
- ish va bozor aktivligi tahlili;
- pul oqimlarining tahlili;
- xususiy kapital tahlili;
- foyda va zararlar tahlili;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili;
- innovatsion mahsulot va faoliyat tahlili;
- investitsion faoliyat tahlili;
- soliq to‘lovlari va majburiyatlar tahlili;
- logistik tahlil va h.k.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga baho berish va tahlil etishda bir qator analitik jarayonlar amalga oshiriladi. Bu jarayonlarning asosiy manbasi sifatida buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti ma’lumotlari olinadi. Biznesdagi holat va uning kelgusidagi rivojini prognozlash yuzasidan,

shuningdek, statistik, makroiqtisodiy va tarmoq ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili ham amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda bu borada tahlil boshqaruvning eng muhim dastagi sifatida qaraladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini baholashda moliyaviy tahlildan foydalanish albatta: xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini tuzish va ularga tushuntirishlar berishda; moliyaviy holatini baholashda; iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ka qarshi boshqaruv hisobotini tayyorlashda; biznesini restruktarizatsiya qilishda; moliyaviy sog‘lomlashtirishda; mulkiy munosabatlarni tartibga solishda qo‘l keladi.

Moliyaviy tahlildan foydalanishning yagona metodikasi shu paytga qadar yaratilmagan. Shu sababli, har bitta menejer o‘z amaliy tajribasidan, xo‘jalik yurituvchi subyektining faoliyat va boshqaruv xususiyatlaridan, axborot manbalarining hajmidan kelib chiqqan holda alohida metodik ishlanmalardan foydalanadilar.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning moliya-xo‘jalik faoliyatini tahlil etishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan 3 ta bosqichi tarkiblanadi: tahlilning maqsadini va uni realizatsiya qilish tartibini belgilash; tahlilda foydalaniladigan axborotlar sifatini baholash, ishonchli axborotlar bazasini shakllantirish; tahlil usullari (metodlari)ni aniqlash, tahlilni o‘tkazish va olingan natijalarni umumlashtirish.

Tahlil etishning metodologik asoslari ko‘pincha huquqiy manbalarga tayangan holda tuzib chiqiladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini moliyaviy tahlil etishning amaldagi normalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS);

“Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o‘tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi qoshidagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo‘mitasi qarori;

"Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasi qarori;

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS).

"Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos" deb nomlangan BHMSda moliyaviy hisobot maqsadi sifatida quyidagilar bayon etilgan. "Moliyaviy hisobotning maqsadi xo'jalik subyektining moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni taqdim etishdan iborat...".

Moliyaviy hisobot axborotni quyidagilar uchun ham saqlaydi: investitsiya qarorlarini va kreditlar berishga doir qarorlarni qabul qilish; xo'jalik yurituvchi subyektning bo'lg'usi pul oqimiga baho berish; xo'jalik yurituvchi subyektga ishonib topshirilgan resurslar munosabati bilan uning resurslariga, majburiyatlariga baho berish; rahbar organlarning ishiga baho berish.

Jumladan, mazkur standartning keyingi bandlarida xo'jalik yurituvchi subyekt nazorat qilib turadigan iqtisodiy resurslar, uning moliyaviy tuzilmasi, likvidligi, to'lovga qobiliyati, ishlayotgan muhit o'zgarishlariga munosabat bildira olishi, subyektning kelgusida pul mablag'larini va ularning ekvivalentini ko'paytirish imkoniyatini prognozlash, kreditlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat ko'rsatkichlari, uning rentabelligini aniqlash, iqtisodiy resurslardagi potensial o'zgarishlarni baholash zarurligi qayd etiladi.

Moliyaviy hisobotlarni bir paytning o'zida turli davrlar bo'yicha axborotlarni jamlashi ham ularning tahliliyligini ta'minlash uchun qilingan zaruriy talabdir.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasining "Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi qarori"ga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy nochorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimini o'rganish tavsiya etiladi: to'lov layoqati yoki qoplash koeffitsiyenti; o'z

aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti; korxona aktivlari va xarajatlari rentabelligi. Yakuniy xulosani chiqarish yuzasidan quyidagi qo'shimcha ko'rsatkichlar o'rganiladi: o'z mablag'lari va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti; ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti; asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi qarorida quyidagi ko'rsatkichlarni baholashni tavsiya etiladi.

1. Samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari: korxonaning foizlar, soliqlar va amortizatsiya summasi chegirilgunga qadar foydasi; xarajat va daromadlarning o'zaro nisbati; jalb qilingan kapital rentabelligi; aksionerlik kapitali rentabelligi; investitsiyalangan kapital rentabelligi; aktivlar rentabelligi; mutlaq likvidlik koeffitsiyenti; moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti; kreditorlik majburiyatlari aylanuvchanligi; debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi; qoplash (to'lovga qobillik) koeffitsiyenti; dividend to'lash koeffitsiyenti; debitorlik majburiyatining kamayish koeffitsiyenti.

2. Samaradorlikning qo'shimcha ko'rsatkichlari: asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti; asosiy vositalarni yangilash koeffitsiyenti; mehnat unumdorligi; fond qaytimi; ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti; energiya samaradorligi (mahsulot qiymati tarkibida energiya xarajati ulushi); sotilgan mahsulot tarkibida innovatsion mahsulotning ulushi; innovatsion faoliyatga xarajatlarning jami xarajatlar tarkibidagi salmog'i; xodimlarni o'qitish xarajatlari salmog'i; kadrlar qo'nimsizligi koeffitsiyenti; rejalashtirilgan investitsiya dasturining bajarilish darajasi; quvvatlarni ishga tushirish koeffitsiyenti; rejalashtirilgan eksport hajmining bajarilishi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy nochorligini baholash, xo'jalik yurituvchi subyektlarni bankrot (iqtisodiy nochor) deb e'lon qilish va ularni tugatish shartlari davlat nomidan ish ko'ruvchi organlar

tomonidan qat'iy belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunday vakolatga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasi ega.[13]

Xo'jalik yurituvchi subyektlar raqobatda sinmasligi uchun quyidagilarga amal qilishlari lozim:

- mavjud mablag'larini to'g'ri joylashtirish va boshqarish;
- ijobiy faoliyat natijaviyligiga erishish;
- debitor qarzlarni ko'paytirmaslik yo'llarini topish, mavjud debitor qarzlarni muddatida qaytarish chora-tadbirlarini ko'rish;
- kreditor qarz majburiyatlarini to'lov muddati bo'yicha nazoratini olib borish.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy nochorligini belgilashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimiga tayanishi lozim:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarni to'lov layoqati, qoplash koeffitsiyentini o'rganishi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy mustaqillik va qaramlik darajasini o'rganishi;
- uzoq muddatli va joriy aktivlarni manbalashning holatini o'rganish;
- o'z va qarz mablag'lari orasidagi nisbatni o'rganish;
- aktivlar, kapital va majburiyatlar rentabelligini o'rganish;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan haqiqiy foydalanish darajasini o'rganish;
- asosiy va nomoddiy aktivlardan foydalanish darajasini o'rganish;
- muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari holatini o'rganish.

Qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga yoki majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar yoki to'lovlar majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida qarzdor

[13] Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги ҳузуридаги Иқтисодий ночор корхоналар ишлари Қўмитасининг "Корхоналарнинг молиявий иқтисодий аҳволи мониторинги ва таҳлилини ўтказиш мезонларини аниқлаш тартиби тўғрисидаги қарори" 2005 йил 14-апрель, 1469 сон

milliy standart normalariga tayanilishi, moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishning farqlanishi bilan izohlash mumkin.

2.2. Moliyaviy tahlilni tashkil etish shakllari. Moliyaviy tahlilni tashkil etishda korxonaning tarmoq xususiyati, faoliyat ko'lami, raqobatdagi o'rni kabi jihatlarini hisobga olish

Moliyaviy tahlilni tashkil etish yuzasidan rasmiy jihatlarning belgilanmaganligi sababli uni tashkil etishda an'anaviy yo'nalishlardan foydalanish mumkin.

Odatda, buxgalteriya hisobini va auditni (ichki, tashqi) tashkil etishdagi rasmiy jihatlar bilan belgilangan aniq tartib va qoidalar moliyaviy tahlilni tashkil etishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, yangi tahrirdagi "Buxgalteriya hisobi" to'g'risidagi qonunning "Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish" to'g'risidagi 11-moddasi buxgalteriya hisobi va hisobotini buxgalteriya hisobi subyektining rahbari amalga oshirishi qayd etiladi hamda buxgalteriya hisobi subyektining rahbari qanday huquqlarga ega ekanligi tarkiblanadi. Ushbu huquqlar qatorida:

Buxgalteriya hisobi xizmatining rahbari boshchiligida buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish yoki shartnoma asosida jalb qilingan buxgalter xizmatidan foydalanish;

Buxgalteriya hisobini yuritishni ixtisoslashtirilgan tashkilotga (auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari va ustavida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatish nazarda tutilgan boshqa tashkilotlar) shartnoma asosida yuklashi;

Buxgalteriya hisobini mustaqil yuritishi qayd etiladi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning ushbu tartiblari bevosita, moliyaviy tahlilga nisbatan ham to'la mos deyish mumkin.

Tahlilni *tashkil etish shakli* sifatida ichki moliyaviy tahlilni tashkil etilishi va tashqi moliyaviy tahlilni tashkil etilishini tarkiblash maqsadga muvofiqdir.

Tashqi moliyaviy tahlil cheklangan axborotlarni aks ettiruvchi moliyaviy hisobot shakllari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini o'rganishni xarakterlaydi va korxona erishgan natijalarining barcha sirlarini ochib berish imkonini bermaydi. Ushbu tahlil ichki axborot bazasidan foydalanish imkoniga ega bo'lmagan, korxona faoliyati bilan qiziquvchi kontragentlar, mulk egalari yoki davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tashqi moliyaviy tahlilning ahamiyatli jihatlari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- tahlil subyektlari va axborot foydalanuvchilarining ko'pligi;
- tahlilchilarning maqsadi va qiziqishlarining turli tumanligi;
- hisobga olish va hisobotlarning normativ qoidalari, tahlil etishning rasmiy jihatlarining belgilanganligi;
- tahlilning faqat chop etiladigan moliyaviy hisobot shakllaridagi axborotlar bazasiga tayangan holda o'tkalishi;
- qo'yiladigan analitik masalalarning cheklanganligi;
- axborot foydalanuvchilar uchun korxona faoliyati yuzasidan tahlil natijalaridan foydalanishning maksimal ochiqligi.

Tashqi moliyaviy tahlilning asosiy jihatlari moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida korxona aktivlari, o'z mablag'lari manbai va majburiyatlarining o'zgarishi, to'lov layoqati va likvidlilik darajasi, moliyaviy holati va barqarorligi, bozor va ish aktivligi, moliyaviy va iqtisodiy salohiyati, iqtisodiy mustahkamligi va nochorligi, foyda va rentabellik darajasi, pul oqimi va xususiy kapitalning o'zgarishlari, korxonaning iqtisodiy reytingini aniqlashga qaratiladi.

Ichki moliyaviy tahlil – korxonaning ichki bo'limlari, xodimlari tomonidan o'tkazilib o'rganiladigan masalalarning ko'lami bilan tashqi moliyaviy tahlildan farq etadi. Ichki moliyaviy tahlilning axborotlar bazasi va o'rganiladigan masalalarning ko'lami tashqi moliyaviy tahlilga nisbatan keng hisoblanadi. Uning axborotlar bazasiga faqat chop etiladigan moliyaviy hisobotlargina emas, balki moliyaviy hisobning barcha manbalari va hisobdan tashqari manbalarni ham kiritish mumkin. O'rganiladigan masalalar ko'lamini boshqaruvchilar va tahlilchilarning

qiziqishlari doirasidan kelib chiqib belgilash mumkin. Ushbu tahlil turining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin.

Ichki moliyaviy tahlilning o'ziga xos jihatlari:

- tahlil subyektlarining tor guruhi;
- tahlil natijalari faqat ichki talablarga, korxona boshqaruvi yuzasidan yo'naltirilganligi;
- teran moliyaviy tahlilni o'tkazishda axborotlarning keng doirasidan foydalanish imkoniyatining yuqoriligi;
- tahlilni o'tkazish bo'yicha normativ metodikalar bilan birgalikda aniq reglamentlari (tartiblari) belgilanmagan usullardan foydalanish imkoniyatlari;
- aniq boshqaruv qarorlarini tayyorlash yuzasidan chuqur moliyaviy tahlilni o'tkazish imkoniyati mavjudligi;
- boshqaruv apparati talablaridan kelib chiqqan holda analitik ishni tashkil etilishi.

Moliyaviy tahlil *mazmuni bo'yicha* to'liq moliyaviy tahlil va tematik moliyaviy tahlil turlariga ajratiladi.

To'liq moliyaviy tahlil korxona moliyaviy faoliyatining barcha jihatlarini kompleks o'rganishni xarakterlaydi. Tematik moliyaviy tahlil korxona moliyaviy faoliyatining alohida jihatlarini va akspektlarini o'rganishni xarakterlaydi. Tematik moliyaviy tahlil predmetiga: aktivlardan samarali foydalanish, aktivlarni moliyalashtirishda alohida manbalardan optimal foydalanish darajasi, to'lov layoqati va moliyaviy barqarorlik holati, optimal investitsion faoliyat, kapitalning moliyaviy tuzilishi kabi masalalarni kiritish mumkin.

Moliyaviy tahlilda obyektni qamrab olinishi yuzasidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'liq (bir butunlikdagi) moliyaviy tahlili, alohida bo'limlar va birliklar moliyaviy holatining tahlili (iqtisodiy javobgarlik markazlari bo'yicha) hamda alohida moliyaviy jarayonlar tahlilini tarkiblash mumkin.

O'tkazish davri bo'yicha moliyaviy tahlil oldingi, joriy va istiqbolli tahlil turlariga tarkiblanadi.

Oldingi moliyaviy tahlil – korxona moliyaviy faoliyatini bir butunlikda yoki alohida olingan moliyaviy jarayonlar bo'yicha shart-sharoitlarni bilish bilan bog'lanadi (masalan, uzoq va qisqa muddatga bank kreditlarini olish yuzasidan korxonaning to'lov layoqatini baholash).

Joriy (operativ) moliyaviy tahlil – alohida moliya rejalarini bajarilishida yoki moliya operatsiyalarini amalga oshirish davomida operativ tarzda moliyaviy holatga ta'sir etish yuzasidan o'tkaziladigan tahlil turidir.

Istiqbolli moliyaviy tahlil – amaldagi holatni o'rganish asosida moliyaviy holat va uning alohida birliklari bo'yicha kelajakdagi o'zgarishlarning kutilishlarini baholab beruvchi tahlil turidir.

Moliyaviy tahlilni *tashkil etish bosqichlari*ni iqtisodiy tahlil va uning tarkibiy qismlariga nisbatan yagona asosda birday belgilash to'g'ri, lekin aynan moliyaviy tahlil yuzasidan uni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

1. Moliyaviy tahlil maqsadini belgilash va rejasini tuzish;
2. Moliyaviy tahlil yuzasidan ma'lumotlar bazasini to'plash;
3. Moliyaviy tahlilni bevosita o'tkazish bosqichi;
4. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi;
5. Qarorlar tayyorlash bosqichi;
6. Tahlil natijalarini realizatsiya qilish bosqichi.

Iqtisodiy tahlilni yoki moliyaviy tahlilni tashkil etishdagi yondashuvlar turlicha bo'lganligi bilan ularning mazmuni albatta bitta jihatga ya'ni tahlilni sifatli va foydali o'tkazishga qaratilgan.

Moliyaviy tahlilni tashkil etishda albatta har bitta tarmoqning va sohaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Jumladan, xo'jalik subyektlarining faoliyat turlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Farqlanish nafaqat ularning faoliyat turida, balki mulkiy shaklida, kapitalda qatnashishi, mulkiy taqsimotida, ko'lamida ham mavjud. Moliyaviy hisobotlar bir xil shakl va mazmunni ifoda etgani bilan ularning qatorlari, qatorlarning shakllanish tartiblari bir-biridan tubdan farq qiladi.

Moliyaviy holat va natijaviylikni baholashda bu jihatlarni farqlanishi muhim o'rin tutmasa ham, aslida masalaning yechimi uning quyi bo'g'iniga, faoliyatning turiga, xususiyatiga, taqsimotning shakliga, mulkiy va moliyaviy munosabatlarga borib taqaladi.

Iqtisodiyotning u yoki bu tarmog'i yagona maqsadda birlashsa ham, boshqa munosabatlarda tubdan farq qiladi. Bu jihat farqlanishlar albatta moliyaviy tahlilda hisobga olinishi lozim.

Axborotlar bazasida ham farqlanishni kuzatish mumkin. Masalan kichik biznes subyektlari soddalashtirilgan tartibda moliyaviy hisobotni tuzadilar va yuritadilar, yirik biznes subyektlari esa umumbelgilangan tartibda moliyaviy hisobotni tuzadilar va taqdim etadilar. Shu bilan birgalikda ularning soni va mazmunida, auditorlik xulosalarining olinishida ham farqlanishlar kuzatiladi. Moliyaviy hisobotlarga auditorlik xulosalarining olinishida ham majburiy va majburiy bo'lmagan tarkibini guruhlash mumkin.

2.3. Moliyaviy tahlilning asosiy bo'limlari: moliyaviy hisobot tahlili, investitsion tahlil, qimmatli qog'ozlar bozoridagi jarayonlar tahlili, moliyaviy hisobotni bashoratlash.

Moliyaviy hisobot tahlili. Moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi moliyaviy hisobotlar hisoblanadi. Moliyaviy hisobot ana shu hisobotlarga asoslangan yoki ular bilan bog'liq bo'lgan izohlar, mo'ljallar va tushuntirishlarni ham o'z ichiga oladi.

Moliyaviy hisobotlar xo'jalik yurituvchi subyektining moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlari, xususiy kapital to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlaydi, shuningdek, ularga ishonib topshirilgan resurslar boshqarilishining natijalarini aks ettiradi.

Moliyaviy hisobotlar xo'jalik yurituvchi subyektga tegishli bo'lgan quyidagi jihatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ta'minlaydi:

- aktivlar;
- majburiyatlar;
- kapital;

- daromad va xarajatlar, jumladan foyda va zararlar;

- mulk egalari tomonidan ularning mulk egalari sifatida amal qilishidagi qilingan qo'yilmalar va ularga taqsimlanadigan summalar;

- pul oqimlari.

Ushbu ma'lumotlar, izohlardagi boshqa ma'lumotlar moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga xo'jalik yurituvchi subyektning kelgusi pul oqimlarini va, xususan, ularning muddatini va aniqliligini bashorat qilishga yordam beradi.

Moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami quyidagilarni qamrab oladi:

- davr oxiriga moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;

- davr uchun foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot;

- davr uchun kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot;

g) davr uchun pul oqimlari to'g'risidagi hisobot;

- izohlar, ya'ni ahamiyatli hisob siyosatlarining va boshqa tushuntirish ma'lumotlarining qisqa bayonini qamrab olgan izohlar;

- oldingi davr uchun qiyosiy ma'lumotlarni;

- moliyaviy holat to'g'risidagi oldingi davrga tegishli (retrospektiv tahlil yuzasidan) ma'lumotlarni.

Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotlarining to'liq to'plamida barcha moliyaviy hisobotlarni teng darajada taqdim etishi lozim.

Ko'pgina xo'jalik yurituvchi subyektlari, moliyaviy hisobotlardan tashqari, xo'jalik yurituvchi subyektining rahbariyati tomonidan tayyorlangan, uning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining asosiy jihatlarini hamda u duch keladigan asosiy noaniqliklarni sharhlaydigan va tushuntiradigan moliyaviy tahlilni ham taqdim etadilar. Bunday hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- moliyaviy natijalarni shakllantirgan asosiy omillar va ta'sirlar, jumladan xo'jalik yurituvchi subyekti faoliyat ko'rsatadigan muhitdagi o'zgarishlar, xo'jalik yurituvchi subyektning ushbu o'zgarishlarga javoban choralari va ularning ta'siri, hamda xo'jalik yurituvchi

subyektning moliyaviy natijalarni saqlab qolish va ko'paytirishga qaratilgan investitsion siyosati, jumladan uning dividend siyosati;

- xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini moliyalashtirish manbalari va u tomonidan ko'zlangan majburiyatlarning kapitalga nisbati koeffitsiyenti;

- xo'jalik yurituvchi subyektining MHXSlarga muvofiq moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda tan olinmagan resurslari.

Xo'jalik yurituvchi subyektlari, moliyaviy hisobotlardan tashqari, ekologik hisobotlar va qo'shilgan qiymat to'g'risidagi rasmiy axborotlar kabi hisobotlarni va rasmiy axborotlarni, xususan ekologik omillar ahamiyatli bo'lgan sohalarda va qachonki, xodimlar ahamiyatli foydalanuvchilar guruhi sifatida inobatga olinganda, taqdim etadilar.

Moliyaviy hisobotlar tahlilida o'rganiladigan mavzularni quyidagicha tarkiblash mumkin:

Moliyaviy hisobotlar tahlilining *umumiy mavzulari*:

- Buxgalteriya balansi va moliyaviy holat tahlili;
- Moliyaviy natijalar va rentabellik tahlili;
- Pul oqimlari va valyuta mablag'lari harakatini tahlili;
- Xususiy kapital tahlili;
- Moliyaviy hisobotlarni kompleks tahlili.

Moliyaviy hisobotlarning *birlik mavzulari*:

- Investitsion faoliyat va investitsion jozibadorlik tahlili
- Bozor va ish aktivligi tahlili
- Kreditga layoqatlilik tahlili
- Iqtisodiy nochorlik tahlili
- Moliyaviy indikatorlar tahlili
- Risklar tahlili va h.k.

Xo'jalik yurituvchi subyekt joriy davrning moliyaviy hisobotlarida aks ettirilgan barcha summalar bo'yicha oldingi davrga nisbatan qiyosiy ma'lumotlarni taqdim etishi lozim. Bu jihatdan xo'jalik yurituvchi subyekti kamida, ikkita moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotlarni, ikkita foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobotlarni, ikkita alohida foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobotlarni

(agarda taqdim etiladigan bo'lsa), ikkita pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni va ikkita kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotlarni hamda tegishli izohlarni taqdim etishi lozim. Bu holat, ma'lumotlarni qiyoslashni, ularni tahlil etishning zaruriyligini belgilab beruvchi asosiy shartdir.

Investitsion tahlil. **Investitsion tahlil** – bu investorlarning samarali qaror qabul qilishi uchun investitsiyalarni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini ishlab chiqish, asoslash va baholash uchun bajariladigan metodik va amaliy uslublar, usullar majmuidir.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har bitta korxonaning asosiy maqsadi foyda olish va iqtisodiy salohiyatni o'stirishga qaratilgan. Investitsiyalar ushbu maqsadga erishishning vositasidir. Ammo, har bir sarmoyadorning qarorlari muvaffaqiyatli bo'lishi uchun investitsion tahlil natijalariga asoslangan bo'lishi lozim.

To'g'ri va o'z vaqtida o'tkazilgan *investitsion tahlil* quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini beradi:

- investitsiyalarning real ehtiyojlarini va investitsiyalar uchun zarur shart-sharoitlarning mavjudligini baholash;
- korxonaning taktik va strategik maqsadlarini inobatga olgan holda sarmoyaviy yechimlarini tanlash;
- investitsiyalarning haqiqiy natijalariga, rejalashtirilgan yoki rejadan chetga chiqishlarga ta'sir etuvchi barcha omillarni aniqlash;
- investitsiyalarni amalga oshirishda investorlar uchun xavf-xatarlarni aniqlash;
- korxonalarning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash yuzasidan investitsion monitoringdan keyingi tavsiyalarni ishlab chiqish.

Investitsion tahlilning *turlari bo'yicha*: kapital qo'yilmalarga investitsiyalar va moliyaviy investitsiyalar tahliliga ajratiladi.

Investitsiyalar *obyekti bo'yicha*: to'liq korxona tahlili va alohida investitson jarayonlar tahliliga bo'linadi.

Davri bo'yicha: investitsiya oldi, joriy, operativ va investitsion faoliyatdan keyingi tahlilga ajratiladi.

Analitik izlanishlar hajmi bo'yicha to'liq va tematik tahlil turlariga bo'linadi.

Shakli bo'yicha investitsion tahlil: ichki va tashqi tahlil turlariga ajratiladi.

Investitson tahlil quyidagi tizimli ketma-ketlikda o'tkaziladi:

- zarur axborotlarni tanlash va tayyorlash;
- dastlabki axborotni qayta ishlash va tahliliy axborotni shakllantirish;
- analitik axborotni talqin qilish;
- xulosa va tavsiyalarni tayyorlash.

Investitsion tahlil ikkita muhim bosqichni o'z ichiga oladi.Ularning har biri o'z ichiga yana bir necha bosqichlarni oladi:

1-investitsion loyihaning samaradorligini baholash;

2-risklarni baholash.

Investitsion tahlilda moliyaviy tahlilning gorizontal, vertikal, trend, qiyoslash, koeffitsiyent, integral usullaridan foydalaniladi.

Qimmatli qog'ozlar tahlili. Tahlilning maqsadi – qimmatli qog'ozlar bo'yicha kelajakdagi xatti-harakatni aniqlik bilan taxmin qilishga qaratilgan. Tahlil qilmasdan sarmoyadorlar bozorda nima bo'layotganligini bila olmaydilar.

Eng istiqbolli kompaniyalar, emitentlar ham oxir-oqibatda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin. Boshqa tomondan kichik va noqobil kompaniyalar tez va kutilmagan tarzda natijalarga erishib, ularning ulushi keskin ortib ketishi mumkin.

Barcha ishtirokchilar qaysi kompaniyalar rivojlanib ketmoqda, qaysilarining rivojlanishi sekinlashgan yoki orqaga ketganligiga qarab aksiyalarni sotib olish yoki sotish yuzasidan qimmatli qog'ozlarni tahlil qilishga kirishadilar.

Qimmatli qog'ozlarning odatda fundamental va texnik tahlil turlari tarkiblanadi.

Moliyaviy hisobotni bashoratlash. Boshqaruv har doim kelajakka yo'nalitirilgan bo'ladi. Bo'lib o'tgan jarayonni ortga qaytarib bo'lmaydi. Lekin uning natijalariga qarab kelajak rejasini tuzish, kelajakdagi

boshqaruvning optimalligini, samaradorligini ta'minlash choralarini ko'rish mumkin.

Moliyaviy hisobotlarni bashoratlash nima uchun kerak? Moliyaviy hisobotlarni bashoratlash asosida moliyaviy holat, natija, pul harakati, kapital o'zgarishidagi har qanday ko'rsatkichni oldindan kutilishini bashoratlash mumkin.

Bashoratlash moliyaviy hisobotlar ma'lumotlari asosida hisob-kitob qilinadigan har qanday ko'rsatkichni oldindan aniqlash imkonini beradi. Bu esa korxonaning moliyaviy holati, natijalari, pul oqimi yuzasidan oddindan kutilishi mumkin bo'lgan holatni aniqlashga imkon beradi. To'g'ri, oldindan aniqlangan ko'rsatkichning aniqligi ta'minlab bo'lmaydi. Chunki unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, shuningdek, boshqaruv apparati tomonidan qabul qilinadigan qarorlar aniqlikni qay jihatdandir o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Bashoratlashda murakkab modellashtirish tizimidan foydalaniladi. Risklarni baholash masalasi bu borada o'ta murakkab va qiyin jarayon hisoblanadi.

Balans moddalarini *bashoratlashda* quyidagi **modellardan** foydalaniladi.

1) Buxgalteriya balansi moddalarini fiksatsiyalash metodi – bashoratlash davrida balansning shunday moddalariga nisbatan qo'llaniladiki, ular ma'lum davriylikda o'zgarishsiz qoladi. Masalan Ustav kapitali, Qo'shilgan kapital, Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar, Uzoq muddatli majburiyatlar va h.k.

2) Buxgalteriya balansi moddalari orasidagi mutanosiblik metodi.

Misol uchun, boshqaruv va tijorat xarajatlarini, to'lovga qabul qilingan majburiyatlar va h.k.larning sotish hajmiga bog'liqligi. Ayrim ko'rsatkichlar mahsulotlarni sotish hajmiga emas, balki ishlab chiqarilgan, sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish xarajatlari o'zgarishiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Masalan, kreditorlik majburiyatlarining ortishi, majburiyatlar bo'yicha zaxiralarning tashkil etilishi kabi.

3) Regressiv tahlil metodi. Ko'rsatkichlar orasidagi barqaror munosabatlar mavjudligi sharoitida statistik mutanosiblikka asoslangan usul hisoblanadi.

4) Ekspert baholash metodi. Murakkab vazifalarni hal etishda foydalaniladigan usul.

5) Doimiy o'sish metodi. Alohida koeffitsiyentlarning doimiy o'sish sur'atlarini belgilash usuli. Masalan uzoq muddatli qarzlar, ma'muriy va savdo xarajatlari, belgilangan xarajatlarning boshqa turlarining o'sishi. Ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari o'rtacha qiymatlarni emas, balki murakkab o'rtacha yillik o'sish sur'atlari darajasida qo'llanishi kerak.

6) Elementar rejalashtirish metodi. Har bir obyekt uchun rejalashtirilgan sxema, rejalar mavjudligi, moliyaviy hisobot maqomini tashkil etuvchi shu kabi obyektlar guruhi nazarda tutiladi.

Ushbu metoddan amortizatsiya xarajatlarini bashoratlashda, uzoq muddatli qarzlarni qoplashda foydalanish mumkin.

Moliyaviy tahlilning *modelli tarkibi* quyidagi bo'limlardan tashkil topadi.

- dastlabki ma'lumotlar bazasi;
- hisob-kitoblar;
- oraliq jadvallar;
- natijalar;
- grafiklar.

Moliyaviy hisobotlarni bashoratlashda har qadamda xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatining xatti-harakatlarini tanlash zaruriyati bilan yuzma-yuz kelishi mumkin va bu tabiiy hol hisoblanadi.

Agar xo'jalik yurituvchi subyekt muayyan choralarni ko'rishni xohlamasa, o'z-o'zidan holat yanada yomonlashib boraverishi mumkin.

Asosiy jihatlar taqsimlanmagan foydani qayerga yo'naltirish lozimligiga, uzoq muddatli aktivlarning qaysi turlarini olib kelish lozimligiga, moliyaviy qo'yilmalarni qayerlarga joylashtirishga, xususiy kapitalni o'stirishga qaratilmog'i lozim.

Bashoratlashdagi eng muhim masalalardan biri bu inflyatsiya darajasi bo'yicha aniq ma'lumotlarga tayanilishi bilan izohlanadi.

2.4. Moliyaviy tahlil bosqichlari

Moliyaviy tahlil o'tkazish metodikasi quyidagi *asosiy bosqichlarni* o'z ichiga oladi:

1. Dastlabki baholash. Dastlabki baholashda axborotlar ishonchligini baholashni, moliyaviy hisobotlarni o'qish va uning muhim ko'rsatkichlar tizimini baholashni, aylanma mablag'lar va uzoq muddatli aktivlar, o'z va qarz mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimini mutlaq ifodasi bilan chuqur tahlil etish orqali aniq xulosalarni shakllantirish nazarda tutiladi.

2. Ekspress-tahlil. Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash asosida korxonaning joriy va istiqbolli to'lovga qobilligini, ish va bozor aktivligini o'rganish asosida korxonaning moliyaviy ahvoliga baho berishni anglatadi.

Ekspress-tahlilning *maqsadi* xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati, rivojlanish dinamikasini operativ, vizual baholashdan iborat. Ekspress-tahlilni amalga oshirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- rasmiy xususiyatlarga ko'ra hisobotni ko'rish;
- auditor xulosasi bilan tanishish;
- korxona hisob siyosati bilan tanishish;
- hisobotdagi "og'riqli"(muammoli) bandlarni aniqlash va ularni dinamik baholash;
- asosiy ko'rsatkichlar bilan tanishish;
- tushuntirish xatini o'qish;
- haqqoniy balans ma'lumotlari asosida mulkiy va moliyaviy holatni baholash;
- tahlil natijalari bo'yicha xulosalarni shakllantirish.

Ekspress-tahlilda quyidagi muhim o'zgarishlarga ahamiyat qaratiladi: davr oxiriga balans jamining davr boshiga nisbatan o'sishiga; aylanma aktivlarning o'sishi uzoq muddatli aktivlarning o'sishidan yuqori bo'lishiga; xususiy kapitalning qarz kapitalidan ortiq bo'lishiga;

xususiy kapitalning o‘sishi qarz kapitalining o‘sishidan yuqori bo‘lishiga; debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining o‘sishi bir xilda bo‘lishiga; aylanma aktivlarda o‘z mablag‘lari hissasi yuqori bo‘lishiga; qoplanmagan zarar qatori bo‘lmasligiga va h.k.

3. Chuqurlashtirilgan moliyaviy tahlil. Chuqurlashtirilgan moliyaviy tahlilning *asosiy vazifasi* – qaysi mahsulot turlari, qaysi xarajat turlari, qaysi javobgarlik markazlari tufayli o‘zgarishlar yuzaga kelganligini va bu borada rahbarlar qanday yo‘l tutishi lozimligiga qaratilgan.

Chuqurlashtirilgan moliyaviy tahlilning asosiy *maqsadi* – xo‘jalik yurituvchi subyektining joriy davrdagi natijalarini, ularning kelgusidagi kutilishlarini, moliyaviy holatini keng qamrovli tavsiflashga, baholashga qaratilgan.

Chuqurlashtirilgan moliyaviy tahlilning asosiy jihatlari quyidagilarga qaratilgan:

- xo‘jalik subyektining iqtisodiy va moliyaviy holatini baholash;
- xo‘jalik subyektining iqtisodiy salohiyatini baholash va tahlil etish;
- mulkiy holatini baholash (analitik balansni tuzish, balansning vertikal tahlili, balansning gorizontal tahlili, mulkiy holatdagi sifat o‘zgarishlari tahlili);
- moliyaviy holatni baholash (likvidlik va to‘lovga layoqatlilikni baholash, moliyaviy barqarorlikni baholash);
- moliyaviy xo‘jalik faoliyati natijaviyligini baholash (ish aktivligi, foyda va rentabellikni baholash, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi holatini baholash)ni o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy tahlilni quyidagi bosqichlardan iborat *algoritmini* belgilash mumkin:

- tahlil uchun zarur bo‘lgan axborotlarni yig‘ish;
- axborotlarni qayta ishlash, ko‘rsatkichlarni tanlash va ularni tahliliyligini ta’minlash;
- moliyaviy hisobotlarning gorizontal, vertikal, trend tahlilini o‘tkazish;

- moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlari asosida moliyaviy koeffitsiyentlarni hisob-kitob qilish, ularning qiyosiy tahlilini qilish, o'zgarishlarni omilli tahlilini amalga oshirish;

- xo'jalik subyektining moliyaviy holatini, moliyaviy natijalari, pul oqimlarini tahliliy natijalarini chiqarish, ularni yaxshilashning, imkoniyatlarini aniqlash;

- moliyaviy tahlil bo'yicha yakuniy xulosalarni tayyorlash va amaliy chora-tadbirlarni belgilash.

2.5. Moliyaviy tahlilning axborot manbalari (tahlil obyektlari haqidagi ma'lumotlar), ularning ochiqligi va oshkoraligi

Iqtisodiyotdagi o'zgarishlarning jadalligi zamonaviy buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning ham mazmunini tubdan yangi shakl va mazmunda yuritishni talab etmoqda. Hozirgi sharoitda moliyaviy hisobotlar tahlilining muhimligini shu bilan aniq izohlash mumkinki, ushbu predmet alohida fan sifatida shakllangan. Mulk egalari, sheriklar va hamkorlar, mol yetkazib beruvchi va xaridorlar, qarz beruvchi va oluvchilar, nazorat va taftish organlari, kontragentlarning keng qamrovli tarkibi xo'jalik yurituvchi subyektining moliyaviy ahvoli va undagi o'zgarishlarni baholashning konseptual asoslari tubdan, yangidan tuzib chiqildi. O'zbekiston Respublikasining alohida qabul qilingan Buxgalteriya hisobi, Audit to'g'risidagi Qonunlari, qator Kodekslar (byudjet, soliq, mehnat, investitsiya) normalari asosida tashkil etilayotgan hisob xizmatlarining mazmuni tubdan o'zgarmoqda.

Moliyaviy hisobot – xo'jalik yurituvchi subyekt alohida mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektligi yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarning jamlangan guruhiga kirishidan qat'i nazar shu xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum bir davrdagi faoliyatini ko'rsatuvchi moliyaviy axborotni taqdim etish usulidir.

Moliyaviy hisobot – buxgalteriya hisobi subyektining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy

natijasi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir.

Yillik moliyaviy hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- buxgalteriya balansi;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;
- pul oqimlari to'g'risidagi hisobot;
- xususiy kapital to'g'risidagi hisobot;
- izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

2.1-jadval

Moliyaviy hisobot shakllari va ularning axborotliligi

Hisobot shakllari			
Buxgalteriya balansi	**Foyda va zarar haqida hisobot**	**Kapital to'g'risidagi hisobot**	**Pul oqimi to'g'risidagi hisobot**
Iqtisodiy resurslar haqidagi, likvidlik va to'lovga qobillik haqidagi, korxonaning o'zgarishlarga ko'nikish qobiliyatini baholash to'g'risidagi axborotlarni olishga imkon beradi	Resurslar bazasi yuzasidan pul oqimlarining ijobiy saldosini, faoliyat natijasi va rentabellik haqidagi axborotlarni beradi	Korxonaning operatsion, moliyaviy va investitsion faoliyat natijasini baholashga, korxonaning pul ishlab topish qobiliyati, ushbu mablag'larga korxonaning zaruriyatini baholashga imkon beradi	Korxonaning sof aktivlar qiymatini baholashga, to'lovga qobillik va likvidlikni baholashga, pul mablag'larini samarali boshqarish to'g'risidagi axborotlarni olish imkonini beradi

Xalqaro standartlar bo'yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilanadi.

Buxgalteriya hisobi subyekti moliyaviy hisobotni tuzishda mustaqil balansga ajratilgan o'z vakolatxonalarining, filiallarining va boshqa tarkibiy bo'linmalarining buxgalteriya balanslarini hamda boshqa hisobot shakllarini kiritishi kerak.

Moliyaviy hisobot hisobot yili boshidan ortib boruvchi yakun bilan tuziladi.

Byudjet tashkilotlarining moliyaviy hisoboti byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tuziladi va taqdim etiladi.

Moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmuni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Banklar va boshqa kredit tashkilotlari moliyaviy hisobotining tarkibi hamda mazmuni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Asosiy xo‘jalik jamiyati bo‘lgan va shu’ba xo‘jalik jamiyatlariga, o‘z nazorati ostidagi tashkilotlarga ega buxgalteriya hisobi subyekti konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish tartibi, shuningdek, asosiy xo‘jalik jamiyatining nazorati ostidagi tashkilotlarga qo‘yiladigan talablar buxgalteriya hisobi standartlari bilan belgilanadi.

Moliyaviy hisobot quyidagilarga taqdim etiladi:

- davlat soliq xizmati organlariga;
- ta’sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga;
- davlat statistika organlariga;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga.

Moliyaviy hisobot elektron hujjat tarzida taqdim etilishi mumkin.

Moliyaviy hisobot yilning har choragida taqdim etiladi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar buxgalteriya balansidan hamda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotdan iborat, faqat yillik moliyaviy hisobotni taqdim etadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yillik moliyaviy hisoboti manfaatdor banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxslar uchun ochiqdir.

Aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, sug‘urta tashkilotlari, banklar, jamoat fondlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar har yilgi moliyaviy hisobotni aksiyadorlarning yoki buxgalteriya hisobi subyekti boshqa yuqori boshqaruv organining yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin auditorlik xulosasi bilan birga e’lon qilishi shart.

Buxgalteriya hisobi barcha xo‘jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo‘li bilan buxgalteriya axborotini yig‘ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan,

shuningdek, u asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.

Boshlang'ich hisob hujjatlariga asoslangan, buxgalteriya hisobi reestrlarida, moliyaviy hisobotlarda, tushuntirishlarda hamda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bilan bog'liq boshqa hujjatlarda aks ettiriladigan buxgalteriya hisobi obyektlari haqidagi qayta ishlangan ma'lumotlar – **buxgalteriya axboroti** deb yuritiladi.

Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir minimal talablarni buxgalteriya hisobi standartlari belgilaydi.

Buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir maxsus talablarni buxgalteriya hisobining milliy standartlari belgilaydi.

Xo'jalik subyektlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo'llashlari mumkin.

Moliyaviy hisobotlarning elementlari: aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy natijalar.

Xo'jalik yurituvchi subyekti o'zining, pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlaridan tashqari, moliyaviy hisobotlarini buxgalteriya hisobining hisoblash usuli asosida tayyorlashi lozim. Buxgalteriya hisobining hisoblash usuli qo'llanilganda, xo'jalik yurituvchi subyekt moddalarni aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar va xarajatlar (moliyaviy hisobotlar elementlarini) sifatida tan oladi, qachonki ular konseptual asosda keltirilgan ushbu elementlarning ta'riflariga va tan olish mezonlariga to'g'ri kelsa.

Aktivlar – subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir.

Aktivlar – xo'jalik subyektining qiymat bahosiga ega bo'lgan moddiy, shu jumladan, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va nomoddiy mulkidir.

Aktivlarda aks ettirilgan bo'lg'usi iqtisodiy foyda, xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'lari oqimiga potensial bevosita va bilvosita qo'shiladigan ulushdir. Bu ulush xo'jalik yurituvchi subyekt asosiy faoliyatining bir qismi sifatida yuzaga kelishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektning aktivlari avvalgi bitimlar va boshqa voqealarning natijasidir. Xo'jalik yurituvchi subyektlar odatda aktivlarni sotib olib yoki hosil qilib unga ega bo'ladilar, biroq, boshqa bitimlar va voqealar aktivlarni ko'paytirishga imkon beradi. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyekt hukumatdan olgan ko'chmas mulk va h.k. Kelgusida kutiladigan bitimlar va boshqa voqealar o'zidan o'zi aktivlarning paydo bo'lishiga olib kelmaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt o'z aktivlaridan mulkni, tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarishni va xizmatlar ko'rsatilishini boshqarish uchun foydalanadi.

Aktivlarda aks ettirilgan bo'lg'usi iqtisodiy foyda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan har xil yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Masalan, aktivdan:

- tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda alohida yoki boshqa aktivlar bilan birgalikda foydalanilishi;
- boshqa aktivlarga almashtirilishi;
- majburiyatlarni bajarish uchun foydalanilishi;
- xo'jalik yurituvchi subyektning egalari o'rtasida taqsimlanishi mumkin.

Aktivlar binolar, inshootlar va uskunalar singari moddiy shaklga ega. Biroq, moddiy shakl aktivning mavjud bo'lishi uchun zarur emas. Masalan, patentlar va mualliflik huquqlari aktivlardir, agar xo'jalik yurituvchi subyekt kelgusida ulardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olishni kutayotgan bo'lsa.

Aktivlar, masalan, debitorlik qarzlari va mulk yuridik huquqlar, shu jumladan egalik huquqi bilan bog'liqdir. Aktiv mavjudligini aniqlashda, egalik huquqi asosiy hisoblanmaydi. Masalan, ijaraga olinadigan mulk aktiv hisoblanadi, agar xo'jalik yurituvchi subyekt ana shu mulkdan olinishi kerak bo'lgan foydani nazorat qilsa.

Xarajatlarni amalga oshirish bilan aktivlarni hosil qilish o'rtasida uzviy aloqa mavjud, ammo bu jarayonlar hamma vaqt ham vaqti bo'yicha to'g'ri kelmaydi. Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar bo'lg'usi iqtisodiy foyda izlanganidan

dalolat beradi, lekin aktivlar olinganini uzil-kesil tasdiqlamaydi. Binobarin, xarajatlarning mavjud emasligi obyektni aktiv deb hisoblash uchun asos bo'lmaydi. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyektga tekinga berilgan obyektlar aktivlarni ta'riflashga mos keladi.

Xususiy sarmoya – subyektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir.

Xususiy sarmoya ustav, qo'shilgan, zaxiralar sarmoyasi va taqsimlanmagan foydadan iboratdir. Zarur hollarda ustav, qo'shilgan, zaxira sarmoyalari tahliliy jihatdan alohida hisobga olinadi. Buxgalteriya balansidagi xususiy sarmoyaning miqdori aktivlar qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog'liqdir.

Majburiyatlar – shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to'lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o'z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir.

Xo'jalik yurituvchi subyekt boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldida joriy mas'uliyatli ekanligi majburiyatning asosiy tavsifidir.

Majburiyatlar ustavning yoki shartnomaning talablari oqibati sifatida kuchga kirishi mumkin. Masalan, olingan tovar-moddiy zaxiralar va xizmatlar uchun to'lanadigan summalar. Majburiyatlar oldin tadbirkorlik ishi jarayonida, yaxshi munosabatlarni saqlab turish yoki xolisona tarzda ish ko'rishda ham yuzaga keladi. Masalan, agar xo'jalik yurituvchi subyekt kafolat muddati tugaganidan so'ng o'z mahsulotidagi kamchiliklarni tuzatish to'g'risida qaror qabul qilsa, shu bo'yicha qilingan xarajatlar ham majburiyatlar deb hisoblanadi.

Hozirgi majburiyat bilan kelgusi majburiyat o'rtasida chegara bo'lishi kerak. Xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarining kelgusida aktivlarni sotib olish haqida qabul qilgan qarori majburiyat paydo bo'lishiga sabab bo'lmaydi. Majburiyat odatda aktiv olinganda yoki xo'jalik yurituvchi subyekt aktivni sotib olish to'g'risida bitimga kirishgandagina paydo bo'ladi.

Tegishli majburiyatni bajarish odatda boshqa tarafning e'tirozlarini

qondirish uchun iqtisodiy foydani ifodalovchi xo'jalik yurituvchi subyekt resurslarini o'ziga jalb etadi. Majburiyatlarning bajarilishi har xil usullarda (qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollardan tashqari) amalga oshiriladi:

- haq to'lash bilan;
- boshqa aktivlarni berish bilan;
- xizmatlarni ko'rsatish bilan;
- ushbu majburiyatni boshqasi bilan almashtirish orqali;
- majburiyatlarni aksiyalarga almashtirish orqali.

Majburiyat, kreditor o'z huquqlaridan bosh tortgan hollarda yoki kreditor ana shu huquqlaridan mahrum bo'lganida, bajarilgan deb hisoblanishi mumkin.

Majburiyatlar avvalgi bitimlar yoki o'tgan voqealarning natijasidir. Masalan, tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish va xizmatlarni olish bilan to'lanishi kerak bo'lgan (agar ular ilgari to'lanmagan bo'lsa yoki yetkazib berilganda) schyotlar ham olinadi.

Zaxiralar – kelgusida muayyan xarajatlarga sarflanishi mumkin bo'lgan xususiy sarmoyaning bir qismidir.

Xo'jalik yurituvchi subyektni va kreditorlarni zararlarning oqibatlaridan qo'shimcha tarzda himoya qilishni ta'minlash uchun zaxiralarni vujudga keltirish zarur. Zaxiralarni hosil qilish va ularning miqdori haqidagi axborot qarorlar qabul qilishda foydalanuvchilar uchun ahamiyatlidir. Zaxiralarni vujudga keltirish xo'jalik yurituvchi subyektga doir qonunchilikda va ustavda (soliq qonunlarini buzmagan holda) ko'zda tutiladi.

Daromadlar – hisobot davrida aktivlarning ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishidir.

Soliqqa tortiladigan daromad (zarar) – soliq qonunlariga muvofiq belgilangan hisobot davridagi daromad (zarar) summasidir.

Xarajatlar – hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko'payishidir.

Zararlar iqtisodiy foydaning kamayganligini bildiradi va o‘z tabiatiga ko‘ra boshqa xarajatlardan farq qilmaydi va konseptual asosning alohida qismi deb hisoblanmaydi.

Moliyaviy natijalar – xo‘jalik yurituvchi subyektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir.

2.6. Moliyaviy hisobotlar shakllari va ularning tavsifi. Jamlangan moliyaviy hisobotlar va ularni tahlil etish

Buxgalteriya balansi. Buxgalteriya balansi ma’lum sanaga korxonaning aktivlari, kapitali va majburiyatlari holati haqida axborot beruvchi hisobot shaklidir.

«Balans» atamasi lotincha “bis” - ikki marta, “banx” - tarozi pallasi so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, ikkala palla degan ma’noni anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Buxgalteriya balansini turli tasnifiy belgilari (tuzilish vaqti, axborot hajmi, aks ettirish obyekti, tozalash usuli) bo‘yicha turlarini tarkiblash mumkin.

2.2-jadval

Buxgalteriya balansini turlari

Buxgalteriya balansi tuzilish vaqtiga ko‘ra				
Tashkil topish balansi	**Joriy balans**	**Tugatish balansi**	**Bo‘lish balansi**	**Birlashtirish balansi**
Korxonaning tashkil topish vaqtida tuziladi.	Korxonaning uzluksiz faoliyatida, qonunda belgilangan muddatlarda tuziladi	Korxona tugatilgan da tuziladi	Yirik korxona bir necha mayda korxonalarga bo‘linish vaqtida tuziladi	Bir necha korxonalar bir korxonaga birlashganda tuziladi
Axborot hajmi bo‘yicha				
Bir martalik		**Yig‘ma balans**		
Bir martalik balans faqat bitta korxona bo‘yicha		Yig‘ma balans bir martalik balanslar asosida tuziladi va birlashmalar		

joriy hisob asosida tuziladi	(vazirliklar, qo'mita va boshqarmalar va shu kabilar)ning xo'jalik mablag'larini aks ettiradi.
Aks ettirish obyektiga ko'ra	
Mustaqil balans	**Alohida balans**
Mustaqil balansni huquqiy shaxs bo'lgan barcha korxonalar tuzadi	Alohida balansni korxonaning tarkibiy bo'linmalari (filiallar, bo'limlar, sho'ba va qaram xo'jaliklar hamda shu kabilar) tuzadi
Aks ettirish obyektiga ko'ra	
Balans-brutto	**Balans-netto**
Tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balansdir	Balansning umumiy qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar uzluksiz faoliyatida iqtisodiy resurslarni harakatga keltiriladi va ularning tuzilishi doimo o'zgarib turadi. Ushbu o'zgarishlarni buxgalteriya balansida to'rtta jihatini xarakterlash lozim. Birinchi jihat o'zgarish aktiv va passiv tomonning o'sishini xarakterlaydi, ikkinchi jihat o'zgarishlar har ikki tomonning kamayishini, uchinchi jihat o'zgarishlar faqat aktiv tomonning o'zgarishini, to'rtinchi jihat o'zgarishlar faqat passiv tomonning o'zgarishlarini xarakterlaydi.

2.3-jadval

Buxgalteriya balansidagi o'zgarishlar

Balansdagi o'zgarishlar			
$A+X_1=P+X_1$	$A-X_2=P-X_2$	$A+X_3-X_3=P$	$A=P+X_4-X_4$
Aktiv tomon ham passiv tomon ham ko'payadi	Aktiv tomon ham passiv tomon ham kamayadi	Ko'payish va kamayish aktiv tomonda kuzatiladi	Ko'payish va kamayish passiv tomonda kuzatiladi
Balans summasi ko'payadi	Balans summasi kamayadi	Balans summasi o'zgarmaydi	Balans summasi o'zgarmaydi

Buxgalteriya balansini moliyaviy tahlilga tayyorlash yuzasidan uning elementlari va moddalarini turli tasnifiy belgilari bo'yicha

ko'rsatkichlar tizimiga jamlash talab etiladi. Bu tasnifiy belgilar ularning shakli, aylanuvchanlik darajasi, likvidligi bo'lishi mumkin.

2.4-jadval

Buxgalteriya balansi aktiv tomoni klassifikatsiyasi

<table>
<tr><th colspan="4">Aktivlar (A)</th></tr>
<tr><td colspan="2">Uzoq muddatli aktivlar (UMA)</td><td colspan="2">Joriy aktivlar (JA)</td></tr>
<tr><td>Moliyaviy bo'lmagan uzoq muddatli aktivlar (MBUMA)</td><td>Moliyaviy uzoq muddatli aktivlar (MUMA)</td><td>Moliyaviy bo'lmagan joriy aktivlar (MBJA)</td><td>Moliyaviy joriy aktivlar (MJA)</td></tr>
<tr><td colspan="3">Pul ko'rinishida bo'lmagan aktivlar (PKBM)</td><td>Pul ko'rinishidagi aktivlar (PKM)</td></tr>
<tr><td>Qiyin sotiladigan aktivlar (QSA)</td><td colspan="3">Likvid aktivlar (LA)</td></tr>
</table>

2.5-jadval

Buxgalteriya balansi passiv tomoni klassifikatsiyasi

<table>
<tr><th colspan="4">Passiv (P)</th></tr>
<tr><td>O'z mablag'lari manbai (O'MM)</td><td colspan="3">Majburiyatlar (M)</td></tr>
<tr><td>Xususiy kapital</td><td>Uzoq muddatli kredit va qarzlar (UM)</td><td>Qisqa muddatli kredit va qarzlar(QM)</td><td>Kreditorlik majburiyati(K)</td></tr>
<tr><td>Doimiy passivlar (DP)</td><td colspan="3">Majburiyatdagi passivlar (MP)</td></tr>
</table>

Balansdagi ifodalar:

Umumiy ifodalar

A=P (2.1)

UMA+JA=O'MM+M (2.2)

MBUMA+MUMA+MBJA+MJA=O'MM+UM+QM+K (2.3)

PKBA+PKA=DP+MP (2.4)

Birlik ifodalar

UMA=MBUMA+MUMA (2.5)

JA=MBJA+MJA (2.6)

PKBA=MBUMA+MUMA+MBJA (2.7)

LA=MUMA+MBJA+MJA (2.8)

Moliyaviy bo'lmagan uzoq muddatli aktivlar – asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, o'rnatiladigan uskunalar, kapital qo'yilmalarni o'z ichiga oladi.

*Moliyaviy uzoq muddatli aktivlar*ga uzoq muddatli investitsiyalar kiritiladi.

*Moliyaviy bo'lmagan joriy aktivlar*ga ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, tovarlar, kelgusi davr xarajatlari, kechiktirilgan xarajatlar va debitorlik majburiyatlari kiradi.

*Moliyaviy joriy aktivlar*ga pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va boshqa joriy aktivlar kiradi

2.6-jadval

Aktivlarning turli shakllari o'rtasidagi aloqadorlik

Aktivlar shakli	**Moliyaviy bo'lmagan aktivlar**	**Moliyaviy aktivlar**	**Jami aktivlar**
Uzoq muddatli aktivlar	MBUMA	MUMA	UMA
Joriy aktivlar	MBJA	MJA	JA
Jami aktivlar	MBA	MA	A

2.7-jadval

Aktivlarni mazmuni bo'yicha tarkiblanishi

Aktivlarni manbalashni mazmuni		
Xususiy (XK)*	Qarzga olingan (QK)	
	Tashqi qarz (TQ)**	Ichki qarz (IQ)***
* - O'z mablag'lari manbai	** - Uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlar, kreditorlik majburiyatlarining tashqi qismi	*** - Kreditorlik majburiyatlarini ichki qismi

Xususiy kapital – o'z ichiga ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda va o'z mablag'lari manbaining boshqa tarkiblarini (maqsadli tushumlar, kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar zaxirasi) oladi.

Tashqi qarz – bank kreditlari va qarzlarini, olingan avans to'lovlarini, kreditorlik majburiyatlarining mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qismini o'z ichiga oladi.

Ichki qarz – korxonaning mehnat haqidan, soliqlar, to'lovlar va yig'imlar bo'yicha qarzidan, jalb qilingan qarz mablag'lari yuzasidan foizlar, aksionerlarga e'lon qilingan dividendlar bo'yicha majburiyatlardan iborat bo'ladi

2.7-jadval

Buxgalteriya balansi moddalarining mulkiy egaligi bo'yicha tuzilishi

Mulk	**O'ziga tegishli mulk**	**Qarzga olingan mulk**	**Jami**
Pul ko'rinishida bo'lmagan mulk (PKB)=MBUMA+MUMA+MBJA	XK (PKB)	QK (PKB)	PKB
Pul ko'rinishidagi mulk(PK)=MJA	XK(PK)	QK (PK)	PK
Jami mulk	XK	QK	A

2.8-jadval

Buxgalteriya balansidagi moddalarning o'zgarishlari

Mulk	**Davr boshiga debet qoldiq**	**Xususiy mulk**	**Qarzga olingan mulk**	**Davr oxiriga debet qoldiq**	**O'sish darajasi**
Davr boshiga kredit qoldig'i	A_b	XK_b	QK_b	-	-
Pul shaklida bo'lmagan mulk (PShBM)	$PShBM_b$	<XK (PKB)	<QK (PKB)	PShBMo	<PShBM
Pul shaklidagi mulk (PShM)	$PShM_b$	<XK(PK)	<QK (PK)	$PShM_0$	<PShM
Davr oxiriga kredit qoldig'i	-	XK_0	QK_0	A_0	-

O'sish darajasi	-	<XK	<QK	-	<A

Moliyaviy hisobotlar tarkibida buxgalteriya balansi markaziy o'rinda turadi va undagi ko'rsatkichlarni tahlil etish va baholash orqali xo'jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy ahvolidan voqif bo'linadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy axvolidagi o'zgarishlar albatta mulkiy va moliyaviy munosabatlar tufayli yuzaga keladi. Odatda, moliyaviy munosabatlarning klassik formulasi sifatida quyidagi bog'lanishdan foydalaniladi:

Pul1 => Tovar1 => Pul2* => Tovar2* => Pul3*... (2.9)

**sikl natijasidagi yutuq*: Pul1<Pul2<P3<.....

Ushbu formulani iqtisodiy jarayonlarga nisbatan rasmiylashtirsak quyidagi ko'rinishga keladi:

PM=>R=>ICh=>TF=>XK=>PM*... (2.10)

Bunda: PM – pul mablag'lari;

PM* - sikl natijasidagi yutuq: PM < PM*<PM**<PM***<.....

R – resurslar;

ICh – ishlab chiqarish;

TF – tijorat faoliyati;

HK – hisob-kitoblar.

Korxona aktivlari, xususiy kapital (sarmoya) va majburiyatlar buxgalteriya balansining elementlari hisoblanadi.

2.9-jadval

Buxgalteriya balansi elementlari va ularning tasnifiy belgilari

Buxgalteriya balansi elementlari	**Tavsifi**	**Tarkibiy tuzilishi**
Aktivlar	Subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir	***Uzoq muddatli aktivlar:***
		-Asosiy vositalar:
		-Nomoddiy aktivlar
		-Uzoq muddatli investitsiyalar

		-O‘rnatiladigan asbob-uskunalar
		-Kapital qo‘yilmalar
		Joriy aktivlar:
		-Tovar moddiy zaxiralar
		-Debitorlar
		-Pul mablag‘lari
		-Qisqa muddatli investitsiyalar
Xususiy kapital (sarmoya)	Subyektning majburiyatlarini chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir	***O‘z mablag‘lari manbasi:***
		-Ustav kapitali
		-Qo‘shilgan kapital
		-Zaxira kapitali
		-Taqsimlanmagan foyda
		-Maqsadli tushumlar
		-Kelgusi davr to‘lovlar zaxirasi
Majburiyatlar	Shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to‘lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o‘z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir	Uzoq muddatli majburiyatlar
		Joriy majburiyatlar

Korxona aktivlarlari va majburiyatlarini baholash.

Baholash – aktivlar va majburiyatlar e’tirof etiladigan va moliyaviy hisobotlarda qayd etiladigan pul o‘lchovining usulidir.

Moliyaviy hisobotlarda baholashning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

Boshlang‘ich qiymat. Aktivlar sotib olish vaqtida erishilgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra belgilangan joriy qiymati

bo‘yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar majburiyatni bajargunga qadar to‘lanadigan pul mablag‘lari summasi bo‘yicha majburiyatlarga almashib olingan mablag‘lar summasida aks ettiriladi.

Joriy qiymat. Aktivlar ana shu yoki shunga o‘xshash aktiv endigina sotib olingan bo‘lgandagi holatda to‘lanishi kerak bo‘lgan pul mablag‘lari summasi bo‘yicha hisobotda aks ettiriladi. Majburiyatlar majburiyatni to‘lash uchun talab etiladigan pul mablag‘larining diskontlanmagan summasida aks ettiriladi.

Sotish qiymati. Aktivlar sotishdan olinishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari summasi bo‘yicha aks ettiriladi. Majburiyatlar ularni to‘lash qiymati bo‘yicha aks ettiriladi, bunday qiymat esa majburiyatlarni to‘lash uchun talab etiladigan pul mablag‘larining diskontlanmagan summasidir.

Diskontlangan qiymat. Aktivlar xo‘jalik yurituvchi subyektning normal faoliyati davomida aktivlarni ko‘paytirishi lozim bo‘lgan bo‘lg‘usi pul mablag‘lari tushumining diskontlangan qiymati bo‘lgan joriy qiymat bo‘yicha aks ettiriladi.

Majburiyatlar kelgusida o‘tkaziladigan pul mablag‘larining diskontlangan qiymatidan iborat bo‘lgan, xo‘jalik yurituvchi subyektning oddiy faoliyati davomida majburiyatlarni to‘lash uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan joriy qiymat bo‘yicha aks ettiriladi.

Balans qiymati. Hisobot sanasida buxgalteriya balansida aktivlar va majburiyatlarni aks ettirish qiymatidir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda boshlang‘ich qiymatni baholash uchun asos qilib oladilar. Undan odatda baholashning boshqa asosiy tushunchalari bilan birgalikda foydalaniladi.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot.

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

Daromad/Xarajat=N*100 Foyda (zarar)/Rentabellik (2.11)

Daromadlar – hisobot davrida aktivlarning ko‘payishi yoxud majburiyatlarning kamayishidir.

Aktivlarning ko'payishi va majburiyatlarning kamayishi bilan bog'liq bo'lg'usi iqtisodiy foydaning o'lchangan ko'payishi paydo bo'lganda, daromad moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bu esa daromadni aks ettirish aktivlarining ko'payishi va majburiyatlarning kamayishini aks ettirish bilan bir vaqtda yuzaga kelishini anglatadi (masalan, tovarlar va xizmatlarni sotishda yuzaga keladigan aktivlardagi sof ko'payish yoki kreditor qarzdan bosh tortishi natijasida majburiyatlarning kamayishi).

Xarajatlar – hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko'payishidir.

Xarajat aktivlarning kamayishi va majburiyatlarning ko'payishi bilan bog'liq bo'lg'usi iqtisodiy foydaning o'lchangan kamayishi paydo bo'lganda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi va bu ishonchli tarzda belgilanishi mumkin. Bu esa xarajatlarni aks ettirish majburiyatlardagi ko'payish yoki aktivlarning kamayishini aks ettirish bilan bir vaqtda yuzaga kelishini anglatadi.

Moliyaviy natijalar – xo'jalik yurituvchi subyektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir.

Yalpi daromad xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatidan olingan daromadlarni o'z ichiga oladi. Asosiy faoliyatdan daromad mahsulot, ishlar, xizmatlar, tovar-moddiy zaxiralar, boshqa aktivlarni sotishdan, shuningdek, mukofotlar, foizlar va dividendlar, gonorarlar va xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatiga bog'liq bo'lgan rentadan olinishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyekt asosiy bo'lmagan faoliyat natijasida oladigan daromadlar daromadni aniqlashga mos keladigan moddalarni o'z ichiga oladi va konseptual asosning alohida tarkibiy qismlari deb hisoblanmaydi. Birjada muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlarni qayta baholash va boshqalar asosiy bo'lmagan faoliyat natijasida paydo bo'ladigan daromadlarga misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday daromadlar, agar moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda e'tirof etilsa, alohida ko'rsatiladi, chunki iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda ular haqidagi axborot foydali bo'lishi mumkin.

Soliqqa tortiladigan daromad (zarar) – soliq qonunlariga muvofiq belgilangan hisobot davridagi daromad (zarar) summasidir.

Xarajatlarni belgilash mulkni, ishlab chiqarishni boshqarish bilan mahsulot sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va zararlar bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ular odatda pul mablag'lari, moddiy zaxiralar, inshootlar, uskunalar va boshqalar singari aktivlarning chiqishi yoki ulardan foydalanilish shaklida bo'ladi.

Zararlar iqtisodiy foydaning kamayganligini bildiradi va o'z tabiatiga ko'ra boshqa xarajatlardan farq qilmaydi va konseptual asosning alohida qismi deb hisoblanmaydi.

Zararlar boshqa aktivlarni sotishda yoki tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bunday zararlar moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda ko'rsatiladigan bo'lsa, ular haqidagi axborot iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydali bo'lishi mumkin va shuning uchun ham ular alohida ko'rsatiladi.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etish maqsadida faoliyat turlarini chegaralash yo'li bilan ko'rsatilishi mumkin. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyati davomida va faoliyat jarayonidagi favqulodda holatlarda yuzaga keladigan daromadlar va xarajatlarning moddalari o'rtasidagi chegara umumiy qabul qilingan amaliyotdir. Bunday chegaralash xo'jalik yurituvchi subyektning kelgusida pul mablag'larini ko'paytirish qobiliyatiga baho berishda ahamiyatli bo'lgan moddalarning manbalari asosida o'tkaziladi. Moddalarni chegaralashda xo'jalik yurituvchi subyektning tabiati va uning faoliyati bilan hisoblashish kerak. Bitta xo'jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyati natijasida paydo bo'ladigan moddalar boshqalariga qaraganda favqulodda bo'lishi mumkin.



2.1-chizma. **Korxonada moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari**

Daromadlar va xarajatlarning moddalari o'rtasidagi chegara hamda ularning har xil kombinatsiyalari ham xo'jalik yurituvchi subyektning ish natijalarini ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bunday bo'limlar har xil

moddalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot soliqqa tortilgungacha va undan keyingi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadni ko‘rsatadi. Omonat egalarining xususiy sarmoyaga ulushlari daromad hisoblanmaydi; xususiy sarmoyaning egalari o‘rtasida taqsimlanishi xarajat hisoblanmaydi. Daromadlar va xarajatlarni aniqlash ularning asosiy farq qiluvchi jihatlarini ochib beradi, lekin ularni moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda e’tirof etishdan oldin javob berishi lozim bo‘lgan mezonlarni aniqlashtirmaydi.

Hisobot davridagi sof daromad yoki zarar quyidagi elementlar asosida aniqlanadi, ularning har biri moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda ochib berilishi lozim:

– Xo‘jalik umumiy faoliyatidan olingan daromad yoki ko‘rilgan zarar;

– Favqulodda daromad (zarar);

– Daromad solig‘i to‘langunga qadar umumiy moliyaviy natija (foyda yoki zarar);

– Daromad solig‘idan tashqari sof foyda.

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlarni aniqlash usulini quyidagi chizmada ko‘rib chiqish mumkin (2.1-chizma).

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot undan foydalanuvchilarga xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlarni baholashga imkon beradi, ularni hisobot davrida qancha pul tushgani va qancha pul chiqqani to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlaydi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot axborotlari moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektning pul mablag‘larini va ularning ekvivalentlarini jalb etish qobiliyatini baholashga baza bo‘lib xizmat qilish bilan foydalidir. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot pul tushumlari va to‘lovlarni uchta asosiy toifaga ajratadi:

- operatsion faoliyat;
- investitsiya faoliyati;
- moliyaviy faoliyat.

Har uch toifaning pul mablag'iga birgalikda ta'siri hisobot davrida pul mablag'ining sof o'zgarishini belgilab beradi. Pul oqimlari harakati to'g'risidagi axborot bo'lajak pul oqimlari prognozi to'griligini tekshirish chog'ida, foyda olish va pul oqimlarining sof harakati va narx o'zgarishi ta'siri o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish chog'ida zarur bo'ladi.

Operatsion faoliyat – xo'jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek, subyektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo'lmagan o'zga xo'jalik faoliyatidir.

Investitsiya faoliyati – pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotishlarni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy faoliyat – xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo'lib, uning natijasida o'z mablag'i va qarz mablag'lari miqdori va tarkibida o'zgarishlar yuz beradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot hisobot davri davomida operatsion, investitsion yoki moliyaviy faoliyat natijasida xo'jalik yurituvchi subyekt olgan pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi lozim bo'ladi.

Xorijiy valyutadagi operatsiyalardan pul oqimlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan operatsiya amalga oshirilgan kun uchun belgilab qo'yilgan almashtirish qiymatidan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi valyutasida aks ettiriladi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot. Xususiy kapital (sarmoya) tushunchasi O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunida, BXMS da keltirilgan.[17]

Xususiy kapital (sarmoya) – xo'jalik yurituvchi subyektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir. Xususiy kapital (sarmoya) tarkibiga:

- ustav kapitali;

[17]Ўзбекистон Республикасининг "Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида"ги Қонуни 2016 йил 13-апрель. "Ҳисоб сиёсати ва молиявий ҳисоботлар" Бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти (1-сон БҲМС)да (рўйхат рақами 474-сон, 1998 йил 14 август, Меъёрий ҳужжатлар ахборотномаси, 1999 йил, 5-сон)

- qo‘shilgan kapital;
- rezerv kapitali;
- taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) kiradi.

Xususiy kapital (sarmoya) to‘g‘risidagi hisobot davri boshiga va oxiriga bo‘lgan tegishli axborotni ochib berishi kerak.

Hisobotda xususiy kapital (sarmoya) va uning tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi, ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) sotib olingan o‘z aksiyalari va boshqa xususiy kapital elementlari haqidagi axborot ochib berilishi kerak.

Hisobotda xususiy kapital (sarmoya) tarkibida bo‘lgan o‘zgarishlar: qimmatli qog‘ozlar emissiyasi, uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi, ustav kapitalini shakllantirish chog‘ida valyuta kursidagi farqlar, rezerv kapitalga ajratmalar, joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari), tekinga olingan mol-mulk, pul dividendlari va aksiyalar ko‘rinishida to‘lanadigan dividendlar, shuningdek, xususiy kapitalni shakllantirishning boshqa manbalari to‘g‘risidagi axborotlar ochib beriladi.

Xususiy kapital (sarmoya) to‘g‘risidagi hisobotda, shuningdek, chiqarilgan aksiyalar soni, aksiyalarning nominal qiymati, muomaladagi aksiyalar soni to‘g‘risidagi axborotlar ham ochib berilishi kerak.

Qatnashchining chiqib ketishi, aksiyadorlik jamiyati tomonidan aksiyalarning sotib olinishi yoki sotib olingan aksiyalarni bekor qilinishi, aksiyalar nominal qiymatining pasayishi yoki boshqa sabablarga ko‘ra kamayib ketganligi haqidagi ma’lumotlar ushbu hisobotga tushuntirishlarda ochib berilishi kerak.

Xususiy kapital (sarmoya) to‘g‘risidagi hisobotga tushuntirishda quyidagilar haqidagi axborotlar keltiradilar:

- obuna amalga oshirilishi nazarda tutiladigan aksiyalarning umumiy soni va nominal qiymati;
- nazarda tutilgan miqdorlar bilan taqqoslaganda obuna amalga oshirilgan aksiyalarning umumiy miqdori va nominal qiymati;

- aksiyalarga obunaning borishi chog'ida olingan mablag'larning umumiy summasi;

- ayrim turlar va toifalar bo'yicha ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar;

- imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanmagan jamlangan dividendlar summasi;

- aksiyalar ko'rinishida to'lanadigan dividendlar, xususan, to'lanadigan aksiyalarning soni va qiymati, shuningdek, ularning turlari yoki toifalari to'g'risida;

- hisobot davrida yuz bergan maydalash yoki qo'shib yuborishlar va aksiyalarning maydalanishi yoki qo'shib yuborilishigacha va undan keyingi aksiyalarning nominal qiymati to'g'risidagi.

Moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar. Moliyaviy hisobotga sharhlar. Turli xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ko'p qirraliligi hisobga olinadi, moliyaviy hisobotlar ulardan foydalanuvchilarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan barcha axborot bilan ta'minlay olmaydi, shu sababli yillik moliyaviy hisobotlarga qo'shimcha ravishda ma'muriyat tomonidan tuziladigan moliyaviy sharh kiritiladi, unda xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy faoliyati va moliyaviy holatining asosiy belgilari tushuntirib beriladi va ular duch kelayotgan asosiy noaniqliklar bayon qilinadi. Bu sharhda xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati natijalariga, faoliyatini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun investitsiya siyosatiga, jumladan joriy davrda, xususan kelgusi davrlarda dividendlar siyosatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar ochib beriladi.

Qo'shimcha axborotni taqdim etish - tushuntirishlar, izohlar va hisob-kitoblar - xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan maxsus shaklda yoki erkin shaklda taqdim etiladi.

Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar jadvallar shaklida ham, boshqacha tarzda ham bo'lishi mumkin.

Moliyaviy hisobotlar moliyaviy natijalarni va boshqa xo'jalik operatsiyalarini aks ettiradi, ularni moliyaviy hisobotlarning elementlari deb ataluvchi iqtisodiy tavsiflariga muvofiq alohida moddalarga

guruhlaydi. Aktivlar, xususiy sarmoya va majburiyatlar buxgalteriya balansida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalarini aniqlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan elementlaridir. Daromadlar va xarajatlar faoliyat natijalari to'g'risidagi hisobotda xo'jalik yurituvchi subyektning ko'rsatkichlarini aniqlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan elementlaridir. Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot faoliyat natijalari va buxgalteriya balansi elementlaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotning elementlaridir.

2.7. Moliyaviy hisobotni tuzishda milliy va xalqaro standartlarning moliyaviy hisobot mazmuniga ta'siri

Mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faollashuvi, chet el investitsiyalarining mamlakatimiz iqtisodiyotiga keng jalb etilishi xo'jalik yurituvchi subyektlarga buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzishni ham jahon standartlari talablariga javob beradigan darajada tashkil etish talabini qo'ymoqda.

Bu esa, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga tayanilgan, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslangan. Buxgalteriya hisobining milliy standart (BHMS) larini ishlab chiqish zaruriyatini paydo qiladi. Ushbu standartlar buxgalteriya hisobi shakllari va usullarini tanlashda korxonalarning mustaqilligini ta'minlaydi.

2.10-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Buxgalteriya hisobi milliy standartlari ro'yxati

№	Standartning nomi	Kuchga kirgan sanasi
BHMS 0	Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos	1998-yil 24- avgust
BHMS 1	Hisob siyosati va moliyaviy hisobot	1998-yil 24- avgust
BHMS 2	Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar	1998-yil 4- sentyabr
BHMS 3	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	1998-yil 4- sentyabr
BHMS 4	Tovar-moddiy zaxiralar	1998-yil 28- avgust
BHMS 5	Asosiy vositalar	2004-yil 30- yanvar

BHMS 6	Ijara hisobi	2004-yil 2-iyul
BHMS 7	Nomoddiy aktivlar	2005-yil7- iyul
BHMS 8	Jamlangan moliyaviy hisobotlar va sho‘’ba xo‘jalik jamiyatlariga sarmoyalarni hisobga olish	1999-yil 26- oktyabr
BHMS 9	Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot	1998-yil 6- yanvar
BHMS 10	Davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordami bo‘yicha ko‘rsatiladigan ma’lumotlar	1998-yil 13- dekabr
BHMS 11	Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlab chiqishlarga xarajatlar	1998-yil 6- yanvar
BHMS 12	Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish	1999-yil 26- yanvar
BHMS 14	Xususiy kapital to‘g‘risida hisobot	2004-yil 17- aprel
BHMS 15	Buxgalteriya balansi	2003-yil 20- mart
BHMS 16	Buxgalteriya balansi tuzilgan sanadan keyingi xo‘jalik faoliyatining nazarda tutilmagan holatlari va yuz beradigan hodisalari	1999-yil 1- yanvar
BHMS 17	Kapital qurilishga oid pudrat shartnomalari	1999-yil 1- yanvardan
BHMS 19	Inventarlashni tashkil etish va o‘tkazish	1999-yil 2- noyabr
BHMS 20	Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan soddalashtirilgan tartibda hisob yuritish va hisobotlar tuzish to‘g‘risida	2000-yil 24- yanvar
BHMS 21	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma	2002-yil 23- oktyabr
BHMS 22	Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi	2004-yil 31- may
BHMS 23	Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish	2005-yil 7-iyul
BHMS 24	Qarzlar bo‘yicha xarajatlar hisobi	2009-yil 28- avgust

Ma’lumki, har bir mamlakatning o‘ziga xos hisob tizimi va hisobot tuzish usullari mavjud. Lekin kapitalning bir necha mamlakatlar miqyosida faoliyat ko‘rsata boshlashi natijasida xalqaro hisob standartlarini ishlab chiqish zaruriyati paydo bo‘ldi. Ushbu masalani hal qilish va yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish maqsadida 1973-yilda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha qo‘mita

tashkil etilib, qo'mita tomonidan 2011-yil 21-fevral holatiga "Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti" nomli 36 ta xalqaro standarti ishlab chiqilgan. Bundan tashqari yuqoridagi standartlarga 18 nomdagi tushuntirishlar hamda 11 nomdagi izohlar ishlab chiqilgan. Xalqaro standartlarda belgilangan qoidalar tavsiyaviy tavsifga ega bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisoboti rahbarlik qilish, buxgalteriya hisobining milliy standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash Moliya vazirligi zimmasiga yuklangan. Moliya vazirligi buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobot tuzishda ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yo'nalishida ishlar olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan bugungi kungacha 0 dan 24-songacha bo'lgan buxgalteriya hisobining milliy standartlari ishlab chiqilib tasdiqlangan. Ularda hisob yuritishning asosiy tamoyillari va qoidalari mujassamlashgan shu vaqtgacha tasdiqlangan va amaliyotda qo'llanilayotgan buxgalteriya hisobi standartlari quyidagilar.

2.11-jadval

MHXS va ularning amal qilishi

№	MHXS nomlanishi	Qabul qilingan sanasi
MHXS 1	Moliyaviy hisobotni taqdim etish	01.01.75 y.
MHXS 2	Tovar-moddiy zaxiralar	01.01.76 y.
MHXS 3	Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot	01.01.77 y.
MHXS 4	Amortizatsiya hisobi	01.01.77 y.
MHXS 5	Moliyaviy hisobotda tegishli axborotlarni ochib berish	01.01.77 y.
MHXS 6	Narx o'zgarishlarining hisob va hisobotga ta'siri	01.01.78 y.
MHXS 7	Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot	01.01.79 y.
MHXS 8	Hisob siyosatlari, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar	01.01.79 y.
MHXS 9	Izlanishlar va ishlanmalar bo'yicha xarajatlar	01.01.80 y.

MHXS 10	Hisobot davridan keyingi hodisalar	01.01.80 y.
MHXS 11	Qurilish shartnomalari	01.01.80 y.
MHXS 12	Foyda soliqlari	01.01.81 y.
MHXS 13	Aylanma mablag'lar va qisqa muddatli passivlar haqida hisobotni taqdim etish.	01.01.81 y.
MHXS 14	Segmentar hisobot	01.01.83 y.
MHXS 15	Baho o'zgarishlari ta'sirini aks ettiruvchi axborot	01.01.83 y.
MHXS 16	Asosiy vositalar	01.01.83 y.
MHXS 17	Ijara	01.01.83 y.
MHXS 18	Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad	01.01.84 y.
MHXS 19	Xodimlarni daromadlari	01.01.85 y.
MHXS 20	Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordami to'g'risida ma'lumotlarni ochib berish	01.01.84 y.
MHXS 21	Valyuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'sirlari	01.01.85 y.
MHXS 22	Kompaniyalarni birlashtirish	01.01.85 y.
MHXS 23	Qarz bo'yicha xarajatlar	01.01.86 y.
MHXS 24	O'zaro bog'liq tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berish	01.01.86 y.
MHXS 25	Investitsiya hisobi	01.01.87 y.
MHXS 26	Pension tizimlar bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobot	01.01.88 y.
MHXS 27	Alohida moliyaviy hisobotlar	01.01.90 y.
MHXS 28	Qaram tadbirkorlik subyektlaridagi va qo'shma korxonalardagi investitsiyalar	01.01.90 y.
MSFO 29	Giperinflyatsiyali iqtisodiyotlarda moliyaviy hisobot berish	01.01.90 y.
MHXS 30	Banklar va boshqa moliya institutlari moliyaviy hisobotlari ma'lumotlarini ochib berish	01.01.91 y.
MHXS 31	-	01.01.92 y.
MHXS 32	Moliyaviy instrumentlar: ma'lumotni ochib berish va taqdim etish	01.01.96 y.
MHXS 33	Bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda	01.01.98 y.

MHXS 34	Oraliq moliyaviy hisobotlar	01.01.99 y.
MHXS 35	Tugatilayotganda moliyaviy hisobot	01.01.99 y.
MHXS 36	Aktivlarning qadrsizlanishi	01.07.99 y.
MHXS 37	Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar	01.07.99 y.
MHXS 38	Nomoddiy aktiv	01.07.99 y.
MHXS 39	Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash	01.01.01 y.
MHXS 40	Investitsion mulk	01.01.01 y.
MHXS 41	Qishloq xo'jaligida hisob	01.01.02 y.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistika tizimiga o'tish bo'yicha qator tadbirlar majmui amalga oshirib kelinmoqda.

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiyalash. Transformatsiya lotincha "transformatio" so'zidan olingan bo'lib, o'zgartirish, qayta tashkil etish degan ma'noni anglatadi.

Buxgalteriya hisobida transformatsiya deganda mamlakatimizda amal qilingan qonunchilikka muvofiq hisob tizimidagi qoidalar, tamoyillar, usul va uslublarni hamda axborotlarni boshqa mamlakat yoki xalqaro qoidalariga muvofiqlashtirgan holda aylantirishga aytiladi.

Moliyaviy hisobot transformatsiyasi – bu hisobot sanasi holati bo'yicha buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan hisobot komponentlari moddalarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qoidalariga muvofiq holda qayta guruhlashtirish, ularning moddalarini qayta tan olish, qayta baholash, tuzatishlar kiritish va qayta ochiqlashlar asosida MHXSlari hisobotlari axborotlarining yangi tizimiga ag'darish va qayta tashkil qilish jarayoni tushuniladi.

Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS) qo'llanilishi majburiy xarakterdagi hujjat emas, u tavsiyanoma xarakteriga ega. Unda milliy standartlaridagi kabi korxonalar taqdim etishi shart bo'lgan moliyaviy hisobot shakllarini belgilamaydi. MHXSlari moliyaviy hisobotning asosiy komponentlari va ularda aks ettiriladigan minimal

axborotlar tarkibini belgilaydi. MHXSlarni qo'llash xo'jalik yurituvchi subyektning mutlaq vakolatidagi masaladir.

MHXSlarga o'tish yoki BHMSlar asosida tuzilgan MHXSlar asosida moliyaviy hisobot tuzish quyidagi imkoniyatlarni yaratiladi:[18]

MHXSlarga o'tish yoki BHMSlar asosida tuzilgan MHXSlar asosida moliyaviy hisobot tuzish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati natijalarining shaffofligini oshiradi; axborot foydalanuvchilarda bitta xo'jalik yurituvchi subyekt doirasida moliyaviy ko'rsatkichlarni davrlar bo'yicha hamda bir nechta xil xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'yicha esa taalluqli ko'rsatkichlarni bir-biriga solishtirib, tahlil o'tkazish imkoniyati tug'iladi; kreditorlar, aksiyadorlar, kredit beruvchi tashkilotlarda kompaniyaga ishonch oshadi va yuqori ishonch bilan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga pul qo'yadi, xo'jalik yurituvchi subyektning kredit olish imkoniyati kengayadi; xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy investorlar bilan hamkorlik yuksaladi; dunyo bozorlariga chiqish, xomashyo, valyuta, mehnat birjalariga, xalqaro kapital bozoriga chiqish imkoniyatlari tug'iladi; kompaniya menejerlariga boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari uchun ishonchli, obyektiv, uyg'un hamda o'z vaqtida tizimlashgan moliyaviy axborotlarni olish imkoniyatlari yuzaga keladi; xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini byudjetlashtirish, rejalashtirish va strategik rivojlanishini baholashda zarur axborotlar ta'min etiladi; xo'jalik yurituvchi subyekt boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, xo'jalik yurituvchi subyekt raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sifatini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirishga erishiladi; xo'jalik yurituvchi subyektlarda korrupsiya elementlari, suiiste'mollik qilish, soliq obyektlarini yashirish, talon-taroj qilish, mahalliychilik, xo'jasizlik, bankrotlik holatiga olib kelish holatlari barham topadi; mehnatni rag'batlantirish tizimi tubdan yaxshilanadi, moddiy manfaatdorlik oshadi, kuchli nazorat tizimi o'rnatiladi; ma'naviy muhit barqarorlashadi; xodimlarda ishiga, xo'jalik yurituvchi subyektga va

[18] "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2017 йил № 5 3, 2017 www.iqtisodiyot.uz

vataniga sodiqlik xislatlari bir-biri bilan uyg'unlashadi; xodimlarda o'z ustida ishlash va malakasini muntazam oshirish imkoniyatlari tug'iladi; professionallikka qiziqish va harakat kuchayadi.

MHXSlarga istalgan paytda, tayyorgarliksiz, to'g'ridan-to'g'ri o'tib bo'lmaydi. Agarda tayyorgarliksiz moliyaviy hisobot MHXSlar bo'yicha transformatsiya qilingan taqdirda ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, MHXSlarni birinchi marta qo'llashda yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni transformatsiya qilishdan oldin muhit, shart-sharoit va ma'lum tayyorgarlik ishlari olib borilishi shart.

Bu boradi mamlakatda moliya, pul-kredit, soliq, mehnat qonunchiligi dunyo standartlariga uyg'un bo'lishi, milliy valyutaning erkin konvertatsiyalanishiga erishish, yuqori inflyatsiya darajasi bo'lmasligi, buxgalteriya hisobining milliy standartlari MHXSlariga uyg'un bo'lishini, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, nizomlar, yo'riqnomalar va qoidalar ham bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga moslashtirilshi, professional buxgalterlar institutini tashkil etish, sertifikatli buxgalter va auditorlarning professional malakasini oshirish, SAR va CIPA sertifikatlarini keng joriy qilish, buxgalterlarning chet ellarda malaka oshirishini, chet tillarini o'rganishi (IELTS), amaliyotchi buxgalterlarda xalqaro dasturlarda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yish, moddiy rag'batlantirish tizimi, etika qoidalarini belgilash, hisob siyosatini mukammallashtirish, xalqaro standart talablariga muvofiq ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqishga erishish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni maxsus dasturlar asosida yuritilishini takomillashtirish lozim.

Transformatsiya jarayonining asosiy muhim qoidalari:

- MHXSlari bo'yicha hisob yuritish har bir kompaniyaning mustaqil hal qiladigan ishi, uning zarurligi va unga o'tishni mustaqil belgilaydi;

- MHXSlari majburiy emas, ushbu hujjat faqat harakat qilishga

turtki beradi;

- MHXSlari bo'yicha hisob yuritishda iqtisodiy mazmunning shakldan ustunligi amal qiladi;
- MHXSlarni adolatli baholashga ustuvor ahamiyat qaratadi;
- MHXSlari bo'yicha hisob yuritish usulini (transformatsiya yoki parallel hisob yuritish) tanlash kompaniyaning ichki ishi;
- transformatsiyaning yagona algoritmi va ketma-ketligi yo'q;
- transformatsiyaga har bir holatda individual yondashiladi;
- transformatsiya murakkab jarayon, professional yondashuvni talab qiladi;
- transformatsiyaning metodikasi va bosqichlari mustaqil belgilanadi;
- reklassifikatsiya, qayta baholash, korrektirovka provodkalari transformatsiyaning asosiy usullaridir.

Birinchidan, milliy standartlar bo'yicha tayyorlangan moliyaviy hisobot komponentlari, shuningdek, balans, foyda va zararlar va boshqa hisobot moddalarining kengaytmalari aks ettirilgan analitik hisob ma'lumotlari, kerak bo'lsa boshlang'ich hujjatlarni tayyorlash lozim.

Ikkinchidan, aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital elementlarini qayta klassifikatsiyalash, qaytadan baholash o'tkazish. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda ham har bir tegishli moddani xalqaro standartlarga mos holda qayta klassifikatsiya qilish va baholash. Xuddi shuningdek, boshqa hisobot moddalarini ham birma-bir xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish choralarini ishlab chiqish kerak.

Uchinchidan, MHXSlari darajasiga yetkazish uchun tegishli to'g'irlashlar kiritish, qo'shimcha provodkalar jadvalini ishlab chiqish kerak.

To'rtinchidan, tegishli to'g'irlashlar buxgalteriya provodkalari yordamida kiritilgandan keyin MHXSlari talablariga muvofiq keladigan hisobotni tuzish.

Beshinchidan, MHXSlariga o'tishda atamalardan to'g'ri foydalanish muhim rol o'ynaydi. Milliy standartlar asosida tuzilgan hisobotlardagi atamalar, ko'rsatkichlarning nomlanishi, ularning qisqarmasini xalqaro standartlarga mos keladigan atamalarga o'tkazish lozim. Agarda ko'rsatkich qayta guruhlanish, baholash asosida qiymati xalqaro

standartlarga muvofiq kelsada, uning nomlanishi muvofiq bo'lmasa, uni o'qish qiyinlashadi, chalkashliklarga olib keladi. Shu bois, atamalar tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish lozim bo'ladi.

Milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotga transformatsiya qilishning yagona metodologiyasi mavjud emas. Har bir korxona o'zining moliyaviy-xo'jalik faoliyati xususiyati, resursi va xodimlarining professional darajasidan kelib chiqib transformatsiya jarayoni metodologiyasini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq.

Moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi kerak:

• kompaniyada MHXSlari bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotiga zaruriyat bo'lishi kerak.

• milliy standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot obyektiv, ishonchli, uyg'un va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun va O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlariga to'liq muvofiq kelishi kerak.

• korxonaning zamonaviy menejment, boshqaruv tizimi mavjud bo'lishi kerak.

• kompaniya barqaror moliyaviy holatga ega bo'lishi kerak.

•kompaniyada MHXSlarini biladigan, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sohasida chuqur professional tayyorgarlikka ega bo'lgan, iqtisodiy matematikani qo'llay oladigan mutaxassislarga ega bo'lishi kerak.

2.8. Moliyaviy tahlilni muammoli jihatlari (davriy oraliqdagi qiyosiylik, turli korxonalar o'rtasidagi qiyosiylik, axborot operativligi muammolari)

Moliyaviy tahlil yuzasidan mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan chop etilgan adabiyotlar soni shu darajada ko'pki, ularni o'rganish asosida bitta xulosaga kelish mumkin, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat samaradorligi va uning natijaviyligini baholash

doimo keng qiziquvchilar (menejerlar, mulk egalari va kontragentlar) e'tiboridagi muhim masalalardan biri bo'lgan. Moliyaviy holat va undagi o'zgarishlarni tahlil etish orqali nafaqat bo'lib o'tgan jarayonlarning samaradorligi va natijaviyligiga balki ularning kelgusidagi kutilishlari ham bashorat qilinadi[19]. Bu esa raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holati va undagi o'zgarishlarni baholash, tahlil etishda O'zbekiston va xorij amaliyotining o'xshash jihatlari juda ko'p. Chunki global iqtisodiyot barcha davlatlarning hisob, audit va tahlil tizimida ham yagonalashuvni talab etadi. Xuddi shu sababli ham buxgalteriya hisobi va auditning, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlari ishlab chiqilgan va amal etilmoqda. Ya'ni, xalqaro iqtisodiy aloqalarning yagona "biznes tili" rasmiy jihatdan shakllangan. Shu sababli ham, bozor iqtisodiyoti qonun qoidalari asosida rivojlanuvchi barcha davlatlarda moliyaviy holat va undagi o'zgarishlarni tahlil etish tashkiliy, uslubiy jihatdan farq qilsa ham mazmun jihatdan bir xilda yuritiladi.

Moliyaviy holat tahlilining asosiy farqli jihatlari xo'jalik yuritish shart-sharoitlarining turlichaligida, buxgalteriya hisobotlari va ularni tuzish qoidalarida, uslubiy jihatlarda, shuningdek, ko'proq nazariy asoslarda ko'rish mumkin.

Shuningdek, xo'jalik yuritishning shart-sharoitlari yuzasidan juda ko'p farqli jihatlarni kuzatish mumkin. Bu birinchi navbatda, tizimning iqtisodiy rivojlanishi va boshqaruvning farqli jihatlari bilan xarakterlanadi[20].

---

[19] Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., Ефимова О.В. [и др.]. Анализ финансовой отчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с.K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by[19], Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр

[20] Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., Ефимова О.В. [и др.]. Анализ финансовой отчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с.K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by[20],

Xo'jalik yuritishning farqli jihatlari albatta axborot oqimini shakllantirishning amaldagi holatiga ham sezilarli ta'sir etadi. Bitta, xo'jalik yurituvchi subyektlarni yirik, o'rta va kichik biznes subyektlari qatoriga kiritishning o'zi ham davlatlar o'rtasida tubdan farq qiladi.

Rivojlangan davlatlarda buxgalterlarning bosh vazifasi korxonaning davlat oldidagi axborot majburiyatlarini (moliyaviy, soliq, bojxona, statistik hisobotlar orqali) hal etishga emas, balki birinchi navbatda mulk egasi va menejerlarning samarali boshqaruvini ta'minlashga qaratilgan vazifalarni hal etib berishga qaratilgan.

Moliyaviy tahlil etishdagi o'xshash jihatlarni buxgalteriya hisobining muhim tamoyili bo'lgan mazmunning shakldan ustunligi tamoyili bilan izohlash mumkin. Rivojlangan davlatlar moliyaviy hisobotlari bilan O'zbekistondagi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobot shakllari soni va ularning nomlanishi yuzasidan farq kuzatilmaydi.

Amalda tuziladigan va taqdim etiladigan moliyaviy hisobotning asosiy shakli "Buxgalteriya balansi" (1-shakl) rasmiy tuzilishi va mazmun bo'yicha xorij amaliyotidan tubdan farq qilmaydi.

Juda ko'p mualliflar xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatiga baho berishning muhim manbasi bo'lgan buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishini belgilashda aktivlarning likvidlik darajasi bo'yicha qayta tarkiblanishi va qiziquvchilarning keng qatlami uchun ham tushunarli bo'lishi lozimligini qayd etadilar[21].

Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр

[21] Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., Ефимова О.В. [и др.]. Анализ финансовой отчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с., K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр, Пардаев М.К. ва бошкалар Молиявий ва бошкарув тахлили, дарслик.Т.:Чулпон. 2012,, 490 б., Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности. Минск: РИПО, 2012. — 367 с. Вахобов А.В., Ибрагимов А.Т., Ишонкулов Н.Ф. Молиявий ва бошкарув тахлили. Т.:Иктисод-молия. 2013,598 б., Ковальев В.В., Волькова О.Н. Анализ хозяйственной

Moliyaviy holat tahlilining uslubiy jihatlarida ham ayrim farqlanishlar kuzatiladi. Lekin aksariyat hollarda ularning bir xilligini kuzatish mumkin.

O'zbekiston va xorij amaliyotida ham moliyaviy holatni baholashda quyidagi tarkibiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi:

1. Likvidlik ko'rsatkichlari. Xalqaro amaliyotda ushbu ko'rsatkichlar tizimi "liquidity ratios"[22] deb nomlanadi.

2. Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari. Xalqaro amaliyotda ushbu ko'rsatkichlar tizimi "financial leverage[23]" deb, ayrim manbalarda "leverage ratios" deb nomlanadi.

3. Foyda, rentabellik ko'rsatkichlari. Xalqaro amaliyotda mazkur ko'rsatkichlar tizimi "profitability ratios" deb nomlanadi.

4. Ish aktivligi ko'rsatkichlari. Xorij amaliyotida ushbu ko'rsatkichlar tizimi "efficiency ratios" deb nomlanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston va xalqaro amaliyotda moliyaviy tahlilda keskin farqlanishlar yo'q. Muammo nimada. Muammo, ularning yagona tizimga solinmaganligi va uslubiy, metodologik asoslarning bir-biridan farq etishida deyish mumkin.

Yana bir muhim jihat, xorij amaliyotida tijorat korxonalari, kompaniyalar ko'rsatkichlarining bozor qiymatini tahliliga alohida urg'u beriladi. Mazkur ko'rsatkichlar qatoriga: sof foydaning muomaladagi aksiyalar soniga nisbati; dividend to'lovlarining sof foydadagi salmog'i; aksiyalarga yillik dividend to'lovlarining ularning o'rtacha bozor qiymatiga nisbati; aksiyaning bozor bahosining va bitta aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda nisbati ko'rsatkichlari kiritiladi. Mazkur ko'rsatkichlar asosida firma va kompaniyalarning bozor aktivligi

---

деятельности предприятия.М.: финансы и статистика, 2008, 415 с.ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр

[22] K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, 646 бет.

[23] K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, 479- бет.

ko'rsatkichlariga baho beriladi. O'zbekiston amaliyotida ushbu tahlil turi moliyaviy holatni baholash masalalari doirasiga kirmaydi va faoliyat samaradorligining muhim ko'rsatkichlari siftida alohida o'rganiladi. Mazkur tahliliy ko'rsatkichlarlarni aniqlash, qiyosiy o'rganishning zaruriy jihatlari va ahamiyatliligi korxonalarning moliya bozoridagi ishtiroki hamda aktivligining qay darajadaligi bilan belgilanadi. Ya'ni bozor aktivligi ko'rsatkichlarini baholash orqali investitsion faollik, jozibadorlik ko'rsatkichlari baholanadi.

Xorij tajribasida moliyaviy holatni baholashda ko'pincha yirik va shon-shuhratga ega bo'lgan firma va kompaniyalar (Coca-Cola, Pepsi-Cola, Adidas va boshqalar) misolida butun tahliliy jarayonlar amalga oshiriladi va yakuniy xulosada mazkur firma, kompaniyalarni joriy holatiga tashxis beriladi va kelgusida kompaniyani rivojlantirish, moliyaviy qudratini oshirish yuzasidan muhim starategiyalar beriladi.

Korxonalar moliyaviy holatini O'zbekiston amaliyotida kompleks o'rganish amaliyotiga juda kam hollardagina murojaat qilinadi. Bironta manbada O'zbekistonning iqtisodida muhim lokomotiv hisoblangan korxonalar (Tog'-kon metallurgiya kombinatlari, O'zbekiston temir yo'llari, O'zbekiston havo yo'llari, avtomobilsozlik korxonalari misolidagi) ma'lumotlari asosidagi real tahliliy xulosalar uchratilmaydi. Ko'pincha, analitik hisob-kitoblar taxminiy, o'ylab topilgan manbalar asosida tuzib chiqiladi. Bu farq faqat tahlil obyektlarining real manbalari asosida emas balki yillar kesimidagi dinamik o'zgarishlarda ham kuzatiladi. Vaxolanki, xorij tahlil amaliyotida firma, kompaniyalarning faoliyat va tarmoq bo'g'inlari bo'yicha farqli jihatlariga ham alohida ahamiyat qaratiladi.

Xorij amaliyotidagi yana bir muhim farqli jihatni ko'rsatkichlarning turlicha nomlanishida (joriy aktivlarning aylanma aktivlar, oborot aktivlar, qisqa muddatli majburiyatlarning joriy majburiyatlar, kreditorlik majburiyatlari deb nomlanishida, uzoq muddatli aktivlarning oborotdan tashqari aktivlar, immobilizatsiya qilingan aktivlar tarzida nomlanishi va h.k.), tarkiblanishida (uzoq muddatli va joriy aktivlar, o'z mablag'lari manbasi va majburiyatlar, asosiy faoliyatdan moliyaviy

natija, operatsion faoliyatdan daromadlar va xarajatlar), aniqlanish tartiblaridagi (yalpi foyda, asosiy faoliyat natijasi, umumxo'jalik faoliyati natijasi, soliq to'loviga qadar foyda, sof foyda, EBIT, EBITDA) farqli jihatlarda ko'rish mumkin. Shu sababli, chop etiladigan manbalarda ko'rsatkichlarning hisob-kitoblarida ma'lumotlar real (aniq korxona misolidagi) moliyaviy hisobotlar va manbalarning hisobotlarni qaysi shakl va satrlaridan olinishi ham aniq ko'rsatilgan holda berilmog'i lozim. Shu yo'l bilangina ularning aniqligini va bir xilligini ta'minlash mumkin.

Sohada, eng muhim muammolarni hal etishning muhim yo'li bu moliyaviy hosobotlarni shakli va mazmuni bo'yicha xalqaro normalarga mos keltirishdir.

Moliyaviy hisobotlar va ularning axborotlar bazasini analitik qayta ishlashning kompyuter dasturlarini yaratilmaganligi ham sohaga oid muammolarni biroz chigallashtirmoqda. Bu boradagi ishlar boshlanganiga qaramasdan haliga qadar litsenziya olingan dasturiy ta'minotlar yaratilmagan.

Moliyaviy hisobotlarni tahlil etishda qo'shimcha manbalarga juda ko'p zaruriyat tug'iladi. Ularni olinishi, olingan axborotlarning ishonchligi, tezkorligi, aniqligi, asosligi kabi qator muammolarga duch kelinmoqda. Bu jarayonlar ko'proq xo'jalik subyektlarining fond bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, bozor va ish aktivligini baholashda, ayniqsa qiynchiliklar tug'dirmoqda.

Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish bo'yicha eng muhim muammolardan bittasi bu ular bo'yicha ma'murchilik xarajatlarining haddan tashqari ortib ketishi bilan bog'liqdir. Ma'murchilik xarajatlarining hisobi va ularni me'yorlash bo'yicha hech qanday tartiblar va qoidalar belgilanmaganligi analitik tahlilchilarning ish unumiga ta'sir qilmoqda.

Moliyaviy hisobotlarni tuzishda xalqaro standartlardagi normalarga amal etishda yagona yondashuvning yo'qligi, ularni har bitta xo'jalik yurituvchi subyekt o'ziga xos tarzda qo'llashidagi xilma xilliklar mavjudligi ham o'tkir muammolardan bittasi hisoblanadi. Shu bilan

birgalikda jahon bozoriga chiqishda ularning qay darajada ahamiyatli ekanligi iqtisodiy jihatdan yetarli darajada asoslanmaganligi ham ushbu sohada ishlarning jadal rivojlanishiga ta'sir etmoqda.

Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartiblarida elektron hisobotlarning (moliyaviy (buxgalteriya), soliq, statistika, bojxona, banklar hisobotlarining) yagona portalini shakllantirish va tegishli bo'g'in bo'yicha mijozlarning umumlashgan axborotlarini olish imkoniyatlari ta'minlanmagan. Bu esa o'z navbatida qiyosiy tahlilni amalga oshirishda qiyinchilik tug'dirmoqda. Ya'ni, korxonalar o'rtasida qiyosiy tahlilni amalga oshirish, metodologik xilma xillik, turlicha hisob-kitoblarga tayanilishi yagona analitik xulosalarga sezilarli ta'sir etmoqda.

Inflyatsiya ta'sirini ham albatta chetlab o'tishning imkoni yo'q. Bu jihat sondagi o'zagrishlardan sifat o'zgarishlarga o'tish imkonini bermaydi. Inflyatsiya darajasining yuqoriligi ko'rsatkichlarning qiyosiyligini, o'zgarishini aniq baholashga imkon bermaydi. Shu sababli ham moliyaviy hisobotlarni tuzishda inflyatsiya, giper inflyatsiya amal etiladigan xalqaro normalarga tayanish lozim. Bu jihat o'zgarishlardan himoyalanish moliyaviy hisobotlarni tuzishning xalqaro standartlarida aniq va yorqin ifodasini topgan.

2.9. Auditor xulosalarini ko'rib chiqish. Auditdan o'tkazilmagan hisobotlar.

Auditorlik xulosasi yuridik kuchga ega bo'lgan muhim hujjatlardan biridir. Xulosa asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarning bir yillik moliya-xo'jalik faoliyatiga baho beriladi.

Auditorlik xulosasining quyidagi turlari mavjud: Auditorlik xulosasining ikkita turi mavjud: a) ijobiy auditorlik xulosasi; b) salbiy auditorlik xulosasi. Ijobiy auditorlik xulosasida buxgalterlik balansi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi auditor tomonidan tasdiqlanadi. Qoidaga ko'ra ijobiy auditorlik xulosasi auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning

moliyaviy holati va sodir etilgan moliya-xo'jalik muomalalarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligini ishonarli aks ettiradi, degan fikrga kelingan vaqtda tuzilishi lozim. Salbiy auditorlik xulosasi moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy ahvoli to'g'risida ishonarli ma'lumot bermagan va buxgalterlik hisoboti hamda uning moliya-xo'jalik faoliyati hisobi amaldagi me'yoriy qonunchilik talablariga mos kelmagan holda yuritilgan vaqtda tuziladi. Bunday xato-kamchiliklar o'z vaqtida tuzatilmasa moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itishi mumkin.

Tahlilning ishonchli axborot manbalariga egaligini zaruriy kafolati bu birinchi navbatda moliyaviy hisobotlarni auditorlik nazoratidan o'tganligi va xulosalanganligiga bog'liq.

Auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvi natijalariga ko'ra ho'jalik yurituvchi subyektda quyidagilarga baho berishi lozim[24]:

- auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq fikr bildirish uchun yetarli va lozim darajadagi dalillar olinganligiga;

- alohida-alohida yoki umumiy birgalikda olinganda tuzatilmagan buzib ko'rsatishlar auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq muhim hisoblanishiga;

- qabul qilingan hisob siyosatining asoslanganligiga va uning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligiga;

- moliyaviy hisobotda aks ettirilgan axborotning ishonchli, qiyoslanuvchanli, tushunarli va o'rinli ekanligiga;

- moliyaviy hisobotning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tuzishga doir normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligiga.

Auditorlik xulosasi auditorlik tashkilotining ijobiy yoki modifikatsiyalangan fikri bilan ifodalanishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti barcha muhimlilik munosabatlarida uning moliyaviy ahvolini, moliyaviy

[24] Молия вазирининг буйруғи *(рўйхат рақами 2844, 2016 йил 1 декабрь)* билан Ўзбекистон Республикаси аудиторлик фаолиятининг миллий стандарти (70-сон АФМС) "Молиявий ҳисобот тўғрисидаги аудиторлик ҳисоботи ва аудиторлик хулосаси" тасдиқланди.

natijalarini haqqoniy aks ettirsa va buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kelgan hollarda ijobiy fikr bildiriladi.

Modifikatsiyalangan fikr quyidagi holatlarda bildiriladi:

- olingan auditorlik dalillari asosida umumiy holda ko‘rilayotgan moliyaviy hisobot muhim buzib ko‘rsatishlarga ega bo‘lsa;

- umumiy holda ko‘rilayotgan moliyaviy hisobot muhim buzib ko‘rsatishlarga ega emasligini aniqlash uchun yetarli darajadagi tegishli auditorlik dalillarini olish imkoniyati bo‘lmasa.

Auditorlik hisobotining tahliliy qismi auditor (auditorlar) tomonidan bajarilgan ishlar va auditorlik dalillarini olishga qaratilgan auditorlik amallari bayonini hamda quyidagilarning tekshirish natijalarini qamrab olishi lozim: qo‘llanilayotgan hisob siyosatini; xo‘jalik yurituvchi subyektning ichki nazorat tizimini; buxgalteriya hisobi tizimi va moliyaviy hisobot tuzilishini; moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini; soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash va to‘lashning to‘g‘riligini; aktivlar saqlanishining ta’minlanganligini; moliyaviy koeffitsiyentlarning hisob-kitobi va uning tahlilini o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy koeffitsiyentlarning hisob-kitobi va ularning tahlili quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

- tekshirilgan moliyaviy hisobot asosida hisoblangan moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili;

- o‘tkazilgan tahlil natijalaridan kelib chiqib, xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati to‘g‘risida ma’lumot.

Hisob-kitob va tahlil uchun moliyaviy koeffitsiyentlarni tanlab olish auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotida ahamiyatli buzib ko‘rsatishlar mavjud bo‘lsa va ularning xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan bartaraf etilmasligi, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg‘itishi mumkin bo‘lgan hollarda auditorlik tashkiloti salbiy fikr bildirilgan auditorlik xulosasini tuzadi.

Shuningdek, quyidagi holatlarda ham salbiy fikr bildiriladi:

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operatsiyalari moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilgan, lekin ular qonun hujjatlari talablariga muvofiq kelmaganda;

- xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati aniqlangan buzib ko'rsatishlarni bartaraf etish maqsadida moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritishga rozi bo'lmaganda.

Xo'jalik yurituvchi subyekt auditorlik tekshiruvi davomida moliyaviy hisobotda aniqlangan buzib ko'rsatishlarni bartaraf etsa salbiy fikr bildirilmaydi.

Auditorlik xulosasi yozma ko'rinishda tayyorlanishi kerak. Auditorlik xulosasiga unga nisbatan fikr bildirilgan, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sanasi ko'rsatilgan va imzolangan moliyaviy hisobotning nusxasi ilova qilinadi.

Auditorlik xulosasini olish barcha uchun majburiy hisoblanmaydi.

Moliyaviy hisobotlarni tuzishda tashqi buxgalterlarga yoki autsorsing xizmatlari bo'yicha maxsus firmalarga murojaat qiluvchi ko'pgina korxonalarni auditdan o'tkazish ma'lum bir xarajatlar qilinishi talab qilganligi sababli doimo ham auditorlar xizmatidan foydalanavermaydilar. Bunday holatlarda analitiklar oldida qator vazifalar yuklanadi:

- moliyaviy hisobotlarni tuzuvchilar qanchalik tajribali va uddaburonligini;

- tuzilgan moliyaviy hisobotlar qanchalik ishonchli, to'liqligiga;

- barcha majburiyatlar hisobga olinganmi yoki yo'qmi;

- agar moliyaviy hisobotlarni yetuk mutaxassislar tomonidan tuzilganligi qayd etilgan holda, ularning mustaqilligi qay darajada ta'minlanganligiga;

- moliyaviy hisobotlarni tuzuvchilar korxonaning shaxsiy tarkibida doimiy turishiga;

- moliyaviy hisobot tuzuvchilarni aktivlar qiymatini aniqlashda va majburiyatlarni hisobga olishda obyektiv yondashganlik darajasiga;

- korxona rahbarining moliyaviy hisobotlarni tuzishga ta'sir darajasiga baho berish talab etiladi.

Auditorlik xulosalari talab etilmaydigan axborot manbaalariga soliq hisobotlari, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armalari, sug'urta badallari bo'yicha hisobotlar va boshqa axborot manbalari kiradi.

2.10. Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan boshqa axborotlar

Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan boshqa axborot manbalariga quyidagilar kiradi:

- Ta'sis hujjatlari;
- Reja va prognoz ma'lumotlari;
- Statistika hisobotlari;
- Soliq hisobotlari;
- Xalq banki hisobotlari;
- Boshqaruv hisobi va hisoboti ma'lumotlari.

Ta'sis hujjatlariga korxona faoliyatining tartibi va shartlarini belgilab beruvchi Nizomi kiradi. Nizomda korxonaning tashkiliy huquqiy shakli, uning nomi, joylashgan o'rni, ustav kapitali miqdori, tarkibi, uning boshqaruv va nazorat organlarini shakllantirish tartiblari, foydani taqsimlash, fondlarni shakllantirish tartiblari, korxonani qayta tashkil etish va tugatish tartiblari belgilanadi.

Reja ma'lumotlari va prognoz ko'rsatkichlar. Reja va prognoz ko'rsatkichlariga korxonaning biznes rejasi, kelgusi davrlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini kiritish mumkin. Reja va prognoz ma'lumotlari korxona boshqaruvchisini maqsadliligini ta'minlashda, biznes samaradorligini va moliyaviy holatini yaxshilashga eng muhim dastak sifatida qarashi mumkin.

Reja ko'rsatkichlarini belgilash – bu resurslardan samarali foydalanishni va foydani o'stirishning muhim omili hamdir.

Statistika hisobotlari. Statistika hisobotlari, korxona boshqaruvi yuzasidan quyidagi muhim muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Ya'ni:

- hodisa va jarayonlar, ularning natijalari haqidagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni doimiy bilib turishda;
- ko'rsatkichlarni tahlil etish orqali ularning sifatini baholashda;
- statistika manbaalari asosida xo'jalik yurituvchi subyektning kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini belgilashda;
- boshqaruv subyektlarida haqqoniy ma'lumotlarga nisbatan xavfsiz va ishonch hissini shakllantirishda;
- aniq faktlarga tayangan holda faoliyatni boshqarishda;
- kamchiliklar yo'l qo'yilayotgan bo'g'inlar va ularni bartaraf etishda muhim chora-tadbirlarni belgilashda juda muhim hisoblanadi.

Statistika hisobotlarini tuzish va topshirish tartiblari Davlat statistika qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Statistik hisobotlarni faqat davlat tomonidan ko'rsatkichlarni jamlash, tahlil qilish va prognozlash mazmunida qarash noto'g'ri. Ushbu hisobot shakllaridagi ma'lumotlarga birinchi navbatda o'z biznes samaradorligi va natijaviyligini baholashda korxona egalari va boshqaruv xodimlariga qay darajada muhimligini anglash lozim.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun quyidagi davlat statistika hisobotlari belgilangan:

- narx statistikasi;
- investitsiya va qurilish statistikasi;
- sanoat statistikasi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi;
- qishloq xo'jaligi statistikasi;
- ekologiya statistikasi;
- ijtimoiy soha statistikasi;
- mehnat va axo demografiyasi statistikasi;
- aholining yashash sharoitlari va xizmatlar statistikasi;
- transport va aloqa statistikasi;
- tadbirkorlik va bank-moliya xizmatlari statistikasi.

Xo'jalik subyektlarining u yoki bu statistika hisobotlarini tuzishi va taqdim etishi qonun normalari asosida hal etiladi.

Soliq hisobotlari. Soliq hisoboti soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek, ularga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjati bo'lib, u Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi. Hisobot soliq to'lovchi tomonidan Soliq Qo'mitasi belgilangan muddatlarda, soliq to'lovchi hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etiladi.

Xalq banki hisobotlari. Xalq banki hisobotlari shaxsiy va ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armalari yuzasidan axborotlarni jamlaydi va xalq bankiga taqdim etiladi.

Boshqaruv hisobi va hisoboti ma'lumotlari.

Boshqaruv hisobi – korxona rahbari va menejerlarini har tomonlama ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlovchi hisobdir. Boshqaruv ma'lumotlaridan faqat xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruv xodimlarigina foydalanadilar. Boshqaruv hisobi ma'lumotlaridan asosan kelgusidagi iqtisodiy faoliyatni rejalashtirish (byudjetlashtirish) va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladi.

Boshqaruv hisoboti – boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosida ixtiyoriy mazmunda tayyorlanadigan va korxona boshqaruviga taqdim etiladigan hisobotlardir. Unda moliyaviy hisobotlardan farqli jihatdan faqat moliyaviy emas, balki moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar ham aks etadi.

2.11. Moliyaviy tahlilda kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta'minotlardan foydalanish.

Yangi asrni axborotlar, texnologiyalar, innovatsiyalar asri deyish mumkin. Negaki bu uchta jihatsiz rivojlanishni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Moliyaviy tahlilni zamonaviylashtirish muammosi ham bugun olimlar oldidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Axborotlarga shunchaki ega bo'lish yoki axborotlarni shunchaki o'qish bilan bugun muhim natijalarga erishib bo'lmaydi. Ularni tahlil etishning

shunday bir tizimini shakllantirish lozimki bu ularning boshqaruvdagi samarasini, faoliyatdagi natijasini ta'minlashga xizmat qilsin.

Axborotlarni bugungi shaklini va oqimini oddiy hisob-kitoblar asosida qayta ishlash mumkin emas. Bunga vaqt omili ham, resurs omili ham, subyekt omili ham yo'l bermaydi.

Axborot tizimini yaratilishi, axborotlarni kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta'minotlari asosida qayta ishlash, tahlil etish sohaning rivojida yangi bir bosqichini boshlab berdi deyish mumkin.

Axborot tizimining yaratilishi quyidagi hossalar bilan xarakterlanadi:

- har qanday axborot tizimi, tizimni tashkil etishning umumiy prinsipi asosida tahlil qilinadi va boshqariladi;
- axborot tizimi dinamik ko'rinishga ega bo'lib, rivojlanuvchi tizim hisoblanadi;
- axborot tizimining mahsuloti ham axborot hisoblanadi;
- axborot tizimini odam-kompyuter tizimi ko'rinishida tasavvur qilish lozim.

Axborot tizimlarini hayotda qo'llab ishonchli, sifatli va aniq natijalarni olish mumkin. Buni quyidagilarda tavsiflash mumkin:

- matematik metod va intellektual tizimlarni qo'llab, boshqarishning optimal variantlarini olish;
- tizimni avtomatlashtirish natijasida ishchilarning vazifalarini yengillashtirish;
- eng to'g'ri axborotga ega bo'lish;
- axborotlarni qog'ozda emas, balki magnit yoki optik disklarda saqlash;
- mahsulot ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini kamaytirish;
- foydalanuvchilar uchun qulayliklar yaratish.

Axborot tizimlarida boshqaruv tuzilmasining o'rni. Axborot tizimi jamiyat va har bir tashkilot uchun quyidagilarni bajarishi lozim:

1. Axborot tizimining tuzilmasi va uning qo'llanilish maqsadi, jamiyat va korxona oldida turgan vazifa bilan to'g'ri kelishi kerak. Masalan; tijorat firmasida – foydali biznes, davlat korxonasida ijtimoiy va siyosiy vazifalarni bajarishi kerak.
2. Axborot tizimi inson tomonidan boshqarilishi va ijtimoiy etika prinsiplari asosida foyda keltirishi kerak.
3. To'g'ri, kafolatli va o'z vaqtida axborotlarni mijoz yoki tizimlarga yetkazishi lozim.

Tashkilotni boshqarish tuzilmasi axborot tizimini yaratish,

tashkilotning boshqaruv tuzilmasini tahlil qilishdan boshlanadi. Boshqarish deganda quyidagi vazifalarni amalga oshirish funksiyasi bilan qo'yilgan maqsadga erishish tushuniladi:

Tashkillashtirish – normativ hujjatlar kompleksi va tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish; shtat jadvali, bo'limlar, laboratoriyalar va h.k.

Hisobga olish – bu funksiya firma yoki tashkilot ko'rsatkichlarining metod va formalarini ishlab chiqadi. Masalan; buxgalteriya hisoboti, moliyaviy hisob-kitob, boshqaruv hisoboti va boshqalar.

Tahlil (analiz) – rejalashtirilgan vazifalarni qay darajada bajarilganligini aniqlaydi.

Analitik jarayonlar boshlanar ekan birinchi navbatdagi masala uni qanday o'tkazish masalasiga qaratiladi. Agar korxona moliyaviy holatini va uning kutilishlarini baholashning yagona uslubiyoti yaratilgan va uni amalga oshirishning dasturiy ta'minoti mavjud bo'lsa mazkur jarayon soatday ishlashi mumkin edi. Afsuski, bunday holat mavjud emas. Shu sababli, ko'pincha ushbu jarayon maxsus topshiriqlar asosida ayrim subyektlar (buxgalterlar, menejerlar, analitiklar) tomonidan amalga oshirib kelinmoqda.

Moliyaviy hisobotlar tahlilida ko'rsatkichlar, moliyaviy koeffitsiyentlar turlicha nomlanishi tufayli ularning yagona dasturiy ta'minotini yaratish imkoniyati ham cheklangan. Shu bilan birga amaldagi tartiblarda ushbu ko'rsatkichlar "o'sgan", "kamaygan", "ijobiy o'zgarish", "salbiy o'zgarish", "bu yaxshi", "bu yomon" kabi so'zlarning ishlatilishi mijozga ma'qul variant emas. Shu bilan birga, dasturiy ta'minotlarda analitik hisob-kitoblarning matnli, izohli, tahlil natijalari yuzasidan xulosalar berilishi ham mijozlar talabiga to'la mos tushmaydi

2.12-jadval

"Sizning moliyaviy analitigingiz" (Vash finansoviy analitik) vaqt intervalining taqsimlanishi va ishlar mazmuni

Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni	Qancha muddat ketishi	Ish mazmuni
Moliyaviy hisobot ma'lumotlarini kompyuterga kiritish	2-15 minut	BXMS, MHXS asosida tayyorlangan barcha hisobot shakllari manbaga kiritiladi: Buxgalteriya balansi Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot

		Pul oqimi Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot shakllari
Analitik hisob-kitoblar va xulosalar	20 — 40 soniya	Kompyuter tomonidan moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida barcha analitik hisob-kitoblar amalga oshiriladi va natijalari chiqariladi. Barcha jadval, grafik, chizma va diagrammalar ekranda aks etadi. Dastur hech qanday bilim talab etilmaydi, barcha jarayonlarni kompyuter o‘zi mustaqil bajaradi.
Tahlil natijalarini chop etish va rasmiylashtirish	2-5 soniya	Moliyaviy holat haqida keng qamrovli hisobotga ega bo‘linadi. Hisobot hech bir mahoratli analitikning mustaqil tayyorlagan hisobotidan farq etmaydi. O‘ylash ham kompyuter zimmasiga yuklatiladi.

Takrorlash uchun savollar

Moliyaviy tahlilni tashkil etishning rasmiy jihatlari.

Moliyaviy tahlilni tashkil etishning norasmiy jihatlari.

Ichki moliyaviy tahlilning tashkil etilishi.

Tashqi moliyaviy tahlilning tashkil etilishi.

Moliyaviy tahlilni tashkil etishning tarmoq, faoliyat va soha xususiyatlari.

Moliyaviy tahlilning asosiy bo‘limlari: moliyaviy hisobot tahlili, investitsion tahlil, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi jarayonlar tahlili, moliyaviy hisobotni bashoratlash.

Moliyaviy tahlil bosqichlari.

Moliyaviy tahlilning axborot bazasi (tahlil obyektlari haqidagi ma’lumotlar), ularning ochiqligi va oshkoraligi.

Moliyaviy hisobotlar shakllari va ularning tavsifi.

Jamlangan moliyaviy hisobotlar va ularni tahlil etish.

Moliyaviy hisobotni tuzishda milliy va xalqaro standartlarning moliyaviy hisobot mazmuniga ta'siri.

Moliyaviy tahlilni muammoli jihatlari (davriy oraliqdagi qiyosiylik, turli korxonalar o'rtasidagi qiyosiylik, axborot operativligi muammolari).

Auditor xulosalarini ko'rib chiqish.

Auditdan o'tkazilmagan hisobotlar.

Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan boshqa axborotlar.

Moliyaviy tahlilda kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta'minotlardan foydalanish.

3-BOB. KORXONANING OPERATSION FAOLIYATINI TAHLILI

3.1. Operatsion faoliyat tahlilining mazmuni va muhim vazifalari.

3.2. Korxona faoliyatining turlari: operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat.

3.3. Operatsion faoliyat tahlili va uning muhim jihatlari.

3.4. Mahsulot (ish, xizmat)larning tarmoq va faoliyat tavsifi.

3.5. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, xarajat va foyda aloqadorligini tahlili (CVP tahlil).

3.6. Mahsulot (ish, xizmat)larning kritik hajm darajasi va uning omilli tahlili.

3.7. Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmini tahlili.

3.8. Mahsulot assortimentini boshqarish.

3.9. Sotish hajmini tahlili.

3.10. Korxona operatsion faoliyati samaradorligini (mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, innovatsion mahsulot, eksport hajmi ko'rsatkichlarini) baholash.

3.11. Operatsion leveridj tahlili.

3.12. Operatsion risklar va ularni boshqarish.

3.1.Operatsion faoliyat tahlilining mazmuni va muhim vazifalari

Operatsion faoliyat – xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy daromad olib keluvchi faoliyat turidir.

Operatsion faoliyat tahlilida xo'jalik yurituvchi subyekt asosiy faoliyatining muhim obyektlari: mehnat vositalari, predmetlari va mehnat resurlarining ta'minoti, ishlab chiqarish, sotish va natijaga ega bo'lishdagi kompleks tizim o'rganiladi.

Mehnat vositalari va ulardan samarali foydalanishni tahlili.

Asosiy faoliyatda foydalaniladigan mehnat vositalariga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar kiritiladi. Ularning odatda aktiv va passiv turlari tarkiblanadi.

Aktiv asosiy vositalar bu ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvchi mehnat vositalaridir.

Passiv asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayoniga muhim sharoit ta'minlab beruvchi mehnat vositalaridir.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni tahlil etishda ularning tarkibi, harakati, holati, samaradorligi, rentabelligi va dinamik o'zgarishlariga muhim ahamiyat qaratiladi.

Asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga bir vaqtning o'zida javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi[25]:

a) bir yildan ortiq xizmat qilish muddati;

b) bir birlik (to'plam) uchun qiymati O'zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo'lgan buyumlar.

Korxona rahbari, shuningdek, hisobot yilida aktivlarni buxgalteriya hisobida asosiy vositalar sifatida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilashga haqlidir.

3.1-jadval

Asosiy vositalarning tasnifiy jihatlari

Ko'rsatkichlar	Tasnifiy jihatlari
Asosiy vositalar	korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar
Amortizatsiya	foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini asosiy vositalarning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga yoki davr xarajatlariga muntazam taqsimlash va o'tkazish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasi
Foydali xizmat muddati	korxona aktivdan foydalanadigan vaqt davri yoki korxona ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo'ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori. Qurib bitkazish, asbob-uskunalar bilan to'liq jihozlash, qayta qurish, zamonaviylashtirish va texnik qayta qurollantirish bo'yicha ishlar tugatilganidan so'ng foydalanishga kiritilgan asosiy vositalar uchun foydali xizmat muddati bo'lib ushbu ishlar tugatilganidan so'ng mazkur asosiy vositalar foydalanishga kiritilgan paytdan boshlab korxona tomonidan asosiy vositalardan foydalaniladigan vaqt davri yoki korxona ushbu

[25] Ўзбекистон Республикаси 5-сон бҳмс. Асосий воситалар. АВ 09.12.2014 й. 1299-1-сон билан рўйхатга олинган молия вазирининг Буйруғига биноан ўзгартиришлар киритилган.

	asosiy vositalarni qo'llashdan kutayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) miqdori hisoblanadi
Boshlang'ich qiymat	to'langan va qoplanmaydigan soliqlarni (yig'imlarni), shuningdek, aktivni undan maqsadga muvofiq foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan yetkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda, asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish bo'yicha qilingan xarajatlarning qiymati
Joriy qiymat	ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa
Qoldiq (balans) qiymat	jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati
Tugatish qiymati	asosiy vositalarning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog'ida olinadigan aktivlarning faraz qilinayotgan summasi

Aktivlarni buxgalteriya hisobiga nomoddiy aktivlar sifatida qabul qilishda bir vaqtning o'zida quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

a) moddiy-ashyoviy tuzilishga ega bo'lmasligi;

b) aktivlardan mahsulot ishlab chiqarishda (ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishda) yoxud korxonaning ma'muriy va boshqa funksiyalari uchun uzoq muddat, ya'ni davomiyligi 12 oydan yuqori foydali xizmat muddati yoki agar u ushbu muddatdan oshadigan bo'lsa, oddiy operatsion sikl mobaynida foydalanish;

v) korxona ushbu aktivni keyinchalik qayta sotishni mo'ljallamaydi;

g) ishonchlilik, ya'ni korxonada aktiv va unga bo'lgan mutlaq huquqning mavjudligini tasdiqlovchi tegishli ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar (patentlar, guvohnomalar, boshqa muhofaza qiluvchi hujjatlar, patent, tovar belgisidan voz kechish (sotib olish) shartnomasi)ning mavjudligi.

d) korxona tomonidan boshqa aktivlardan identifikatsiyalash (bo'lish, ajratish) imkoniyati, ya'ni aktivni undan foydalaniladigan xo'jalik faoliyatidan alohida foydalanishning mumkin bo'lishi.

3.2-jadval

Nomoddiy aktivlarning tasnifiy jihatlari

Ko‘rsatkichlar	Tasnifiy jihatlari
Nomoddiy aktivlar	korxona tomonidan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma’muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo‘lmagan mol-mulk obyektlari
Amortizatsiya	foydali xizmat muddati mobaynida nomoddiy aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini uning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga yoki davr xarajatlariga muntazam taqsimlash va kiritish
Amortizatsiyalanadigan qiymat	taxmin qilinayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chegirgan holda aktivning boshlang‘ich (tiklash) qiymati summasi
Foydali xizmat muddati	korxona tomonidan aktivdan foydalanish ko‘zda tutilgan davr yoki korxona ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo‘ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori
Boshlang‘ich qiymati	nomoddiy aktivlarni yaratish (ishlab chiqish) yoki sotib olish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar qiymati (pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlarining summasi yoxud boshqa to‘lovlarning joriy qiymati), shu jumladan to‘langan va qoplanmaydigan soliqlar (yig‘imlar), shuningdek, aktivni undan maqsadga ko‘ra foydalanish uchun ishga yaroqli holatga keltirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar qiymati
Tugatish qiymati	nomoddiy aktivning chiqib ketishi bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda uning foydali xizmat muddati oxirida aktivni tugatish chog‘ida olinishi kutilayotgan, aktivning taxmin qilinayotgan (baholangan) summasi
Joriy qiymati	ma’lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo‘yicha nomoddiy aktivlarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, bir-biridan mustaqil taraflar o‘rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lgan summa

Qoldiq (balans) qiymat	nomoddiy aktiv moliyaviy hisobot (buxgalteriya balansi)da aks ettiriladigan, boshlang'ich (tiklash) qiymati va jamlangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan miqdor
Faol bozor	oldi-sotdi obyektlari bir turda (bir xil) bo'lgan va har qanday vaqtda bitimni amalga oshirishni xohlovchi manfaatdor sotuvchi va xaridorlarni topish mumkin bo'lgan, shuningdek, narxlar haqidagi ma'lumotlar oshkor (hammabop) bo'lgan bozor
Mutlaq huquq	bu faqatgina huquq egasi tomonidan yoki uning roziligi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uchinchi shaxsga berilishi mumkin bo'lgan mulkiy huquq

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bilan ta'minlanganlik, ularning holati, harakati, samaradorligini, asosiy vositalarning rentabelligini baholashda tahlilning metodologik asoslari quyidagilardan iborat.

3.3-jadval

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, ulardan samarali foydalanish tahlilining muhim masalalari

Tahlil mavzulari	O'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimi	Tahlil mazmuni	Tahlil natijasi
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tahlili va uning nazariy jihatlari	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tahlilining nazariy, metodologik asoslari	Ta'rifi, turkumlanishi, tahlil vazifalari, axborot manbalari bayon etiladi	Zamonaviy ta'rifi, turkumlanishi, tahlil mazmuni, vazifalari, axborot manbalari tavsiflanadi
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bilan ta'minlanganlik, va qurollanganlik tahlili	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bilan qurollanish koeffitsiyenti	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bilan ta'minlanishi, qurollanishi va uning dinamik o'zgarishlari tahlil qilinadi	Ta'minlanganlik va qurollanganlikni o'stirish choralari ko'riladi

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar harakatining tahlili	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning kirib kelish koeffitsiyenti, Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning chiqib ketish koeffitsiyenti, Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar harakatining sifat ko'rsatkichlari	Asosiy vositalar va nomoddiy aktvilarning harakat ko'rsatkichlariga baho berish orqali ularning o'zgarishi, o'zgarish tendensiyalari tahlil qilinadi	Harakat ko'rsatkichlarini yaxshilash choralari ko'riladi
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar holatining tahlili	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirish koeffitsiyenti, Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning yaroqlik koeffitsiyenti	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning holatiga, ularning o'zgarishiga va o'zgarish tendensiyalariga baho beriladi	Holat ko'rsatkichlarini yaxshilash choralari ko'riladi
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar samaradorliginin g tahlili	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qaytimi, Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning sig'im ko'rsatkichlari	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qaytimi va sig'imiga, ularning o'zgarishiga, mahsulot hajmiga ta'siri tahlil qilinadi	Samaradorlikni oshirish choralari ko'riladi
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning rentabellik tahlili	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning rentabellik ko'rsatkichlari	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning foydaligiga, uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga baho beriladi.	Rentabellikni oshirish choralari ko'riladi

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning tahlilida o'rganiladigan muhim ko'rsatkichlar va ularning aniqlash tartiblarini quyidagi jadvalda ifoda etish mumkin.

3.4-jadval

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tahlilining ko'rsatkichlar tizimi

	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarning aniqlanishi	Belgilar izohi
1	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti (Ta, Tn)	Ta=Av / Im Tn=Na / Im	Av-asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati Na-nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
2	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bilan qurollanishi koeffitsiyenti (Qa, Qn)	Qa=Av / X Qn=Na / X	Im-ishlab chiqarish maydoni X-xodimlarning o'rtacha ro'yxat soni
3	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning kirib kelish koeffitsiyenti (Ka,Kn)	Ka=Avk / Avo Kn=Nak / Nao	Avk-kirib kelgan asosiy vositalarning qiymati Avo-asosiy vositalarning yil oxiridagi qiymati Nak-kirib kelgan nomoddiy aktivlar Nao-nomoddiy aktivlarning yil oxiridagi qiymati
4	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning chiqib ketish koeffitsiyenti (Cha,Chn)	Cha=Avch / Avb Chn=Nach / Nab	Avch-chiqib ketgan asosiy vositalar qiymati Avb-asosiy vositalarning yil oxiridagi qiymati Nach-nomoddiy aktivlarning chiqib ketgan qismi Nab-nomoddiy aktivlarning yil boshidagi qiymati
5	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning harakatining sifat ko'rsatkichlari(As, Ns)	As=Avk / Avch Ns=Nak / Nach	

6	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirish koeffitsiyenti (Kea,Ken)	Kea=Ave / Avd Ken=Nae / Nad	Ave-asosiy vosilarning eskirish qiymati Avd-asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati Naz-nomoddiy aktivlarning eskirish qiymati Nad-nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati
7	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning yaroqlilik koeffitsiyenti (Kyaa, Kyan)	Kyaa=Avq / Avd Kyan=Naq / Nad	Avq-Asosiy vositalarning qoldiq qiymati Naq-nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati
8	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qaytimi (Aq, Nq)	Aq=Mx / Avo' Nq=Mx / Nao'	Mx-mahsulot hajmi Avo'-asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati Nao'-nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
9	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning sig'im ko'rsatkichlari (As, Ns)	As=Avo' / Mx Ns=Nao' / Mx	
10	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning rentabellik ko'rsatkichlari (Ra,Rn)	Ra=SF / Avo' Rn=SF / Nao'	Sf-sof foyda

Mehnat predmetlari va ulardan samarali foydalanish tahlilida mehnat predmetlarining nazariy tavsifi, ularning turkumlanishi, xo'jalik subyektining moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi, samaradorligi, jami aktivlar tarkibidagi salmog'i, moliyalashtirilishi, aylanuvchanligi bilan bog'liq jihatlar tahlil etiladi.

3.5-jadval

Moddiy resurslar va ulardan samarali foydalanish tahlilining muhim masalalari

Tahlil mavzulari	O‘rganiladi-gan ko‘rsatkichlar tizimi	Tahlil mazmuni	Tahlil natijasi
Moddiy resurslar tahlili mazmuni vazifalari va axborot manbalari	Moddiy resurslar tahlilining nazariy va metodologik asoslari	Ta’rifi, turkumlanishi, tahlil vazifalari, axborot manbaalari bayon etiladi	Zamonaviy ta’rifi, turkumlanishi, tahlil mazmuni, vazifalari, axborot manbalari tavsiflanadi
Moddiy resurslar bilan ta’minlan ganlik tahlili	Moddiy resurslar ta’minlangan lik koeffitsiyenti	Moddiy resurslar bilan ta’minlanganlik ning holatiga, o‘zgarishlariga, dinamikasiga baho beriladi	Moddiy resurslar ta’minlanganlikda gi holat, uni yaxshilash choralari ko‘riladi
Moddiy resurslar samaradorli gi tahlili	Moddiy resurslar qaytimi, moddiy resurslar sig‘imi koeffitsiyenti	Moliy resurslardan samarali foydalanganlik darajasiga, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’siriga baho beriladi	Moddiy resurslar va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari aniqlanadi va choralari ko‘riladi
Moddiy resurslar aylanuvchan ligi tahlili	Moddiy resurslarning aylanuvchan lik koeffitsiyentla ri	Moddiy resurslarning yangidan qiymat yaratishga, ularning qaytuvchanlik darajasiga, ish aktivligiga baho beriladi	Moddiy resurslar joriy holati va uni kelgusida yanada yaxshilash choralari ko‘riladi

Moddiy resurslar va ulardan samarali foydalanish tahlilida

o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar va ularning aniqlanish tartibi quyidagi jadvalda ifoda etilgan.

3.6-jadval

Moddiy resurslar va ulardan samarali foydalanish tahlili ko‘rsatkichlari

t/r	Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlarning aniqlanishi	Belgilar izohi
1	Moddiy resurslar bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti (Tmr)	Tmr=Mrx / Mrz	Haqiqatdagi moddiy resurslar ta’minoti Moddiy resurslarga bo‘lgan zaruriy talab
2	Moddiy resurslar sig‘imi (Smr)	Smr=X / Mx	Im-ishlab chiqarish maydoni X-xodimlarning o‘rtacha ro‘yxat soni
3	Moddiy resurslar qaytimi	Qmr=MMx / X	
4	Moddiy resurslarni (o‘z va qarz mablag‘lari hisobiga) moliyalashtirish koeffitsiyenti (Km1,Km2)	Km1=O‘MM-UMA / Mr Km2=QM-O‘MM / Md	O‘MM-o‘z mablag‘lari manbasi O‘MA-uzoq muddatli aktivlar QM-qarz mablag‘lari
5	Moddiy resurslardan chiqitlar salmog‘i koeffitsiyenti (MRch)	MRch=Mrch / MRs	Mrch-moddiy resurslarni ishlatishdan chiqitlar Mrs-Moddiy resurslar sarfi
6	Moddiy resurslar aylanuvchanligi koeffitsiyenti (MRa)	MRa=ST / Mrq	St-sotishdan tushum Mr-moddiy resurslar qoldig‘i
7	Moddiy resurslar tarkibida import xom ashyolar salmog‘i (MRi)	MRi=Mri / Mrj	Mri-Import qilingan moddiy resurslar qiymati Mrj-moddiy resurslar jami

8	Mahalliylashtirilgan moddiy resurslar salmog'I (MRm)	MRm=Mrm / Mrj	Mrm-mahalliylashtirilgan moddiy resurslar qiymati
9	Moddiy resurslardan ishlab chiqarishdan tashqari foydalanishning salmog'i(MRt)	MRt=Mrt / Mru	Mrt-ishlab chiqarishdan tashqari foydalanilgan moddiy resurslar qiymati Mru-Umumiy foydalanilgan moddiy resurslar qiymati
1	Moddiy resurslarning TMZ tarkibidagi salmog'i (MRz)	MRz=Mr / TMZ	TMZ-tovar moddiy zaxiralar Mr-moddiy resurslar qiymati

Mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanishni tahlili.

Korxona faoliyatida mehnat omili muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat – bu inson va jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan oqil va ongli faoliyatdir.

Mehnat resurslari mehnatga layoqatli aholining 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar va 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklardan iborat qatlamidir.

Korxonada mehnat resurslari: xodim, ishchi, xizmatchi kategoriyalari bilan tarkiblanadi.

Xodim – korxonada band bo'lgan barcha tarkib, ishchi-mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashuvchi, jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi, xizmatchilar – jismoniy mehnatdan tashqari, xizmat ko'rsatuvchi tarkib hisoblanadi.

3.7-jadval

Mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanish tahlilining muhim masalalari

Tahlil mavzulari	O'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimi	Tahlil mazmuni	Tahlil natijasi
Mehnat resurslari va ulardan samarali	Mehnat resurslari va ulardan	Ta'rifi, turkumlanishi,	Zamonaviy ta'rifi, turkumlanishi,

foydalanish tahlili mazmuni vazifalari va axborot manbalari	samarali foydalanish tahlilining nazariy, metodologik asoslari tasniflanadi	tahlil vazifalari, axborot manbalari bayon etiladi	tahlil mazmuni, vazifalari, axborot manbalari tavsiflanadi
Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanishini tahlili	Mehnat resurslari tarkibi va ularning salmog'i, koxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti	Mehnat resurslari turli tarkibiy belgilar bo'yicha o'rganiladi mutlaq va nisbiy o'zgarishlari baholanadi	Mehnat resurslarini tarkibiy jihatdan o'rganishga xodimlar mehnatidan samarali foydalanishning muhim omili deb qaraladi
Ish kuchi qo'nimsizligi va ishchilarning malaka darajasini tahlili	Xodimlarning harakati (ishga qabul qilinishi, ishdan bo'shash darajasi), qo'nimsizlik, malaka darajasi	Xodimlar harakati va uning sifat ko'rsatkichlari baholanadi	Xodimlar harakatida sifat o'zgarishlarni ta'minlash chora-tadbirlari ko'riladi
Ishchilarni ish vaqtidan foydalanishini tahlili va uning o'zgarish sabablari	Ish vaqti fondidan foydalanish darajasini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar	Ishchilar sonining o'zgarishi, Bir ishchini ishlagan kunlarining o'zgarishi, Ish kuni davomiyligini o'zgarishi	Ish vaqti fondidan samarali foydalanish, bo'sh turishlar, ish vaqtida turli yo'qotishlarni oldini olish choralari ko'riladi
Mehnat unumdorligi tahlili	Mehnat resurslari va vaqt fondidan samarali foydalanish ko'rsatkichlari	Bir xodimning mehnat unumi, Bir ishchining mehnat unumi, Bir kunlik mehnat unumi, Bir soatlik mehnat unumi	Mehnat unumdorligini tarkibiy ko'rsatkichlarini baholash orqali uni o'stirish choralari ko'riladi
Sanoat ishlab chiqarish xodimlari mehnat unumdorligiga ta'sir	Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining mehnat	Ishchilarning sanoat ishlab chiqarish xodimlari	Xodimlar mehnat unumi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklarni

etuvchi omillar tahlili	unumdorligi ko‘rsatkichi	tarkibidagi salmog‘ining o‘zgarishi, bir ishchining mehnat unumining o‘zgarishini ta’sir darajalari baholanadi	maqsadli boshqarish imkoni tug‘iladi
Ishchining mehnat unumdorligiga ta’sir etuvchi omillarning tahlili	Bir ishchining mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi	Mehnat unumi va uning o‘zgarishiga: bir ishchining yil davomida ishlagan o‘rtacha kishi kunlari; ish kuni davomiyligi; ishchining bir soatlik ish unumi ta’siri hisob-kitob qilinadi	Ishchining mehnat unumi va uni o‘stirish choralari belgilanadi
Mahsulot mehnat sig‘imini tahlili	Mahsulot hajmiga ish vaqti sarfi ko‘rsatkichi	Mahsulotning mehnat sig‘imi, uning o‘zgarishi, o‘zgarish sabablari o‘rganiladi	Mahsulot hajmida mehnat sarfining optimallashtirish choralari ko‘riladi
Mahsulot hajmiga ta’sir etuvchi mehnat omillarini tahlili	Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxat soni, bir ishchi tomonidan ishlangan ish kuni, ish kuni davomiyligi, o‘rtacha bir soatlik mehnat unumi	Mahsulot hajmiga ta’sirini omilli tahlili o‘tkaziladi, ta’sir darajalari hisob-kitob qilinadi	Mehnat omillarini ijobiy ta’sir birliklarini baholash orqali ularni rag‘batlantirish choralari ko‘riladi.

Mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik va mehnat unumdorligini tahlilida quyidagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

3.8-jadval

Mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanishning ko'rsatkichlar tizimi

t/r	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarning aniqlanishi	Belgilar izohi
1	Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti(Mt)	Mt=Mr / Mrz	Mr-haqiqatda band qilingan mehnat resurslari Mrz-zaruriy mehnat resurslari soni
2	Ishchilarning jami sanoat ishlab chiqarish xodimlarining tarkibidagi salmog'i(Xis)	Xis=Is / X	Is-ishchilarning soni X-xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni
3	Xizmatchilarning jami xodimlar tarkibidagi salmog'i (Xxs)	Xxs=Xs / X	Xs-xizmatchilarning soni
4	Xodimlarni ishga qabul qilish koeffitsiyenti (Ibq)	Xiq=Xq / X	Xq-ishga qabul qilingan xodimlarning soni
5	Xodimlarni ishdan bo'shatish koeffitsiyenti (Xib)	Xib=Xi / X	Xi-ishdan bo'shagan xodimlarning soni
6	Xodimlar qo'nimsizligi (Xq)	Xq=Ib / X	Ix-o'z arizasiga muvofiq ishdan bo'shaganlar soni
7	Mehnat unumdorligining inson va vaqt omili ko'rsatkichlari (MU):	MU	
7	Bir xodimning mehnat unumi (MUx)	MUx=Mx / X	Mx-mahsulot hajmi
7	Bir ishchining mehnat unumi (MUi)	MUi=Mx / I	I-ishchilarning o'rtacha ro'yxat soni
7	Bir kunlik mehnat unumi (MUk)	MUk= Mx / Ik	Ik-jami ishlangan ish kunlari
7	Bir soatlik mehnat unumi (MUs)	MUs=Mx / Is	Is-jami ishlangan ish soatlari
8	Ish kuni davomiyligi (Id)	Id=Iis / Iik	Iis-jami ishlangan ish soatlari Iik-jami ishlangan ish kunlari

9	O'rtacha bir yillik ishlangan ish kunlarining haqiqiy ish vaqtidagi salmog'i (Ivs)	Ivs=Iyk / Iykz	Iyk-bir yillik o'rtacha ishlangan ish kunlari Iykz-meyor bo'yicha bir yillik ish kunlari
1	O'rtacha ishlangan bir kunlik ish vaqtining me'yoriy ish vaqtidagi salmog'i (Iks)	Iks=Ibs / Ism	Ibs-bir kunlik o'rtacha ish vaqti Ism-bir kunlik me'yoriy ish vaqti
1	Mehnat unumdorligini omilli ko'rsatkichlari (Mu)	Mu	Mu-mehnat unumdorligi
	Bir xodimga to'g'ri keladigan yillik mahsulot hajmi (Mux)	MUx=Is * Mui	Is-sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibida ishchilarning salmog'i Mui-bir ishchining o'rtacha yillik mahsulot hajmi
	Bir ishchiga to'g'ri keladigan yillik mahsulot hajmi (Mui)	Mui=Iik*Ikd*Mus	Iik- bir ishchining yil davomida ishlagan o'rtacha kishi kunlari Ikd-ish kuni davomiyligi Mus-ishchining bir soatlik ish unumi
1	Mahsulotning mehnat sig'imi (Ms)	Ms=Ms/Mx	Ms-mahsulotga mehnat sarfi Mx-mahsulot hajmi
1	Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillari (Mx)	Mx= Is*Iik*Ikd*Mus	

Mahsulot ishlab chiqarish va sotishni tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish faoliyatining asosiy sharti hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi korxona tomonidan bozor konyunkturasini chuqur tahlil etgan holda mustaqil ravishda rejalashtiriladi.

Mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha biznes rejada mo'ljallangan hajmni bajarilishini ta'minlash hamda yuqori sifatli, xaridorgir mahsulotlarni yaratilishi korxonaning bevosita muhim ko'rsatkichlari bo'lmish ishlab chiqarish tannarxi, xarajatlar hajmi, foyda va rentabellik,

moliyaviy barqarorlik, to'lov qobiliyati, sof pul mablag'larining hisobot davr oxiriga ko'payishini ta'minlovchi omildir.

3.9-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlilining muhim masalalari

Tahlil mavzulari	O'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimi	Tahlil mazmuni	Tahlil natijasi
Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlilining mazmuni vazifalari va axborot manbalari	Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlilining nazariy, metodologik asoslari tasniflanadi	Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning muhim ko'rsatikichlar tizimi va ularning tasnifi, tahlil vazifalari, axborot manbalari bayon etiladi	Mahsulot ishlab chiqarish, sotishni tahlil etish mazmuni, vazifalari, axborot manbalari tavsiflanadi
Mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishi tahlili	Mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishi	Ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishiga, dinamikasiga, qiyosiy o'zgarishlariga baho beriladi	Korxona moliya-xo'jalik faoliyatining istiqboldagi rejasi, byudjeti, prognoz ko'rsatkichlari belgilanadi
Mahsulot ishlab chiqarish nomenklaturasi va assortimenti tahlili	Nomenklatura va assortiment rejasining bajarilishi	Nomenklatura va assortiment rejasininng bajarilishiga, reja bajarilishining korxona moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri o'rganiladi	Nomenklatura va asoosrtimentni to'g'ri belgilash va ularni maqsadli boshqarish imkoniyatlari aniqlanadi hamda chora-tadbirlari belgilanadi
Mahsulot sifatining tahlili: ishlab chiqarishdagi brak	Oliy va birinchi kategoriyadagi mahsulot hajmi. Mahsulotning sortlilik koeffitsiyenti.	Mahsulotning sifatligiga, uning pul tushumlari, moliyaviy natijaga ta'siriga baho beriladi	Mahsulotning sifatligini oshirish chora-tadbirlari ko'riladi
Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining tahlili	Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi koeffitsiyenti.	Ishlab chiqarish maromiyligining uzluksiz va barqaror	Maromiylik va uning buzilishlarini oldini olish

		rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyatiga baho beriladi	choralari ko'riladi
Innovatsion mahsulotlar tahlili	Innvovatsion mahsulotlarning jami mahsulotlar tarkibidagi salmog'i	Innovatsion mahsulotlar ularning raqobatdoshlikni ta'minlashdagi o'rniga baho beriladi	Innvoatsion mahsulotlar hajmini oshirish, ilmiy, texnikaviy yangiliklarni amaliyotga keng joriy etish choralari ko'riladi
Xorijga sotilgan mahsulotlar tahlili	Eksport qilingan mahsulotlarning jami mahsulotlar tarkibidagi salmog'i	Eksport qilingan mahsulotlar hajmi, valyuta tushumlari va jahon bozoriga chiqish imkoniyatlariga baho beriladi	Eksport hajmini oshirish chora-tadbirlari ko'riladi
Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	Mahsulotning mehnat vositalari, mehnat predmetlari, mehnat omillari bilan bog'liq samaradorligi	Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta'sir etuvchi miqdor va sifat omillariga baho beriladi	Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini o'stirish, uning barqaror rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari ko'riladi

Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar tizimiga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi:

Yalpi mahsulot – bu korxonaning ma'lum bir davrda (kun, oy, chorak, yil) ishlab chiqargan mahsuloti, ko'rsatgan xizmat va bajargan ishlarining amaldagi va solishtirma bahoda o'lchangan hajmi.

Tovar mahsulot –ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlaridan o'tgan va tayyor holatga kelgan, iste'molchilarga yetkazib berish uchun mo'ljallangan mahsulotlar.

Sotilgan mahsulot – iste'molchilarga ortib jo'natilgan yoki hisob hujjatlari taqdim etilgan mahsulotlar.

Mahsulotlar nomenklaturasi – deb, miqdor holida tovarlar guruhlari, kichik guruhlari va pozitsiyalarini belgilashda hamda hisobga olishda qabul qilingan ro'yxatidir.

Tovar (ish, xizmat)lar assortimenti - deb esa, mahsulotlarning ma'lum bir belgilariga qarab, ya'ni, uning turlari, navi, o'lchami, markasi, artikullariga qarab ajratiladigan mahsulotlar xilidir.

Korxona uchun ko'proq foyda keltiruvchi, kam xarajat talab etadigan tovarlarni ishlab chiqarish manfaatlidir. Shu sababli, tovarlarni ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishda strukturaviy o'zgarishlarni tahlil etishga alohida ahamiyat qaratiladi.

Mahsulotlar hajmida strukturaviy o'zgarishlarni mehnat sig'imi ko'rsatkichlari orqali aniqlash mumkin. Mehnat sig'imini me'yor-soat, me'yorlashtirilgan ish haqi ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Mahsulot turlari bo'yicha rejaning bajarilishi har xil darajada bo'lishi strukturani o'zgarishidan dalolat beradi. Struktura bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi uchun haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha xillari rejalashtirilgan mahsulot tarkibi va tuzilishiga teng kelishi kerak.

Ishlab chiqarish maromiyligi - bir maromda mahsulot ishlab chiqarishni tasniflaydi.

Ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etilishi resurslardan foydalanish darajasiga, mahsulot sifatini yaxshilanishiga, shartnomaviy majburiyatlarni bajarilishiga ta'sir etadi.

Mahsulot sifati. Tahlilda muhim e'tibor ishlab chiqarishga va sotilgan mahsulotlar sifatiga qaratiladi. Mahsulot sifati deganda - uning tovarlilik darajasi, xaridorlar didiga mosligi, xalqaro va mamlakat standart meyorlariga javob berishidagi ijobiy tasnifiy jihatlari nazarda tutiladi.

Xalqaro va mamlakat standarti talablariga mosligi yuzasidan mahsulotlarning oliy va birinchi kategoriyalar tarikblanadi.

3.10-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlilida o'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimi

t/r	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkich larning aniqlanishi	Belgilar izohi
1	Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi (Rb)	Rb=Mxx/Mxr	Mxx- haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi Mxr-rejada ishlab chiqarilishi belgilangan mahsulot hajmi
2	Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti rejasining bajarilishi (Rbn)	Rbn=Mxn/Mxr	Mxn-nomenklatura va assortimentga qabul qilingan mahsulot hajmi
3	Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi koeffitsiyenti(Mrb)	Rbm=Mxm/Mxr	Mxm-maromiylik hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi
4	Ayrim tur mahsulotlarning jami mahsulotdagi salmog'i(Mxs)	Mxs=Mat/Mx	Mat-ayrim tur mahsulotlar hajmi
5	Mahsulot tarkibida oliy sifat mahsulot salmog'i(Mxo)	Mxo=Mxo/Mx	Mxo-oliy kategoriyadagi mahsulotlar hajmi
6	Mahsulot hajmida innvoatsion mahsulot hajmi(Mxi)	Mxi=Mi/Mx	Mi-innovatsion mahsulotlar hajmi
7	Mahsulot hajmiga mehnat omillari ta'siri(MXm)	MXm=Is*Ik*Is*Mus	Is-ishchilarning o'rtacha ro'yxat soni Ik-bir ishchi tomonidan ishlangan ish kunlari Is-ish kuni davomiyligi Mus-bir soatlik mehnat unumi
8	Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga moddiy resurslar ta'siri(MXmr)	MXmr=MR*MRq	MR-moddiy resurslar qiymati MRq-moddiy resurslar qaytimi
9	Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mehnat vositalari ta'siri(MXa)	MXa=Avq *Avo'	Avq–asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati Avo'-Asosiy vositalarning qaytimi
10	Sotish rejasining bajarilishi (Srb)	SRb=SMx/SMr	SMx-Haqiqiatda sotilgan mahsulot hajmi SMr-rejada belgilangan sotish hajmi
11	Shartnoma majburiyatlarini hisobga olgan holda	SRsh=SMsh/SMx	SMsh-shartnoma majburiyatlarini hisobga olgan holda haqiqatda yetkazib berilgan mahsulot hajmi

	sotish rejasining bajarilishi (SRsh)		Smx-yetkazib berilishi rejalashtirilgan mahsulot hajmi yetkazib erilishi
12	Sortlilik koeffitsiyenti (Ks)	Ks=MX/Mxb	Mxb-oliy kategoriya bahosida qayta hisoblangan mahsulot hajmi
13	O'rtacha sotish bahosi (SBo')	SBo'=MXq/ MXm	MXq-Haqiqatda sotilgan mahsulot qiymati MXm-Haqiqatda sotilgan mahsulot miqdori
14	Sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar (Smo')	SMo'=TMqb +TMi-TMqo	TMqb-tayyor mahsulot davr boshiga qoldig'i TMi-Joriy davrda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot hajmi TMqo-Tayyor mahsulotning davr oxiriga qoldig'i

3.2. Korxona faoliyatining turlari: operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyat

Operatsiya – (lotincha "Operatsion" - so'zidan olingan bo'lib) muayyan maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan harakatlarni anglatadi.

Faoliyat – maqsadga erishish yo'lida muayyan vositalardan foydalanishning rag'batlantiruvchi jarayoni.

Operatsion faoliyat – xo'jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek, subyektning investitsiya va moliyaviy faoliyatiga oid bo'lmagan o'zga xo'jalik faoliyatidir.

Operatsion faoliyat-mahsulotlar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishga xarajatlarni amalga oshirish va ularni sotishdan daromadlar olishga qaratilgan.

Xo'jalik subyektining faoliyat turlari

Korxona faoliyati	Odatdagi faoliyati	Odatdagi faoliyat asosiy, moliyaviy va investitsion faoliyatdan iborat
	Favqulodda faoliyati	Odatdagi faoliyatdan farqli ravishda muntazam

		takrorlanmaydigan va ko‘zda tutilmagan faoliyat turi hisoblanadi.
Odatdagi faoliyat	Asosiy faoliyat	Operatsiya faoliyati - xo‘jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek, subyektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo‘lmagan o‘zga xo‘jalik faoliyati
	Moliyaviy faoliyat	Investitsiya faoliyati - uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotish
	Investitsion faoliyat	Moliyaviy faoliyat - xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo‘lib, uning natijasida o‘z mablag‘i va qarz mablag‘lari miqdori va tarkibida o‘zgarishlar yuz beradi

Faoliyat turlariga mos ravishda tahlil ham operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat tahlili turlariga tarkiblanadi.

Operatsion tahlil – xo‘jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek, subyektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo‘lmagan o‘zga xo‘jalik faoliyati tahlilidir.

Operatsion tahlil – xo‘jalik subyektining moliyaviy natijalarining ishlab chiqarish xarajatlari va tushum hajmiga bog‘liqligidan iborat tahlil turidir

Investitsion tahlil – uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotishni tahlilidir.

Investitsion tahlil – investitsion faoliyat, uning samaradorligi va natijaviyligi bilan bog‘liq bo‘lgan tahlil turidir.

Moliyaviy faoliyat tahlili – xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'i va qarz mablag'lari miqdori va ular tarkibidagi o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lgan tahlilidir.

Moliyaviy faoliyat tahlili –xo'jalik subyektining moliyaviy harakatlari, ularning samaradorligi va natijaviyligi bilan bog'liq bo'lgan tahlilidir.

3.3. Operatsion faoliyat tahlili va uning muhim jihatlari

Operatsion faoliyat korxonaning asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Uning tashkil etilishida, asosiy faoliyat turining (OKONX) belgilanishi ham shu bilan izohlanadi.

Korxonlarning asosiy qismi ishlab chiqarish va savdo faoliyati bilan shug'ullanadilar. Agar korxonalar qo'shimcha faoliyatni amalga oshirsalar, ular ikkinchi darajali faoliyat hisoblanadi. Bunday faoliyat turlariga investitsion va moliyaviy faoliyatlar kirishi mumkin. Bunday faoliyat turlari korxonani qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha qatorlariga kiradi.

Opreratsion faoliyatning ustuvorligi shundaki, bunday faoliyat to'liq mijozga yo'naltirilgan bo'ladi.

Operatsion faoliyat asosiy faoliyat yoki biznesga nisbatan, pul tushumlariga nisbatan eng ko'p ishlatiladigan tushuncha hisoblanadi.

Operatsion faoliyatning zamonaviy tahlilining muhim jihatlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

-ishlab chiqarish va biznes samaradorligini o'stirish istagining yuqoriligida;

-erkin qarorlar qabul qilish yuzasidan xo'jalik yuritish imkoniyatlarining kengligida;

-reja va dasturlarni doimiy korrektirovka qilish imkoniyatlari mavjudligida;

-boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ko'p variantli hisob-kitoblarni amalga oshirishda axborotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarining yuqoriligida;

-faoliyatni rivojlantirishda barcha ichki va tashqi omillarning hisobga olinishida;

-joriy va istiqbolli rejalashtirish funksiyalarining o'zgarishida;

-real erishilgan natijalarni boshqaruvning barcha bo'g'inlari bo'yicha baholash imkoniyatlarining mavjudligida;

-matematik usullardan va elektron hisoblash mashinalaridan foydalanish imkoniyatlarining kengligida;

-keng jamoaning boshqaruvga jalb etilishida;

-innovatsion jarayonlarni faoliyat va boshqaruvning barcha bo'g'inlarida qo'llash imkoniyatlarining mavjudligida;

-risklarni baholash va ularnri boshqarishda menejerlar rolining ortishida ko'rish mumkin.

Operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlari asosan tadbirkorlik subyektining asosiy daromad keltiruvchi faoliyatidan kelib chiqadi. Binobarin, ular asosan foyda yoki zararni aniqlashda ishtirok etadigan operatsiyalar yoki boshqa hodisalar natijasida kelib chiqadi.

Operatsion faoliyatda pul oqimlariga quyidagilar misol bo'ladi:

- tovarlarni sotish va xizmatlarni ko'rsatishdan kelib tushgan pul mablag'lari;

- royalti, xizmatlar haqi, komission to'lovlar va boshqa daromadlar ko'rinishida kelib tushgan pul mablag'lari;

- mol yetkazib beruvchilarga tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar;

- xodimlarga va xodimlar nomidan to'lovlar;

- sug'urta tashkilotining sug'urta polislari bo'yicha mukofotlari va talablari, annuitetlar va boshqa sug'urta to'lovlari bo'yicha pul tushumlari va pul to'lovlari;

- foyda solig'i bo'yicha to'lovlar hamda soliqlarning qaytarilishi, agar ular moliyaviy yoki investitsion faoliyat bilan aniq bog'liq bo'lmasa;

- vositachilik yoki oldi-sotdi maqsadlarida tuzilgan shartnomalar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari.

Operatsion faoliyat tahlili yuzasidan quyidagi axborotlarga tayaniladi:

- aylanma mablag'lar miqdori;
- resurslarni safarbar qilish yo'llari;
- moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanish usullari;
- sarf-xarajatlarni optimallashtirish;
- asbob-uskunalarni ijaraga olish yoki sotib olish;
- tovarlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan qiymat bilan sotish qiymati o'rtasidagi ijobiy farqlanish;
- sotish hajmi va rentabellikning o'sishi haqidagi ma'lumotlar.

3.4. Mahsulot (ish, xizmat)larning tarmoq va faoliyat tavsifi

Savdo korxonalari. Chakana va ulgurji savdo korxonalari boshqa korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish bilan shug'ullanadilar. Ular uchun aktivlarning muhim qismi tovarlar zaxirasi hisoblanadi. Shu sababli ham tahlilda muhim e'tibor tovarlar zaxirasining tarkibiga va dinamikasiga qaratiladi. Tovarlar zaxirasining aylanish darajasi va bir martalik aylanishga ketadigan vaqt ko'rsatkichlari ular faoliyatini baholashning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar qisqa va uzoq davriylikda o'rganiladi va uning o'zgarishlariga mos ravishda boshqaruv strategiyalari o'zgarib boradi. Naqd mablag'lar harakati savdo turiga va shakliga ko'ra o'zgarib turadi.

Aktivlarning aylanish davriyligi tavsifi

Faoliyat sikli	Naqdlik	Tovarlarni sotib olish qiymati	Tovarni qayta sotish qiymati	Foyda
1-davra	Naqd pul mablag'lari 50 mln sum	Tovarlarni sotib olish 50 mln sum	Naqd pullar kirimi 75 mln sum	+25 mln sum
2- davra	Naqd pul mablag'lari 75 mln sum	Tovarlarni sotib olish 75 mln sum	Naqd pullar kirimi 105 mln sum	+30 mln sum
3- davra	Naqd pul mablag'lari 105 mln sum	Tovarlarni sotib olish 105 mln sum	Naqd pullar kirimi 130 mln sum	+25 mln sum

4-davra	Naqd pul mablag'lari 130 mln sum	.....	.....	.....
5-davra	...	.....	.....	.....
.....	...	.....	.....	.....

Chakana savdoda tovarlar naqd pulga sotib olinadi. Shu sababli ham ularda debitorlik majburiyatlarining jami aktivlar tarikibidagi salmog'i unchalik yuqori bo'lmaydi. Ulgurji savdoda tovarlarni kreditga sotish hisobiga jami aktivlar tarkibida majburiyatlar summasi biroz yuqori summani tashkil etadi. Shu sababli ham analitiklar birinchi navbatda etiborni majburiyatlarning sifatiga va muddatiga qaratmog'i lozim. Shuningdek, savdo korxonalarida ish hajmiga ta'sir etuvchi muhim faktorlardan biri sifatida mavsumning o'zgarishiga tahlilda alohida ahamiyat qaratmoq lozim.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar. Xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda yangidan qiymat (mahsulot) yaratilmaydi. Xizmatlar omborda saqlanmaydi, zaxiralarning jami aktivlar tarikibidagi salmog'i uncha yuqori bo'lmaydi. Kompaniyalarda asosiy rolni intellektual kapital egallaydi. Bunday kompaniyalar tahlilida asosiy e'tibor, aylanma aktivlarning samaradorligiga qaratiladi.

Ishlab chiqarish korxonalari. Ishlab chiqarish korxonalari tarmoqning eng faol, yuqori potensialli, ko'p mehnat va xarajat talab qiladigan tarmoq bo'g'ini hisoblanadi. Ularga xos bo'lgan eng muhim jihatlar asosiy vositalar, tovar moddiy zaxiralar va tugallanmagan ishlab chiqarish aktivlari qiymatining juda yuqoriligi bilan xarakterlanadi.

Kommunal xizmatlar. Mazkur korxonalarda tahlilda eng muhim e'tibor an'anaviy hisoblangan to'lovga qobillik, likvidlik, aktivlar va xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichlarini baholash bilan farqlanadi. Kommunal xo'jalik korxonalari uchun eng muhim ta'sir birligi sifatida uzoq muddatli majburiyatlarning qoplanuvchanlik darajasi baholanadi. Kommunal xo'jalik korxonalari xarajatlarining qoplanishiga alohida

urg'u beriladi. Ularning moliyalashtirishdagi mavjud holat (o'z-o'zini moliyalashtirish, mahalliy va respublika byudjetidan, turli jamg'armalardan, fondlardan mablag' ajratish hisobiga) baholanadi. Debitorlik majburiyatlarining sifatliligi tahliliga alohida urg'u beriladi.

Gaz va neftni qayta ishlash korxonalari. Gaz va neftni qayta ishlash korxonalari moliyaviy hisobotlarida muhim element sifatida gaz va neft zaxiralarini qidirib topish va qazib chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish usullariga ahamiyat qaratiladi. Gaz va neftni qayta ishlash korxonalarida asosiy kapitalning miqdori jami aktivlar qatorida eng yuqori salmoqni tashkil etadi. Majburiyatlar summasi ham boshqa tarmoq kompaniyalariga nisbatan juda yuqori. Investitsion kapitalning samaradorligi va natijaviyligi muhim ko'rsatkich sifatida baholanadi.

Transport korxonalari. Transport tashkilotlari barcha bo'g'inlarda o'z ahamiyati va muhimligi bilan alohida o'rin tutadi. Transport tashkilotlarida muhim samaradorlik ko'rsatkichlari sifatida bir kilometr, bitta yo'lovchi, tonna yukga qilingan xarajatlar darajasi baholanadi.

Qishloq xo'jaligi. Qishloq xo'jaligi korxonalari aktivlari tarkibida eng muhim element bu yer hisoblanadi. Boshqa aktivlardan farqli ravishda yer amortizatsiya qilinmaydigan aktiv hisoblanadi. Shuningdek, aktivlar qatorida biologik aktivlar salmog'i ham yuqori ulushni tashkil etadi. Faoliyat samaradorligi va natijaviyligidagi dinamik o'zgarishlar (o'sish) qishloq xo'jaligi korxonalarini rivojlanishining muhim omili hisoblanadi.

Moliyaviy soha. Moliyaviy kompaniyalarda aktivlar tarkibida asosiy ulushni qimmatli qog'ozlarga, ko'chmas mulkka va boshqa instrumentlarga yo'naltirilgan qisqa va uzoq muddatli investitsiyalar hajmi tashkil etadi. Shu sababli birinchi navbatda ushbu investitsiyalarning sifatini baholashga.

Passivlar tarkibida eng yuqori ulushni albatta qarz mablag'lari tashkil etadi. Masalan banklar ushbu majburiyatlarning jami passivlar tarkibidagi salmog'i 90-95 foizga yetadi. Shu sababli, jalb qilingan qarz

mablag'larining qiymatiga, ularning qoplanishiga muhim ahamiyat beriladi.

Banklarning moliyaviy hisobotlari va ularning yuritilishi boshqa tarmoq korxonalaridan tubdan farq qiladi. Axborotlarni olinishi va ularda ma'lumotlarning ochib berilishi yuzasidan albatta farqli jihatlarni tarkiblash mumkin.

Banklar uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichi sifatida aktivlar rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichlari baholanadi.

3.5. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, xarajat va foyda aloqadorligini tahlili (CVP tahlil)

Tushum = doimiy xarajatlar + o'zgaruvchan xarajatlar + foyda

Tushum = doimiy xarajatlar + bir birlikka o'zgaruvchan xarajatlar * mahsulot miqdori + foyda.

CVP tahlil- xarajat, tushum va foyda aloqadorligini tahlilidir.

CVP tahlilning asosiy vazifalari:

- xarajatlarni to'liq qoplash imkonini beruvchi sotish hajmini – zararsizlik nuqtasini aniqlash;
- mahsulot ishlab chiqarish hajmining zararsizlik hajmini aniqlash;
- zarur bo'lgan foyda miqdoriga ega bo'lish yuzasidan sotish hajmini aniqlash;
- korxonaning raqobatdoshligini ta'minlovchi sotish hajmini baholash;
- rejalashtirilgan darajadagi talab va daromadni ta'minlashga imkon beradigan mahsulotlar narxini belgilash;
- eng samarali ishlab chiqarish texnologiyalarini tanlash;
- optimal ishlab chiqarish rejasini qabul qilishni amalga oshirish.

CVP tahlilida taxminlar:

- xarajatlarning o'zgaruvchan va o'zgarmas tarkibga bo'linishi;
- doimiy xarajatlar mahsulot hajmiga bog'liq bo'lmagan holda ma'lum darajaga qadar o'zgarishsiz qolishi;

- o'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga mos ravishda, proporsiallikda o'zgarib borishi;

- sotilgan mahsulotlar va ishlab chiqarish resurslarining doimiy narx birligi;

- mahsulot assortimentining doimiyligi;

- ishlab chiqarish va sotish hajmining tengligi;

- korxona faoliyat samaradorligi o'zgarishsiz qolishi taxmin qilinadi.

CVP tahlilning asosiy elementlari:

- kritik hajm;
- qoplash koeffitsiyenti;
- xavfsizlik normasi;
- sotish tarkibi;
- xarajatlar tarkibi;
- operatsion richag;
- moliyaviy richag samarasi.

CVP tahlilning axborot manbalari:

- buxgalteriya hisobi va hisoboti;
- boshqaruv hisobi va hisoboti;
- statistika hisobi va hisoboti ma'lumotlari;
- hisobdan tashqari ma'lumotlar.

Iqtisodiy aktivlar harakatida foydani shakllantirishning eng muhim omili bu ishlab chiqarish xarajatlari va ular tufayli erishilgan iqtisodiy samarani (mahsulot chiqishi) tijorat faoliyatidan pul va pul ekvivalentlari shaklida tushumlarning ortishi shaklida (sotish jarayoni) aktivlarning ko'payishi hisoblanadi. Bundan, foyda va unga daxldor bo'lgan daromadlar va xarajatlar bog'liqligi kelib chiqadi.

Foydaning to'planishi korxonaning qaysi sohaga mansubligiga bog'liq. Agar u ishlab chiqarish korxonasi bo'lsa foydaning asosiy manbai ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hisoblanadi. Agar u xizmat ko'rsatishga daxldor korxona bo'lsa, foydaning asosiy qismi xizmat ko'rsatish evaziga olingan tushumdan tashkil topadi va h.k. Shu

tufayli tahlil jarayonida qaysi soha o'rganilayotgan bo'lsa uning faoliyatidan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Biznesni harakatga keltiruvchi kuch faoliyatning (egaistik ko'rinishdagi harakatlar) yakunida erishiladigan foyda hisoblanadi. Shu sababli, foyda mulk shaklidan qat'i nazar barcha korxonalarning faoliyatini baholashning yagona ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Shuningdek, foyda bu – maqsadli harakatning rag'bati hamdir. Tijorat faoliyati va uning davomiyligi ko'pincha ushbu unsurning hajmiga, to'g'ri taqsimotiga va ishlatilishiga bog'liq. Foyda o'z-o'zidan iqtisodiy aktivlarni oldingi harakatlarining mutanosibligidan kelib chiqadi.

3.4-jadval

Foyda, tushum va aktiv hajmining o'sishidagi muvofiqlik

Foydaning o'sishi	Tushumning o'sishi	Aktivning o'sishi	%
F1/F0*100	ST1/ST0*100	A1/A2*100	100
O'sishning muvofiqligi			
F1/F0*100>ST1/ST0*100>A1/A2*100>100 yoki			
100<A1/A2*100< ST1/ST0*100< F1/F0*100			

Realizatsiya hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda ko'rsatkichlari uzviy bog'liqlikga ega. Realizatsiya hajmi orqali yalpi daromad, yalpi tushum ko'rsatkichiga ega bo'linadi. Uning ishlab chiqarish xarajatlari bilan taqqoslash asosida foyda, natija ko'rsatkichiga chiqiladi. Buni matematik ifodada quyidagicha tasvirlash mumkin.

F(D)=MSST-SMIChT(TSOQ) **(3.1)**

Bunda:

F(D)-foyda (daromad);

MSST-mahsulot sotishdan sof tushum;

SMIChT (TSOQ)-mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi (sotib olingan tovarlar qiymati).

Buxgalteriya hisobida mahsulot chiqishi, xarajat va natija aloqadorligini quyidagi bog'lanishda hisobga olish tartibi ham belgilanadi.

Sotish hajmi - Xarajatlar=Natija

Natijaviy ko'rsatkich demakki, sotish hajmiga yoki tovaroborot ko'rsatkichiga hamda, ishlab chiqarish xarajatlari yoki tovarlarni sotib olish qiymatiga bog'liq deb qaraladi. Uning birlik ifodasini esa quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$N=D*B-D*T \quad (3.2)$$

$$N=D*(B-T) \quad (3.3)$$

Bunda:

N-foyda;

B-mahsulot birligini bahosi (so'm);

D-mahsulot birligi (dona);

T-mahsulot birligini ishlab chiqarish tannarxi (so'm).

Yuqoridagi bog'lanishdan natijaviy ko'rsatkichni mahsulotning miqdori, bahosi va birlik tannarxiga bog'liq ekanligi kelib chiqadi. Uning ifodasi bevosita natijaviy ko'rsatkichni omilli tahlil etish imkonini ham beradi. Demak, natija o'zgarishiga hisob-kitob qilinadigan quyidagi omillar ta'sir etishini izohlash mumkin:

- ishlab chiqarilgan mahsulotlar birligini o'zgarishi;
- mahsulotlar birlik bahosining o'zgarishi;
- mahsulotlar birlik tannarxining o'zgarishi.

Marjinal foyda kontributsiyasiga nisbatan oladigan bo'lsak ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan, o'zgarmas xarajatlarga tarkiblanishi, bog'lanishni yanada murakkablashtiradi. Bunda ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishida mahsulot (ish, xizmat)lar hajmini o'zgarishi asos qilib olingan. Amaldagi tartib bo'yicha shartli o'zgaruvchan xarajatlar tarkibdan chiqarilgan. Ya'ni ishlab chiqarish

xarajatlari shartli o‘zgaruvchan va doimiy (o‘zgarmas) xarajatlarga tarkiblanadi.

Mahsulot sotish hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va natija aloqadorligini ko‘rsatkichlar tizimi

Daromad	Xarajat	Natija
1	2	3
Mahsulot sotishdan sof tushum (2500.0 m.s.)	Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi (2250.0 m.s.)	Mahsulot sotishdan yalpi foyda (250.0 m.s.)
	A)O‘zgaruvchan xarajatlar (2000.0 m.s.)	Marjinal foyda (500.0 s.m.)
	B)O‘zgarmas xarajatlar (250.0 m.s.)	Mahsulot sotishdan sof foyda (250 m.s.)
Operatsion faoliyatdan tushum (230.0 m.s)	Operatsion xarajat (335.0 m.s)	Operatsion faoliyatdan foyda (zarar) (-105 m.s.)

Jadval natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki; mahsulot sotishdan olingan sof tushum 2500.0 ming so‘mni va uning ishlab chiqarish tannarxi 2250.0 ming so‘mni tashkil etgan. Mahsulot sotishdan ko‘rilgan natija 250 ming so‘m ijobiy farqlanishga ega bo‘lgan.

Umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining ichida 2000.0 ming so‘mi o‘zgaruvchan xarajatlar, 250 ming so‘mi o‘zgarmas xarajatlar sifatida belgilangan. Bu orqali mahsulot sotishdan marjinal foyda va sof foyda ko‘rsatkichlari aniqlangan.

3.6. Mahsulot (ish, xizmat)larning kritik hajm darajasi va uning omilli tahlili

Firma va kompaniyalar faoliyat yuritayotganda turli kutilmagan hodisalarga duch keladi. Bu esa to‘g‘ri baholashni talab etadi. Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarishda uning qanday hajmi korxonaga zararsiz ishlash imkonini tug‘diradi yoki mahsulotning qaysi birligida

mahsulot sotishdan olinadigan tushum to'la o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarni qoplay oladi?

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini aniqlash yuzasidan 3 xil yondashuv mavjud:

Grafik usul (mahsulot ishlab chiqarish hajmini aniqlashning xarajat-tushum-foyda aloqadorligidagi kompleks grafigi tuziladi);

Tenglik usuli (Tushum-xarajat=foyda formulasidan iborat tenglikdan foydalaniladi);

Marjinal daromad usuli (sotishdan sof tushum-o'zgaruvchan xarajatlar=marjinal foyda-doimiy xarajatlar=yalpi foyda).

Ushbu vazifani bajarish uchun firma va kompaniyalarda mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi ko'rsatkichi aniqlanadi:

ST-O'X>DX

Boshqacha qilib aytganda, rentabellikka erishishning eng afzal quroli – bu o'zgaruvchan xarajatlarni minimallashtirish (kamaytirib borish)dir. Buning uchun rentabellikning chegaraviy nuqtasi, ya'ni "Zararsizlik nuqtasi"ni aniqlash zarur.

"Zararsizlik nuqtasi" deganda foyda va zarur zonalarini bir-biridan ajratib turadigan chegaraviy nuqta tushuniladi. Bu nuqta xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan, minimal oborot hajmini yoki minimal tushum hajmini ko'rsatadi. Bu nuqtaga erishish tufayli ishlab chiqarilgan (sotilgan) qandaydir minimal mahsulot hajmi bilan korxona xarajatlarini butunlay qoplashga erishish mumkin. Bu g'oya "marjinal foyda konsepsiyasi"ga asoslanadi. Uning formulasi quyidagicha:

Tushum – O'X = MF – DX = Foyda

Bu yerda,

MF- marjinal foyda

O'X- o'zgaruvchan xarajatlar, ya'ni:

- ijara haqi;
- doimiy maoshlar;
- reklama xarajatlari;
- kommunal xizmat xarajatlari;

• sug'urta xizmat xarajatlari;
• sug'urta badallari;
• soliqlar;
•amortizatsiya ajratmalari.

DX- doimiy xarajatlar, ya'ni:
• xomashyo va materiallar;
• ishbay ish haqlari;
• texnik xizmat ko'rsatish;
• mukofot summalari va h.k.

Har bitta korxona mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish rejasini tuzishda albatta kutiladigan foyda normasini hisoblashga va biznes samaradorligini baholashga ahamiyat berishadi. Foyda normasini belgilab olish, erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada murakkab masala hisoblanadi. Negaki uning hisob-kitobida turli tahlikalarni (risklarni) hisobga olishga to'g'ri keladi.

Foyda normasini hisoblashni murakkabligi shundaki, bunda resurslar, mahsulotlar bahosi, soliqlar, to'lovlar firma va kompaniyalar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda o'zgaruvchanlikka ega bo'ladi. Ularni hisob-kitob qilish imkoni tug'iladi qachonki aniq ko'rsatkichlar manbasiga ega bo'linsa. Bu manba inflyatsiyani ta'sir darajasi, baholarning o'zgarish holatlari, ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchanligi (mahsulot hajmi va resurslar bahosini o'zgarishi hisobiga) bo'lishi mumkin.

Kritik hajm darajasini aniqlashga quyidagi hollarda murojaat qilinadi:

- korxona yangi tashkil etilganda;
- ishlab chiqarish va marketing tadqiqotlari tahlilida;
- yangi mahsulot turini ishlab chiqarish yoki eski mahsulot turini rad qilish qarorini tayyorlashda;
- ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda;
- mahsulotlarni tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirishda.

Kritik hajm tahlilida javob tayyorlanadigan yo'nalishlar:
- xarajatlarni kamaytirish mumkinmi?
- sotish hajmi o'sadimi yoki kamayadimi?

- baho oshadimi yoki kamayadimi?
- doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar qanday bo'ladi?

Kritik hajm darajasi doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar summasi va mahsulotlarni sotish baholari orqali hisob-kitob qilinadi.

Sotishning tegishli hajmiga erishish uchun avvalo baho birligi belgilanishi lozim. Baho birligi belgilangandan keyin kritik hajm darajasi qaytadan hisob-kitob qilinadi. Agar olingan natija zararsizlik darajasini qanoatlantirmasa baho korrektirovka qilinadi va daraja hisob-kitobi qaytadan amalga oshiriladi. Marjinal foydaning ko'zda tutilgan darajasiga erishilmasa, mahsulot tannarxini kamaytirish choralari ko'riladi.

Tahlil yakunida yakuniy zararsizlik darajasi hisob-kitob qilinadi va davriy oraliqda korxonaning moliyaviy rejasi belgilab olinadi.

Kritik hajm darajasini tahlil etishning maqsadi – foyda olish imkoniyatini belgilashdan iborat. Agar korxonaning foydaga ishlash imkoniyatini aniq baholasak, ijobiy pul oqimlariga ega bo'lish imkoniyatlari ham bilinadi.

Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni qanday hisob-kitob qilish mumkin? Ushbu xarajatlar buxgalteriya hisobining mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlarini alohida, kalkulyatsiya moddalari bo'yicha o'rganish orqali bilib olinadi.

Xalqaro amaliyotda kritik hajm darajasini aniqlashda analitik tadbirlarning quyidagi metodikasi belgilangan.

1. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar tarkiblanadi.
2. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi belgilanadi

Ishlab chiqarish hajmiga muvofiq xarajatlarni klassifikatsiya qilish

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili	
	Doimiy	O'zgaruvchan	Doimiy	O'zgaruvchan
1. Material xarajatlar	4136	78581	5114	97173
2. Mehnat haqi xarajatlari	12859	115733	7684	145996
2.1. Vaqtbay ish haqi	12859	x	7684	x
2.2. Ishbay ish haqi	x	115733	x	145996

3.Ish haqidan ajratmalar	3372	30350	1953	37115
3.1. Vaqtbay ish haqidan	3372	x	1953	x
3.2. Ishbay ish haqidan	x	30350	x	37115
4. Amortizatsiya xarajatlari	8033	x	8730	x
5. Boshqa xarajatlar	22280		28736	
Jami:	50680	224664	52217	280284

Kritik hajm (zararsizlik) darajasini aniqlanishi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi
1. Jami ishlab chiqarish xarajatlari	275344	332501	57157
2. O'zgaruvchan xarajatlar	224664	280284	55620
3.Doimiy xarajatlar	50680	52217	1537
4. Sotish hajmi	342763	422275	79512
5. Xarajatlarning o'sish darajasi, %	80.33%	78.74%	-1.59%
6. O'zgaruvchan xarajatlarning o'sish darajasi %	65.54%	66.37%	0.83%
7. Doimiy xarajatlarning o'sish darajasi %	14.79%	12.37%	-2.42%
8. Sotishdan foyda	38560	43306	4746
9. Sotuv rentabelligi % (q.8:q.4 x 100)	11.25%	10.26%	-0.99%
10. Qoplash jamg'armasi (q.3+q.8)	89240	95523	57157
11. Qoplash jamg'armasi koeffitsiyenti(q.10:q.4)	0.26	0.23	-0.03
12. Zararsizlik nuqtasi (q.3:q.11)	194923.08	227030.43	32107
13. Moliyaviy mustahkamlik zaxirasi % (q.4:q.12 x 100-100)	75.85%	86%	10.15%
14. Operatsion richag		0.005	

Xulosa: korxonada moliyaviy mustahkamlik zaxirasi hisobot yilida 86 foizni tashkil etgan, o'tgan yilda ushbu daraja 75.85 foizga teng bo'lgan. Bundan ijobiy o'zgarishlar kuzatilganligini izohlash mumkin.

Nazariy jihatdan aytish mumkinki, hisobot yilida sotish hajmini 227030.43 ming so'mgacha kamaytirishi, o'tgan yil bo'yicha esa 194923.08 ming so'mgacha kamaytirishi mumkin, ushbu chegaraviylikda korxona zararsiz ishlashi mumkin. Ya'ni doimiy va

o‘zgaruvchan xarajatlar summasini qoplashga teng sotuv hajmiga erishiladi.

Agar korxona foyda hajmini 1 foizga o‘stirishi lozim bo‘lsa uning uchun sotish hajmini 0.005 foizga o‘stirishi talab etiladi.

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini aniqlash va uni tahlil etish, iqtisodiy harakatda va biznesda muhim masala hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich orqali kompaniya va firmalar mahsulot ishlab chiqarishning foydalilik darajasini belgilab oladilar. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini belgilash, uning hisob-kitoblari keng doirada olimlar tomonidan o‘rganilgan. Shu sababli uni aniqlashning turli ifodalari tavsiya etilgan.

Mahsulot ishlab chiqarishni kritik hajm darajasini hisoblashning quyidagi bog‘lanishli ifodasini berib o‘tish mumkin.

Yk=(S/P)*Yk+U

Bunda:

Yk-kritik hajm darajasidagi mahsulot hajmi;

U-jami o‘zgaruvchan xarajatlar;

S-mahsulot birligida o‘zgaruvchan xarajat;

P-mahsulot birligini bahosi.

Shuningdek, Kritik hajm darajasida mahsulot ishlab chiqarishni quyidagi ifodalar orqali aniqlash ham mumkin.

Qk=U/(P-S)

Qk= O‘x+Dx+o yoki

Qk= M* S +Dx+o

Belgilar izohi:

Qk-kritik hajm darajasidagi mahsulotni miqdoriy birligi;

O‘x-o‘zgaruvchan xarajat;

Dx-doimiy xarajat;

o-nol miqdordagi foyda;

M-mahsulot birligi;

R-mahsulot birligiga o‘zgaruvchan xarajat.

C+S+o=O‘zgaruvchan xarajatlar+O‘zgarmas xarajatlar+ foyda. Bunda foyda miqdori nolga teng deb olinadi. Ya’ni; ishlab chiqarish va savdo aylanmasidan olingan daromad to‘liq, barcha xarajatlarni qoplagan holda foydaga ega bo‘linmaydi.

t/r	Ko‘rsatkichlar	Ishlab chiqarish hajmi, 500 dona	
		jami	Mahsulot birligiga
1	Sotishdan sof tushum	375000	750
2	O‘zgaruvchan xarajatlar	250000	500
3	Marjinal foyda	125000	250
4	Doimiy xarajatlar	80000	
5	Sotishdan yalpi foyda	45000	

Zararsizlik nuqtasi, hajmini aniqlash uchun quyidagi bog‘lanishdan foydalaniladi:

750x=500x+80000+0;

250x = 80000;

x = 320

Bunda: x — zararsizlik hajmi;

750 * x = 750 * 320 = 240 000 mln so‘m

Zararsizlik nuqtasi (Q β) = Doimiy xarajatlar (TFC) / Marjinal foyda normasi (TSM β)

Marjinal foyda usulida kritik hajm darajasini aniqlash:

375 000 mln so‘m — 250 000 mln so‘m = 125 000 mln so‘m

Marjinal foyda koeffitsiyenti:

125 000 mln so‘m / 375 000 mln so‘m = 0,33.

Kritik hajm darajasining qiymat ifodasini aniqlash:

80 000 mln so‘m / 0,33 = 240 000 mln so‘m

Kritik hajm darajasining miqdor ifodasi:

240 000 mln so‘m / 750 ming so‘m = 320 sht.

Omilli tahlil.

Kritik hajm darajasidagi mahsulot hajmiga ta’sir etuvchi birliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mahsulot birligi bahosini o‘zgarishi;

- bir birlikka o‘zgaruvchan xarajatlarni o‘zgarishi:
- doimiy xarajatlarni o‘zgarishi.



3.1-chizma. Kritik hajm darajasini grafik shaklida ifoda etilishi

Ishlab chiqarish hajmi

Yakuniy ko‘rsatkichga ta’sir etuvchi omillarni quyidagi bog‘lanishlarda hisob-kitob qilish mumkin.

Kritik hajm darajasiga mahsulot birligiga o‘zgaruvchan xarajatlar ta’sirini hisob-kitobi;

$$Yk1=(Sx/Pr)*Ykr+Ur - (Sr/Pr)*Ykr+Ur \quad (3.13)$$

Kritik hajm darajasiga mahsulot bahosini o‘zgarishini ta’siri;

$$Yk2=(Sx/Px)*Ykr+Ur - Ykr1 \quad (3.14)$$

Kritik hajm darajasiga mahsulot hajmining o‘zgarishini ta’siri quyidagi bog‘lanish bilan aniqlanadi.

$$Yk3=(Sx/Px)*Ykx+Ur - Ykr2 \quad (3.15)$$

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik darajasi, zararsizlik yoki foydasizlik darajasidagi mahsulot hajmi, mahsulot ishlab chiqarishning zararsizlik nuqtasi deb ham yuritiladi.

Ushbu miqdorni aniqlashni aniq misollar asosida ko'rib chiqamiz:

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik darajasini aniqlash ko'rsatkichlari

	Ko'rsatkichlar	**Summasi**
1	Mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar	10000 sum
2	Doimiy xarajatlar	2000000 sum
3	Mahsulot birligining sotish bahosi	12000 sum
4	Kritik hajm darajasi	1000 dona

3.20-jadval davomi

Kritik hajm darajasining aniqlanishi usullari		
	Tomas Karlin formulasi bo'yicha Qk=U/(P-S)	
5.1.Miqdorda	2000000/(12000-10000)	1000 dona
6	**Prof. Sheremet A.D. formulasi bo'yicha Yk=U/1-(S/P)**	
6.1.Qiymatda	Yk –2000000/1-(10000/120000)	12048192 sum
6.2.Miqdorda	Yk- 12004801/12000	1000 dona
7	**Prof. Sheremet A.D.** Yk=Q*S+U	
7.1.Qiymatda	Yk=1000*10000+2000000	12000000 sum
7.2.Miqdorda	12000000/12000	1000 dona
8	**I.f.n.dots. Raximov M.Yu.** Yk=(S/P)*Yk+U	
Ifodaning o'zgarishi	Yk-(S/P)*Yk=U ushbu formula quyidagi ifodaga keladi ((1-(S/P))*Yk=U undan Yk quyidagi tartibda aniqlanadi Yk=U/(1-(S/P) bu ifoda Prof. Sheremet A.D. formulasi bo'yicha	

	Yk=U/1-(S/P) bilan bir xillikka ega	
8.1.Qiymatda	10000/12000* Yk+2000000 bundan Bundan Yk=2000000/1-10000/12000	12048192 sum
8.2.Miqdorda	12004801 sum/12000	1000 dona
9	**I.f.n.dots. Raximov M.Yu.** Yk=C+S+o	
9.1.Qiymatda	Yk=10000*1000+2000000+foyda nol darajada	12000000 sum
9.2.Miqdorda	Yk=12000000/12000	1000 dona
10	**Prof.Tomas P. Karlin** Yk=Qk*P	
10.1.Qiymatda	Yk=1000*12000	
10.2Miqdorda	Qk=2000000/(12000-10000)	
11	**I.f.n.dots. Raximov M.Yu.** Yk=U/(P-S)/ P	
11.1Qiymatda	Yk=2000000/(12000-10000)/12000	12048192 sum
11.2.Miqdorda	Yk=12004801 sum/12000	1000 dona

Korxonada mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini barcha jihatlarida natijaviy ko‘rsatkich bir xilda chiqqan. Demak korxonada 1000 birlik mahsulot ishlab chiqarish o‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlarni to‘liq qoplydi hamda 1001 mahsulot foydaga ishlashni boshlab beradi.

3.7. Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmini tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini kompleks tahlili ikki yo‘nalishda olib boriladi:

a) mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishini baholash;

b) bir necha yillar bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini tahlili.

Hisobot davridagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini reja ma’lumotlari bilan taqqoslash orqali rejaning bajarilishi, rejadan

farqlanishi mutloq summada, o'tgan yil bilan taqqoslash orqali esa mahsulot hajmini o'sish sur'ati aniqlanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazaviy bahodagi qiymati ming so'm						Reja bajarilishi, %		
	2015 y.		2016 y.		2017 y.		2015	2016	2017
	reja	xak	reja	xak	reja	xak			
Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ming so'm	260050	282792	420600	442606	502600	532036	108.7	105.2	105.8

Korxonada mahsulot ishlab chiqrish rejasi 2015 yilda 108.07 %ga, 2016 yilda 105.2 %ga, 2017 yil 105.8 % ga bajarilgan.

Kompleks iqtisodiy tahlilga oid ayrim manbalarda mahsulot hajmini o'sishi mahsulot hajmini indeksi deb ham ataladi. Bu ko'rsatkich korxonaning rivojlanish dinamikasini ifodalaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining dinamik tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazaviy bahoda qiymati			Mutlaq o'zgarishi (+,-)		
	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2016 y. 2015 yilga nisbatan	2017 y. 2016 yilga nisbatan	2017 y. 2015 yilga nisbatan
Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ming so'm	282792	442606	532036	+159814	+89430	+249244

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmining dinamik o'zgarishlari 2016-yil 2015-yilga nisbatan 159814 ming so'mga o'sgan, 2017-yil 2016-yilga nisbatan 89430 ming so'mga, 2017-yil 2015-yilga nisbatan 249244 ming so'mga ortgan.

Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmini o'rganishda solishtirma, ulgurji baholarda hamda joriy yilning amaldagi baholarida aniqlangan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Dinamikasini aniqlash uchun hisobot davrida

ishlab chiqarilgan haqiqiy mahsulot hajmi o'tgan yillardagisi bilan taqqoslanib ko'rsatkichlarni o'zgarishi mutloq va nisbiy (foiz)larda aniqlanishi lozim.

Faoliyatning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati hisoblanadi. Mahsulot sifatining oshishi o'z navbatida sotilgan mahsulot hajmining oshishiga va foydaning ko'payishiga, oqibatda rentabellik darajasining yuqori bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Mahsulot sifati navlar bo'yicha belgilanadigan mahsulotlarni ikki kategoriya bo'yicha tarkiblash mumkin:

- oliy sifat kategoriyasi;
- birinchi sifat kategoriyasi.

Mazkur sifat kategoriyalari orqali mahsulotning xalqaro va mamlakat standarti talablariga mosligi o'rganiladi.

Mahsulot sifatini oshirish realizatsiya jarayonini tezlashtiradi, mahsulotga bo'lgan talabni to'laroq qondiradi, tovar pul muomalasini tezlashtiradi, eksport imkoniyatlarini oshiradi.

Mahsulot sifati qator ko'rsatkichlar tizimi bilan baholanadi. Xarakterli xossalariga ko'ra belgilangan belgilangan me'yorlarga (xalqaro va mamlakat standartlariga mosligi), pishiqligi, puxtaligi, chidamliligi, va h.k. ko'rsatkichlari bilan farqlanadi.

Mahsulot sifatining tahlili

Ko'rsat-kichlar	Mahsulot birligini bahosi, so'm	Ishlab chiqarilgan mahsulot, (dona)		Reja-ning bajarili shi, %	Jami mahsulotdagi ulushi, (%)		Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati (ming so'm)	
		biznes rejada	haqi-qatda		biznes rejada	haqi-qatda	biznes rejada	haqi-qatda
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Oliy sifatdagi mahsulot	10000	5000	6000	120	45,4	43,0	50000	60000
Birinchi sifatdagim ahsulot	6000	10000	15000	150	54,6	57,0	60000	80000

Jami	**X**	**15000**	**21000**	**140**	**100,0**	**100,0**	**11000 0**	**140000**

1. O'rtacha nav (sort)lilik koeffitsiyenti:

rejada	haqiqatda
10000/(15000*10000/1000)=0,733	140000/(21000*10000/1000)=0,666

2. Mahsulot biriligining o'rtacha sotish bahosi

rejada	haqiqatda
110000/15000=7333 sum	140000/21000=6666 sum

Mahsulot sifatiga odatda quyidagi omillar ta'sir qiladi: foydalanilayotgan xomashyo va materiallar sifati; xodimlarning malakasi va texnik tayyorgarlik darajasi; ishlab chiqarishda ishtirok etadigan texnika va texnologiyani holati va uning progressivligi; ishchi va xodimlarning mahsulot sifatiga javobgarligi hamda ularning moddiy rag'batlantirilishi va hokazo.

Mahsulot ishlab chiqarishda eng muhim masala bu innovatsion, yangidan yaratilgan mahsulotlar hajmining, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilganligiga baho berishdan iboratdir.

Innovatsion mahsulot – yangi, takomillashtirilgan, texnologik o'zgarishlar tufayli yaratilgan mahsulotdir. Oldingi mahsulotlardan sezilarli yoki tubdan farq etuvchi mahsulotlardir.

Eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarning jami mahsulotlar tarkibidagi salmog'iga baho berish orqali korxonaning joriy va istiqboldagi taktik strategiyalari ishlab chiqiladi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotishni dinamik tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazaviy bahoda qiymati			Mutlaq o'zgarishi (+,-)		
	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2016 y. 2015 yilga nisbatan	2017 y. 2016 yilga nisbatan	2017 y. 2015 yilga nisbatan
Jami mahsulot hajmi, ming so'm	282792	442606	532036	+159814	+89430	+249244
Innovatsion	52300	85602	120400	+33302	+34798	+68100

mahsulot hajmi, ming so'm						
Innovatsion mahsulotlar soni	3	5	8	+2	+3	+5
Innovatsion mahsulotlarning jami mahsulot tarkibidagi salmog'i,%	18.4	19.3	22.6	+0.9	+3.3	+4.2

Korxonada innovatsion mahsulotlarning hajmi 2016-yilda 2015-yilga qiyosan 33302.0 ming so'mga, 2017-yil 2016-yilga qiyosan 34798 ming so'mga, 2017-yil 2015-yilga qiyosan 68100 ming so'mga ortgan. Shu bilan birga jami mahsulotlar tarkibida innovatsion mahsulotlar hajmi 2015-yilda 18.4 %ni, 2016-yilda 19.3 %ni, 2017-yilda 22.6 % ni tashkil etganligini ijobiy baholash mumkin. Innovatsion mahsulotlarning soni ham mos ravishda 2, 3 va 5 taga ko'paygan.

3.8. Mahsulot assortimentini boshqarish va ishlab chiqarish maromiyligi tahlili

Korxonalar faoliyatida bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish hollarini juda kam hollardagina uchratish mumkin. Hattoki bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda ham ularning turli assortimentlari tarkiblanadi.

Mahsulotlarning turlari bo'yicha reja bajarilishining tahlili bilan bir qatorda assortimenti tahlilini ham amalga oshirish zarur.

Mahsulot, ish va xizmatlarning turi va assortimenti tahlilida ularning segmentlar bo'yicha taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan, profildagi va profilda bo'lmagan turlari, asosiy va qo'shimcha mahsulotlar turlari bo'yicha turkumlanishi o'rganiladi. Ular bo'yicha reja topshiriqlarining bajarilishi, umumiy reja topshiriqlarining bajarilishida ularning ta'siri, mahsulotlar tuzilishidagi tarkibiy o'zgarishlarga baho beriladi.

Mahsulotlar nomenklaturasi – deb, miqdor holida tovarlar guruhlari, kichik guruhlari va pozitsiyalarini belgilashda hamda hisobga olishda qabul qilingan ro'yxatidir.

Tovar (ish, xizmat)lar assortimenti – deb esa, mahsulotlarning ma'lum bir belgilariga qarab, ya'ni, uning turlari, navi, o'lchami, markasi, artikullariga qarab ajratiladigan mahsulotlar xilidir.

Tovarlar nomenklaturasi va assortimentini o'rganishda o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi tahlil etiladi.

Assortiment rejasining bajarilishi tahlili (qiymat ifodasida)

	Mahsulot turlari	Rejada	Haqiqatda	Assortimentga qabul qilingan mahsulot hajmi	Assortiment bo'yicha reja bajarilishi, %	Umumiy reja bajarilishi, %
1	A	12000	15000	12000	100	125
2	B	25000	30000	25000	100	120
3	S	10000	9000	9000	90	90
4	D	40000	35000	35000	87.5	87.5
5	**Jami**	**87000**	**89000**	**71000**	**81.6**	**103**

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish rejasi ortig'i bilan, ya'ni 103 foizga bajarilgan. Ammo ayrim tur mahsulotlar bo'yicha reja bajarilishi buzilgan. Buning natijasida assortiment rejasi bor yo'g'i 81.6 foizga bajarilgan. Bunga "S" va "D" mahsulotlar turi bo'yicha rejada belgilangan ko'rsatkichlarning bajarilmasligi sabab bo'lgan. Ahamiyatli jihati shundaki, assortiment bo'yicha reja bajarilishida ayrim tur mahsulotlar bo'yicha rejaning ortig'i bilan bajarilishi boshqa tur mahsulotlar bo'yicha reja topshiriqlarini bajarilmasligini qoplamaydi.

Mahsulot turlari bo'yicha rejaning bajarilishi har xil darajada bo'lishi strukturani o'zgarishidan dalolat beradi. Struktura bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi uchun haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha xillari rejalashtirilgan mahsulot tarkibi va tuzilishiga teng kelishi kerak. Ishlab chiqarilgan mahsulot strukturasining o'zgarishi firmaning barcha iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir etadi. Mahsulot ishlab chiqarish tarkibida qimmatbaho mahsulot

turlari ulushini ortishi tufayli mahsulot qiymat shaklida ortadi va buning aksicha bo'lsa, qiymat shaklida mahsulot kamayadi. Xuddi shunday yuqori rentabellikka ega bo'lgan mahsulot turlarini ortishi, rentabelligi past turlarini pasayishi tufayli umumiy foyda miqdori ortadi.

Mahsulot assortimentini ishlab chiqarish maromiyligi bilan kompleks o'rganish operatsion faoliyatga to'liq baho berishga, o'zgarishlarni makon va zamonda aniq tasniflash imkonini beradi. Shu sababli, assortiment rejaining bajarilishi bilan bir qatorda ularni ishlab chiqarishng maromiyligiga ham baho beriladi.

Ayrim korxonalar yillik, kvartal, oylik rejalarini ortig'i bilan bajarishi, ammo, ishlab chiqarishni bir maromda tashkil eta olmaslik natijasida erishilgan samara va natijaviylik ko'zda tutilgan yoki rejalashtirilgan yutuqni ta'minlay olmaydi. Shu bilan birga mahsulot ishlab chiqarishdagi maromiylikni buzilishi shartnoma majburiyatlarini barbod bo'lishiga, uning oqibatida jarimalar to'lanilishiga, moliyaviy ahvolning qiyinlashishiga ham olib keladi.

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining tahlili (ming so'mda)

O'n kunliklar	Hisobot yili		Maromiylik hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot	Reja bajarilishi, %	Maromiylik hisobiga reja bajarilishi, %
	Biznes rejada	Haqiqatda			
1	2	3	4	5	6
1- chorak	25000	15000	15000	60	60
2- chorak	25000	20000	20000	80	80
3 chorak	25000	30000	25000	120	100
4-chorak	25000	40000	25000	160	100
Jami	**100000**	**105000**	**85000**	**105**	**85**

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini ta'minlash yuzasidan yilning 4 ta choragi bo'yicha bir xilda belgilangan. Lekin amalda, birinchi chorakda 10000 mln so'mlik (15000-25000), 2-

chorakda -5000 mln so‘mlik (20000-25000) mahsulot kam ishlab chiqarilgan. Uchinchi va to‘rtinchi choraklarda mahsulot ishlab chiqarish rejasi ortig‘i bilan bajarilgan. Maromiylik hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 85000 mln so‘mni, maromiylik rejasining bajarilishi 85 foizga bajarilgan.

3.9. Sotish hajmini tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish uzviyligi, davomiyligi ta’minlanadi qachonki ularni sotish to‘liq ta’minlansa yoki to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa. Ishlab chiqarish murakkab jarayon-lekin sotish undanda murakkab jarayon. Shu sababli tahlilda, mahsulot, ish va xizmatlarni sotish hajmini o‘rganishga alohida ahamiyat qaratiladi.

Ishlab chiqarilgan va tayyor mahsulotlar qatoriga kiritilgan aktivlarni sotish xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlarni asosiy manbasi hisoblanadi.

Mahsulot, ish va xizmatlarni sotilganlar qatoriga kiritishning quyidagi shartlariga amal etiladi:

- korxona tovarlarga egalik qilishning xatarlari va afzalliklarining ancha qismini xaridorga topshirgan bo‘lishi;
- daromad miqdori ishonchli darajada baholangan bo‘lishi;
- iqtisodiy naf kelajakda olinishi;
- bitim bilan bog‘liq, qabul qilingan yoki kutilayotgan xarajatlar, ishonchli va aniq o‘lchangan bo‘lishi lozim[26].

Yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga mahsulotlarni sotish faqat naqd pulsiz hisob-kitob bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin. Ishlab chiqarish joylarida tashkil qilingan yoki turg‘un savdo shaxobchalarida, o‘zining savdo do‘konlari orqali mahsulotlarni chakana sotish faqat nazorat-kassa mashinalari va to‘lov terminallaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

[26] (2-сон БҲМС “Асосий хўжалик фаолиятидан олинадиган даромадлар”, ЎзР АВ томонидан 1998 йил 26 августда 483-сон билан рўйхатга олинган).

Korxonalar aniq talablarga rioya qilgan holda tovar va mahsulotlarni topshirishi (yuklab jo'natishi), hamda ishni bajarish va xizmat ko'rsatishni amalga oshirishlari mumkin. Korxonalar tomonidan mahsulot va tovarlarni yuklab jo'natish, shuningdek, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish faqat xaridor va buyurtmachilardan 15 foizdan kam bo'lmagan miqdorda bo'nak to'lovlari mavjudligidagina amalga oshirilishi mumkin[27].

Mahsulot, ish xizmatlarni sotishni tahlil etish orqali nafaqat muammolarni aniqlash balki ularni hal qilish imkoni ham tug'iladi. Sotishni tahlili oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- rahbariyatning samarali boshqaruvi (taktik va strategik) qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash;
- savdoda daromad keltiruvchi tovarlar (ularning turi va tarkibini kengaytirish), yo'qotishlarga olib kelayotgan tovarlarni (ularni ishlab chiqarishni qisqartirish va to'xtatish) aniqlash;
- korxona (marketing, sotish) bo'limlari faoliyat samaradorligini baholash;
- bozorni segmentlarga mos ravishda ajratish;
- oqilona marketing siyosatini yuritish.

Agar tahlil obyekti bo'yicha bitta hal qilinmagan muammo mavjud bo'lsa siz albatta savdoni tahlil qilishingiz lozim.

Tahlil etishda sotilgan mahsulot hajmining umumiy o'zgarishlariga, dinamikasiga, sotilgan mahsulotlar tarkibiga, sotish hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga, eksport hajmiga muhim ahamiyat beriladi.

[27] ЎзР. Президентининг 1995 йил 12 майдаги "Халк хўжалигида ҳисоб-китоблар ўз вақтида ўтказилиши учун корхона ва ташкилотлар раҳбарларининг масъулиятини ошириш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-1154-сон қарори

Sotish hajmining tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazaviy bahoda qiymati			Mutlaq o'zgarishi (+,-)		
	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2016 y. 2015 yilga nisbatan	2017 y. 2016 yilga nisbatan	2017 y. 2015 yilga nisbatan
Tovar mahsulotining davr boshiga qoldigi,mln so'm	25640	20600	84500	+4960	+63900	+58860
Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, mln so'm	282792	442606	532036	+159814	+89430	+249244
Tovar mahsulotning davr oxiriga qoldigi, mln so'm	20600	84500	124702	+63900	+40202	+104102
Sotilgan mahsulot hajmi	308432	378706	491834	+70274	+113128	183402

Sotish tahlilida sotilgan mahsulot, ish va xizmatlar yuzasidan shartnoma majburiyatlarining bajarilishiga a'lohida urg'u beriladi. Bu bevosita shartmonaviy munosabatlarni, to'lovlarni qonunchilik normalariga mosligini ta'minlashga, turli yo'qotishlarni oldini olishga imkon beradi.

Shartnoma majburiyatlarining bajarilishi tahlili

Ko'rsatkichlar	Biznes reja bo'yicha	Haqiqatda
1	2	3
1. Sotilgan mahsulot hajmi, ming so'mda	480600	491834
2. Shartnomaviy majburiyatlarga nisbatan yetkazib berilmagan mahsulot hajmi, ming so'mda	x	22600
3.Rejadan ortiqcha sotilgan mahsulot hajmi, mln so'm		11234
4.Sotish rejasining bajarilishi, %	x	102.3
5. Shartnomaviy majburiyatlarni hisobga olgan	x	469234

holda mahsulot sotish hajmi, ming so'mda		
6. Shartnomaviy majburiyatlarni hisobga olgan holdagi mahsulot sotish rejasining bajarilishi, %	x	97.6

Korxona sotish rejasi 102.3 foizga ortig'i bilan bajarilgan. Qiymat ifodasida 11234 miln so'm ko'p mahsulot sotilgan. Lekin shartnoma majburiyatlari bo'yicha yetkazib berilgan mahsulotlar hajmi 469234 mln so'mni tashkil etgan. Bu esa shartnoma majburiyatlarini hisobga olgan holda sotish rejasining 97.6 foizga bajarilishiga olib kelgan.

3.10. Korxona operatsion faoliyati samaradorligini (mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, innovatsion mahsulot, eksport hajmi ko'rsatkichlarini) baholash.

Tahlil etishda eng murakkab jarayon bu operatsion faoliyat samaradorligini baholash masalasidir. Operatsion faoliyat samaradorligida resurslardan qay darajada foydalanish darajasiga baho beriladi.

Opreatsion faoliyat samaradorligi xomashyo va materiallarni ishlab chiqarishga yetkazib berish, raqobatchilarning sarfidan kam bo'lgan chiqimlar hisobiga mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularni sotish afzalliklariga egaligi bilan tavsiflanadi.

Operatsion faoliyat samaradorlikning umumiy ko'rsatkichi sotishdan tushumni sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxiga bo'lish asosida topiladi:

Ko=St/Mt

St–sotishdan sof tushum;

Mt –sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi.

Operatsion faoliyat samaradorligi baholashda birlik ko'rsatkichlar sifatida mahsulot ishlab chiqarishda qatnashuvchi, kelgusida iqtisodiy

naf keltiruvchi aktivlar (moddiy, nomoddiy, intellektual mulk)ning, mehnatning samaradorlik ko'rsatkichlari olinadi.

Operatsion faoliyat samaradorligini baholashda:

- moddiy resurslar sarfi (samarasi)ga
- mehnat sarfi (unumdorligi)ga;
- mehnat vositalari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishi (samarasi)ga;
- innovatsion mahsulotga (raqobatdoshligi);
- eksport qilingan mahsulot hajmiga alohida ahamiyat qaratiladi (eksport salohiyatiga);

Moddiy resurslar va ulardan samarali foydalanishni tahlili

Ko'rsatkichlar	Yillar			Mutlaq o'zgarishi (+,-)		
	2015	2016	2017	**2016 y. 2015 yilga nisbatan**	**2017 y. 2016 yilga nisbatan**	**2017 y. 2015 yilga nisbatan**
Mahsulot hajmi, mln so'm	241950	358353	718470	116403	360117	476520
Mahsulot sotishdan sof tushum, mln so'm						
Yalpi foyda, mln so'm	26145	21333	31632	-4812	10299	5487
Moddiy resurslar qiymati, mln so'm	35529	46101	56454	10572	10353	20925
Moddiy resurslar qaytimi, mln so'm	6,81	7,77	12,73	0,96	4,95	5,92
Moddiy	0,15	0,13	0,08	-0,02	-0,05	-0,07

resurslar sig'imi						
Moddiy resurslar aylanish davri, kun	52.86	46.33	28.27	-6.53	-18.6	-24.29
Moddiy resurslar rentabelligi, %	73,59	46,27	56,03	-27,31	9,76	-17,56

Xulosa: korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2017-yilda 2016-yilga nisbatan 360117 ming so'mga, 2015-yilga nisbatan 476520 ming so'mga ortgan. O'z navbatida 2017-yildagi moddiy resurslar qiymati 2016-yilga nisbatan 10299 ming so'mga, 2015-yilga nisbatan 5487 ming so'mga ortgan.

Moddiy resurslar sig'imining eng quyi natijasi 2017-yilda kuzatilgan.

Moddiy resurslar rentabelligi bo'yicha natijaviylik esa aksincha bo'lgan. Eng yuqori natijaga 2015-yilda erishilgan.

Mehnat resurslari va unumdorlik tahlili

Ko'rsatkichlar	Yillar			Mutlaq o'zgarishi, (+,-)			O'sish darajasi, %		
	2015	2016	2017	2016 y. 2015y.ga nisbatan	2017 y. 2016 yilga nisbatan	2017 y. 2015 yilga nisbatan	2016 y. 2015y.ga nisbatan	2017 y. 2016 yilga nisbatan	2017 y. 2015 yilga nisbatan
Mahsulot sotishdan tushum, mln so'm	241950	358353	718470	116403	360117	476520	48,11	100,49	196,95
Xodimlarning o'rtacha ro'yxat soni, kishi	1293	1381	1364	88	-17	71	6,81	-1,23	5,49
Ishchilarning o'rtacha ro'yxat soni, kishi	750	731	748	-19	17	-2	-2,53	2,33	-0,27
Ishchilarni xodimlar tarkibidagi salmog'i, koeffitsiyenti	0,580	0,529	0,548	-0,051	0,019	-0,032	-8,74	3,61	-5,45

Ish vaqti fondi, kun	251	251	251	0	0	0	0	0	0
Ish kuni davomiyligi, soat	7,213	7,005	6,904	-0,208	-0,101	-0,309	-3,27	-1,06	-4,29
Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmi, ming so'm	187,12	259,49	526,74	72,37	267,25	335,61	38,67	102,99	181,49
Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmi, ming so'm	322,60	490,22	960,52	167,62	470,30	637,92	51,96	95,94	197,74
O'rtacha bir kunlik mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so'm	1285,26	1953,08	3826,78	667,82	1873,70	2541,52	51,96	95,94	197,74
O'rtacha bir soatlik mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so'm	178,18	278,79	554,27	100,61	275,48	376,10	56,47	98,81	211,08

Xulosa: korxonada mehnat resurslari va ularning unumdorligi tahlili yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- mehnat resurslarining eng yuqori ko'rsatkichi 2016-yilga to'g'ri kelgan ushbu davrda korxonada 1381 kishi faoliyat yuritgan;

- ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni 2015-yilda eng yuqori bo'lgan (750 kishi);

- ishchilarning xodimlar tarkibidagi salmog'i ham mos ravishda 2015-yilda eng yuqori bo'lgan;

- ishlangan ish kuni davomiyligining eng quyi birligi 2017-yilda kuzatilgan (6.904 soat);

- bir xodimga, bir ishchiga, o'rtacha bir kunlik va o'rtacha bir soatlik mehnat unumi ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori samaraga 2017-yilda erishilgan (526.74 ming so'm, 960.52ming so'm, 3826.78 ming so'm, 554.27 ming so'm).

Mehnat vositalari va ulardan samarali foydalanishni tahlili

Ko'rsatkichlar	Yillar			Mutlaq o'zgarishi (+,-)		
	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2016 yil 2015 yilga nisbatan	2017 yil 2016 yilga nisbatan	2017 yil 2015 yilga nisbatan
Mahsulot hajmi, mln so'm	241950	358353	718470	116403	360117	476520
Mahsulot sotishdan sof tushum, mln so'm						
Yalpi foyda, mln so'm	26145	21333	31632	-4812	10299	5487
Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, mln so'm	35529	46101	56454	10572	10353	20925
Aktiv asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, mln so'm	18993	28761	41109	9768	12348	22116
Jami asosiy vositalarning fond qaytimi, ming so'm	6,81	7,77	12,73	0,96	4,95	5,92
Aktiv asosiy vositalarning fond qaytimi, ming so'm	12,74	12,46	17,48	-0,28	5,02	4,74
Jami asosiy vositalarning fond sig'imi, ming so'm	0,15	0,13	0,08	-0,02	-0,05	-0,07
Asosiy vositalar rentabelligi, %	73,59	46,27	56,03	-27,31	9,76	-17,56

Xulosa: korxonada asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanishi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi, yalpi foyda, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati yillar kesimida keskin ortib borgan.

- asosiy vositalarning qaytimi bo'yicha eng yuqori, asosiy vositalar sig'imi bo'yicha eng quyi natija 2017-yilda kuzatilgan

- asosiy vositalarning rentabelligi bo'yicha eng quyi natija aksincha 2015-yilda kuzatilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki asosiy vositalarning samaradorligi bo'yicha o'sish kuzatilgan ularning natijaviyligi, rentabelligi bo'yicha pasayish kuzatilgan. Foydaga ishlash ko'proq tashqi omillar ta'siriga bog'langanligi sababli korxona bu borada o'zining narx siyosatini,

marketing faoliyatini qayta ko'rib chiqishi va bu bo'yicha omilkorligini oshirish talab etiladi.

3.11. Operatsion leveridj tahlili

Har bir korxona tashkil topganidan keyin, foyda olish maqsadida, albatta moliyalashtirish bilan shug'ullanadi. Foydani ko'paytirishga yo'naltirilgan aktivlarni boshqarish jarayoni moliyaviy menejmentda leveridj kategoriyasi bilan harakatlanadi.

Leveridj bu – tom ma'noda og'ir narsalarni o'zgartira oladigan ma'lum bir kuch (yelka) bo'lib, uning yordamida nisbatan og'ir yuklarni joyida ko'chirish mumkin. Iqtisodiyotga tatbiq qilganda u uncha katta bo'lmagan o'zgarish natijaviy ko'rsatkichning sezilarli darajada o'zgarishiga olib keluvchi omil sifatida qaraladi.

Mahsulot tannarxining asosiy elementlari bu doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar hisoblanadi. Bunda ular orasidagi farq har xil bo'lishi mumkin. Bu farq korxonaning texnika va texnologiya siyosati bilan bevosita bog'liqdir. Mahsulot tannarxining o'zgarishi umumiy sof daromadni o'zgartirishga olib keladi. Asosiy vositalarni moliyalashtirish, doimiy harakatlarni o'sishiga va o'zgaruvchan xarajatlarni kamayishiga olib keladi. Biroq bu o'zgaruvchanlik to'g'ri chiziq orqali ifodalanmaydi. Shuning uchun ham doimiy va o'zgaruvchan harakatlarning optimal nuqtasini talab etiladi. Ushbu bog'lanish ishlab chiqarish leveridjini tashkil etadi.

Operatsion leveridj – bu mahsulot tannarxi va ishlab chiqarish hajmini tuzilmalarini o'zgarishi natijasida yalpi foydaga ta'sir ko'rsatishning potensial imkoniyatidir.

Operatsion leveridj ko'pincha ishlab chiqarish leveridji deb ham yuritiladi.

Qiymat bo'yicha operatsion leveridj quyidagi formula orqali hisob kitob-qilinadi:

$$Or=V/P;$$

$$Or=(F+Xo'+Xd)/F=1+Xo'/F+Xd/F.$$

Bu yerda: Or-operatsion richag;
F-sotishdan foyda;
Xo'-o'zgaruvchan xarajat;
Xd-doimiy xarajat.
Natura shaklidagi operatsion richag quyidagi bog'lanishda topiladi:

Or=T-Xo'/F.

Operatsion richag

Ko'rsatkichlar	Belgi	Summa, mln so'm
Sotishdan tushum	T	60000
Sotishdan foyda	F	5000
O'zgaruvchan xarajatlar	Xo'	30000
Doimiy xarajatlar	Xd	25000
Operatsion richag /qiymat/	Orq	12.0
Operatsion richag/natura/	Orn	6

Xulosa: korxonada operatsion leveridj qiymati 12 ming so'mni natura bo'yicha 6 ming birlikni tashkil etgan.

3.12. Operatsion risklar va ularni boshqarish

Yuqori darajadagi ishlab chiqarish leveridjga ega bo'lgan korxona uchun ishlab chiqarish hajmini sezilarsiz o'zgarishi, umumiy foydani sezilarli o'zgarishiga olib keladi. Bu ko'rsatkich korxona uchun doimiy hisoblanmaydi va u korxona sotish hajmining zaxira miqdori bilan bog'liqdir. Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi kritik sotish hajmining sezilarsiz ko'tarilishidan kelib chiqsa, bu ko'rsatkich katta ahamiyatga egadir. Bu holatda, sotish hajmining sezilarsiz o'zgarishi ham umumiy foydani o'zgarishiga olib keladi, bunga sabab, umumiy foydaning zaxira (базавое) ahamiyati, bu holatda «0»ga yaqin.

Ishlab chiqarish leveridji faqatgina bir xil ishlab chiqarishning

zaxiraviy darajasiga ega bo'lgan korxona uchun ahamiyatlidir. Bu ko'rsatkichning ko'proq ahamiyati yuqori texnika-texnologiya bilan qurollangan korxonalar uchun xarakterlidir. Aniqroq qilib aytganda, korxonaning o'zgaruvchan xarajatlariga qaraganda qanchalik doimiy xarajatlarning yuqori bo'lishi, ishlab chiqarish leveridjining yuqoriligidan dalolat beradi. Shunday qilib, o'zgaruvchan xarajatlarni kamaytirish maqsadida o'zining texnika-texnologiya bilan qurollanganlik darajasini yaxshilashda, korxona o'z navbatida o'zining ishlab chiqarish leveridjini o'sishiga olib keladi. Yuqori darajadagi tijoriy leveridjga ega bo'lgan korxona ishlab chiqarish tavakkalchilik nuqtayi nazaridan ko'proq tavakkalchilikka (riskka) ega bo'ladi. Bu risk-umumiy foydani to'liq ola olmaslikni ifodalaydi.

Biznesni boshqarish bu risklarni boshqarish demakdir. Har bitta korxonani boshqarish turlicha bo'lganligi va bir-biriga o'xshamasligi sababli korxonada risklarni boshqarish ham bir-biridan tubdan tubdan farq qiladi. Shu sababli, bugungi kunda risklarni aniqlash va ularni boshqarish yuzasidan aniq metodika ishlab chiqilmagan va u har bitta korxonaning faoliyat, boshqaruv funksiyalari ijrosidan kelib chiqqan holda u yoki bu darajada yuritilmoqda.

Risklarni modellashtirish yuzasidan turli modellari ishlab chiqilgan. Ularning tarixiy qiymatga bog'langan, statistik tahlil, tajriba modellarini tarkiblash mumkin.

Operatsion risklarni boshqarish yuzasidan quyidagi usullardan foydalaniladi:

- operatsion risklar bo'yicha axborotlarni yig'ish va tahlil qilish;
- risklarning muhim indikatorlari monitoringi;
- baholash;
- biznes jarayonlar reglamenti;
- qonunchilik normalariga amal etilishi nazorati;
- informatsion texnologiyalarning risk nazorati;
- xodimlarni o'qitish, rag'batlantirish va motivlashni tako-millashtirish;
- biznes jarayonlarni avtomatlashtirish;

- operatsion risklar bo'yicha ichki hisobotni tartibi;
- faoliyat uzluksizligini ta'minlash rejalarini tuzib chiqish;
- operatsion risklar sug'urtasi;
- alohida funksiyalarning autsorsingi.

Nazorat uchun savollar

Korxona faoliyatining turlari va ularning farqlanishi.

Operatsion faoliyat tushunchasi va uning mazmuni.

Operatsion faoliyat tahlili mazmuni.

Operatsion faoliyat tahlili vazifalari.

Operatsion faoliyatning tahlilining o'ziga xos xususiyatlari.

Operatsion faoliyat tahlili va uning muhim jihatlari.

Investitsion va moliyaviy faoliyat turlarining farqlanishi.

Mahsulot (ish, xizmat)larning tarmoq va faoliyat tavsifi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, xarajat va foyda aloqadorligini tahlili (CVP tahlil).

Mahsulot (ish, xizmat)larning kritik hajm darajasi

Kritik hajm darajasi va uning omilli tahlili.

Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmini tahlili.

Mahsulot assortimentini tahlili.

Ishlab chiqarish maromiyligini tahlili.

Sotish hajmini tahlili.

Sotishning turlari va shakli bo'yicha tahlili.

Korxona operatsion faoliyati samaradorligi tahlili.

Mehnat unumdorligi tahlili

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni tahlili.

Innovatsion ishlab chiqarish va innovatsion mahsulot tahlili.

Innovatsion faoliyat tahlili.

Eksport import hajmini tahlili

Operatsion leveridj tahlili.

Operatsion risklar va ularni boshqarish.

b) boshqarish xarajatlari (ma'muriy sarf-xarajatlar);

v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

3. Xo'jalik yurituvchi subyektning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlari:

a) foizlar bo'yicha xarajatlar;

b) xorijiy valyuta bilan operatsiya bo'yicha salbiy kurs tafovutlari;

v) qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;

g) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

4. Favqulodda zararlar, u foydadan olinadigan soliq to'langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:

1. Ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

3. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

4. Asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

5. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

1. Moddiy xarajatlar xarajatlarning eng muhim va asosiy qatori hisoblanadi. Ularning jami xarajatlar tarkibidagi salmog'i ishlab chiqarish, faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqadi. Sanoat bo'g'inida moddiy xarajatlar salmog'i 60-70 foizgacha tashkil etadi.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy xarajatlar tarkibiga quyidagi xarajatlar kiritiladi.

Moddiy xarajatlar tarkibi

a)	Ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko‘rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar.
b)	Normal texnologiya jarayonini ta’minlash va mahsulotlarni o‘rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o‘tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan xarid qilinadigan materiallar, shuningdek, asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, inventarlarning, xo‘jalik buyumlarini va asosiy vositalarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarini qiymati
c)	Sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektda montaj qilinadigan yoki qo‘shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar
d)	Tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektning ichki tarkibiy bo‘linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo‘lmagan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ishlar va xizmatlar
e)	Tabiiy xomashyo (yer rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to‘lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to‘lash, korxonalar tomonidan suv xo‘jaligi tizimlaridan beriladigan iste’mol qilinadigan suv uchun haq to‘lash. Sanoatning xomashyo tarmoqlari uchun — yog‘och, taxta materiallaridan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash xarajatlari
f)	Texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg‘ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha transport ishlari
g)	Xo‘jalik yurituvchi subyektning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo‘jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya. (Xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasiga va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek, xarid qilinadigan energiyani iste’mol joyigacha transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi)
h)	Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning yaroqsizlanishi va kam chiqishi
i)	Xo‘jalik yurituvchi subyektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog‘liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham

	shu jumlaga kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to‘lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar)
j)	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi
k)	Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati, idish va o‘rash-joylash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo‘yicha chiqarib tashlanadi
l)	«Moddiy xarajatlar» elementi bo‘yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan barter bitishuvlarida, qo‘shimcha narx (ustama)dan, ta’minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to‘lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig‘imlardan, soliqlardan (korxona keyinchalik qarz surishish, masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘i tarzida qaytarib oladiganlardan tashqari), transportda tashishga haq to‘lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga haq to‘lashdan kelib chiqib shakllanadi

2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi.

Mehnat haqi xarajatlari tarkibi

a)	Xo‘jalik yurituvchi subyektda qabul qilingan mehnatga haq to‘lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan hisoblangan ish haqi, shu jumladan xo‘jalik yurituvchi subyektni mukofotlash to‘g‘risidagi nizomlarda nazarda tutilgan rag‘batlantiruvchi tusdagi to‘lovlar
b)	Kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustamalar.
c)	Ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan kompensatsiya tusidagi to‘lovlar
d)	Ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlangan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to‘lash

e)	Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash
f)	Xo‘jalik yurituvchi subyekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusdagi tuzilgan shartnomalar bo‘yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to‘lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumlaga kiradi.
g)	Belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to‘lash xarajatiga kiritiladigan to‘lovlarning boshqa turlari

3. Ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

Ijtimoiy sug‘urta ajratmalari

a)	Qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar bo‘yicha mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga ijtimoiy tusdagi majburiy ajratmalar
b)	Nodavlat pensiya jamg‘armalariga ajratmalar va ixtiyoriy sug‘urtaga sug‘urta mukofotlari (badallari)

4. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo‘yicha xarajatlar

a)	Asosiy ishlab chiqarish vositalarining, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) bo‘yicha olingan, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi
b)	Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar (Gudvill (firmaning narxi)dan tashqari), buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi. Foydali foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo‘lmagan nomoddiy aktivlar (Gudvill (firmaning narxi)dan tashqari) bo‘yicha eskirish normasi besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati muddatidan ortiq emas

5. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar. Ular tarkibiga yuqoridagi tarkiblarga kirmaydigan, ishlab chiqarish bilan bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar

a)	Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari
b)	Ishlab chiqarish xodimlarini ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat safarlariga yuborish bo'yicha xarajatlar
c)	Ishlab chiqarish xodimlarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari
d)	Brak tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar
e)	Ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra bekor turishlar tufayli yo'qotishlar
f)	Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari
g)	Mahsulot (xizmatlar)ning majburiy sertifikatsiya qilish xarajatlari
h)	Ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to'lanadigan nafaqalar
i)	Umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlar
j)	Obyektlarni davlat kapital qo'yilmalari hisobiga qurishda qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish bilan bog'liq xarajatlar
k)	Gudvill (firma narxi)ning nomoddiy aktivi summasini hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlar, ishlab chiqarish maqsadida bo'lmagan mol-mulk yuzasidan belgilangan tartibda
	Qazib oluvchi tarmoqlarda tayyorgarlik ishlari bo'yicha xarajatlar, agar ular kapital xarajatlarga tegishli bo'lmasa (ya'ni asosiy vositalar sifatida kapitallashtirilmasa). Ushbu xarajatlar «Kelgusi davrlar xarajatlari» sifatida qaraladi va ularni qaytarishning belgilangan muddati mobaynida teng ravishda ishlab chiqarish tannarxiga yoki qazib olingan mahsulotning hajmi va miqdoriga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladi. Kelgusi davrlar xarajatlarini hisobdan chiqarishning tanlangan metodi xo'jalik yurituvchi subyektning hisobga olish siyosatida aks ettirilishi kerak
	Ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan xodimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish nafaqalari to'lash bilan bog'liq xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq to'lanishi kerak

4.2. O‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlar tahlili

Xalqaro amaliyotda ishlab chiqarish xarajatlari ikkita toifaga bo‘linadi. Ya’ni, o‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlar. O‘zgaruvchan xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mos ravishda o‘zgarib boradi. O‘zgarmas xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lmagan holda barqaror qoladi. Ushbu tarkiblash, xarajatlarni boshqarish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. O‘zgaruvchan xarajatlarni hisoblash metodologiyasini bilish biznesning daromadli bo‘lishiga erishish maqsadida ishlab chiqarish birligiga sarflangan xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. O‘zgaruvchan xarajatlarni tarkiblash va ularni hisobga olish birinchi bor AQShda ishlatilgan bo‘lib, uning nomi “direkt-kost”, Yevropada esa “marjinal-kost” deb nomlangan. Ularning farqi shundaki, ular to‘g‘ri va o‘zgaruvchan xarajatlar kalkulyatsiyasi sifatida nomlanishidadir.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha o‘zgaruvchan xarajatlarning to‘g‘ri va egri turlari tarkiblanadi. Shuningdek, o‘zgaruvchan xarajatlarning proporsional, degressiv, progressiv turlari guruhlanadi. Ularning o‘zgaruvchanligini quyidagi chizmalarda tavsiflash mumkin.



Proporsional	Degressiv	Progressiv

4.1-rasm. Proporsional, degressiv, progressiv o‘zgaruvchan xarajatlar

Ishlab chiqarish xarajatlarini o‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlarga to‘g‘ri tarkiblash va hisoblash tahlil natijasiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ularni tarkiblashda ya’ni turkumlashda aniqligiga muhim e’tibor qaratish lozim. O‘zgarmas xarajatlar mahsulot ishlab

chiqarilmagan hollarda ham majburiyatlarni yuzaga keltirishini hisobga olsak, bu tarkiblash juda muhim hisoblanadi. Yalpi natijaga ta'sir etmagan birlik oxir-oqibatda xarajatlarni boshqarish va ishlab chiqarish samaradorligini to'g'ri baholamaslikka olib keladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar tarkibi va ularning mahsulot birligiga nisbatan o'zgarishi

Mahsulot ishlab chiqarish miqdori, dona	Doimiy xarajatlar, ming so'm	O'zgaruvchan xarajatlar, ming so'm	Jami xarajatlar, ming so'm	Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajat, ming so'm	Maxsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgarmas xarajat, ming so'm	Bir birlikka jami xarajatlar, ming so'm
10000	125000	361200	486200	36,12	12,50	48,620
11000	125000	414920	539920	37,72	11,36	49,083
12000	125000	477360	602360	39,78	10,41	50,196
13000	125000	533260	658260	41,02	9,615	50,635
14000	125000	600600	725600	42,90	8,928	51,828
15000	125000	675300	800300	45,02	8,333	53,353
16000	125000	769600	894600	48,10	7,812	55,912

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish miqdorining o'zgarishiga mos ravishda oshib borganligini, o'zgarmas xarajatlarning esa tushib borganligini ko'rish mumkin.

Bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish xarajatlarini boshqarishda eng muhim usul hisoblanadi. Bir birlikka xarajatlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga: o'zgaruvchan xarajatlar, o'zgarmas xarajatlar, ularning jami xarajatlar tarkibidagi salmog'ining o'zgarishi, tarkib elementlardagi o'zgarishlar kiradi:

$$S_i = F_i / Q_i + V_i$$

Bunda: S_i – i-mahsulot birligini tannarxi;

F_i – i-mahsulot birligiga doimiy xarajatlar;

Q_i – i-mahsulot birligini ishlab chiqarish hajmi;

V_i – i-mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar.

Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan jami xarajatlar o'zgarishining tahlili

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Reja	Haqiqatda	Rejadan farqi
1. Ishlab chiqarish hajmi	dona	16 000	15 478	-522
2. Doimiy xarajatlar	ming so'm	255 000.0	269 600.0	+14 600,0
3. O'zgaruvchan xarajatlar	ming so'm	718 400.0	845 098,8	+126 698,8
4. Jami ishlab chiqarish xarajatlari	ming so'm	973 400.0	1 114 698,8	+141 298,8
5. Mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar	ming so'm	44,90	54,60	+9,70
6. Mahsulot birligiga doimiy xarajatlar	ming so'm	15,94	17,42	+1,48
7. Mahsulot birligining jami tannarxi	ming so'm	60,84	72,02	+11,18

Bir birlik mahsulot tannarxi rejaga nisbatan 11,18 (72,02-60,84) ming so'mga o'sgan.

$S_r = (F_r/Q_r)+V_r=(255000/16000)+(973400/16000)=15,94+44,90=60,84$

$S_{sh1} = (F_r/Q_x)+V_r=(255000/15478)+(973400/16000)=16,47+44,90=61,37$

$S_{sh2} = (F_x/Q_x)+V_r=(269600/15478)+(973400/16000)=17,42+44,90=62,32$

$S_x = (F_x/Q_x)+V_x=(269600/15478)+(845098/15478)=17,42+54,60=72,02$

Omillar ta'siri:

1. Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi ta'siri = 61,37-60,84=0,54 ming so'm.

2. Doimiy xarajatlar o'zgarishi ta'siri = 62,32-61,32=0,94 ming so'm

3. O'zgaruvchan xarajatlar o'zgarishi ta'siri = 72,02-62,32=9,70 ming so'm

Jami o'zgarish = 0,54+0,94+9,70=11,18 ming so'm

4.3. Xarajatlarni umumiy hajmi va ularni asosiy elementlari bo'yicha baholash, tahlil qilish

Ishlab chiqarish xarajatlarining analitik va sintetik hisobida analiz va sintez qoidasiga asoslaniladi. Shu sababli ham "analitika", "sintetika" so'zlari buxgalteriya hisobining muhim tushunchalariga aylangan.

Ularning mazmuniga e'tibor qaratsangiz "analitika" – butunni bo'laklarga bo'lish, "sintetika" bo'laklarni birlashtirish, umumlashtirish ma'nosini anglatadi va bu analitik va sintetik hisobning to'liq mazmunini ifoda etadi.

Xarajatlarni umumiy hajmda o'rganish moliyaviy hisob obyektiga kiradi. Uning birlik elementlari, kalkulyatsiya moddalari bo'yicha o'rganish boshqaruv hisobi obyektiga kiradi.

Xarajatlarning umumiy hajmi bo'yicha o'rganishda quyidagi muhim jihatlarga ahamiyat qaratiladi:

- jami xarajatlarning umumiy o'zgarishlari tahliliga;
- jami xarajat o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahliliga;
- bir so'mlik ishlab chiqarilgan, sotilgan mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat tahliliga.

Jami xarajatlarning umumiy o'zgarishi rejaga va o'tgan yillarga nisbatan mutlaq va nisbiy o'zgarishlarni aniqlash orqali baholanadi.

Jami ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida doimiy xarajatlarning o'zgarishi, mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishi ta'siri, mahsulot ishlab chiqarish miqdorining o'zgarishi ta'sir etadi. Xarajatlar o'zgarishiga albatta ichki birliklar sifatida sarf normalari va baholarining o'zgarishi ham tarkiblanadi. Bu kabi omillar xarajat elementlari bo'yicha farq qiladi.

Jami ishlab chiqarish xarajatlari va ularning omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili		Farqi (+/-), ming so'm	O'sish darajasi, %
	summasi, ming so'm.	tarkibi, %	summasi, ming so'm.	tarkibi, %		
1.Ishlab chiqarish xarajatlari jami shu jumladan:	541 131	100,00	686 079	100,00	+144 948	126,79
1.1. O'zgaruvchan xarajatlar	464 070	85,76	579 800	84,51	+115 730	124,94
1.2. O'zgarmas xarajatlar	77 061	14,24	106 279	15,49	+29 218	137,92
2. Ishlab chiqarish hajmi	572 661	-	717 416	-	+144 755	125,30

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar ta’sirini quyidagi hisob-kitoblarda ko‘rib o‘tish mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlarining jami o‘zgarishi:

686 079–541 131=+144 948 ming so‘m (o‘sish).

Joriy davr mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini qayta hisoblash:

a) o‘zgaruvchan xarajatlar:

464 070*1,253=581 479,7 ming so‘m. (mahsulot hajmining o‘zgarishiga mos o‘zgaradi);

b) o‘zgarmas xarajatlar:

77 061 ming so‘m (bazaviy miqdorda qoladi).

Jami: 581 479,7+77 061=658 540,7 ming so‘m

Joriy davr mahsulot hajmining o‘tgan davr bahosi va ta’rifi bo‘yicha hisob-kitobi:

541 131/572 661*717416=677 916 ming so‘m

Omillar ta’siri:

a) Ishlab chiqarish hajmi:

658 540,7–541 131=+117 409,7 ming so‘m (o‘sish)

yoki 581 479,7–464070=+117 409,7 ming so‘m (o‘sish)

b) Baho va ta’riflar o‘zgarishi:

686 079–677 916=+8 163 ming so‘m (o‘sish)

v) tarkib va jami xarajatlar summasi:

677 916–658 540,7=+19 375,3 ming so‘m (o‘sish)

Jami o‘zgarish: 117 409,7+8 163+19 375,3=+144 948 ming so‘m

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra: ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda); ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari; ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar; asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi; ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Ishlab chiqarish xarajatlarini turi, tarkibi, dinamikasi bo‘yicha tahlil qilish, ularni nazorat qilish, maqsadli boshqarish imkonini beradi.

Iqtisodiy elementlari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili		O'sish darajasi, %	Farqi (+, -)	
	summa, ming so'm.	tarkibi, %	summa, ming so'm	tarkibi, %		summa, ming so'm.	tarkibi, %
Moddiy xarajatlar	434 236	80,25	539 694	78,66	124,29	+105 458	-1,59
Mehnat haqi xarajatlari	63 014	11,64	79 500	11,59	126,16	+16 486	-0,05
Yagona ijtimoiy to'lov	22 641	4,18	28 012	4,08	123,72	+5 371	-0,10
Amortizatsiya	7 194	1,33	9 214	1,34	128,08	+2 020	+0,01
Boshqa xarajatlar	14 046	2,60	29 659	4,33	211,16	+15 613	+1,73
Jami xarajatlar	541 131	100,00	686 079	100,00	126,79	+144 948	-
Ishlab chiqarish hajmi	572 668	-	717 416	-	125,30	+144 748	-
Bir so'mlik mahsulotga, (sotilgan mahsulotga) to'g'ri keladigan ishlab chiqarish xarajatlari	0,9449	-	0,9563	-	101,2	+0,0114	-

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonada ishlab chiqarish xarajatlarining jami o'zgarishi 144 948 ming so'mga yoki 26,79%ga o'sganligini ko'rish mumkin.

Eng yuqori o'zgarishlar moddiy xarajatlar (10 548 ming so'm yoki 24,29%), mehnat haqi xarajatlari (16 486 ming so'm yoki 26,16%) qatoriga to'g'ri keladi. Albatta ish haqidan ajratmalar qatoriga ham mehnat haqi o'zgarishiga mos ravishda oshib boradi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining vertikal tahlilidan ko'rinadiki, jami ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida moddiy xarajatlar salmog'i eng yuqori o'rinni tashkil etgan.

Bir so'mlik mahsulotga qilingan ishlab chiqarish xarajatlari o'tgan yilga nisbatan 1,2%ga yoki 1,14 tiyinga o'zgargan.

4.4. Xarajatlarni faoliyat turlari, javobgarlik markazlari kalkulyatsiya moddalari bo'yicha tahlili

Faoliyat turlari bo'yicha xarajatlar quyidagi turlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) xarajatlari;
- tijorat xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari.

Asosiy faoliyat turi sifatida mahsulot ishlab chiqarish va tushumning eng yuqori ulushiga ega bo'lgan faoliyat turi belgilanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini faoliyat turlari bo'yicha tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili		Farqi (+/-), ming so'm	O'sish darajasi, %
	summasi, ming so'm.	tarkibi, %	summasi, ming so'm	tarkibi, %		
Umumxo'jalik faoliyati bo'yicha jami xarajatlar Shu jumladan:	752016	100,00	988669	100	236653	131.46
1. Jami ishlab chiqarish xarajatlari	541131	71.95	686079	69.39	+144948	126.78
2. Tijorat xarajatlari, ming so'm	125640	16.72	186540	18.87	+60900	148.47
3. Boshqaruv xarajatlari, ming so'm	85245	11.33	116050	11.74	+30805	136.13
2. Sotilgan mahsulot hajmi, ming so'm	572661	-	717416	-	+141755	125.27
4. Bir so'mlik sotilgan mahsulotga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish xarajatlari	0.9449	-	0.9563	-	+0.0114	101.2
5. Bir so'mlik sotilgan mahsulotga to'g'ri keladigan tijorat xarajatlari	0.2193	-	0.2600	-	+0.0407	118.5
6. Bir so'mlik sotilgan	0.1488	-	0.1617	-	+0.0129	108.6

mahsulotga to‘g‘ri keladigan boshqaruv xarajatlari						

Javobgarlik markazlari bo‘yicha xarajatlar tahlili. Javobgarlik markazlarining odatda foydaga, xarajatga va investitsiyaga nisbatan turlari tarkiblanadi.

Foyda bo‘yicha javobgarlik markazlari daromad va xarajatlarni o‘rganish va foydani maksimallashtirishni, xarajatlarni o‘rganish esa faqat xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan. Investitsiyaga nisbatan esa nafaqat daromad va xarajatlar, balki foydaning ishlatilishi ham baholanadi.

Ishlab chiqarish hisobi bo‘yicha javobgarlikning quyidagi markazlari belgilanadi: ta’minot; ishlab chiqarish; sotish va boshqaruv.

Korporativ boshqaruv nazariyasi va amaliyotiga ko‘ra korxonalar tarkibiy birliklari, bo‘limlar, do‘konlar, xizmatlar yoki guruhlar *moliyaviy javobgarlik markazlari* hisoblanadi. Ularning rahbarlari muayyan yo‘nalish va menejment vazifalarini bajarish uchun mas’uldirlar.

Xarajatlar bo‘yicha javobgarlik markazlari – xarajatlarni byudjetlash bo‘yicha vazifalarni bajarish uchun mas’ul bo‘lgan bo‘linma (birliklar to‘plami)dir.

Korxonada xarajatlar bo‘yicha javobgarlik markazlari quyidagi bo‘limlarda tashkil topadi:

- boshqaruv faoliyati;
- marketing faoliyati;
- informatsion texnologiyalar;
- logistika;
- ombor faoliyati;
- ta’minot;
- ishlab chiqarish.

Daromad markazlari javobgarlik markazlari:

- sotish (tovarlar turlari bo'yicha);
- filiallar, bo'limlardan iborat.

Xarajatlar bo'yicha javobgarlik markazlari – sex, uchastka, brigada va bo'limlardan iborat.

Javobgarlik markazlari bo'yicha xarajatlar tahlili (mln so'm)

Nazorat qilinadigan xarajatlar	Xarajatlar		Xarajatlarning o'zgarishi, (+,-)	
	Smeta bo'yicha	Haqiqa tda	Oy davomida	Yil boshidan
№1-bo'lim masteri hisoboti				
1. Materiallar	100,0	98,0	-2,0	-1,0
2. Ish haqi	50,0	51,0	+1,0	+0,5
3. Xizmat ko'rsatuvchi tarkib ish haqi	22,0	22,5	+0,5	+0,3
4. Yoqilg'i va elektr energiya	18,0	19,0	+1,0	+0,7
5. Uskunalar ishlatish va ta'mirlash xarajatlari	20,0	19,5	-0,5	-0,5
6. Boshqa xarajatlar	10,0	10,5	+0,5	-0,3
7. Jami xarajatlar	220,0	220,5	+0,5	-0,3
№1 sex boshlig'i hisoboti				
1. Sex boshqaruvi apparatini saqlash xarajatlari	40,0	41,0	+1,0	-
2. Boshqa sex tarkibini saqlash xarajatlari	30,0	29,0	-1,0	-2,0
3. Bino, inshoot va inventarlarni joriy saqlash xarajatlari	100,0	102,0	+2,0	-1,0
4. Samaradorlikka ta'sir etmaydigan xarajatlar	X	2,0	+2,0	+5,0
5. Sexning boshqa xarajatlari	30,0	29,0	-1,0	-3,0
6. Sex bo'yicha jami xarajatlar	200,0	203,0	+3,0	-1,0
Bo'limlar bo'yicha xarajatlar				

№1 bo'lim	220,0	220,5	+0,5	-0,3
№2 bo'lim	200,0	205,0	+5,0	+7,0
№3 bo'lim	280,0	278,0	-2,0	-3,0
7. Bo'limlar bo'yicha jami xarajat	700,0	703,5	+3,5	+3,7
8 Sex bo'yicha barcha xarajatlar	900	906,5	+6,5	+2,7
Iqtisod bo'yicha direktor o'rinbosari hisoboti				
1. Korxonani boshqaruvi xarajatlari	200,0	206,0	+6,0	+10,0
2. Umumxo'jalik xarajatlari	200,0	195,0	-5,0	-7,0
3. Soliqlar, yig'imlar va ajratmalar	100,0	100,0	-	+1,0
4. Samaradorlikka ta'sir qilmaydigan xarajatlar	x	50,0	+50	100
5. Jami (korxona bo'yicha barcha) xarajatlar	500,0	551,0	+51	104
6. Sexlar bo'yicha xarajatlar				
№1 Sex	900,0	906,5	+6,5	+2,7
№2 Sex	800,0	790,5	-9,5	-2,7
№3 Sex	1000,0	1005,0	+5	10
Sexlar bo'yicha jami:	2700,0	2702,0	+2	10
7. Korxona bo'yicha barcha xarajatlar	3200,0	3253,0	+53	114

Kalkulyatsiya moddalari bo'yicha tahlil. Mahsulotlarning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari tarkibini iqtisodiy elementlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha quyidagi tarkibda berish mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha turkumlanishi

Xarajatlarning iqtisodiy elementlari	Mahsulot tannarxini kalkulyatsion moddalari
1	2
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	Xomashyo
	Yoqilg'i
	Elektr quvvati
	Ehtiyot qismlar
	Idishlar va hokazo
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari	Asosiy ish haqlari
	Qo'shimcha ish haqlari
	Ish haqiga ustamalar
Ishlab chiqarishga taalluqli mehnat haqidan ajratmalar	Ijtimoiy ta'minot bo'limiga
	Mehnat birjasiga
	Kasaba uyushmasiga
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, eskirish xarajatlari	Asosiy vositalarning eskirishi
	Nomoddiy aktivlarning eskirishi
	Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni ijara haqlari
Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar	Turli ishlar va xizmatlar
	Soliqlar, yig'imlar va hokazo.

Korxona bo'yicha jami xarajatlar faqat iqtisodiy elementlari bo'yicha o'rganiladi. Mahsulotlar turi va turkumi bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari kalkulyatsiya moddalari bo'yicha o'rganiladi. Tahlil etishda ishlab chiqarish xarajatlarining jami o'zgarishi va uning tarkibi bo'yicha o'zgarishlari mutlaq va nisbiy jihatdan o'rganiladi.

Xarajatlarni moddalari bo'yicha tahlili

№	Xarajat moddalari	Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ming so'm		Farqlanishi (+,-)		
		Reja tannarxi bo'yicha	Haqiqiy tannarxi bo'yicha	Ming so'm	% da	
					Rejaga nisbatan	Jami reja tannarxiga nisbatan
A	B	1	2	3	4	5
1	Xomashyo va materiallar	43 456	37 865	-5 591	-12,9	-2,75
2	Qaytarilgan chiqitlar	-96	-107	-11	+11,5	-0,01
3	Xomashyo va materiallar sarfi	43 360	37 758	-5 602	-12,9	-2,75

	chiqitlar qaytarilgan holda (1-2)					
4	Korxona va tashkilotlardan sotib olingan buyumlar, yarim fabrikatlar va ishlab chiqarish xarakteridagi xizmatlar	19 344	17 134	-2 210	-11,4	-1,09
5	Texnologik maqsadlar uchun elektr energiya va yoqilg'i sarfi	1 006	1 024	+18	+1,8	+0,01
6	**Moddiy xarajatlar jami**	**63 710**	**55 916**	**-7 794**	**-12,2**	**-3,83**
7	Ishchilarning asosiy ish haqi	46 783	42 424	-4 359	-9,3	-2,14
8	Ishchilarning qo'shimcha ish haqi	8 561	8 545	-16	-0,2	-0,01
9	Ijtimoiy sug'urta xarajatlari	23 730	21 353	-2 377	-10,0	-1,17
10	**Ish haqi va ajratmalarga xarajatlar jami**	**79 074**	**72 322**	**-6 752**	**-8,5**	**-3,32**
11	Ishlab chiqarishga tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlari	2 561	2 549	-12	-0,5	-0,01
12	Uskunalarni saqlash va ishlatish xarajatlari	10 716	10 329	-387	-3,6	-0,19
13	Sex xarajatlari	13 170	12873	-297	-2,3	-0,15
14	Umumxo'jalik xarajatlari	18 420	18 515	+95	+0,5	+0,05
15	**Ishlab chiqarishni tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlari jami**	**44 867**	**44 266**	**-601**	**-1,3**	**-0,30**
16	Brakdan yo'qotishlar	X	72	+72	X	+0,04
17	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	15 903	19 554	+3 651	+23,0	+1,79
18	**Tovar mahsulotining jami ishlab chiqarish tannarxi**	**203 554**	**19 2130**	**-11 424**	**-5,6**	x

Korxonada moddiy xarajatlar reja tannarxiga nisbatan 7 794 ming so'mga, nisbiy ifodada 12,2%ga kam sarflangan, jami reja tannarxida moddiy xarajatlar o'zgarishining salmog'i 3,38%ga teng bo'lgan.

Ish haqi va ish haqidan ajratmalar reja tannarxiga nisbatan 6 752 ming so'mga, nisbiy ifodada 3,32%ga kam sarflangan.

Mahsulotning reja tannarxi 11 424 ming so'mga kam bo'lgan, nisbiy ifodada mahsulotning to'liq tannarxi 12,2%ga arzonlashtirishga erishilgan. Bu o'zgarishlarni albatta ijobiy deyish mumkin.

4.5. Moddiy, mehnat haqi, asosiy vositalarni saqlash va ishlatish xarajatlari tahlili

Moddiy xarajatlar. Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi va shu sababli ham ularni tahlil etishga muhim ahamiyat qaratiladi.

Moddiy xarajatlar tahlili oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- moddiy xarajatlarning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlarni va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;

- moddiy xarajatlarni iqtisod qilish yuzasidan imkoniyatlarni aniqlash;

- mahsulotning moddiy xarajatlar sig'imiga baho berish va ulardan samarali foydalanishning ichki imkoniyatlarini aniqlash;

- moddiy resurslardan tejamli va natijali foydalanish yo'llarini aniqlash.

Moddiy xarajatlar tahlili ularning o'zgarishini o'rganishdan boshlanadi. Moddiy xarajatlarning o'zgarishi va unga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ko'rib o'tishimiz mumkin.

Moddiy xarajatlar va ularning o'zgarishi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Moddiy xarajatlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar	**Summasi**
1. Reja bo'yicha moddiy xarajatlar	35 250
2. Haqiqatdagi mahsulot hajmi va tarkibi bo'yicha qayta hisoblangan rejadagi moddiy xarajatlar	35 600
3. Haqiqatdagi moddiy xarajatlar	35 700
4. Jami o'zgarish	+450
Shu jumladan:	
4.1. Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi hisobiga	+3 525 (35 250*10/100)
4.2. Ishlab chiqarilgan mahsulot strukturasining o'zgarishi hisobiga	-3 175 (35 600-35 250-3 525)
4.3. Materiallar tarkibining o'zgarishi hisobiga	+100 (35 700-35 600)

**Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sish darajasi – 10 %*

Moddiy xarajatlarning reja bo'yicha tannarxi 35 250 mln so'm qilib belgilangan. Lekin, uning haqiqiy tannarxi 35 700 mln so'mga teng bo'lgan. Moddiy xarajatlarning jami o'zgarishi +450 mln so'mni tashkil

qilgan. Ushbu o'zgarishga ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi hisobiga (moddiy xarajatlar o'zgaruvchan xarajatlar tarkibiga kirib mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mos ravishda o'sib borishi tufayli) +3 525 mln so'mga ortganligini, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning strukturaviy o'zgarishlari hisobiga -3 175 mln so'mga kamayganligini, materiallar tarkibining o'zgarishi hisobiga o'zgarish +100 mln so'mni tashkil etganligini ko'rish mumkin. Barcha omillar ta'sirini jamlasak, uning umumiy o'zgarishga teng ekanligini ko'rish mumkin (+3 525+(-3 175)+100).

Ish haqi xarajatlari tahlili. Ish haqi xarajatlari ishlab chiqarish korxonalarida salmog'i bo'yicha moddiy xarajatlardan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi xarajat elementi hisoblanadi. O'z navbatida ish haqi xarajatlari uchinchi muhim xarajat elementi ish haqidan ajratmalar uchun ham asos bo'ladi. Ish haqidan ajratmalarning kichik va yirik biznes vakillariga nisbatan 15 va 25 foizlik normalari belgilangan. Ish haqidan ajratmalarning mahsulot ishlab chiqarish tannarxida sig'imlilik darajasi ish haqiga birlashtirilgan holda o'rganiladi. Eng muhim ko'rsatkichlar sifatida tahlil etishda quyidagi ko'rsatkichlar tarkiblanadi: ish haqi fondi, bitta xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik ish haqi, bir ishchiga to'g'ri keladigan ish o'rtacha oylik ish haqi, bir kunlik o'rtacha ish haqi, bir soatlik o'rtacha ish haqi.

Korxonada ish haqi fondining tahlili

Ko'rsatkichlar	Sanoat ishlab chiqarish xodimlari	Ishchilar
Ish haqi fondi, mln so'm		
O'tgan yil	17 706,9	17 116,5
Haqiqatda	26 025,6	19 767,0
Farqi (+,-)	+8 318,7	+2 650,5
Xodimlarning o'rtacha ro'yxat bo'yicha soni, kishi		
O'tgan yil	1 065	844
Haqiqatda	962	769
Farqi (+,-)	-103	-75

Xodimlarning o‘rtacha ish haqi, ming so‘m		
O‘tgan yil	16 626,2	20 280,9
Hisobot yili	27 053,6.	25 704,4
Farqi (+,-)	+10 427,4	+5 426,6
Ish haqi fondining jami o‘zgarishi, ming so‘m	+8 318,7	+2 650,5
Shu jumladan:		
Xodimlar soni o‘zgarishi hisobiga, ming so‘m	-1 712,5	-1 521,0
O‘rtacha ish haqi o‘zgarishi hisobiga, ming so‘m	+10 031,1	+4 171,5

Korxonada ish haqi fondining o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi sanoat ishlab chiqarish xodimlari bo‘yicha 8 318,7 mln so‘mni, ishchilar bo‘yicha 2650,5 mln so‘mni tashkil qilgan.

Xodimlarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni o‘tgan yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarish xodimlari bo‘yicha 103 kishiga, ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni 75 kishiga kam bo‘lgan.

Xodimlarning o‘rtacha ish haqi o‘tgan yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarish xodimlari bo‘yicha +8 318,7 ming so‘mga, ishchilar bo‘yicha 2 650,5 ming so‘mga o‘sganligini ko‘rish mumkin.

Ish haqi fondining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida xodimlar sonining o‘zgarishi va o‘rtacha bir xodimga to‘g‘ri keladigan ish haqining o‘zgarishi hisob-kitob qilinadi. Korxonada ushbu omillar hisobiga mehnat haqi fondining o‘zgarishi sanoat ishlab chiqarish xodimlariga nisbatan +10 031 ming so‘m (bir xodimga o‘rtacha ish haqining o‘zgarishi (10 427,4)) va -1 712,5 ming so‘mni (sanoat ishlab chiqarish xodimlari sonining o‘zgarishi hisobiga (-103)) tashkil etgan.

Ishchilarning mehnat haqi fondining o'tgan yilga nisbatan o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillari hisob-kitobi mos ravishda +4 171,5 ming so'm va -1 521,0 ming so'mga teng bo'lgan.

Bitta xodimga yoki bitta ishchiga to'g'ri keladigan ish haqi o'zgarishlariga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida hisob-kitob qilish mumkin.

Ishchilarning o'rtacha ish haqi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+, -)	O'sish darajasi, %
1. Ishchilar mehnat haqi fondi, ming so'm	17 116,5	19 767,0	-2 650,5	115,5
2. Ishchilarning o'rtacha ro'yxat soni, kishi	844	769	-75	91,1
Z. Bitta ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish haqi, so'm	20 280,2	25 704,8	+5 424,6	126,7
4. Ishchilar tomonidan ishlangan kishi kunlari, ming kishi-kun	176,34	167,8	-8,5	95,2
5. Ishchilar tomonidan ishlangan jami ish soatlari, ming kishi soat	1 467,2	1 412,8	-54.4	96,3
6. Bitta ishchi tomonidan ishlangan kishi kuni (4/2)	208,9	218,2	+9,3	104,4
7. Ish kuni davomiyligi, soat (5/4)	8,32	8,42	+0,1	101,2
8. Bitta ishchiga to'g'ri keladigan bir soatlik ish haqi, ming so'm (1/5)	11,67	13,99	+2,32	238,9
Ish haqining o'zgarishi, ming so'm	x	x	+5 424,6	x
Ish kuni o'zgarishi	(+9,3)x8,32x11,67 =		+903,0	x
Ish kuni davomiyligi o'zgarishi	218,2x(+0,1)x11,67 =		+254,6	x
1 soatlik mehnatga haq to'lash qiymatining o'zgarishi	218,2x8,42x(+2,32) =		+4 264,4	x

Ishlarning o‘rtacha ish haqi va uning o‘zgarishiga ta’sir omillar tahlilidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- ish kuni o‘zgarishi hisobiga o‘rtacha ish haqining o‘zgarishi ming so‘mga ortgan;

- ish kuni davomiyligining o‘zgarishi hisobiga o‘rtacha ish haqining o‘zgarishi +254,6 ming so‘mga ortgan;

- bir soatlik mehnatga haq to‘lashning o‘zgarishi hisobiga o‘rtacha ish haqi +4 264,4 ming so‘mga ortgan;

- ish haqining jami o‘zgarishi 5 424,6 ming so‘mga teng bo‘lgan.

Mahsulotning mehnat sig‘imi va mehnat haqining o‘sish darajasi ishlab chiqarishga yangi texnikalarni ishga tushirilishiga, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasiga, mehnatni tashkil etilishiga, xodimlarning malaka darajasiga va boshqa innovatsion o‘zgarishlarga bog‘liqdir.

Amortizatsiya va eskirish xarajatlari tahlili. Amortizatsiya va eskirish xarajatlari asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga xos tushunchalar hisoblanadi. Ularning iqtisodiy mazmunini bilish uchun albatta quyidagi tushunchalarning tasnifini bilish lozim.

Aktivning balans qiymati – har qanday jamg‘arilgan eskirish va yig‘ilgan qadrsizlanish bo‘yicha zararlar chegirib tashlanganidan so‘ng, aktivning tan olinadigan summasi bu uning balans qiymatidir.

Aktivning tannarxi – bu aktivni uning haridi yoki qurilishi paytida sotib olish uchun to‘langan pul mablag‘i yoki pul mablag‘i ekvivalentidagi qiymat yoki boshqa turdagi uning evaziga berilgan tovonning haqqoniy qiymati yoki ushbu aktivning dastlabki tan olinishidagi qiymatdir.

Aktivning eskirish hisoblanadigan qiymati – bu aktivning tugatish qiymati chegirilgandagi tannarxi yoki tannarx o‘rniga aks ettiriladigan boshqa qiymatdir.

Aktivning eskirishi – bu aktivning eskirishi hisoblanadigan aktiv qiymatini uning foydali xizmat muddati davomida sistematik tarzda xarajatlarga olib borishdir.

Asosiy vositalar – quyidagilar uchun mo'ljallangan moddiy aktivlardir:

(a) mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, yoki xizmatlarni ko'rsatish, yoki boshqa tomonlarga ijaraga berish, yoki ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan; va

(b) bir davrdan uzoqroq muddat davomida foydalanilishi kutilgan.

Aktivning qoplanadigan qiymati – bu aktivning quyidagi qiymatlaridan yuqorirog'i: sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymati va uning foydalanishdagi qiymati.

Aktivning tugatish qiymati – bu aktivning chiqib ketishi bo'yicha baholangan xarajatlar chegirilgan holda, tadbirkorlik subyekti ayni paytda xuddi aktiv foydali xizmat muddati oxirida kutilgan muddati va holatida bo'lganidek aktivning chiqib ketishidan oladigan baholangan qiymatidir.

Aktivning foydali xizmat muddati bu:

(a) aktivning tadbirkorlik subyekti tomonidan foydalanishi uchun yaroqli bo'lishi kutilgan davr; yoki

(b) tadbirkorlik subyekti tomonidan aktivdan olinishi kutilgan ishlab chiqarish hajmi (miqdori) yoki shunga o'xshash birliklar soni.

Tahlil qilishda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning ishlab chiqarishda xizmat qiladigan tarkibi bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini tahliliga, amortizatsiya ajratmalarining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillariga muhim ahamiyat beriladi. Amortizatsiya ajratmalari va eskirish xarajatlari amortizatsiyalanadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qiymatini o'zgarishi va amortizatsiya normalarining o'zgarishi hisobiga o'zgaradi.

Mahsulotning ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi sig'imi quyidagi model asosida hisoblanadi:

$$M_a = A_x / M_x$$

Bunda: M_a – mahsulotning amortizatsiya sig'imi;

A_x – amortizatsiya (eskirish) xarajatlari;

M_x – mahsulot ishlab chiqarish tannarxi.

Mahsulotning amortizatsiya (eskirish) xarajatlari quyidagi model bo'yicha hisob-kitob qilinadi:

$$A=N_a*S_b/100$$

Bunda: A - asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi;

N_a – asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amaortizatsiyalanadigan qiymati;

S_b – asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya normalari.

Asosiy vositalarni amortizatsiyasi, ularni saqlash va ishlatish xarajatlarining omilli tahlili modellari

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha		
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	Ta'sir etuvchi omillar	Omillar ta'sirining hisob-kitobi
Amortizatsiya (eskirish)	Asosiy vosita (nomoddiy aktiv)larning balans qiymati (OS) va amortizatsiya normalarining (NA) o'zgarishi	$A = OS \cdot NA$ $\Delta Aos = \Delta OS \cdot NA0$ $\Delta Ana = \Delta OS1 \cdot \Delta NA$
Yoritish, isitish, suv ta'minoti va boshqa xarajatlar	Iste'mol qilingan xizmatlar miqdori (K) va qiymatining(S) o'zgarishi	$M = K \cdot S$ $\Delta Mk = \Delta K \cdot Ts_0$ $\Delta Mts = K_1 \cdot \Delta Ts$
Asosiy vositalarning joriy ta'mirlash xarajatlari	Ishlar hajmi (V) va qiymatining (Ts) o'zgarishi	$ZR = V \cdot Ts$ $\Delta ZRv = \Delta V \cdot Ts_0$ $\Delta ZRts = V_1 \cdot \Delta Ts$
Yengil avtomobillarni saqlash xarajatlari	Yengil avtomobillar soni (KM) va bitta mashinani saqlash xarajatlari (ZS) o'zgarishi	$Z = KM \cdot ZS$ $\Delta Zkm = \Delta KM \cdot ZS_0$ $\Delta Zzs = KM_1 \cdot \Delta ZS$

4.6. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxini tahlili

Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini tahlili tahlilda eng murakkab, qiyin va ko'p mehnat talab qiladigan jarayon

hisoblanadi. Uning buxgalteriya xizmati xodimlari mehnat sig'imidagi hajmi ham eng yuqori normani tashkil etadi.

Mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxi – ishlab chiqarishning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning muhim samaradorlik ko'rsatkichi bu ishlab chiqarish tannarxidir. Korxonaning moliyaviy natijasi va moliyaviy ahvoli avvalo ushbu samaradorlik ko'rsatkichiga bog'liqdir.

Xarajatlar boshqarish tizimining samaradorligi avvalo ularni tahlil etishni tashkil etilganligiga bog'liq. O'z navbatida bu quyidagilarga bog'liq:

- korxonada qo'llanilayotgan hisob shakli va usullariga;
- hisob ishlarining avtomatlashtirish darajasiga;
- operatsion xarajatlarni rejalashtirish va normalash holatiga;
- soatlik, kunlik, dekadalik, oylik xarajatlar yuzasidan hisobotlarning shakllantirilganlik holatiga;
- real holat va natijani chuqur tahlil qilishda malakali mutaxassislarning mavjudligiga va h.k. omillarga bog'liq.

Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxi tahlili obyekti sifatida quyidagilar tarkiblanadi:

- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotning to'liq tannarxi va xarajat elementlari bo'yicha tahlili;
- bir so'mlik ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat tahlili;
- alohida tur mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi;
- xarajatlarning alohida moddalari bo'yicha tahlili;
- javobgarlik markazlari bo'yicha tahlili.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari tahlili

Xarajat elementlari va mahsulotning xarajat sig'imi ko'rsatkichlari	**Summa, ming so'm**			**Xarajatlar tarkibi, %**			**Bir so'mlik mahsulotga xarajat, tiyin**	
	t_0	t_1	(+,–)	t_0	t_1	(+,–)	t_0	t_1

Moddiy xarajatlar	35 000	45 600	+10 600	53,0	55,9	+2,9	43,75	45,45
Shu jumladan:								
Xomashyo va materiallar	25 200	31 500	+6 300	38,2	38,6	+0,4	31,50	31,40
yoqilg'i	5 600	7 524	+1 924	8,5	9,2	+0,7	7.00	7,50
elektroenergiya	4 200	6 575	+2 376	6,3	8,1	+1,8	5.25	6,55
Mehnat haqi	13 500	15 800	+2 300	20,4	19,4	-1,0	16,88	15,75
Mehnat haqidan ajratmalar	4 725	5 530	+805	7,2	6,8	-0,4	5,90	5,51
Amortizatsiya (eskirish) xarajatlari	5 600	7 000	+1 400	8,5	8,6	+0,1	7,00	6,98
Boshqa xarajatlar	7 175	7 580	+405	10,9	9,3	–1,6	8,97	7,56
To'liq tannarx	66 000	81 510	+15 510	100	100	–	82,50	81,25
Shu jumladan: -o'zgaruvchan xarajatlar	46 500	55 328	+9 828	70,5	68	–1,5	58,12	55,15
-o'zgarmas xarajatlar	19 500	26 182	+6 682	29,5	32	+1,5	24,38	26,10

Alohida tur mahsulotlar tannarxi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi bog'lanishlarini berib o'tish mumkin:

$$\mathbf{T_i = D_i / MX_i + O'_i}$$

Bunda: T_i – i mahsulot birligini tannarxi;

D_i – i mahsulot birligiga doimiy xarajatlar;

B_i –i mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar;

M_{xi} – i birlik mahsulot hajmi.

"A" tur mahsulotning tannarxi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Rejadan farqi, (+,-)
Mahsulot ishlab chiqarish hajmi (MX), dona	10 000	13 300	+3 300
Doimiy xarajatlar(D), ming so'm	12 000	20 482	+8 482
Mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar (O'), so'm	2 800	3 260	+460
Mahsulot tannarxi (T), so'm	4 000	4 800	+800

$T_{reja} = D_{reja} / MX_{reja} + O'_{reja} = 12\,000\,000 / 10\,000 + 2800 = 4000$ so'm;

$T_{shartli1} = D_{reja} / MX_{xaq.} + O'_{reja} = 12\,000\,000 / 13\,300 + 2800 = 3702$ so'm;

$T_{shartli2} = D_{xaq.} / MX_{xaq.} + O'_{reja} = 20\,482\,000 / 13\,300 + 2800 = 4340$ so'm;

$T_{xaq.} = D_{xaq.} / MX_{xaq.} + O'_{xaq} = 20\,482\,000 / 13\,300 + 3260 = 4800$ so'm.

Mahsulot birligi tannarxining umumiy o'zgarishi:

$\Delta T_{jami} = T_{xaq.} - T_{reja} = 4800 - 4000 = +800$ so'm.

Shu jumladan:

a) ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi hisobiga:

$\Delta T_{mx} = T_{shartli1} - T_{reja} = 3702 - 4000 = -298$ so'm;

b) doimiy xarajatlar o'zgarishi hisobiga:

$\Delta T_d = T_{shartli2} - T_{shartli1} = 4340 - 3702 = +638$ so'm;

v) o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishi hisobiga:

$\Delta T_{o'} = T_{haq.} - T_{shartli2} = 4800 - 4340 = +460$ so'm.

"A" mahsulot tannarxining xarajat moddalari bo'yicha tahlili

Xarajat moddalari	Xarajatlar summasi			Xarajatlar tarkibidagi salmog'i, %		
	Reja	Haqiqat	Farqi (+,-)	Reja	Haqiqat	Farqi (+,-)
Xomashyo va materiallar	1 700	2 115	+415	42,5	44,06	+2,1
Yoqilg'i va elektr energiya	300	380	+80	7,5	7,92	+0,42
Ishlab chiqarish	560	675	+115	14,0	14,06	+0,06

xodimlarining ish haqi						
Ish haqidan ajratmalar	200	240	+40	5,0	5,0	-
Uskunalarni saqlash va ishlatish xarajatlari	420	450	+30	10,5	9,38	-1,12
Umumishlab chiqarish xarajatlari	300	345	+45	7,5	7,19	-0,31
Umumxo'jalik xarajatlari	240	250	+10	6,0	5,21	-0,79
Brakdan yo'qotishlar	-	25	+25	-	0,52	+0,52
Sug'urta xarajatlari	160	176	+16	4,0	3,66	-0,34
Boshqa xarajatlar	120	144	+24	3,0	3,0	-
Jami ishlab chiqarish xarajatlari	4 000	4 800	+800	100	100	-
Shu jumladan: -o'zgaruvchan -o'zgarmas	 2 800 1 200	 3 260 1 540	 +460 +340	 70,0 30,0	 67,9 32,1	 -2,1 +2,1

"A" mahsulot birligining reja tannarxiga qiyosan o'zgarishi 800 so'mni tashkil etgan. Shu jumladan mahsulot birligining tannarxida o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishi 460 so'mni, doimiy, ya'ni o'zgarmas xarajatlarning o'zgarishi 340 so'mni tashkil etgan. Asosiy xarajat moddalari qatoriga moddiy xarajatlar (xomashyo va materiallar, yoqilg'i va elektr energiya), ish haqi xarajatlari to'g'ri kelgan.

4.7. Mahsulot (ish, xizmat)larning xarajat sig'imini tahlili

Mahsulotning xarajat sig'imini baholash tahlilda eng muhim va hal qiluvchi bo'g'in hisoblanadi. Mahsulotning xarajat sig'imi jami xarajatlar va xarajat elementlari bo'yicha alohida hisob-kitob qilinadi.

Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotning umumiy xarajat sig'imini aniqlash uchun jami ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotning qiymatiga bo'linadi. Xarajatlarning iqtisodiy elementlari bo'yicha hisob-kitoblarida har bitta xarajat elementi alohida hisob-kitob qilinadi. Mahsulotning umumiy xarajat sig'imi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Q_{xs} = X / V, ST$$

Bunda: X – jami ishlab chiqarish xarajatlari (sotilgan mahsulot ishlab chiqarish tannarxi);

V – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati;

ST – sotishdan tushum.

Xarajatlarning iqtisodiy elementlari bo'yicha hisob-kitoblarda har bitta xarajat elementi alohida hisob-kitob qilinadi.

Mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlariga sig'imliligi

Mahsulotning jami xarajatlarga sig'imi				
Q_{xs} = X/ V, SM				
Mahsulotning moddiy xarajat sig'imi	Mahsulotning mehnat haqi xarajat sig'imi	Mahsulotning mehnat haqidan ajratmalarga sig'imi	Mahsulotning amortizatsiya xarajatlariga sig'imi	Mahsulotning boshqa ishlab chiqarish xarajatlariga sig'imi
Q_{mr}= MR / V, SM	**Q_{mx}= M_x / V, SM**	**Q_{mxa} = M_{xa} / V, SM**	**Q_{an} = A_{an} / V, SM**	**Q_{bx} = B_x / V, SM**
Belgilar izohi:				
V, SM – ishlab chiqarilgan **(V)**, sotilgan mahsulot hajmi **(SM)**				
Q_{mr} – mahsulotning mehnat sig'imi	**Q_{mx}** – mahsulotning mehnat haqi sig'imi	**Q_{mxa}** – mahsulotning mehnat haqidan ajratmalarga sig'imi	**Q_{an}** – mahsulotning amortizatsiya, eskirish xarajatlariga sig'imi	**Q_{bx}** – mahsulotning boshqa xarajatlarga sig'imi
MR – moddiy xarajatlar	**M_x** – mehnat haqi xarajatlari	**M_{xa}** – mehnat haqidan ajratmalar	**A_{an}** – asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi (eskirishi)	**B_x** – boshqa xarajatlar

Mahsulotning xarajat sig'imiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilar kiradi: mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi, struktura o'zgarishlari, baho (inflyatsiya ta'sirida, sifat o'zgarishlari, sotish bozorining o'zgarishi) o'zgarishi, doimiy xarajatlar o'zgarishi, o'zgaruvchan xarajatlar o'zgarishi.

Mahsulotning jami xarajat sig'imini tahlili

Yillar	Tahlil qilinayotgan korxonada		Raqobatchi korxonada		Tarmoq bo'yicha o'rtacha korxonada	
	Xarajat sig'imi, tiyin	O'sish darajasi, %	Xarajat sig'imi, tiyin	O'sish darajasi, %	Xarajat sig'imi, tiyin	O'sish darajasi, %
xxx1	84,2	100	85,2	100	90,4	100
xxx2	83,6	99,3	85,0	99,7	88,2	97,6
xxxZ	82,9	98,5	84,0	98,6	86,5	95,7
xxx4	82,5	98,0	83,8	98,4	85,7	94,8
xxx5	81,25	96,5	82,0	96,2	84,5	93,5

Korxonada bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat sig'imi oxirgi yilda 81,25 tiyinni tashkil etgan. Xuddi shu ko'rsatkich raqobatchi korxonada 82,00 tiyinni, tarmoq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 84,50 tiyinni tashkil etgan. Bu bilan korxonadagi holatni raqobatchilarga va tarmoq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan ijobiy baholash mumkin.

Xarajatlarning faqat qiyosiy tahlili emas, balki uning alohida xarajat elementlari bo'yicha o'zgarishlariga ham baho beriladi. Xarajat elementlari bo'yicha tahlil etish mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri boshqarish maqsadida ularning omilli tahlilini amalga oshirishga ham imkon beradi. Negaki har bitta xarajat elementi alohida omillar ta'sirida o'zgaradi.

Xarajat elementlari bo'yicha bir so'mlik mahsulotga xarajatlar tahlili

Xarajat elementlari	Bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar		
	t_0	t_1	(+,–)
Moddiy xarajatlar	43,75	45,45	+1,70
Mehnat haqi va mehnat haqidan ajratmalari	22,78	21,26	–1,52
Amortizatsiya	7,00	6,98	–0,02
Boshqa xarajatlar	8,97	7,56	–1,41
Jami ishlab chiqarish xarajatlari	82,5	81,25	–1,25

Jami ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlar bo'yicha tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar o'tgan yil (t_0) 82,5 tiyinni, joriy yil (t_1) 81,25 tiyinni tashkil etgan. Shundan, moddiy xarajatlar 1,70 tiyinga ko'p sarflangan, qolgan barcha xarajat elementlari bo'yicha iqtisod qilishga erishilgan (1,52+0,02+1,41). Jami iqtisod qilingan qiymat 1,25 tiyinni tashkil etgan. Agar iqtisod qilingan qiymatni jami ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga ko'paytirsak, jami iqtisod qilingan qiymat kelib chiqadi.

Quyida mahsulot ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlarni omilli tahlilini ko'rib chiqishimiz mumkin.

Omillar ta'sirini hisoblashda zanjirli bog'lanish usulidan foydalanish mumkin.

Ishlab chiqarilgan, sotilgan mahsulot hajmi	Summasi
Bazis davri $\sum(Q_0*P_0)$	80 000
Hisobot davri o'tgan yil tarkibi va bahosida $\sum(Q_1*P_0)+\Delta Q_{tar}$	76 000
Hisobot yili bazis bahoda $\sum(Q_1*P_0)$	83 600
Hisobot yili joriy bahoda $\sum(Q_1*P_1)$	100 320

Omillar ta'sirining xarajat sig'imiga ta'sirini baholash

Bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat	Hisob-kitoblar	Omillar				
		Q_x	Q_s	Q_q	Q_p	Q_b
Q_{x0}	66 000 / 80 000 = 82,50	t_0	t_0	t_0	t_0	t_0
$Q_{xshartli1}$	63 675 / 76 000 = 83,78	t_1	t_0	t_0	t_0	t_0
$Q_{xshartli2}$	67 285 / 83 600 = 80,48	t_1	t_1	t_0	t_0	t_0
$Q_{xshartli3}$	64 700 / 83 600 = 77,39	t_1	t_1	t_1	t_0	t_0
$Q_{xshartli4}$	81 510 / 83 600 = 97,50	t_1	t_1	t_1	t_1	t_0
Q_{x1}	81 510 / 100 320 = 81,25	t_1	t_1	t_1	t_1	t_1

Bu yerda:

Q_x – Ishlab chiqarish hajmi;

Q_s – Ishlab chiqarish tarkibi;

Q_q – Iste'mol qilingan resurslar miqdori;

Q_p – Resurslar bahosi;

Q_b – Mahsulotning sotish bahosi;

Q_x; Q_s; Q_q; Q_p; Q_b omillar ta'siri hisob-kitoblari:

Omillar ta'sirini hisob-kitoblari:

$Q_{xshartli1} - Q_{x0} = 83,78-82,50 = +1,28$ tiyin;

$Q_{xshartli2} - Q_{xshartli1} = 80,48-83,78 = -3,30$ tiyin;

$Q_{xshartli3} - Q_{xshartli2} = 77,39-80,48 = -3,09$ tiyin;

$Q_{xshartli4} - Q_{xshartli3} = 97,50-77,39 = +20,11$ tiyin;

$Q_{x1} - Q_{xshartli4} = 81,25-97,50 = -16,25$ tiyin;

Jami o'zgarish = –1,25 tiyin.

Bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar o'zgarishining foydaga ta'sirini tahlili

Omillar	Ta'sir darajasi hisob-kitobi	Foydani o'zgarishi, ming so'm
Ishlab chiqarish hajmi	+1,28–80 442/100	–1 030
Mahsulot tarkibi	–3,30–80 442/100	+2 655
Mahsulotning xarajat sig'imi	–3,09–80 442/100	+2 485
Iste'mol qilingan resurslar bahosi	+20,11–80 442/100	–16 176
Mahsulotlarni o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi	–16,25–80 442/100	+13 072
Jami ta'siri	–1,25	+1 006

Bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar o'zgarishining foydaga ta'sirida ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi (-1 030 ming so'm), iste'mol qilingan resurslar bahosining o'zgarishi salbiy ta'sir etgan (-16 176 ming so'm), qolgan barcha omillar ijobiy ta'sir etgan.

Davr xarajatlari tahlili

Davr xarajatlari deganda – bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi.

Davr xarajatlariga quyidagi moddalar kiradi:

1. Sotish xarajatlari;
2. Ma'muriy xarajatlar;
3. Boshqa operatsion xarajatlar.

Sotish xarajatlari – savdo faoliyati jarayonlari davomida yuzaga keladigan sarflarni ifodalab, bevosita sotish bilan bog'liq xarajatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ularning tarkibiga tovarlarni tashib keltirishdan boshlab, transport, reklama, savdo xodimlari ish haqlari, ijtimoiy sug'urta, tovarlarning norma va undan ortiqcha yo'qolishlari, gaz-yoqilg'i va energiya, tovarlar sifatini saqlash, savdo xodimlari faoliyati davomiyligini ta'minlash va ularni maxsus shakl bilan ta'minlash, marketing xarajatlari kiradi.

Ma'muriy xarajatlar – faoliyat uzluksizligini ta'minlashda zarur soha bo'lgan, boshqarish bilan bog'liq sarflarni ifodalaydi. Bu xarajat elementi tarkibiga ma'muriy xodimlar ish haqi, ijtimoiy sug'urtasi, xizmat avtomobillari bilan bog'liq, aloqa vositalari xizmatlari, xizmat safarlari, vakillik xarajatlari, ma'muriy binolar amortizatsiyasi kabi xarajatlar kiradi.

Boshqa operatsion xarajatlar – korxonalarning operativ faoliyati davomida yuzaga keladigan jarayonlar bilan bog'liq sarflardan iborat. Bular asosan: kadrlar tayyorlash, loyiha va qurilish-montaj, maslahat va axborot xizmatlari, auditorlik xizmatlari, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar, xodimlar dam olishi, ekskursiya va sayohat bilan bog'liq tadbirlar, kompensatsiya to'lovlari, mukofot va taqdirlash, turli xil haq to'lash va moddiy yordam sarflari, sud jarayonlari sarflari, soliq bo'yicha jarimalar kabilardan iborat.

Yuqoridagilardan tashqari korxona xarajatlarining moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlar, favqulodda zararlar qatori ham tarkiblanadi.

Sotish xarajatlari quyidagi xarajat moddalaridan tarkib topadi.

Sotish xarajatlari tarkibi

t/r	Xarajatlar tarkibi
1.	Tovarlarni temir yo‘l, havo, avtomobil, dengiz, daryo transportida va ot-ulovda tashish xarajatlari. Ushbu moddaga tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to‘langan jarimalar kiritiladi
2.	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari sotish bo‘yicha xarajatlari, shu jumladan:
2.1.	mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bog‘liq mehnatga haq to‘lash xarajatlari
2.2.	ijtimoiy sug‘urtaga xarajatlar.
2.3.	savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga olish, saqlash va tuzatish xarajatlari
2.4.	inventarlar va xo‘jalik buyumlari qiymatini hisobdan chiqarish xarajatlari hamda ularni belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatda saqlash (ta’mirlash, yuvish, tuzatish, dezinfeksiya qilish va h. k.) bilan bog‘liq boshqa xarajatlar
2.5.	gaz, yoqilg‘i, elektr energiyasi xarajatlari
2.6.	tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va ularni sortlarga ajratish xarajatlari
2.7.	savdo reklamasi xarajatlari
2.8.	tashish, saqlash va sotish chog‘ida tovarlarning yo‘qotilishi
2.9.	o‘rash-joylash materiallari xarajatlari
2.10.	mol-mulkni majburiy va ixtiyoriy sug‘urta qilish xarajatlari
2.11.	mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi xarajatlari
2.12.	ventilyatorlar, mashinalar va ularning harakatlanuvchi qismlarini o‘rnatish va saqlash, tuynuklar, o‘yiqlar va boshqalarning atrofini o‘rash bo‘yicha joriy (nomukammal tusdagi) xarajatlar
2.13.	umumiy ovqatlanish va savdo xodimlari tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun tibbiyot muassasalariga haq to‘lash
2.14.	kassa xo‘jaligini va tushum inkassatsiyasini yuritish chiqimlari
3.	Umumiy ovqatlanish korxonalarida qog‘oz salfetkalar, qog‘oz dasturxonlar, qog‘oz stakanlar va tarelkalar, bir marta foydalaniladigan anjomlar qiymati
4.	Yuqorida sanab o‘tilmagan sotish bo‘yicha boshqa xarajatlar

Ma’muriy xarajatlarga korxonalar boshqaruvi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar kiradi va ularning birlik qatorlariga quyidagilar kiradi:

Ma'muriy xarajatlar tarkibi

t/r	Xarajatlar tarkibi
a	Boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari
b	Boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar
c	Xizmat yengil avtotransportiga va xizmat mikroavtobusini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari
d	Xo'jalik yurituvchi subyekt va uning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari
e	Boshqaruvning texnik vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlarini va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan boshqaruvning boshqa texnik vositalarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari
f)	Telekommunikatsiyalar xizmatlari, shu jumladan: mahalliy tarmoqlar abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov; kanallarni ijaraga berish; ko'chma yo'ldosh va peyjing aloqa; radiochastota spektridan foydalanish; ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, shu jumladan internet uchun haq to'lash
g	Shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun haq to'lash
h	Ma'muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun binolar va xonalar ijarasi uchun haq to'lash
i)	Ma'muriy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy vositalarni saqlash va ularni tuzatish, shuningdek, eskirish (amortizatsiya) xarajatlari
j)	Yuqori tashkilotlar va yuridik shaxslar birlashmalari: vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlar va boshqalar xarajatlariga ajratmalar
k	Xodimlarni va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan mol-mulkni majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari
l)	Boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish bo'yicha xarajatlar
m	Vakillik xarajatlari
n	Umumiy ovqatlanish korxonalari va boshqalarga binolarni tekin berish va kommunal xizmatlar qiymatiga haq to'lash xarajatlari
o	Bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lmagan, tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga ega bo'lgan jamg'armalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy xarajatlar, tabiiy atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari

p	Xizmatlar qiymatini to‘lash hamda investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchilari, davlatning ishonchli vakillari va ishonchli boshqaruvchilarning mukofotlari bo‘yicha xarajatlar
q	Ma’muriy maqsadlar uchun foydalaniladigan inventarlar va xo‘jalik anjomlari qiymatini hisobdan chiqarish bo‘yicha xarajatlar hamda ularni belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatda saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar

Boshqa operatsion xarajatlar tarkibi

t/r	Xarajatlar tarkibi
a	Kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari, yangi tashkil etilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektda ishlash uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bundan mustasno
b	Loyiha va qurilish-montaj ishlarida chala ishlarni bartaraf etish xarajatlarini qoplash, shuningdek, obyekt qoshidagi omborgacha transportda tashish chog‘idagi shikastlanishlar va buzilishlar, korroziyaga qarshi himoya nuqsonlari tufayli kelib chiqqan taftish xarajatlari (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) va shunga o‘xshash boshqa xarajatlar yetkazib berish va ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga mazkur xarajatlar chala ishlar, shikastlanish yoki zarar ko‘rish uchun javobgar bo‘lgan yetkazib beruvchi yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisobiga undirilishi mumkin bo‘lmagan darajada amalga oshiriladi
c	Maslahat va axborot xizmatlariga haq to‘lash
d	Auditorlik xizmatlariga haq to‘lash, o‘tkaziladigan auditorlik xizmatlariga haq to‘lash
e	O‘zining xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo‘jaliklarni saqlashdan ko‘rilgan zararlar
f)	Salomatlikni muhofaza qilish va xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog‘liq bo‘lmagan dam olishlarni tashkil etish tadbirlari
g	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlar (xizmatlar)ni (shahar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo‘jaligiga yordam berish va boshqa xil ishlarni) bajarish xarajatlari
h	Kompensatsiya va rag‘batlantirish tusidagi to‘lovlar
i)	Ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to‘lovlar va xarajatlar
j)	Sog‘liqni saqlash obyektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, sog‘lomlashtirish lagerlari,

	madaniyat va sport obyektlari, xalq ta'limi muassasalari, shuningdek, uy-joy fondi obyektlari ta'minotiga (shu jumladan barcha turdagi ta'mirlash ishlarini o'tkazishga amortizatsiya ajratmalari va xarajatlarni ham qo'shgan holda) xarajatlar
k)	Vaqtincha to'xtatib qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanadigan xarajatlardan tashqari)
l)	Bankning, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining va qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarning xizmatlariga haq to'lash
m)	Ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa xayriya jamg'armalariga, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga badallar
n)	Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan va xo'jalik yurituvchi subyekt xarajatlariga kiritiladigan byudjetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'imlar, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar, shuningdek, hukumat qarorlariga binoan xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash
o)	Zararlar, jarimalar, peniyalar
p)	Xodimlarga beriladigan yoki yordamchi xo'jaliklar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektning umumiy ovqatlanish korxonasi uchun ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narx tafovutlari
q)	Gudvill (firma narxi)ning nomoddiy aktivi summasini hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlar, ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan mol-mulk bo'yicha, belgilangan tartibda
r)	Yangi texnologiyalar yaratish va qo'llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari olib borish, xomashyo va materiallarning yangi turlarini yaratish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash bilan bog'liq mahsulotlar sifatini oshirish xarajatlari
s)	Ishlab chiqarish tusidagi ixtirochilik, ratsionalizatorlik, tajriba ishlari olib borish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari bo'yicha modellar va namunalarni tayyorlash va sinash, ko'rgazmalar va ko'riklar, tanlovlarni, sertifikatlashni hamda ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha boshqa tadbirlarni tashkil etish, mualliflar haqini to'lash xarajatlari va boshqa xarajatlar
t)	Ijaraga berilgan asosiy vositalarni ta'minlash xarajatlari

u	Boshqaruv xodimlariga va ishlab chiqarish jarayonida qatnashmaydigan boshqa xodimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug‘ish nafaqalari to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq
v	Yangi ishlab chiqarishlarni, sexlar, agregatlarni, shuningdek, seriyali va ommaviy mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni va texnologik jarayonlarni o‘zlashtirish xarajatlari
w	Ayrim mashinalar va mexanizmlarni yakka tartibda sinab ko‘rish hamda foydalanilayotgan uskunalar va texnik qurilmalarning barcha turlarini, ularni montaj qilish sifatini tekshirib ko‘rish maqsadida kompleks (mahsulot chiqarmasdan) ishlatib ko‘rish
x	Yangidan ishga tushirilgan korxonada ishlash uchun ishchi kuchlarini jalb qilish va kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq xarajatlar
y	Foydalanishdagi to‘liq eskirgan uskuna uchun to‘lov
z	Ishlab chiqarish jarayonini to‘xtatib turish davrida ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarini saqlash hamda ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlari
	Boshqa xarajatlar

Davr xarajatlarining tahlili

t/r	Davr xarajatlari tarkibi	O‘tgan yil		Hisobot yili		farqi		O‘sish daraja si
		summasi	salmo g‘i	summ asi	salmo g‘i	summ asi	salmo g‘i	
1	Sotish xarajatlari	254 260	58,29	389 452	65,20	135 192	+6,91	153,2
2	Ma’muriy xaratlar	56 423	12,93	65 241	10,92	8 818.0	-2,01	115,,6
3	Boshqa operatsion xarajatlar	125 463	28,76	142 560	23,86	17 097.0	-4,09	113,6
•	Jami	436 146	100	597 253	100	161 107	-	136,9

Korxonada davr xarajatlari o‘tgan yilga nisbatan 161 107 ming so‘mga ortgan. Bu bevosita sotish xarajatlarining 135 192 ming so‘mga, ma’muriy xarajatlar 8 818 ming so‘mga, boshqa operatsion xarajatlarining 17 097 ming so‘mga o‘sishi hisobiga ro‘y bergan. Davr xarajatlari tarkibida eng yuqori ulushni sotish va boshqa operatsion

xarajatlar tashkil etgan. Jami davr xarajatlarining o'tgan yilga nisbatan o'sishi 136,9 foizni tashkil etgan.

4.8. Xarajatlarni maqbullashtirish va samaradorlikni oshirish yo'llari

Ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishning eng muhim tadbirlariga ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalangan holda ishlab chiqarish hajmini o'stirish, mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali va tejamli foydalanish, ishlab chiqarishda brak mahsulotlarga yo'l qo'ymaslik hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini keskin qisqartirish tadbirlari kiradi. Ularni tarkib bo'yicha ikkita guruhga ajratish mumkin.

1. Mahsulot hajmini o'stirish imkoniyatlari;

2. Xarajatlarni pasaytirish va mahsulot tannarxini arzonlashtirish imkoniyatlari.

Korxona daromadliligini ta'minlash va uni o'stirishning eng muhim omili bu ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va ularni minimallashtirish bilan bog'lanadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bahosini o'sishi hisobiga erishilgan ijobiy natijani doimo ham ta'minlab bo'lmaydi. Chunki baho o'zgarishlari korxonani foydaga ishlashini kafolatlay olmaydi. Negaki, mahsulotlarning bahosi bozor qonun qoidalari asosida tashqi omil sifatida doimo o'zgarib turadi.

Xarajatlarni iqtisod qilish korxona rentabelligini o'stirishning ham zaruriy sharti hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisod qilish uning tarkib elementlari va xarajat moddalari bo'yicha chuqur va keng qamrovli tahlil o'tkazish talab etiladi.

Xarajatlarni iqtisod qilish har bir xarajat elementi, uning o'zgarishlari, o'zgarish sabablarini tizimli modellar asosida tadqiq etishni talab etadi.

Shu bilan birga korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish yuzasidan quyidagi yo'nalishlarini belgilab o'tish lozim:

- mehnat predmetlari va ulardan foydalanish bilan bog'liq imkoniyatlar;
- mehnatning o'zi bilan bog'liq imkoniyatlar;
- mehnat vositalari bilan bog'liq imkoniyatlar;
- ishlab chiqarishni, mehnatni va boshqaruvni tashkil etish bilan bog'liq imkoniyatlar.

Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisod qilish, xarajatlarni kamaytirishning eng maqbul yechimiga ishlab chiqarishni texnik rivojlantirish orqaligina erishiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisod qilishning umumiy hajmini quyidagi bog'lanish orqali topish mumkin.

$I_i = (Zi_b - Zi_o) * Vi_o$

Bu yerda: I_i – ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodi;

Zi_b – xarajatlarni iqtisod qilishga choralar ko'rilgunga qadar mahsulot birligiga xarajatlar summasi;

Zi_o – xarajatlarni iqtisod qilish yuzasidan ko'rilgan choralardan keyingi mahsulot birligiga xarajatlar summasi;

Vi_o – xarajatlarni iqtisod qilishga ko'rilgan choralar boshlangan davrdan hisobot davri oxiriga qadar ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish rezervi ishlab chiqarish dasturi bajarilishini tahlil etish orqali aniqlanadi. Mahsulot hajmini ortishi tufayli xarajatlarni o'zgaruvchan qismi (ishchilarning ish haqi, material xarajatlari va boshqa xarajatlar) ortgan holda, xarajatlarni o'zgarmas qismi turg'un holatda saqlanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish yuzasidan imkoniyatlar va ularni hisob-kitobi

Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisod qilish	**Aniqlash formulasi**
1. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish	(P↑VBP)

darajasi	
2. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga	(R↓Z)
3.Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash formulasi	$Z_f - R{\downarrow}Z + Z_d\ Z_f$ $R{\downarrow}S = S_V - S_F = - P_F + P{\uparrow}VB_P\ VBP_F$ Bu yerda: S_V, S_F –choralar ko'rilgunga qadar va choralar ko'rilgandan keyingi mahsulot tannarxi; Z_d – mahsulot hajmini o'stirish yuzasidan imkoniyatlarni ishga solish yuzasidan qo'shimcha xarajatlar
4.Mehnat haqi bo'yicha xarajatlar iqtisodi (R↓ZP)	$R{\downarrow}ZP = (U_{TE1} - U_{TE0}) \times OT_{pl} \times VVP_{pl}$ Bu yerda: U_{TE0} – mahsulotning choralar ko'rilgunga qadar ish haqi sig'imi; U_{TE1} – mahsulotning choralar ko'rilgandan keyingi ish haqi sig'imi; OT – rejada belgilangan bir soatlik mehnat haqi VVP_{pl} – ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan mahsulot hajmi
5.Moddiy xarajatlar iqtisodi (R↓MZ)	$R{\downarrow}MZ = (U_{R1} - U_{R0}) \times VVP_{pl} \times Ts_{pl}$ Bu yerda: U_{R0},U_{R1} – choralar ko'rilgunga qadar va choralar ko'rilgandan keyin mahsulot birligiga material xarajatlari; Ts_{pl} – materiallarning reja bahosi
6.Asosiy vositalarni saqlash, ishlatish xarajatlari iqtisodi (R↓OPF)	$R{\downarrow}A = \sum (R{\downarrow}OPF_i \times NA_i)$ Bu yerda: NA_i – amortizatsiya normalari; OPF_i - asosiy vositalarni boshlang'ich qiymati
7.Boshqa xarajatlar iqtisodi	$Zd = R{\uparrow}VVP_i \times b_{if}$ Bu yerda: b_{if}-o'zgaruvchan xarajatlarning haqiqatdagi salmog'i

Nazorat uchun savollar

Xarajatlar tahlili mazmuni, maqsadi va vazifalarini tushuntiring?

Xarajatlar va ularning tasnifini tushuntiring?

Moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi?

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni tarkiblang?

Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlarni tavsiflang?

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarga nimalar kiradi?

Moddiy xarajatlar tarkibini izohlang?

Mehnat haqi xarajatlari tarkibini izohlang?

Ijtimoiy sug'urta ajratmalariga nimalar kiradi?

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarga qanday xarajatlar kiradi?

Proporsional, degressiv, progressiv o'zgaruvchan xarajatlar qanday xarajatlar?

Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan jami xarajatlar o'zgarishi tahlili?

Xarajatlarni umumiy hajmi va ularni asosiy elementlari bo'yicha baholash, tahlil qilish?

Jami ishlab chiqarish xarajatlari va ularning omilli tahlili?

Iqtisodiy elementlari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari tahlili?

Xarajatlarni faoliyat turlari, javobgarlik markazlari kalkulyatsiya moddalari bo'yicha tahlili?

Ishlab chiqarish xarajatlarini faoliyat turlari bo'yicha tahlili?

Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va moddalari bo'yicha turkumlanishi?

Xarajatlarni moddalari bo'yicha tahlili?

Moddiy, mehnat haqi, asosiy vositalarni saqlash va ishlatish xarajatlari tahlili?

Moddiy xarajatlar va ularning o'zgarishi, o'zgarishga ta'sir etuvchi omillar tahlili?

Korxonada ish haqi fondining tahlili?

Ishchilarning o'rtacha ish haqi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili?

Amortizatsiya va eskirish xarajatlarini tahlili?

Asosiy vositalarni amortizatsiyasi, ularni saqlash va ishlatish xarajatlarining omilli tahlil modellari?

Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxini tahlili?

Mahsulot (ish, xizmat)larning xarajat sig'imini tahlili?

Xarajat elementlari bo'yicha bir so'mlik mahsulotga xarajatlar tahlili?

Bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar o'zgarishining foydaga ta'sirini tahlili?

5-BOB. BUXGALTERIYA BALANSI TAHLILI

5.1. Buxgalteriya balansi tahlili mazmuni va vazifalari.

5.2. Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi: aktivlar, kapital va majburiyatlar.

5.3. Balans moddalari va uning boshqa moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga mosligi.

5.4. Buxgalteriya balansini "o'qish".

5.5. Buxgalteriya balansining gorizontal (davriy) tahlili.

5.6. Buxgalteriya balansining vertikal (tarkibiy) tahlili.

5.7. Korxona moliyaviy holatining tahlili.

5.8. Korxonalar iqtisodiy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili.

5.9. Korxonalarning moliyaviy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili.

5.10. Buxgalteriya balansi moddalarining likvidlilik bo'yicha turkumlanishi. Buxgalteriya balansining likvidliligi va korxona to'lov layoqatining tahlili.

5.1.Buxgalteriya balansi tahlili mazmuni va vazifalari

Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, xo'jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy ahvoli haqidagi axborotni to'playdi hamda oshkor qiladi.

Buxgalteriya balansida uzoq muddatli va joriy aktivlar, o'z sarmoyasi, uzoq muddatli va joriy majburiyatlar hamda ularni oshkor qilishda, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini tahlil qilishda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun yordam bera oladigan axborotdan iborat bo'ladi.

Buxgalteriya balansidagi barcha axborot to'g'ri oshkor qilinishi va foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishi kerak. Zarur hollarda buxgalteriya balansiga kiritiladigan moddalar ularni tushuntirib beradigan axborotlar bilan to'ldiriladi.

"Balans" atamasi lotincha "bis" – ikki marta, "banx" – tarozi pallasi so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, ikki palla degan ma'noni anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Buxgalteriya balansini turli tasnifiy belgilari (tuzilish vaqti, axborot hajmi, aks ettirish obyekti, tozalash usuli) bo'yicha turlarini tarkiblash mumkin.

Buxgalteriya balansini turlari

Tarkiblash belgisi	Balans turlari	Mazmuni
Tuzilish davriga ko'ra	Tashkil topish balansi	Korxonaning tashkil topish vaqtida tuziladi
	Joriy balans	Korxonaning uzluksiz faoliyatida, qonunda belgilangan muddatlarda tuziladi
	Tugatish balansi	Korxona tugatilganda tuziladigan balans
	Bo'lish balansi	Yirik korxona bir necha mayda korxonalarga bo'linish vaqtida tuziladi
	Birlashtirish balansi	Bir necha korxonalar bir korxonaga birlashganda tuziladi
Axborot hajmiga ko'ra	Bir martalik	Bir martalik balans faqat bitta korxona bo'yicha joriy hisob asosida tuziladi
	Yig'ma balans	Yig'ma balans bir martalik balanslar asosida tuziladi va birlashmalar (vazirliklar, qo'mita, boshqarmalar va shu kabilar)ning xo'jalik mablag'larini aks ettiradi
Aks ettirish obyektiga ko'ra	Mustaqil balans	Mustaqil balansni huquqiy shaxs bo'lgan barcha korxonalar tuzadi
	Alohida balans	Alohida balansni korxonaning tarkibiy bo'linmalari (filiallar, bo'limlar, sho''ba va qaram xo'jaliklar va shu kabilar) tuzadi
Tozalash usuliga ko'ra	Brutto balans	Tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balansdir
	Netto blans	Qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegirilgan balans

Buxgalteriya balansining maqsadi – xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya balansi uning resurslarini va moliyaviy tarkibini anglab yetishga imkoniyat berishi uchun hisobot vaqtidagi moliyaviy ahvolni aks ettirishdan iborat. Balansning jamlangan qatorlari bo'yicha tasnifiy jihatlarini quyida ko'rib o'tishimiz mumkin.

Joriy va uzoq muddatli aktivlarni tasniflash. Har bir subyekt joriy aktivlarni va joriy majburiyatlarni buxgalteriya balansida alohida tasnif sifatida ko'rsatishni (yoki ko'rsatmaslikni) belgilab olishi lozim. Xo'jalik yurituvchi subyekt bu tasnifni amalga oshirmaydigan variantni tanlab olsa, aktivlar va majburiyatlarni to'lash muddatlariga doir axborot nima bo'lganda ham buxgalteriya hisobining milliy standartlariga asosan ochib ko'rsatilishi zarur.

Xo'jalik yurituvchi subyekt aniq belgilanadigan operatsiya siklidan foydalanib, tovarlar va xizmatlarni yetkazib bersa, u holda balans hisobotidagi joriy va uzoq muddatli aktivlar hamda majburiyatlarning alohida tasnif etilishi aylanma mablag' sifatida doimo muomalada bo'ladigan sof aktivlar bilan subyektning uzoq muddatli operatsiyalarida foydalaniladigan aktivlar o'rtasidagi tafovutni farqlash yo'li bilan juda foydali axborotga ega bo'linadi. Shuningdek, u joriy operatsiya tsikli davomida olinishi kutilayotgan aktivlarni hamda shu davr ichida to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlarni ham alohida ko'rsatishi lozim.

Agar aktivlar xo'jalik yurituvchi subyekt operatsion faoliyatining bir qismi bo'lsa va subyektning operatsiya sikli me'yorida o'tayotgan paytda uni olish yoki iste'mol qilish kutilayotgan bo'lsa, mazkur aktivlar joriy aktivlar qatoriga kiritiladi.

Agar aktivlar qayta sotish maqsadida yoki qisqa muddatda ushlab turilgan bo'lsa va undan hisobot vaqtidan keyingi 12 oy mobaynida foydalanish kutilayotgan bo'lsa, bunday hollarda u joriy aktiv sifatida tasnif etilishi zarur. Ushbu tasnifiy jihatlardan farqli jihatlarda boshqa barcha aktivlar uzoq muddatli aktivlar sifatida tasnif etilishi kerak.

Odatda joriy aktivlarning ikki turi tarkiblanadi:

- birinchi turi xo'jalik yurituvchi subyekt aylanma mablag'ining bir qismi bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektning me'yoriy operatsion sikli davomida olingan yoki iste'mol qilingan bo'lishi lozim;

- ikkinchi turi operatsiya aktivlari bo'lmagan, lekin savdo yoki investitsiya maqsadlarida saqlab turilgan va ularni hisobot vaqtidan keyingi 12 oy davomida sotish kutilayotgan joriy aktivlar doirasidan iborat. Hisobot sanasidan keyingi 12 oy davomida olinadigan yoki iste'mol qilinadigan zaxiralar va debitorlik qarzlari ham joriy aktivlarga kiritiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning operatsion sikli – bu materiallarni xarid qilish, ishlab chiqarish va naqd pulga yoki osonlik bilan pulga aylantiriladigan moliyaviy aktivlarga sotish o'rtasidagi o'rtacha vaqtdir. Uzoq muddatli va joriy operatsion aktivlarni tasnif etish maqsadida ayni shu tarmoq yoki faoliyatning shu turi uchun kattaroq davr ancha muvofiqroq hisoblanmasa, bir yil oraliq operatsion sikl hisoblanadi.

Uzoq muddatli (joriy bo'lmagan) aktivlar – subyekt faoliyatida uzoq muddatli asosda foydalaniladigan aktivlar, jumladan subyektning mulki, binolari va uskunalari, moddiy aktivlari, taraqqiyot va gudvillga xarajatlar. Investitsiyalash maqsadida saqlab turilgan va hisobot kunidan boshlab, 12 oy davomida sotilishi mumkin bo'lmagan aktivlardir.

Qisqa muddatli (joriy) majburiyatlar – hisobot kunidan boshlab, 12 oy davomida hisob-kitob qilinadigan majburiyatlardir.

Joriy majburiyatlarning tavsifi joriy aktivlar tavsifiga o'xshashdir. Kreditorlik qarzi ish haqi, soliqlar bo'yicha qarzlar va boshqa operatsiya xarajatlari bo'yicha qarzlar kabi ayrim joriy majburiyatlar joriy aktivlar hisobidan hisob-kitob qilishni talab qiladi, chunki subyektning odatdagi operatsiyasi tsiklida foydalaniladigan aylanma mablag'ni tashkil etuvchi moddalar bo'yicha majburiy hisoblanadi. Bunday operatsiya moddalari hatto hisobot vaqtidan so'ng 12 oydan ortiq davr davomida ham hisob-kitob qilinishi lozim bo'lsada, joriy majburiyatlar hisobida tasnif qilinadi.

Joriy majburiyatlarga, shuningdek, bank overdraftlari, to'lanadigan dividendlar, daromad soliqlari, savdo bilan bog'liq bo'lmagan o'zga kreditorlik qarzlari, foizlarni to'lashni talab qiladigan qisqa muddatli majburiyatlarning joriy qismi kiradi. Ular hisobot kunidan boshlab 12 oy davomida hisob-kitobni talab etsada, operatsiya nuqtayi nazaridan joriyligini aniqlash qiyin.

Uzoq muddatli asosda aylanma mablag'dan pul bilan ta'minlanadigan, foizni to'lashni talab qiluvchi majburiyatlar (12 oy davomida hisob-kitob qilinmaydigan majburiyatlar) uzoq muddatli (nojoriy) majburiyatlar hisoblanadi.

Qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarni qayta moliyalash tartibi. Qisqa muddatli (joriy) majburiyatlar – hisobot sanasidan boshlab 12 oy davomida hisob-kitob qilinishi lozim bo'lgan majburiyatlardir.

Dastlabki muddat 12 oydan ko'proq bo'lsa, subyekt majburiyatni uzoq muddatli asosda qayta moliyalashni rejalashtirayotgan bo'lsa, bu tartiblar moliyaviy hisobot ma'qullangunga qadar qaytadan moliyalashga yoki to'lovlar muddatini o'zgartirishga qaratilgan bitim bilan qo'llab-quvvatlansa, bunday sharoitda nojoriy majburiyatlar sifatida tasnif etilishi lozim.

Joriy majburiyatlardan chiqarib yuboriladigan har qanday qisqa muddatli qarz miqdori uni taqdim etishni qo'llab-quvvatlovchi axborot bilan birgalikda buxgalteriya balansiga izohlarda ochib berilishi lozim.

Buxgalteriya balansida aks ettirilishi lozim bo'lgan axborot. Xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya balansi moliyaviy holatning tarkibini tashkil etuvchi turli jihatlarni aks ettiradigan tarzda taqdim etilishi lozim. Quyidagilar buxgalteriya balansining majburiy unsurlari hisoblanadi:

- moddiy aktivlar;
- nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy aktivlar;
- zaxiralar;
- debitorlik qarzi;

- pul mablag'lari va pul ekvivalentlari;
- kreditorlik qarzi;
- ajratmalar;
- foiz to'lashni talab qiluvchi majburiyatlar;
- o'z sarmoyasi va zaxiralari.

Buxgalteriya balansi unsurlari

Balans unsurlari	Tasnifiy unsurlari
Moddiy aktivlar	Asosiy vositalar, moddiy aktivlarga qo'yilmalar, moddiy aktivlarga foydali sarmoyalar, uzoq muddatli investitsiyalar, materiallar, tovarlar, tayyor mahsulotlar
Nomoddiy aktivlar	Moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan mol-mulk obyektlari
Moliyaviy aktivlar	Uzoq muddatli investitsiyalar, uzoq muddatli debitor qarzlar, uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar, debitorlik majburiyatlari
Zaxiralar	Kelgusida muayyan xarajatlarga sarflanishi mumkin bo'lgan xususiy sarmoyaning bir qismi
Debitorlik qarzi	Xaridor va buyurtmachilarning qarzi, ajratilgan bo'linmalarning qarzi, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarning qarzi, xodimlarga berilgan bo'naklar, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar, byudjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari, maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari, ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi, boshqa debitor qarzlar
Pul mablag'lari va pul ekvivalentlari	Kassadagi pul mablag'lari, hisob raqamidagi pul mablag'lari, chet el valyutasidagi pul mablag'lari, boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlari
Kreditorlik qarzi	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz, ajratilgan bo'linmalarga qarz, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga qarz, kechiktirilgan daromadlar, soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar, boshqa kechiktirilgan majburiyatlar, olingan bo'naklar, byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz, sug'urtalar bo'yicha qarz, maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz, ta'sischilarga bo'lgan qarzlar, mehnatga haq

	to‘lash bo‘yicha qarz
Ajratmalar	Qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriluvchi (amortizatsiya, byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga va h.k.) ajratmalar
Foiz to‘lashni talab qiluvchi majburiyatlar	Kreditlar, qarzlar, ssudalar, dividendlar bo‘yicha yuzaga keluvchi majburiyatlar
O‘z sarmoyasi va zaxiralari	O‘z sarmoyasi – subyektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir. Zaxiralar – zarar oqibatlaridan qo‘shimcha muhofaza qilish yuzasidan barpo etilgan fondlar

Taxminiy baholashning ko‘pgina darajasidan foydalanish yo‘li bilangina baholash mumkin bo‘lgan majburiyatlar zaxira hisoblanadi. Subyektni va kredit bergan tashkilotlarni zarar oqibatlaridan qo‘shimcha muhofaza qilishni ta’minlash uchun qonun yoki ustavda zaxiralarni barpo etish ko‘zda tutiladi.

Balansga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlarda taqdim etiladigan axborot. Xo‘jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya balansiga tushuntirishlarda quyidagilarni ochib berishi lozim:

a) Aksiyadorlik mablag‘ining har bir toifasi bo‘yicha: e’lon qilingan aksiyalar sonini, chiqarilgan, haqi to‘la to‘langan, chiqarilgan, lekin haqi to‘la to‘lanmagan aksiyalar sonini, aksiyalarning nominal qiymatini, yilning boshida va oxirida haqi to‘lanmagan aksiyalar sonining kamayishini, aksiyadorlik mablag‘ining har bir toifasiga taalluqli huquqlar, afzalliklar va cheklashlar, shu jumladan dividendlarni taqsimlash va sarmoyani qoplashga doir cheklashni, jamiyatning o‘ziga, xo‘jalik yurituvchi subyektga qarashli sho‘ba va uyushgan jamiyatlariga tegishli aksiyalar, opsion va savdo shartnomasi bo‘yicha emissiya uchun zaxiraga ajratilgan aksiyalar, shu jumladan ularning muddatlari va miqdorlari haqidagi axborotlar;

v) O‘z sarmoyasidagi zaxiralar mohiyati va maqsadlari bayoni.

s) Majburiyatlarda dividendlarni to‘lash uchun ajratilgan pul miqdorining mavjudligi (aksiyadorlar yoki muassislar, ishtirokchilar yig‘ilishida rasmiy ravishda ma’qullanmagan to‘lovlar miqdorining mavjudligi) haqidagi axborotlar ochib berilishi zarur.

Xo'jalik yurituvchi subyekt o'z sarmoyasidagi o'zgarishlarni aniq aks ettirishi yuzasidan buxgalteriya balansiga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlarda, shuningdek:

- davr boshida va hisobot sanasida to'plangan foyda yoki zararlarning qoldig'i hamda shu davrda yuz bergan muhim o'zgarishlar, jumladan aksiyadorlar (muassislar, ishtirokchilar) har bir toifasiga shu davr uchun taqsimlanadigan sof foyda haqidagi;
- o'z sarmoyasi har bir toifasi joriy miqdordagi hamda davrning boshlari va oxirida zaxiradagi o'zgarishlarning umumiy miqdori haqidagi axborotlarni ochib berishi lozim.

Buxgalteriya balansi tahlilining mazmuni – korxonaning mulkiy holati va uning o'zgarishlariga, aktivlar, kapital va majburiyatlarning tarkibi va o'zgarishlariga, balans moddalarining likvidlik darajasiga, xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lov layoqatiga, moliyaviy barqarorligiga, ish aktivligiga, raqobatbardoshligi va iqtisodiy tahlikalarga bardoshligiga baho berishdan iborat.

Buxgalteriya balansi tahlili oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- korxonaning mulkiy va moliyaviy holatini baholash;
- aktivlarning likvidligini baholash;
- aktivlarni shakllantirish manbalari tarkibini baholash;
- majburiyatlarning aktivlar bilan ta'minlanganligini baholash;
- aktivlar va passivlarning alohida guruhlari o'rtasidagi muvofiqlikni baholash;
- aktivlarni pul ishlab topish imkoniyatlarini baholash;
- kapitalni shakllanishi va o'stirish imkoniyatlarini baholash.

5.2. Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi: aktivlar, kapital va majburiyatlar

Buxgalteriya balansi axborotlariga tayangan holda xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyati hamda uning natijalari baholanadi. Buxgalteriya balansidagi axborotlarning mazmunini bilish uchun nafaqat buxgalteriya balansi tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega

bo'lish, balki uning moddalari va ayrim ko'rsatkichlari o'rtasidagi mantiqiy va o'ziga xos bog'liqliklarni ham bilish zarur. Buxgalteriya balansining mazmunini bilishda uni o'qish ketma-ketligi ham muhim ahamiyatga ega.

Buxgalteriya balansining aktivi va passivining tuzilishi hamda mazmuni undagi axborotdan foydalanuvchilar, eng avvalo, tashqi foydalanuvchilarga qaratilgan. Debitor va kreditor qarzlarning holatini ochib beruvchi, korxonaning joriy xarajatlari yoki foydasi hisobidan tashkil etilgan xususiy kapital va ayrim turdagi rezervlar shakllanishini ochib beruvchi moddalarning batafsillik darajasini yuqoriligi shundan kelib chiqadi.

Buxgalteriya balansi elementlari va ularning tasnifiy jihatlari

Buxgalteriya balansi elementlari	Tavsifi
Aktivlar	Subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir
Xususiy kapital (sarmoya)	Subyektning majburiyatlarini chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir
Majburiyatlar	Shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to'lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o'z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir

Buxgalteriya balansini moliyaviy tahlilga tayyorlash yuzasidan uning elementlari va moddalarini turli tasnifiy belgilari bo'yicha ko'rsatkichlar tizimiga jamlash talab etiladi. Bu tasnifiy belgilar ularning shakli, aylanuvchanlik darajasi, likvidligi bo'lishi mumkin.

Buxgalteriya balansi aktiv va passiv tomoni klassifikatsiyasi

Aktiv (A)	Uzoq muddatli aktivlar (UMA)
	Joriy aktivlar (JA)
Moliyaviy aktivlar (MA)	Moliyaviy uzoq muddatli aktivlar (MUMA)
	Moliyaviy joriy aktivlar (MJA)

Moliyaviy bo'lmagan aktivlar	Moliyaviy bo'lmagan uzoq muddatli aktivlar (MBUMA)
	Moliyaviy bo'lmagan joriy aktivlar (MBJA)
Passiv (P)	O'z mablag'lari manbai (UMM)
	Majburiyatlar (M)
Balansdagi ifodalar:	
Umumiy ifoda	A = K+M
Balans bo'limlariga nisbatan	UMA+JA = O'MM+M
Bo'limlarning tarkib birliklariga nisbatan	MBUMA+MUMA+MBJA+MJA = O'MM+UMM+M
Pul shakliga ko'ra	PKBA+PKA = DP+M

Uzoq muddatli aktivlar (UMA) bo'limida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymati, uzoq muddatli investitsiyalar, o'rnatiladigan uskunalar, kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati kechiktirilgan uzoq muddatli xarajatlar summalari oshkor qilinadi.

Joriy aktivlar (JA) bo'limida tovar-moddiy zaxiralar, kelgusi davr xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va boshqa joriy aktivlar summalari oshkor qilinadi.

Xususiy sarmoya (XS), o'z mablag'lari manbai (O'MM) bo'limida ustav sarmoyasi, qo'shilgan sarmoya, zaxira sarmoya, sotib olingan o'z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar hamda bo'lg'usi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari oshkor qilinadi.

Majburiyatlar (M) bo'limida uzoq muddatli va joriy majburiyatlar bo'yicha axborotlar alohida oshkor etilishi lozim.

Uzoq muddatli majburiyatlar (UMM) bo'yicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarzlar, alohida bo'linmalarga uzoq muddatli qarzlar, sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga uzoq muddatli qarzlar, muddati kechiktirilgan uzoq muddatli daromadlar, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, xaridorlar va buyurtmachilardan olingan

bo'naklar, uzoq muddatli bank kreditlari, uzoq muddatli qarzlar va boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari summalari ko'rsatilishi kerak.

Joriy majburiyatlar (JM) bo'yicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarzlar, alohida bo'linmalarga qarzlar, sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga qarzlar, muddati kechiktirilgan daromadlar, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, boshqa muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan bo'naklar, byudjetdan soliqlarga oid qarzlar, sug'urtaga oid qarzlar, davlat maqsadli jamg'armalaridan to'lovlarga oid qarzlar, ta'sischilardan qarzlar, mehnatga haq to'lashga oid qarzlar, qisqa muddatli bank kreditlari, qisqa muddatli qarzlar, uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi va boshqa kreditorlik qarzlari summalari oshkor qilinadi.

5.3. Balans ma'lumotlari va uning boshqa moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga mosligi

Balans moddalarini tasnifi yuzasidan quyidagi muhim xulosalarni chiqarish mumkin.

Aktivlar – xo'jalik subyektining qiymat bahosiga ega bo'lgan moddiy, shu jumladan, pul mablag'lari va debitorlik qarzlari va nomoddiy mulkidir.

Aktivlarda aks ettirilgan bo'lg'usi iqtisodiy foyda, xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'lari oqimiga potensial, bevosita va bilvosita qo'shiladigan ulushdir. Bu ulush xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatini bir qismi sifatida yuzaga kelishi mumkin.

Asosiy moliyaviy hisobot shakli bu – buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdir. Boshqa moliyaviy hisobotlar bir jihatning boshqa-boshqa jihatlarini aks ettiradi. Ular qatoriga pul oqimlari, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shakllarini kiritish mumkin.

Buxgalteriya balansi va boshqa moliyaviy hisobotlarda aks etuvchi elementlar

Moliyaviy hisobot elementlari						
Aktiv-lar	Xususiy sar-moya	Majburiyat-lar	Zaxiralar	Daro-madlar	Xarajat-lar	Moliya-viy natijalar
Buxgalteriya balansi				Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot		
Pul oqimi to‘g‘risi dagi hisobot	Xususiy kapital to‘g‘risi dagi hisobot	Balansga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirish-lar	Balansga izohlar, hisob-kitoblar va tushunti-rishlar	Pul oqimi to‘g‘risi-dagi hisobot	Pul oqimi to‘g‘risi-dagi hisobot	Pul oqimi to‘g‘risi-dagi hisobot

Buxgalteriya balansining asosiy elementlari – aktivlar, kapital va majburiyatlardir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning aktivlari avvalgi bitimlar va boshqa voqealiklarning natijasidir. Subyektlar odatda aktivlarni sotib olib yoki hosil qilib unga ega bo‘ladilar biroq, boshqa bitimlar va voqealar ham aktivlarni ko‘paytirishga imkon beradi. Masalan, xo‘jalik yurituvchi subyekt hukumatdan olgan ko‘chmas mulk. Kelgusida kutiladigan bitimlar va boshqa voqealar o‘zi-o‘zidan aktivlarning paydo bo‘lishiga ham olib kelmaydi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z aktivlaridan mulkni, tovar-moddiy zaxiralardan ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatilishni boshqarish uchun foydalanadilar.

Aktivlarda aks ettirilgan bo‘lg‘usi iqtisodiy foyda xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan har xil yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Masalan, aktivdan:

- tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishda alohida yoki boshqa aktivlar bilan birgalikda foydalanilishi;
- boshqa aktivlarga almashtirilishi;
- majburiyatlarni bajarish uchun foydalanilishi;

- xo'jalik yurituvchi subyektning egalari o'rtasida taqsimlanishi mumkin.

Aktivlar binolar, inshootlar va uskunalar singari jismoniy shaklga ega. Biroq, jismoniy shakl aktivning mavjud bo'lishi uchun zaruriy shart emas. Masalan, patentlar va mualliflik huquqlari ham aktivlardir. Agar xo'jalik yurituvchi subyekt kelgusida ulardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olishni kutayotgan bo'lsa, bu unsurlar ham aktivlar qatoriga kiritiladi va ularni nomoddiy aktivlar, moliyaviy aktivlar sifatida tarkiblash mumkin.

Aktivlar yuridik huquqlar, shu jumladan egalik huquqi bilan bog'liqdir. Lekin aktivlar mavjudligini aniqlashda, egalik huquqi asosiy hisoblanmaydi. Masalan, agar xo'jalik yurituvchi subyekt ana shu mulkdan olinishi kerak bo'lgan foydani nazorat qila olsa, ijaraga olinadigan mulk aktiv hisoblanadi.

Xarajatlarni amalga oshirish bilan aktivlarni hosil qilish o'rtasida uzviy aloqa mavjud, ammo bu jarayonlar hamma vaqt ham vaqti bo'yicha to'g'ri kelmaydi. Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar bo'lg'usi iqtisodiy foyda izlanganidan dalolat beradi, lekin aktivlar olinganini uzil-kesil tasdiqlamaydi. Binobarin, xarajatlarning mavjud emasligi obyektni aktiv deb hisoblash uchun asos bo'lmaydi. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyektga tekinga berilgan obyektlar aktivlarni ta'riflashga mos keladi.

Balansning eng muhim elementi bu – majburiyatlardir. Ularni aktiv va passiv tomonda ham uchratish mumkin. Aktivdagi majburiyatlar olinadigan majburiyatlar, passiv tomondagi majburiyatlar to'lanadigan majburiyatlar hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi joriy va uzoq muddatli mas'uliyatli ekanligi majburiyatlarning asosiy tavsifidir.

Majburiyatlar, shuningdek, ustavning yoki shartnomaning talablari oqibati sifatida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, olingan tovar-moddiy zaxiralar va xizmatlar uchun to'lanadigan summalar.

Majburiyatlar oldin tadbirkorlik ishi jarayonida, yaxshi munosabatlarni saqlab turish yoki xolisona tarzda ish ko'rishda ham yuzaga keladi. Masalan, agar xo'jalik yurituvchi subyekt kafolat muddati tugaganidan so'ng o'z mahsulotidagi kamchiliklarni tuzatish to'g'risida qaror qabul qilsa, shu bo'yicha qilingan xarajatlar ham majburiyatlar deb hisoblanadi.

Hozirgi majburiyatlar bilan kelgusi majburiyatlar o'rtasida chegara bo'lishi kerak. Xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarining kelgusida aktivlarni sotib olish haqida qabul qilgan qarori majburiyatlar paydo bo'lishiga sabab bo'lmaydi. Majburiyatlar odatda aktiv olinganda yoki xo'jalik yurituvchi subyekt aktivni sotib olishi to'g'risida bitimga kirishgandagina paydo bo'ladi.

Tegishli majburiyatlarni bajarish odatda boshqa tarafning e'tirozlarini qondirish uchun iqtisodiy foydani ifodalovchi xo'jalik yurituvchi subyekt resurslarini o'ziga jalb etadi. Majburiyatlarning bajarilishi har xil usullarda (qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollardan tashqari) amalga oshiriladi:

- haq to'lash bilan;
- boshqa aktivlarni berish bilan;
- xizmatlarni ko'rsatish bilan;
- ushbu majburiyatni boshqasi bilan almashtirish orqali;
- majburiyatlarni aksiyalarga almashtirish orqali.

O'zbekiston amaliyotida majburiyatlarning faqat to'lovlar orqali amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Majburiyatlar, kreditor o'z huquqlaridan bosh tortgan hollarda yoki kreditor ana shu huquqlaridan mahrum bo'lganida, bajarilgan deb hisoblanishi mumkin.

Majburiyatlar avvalgi bitimlar yoki o'tgan voqealarning natijasidir. Masalan, tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish va xizmatlarni olish bilan to'lanishi kerak bo'lgan (agar ular ilgari to'lanmagan bo'lsa yoki yetkazib berilganda) schyotlar ham olinadi.

Buxgalteriya balansining eng muhim va ahamiyatli unsuri bu – xususiy sarmoyadir.

Xususiy sarmoya ustav, qo'shilgan, zaxiralar sarmoyadan va taqsimlanmagan foydadan iboratdir. Zarur hollarda ustav, qo'shilgan zaxiralar sarmoya tahliliy jihatdan hisobga olinadi.

Buxgalteriya balansidagi xususiy sarmoyaning miqdori aktivlar qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog'liqdir.

Buxgalteriya balansida zaxiralar alohida tarkiblanadi. Ularning ahamiyati va zarurligi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni yoki zararlarni kamaytirishga qaratilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektni va kreditorlarni zararlarning oqibatlaridan qo'shimcha tarzda himoya qilishni ta'minlash uchun zaxiralarni vujudga keltirish zarur. Zaxiralarni hosil qilish va ularning miqdori haqidagi axborot qarorlar qabul qilishda foydalanuvchilar uchun ahamiyatlidir. Zaxiralarni vujudga keltirish xo'jalik yurituvchi subyektga doir qonunchilikda va ustavda (soliq qonunlarini buzmagan holda) ko'zda tutiladi.

Aktivlar kapital va majburiyatlarni tan olish va ularni buxgalteriya balansida aks ettirish tartiblari. **Aktivlar** – ushbu aktivdan foydalanish natijasida xo'jalik yurituvchi subyektga bo'lg'usi iqtisodiy foyda tushish ehtimoli mavjud bo'lganida buxgalteriya balansida aks ettiriladi va aktiv aniq ifodalanadigan chiqimlar yoki qiymatni o'z ichiga oladi.

Kapital – aktivlarning qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog'liqdir.

Majburiyatlar – o'zida iqtisodiy foydani ifodalovchi resurslar oqimi ehtimoli mavjud bo'lganida buxgalteriya balansida e'tirof etiladi, shuningdek, ular majburiyatlarni qabul qilish natijasidir.

Balans moddalarining quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin.

Buxgalteriya balansi aktivi moddalari

Aktiv	Satri
I. Uzoq muddatli aktivlar	
Asosiy vositalar:	
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymat (0100, 0300)	010
Eskirish (0200)	011
Qoldiq (balans) qiymat (010- 011)	012
Nomoddiy aktivlar:	
Boshlang'ich qiymat(0400)	020
Amortizatsiya summasi (0500)	021
Qoldiq (balans) qiymat (020-021)	022
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr 040+050+060+070+080)	**030**
Shu jumladan:	
Qimmatli qog'ozlar (0610)	040
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050
Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060
Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	070
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090
Kapital qo'yilmalar (0800)	100
Uzoq muddatli debitor qarzlari (0910,0920,0930,0940)	110
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950,0960,0990)	120
I-bo'lim bo'yicha jami (satr 012+022+030+090+100+110+120)	**130**
II. Joriy aktivlar	
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr 150+160+170+180) Shu jumladan :	**140**
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000,1100,1500,1600)	150
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000,2100,2300,2700)	160
Tayyor mahsulot (2800)	170
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200
Debitorlar, jami: (satr 220+240+250+260+270+280+290+300+310)	**210**
shundan: muddati o'tgani	211

Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220
Ajratilgan bo‘linmalarning qarzi (4110)	230
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarning qarzi (4120)	240
Xodimlarga berilgan bo‘naklar (4200)	250
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar (4300)	260
Byudjetga soliq va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4400)	270
Maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4500)	280
Ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi (4600)	290
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzi (4700)	300
Boshqa debitor qarzlar (4800)	310
Pul mablag‘lari, jami (satr 330+340+350+360) shu jumladan:	**320**
Kassadagi pul mablag‘lari (5000)	330
Hisob raqamidagi pul mablag‘lari (5100)	340
Chet el valyutasidagi pul mablag‘lari (5200)	350
Boshqa pul mablag‘lari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700)	360
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380
II bo‘lim bo‘yicha jami (satr 140+190+200+210+230+320+370+380)	**390**
Balans aktivi bo‘yicha jami (satr 130+390)	**400**

Aktivlarni buxgalteriya balansida aks ettirish quyidagi qiymatlar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Aktivlar:

a) hisobot sanasida buxgalteriya balansida aktivlarni aks ettirish qiymatida;

b) sotib olish vaqtida erishilgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra belgilangan joriy qiymatida;

c) ana shu yoki shunga o‘xshash aktiv endigina sotib olingan bo‘lgandagi holatda to‘lanishi kerak bo‘lgan pul mablag‘lari summasi bo‘yicha;

d) sotishdan olinishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari summasi

bo‘yicha;

e) xo‘jalik yurituvchi subyektning normal faoliyati davomida aktivlarni ko‘paytirishi lozim bo‘lgan bo‘lg‘usi pul mablag‘lari tushumining diskontlangan qiymati bo‘lgan joriy qiymat bo‘yicha aks ettiriladi.

Buxgalteriya balansi passivi moddalari

Passiv	Satri
I. O‘z mablag‘lari manbalari	
Ustav kapitali (8300)	410
Qo‘shilgan kapital (8400)	420
Rezerv kapitali (8500)	430
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450
Maqsadli tushumlar (8800)	460
Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar (8900)	470
I bo‘lim bo‘yicha jami (satr 410+420+430+440+450+460+470)	**480**
II. Majburiyatlar	
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr 500+510+520+530+540+550+560+570+580+590)	**490**
Shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr 500+520+540+560+590)	491
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)	500
Ajratilgan bo‘linmalarga uzoq muddatli qarz (7110)	510
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz (7120)	520
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230)	530
Soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)	540
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290)	550
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar (7300)	560
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570
Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840)	580
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar (7900)	590
Joriy majburiyatlar, jami (satr	**600**

610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720 +730+740+750+760)	
Shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr 610+630+650+670+680+690+700+710+720 +760)	601
Shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlari	602
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	610
Ajratilgan bo'linmalarga qarz (6110)	620
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga qarz (6120)	630
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	660
Olingan bo'naklar (6300)	670
Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400)	680
Sug'urtalar bo'yicha qarz (6510)	690
Maqsadli jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha qarz (6520)	700
Ta'sischilarga bo'lgan qarzlar (6600)	710
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700)	720
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840)	740
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750
Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900)	760
II bo'lim bo'yicha jami (satr 490+600)	**770**
Balans passivi bo'yicha jami (satr 480+770)	**780**

Buxgalteriya balansida majburiyatlar quyidagi qiymatlarda aks etadi:

- majburiyatlar majburiyatni bajargunga qadar to'lanadigan pul mablag'lari summasi bo'yicha majburiyatlarga almashib olingan mablag'lar summasida aks ettiriladi;

- majburiyatlar majburiyatni to'lash uchun talab etiladigan pul mablag'larining diskontlanmagan summasida aks ettiriladi;

- majburiyatlar ularni to'lash qiymati bo'yicha aks ettiriladi, bunday qiymat esa majburiyatlarni to'lash uchun talab etiladigan pul mablag'larining diskontlanmagan summasidir;

- majburiyatlar kelgusida o'tkaziladigan pul mablag'larining diskontlangan qiymatidan iborat bo'lgan, xo'jalik yurituvchi subyektning oddiy faoliyati davomida majburiyatlarni to'lash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan joriy qiymat bo'yicha aks ettiriladi.

Buxgalteriya balansining qisqartilgan shakli

Aktiv	Satr kodi	Passiv	Satr kodi
I. Uzoq muddatli aktivlar		**I. O'z mablag'lari manbalari**	
Asosiy vositalar boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	010	Ustav kapitali (8300)	410
Eskirish qiymati (0200)	011	Qo'shilgan kapital (8400)	420
Qoldiq (balans) qiymati (010-011)	012	Rezerv kapitali (8500)	430
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	022	Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440
Uzoq muddatli investitsiyalar jami (satr 040+050+060+070+080)	030	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090	Maqsadli tushumlar (8800)	460
Kapital qo'yilmalar (0800)	100	Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar (8900)	470
Uzoq muddatli debitor qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)	110		
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120		
I-bo'lim bo'yicha jami (satr 012+022+030 +090+100+110+120)	130	**I bo'lim bo'yicha jami (satr 410+420+430+440+450 +460+470)**	480
II.Joriy aktivlar		**II. Majburiyatlar**	
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr 150 +160+170+180)	140	Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr 500+510 +520+530+540+550+560+570 +580+590)	490

Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190	Shu jumladan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr 500+520+540+560+590)	491
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200	Joriy majburiyatlar, jami (satr 610+620+630+640 +650+660+670+680+690+700 +710+720+730+740+750+760)	600
Debitorlar jami: (satr 220+240+250+260 +270+280+290+300+310)	210	Joriy kreditorlik qarzlarida qisqa muddatli kreditlar va qarzlar hamda uzoq muddatli kreditlarning joriy qismi (satr 730+740+750)	730 740 750
		Joriy kreditorlik qarzlarining kredit va qarzlardan tashqari qismi (satr 610+630+650+670 +680+690+700+710+720+760)	600-730-740-750
shundan: muddati o'tgani	211	Shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlari	602
Pul mablag'lari, jami (satr 330+340+350 +360) shu jumladan:	320		
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370		
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380		
II bo'lim bo'yicha jami (satr 140+190+200 +210+320+370+380)	**390**	**II bo'lim bo'yicha jami (satr 490+600)**	**770**
Balans aktivi bo'yicha jami (satr 130 +390)	**400**	**Balans passivi bo'yicha jami (satr 480+770)**	**780**

Analitik hisob-kitoblardan oldin albatta axborotlarning aniqligi, ishonchligiga muhim ahamiyat qaratish lozim. Shu sababli, moliyaviy hisobot shakllarida korxona moliyaviy ahvolining bir jihatini boshqa-boshqa tomonlarini aks ettirishda nazorat raqamlarining o'zaro mosligini tekshirishga alohida ahamiyat qaratiladi.

Balans moddalari va ularning boshqa moliyaviy hisobot shakllaridagi axborotlarga mosligi*

№	Ko‘rsatkichlar	Buxgalteriya balansi hisobot shakli satri	Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot satri	Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot satri	Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot satri
1	Pul mablag‘lari	320	-	070, 080	-
2	Ustav kapitali	410	-	-	010, 080
3	Qo‘shilgan kapital	420	050, 060	-	010, 080
4	Rezerv kapitali	430	050, 060	-	010, 080
5	Sotib olingan xususiy aksiyalar	440	-	-	010, 080
6	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	450	**	-	010, 080
7	Maqsadli tushumlar	460	-	-	010, 080
8	Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar	470	-	-	010, 080

*-ma’lumotlarni ochib berish yuzasidan moliyaviy hisobotga qaydlar, izohlar asosida nazorat raqamlarini tekshirish imkoniyatini oshirish mumkin.

**-korxona ochilgandan buyon taqsimlanmagan foydani qayta hisob-kitoblar qilish orqali nazorat raqamiga chiqish mumkin.

5.4. Korxona moliyaviy holatining tahlili

Korxonaning moliyaviy holati iqtisodiy kategoriya sifatida xo‘jalik subyektining o‘z faoliyatini yuritish, rivojlantirish va o‘z-o‘zini moliyalashtirish imkoniyatlari yuzasidan kapitalning holatini xarakterlaydi. Ya’ni xo‘jalik subyektining moliyaviy resurslar bilan ta’minlanish darajasini, ularning maqsadli joylashtirilishi va samarali foydalanish darajasini, boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan

bo'ladigan moliyaviy munosabatlarni, to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorlik holatini tavsiflashni xarakterlaydi.

Korxonaning moliyaviy holati uning moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini, raqobatbardoshlik va bankrotlik darajasini, moliyaviy barqarorlik va to'lovga qodirlik holatini, davlat va boshqa xo'jalik subyektlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodirligi kabi ko'rsatkichlarni tavsiflovchi kategoriya va jarayonlar natijalari majmuini o'z ichiga oladi.

Moliyaviy holatni o'rganish va tahlil etish orqali xo'jalik subyektining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va uni o'stirish imkoniyatlarini baholashga, korxona ishlab chiqarish, tijorat va moliya faoliyatidan moliyaviy resurlarning kirimiga va ulardan moliyaviy holatni o'stirishda foydalanish darajalariga, moliyaviy natijalarni kutilishini prognozlash va iqtisodiy rentabellikni xo'jalik faoliyatining real imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda oshirishning yo'llarini belgilashga, moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanishning chora-tadbirlarini belgilashga imkon tug'iladi.

Moliyaviy raqobatdoshlikka va to'g'ri moliyaviy siyosatni yuritishga korxona foydasini maksimallashtirish, kapital tarkibini optimallashtirish va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, mulkdorlar (qatnashchilar, ta'sischilar), investorlar va kreditorlar uchun moliyaviy holatning jozibadorligini oshirish, korxona boshqaruvi yuzasidan samarali mexanizmni shakllantirish, shuningdek, moliyaviy resurslarni jalb etishda bozor mexanizmining barcha imkoniyatlaridan foydalanish orqali erishish mumkin.

Moliyaviy holatni baholash orqali ikkita natijaviy ko'rsatkichga ega bo'linadi. Birinchisi korxona boshqaruv apparatining faoliyatiga baho beriladi, ikkinchisi moliyaviy holatning ayrim ko'rsatkichlarini prognozlash imkoni tug'iladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida moliyaviy hisobotlarga quyidagicha tasnif beriladi. ***Moliyaviy hisobotlar*** – tadbirkorlik subyektining moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining tartibga solingan ifodasidir. Moliyaviy hisobotlarning ***maqsadi*** turli

foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydali bo'lgan, tadbirkorlik subyektining moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ta'minlashdan iboratdir. Moliyaviy hisobotlar, shuningdek, rahbariyat tomonidan unga ishonib topshirilgan resurslar boshqarilishining natijalarini aks ettiradi. Ushbu maqsadga erishish uchun, moliyaviy hisobotlar tadbirkorlik subyektiga tegishli bo'lgan quyidagi jihatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ta'minlaydi: aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlar, foyda va zararlar, mulk egalari tomonidan ularning mulk egalari sifatida amal qilishidagi qilingan qo'yilmalar va ularga taqsimlanadigan summalar.

Ushbu ma'lumotlar, izohlardagi boshqa ma'lumotlar bilan birga, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga tadbirkorlik subyektining kelgusi pul oqimlarini va, xususan, ularning muddatini va aniqliligini bashorat qilishda yordam beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, buxgalteriya balansi bu xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot beradi va shu sababli ham moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot nomi ko'proq zikr etiladi.

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot ikki davrga ya'ni, davr boshi va oxiriga tuziladi va bitta hisobot shaklida aks ettiriladi. Bu bevosita moliyaviy holatning tahliliyligini ta'minlash va o'zgarishlarni bir paytning o'zida aniqlash zaruriyati tufayli belgilangan. Bu tartib moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida quyidagicha izohlanadi.

"Tadbirkorlik subyekti, kamida, ikkita moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotlarni, ikkita foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobotlarni, ikkita alohida foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobotlarni (agarda taqdim etiladigan bo'lsa), ikkita pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni va ikkita kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotlarni hamda tegishli izohlarni taqdim etishi lozim".[30] Bu tartib minimal qiyosiy tahlil qilish sharti tufayli belgilangan.

[30] МҲХС "Молиявий ҳисоботларни тақдим этиш" тўғрисидаги, 38 модда

Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida yana shunday muhim jihat aks etganki, subyektlar minimal qiyosiy moliyaviy hisobotlarga qo'shimcha tarzda oldingi davrning boshiga bo'lgan moliyaviy holat to'g'risidagi uchinchi hisobotni ham taqdim etishi lozim, agarda:

(a) u hisob siyosatini retrospektiv tarzda qo'llasa, o'zining moliyaviy hisobotlaridagi moddalarni retrospektiv tarzda qayta hisoblasa yoki ularni qayta tasniflasa;

(b) retrospektiv qo'llash, retrospektiv qayta hisoblash yoki qayta tasniflash oldingi davr boshidagi moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aks ettirilgan ma'lumotlarga muhim darajada ta'sir etgan bo'lsa.

Yuqoridagi tartibga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holat to'g'risidagi uchta hisobotlarni quyidagi davr holatlariga taqdim etishi lozim:

(a) joriy davr oxiriga;

(b) oldingi davr oxiriga;

(d) oldingi davr boshiga.

Ma'lumotlarning davrlararo qiyosiyligini oshirish foydalanuvchilarga iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda, ayniqsa bashorat maqsadlarida, moliyaviy ma'lumotlardagi tendensiyalarni baholash uchun imkoniyat yaratadi.

Ba'zi holatlarda, joriy davrga nisbatan qiyoslanuvchanlikka erishish uchun muayyan oldingi davrdagi qiyosiy ma'lumotlarni qayta tasniflashning imkoni bo'lmaydi. Masalan, tadbirkorlik subyekti qayta tasniflashga imkon beradigan tarzda oldingi davr(lar)dagi ma'lumotlarni yig'magan bo'lishi mumkin va ma'lumotlarni qayta yaratish imkoni bo'lmasligi mumkin.

Minimum darajada, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot quyidagi summalarni aks ettiradigan satrlarda ko'rsatiladigan moddalarini o'z ichiga olishi lozim: (a) asosiy vositalar; (b) investitsion mulk; (d) nomoddiy aktivlar; (e) moliyaviy aktivlar; (f) ulush bo'yicha hisobga olish usuli bo'yicha hisobga olingan investitsiyalar; (e) biologik aktivlar; (j) tovar-moddiy zaxiralar; (z) savdo bo'yicha va boshqa debitorlik

qarzlari; (i) naqd pullar va naqd pul ekvivalentlari; (y) sotishga mo'ljallangan sifatida tasniflangan aktivlar va sotishga mo'ljallangan sifatida tasniflangan hisobdan chiqariladigan moddalarning guruhlariga kiritilgan aktivlari; (k) savdo bo'yicha va boshqa kreditorlik qarzlari; (l) rezervlar; (m) moliyaviy majburiyatlar; (n) joriy soliq bo'yicha majburiyatlar va aktivlar; (o) muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari va muddati uzaytirilgan soliq aktivlari; (p) sotish uchun mo'ljallangan sifatida tasniflangan hisobdan chiqariladigan moddalarning guruhlariga kiritilgan majburiyatlar; (r) kapital tarkibida aks ettirilgan, nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlar; (s) bosh tashkilotning mulk egalariga tegishli bo'lgan, chiqarilgan kapital va kapitaldagi rezervlar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy holatini tushunishda o'rinli bo'lsa, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning satrlarida ko'rsatiladigan qo'shimcha moddalarini, sarlavhalarni va jamilarni taqdim etishi lozim.

Agar xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining moliyaviy holati to'g'risidagi hisobotida joriy va uzoq muddatli aktivlarni hamda joriy va uzoq muddatli majburiyatlarni alohida turkumlar sifatida aks ettirsa, u muddati uzaytirilgan soliq aktivlarini (majburiyatlarini) joriy aktivlar (majburiyatlar) sifatida tasniflamasligi lozim.

Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda alohida taqdim etilishi o'rinli bo'lgan mohiyati yoki vazifasi jihatidan etarlicha farqlanadigan moddalarning ro'yxatiga quyidagilarni kiritish mumkin:

(a) moddalar hisobotning alohida satrlarida ko'rsatiladi, qachonki moddaning yoki o'xshash moddalar guruhining hajmi, xususiyati yoki vazifasi xo'jalik subyektining moliyaviy holatini tushunish uchun ushbu moddalarning alohida taqdim etilishini talab etsa;

(b) xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini tushunishda o'rinli bo'lgan ma'lumotlarni ta'minlash uchun foydalanilgan tavsiflar va moddalarning yoki o'xshash moddalar guruhining tartibi xo'jalik yurituvchi subyekt va uning operatsiyalarining mohiyatidan kelib chiqib o'zgartirilishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyekt quyidagilarni baholash asosida qo'shimcha moddalarni alohida taqdim etishi mumkin:

(a) aktivlarning xususiyati va likvidliligi;

(b) tadbirkorlik subyekti ichida aktivlarning vazifasi;

(d) majburiyatlarning summasi, xususiyati va muddati.

Subyekt, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda yoki unga izohlarda, uning faoliyatiga to'g'ri keladigan ravishda tasniflangan va aks ettirilgan, satrlarda ko'rsatiladigan moddalarining ikkilamchi batafsilroq qilib tasniflangan moddalarini ochib berishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotga izohlar, qaydlar va tushuntirishlarda, shuningdek, quyidagilarni ochib berishi lozim: (a) asosiy vositalar, (b) debitorlik qarzlari, (d) tovar-moddiy zaxiralar, (e) zaxiralar, (f) kapitalning turkumlanishi haqidagi ma'lumotlar.

Subyekt moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda yoki kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotda, yoki izohlarda, quyidagilarni ochib berishi lozim:

(a) aksiyadorlik kapitalining har bir turkumi bo'yicha (chiqarishga ruxsat etilgan aksiyalarning soni, chiqarilgan va to'liq to'langan aksiyalarning soni hamda chiqarilgan, lekin to'liq to'lanmagan aksiyalarning soni, har bir aksiyaning nominal qiymati, yoki aksiyalar nominal qiymatga ega emasligi, muomaladagi aksiyalar sonining davr boshiga va oxiriga solishtirmasi, ushbu turkumga biriktiriladigan huquqlar, imtiyozlar va cheklovlar, jumladan dividendlarni taqsimlash va kapitalni qaytarish bo'yicha cheklovlar, subyekt yoki uning sho'ba yoki qaram tadbirkorlik subyektlari egalik qilayotgan boshqa tadbirkorlik subyektidagi ulushlari, opsionlar va aksiyalarni sotish shartnomalari bo'yicha chiqarish uchun saqlanayotgan aksiyalar, shu jumladan ularning shartlari va summalari);

(b) kapitaldagi har bir rezervning xususiyati va maqsadining tavsifini.

Moliyaviy holat tahlili oldiga qo'yiladigan asosiy vazifalarni manbalarga tayangan holda quyidagi qatorlarda umumlashtirish va tarkiblash mumkin.[31]

Xo'jalik yurituvchi subyektlar:

- mulk, kapital va majburiyatlarini, ularning o'zgarishlarini tahlil etish;
- to'lovga qobillik va mablag'lar harakatchanligini tahlil etish;
- asosiy va aylanma kapitalini tahlil etish;
- iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini tahlil etish;
- ish aktivligini tahlil etish;
- firma va kompaniyalar moliyaviy barqarorligini tahlil etish;
- debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini tahlil etish;
- iqtisodiy va moliyaviy reytingini baholash;
- moliyaviy holatini yaxshilash yuzasidan mavjud ichki imkoniyatlarni aniqlash va ularni yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini belgilab olishdan iboratdir.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJning qisqartirilgan buxgalteriya balansi

Ko'rsatkichlar	Davr boshiga	Davr oxiriga	Farqi, (+,-)
AKTIV			
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**12 593 199 960**	2 373 468 015
Asosiy vositalar boshlang'ich qiymati	10 527 417 487	14 773 593 626	4 246 176 139
Asosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	4 320 658 666	2 991 241 501
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110	10 452 934	3 348 824

[31] Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., Ефимова О.В. [и др.]. Анализ финансовой отчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с., K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by[31], Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр

	120	960	840
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	345 379	71 772
Kapital qo'yilmalar	2 834 711 892	1 572 602 311	1 262 109 581
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	567 317 310	6 331 746
2.Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**11 683 693 105**	8 705 320 392
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	1 047 437 972	227 907 461
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	8 441 062 224	7 074 971 055
Pul mablag'lari	171 917 383	468 669 767	296 752 384
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	160 480 738	42 985 423
Debitorlar, jami	503 338 335	1 566 042 404	1 062 704 069
Shu jumladan:			
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	163 855 350	268 038 094	104 182 744
Byudjetga avans to'lovlari	7 740 384	5 252 951	2 487 433
Balans aktiv bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	11 078 788 407
PASSIV			
1.O'z mablag'lari manbasi	**7 745 794 466**	**10 124 233 076**	2 378 438 610
Ustav kapitali	614 384 306	828 202 670	213 818 364
Rezerv kapitali	5 737 851 427	8 121 422 920	2 383 571 493
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	223 400 675	284 292 932
Boshqa manbalar	885 865 126	951 206 811	65 341 685
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**14 152 659 989**	**8 700 349 797**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	12 304 013 149	7 628 523 003
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	8 878 479	5 865 737

Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	1 839 768 361	1 077 692 531
Shu jumladan:			
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	514 650 184	294 831 294
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	62 317 043	41 518 913
Balans passivi bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	11 078 788 407

Korxonaning jami aktivlari davr boshiga nisbatan 11 078 788 407 ming so'mga ortgan. Shundan uzoq muddatli aktivlar 2 373 468 015 ming so'mga, joriy aktivlar hajmi 8 705 320 392 ming so'mga ortgan.

Kapital va majburiyatlar hajmi davr boshiga nisbatan mos ravishda 2 378 438 610 ming so'm va 8 700 349 797 ming so'mga ortgan.

Korxonada jami passivlar tarkibida o'z mablag'lari (xususiy kapital) darajasi davr boshida 58,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, davr oxiriga kelib 41,7 foizga tushgan. Joriy davrdagi ushbu o'zgarish asosan uzoq muddatli qarz kapitalining keskin ravishda ortishi hisobiga ro'y bergan.

Korxonaning yashovchanligini ta'minlash uchun korxonalarning buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotlarni iqtisodiy jihatdan o'qish lozim.

Korxonaning moliyaviy holati uning mol-mulki, moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, moliyaviy barqarorligi va to'lovga layoqati, davlat va boshqa xo'jalik subyektlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodirligi, raqobatbardoshlik va bankrotlik darajasi kabi ko'rsatkichlar majmuini o'z ichiga oladi.

Korxonaning moliyaviy holati haqida yanada to'liq ma'lumotlar olish uchun ularning to'liq kompleks tahlilini o'tkazish maqsadga muvofiq.

Moliyaviy holat tahlilining o'ziga xos xususiyatlarida moliyaviy analitiklar quyidagi muhim jihatlarga ahamiyat berishlari lozim: operatson jarayonlarning tashkil etilishiga; naqd mablag'larning harakatiga; boshqaruv maqsadligiga; tarmoq risklarini baholashga; bozorni; faoliyat ko'lamini; yuridik maqomini o'rganishga va h.k.

Moliyaviy holat tahlilini quyidagi ketma ketlikda o‘rganish maqsadga muvofiq:

- buxgalteriya balansini o‘qish, gorizontal, vertikal va trend tahlili;
- buxgalteriya balansi likvidligi va xo‘jalik yurituvchi subyektning to‘lov layoqatini tahlili;
- xo‘jalik subyektining moliyaviy barqarorligini tahlili;
- moliyaviy holat va uni kelgusidagi o‘zgarishlarini bashoratlash;
- moliyaviy holat va uni yanada yaxshilashning amaliy chora-tadbirlarini ko‘rish.

Tahlil uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni buxgalteriya balansi, unga izohlar, qaydlar va tushuntirishlardan olish mumkin. Shuningdek, ichki moliyaviy tahlilni keng qamrovli o‘tkazish yuzasidan bosh kitob, hisob registrlaridan va boshqa qo‘shimcha manbalardan foydalanish mumkin.

5.5. Buxgalteriya balansini “o‘qish”

Korxonalarning moliyaviy hisobotlarini o‘qish undagi pul munosabatlariga, moliyaviy holatiga baho berish uchun muhimdir.

Moliyaviy hisobot va moliyaviy hisobotlarni “o‘qish”ga olimlar tomonidan turlicha tavsiflar beriladi.

Moliyaviy hisobotlarni “o‘qish” so‘zi juda keng ma’noli tushuncha.

Balansni qanday “o‘qish” mumkin? Uni “o‘qish” orqali nimalar o‘rganiladi? “O‘qish” tahlil usulimi yoki tahlil o‘qishning usulimi? Bu kabi savollarga javob topish yuzasidan uning lug‘aviy ma’nosini tushunib olish lozim.

“O‘qish”ga matnni tushunishga qaratilgan murakkab kodlash jarayoni deb qaraladi. Lekin moliyaviy hisobotlarda matnlar yo‘q, unda faqat ko‘rsatkichlar, qatorlar va ularga tegishli raqamlar mavjud.

“O‘qish” – til, muloqot, axborot va g‘oyalarni almashish vositasidir.

“O‘qish” ijodiy yondashuvni va tanqidiy tahlilni talab etadi.

“O‘qish”ga qonunlar yo‘q, o‘qish paytida hech narsa cheklanmadi.

“O‘qish” moliyaviy hisobotlar, moliyaviy tahlilning muhim va dastlabki usuli hisoblanadi.

O‘qish deganda adabiy tilda matnni o‘qish va tovushlarda ifoda etish tushuniladi. Moliyaviy hisobotda esa yondashuv biroz murakkablashadi.

“O‘qish” so‘zi moliyaviy hisobotlar va ularning shakllariga nisbatan ishlatishning mohiyati shundaki, ushbu hisobotlar faqat raqamlar ifodasidagi ko‘rsatkichlarni tartibli joylashtirishdan iborat matnga o‘xshaydi. Matndagi raqamlar nimani ifoda etishini bilgan holdagina, matnni o‘qish mumkin. Sodda qilib aytganda, moliyaviy hisobotlarni o‘qish deganda korxona moliyaviy ahvolini, moliyaviy natijalarini, pul mablag‘lari va xususiy kapitalini moliyaviy hisobot shakllarida raqamlarda yashiringan so‘zlar orqali bilish, tushunish, anglash tushuniladi.

Moliyaviy hisobotni “o‘qish”ni mazmunini nima tashkil etadi. Bizningcha, moliyaviy hisobotni o‘qish deganda ko‘rsatkichlarni arifmetik hisob-kitoblarsiz uni mantiqiy tavsiflash tushuniladi.

“O‘qish” uchun alifbo asoslarini bilish lozim. Moliyaviy hisobotlarni o‘qishda bunday asos bo‘lib, moliyaviy hisobot qatorlarida aks etgan tushunchalar hisoblanadi. Ularning bir qismi barcha uchun tushunarli bo‘lishi mumkin, lekin ayrim qatorlarini faqat maxsus bilimga va kasb malakasiga ega bo‘lganlar tomonidangina tushuniladi. Bunda tushunchalar sifatida moliyaviy hisobotning, balansning istalgan qatorini keltirish mumkin. Masalan: moliyaviy qo‘yilmalar, investitsiyalar, majburiyatlar, kapital, pul ekvivalentlari, zaxiralar va h.k. Shu sababli, balansni o‘qishdan oldin uning barcha moddalarini tushunib olish talab etiladi. Nafaqat ularni tushunish balki, baholanishi, faoliyatdagi rolini, boshqa tushunchalar bilan aloqasini, iqtisod va moliyaviy jihatdan uning o‘zgarishlarini ahamiyatini ham anglash talab etiladi.

Buxgalteriya balansini o‘qish orqali:

- korxona to‘g‘risida muhim ma’lumotlarni olish;
- aylanma mablag‘larni ta’minlanish darajasini baholash;
- o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganligini bilish;
- korxonaning moliyaviy holatini dastlabki baholash imkoni tug‘iladi.

Buxgalteriya balansini dastlabki o'qishda moliyaviy jihatdan quyidagilar o'rganiladi:

- aktivlarning umumiy summasi va uning yil davomida o'zgarishi;
- xususiy sarmoya va majburiyatlarning summasi, ularning yil davomida o'zgarishi;
- uzoq muddatli va joriy aktivlarni moliyalashtirish holati va ularning o'zgarishi;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari tarkibi, holati va o'zgarishi;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning tarkibi, holati va o'zgarishi;
- joriy aktivlarning tarkibiy tuzilishi va o'zgarishi.

Buxgalteriya balansi asosida moliyaviy holat baholanadi. Shu sababli moliyaviy holat tahlili deganda ko'pincha buxgalteriya balansi tahlili tushuniladi. Uning muhim yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

1. Qisqa muddatga moliyaviy holat tahlili;
2. Uzoq muddatga moliyaviy holat tahlili;
3. Korxona ish aktivligi tahlili.

Moliyaviy hisobotni tahlil etish deganda – korxonaning muayyan sanaga bo'lgan moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar haqidagi axborotlarni analitik qayta ishlash jarayonlari tizimi tushuniladi.

Moliyaviy hisobotni o'qishda, bir xil holatning har xil jihatlarini aks ettiruvchi hisobot shakllaridagi ma'lumotlarning o'zaro mosligiga ham ahamiyat qaratiladi. Masalan, buxgalteriya balansida ayrim qatorlar boshqa moliyaviy hisobot shaklining tegishli qatorlari bilan mos kelishi lozim.

Buxgalteriya balansini o'qish va tahlil etish orqali korxona moliyaviy holatiga baho berishda o'rganiladigan masalalar kengligi sababli ularni bir tizimga solib olish talab qilinadi.

Bu holatni quyidagi o'rganiladigan mavzular bo'yicha tuzib chiqish mumkin.

Buxgalteriya balansi va uni o'qish yuzasidan qatorlar

Buxgalteriya balansini o'qish				
Aktivlar tarkibi, tuzilishi			Passivlar tarkibi, tuzilishi	
Uzoq muddatli aktivlar	Joriy aktivlar	Aktivlar va passivlarning bog'liqligi	O'z mablag'lari manbasi	Majburiyatlar
Moliyaviy holat				
Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar hamda bir xil jihatning boshqa tomonlarini aks ettiruvchi moliyaviy hisobot shakllari				
Aktivlar	Kapital	Majburiyatlar	Daromadlar	Xarajatlar
Foyda va zararlar tarkibi, tuzilishi				
Pul oqimi tarkibi, tuzilishi				
Xususiy kapital tarkibi tuzilishi				

Buxgalteriya balansini o'qish yuzasidan balans tuzuvchi korxonaga, uning mulkiy shakliga, faoliyat turiga, balans tuzilgan davriylikka, balans o'lchovi va korxona yuridik manziliga tavsif berishning birinchi bosqichida bajariladigan ishlar ketma-ketligini xarakterlaydi.

O'qishning keyingi bosqichida korxonaning jami aktivlari va ularning tashkil topish manbalariga, korxonada aktivlarning asosiy kapitalga va joriy kapitalga yo'naltirilgan qismiga, mablag'lar manbasida qaysi manba turining (o'z va qarz) ustunligiga, moliyaviy faoliyat natijasi va uning qaysi shakllarda (pullik va pulsiz ko'rinishlarda) mavjudligiga, asosiy va nomoddiy aktivlarning holatiga, majburiyatlar va ularning nisbatiga, pul mablag'lari va ularning ko'proq qaysi shaklda turganligiga ahamiyat beriladi.

Buxgalteriya balansini o'qish unda aks etgan (hodisa va jarayonlar, ularning samarasi va natijasini ko'rsatkichlar tizimida kodlashtirish va axborotlarni raqamlarda aks ettirilgan) axborotlarni dastlabki tushunish usulidir.

Buxgalteriya balansi aktivi va passivini o'qish

Mol-mulk tarkibi	Yil boshiga	Yil oxiriga	Mablag'lar manbasi	Yil boshiga	Yil oxiriga
Uzoq muddatli	10 219 7	12 593	O'z mablag'lari	7 745	10 124
aktivlar (satr	31 945	199 960	manbalari (satr	794 466	233 076

012+ 022+030+090 +100+110+12 0)			410+ 420+430+440+ 450+460+470)		
Joriy aktivlar	2 978 372 713	11 683 693 105	Majburiyatlar	5 452 310 192	14 152 659 989
Shu jumladan:			Shu jumladan:		
Tovar-moddiy zaxiralar (satr 150+ 160+170+180)	819 530 511	1 047 437 972	Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr 500+510+520+ 530 +540+550+560 +570+580+590)	4 675 490 146	12 304 013 149
Kelgusi davr xarajatlari (satr 190)	1 366 091 169	8 441 062 224			
Kechiktirilgan xarajatlar (satr 200)	-	-			
Debitorlar jami: (satr 220+240+250 + 260+270+280 +290+300+31 0)	503 338 335	1 566 042 404	Joriy majburiyatlar, jami (satr, 610+620+ 630+640+650+ 660+670+680+ 690+700+710+ 720+730+740+ 750+760) shu jumladan:		
Pul mablag'lari, jami (satr.330+340+ 350+ 360)	171 917 383	468 669 767	Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar (satr 730+740)	14 744 216	8 878 479
Qisqa muddatli investitsiyalar (satr 370)	-	-	Uzoq muddatli kreditlarning joriy qismi (satr 750)	-	-

Boshqa joriy aktivlar (satr 380)	117 495 315	160 480 738	Kreditorlik qarzlari satr 610+620+630+640 +650+660+670 +680+690+700 +710+720+760	762 075 830	1 839 768 361
Balans aktivining jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**Balans passivining jami**	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**

Korxonada jami aktivlar summasi yil boshida 13 198 104 658 ming so'mni tashkil etgan va shundan uzoq muddatli aktivlar summasi 10 219 731 945 ming so'mni, joriy aktivlar summasi esa 2 978 372 713 ming so'mni tashkil etgan. Joriy aktivlar tarkibida zaxira va xarajatlar davr boshida 819 530 511 ming so'mni davr oxirida 1 047 437 972 ming so'mni tashkil etgan. Pul mablag'lari davr boshida 171 917 383 ming so'mni, davr oxirida esa 468 669 767 ming so'mni tashkil qilgan. Debitorlik majburiyatlari davr boshida 503 338 335 ming so'mni, davr oxirida 1 566 042 404 ming so'mni tashkil etgan.

Aktivlarning manbalash yuzasidan korxona passivlari quyidagi tarkibda shakllangan. Davr boshiga 7 745 794 466 ming so'mlik o'zlik mablag'lari manbasi va 5 452 310 192 ming so'm majburiyatlar, davr oxiriga kelib esa 10 124 233 076 ming so'm o'zlik mablag'lari manbasi va 14 152 659 989 ming so'm majburiyatlar summasi mavjudligi qayd etilgan.

◘ Korxonada aktivlar va passivlar summasi mos ravishda 2017-2018-yillar oralig'ida quyidagi o'zgarish tendensiyalariga ega bo'lgan. 2017-yil 1-yanvar holatiga 13 198 104 658 ming so'mga, 1-chorak yakuni bo'yicha 14 674 450 477 ming so'mga, 2-chorak yoki 2017 yarim yillik yakuni bo'yicha 15 430 059 403 ming so'mga, 2017-yil 9-oylik natijasi bo'yicha 22 349 809 471 ming so'mga, yil yakuni bo'yicha 24 276 893 065 ming so'mga teng bo'lgan.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ ning qisqartirilgan buxgalteriya balansi

Ko'rsatkichlar	01.01.2017y	01.04.2017y	01.07.2017y	01.10.2017y	01.01.2018y
AKTIV					
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**11 151 959 813**	**11 195 178 476**	**11 778 032 823**	**12 593 199 960**
Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	10 527 417 487	11 341 824 771	13 056 620 251	13 186 532 286	14 773 593 626
Asosiy vositalarning eskirish qiymati	3 423 307 367	3 788 793 507	3 945 211 086	4 125 679 858	4 320 658 666
Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	7 104 110 120	7 553 031 264	9 111 409 165	9 060 852 428	10 452 934 960
Nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati	417 151	335 519	526 894	435 179	345 379
Kapital qo'yilmalar	2 834 711 892	3 308 810 890	1 783 170 063	2 396 325 565	1 572 602 311
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	289 782 140	300 072 354	320 419 651	567 317 310
2. Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**3 522 490 664**	**4 234 880 927**	**10 571 776 648**	**11 683 693 105**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	761 929 334	807 974 274	805 958 807	1 047 437 972
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	1 926 260 257	2 439 824 162	8 466 493 743	8 441 062 224
Pul mablag'lari	171 917 383	167 990 329	198 395 625	199 248 750	468 669 767
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	114 011 429	118 290 042	112 380 694	160 480 738
Debitorlar, jami	503 338 335	552 299 315	670 396 824	987 694 654	1 566 042 404
Shu jumladan:					

Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	163 855 350	162 134 584	179 194 017	304 669 491	268 038 094
Byudjetga avans to'lovlari	7 740 384	6 510 004	8 801 153	5 388 750	5 252 951
Balans aktivi bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**
PASSIV					
1. O'z mablag'lari manbasi	**7 745 794 466**	**8 567 616 791**	**8 644 944 914**	**8 963 743 430**	**10 124 233 076**
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**6 106 833 686**	**6 785 114 489**	**13 386 066 041**	**14 152 659 989**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	5 329 297 527	5 927 142 095	12 154 367 349	12 304 013 149
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	12 729 877	10 091 394	9 142 953	8 878 479
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	764 806 282	847 881 000	1 222 555 739	1 839 768 361
Shu jumladan:					
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	177 094 949	250 590 908	306 494 641	514 650 184
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	35 632 293	40 718 997	40 080 238	62 317 043
Balans passivi bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**

5.6. Buxgalteriya balansining gorizontal (davriy) tahlili

Gorizontal tahlil – alohida moliyaviy ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash orqali moliyaviy holatdagi o'zgarishlarga baho berish usuli hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini, moliyaviy ko'rsatkichlarni gorizontal tahlili asosida ularning o'zgarishiga mutlaq va nisbiy ifodalarda baho beriladi.

Moliyaviy tahlilda gorizontal tahlilning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

1. Hisobot ko'rsatkichlarini davr boshiga va oxiriga taqqoslash;
2. Hisobot ko'rsatkichlarini o'tgan yilning shu davri ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;
3. Hisobot ko'rsatkichlarini dinamik taqqoslash;
4. Turli tashkilotlarning moliyaviy ko'rsatkichlarini qiyosiy taqqoslash.

Moliyaviy hisobotni gorizontal tahlili deganda – moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini mutlaq va nisbiy ifodalarda, hisobot davri boshiga yoki o'tgan yilga nisbatan qiyosiy o'rganishga aytiladi.

Gorizontal tahlilda ikki va undan ortiq davrlarga tegishli moliyaviy ko'rsatkichlar o'zgarishiga (mutlaq va nisbiy ifodada) baho beriladi. Davr oralig'ini tanlashda interval oraliqlar kengligi bir xilda olinadi. Masalan, hisobot yilining chorak, yarim yillik va yillik ko'rsatkichlari mos ravishda o'tgan yilning chorak, yarim yillik va yillik ko'rsatkichlari bilan qiyoslanadi.

Gorizontal va vertikal tahlil turlarini bir-biridan ajratgan holda tasavvur qilish qiyin. Negaki, ulardan birgalikda foydalangandagina mazmun kasb etadi. Shu sababli, gorizontal va vertikal tahlil turlari doimo bir butunlikda olib boriladi.

Korxonada aktivlarning yil boshiga nisbatan o'zgarishi 11 078 788 407 ming so'mni tashkil etgan. Nisbiy o'zgarishi, ya'ni o'sish darajasi 1,84 ni yoki 184 foizni tashkil etgan. Joriy aktivlarda uzoq muddatli aktivlarning o'sishi mutlaq ifodada 2 373 468 015 ming

so‘mni, o‘sish darajasi 123,3 foizni tashkil qilgan. Joriy aktivlarning davr boshiga nisbatan o‘zgarishi 8 705 320 392 ming so‘mni, o‘sish darajasi 3,9 baravarga ortgan.

Buxgalteriya balansining gorizontal tahlili

Ko‘rsatkichlar	Balans moddalari qiymati		Gorizontal tahlil	
	Davr boshi, ming so‘m	Davr oxiri, ming so‘m	Mutlaq o‘zgarishi, ming so‘m	Nisbiy o‘zgarish, %
AKTIV				
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**12 593 199 960**	**2 373 468 015**	**123,2**
Asosiy vositalar boshlang‘ich qiymati	10 527 417 487	14 773 593 626	4 246 176 139	140,3
Asosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	4 320 658 666	897351299	126,2
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	10 452 934 960	3348824840	147,1
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	345 379	71 772	82,79
Kapital qo‘yilmalar	2 834 711 892	1 572 602 311	1262109581	55,4
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	567 317 310	286824528	2,02
2. Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**11 683 693 105**	**8 705 320 392**	**3,9**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	1 047 437 972	227 907 461	127,8
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	8 441 062 224	7 074 971 055	**6178**
Pul mablag‘lari	171 917 383	468 669 767	296 752 384	2,72
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	160 480 738	42 985 423	136,7
Debitorlar, jami	503 338 335	1 566 042 404	1 062 704 069	3,11
Shu jumladan:				

Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	163 855 350	268 038 094	104182744	1,64
Byudjetga avans to'lovlari	7 740 384	5 252 951	-2487433	67,8
Balans aktivi bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**11 078 788 407**	**1,84**
PASSIV				
1. O'z mablag'lari manbasi	**7 745 794 466**	**10 124 233 076**	**2 378 438 610**	**130,7**
Ustav kapitali	614 384 306	828 202 670	213 818 364	135,0
Rezerv kapitali	5 737 851 427	8 121 422 920	2 383 571 493	141,6
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	223 400 675	284 292 932	44,0
Boshqa manbalar	885 865 126	951 206 811	65 341 685	107,5
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**14 152 659 989**	**8 705 320 392**	**2,59**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	12 304 013 149	7 628 523 003	2,63
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	8 878 479	5 865 737	60,2
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	1 839 768 361	1 077 692 531	2,41
Shu jumladan:				
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	514 650 184	294 831 294	2,35
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	62 317 043	41 518 913	3,0
Balans passivi bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**11 078 788 407**	**1,84**

Moliyalashtirish manbalarida o'z mablag'lari manbasi davr boshiga nisbatan 2 378 438 610 ming so'mga ortib, o'sish darajasi 130,7 foizni tashkil qilgan. Majburiyatlarning summasi davr boshiga nisbatan 8 705 320 392 ming so'mga ortgan va o'sish darajasi 2,59 ni tashkil

etgan. Kapital tarkibidagi eng yuqori o'sish qarz kapitali qatoriga to'g'ri kelgan.

5.7. Buxgalteriya balansining vertikal tahlili

Vertikal tahlil – gorizontal tahlilni to'ldiruvchi usul sifatida moliyaviy hisobot elementlari, moddalarining tarkibiy jihatlariga baho berishni xarakterlaydi. Ushbu jihatlarni moliyaviy hisobotlarning barcha shakllariga nisbatan qo'llash mumkin. Umumiy tarkibda yakka birliklarning salmog'i va ularning o'zgarishlari asosida korxona moliyaviy holatini tashxislash yanada osonlashadi. Korxonani moliyaviy ahvolini anglash, bilishda asosiy jihatlar jami tarkibda birlik qatorlarni to'g'ri nisbatlashga qaratiladi.

Uzoq muddatli va joriy aktivlar, kapital va majburiyatlar qatorida ayrim tarkib qatorlar salmog'ini balans jamiga nisbatan va ushbu tarkibning jamlangan qatoriga nisbatan ham hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin. Bu tartib aktivlarning tarkibiy o'zgarishlarini baholashga, aktivlar tarkibida alohida tarkiblar salmog'ining o'zgarishini, likvidlik va to'lovga qobillik ko'rsatkichlari ta'sirini to'g'ri baholashga imkon beradi. Ya'ni tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish orqali moliyaviy holatni yaxshilash chora-tadbirlarini ko'rish mumkin.

Vertikal tahlil gorizontal tahlil asosidagina bir butunlikka erishadi. Shu sababli ularni doimo birgalikda va umumiylikda foydalanish kuzatiladi. Ularni bir-biridan holi tarzda qo'llash orqali tahlilning to'liqligini ta'minlab bo'lmaydi.

Uzoq muddatli va joriy aktivlarning jami aktivlar tarkibidagi salmog'i quyidagi bog'lanishlar orqali topiladi.

Buxgalteriya balansi moddalari va ularning tarkib bo'yicha nisbiy ifodalari hisob-kitobi

Balans moddalarining nisbiy ifodalari	Aniqlanish tartibi	Buxgalteriya balansi satri bo'yicha hisob-kitobi
Uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlar tarkibidagi salmog'i	UMA/BJ*100	Satr130/Satr400*100
Joriy aktivlarning jami aktivlar tarkibidagi salmog'i	JA/BJ*100	Satr390/Satr400*100
Joriy aktivlar tarkibida TMZ salmog'i	TMZ/JA*(JA/BJ*100)	Satr140/Satr390*(Satr390/Satr400*100)
Joriy aktivlar tarkibida debitorlik majburiyatlari salmog'i	DM/JA*(JA/BJ*100)	Satr210/Satr390*(Satr390/Satr400*100)
Joriy aktivlar tarkibida pul mablag'lari salmog'i	PM/JA*(JA/BJ*100)	Satr320/Satr390*(Satr390/Satr400*100)
O'z mablag'lar manbasining jami manbalar tarkibidagi salmog'i	O'MM/JM*100	Satr480/Satr780*100
Majburiyatlarning jami manbalar tarkibidagi salmog'i	M/JM*100	Satr770/Satr780*100
Majburiyatlar tarkibida uzoq muddatli majburiyatlar salmog'i	UMM/M*(M/JM*100)	Satr490/Satr780*(Satr770/Satr780*100)
Majburiyatlar tarkibida joriy majburiyatlar salmog'i	JM/M*(M/JM*100)	Satr600/Satr780*(Satr770/Satr780*100)

Balans moddalarining jamlangan qatorlar bo'yicha tarkibiy salmog'ini o'rganish inflyatsiya ta'siri, shuningdek, baho o'zgarishlarining mulk qiymatiga ta'sirini to'g'ri baholashga ham imkon beradi. Masalan, balans jamida o'z mablag'lari manbasi qiymat ifodada ta'minot bo'yicha aniq holatni ifoda etmaydi. Agar uning balans jamiga nisbatan nisbiy ifodasi aniqlansa korxonaning moliyaviy ta'minotida mustaqillik, qaramlik darajasini yaqqol anglash mumkin.

Buxgalteriya balansining vertikal tahlili

Ko'rsatkichlar	Balans moddalari qiymati		Vertikal tahlil	
	Davr boshi, ming so'm	Davr oxiri, ming so'm	Davr boshiga ,%	Davr oxiriga, %
AKTIV				
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**12 593 199 960**	**77,4**	**51,8**
Asosiy vositalar boshlang'ich qiymati	10 527 417 487	14 773 593 626	79,7	60,8
Asosiy vositalarning eskirish qiymati	3 423 307 367	4 320 658 666	25,9	17,8
Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	7 104 110 120	10 452 934 960	53,8	43,0
Nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati	417 151	345 379	0,003	0,001
Kapital qo'yilmalar	2 834 711 892	1 572 602 311	21,4	6,5
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	567 317 310	2,1	2,3
2. Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**11 683 693 105**	**22,6**	**48,2**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	1 047 437 972	6,2	4,3
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	8 441 062 224	10,3	34,7
Pul mablag'lari	171 917	468 669	1,3	1,9

	383	767		
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	160 480 738	0,8	0,6
Debitorlar, jami	503 338 335	1 566 042 404	3,8	6,4
Shu jumladan:				
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	163 855 350	268 038 094	1,2	1,1
Byudjetga avans to'lovlari	7 740 384	5 252 951	0,05	0,02
Balans aktivi bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**100**	**100**
PASSIV				
1. O'z mablag'lari manbasi	**7 745 794 466**	**10 124 233 076**	**58,6**	**41,7**
Ustav kapitali	614 384 306	828 202 670	4,6	3,4
Rezerv kapitali	5 737 851 427	8 121 422 920	43,4	33,4
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	223 400 675	3,8	0,91
Boshqa manbalar	885 865 126	951 206 811	6,7	3,9
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**14 152 659 989**	**41,4**	**58,3**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	12 304 013 149	35,4	50,6
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	8 878 479	0,10	0,03
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	1 839 768 361	5,7	7,5
Shu jumladan:				
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	514 650 184	1,6	2,1
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	62 317 043	0,15	0,25
Balans passivi bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**100**	**100**

Korxonada jami aktivlar yil boshida 13 198 104 658 ming so'mni tashkil qilgan. Shundan, 10 219 731 945 ming so'mi uzoq muddatli aktivlarga, 2 978 372 713 ming so'm joriy aktivlarga to'g'ri kelgan. Uzoq muddatli aktivlarning davr boshiga jami aktivlar tarkibidagi salmog'i 77,4 foizni, joriy aktivlarning salmog'i 22,6 foizni tashkil qilgan. Uzoq muddatli aktivlar tarkibida eng yuqori qiymat va ulush asosiy vositalar va kapital qo'yilmalar qatoriga to'g'ri kelgan.

Joriy aktivlarning tarkibida eng yuqori ulush kelgusi davr xarajatlari, tovar-moddiy zaxiralar va debitorlik majburiyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Davr oxiriga kelib uzoq muddatli aktivlarning qiymati 12 593 199 960 ming so'mni tashkil qilib uning jami aktivlar tarkibidagi salmog'i 51,8 foizga tushgan.

Joriy aktivlarning davr oxiriga qiymati 11 683 693 105 ming so'mni tashkil qilib, jami aktivlardagi salmog'i mos ravishda 48,2 foizni tashkil qilgan.

O'z mablag'lari manbasi davr boshida jami kapital tarkibida 58,6 foizni davr oxiriga kelib 41,7 foizni tashkil etgan. O'z mablag'lari manbasida eng yuqori ulush rezerv kapitali qatoriga to'g'ri kelgan.

Joriy davrda qarz kapitali, majburiyatlarning davr boshiga salmog'i 35,4 foizdan 50,6 foizga ortgan.

5.8. Korxonalar iqtisodiy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili

Korxonaning iqtisodiy salohiyati deganda unda sodir etiladigan iqtisodiy jarayonni to'liq ta'minlaydigan barcha moddiy va mehnat resurslari hamda nomoddiy aktivlar tushuniladi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili uning mulki, zaxiralari va xarajatlarini har tomonlama o'rganishdir.

Iqtisodiy salohiyatni buxgalteriya balansiga nisbatan, aktivlarga nisbatan ishlatiladigan tushuncha deb qarash mumkin. Korxona iqtisodiy

salohiyati tahlili buxgalteriya balansi aktivlarini jamlangan qatori va ular bo'yicha o'zgarishlarni baholash orqali amalga oshiriladi.

Uning tarkibiy qismlariga uzoq muddatli va joriy aktivlar kiradi. Joriy aktivlar o'z navbatida tovar-moddiy zaxiralar, debitorlik majburiyatlari va pul mablag'laridan iborat bo'ladi.

Iqtisodiy salohiyatni o'stirishga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin

Korxonalar iqtisodiy salohiyatining ta'sir birliklari va samaradorligi

Iqtisodiy salohiyatning ta'sir birliklar	**Ta'sir birliklar**	**Samaradorligi**
Mehnat salohiyati	Mehnat unumdorligi, kadrlar qo'nimsizligi, tarkibning malaka darajasi	Q_{ich}, Q_{sm} / X X-xodimlarning o'rtacha ro'yxat soni
Asosiy vositalarning salohiyati	Asosiy vositalar va ularning tarkibi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydanish darajasi, asosiy vositalar qaytimi	Q_{ich}, Q_{sm} / A_v A_v- asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati
Aylanma mablag'larning salohiyati	Aylanma mablag'lar va ularning tarkibi, aylanma mablag'larning qaytimi	Q_{ich}, Q_{sm} / A_m A_m-Aylanma mablag'lar qiymati
Moliyaviy salohiyat	Moliyalashtirish manbalari jami va tarkibi, rentabellik darajasi, likvidlik, moliyaviy barqarorlik va ish aktivligi,	Q_{ich}, Q_{sm} / M_m M_m- moliyalashtirish manbalari
Tashkiliy va boshqaruv salohiyati	Tarkibiy tuzilish, korxona imidji, tashkiliy madaniyatning shakllanganligi	Q_{ich}, Q_{sm} / B_x B_x-tashkiliy va boshqaruv xarajatlar
Marketing salohiyati	Marketing tizimining yo'lga qo'yilganligi, marketing funksiyalarini bajarilishi, raqobatdoshlik darajasi	Q_{ich}, Q_{sm} / M_x M_x-marketing xarajatlari
Innovatsion salohiyat	Innovatsion yangiliklar va ularning amaliyotga joriy etilishi, innovatsion mahsulotlar, innovatsion xarajatlar	Q_{ich}, Q_{sm} / I_x I_x-innovatsion xarajatlar

Korxona iqtisodiy salohiyatini o'rganishda moddiylik jihatdan resurslarning quyidagi tarkibiy birliklarini ajratish mumkin.

Moddiy resurslar – moddiy ashyoviy ko'rinishga ega bo'lgan aktivlar (asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, o'rnatiladigan asbob-uskunalar, tovar-moddiy zaxiralar va boshqa moddiy ashyoviy aktivlar)

Nomoddiy resurslar – moddiy ashyoviy ko'rinishga ega bo'lmagan aktivlar (intellektual aktivlar, moliyaviy aktivlar)

Moddiy va nomoddiy resurslarni balans moddalariga nisbatan quyidagi turlarini tarkiblash mumkin: asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli investitsiyalar, o'rnatiladigan asbob-uskunalar, tovar-moddiy zaxiralar, debitorlik majburiyatlari, pul mablag'lari.

Balans moddalarini moddiy va nomoddiy resurslar, moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan, pul shaklida va pul shaklida bo'lmagan moddalarga tarkiblashda yagona normalarga kelinmagan. Shu bilan birga, resurslarni moddiy va nomoddiy resurslarga bo'linishi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga tarkiblashdagi mazmunda tushunish shart emas.

Korxona iqtisodiy salohiyatini qiymat va xarajat nuqtayi nazaridan baholash mumkin.

Qiymat nuqtayi nazaridan balansda aks etgan barcha aktivlar uning iqtisodiy salohiyatini belgilaydi. Bir qator olimlar uning qatoriga mehnat resurslarini pulda baholangan qiymatini ham kiritishadi. Lekin buxgalteriya balansida mehnat resurslarining pulda baholangan qiymati aks etmaydi. Ishchilarni o'qitish, qayta o'qitish, malakasini oshirish va ularning intellektual ijodkorligini oshirish yuzasidan qilingan barcha xarajatlar orqaligina mehnat salohiyatini baholash imkoni bo'ladi. Lekin bu kabi xarajatlar albatta moliyaviy hisobotlarning tegishli moddalarida aks etadi.

Korxona iqtisodiy salohiyatini baholashning ko'rsatkichlar tizimini quyidagi tarkibda berib o'tish mumkin:

- korxona iqtisodiy salohiyati holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi;

- korxona iqtisodiy salohiyati bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi;

- korxona iqtisodiy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'ratkichlar tizimi;

- korxona iqtisodiy salohiyati natijaviyligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

Korxona iqtisodiy salohiyati va uning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga: iqtisodiy salohiyatning o'rtacha yillik qiymati, iqtisodiy salohiyat tarkibida asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va moliyaviy aktivlar, mehnatning salmog'i, iqtisodiy salohiyat bilan ta'minlanganlik, iqtisodiy salohiyat holati ko'rsatkichlari kiradi.

Iqtisodiy salohiyat holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimida iqtisodiy salohiyatning o'rtacha yillik qiymati davr boshi va oxiriga qiymatlar yig'indisini ikkiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Iqtisodiy salohiyatning tarkibiy tuzilishida iqtisodiy salohiyatning har bir moddasini umumiy tarkibida tutgan ulushi baholanadi. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy salohiyatning har bitta tarkibiy birligini iqtisodiy salohiyat qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

$$IS_{sa}=A_v/I_s;$$
$$IS_{sn}=N_a/I_s;$$
$$IS_{sm}=M_r/I_s \text{ va h.k.}$$

Iqtisodiy salohiyatning tarkibiga kiruvchi moddalar holatini ifoda etuvchi ko'rsatkichlarga: asosiy vositalar (asosiy vositalarning eskirishi, yaroqliligi, kirib kelishi, chiqib ketishi, ularning jami aktivlardagi salmog'i), nomoddiy aktivlar (nomoddiy aktivlarning eskirishi, yaroqliligi, kirib kelishi, chiqib ketishi, ularning jami aktivlardagi salmog'i), aylanma mablag'lar (joriy aktivlarning jami aktivlarda va tarkib bo'yicha jamlangan qatorlardagi salmog'i) bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiritiladi.

Korxona iqtisodiy salohiyatini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi

Iqtisodiy salohiyat holatini *ifodalovchi*	**Iqtisodiy salohiyat bilan ta'minlanganlik ni *ifodalovchi***	**Iqtisodiy salohiyat samaradorligi *ni ifodalovchi***	**Iqtisodiy salohiyat natijaviyligini *ifodalovchi***

ko‘rsatkichlar	ko‘rsatkichlar	ko‘rsatkichlar	ko‘rsatkichlar
Iqtisodiy salohiyatning o‘rtacha yillik qiymati $I_{s1}+I_{s2}/2$...	Korxona aktivlarining iqtisodiy salohiyat bilan ta’minlaganligi A/Is	Iqtisodiy salohiyat samaradorligi YaM,ST/Is	Iqtisodiy salohiyat natijaviyligi SF/Is*100
Iqtisodiy salohiyatning tarkibiy tuzilishi holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlari AV, NA, JA,...	Aktivlar tarkibiy tuzilishining iqtisodiy salohiyat bilan ta’minlanganligi AV, NA, JA,.../Is	Iqtisodiy salohiyatning tarkibiy tuzilishining samaradorligi YaM,ST / AV, NA,JA,...	Iqtisodiy salohiyat tarkibiy tuzilishining natijaviyligi SF/ AV,NA,JA,...*100

Korxona iqtisodiy salohiyati holati, tarkibi, samaradorligi va natijaviyligi tahlili metodikasi

Ko‘rsatkichlar	Moliyaviy hisobot shakli va satri	Iqtisodiy salohiyat holati*	Iqtisodiy salohiyat bilan ta’minlanganlik	Iqtisodiy salohiyat samaradorligi	Iqtisodiy salohiyat natijaviyligi
1. Uzoq muddatli aktivlar	1sh-130	130	130/Xs	Q, ST/130	YaF, SF/130
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	1sh-012	012	012/Xs	Q, ST/012	YaF, SF/012
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	1sh-022	022	022/Xs	Q, ST/022	YaF, SF/022
Uzoq muddatli investitsiyalar	1sh-030	030	030/Xs	Q, ST/030	YaF, SF/030
O‘rnatiladigan asbob- uskunalar	1sh-090	090	090/Xs	Q, ST/090	YaF, SF/090
Kapital qo‘yilmalar	1sh-100	100	100/Xs	Q, ST/100	YaF, SF/100
Uzoq muddatli debitor qarzlari	1sh-110	110	110/Xs	Q, ST/110	YaF, SF/110

Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar	1sh-120	120	120/Xs	Q, ST/120	YaF, SF/120
2. Joriy aktivlar	1sh-390	390	390/Xs	Q, ST/390	YaF, SF/390
Tovar-moddiy zaxiralar	1sh-140	140	140/Xs	Q, ST/140	YaF, SF/140
Kelgusi davr xarajatlari	1sh-190	190	190/Xs	Q, ST/190	YaF, SF/190
Kechiktirilgan xarajatlar	1sh-200	200	200/Xs	Q, ST/200	YaF, SF/200
Debitorlar, jami	1sh-210	210	210/Xs	Q, ST/210	YaF, SF/210
Pul mablag'lari	1sh-320	320	320/Xs	Q, ST/320	YaF, SF/320
Qisqa muddatli investitsiyalar	1sh-370	370	370/Xs	Q, ST/370	YaF, SF/370
Boshqa joriy aktivlar	1sh-380	380	380/Xs	Q, ST/380	YaF, SF/380
Iqtisodiy salohiyat (aktivlar jami)	1sh-400	400	400/Xs	Q, ST/400	YaF, SF/400
Ishchilar soni (X)	1-T	1-T	x	x	x
Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (Q)	1-P	1-P	x	x	x
Mahsulot sotishdan sof tushum (CT)	2sh-010	010	x	x	x
Sotishdan yalpi foyda (YaF)	2sh-050	050	x	x	x
Sof foyda (SF)	2sh-200	200	x	x	x

**buxgalteriya balansida iqtisodiy salohiyatning tarkib bo'yicha tegishli qatori summasi*

Korxona iqtisodiy salohiyati holati, tarkibi, samaradorligi va natijaviyligi tahlili

Ko'rsatkichlar	Moliyaviy hisobot shakli va satri	Iqtisodiy salohiyat holati	Iqtisodiy salohiyat bilan ta'minlanganlik	Iqtisodiy salohiyat samaradorligi	Iqtisodiy salohiyat natijaviyligi

1. Uzoq muddatli aktivlar		12 593 199 960	796 768,3	0,411	0,077
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	1sh-012	10 452 934 960	163 327,1	0,495	0,093
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	1sh-022	345 379	5,396	15 000,3	2 820,2
Uzoq muddatli investitsiyalar	1sh-030	-	-	-	-
O'rnatiladigan asbob- uskunalar	1sh-090	-	-	-	974 038 284
Kapital qo'yilmalar	1sh-100	1 572 602 311	24 571,9	3,294	0,6193
Uzoq muddatli debitor qarzlari	1sh-110	-	-	-	-
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	1sh-120	567 317 310	8 864,3	9,132	1,716
2. Joriy aktivlar		11 683 693 105	182 557,7	0,443	0,0833
Tovar-moddiy zaxiralar	1sh-140	1 047 437 972	16 362,2	4,946	0,9299
Kelgusi davr xarajatlari	1sh-190	8 441 062 224	131 891,5	0,613	0,1153
Kechiktirilgan xarajatlar	1sh-200	-	-	-	-
Debitorlar, jami	1sh-210	1 566 042 404	24 469,4	3,308	0,6219
Pul mablag'lari	1sh-320	468 669 767	7 322,9	11,054	2,078
Qisqa muddatli investitsiyalar	1sh-370	-	-	-	-
Boshqa joriy aktivlar	1sh-380	160 480 738	2 507,5	32,283	6,069
Iqtisodiy salohiyat (aktivlar jami)	1sh-400	24 276 893 065	379 326,4	0,213	0,040
Ishchilar soni (X)	1-T	64 000	x	x	x
Ishlab	1-P	5 180	x	x	x

chiqarilgan mahsulot hajmi (Q)		801 340			
Mahsulot sotishdan sof tushum (CT)	2sh -010	5 180 801 340	x	x	x
Sotishdan yalpi foyda (YaF)	2sh-050	1 989 514 178	x	x	x
Sof foyda (SF)	2sh-200	974 038 284	x	x	x

Korxonada iqtisodiy salohiyatni aktivlarga teng deb oladigan bo'lsak, (odatda uning tarkibiga xodimlarning qiymati ham kiritiladi) uning ta'minlanganlik, samaradorlik va natijaviylik darajalari aktivlarning turlari bo'yicha turlicha bo'lganligini ko'rish mumkin. Aktivlarning ta'minlanganligi bo'yicha xodimlar soniga nisbatan, samaradorligini sotishdan tushumga nisbatan, natijaviylikni sof foydaga nisbatan bog'lanishlarida ularning tarkib bo'yicha o'zgarishlarini davriy va dinamik baholash imkoni tug'iladi.

5.9. Korxonalar moliyaviy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili

Har qanday korxona, firma, tashkilot o'z faoliyatini tegishli mablag'lar bilan ta'minlab turishi uchun maqbul moliyaviy salohiyatga ham ega bo'lishi zarur.

Korxona moliyaviy imkoniyatga ega bo'lmasa, u o'zining moddiy-texnika bazasini ham, aylanma mablag'larini ham shakllantirish imkoniga ega bo'lmaydi. Oqibatda, faoliyat ko'rsatishi ham qiyinlashadi.

Korxona moliyaviy salohiyatiga baho berishda balans passivining tuzilishi tahlil qilinadi. Ya'ni, korxona mulkida o'z mablag'lari va chetdan jalb qilingan mablag'larining hajmi, ularning jami mablag'lar tarkibidagi salmog'iga baho beriladi. Sof aktivlar qiymati, o'z aylanma

mablag'lari naqdligi, uzoq muddatli va joriy aktivlarning moliyalashtirishning tarkibiy unsurlari baholanadi.

Korxona moliyaviy salohiyatini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi

Moliyaviy salohiyat holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar	**Moliyaviy salohiyat bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar**	**Moliyaviy salohiyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar**	**Moliyaviy salohiyat natijaviyligini ifodalovchi ko'rsatkichlar**
Moliyaviy salohiyatning o'rtacha yillik qiymati $Ms_1+Ms_2/2...$	Aktivlar tarkibiy tuzilishining salohiyat bilan ta'minlanganligi O'MM,M(KM,QMM,UMM)/Ms	Moliyaviy salohiyat samaradorligi YaM, ST / Ms	Moliyaviy salohiyat natijaviyligi SF / Ms*100
Iqtisodiy salohiyatninng tarkibiy tuzilishi holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar O'MM,M(KM,QMM, O'MM)		Moliyaviy salohiyat tarikibiy tuzilishining samaradorligi YaM,ST / O'MM, M(KM, QMM,UMM)	Moliyaviy salohiyat tarkibiy tuzilishining natijaviyligi SF/ O'MM, M(KM, QMM,UMM) *100

Moliyaviy salohiyat tarkibi, holati, samaradorligi va natijaviyligi tahlili metodikasi

Ko'rsatkichlar	**Moliyaviy hisobot shakli va satri**	**Iqtisodiy salohiyat holati***	**Iqtisodiy salohiyat bilan ta'minlanganlik**	**Iqtisodiy salohiyat samaradorligi**	**Iqtisodiy salohiyat natijaviyligi**
I.O'z	1sh-480	480	480/Xs	Q, ST/480	YaF,

mablag'lari manbalari					SF/780
Ustav kapitali	1sh-410	410	410/Xs	Q, ST/410	YaF, SF/410
Qo'shilgan kapital	1sh-420	420	420/Xs	Q, ST/420	YaF, SF/420
Rezerv kapitali	1sh-430	430	430/Xs	Q, ST/430	YaF, SF/430
Sotib olingan xususiy aksiyalar	1sh-440	440	440/Xs	Q, ST/440	YaF, SF/440
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	1sh-450	450	450/Xs	Q, ST/450	YaF, SF/450
Maqsadli tushumlar	1sh-460	460	460/Xs	Q, ST/460	YaF, SF/460
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar	1sh-470	470	470/Xs	Q, ST/470	YaF, SF/470
II. Majburiyatlar	1sh-770	770	770/Xs	Q, ST/770	YaF, SF/770
Uzoq muddatli majburiyatlar jami	1sh-490	490	490/Xs	Q, ST/490	YaF, SF/490
Joriy majburiyatlar jami	1sh-600	600	600/Xs	Q, ST/600	YaF, SF/600
Qisqa muddatli bank kreditlari	1sh-730	730	730/Xs	Q, ST/730	YaF, SF/730
Qisqa muddatli qarzlar	1sh-740	740	740/Xs	Q, ST/740	YaF, SF/740
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi	1sh-750	750	750/Xs	Q, ST/750	YaF, SF/750
Boshqa kreditorlik qarzlar	1sh-760	760	760/Xs	Q, ST/760	YaF, SF/760
Moliyaviy	1sh-780	780	780/Xs	Q, ST/780	YaF,

salohiyat (Balans passivi bo'yicha jami)					SF/780
Ishchilar soni (X)	1-T	1-T	x	x	x
Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (Q)	1-P	1-P	x	x	x
Mahsulot sotishdan sof tushum (CT)	2sh-010	010	x	x	x
Sotishdan yalpi foyda (YaF)	2sh-050	050	x	x	x
Sof foyda (SF)	2sh-200	200	x	x	x

**buxgalteriya balansida moliyaviy salohiyatning tarkib bo'yicha tegishli qatori summasi*

Moliyaviy salohiyat tarkibi, holati, samaradorligi va natijaviyligi tahlili

Ko'rsatkichlar	Moliyaviy hisobot shakli va satri	Moliyaviy salohiyat holati	Moliyaviy salohiyat bilan ta'minlanganlik	Moliyaviy salohiyat samaradorligi	Moliyaviy salohiyat natijaviyligi
I.O'z mablag'lari manbalari	1sh-480	10 124 233 076	158 191,0	0,5111	0,0962
Ustav kapitali	1sh-410	828 202 670	12 940,6	6,255	1,176
Qo'shilgan kapital	1sh-420	-	-	-	-
Rezerv kapitali	1sh-430	8 121 422 920	126 897,2	0,6379	0,1199
Sotib olingan xususiy aksiyalar	1sh-440	-	-	-	-
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	1sh-450	223 400 675	3 490,63	23,190	4,360

Boshqa manbalar	1sh-460 1sh-470	951 206 811	14 862,6	5,446	1,024
II. Majburiyatlar	1sh-770	14 152 659 989	221 135,3	0,3660	0,0688
Uzoq muddatli majburiyatlar jami,	1sh-490	12 304 013 149	192 250,2	0,4210	0,0791
Joriy majburiyatlar jami, shu jumladan:	1sh-600	1 848 646 840	192 250,2	2,802	0,5268
Qisqa muddatli bank kreditlari	1sh-730	8 878 479	138,726	583,52	109,707
Qisqa muddatli qarzlar	1sh-740	1 839 768 361	28 746,3	2,816	0,5294
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi	1sh-750	-	-	-	-
Boshqa kreditorlik qarzlar	1sh-760	-	-	-	-
Moliyaviy salohiyat (Balans passivi bo'yicha jami)	1sh-780	24 276 893 065	379 326,4	0,2134	0,0401
Ishchilar soni (X)	1-T	64 000	x	x	x
Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (Q)	1-P	5 180 801 340	x	x	x
Mahsulot sotishdan sof tushum (CT)	2sh-010	5 180 801 340	x	x	x
Sotishdan yalpi foyda (YaF)	2sh-050	1 088 734 205	x	x	x
Sof foyda (SF)	2sh-200	974 038 284	x	x	x

Korxonaning moliyaviy salohiyati 2018-yil 1-yanvar holatiga 24 276 893 065 ming so'mni tashkil etgan. Xodimlarning moliyaviy salohiyat bilan ta'minlanganligi 379 326,4 ming so'mni, moliyaviy salohiyatning samaradorligi 0,2134 ming so'mni, moliyaviy salohiyat natijaviyligi 0,0401 ming so'mni tashkil qilgan. Buni albatta oldingi yillarga nisbatan ijobiy deb baholash mumkin.

5.10. Buxgalteriya balansi moddalarining likvidlilik bo'yicha turkumlanishi

Buxgalteriya balansi likvidligi, korxona likvidligi tushunchalari moliyaviy holatini baholashning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Balans likvidlik aktivlarining pulga aylanish darajasini, korxona likvidligining qarshi tomonga bo'lgan majburiyatlarini to'lashga qobilligini xarakterlaydi.

Buxgalteriya balansining likvidliligi va korxona to'lov layoqatining tahlili. Buxgalteriya balansi aktivi likvidligi bo'yicha, kapital va moliyalashtirish manbalariga ko'ra, majburiyatlar to'lovga tortilishi bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi.

Aktivlarning birlashgan va tarkib qatorlari bo'yicha quyidagi guruhlarga ajratish uslubiyoti belgilangan. Ushbu uslubiyot xorij amaliyotiga to'la mos tushadi va tarkib bo'yicha nisbiy ifodalardagina farq etadi.

Aktiv tomon:

- doimiy harakatdagi aktivlar (A1);
- tez pulga aylanadigan aktivlar (A2);
- sekin pulga aylanadigan aktivlar (A3);
- qiyin pulga aylanadigan aktivlar (A4).

Passiv tomon:

- to'lov muddati kelgan majburiyatlar (P1);
- qisqa muddatli majburiyatlar (P2);
- uzoq muddatli majburiyatlar (P3);
- doimiy passivlar (P4).

Buxgalteriya balansining aktivi va passivining likvidlik darajasi bo'yicha tarkiblanishi

Aktivlar	Passivlar
Uzoq muddatli va joriy aktivlar	**O'z mablag'lari manbasi va majburiyatlar**
A1 – Doimiy harakatdagi aktivlar (satr 320+370+380)	P1 – To'lov muddati kelgan majburiyatlar (satr 610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)
A2 – Tez pulga aylanadigan aktivlar (210)	P2 – Qisqa muddatli to'lov majburiyatlari (satr 730+740+750)
A3 – Sekin pulga aylanadigan aktivlar (140)	P3 – Uzoq muddatli to'lov majburiyatlari (satr 500+520+540+560+590)
A4 – Qiyin pulga aylanadigan aktivlar (130)	P4 – Doimiy passivlar (480)

Buxgalteriya balansi likvidligini baholashda balansni tuzish davriyligiga (choraklik, yarim yillik va yillik) muhim ahamiyat qaratish lozim. Ko'pincha korxonalar faoliyatining mavsumga bog'liqligi, eksport va import qilinadigan mahsulotlar bo'yicha kontraktatsiya shartnomalarining bajarilishini bog'liqligiga ko'ra uni yillik oralig'ini o'rganish tavsiya etiladi.

Buxgalteriya balansi moddalarining likvidlik darajasi bo'yicha tarkiblanishi

Aktiv	Balans satri	Likvidlik guruhi	Passiv	Balans satri	Likvidlik guruhi
I. Uzoq muddatli aktivlar	A4		**I. O'z mablag'lari manbalari**	P4	
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	012	A4	Ustav kapitali (8300)	410	P4
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	022	A4	Qo'shilgan kapital (8400)	420	P4
Uzoq muddatli	030	A4	Rezerv kapitali	430	P4

investitsiyalar jami (satr 040+050+060+070 +080)			(8500)		
O‘rnatiladigan asbob-uskunalar (0700	090	A4	Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440	P4
Kapital qo‘yilmalar	100	A4	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450	P4
Uzoq muddatli debitor qarzlari	110	A4	Maqsadli tushumlar (8800)	460	P4
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar	120	A4	Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar (8900)	470	P4
I-bo‘lim bo‘yicha jami (satr 012+022+030+090 +100+110+120)	130	∑A4	I bo‘lim bo‘yicha jami (satr 410 +420+430+440+450+ 460+470)	480	∑P4
II. Joriy aktivlar	A3+A2+A1		**II. Majburiyatlar**	P3+P2+P1	
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr 150+160+170+ 180)	140	A3	Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr 500+510+520+530 +540+550+560+570+ 580+590)	490	P3
Kelgusi davr xarajatlari	190	A3	Shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr 500 +520+540+560+590)	491	P3
Kechiktirilgan xarajatlar	200	A3	Joriy majburiyatlar, jami (satr 610+620+630+640+6 50+ 660+670+680+690+7 00+710+720+730+74 0+750+760)	600	P2+P1
Debitorlar jami:	210	A2	Shu jumladan: joriy		P2

(satr 220 +240+250+260+27 0+280+290+300+3 10)			kreditorlik qarzlarida qisqa muddatli kreditlar va qarzlar, uzoq muddatli kreditlarning joriy qismi (satr 730+740 +750)		
Pul mablag'lari, jami (satr 330+340+350+360) shu jumladan:	320	A1	Joriy kreditorlik qarzlarining kredit va qarzlardan tashqari qismi (satr 610+630+650+670+6 80+690+700+710+72 0+760)	600	P1
Qisqa muddatli investitsiyalar	370	A1	Shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlari	602	P1
Boshqa joriy aktivlar	380	A1			
II bo'lim bo'yicha jami (satr 140+190+200+210 +230 +320+370+380)	390	∑A3+A 2+A1	**II bo'lim bo'yicha jami (satr 490+600)**	770	∑P1+P2 +P3
Balans aktivi bo'yicha jami (satr 130+390)	400	∑A	**Balans passivi bo'yicha jami (satr 480+770)**	780	∑P

Buxgalteriya balansining likvidlik bo'yicha belgilangan normalar va ularning mutlaq o'zgarishlari

O'zgarishlar tartibi	Mutlaq farqlanishlardagi o'zgarishlar				Likvidlik darajasi
1-holat	A1>=P1	A2>=P2	A3>=P3	A4<=P4	Mutlaq likvid balans
2-holat	A1<=P1	A2>=P2	A3>=P3	A4<=P4	Likvid balans
3-holat	A1<=P1	A2<=P2	A3>=P3	A4<=P4	Nolikvid balans
4-holat	A1<=P1	A2<=P2	A3<=P3	A4>=P4	Nochorlik holatidagi

					balans
x	Doimiy harakatdagi aktivlarning to‘lov muddati kelgan majburiyatlardan farqi	Tez pulga aylanadigan aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlar va qarzlardan farqi	Sekin pulga aylanadigan aktivlarning uzoq muddatli majburiyatlardan farqi	Doimiy passivlarning qiyin pulga aylanadigan aktivlardan farqi	x

Balans ifodasi: A1+A2+A3+A4=P1+P2+P3+P4

Buxgalteriya balansi elementlari va jamlangan qatorlarini (moddalarini) o‘zaro nisbatlash asosida likvidlikni nisbiy darajalariga va to‘lovga qobillik darajalariga ham baho berish mumkin.

Likvidlikni nisbiy ifodalari piramidasi

Nisbat	Nisbiy ifoda mazmuni
Aktivlar va passivlar tarkibiy nisbati	
A1 / P1	To‘lov muddati kelgan majburiyatlarning qoplanishi
A2 / P2	Qisqa muddatli majburiyatlarning qoplanish imkoniyati
A3 / P3	Uzoq muddatli majburiyatlarning qoplanish imkoniyati
A4 / P4	Doimiy passivlarning uzoq muddatli aktivlarda to‘planishi
Qoplash koeffitsiyentlari	
A1 / P1	Mutlaq to‘lov layoqati-1 (kreditorlik majburiyatini qoplanishi)
A1 / (P1+P2)	Mutlaq to‘lov layoqati-2 (kreditorlik va qisqa muddatli majburiyatlarni qoplanishi)
A1 / (P1+P2+P3)	Mutlaq to‘lov layoqati-3 (kreditorlik va uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi)
(A1+A2) / (P1+P2)	Oraliq to‘lov layoqati-1(Qisqa davriylikda rejalashtirishda)
(A1+A2) /	Oraliq to‘lov layoqati-2 (qisqa davriylikda

(P1+P2+P3)	rejalashtirishda)
(A1+A2+A3) / (P1+P2+P3)	Umumiy to‘lov layoqati-1 (bashoratlashda ishlatiladi)
(A1+A2+A3+A4) / (P1+P2+P3)	Umumiy to‘lov layoqati-2 (likvidatsion jarayonlarda ishlatiladi)
Aktivlarni moliyalashtirishning mutlaq ifodalari koeffitsiyentlari	
P4 / A4	Doimiy aktivlarni o‘z mablag‘lari hisobiga manbalanishi
(P3+P4) / A4	Doimiy aktivlarni o‘z va qarz mablag‘lari bilan manbalanishi
(P4+P3-A4) / A3	Joriy aktivlarni o‘z mablag‘lari hisobiga manbalanishi
(P4+P3-A4+P2) / A3	Joriy aktivlarning o‘z va qarz mablag‘lari hisobiga manbalanishi

Buxgalteriya balansi likvidligi tahlili

AKTIV	Yil boshi	Yil oxiri	PASSIV	Yil boshi	Yil oxiri	Majburiyatlarni qoplashdagi ortiqchalik(+), etishmovchilik (-)	
Doimiy harakatdagi aktivlar	289 412 698	629 150 505	To‘lov muddati kelgan majburiyatlar	762 075 830	1 839 768 361	-471 663 132	-1 210 617 856
Tez pulga aylanadigan aktivlar	503 338 335	1 566 042 404	Qisqa muddatli to‘lov majburiyatlari	14 744 216	8 878 479	488 594 119	1 557 163 925
Sekin pulga aylanadigan aktivlar	2 185 621 680	9 488 500 196	Uzoq muddatli to‘lov majburiyatlari	4 675 490 146	12 304 013 149	-2 489 868 466	-2 815 512 953
Qiyin pulga aylanadigan aktivlar	10 219 731 945	12 593 199 960	Doimiy passivlar	7 745 794 466	10 124 233 076	-2 473 937 479	-2 468 966 884
Aktiv jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**Passiv jami**	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	x	x

Korxonada qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga doimiy harakatdagi aktivlarning yo‘naltirilganligi, shuningdek, sekin pulga aylanadigan aktivlarning uzoq muddatli majburiyatlarni qoplashi salbiy ifodani, tez pulga aylanadigan aktivlarning qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni qoplashi ijobiy farqlanishda chiqqan. O‘z mablag‘lari manbasi,

doimiy passivlarning uzoq muddatli aktivlarni, doimiy aktivlarni moliyalashtirishda yetishmovchilik kuzatilgan.

Korxonada sof aktivlar qiymati yil boshida (13 198 104 658 – 5 452 310 192 ming so'm) 7 745 794 466 ming so'mni, yil oxirida (24 276 893 065 – 14 152 659 989) 10 124 233 076 ming so'mni tashkil qilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini baholashda eng muhim sifat ko'rsatkichi bu – to'lov layoqati ko'rsatkichidir. Korxonani *to'lovga layoqati* to'lov imkoniyatlarini, ya'ni uning o'z majburiyatlarini to'lashga qodirligini xarakterlaydi.

Likvidlilik bilan to'lov qobiliyati bir-biridan farq qiladi. Likvidlilik qarzlarni to'lash uchun mablag'lar mavjudligini ko'rsatsa, to'lov qobiliyati qarzni uzish imkoniyati borligini ko'rsatadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lov layoqati deganda to'lov muddati kelgan majburiyatlarni qoplashga joriy mablag'larning yetarliligi yoki yetishmovchiligi tushuniladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lov layoqatini xarakterlovchi ko'rsatkichlarga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi:

- mutlaq to'lov layoqati;
- oraliq to'lov layoqati;
- joriy (umumiy) to'lov layoqati.

1. Mutlaq to'lov layoqati (K_{mtl}). Ushbu ko'rsatkich xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalarini muddati kelgan to'lov majburiyatlariga, qisqa muddatli majburiyatlarga bo'lish asosida topiladi.

$$\mathbf{K_{mtl} = (PM + QMMQ) / QMM}$$

Bunda:

PM – pul mablag'lari;

QMMQ – qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar;

QMM – qisqa muddatli (to'lov muddati kelgan) majburiyatlar.

Ushbu ko'rsatkich qisqa muddatli majburiyatning har bir so'miga to'g'ri keladigan pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalarni xarakterlaydi.

2. Oraliq to'lov layoqati (K_{otl}). Ushbu ko'rsatkich mutlaq to'lov layoqati ko'rsatkichidan sof debitorlik summasiga farq etadi.

$$K_{otl} = (PM + QMMQ + SDM) / QMM$$

Bunda:

SDM – sof debitorlik majburiyati.

Sof debitorlik majburiyati jami debitorlik qarzidan muddati o'tgan debitorlik qarzlarini chegirish asosida topiladi. Chunki muddati o'tgan debitorlik qarzlari kreditorlik qarzini qoplay oladigan haqiqiy manba bo'la olmaydi.

3. Joriy to'lov layoqati (K_{jtl}). Ushbu ko'rsatkich to'lov muddati kelgan majburiyatlari yoki qisqa muddatli majburiyatlarni to'lashga barcha oborot, aylanma aktivlarni yetarliligi yoki yetishmovchiligini xarakterlaydi.

$$K_{jtl} = (PM + QMMQ + SDM + TMZ) / QMM$$

Bunda:

TMZ – tovar-moddiy zaxiralar qiymati.

Aktivlar likvidligi (pulga aylanuvchanligi)ni baholashda majburiyatlar to'lov muddatlari bo'yicha qayta tarkiblanadi.

Likvidlik darajasi bo'yicha buxgalteriya balansining tegishli qatorlariga quyidagi moddalarni kiritish mumkin.

Korxona to'lov layoqatining tahlili

Ko'rsatkichlar	Davr boshiga	Davr oxiriga	Farqi, (+,-)	O'sish darajasi, %
A	1	2	3	4
1. Uzoq muddatli aktivlar (satr 130)	10 219 731 945	12 593 199 960	2 373 468 015	123,2
2. Joriy aktivlar jami (satr 140+190+200 +210+230+320+370+380)	5 452 310 192	11 683 693 105	6 231 382 913	114,2
2.1. Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr 150 +160+170+180)	819 530 511	1 047 437 972	227 907 461	127,8
2.2. Kelgusi davr xarajatlari (satr 190)	1 366 091 169	8 441 062 224	7 074 971 055	517,8
2.3. Kechiktirilgan xarajatlar	-	-	-	-

(satr 200)				
2.4. Debitorlar jami: (satr 220+240+250+260 +270+280+290+300+310) shu jumladan:	503 338 335	1 566 042 404	1 062 70 4 069	211,1
2.4.1. Muddati o'tgan debitorlik majburiyatlari (satr 211)	-	-	-	-
2.5. Pul mablag'lari, jami (satr 330+340+350 +360)	171 917 383	468 669 767	296 752 384	172,6
2.6. Qisqa muddatli investitsiyalar	-	-	-	-
2.7. Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	160 480 738	42 985 4 23	136,5
2.8.Balans aktivi bo'yicha jami (satr 130+390)	13 198 104 658	24 276 893 065	11 078 7 88 407	183,9
3. Joriy majburiyatlar (satr 610+620+630 +640+650+660+670+680+690+ 700+710+720+730+740+750+7 60) shu jumladan:	776 820 046	1 848 646 840	1 071 82 6 794	137,9
3.1. Muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlari (satr 602)	-	-	-	-
4. Mutlaq to'lov layoqati (2.5+2.6+2.7) / (3-3.1)	0,37	0,34	-0,03	91,9
5. Oraliq to'lov layoqati (2.5+2.6+2.7+2.4-2.4.1) / (3-3.1)	1,02	1,19	0,17	116,6
6. Joriy, umumiy to'lov layoqati (2.5+2.6+2.7+(2.4-2.4.1)+2.3+2.2+2.1) / (3-3.1)	7,02	6,32	0,7	90,0

Korxonada mutlaq to'lov layoqati 0,97 dan 0,34 ga tushgan, oraliq to'lovga qobillik 1,02 dan 1,19 ga ko'tarilgan, joriy, umumiy to'lovga qobillik 7,02 dan 6,32 ga tushgan. Korxona to'lov layoqatining barcha ko'rsatkichlarini normaga nisbatan ijobiy baholash mumkin.

O'zbekiston temir yo'llari AJ ning jamlangan buxgalteriya balansi

Ko'rsatkichlar	2017-2018yy.				
AKTIV	**01.01.2017y**	**01.04.2017y**	**01.07.2017y**	**01.10.2017y**	**01.01.2018 y**
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**11 151 959 813**	**11 195 178 476**	**11 778 032 823**	**12 593 199 960**
Asosiy vositalar boshlang'ich qiymati	10 527 417 487	11 341 824 771	13 056 620 251	13 186 532 286	14 773 593 626
Asosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	3 788 793 507	3 945 211 086	4 125 679 858	4 320 658 666
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	7 553 031 264	9 111 409 165	9 060 852 428	10 452 934 960
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	335 519	526 894	435 179	345 379
Kapital qo'yilmalar	2 834 711 892	3 308 810 890	1 783 170 063	2 396 325 565	1 572 602 311
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	289 782 140	300 072 354	320 419 651	567 317 310
2. Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**3 522 490 664**	**4 234 880 927**	**10 571 776 648**	**11 683 693 105**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	761 929 334	807 974 274	805 958 807	1 047 437 972
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	1 926 260 257	2 439 824 162	8 466 493 743	8 441 062 224
Pul mablag'lari	171 917 383	167 990 329	198 395 625	199 248 750	468 669 767
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	114 011 429	118 290 042	112 380 694	160 480 738
Debitorlar, jami	503 338 335	552 299 315	670 396 824	987 694 654	1 566 042 404
Shu jumladan:					
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-	163 855 350	162 134 584	179 194 017	304 669 491	268 038 094

kitoblar					
Byudjetga avans to'lovlari	7 740 384	6 510 004	8 801 153	5 388 750	5 252 951
Aktiv bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**
PASSIV	**01.01.2017y**	**01.04.2017y**	**01.07.2017y**	**01.10.2017y**	**01.01.2018 y**
1. O'z mablag'lari manbasi	**7 745 794 466**	**8 567 616 791**	**8 644 944 914**	**8 963 743 430**	**10 124 233 076**
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**6 106 833 686**	**6 785 114 489**	**13 386 066 041**	**14 152 659 989**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	5 329 297 527	5 927 142 095	12 154 367 349	12 304 013 149
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	12 729 877	10 091 394	9 142 953	8 878 479
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	764 806 282	847 881 000	1 222 555 739	1 839 768 361
Shu jumladan:					
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	177 094 949	250 590 908	306 494 641	514 650 184
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	35 632 293	40 718 997	40 080 238	62 317 043
Balans passivi bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**

Takrorlash uchun savollar

Balans nima?

Buxgalteriya balansi nima?

Buxgalteriya balansini tavsiflab bering?

Buxgalteriya balansi turlarini ajrating va tasniflang?

Buxgalteriya balansini tuzish qoidalarini tasniflang?

Aktivlar nima?

Kapital nima?

Majburiyat nima?

Balansga ilovalar, qaydlar va tushuntirishlarni izohlang?

Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishini tasniflang?

Balans moddalari va uning boshqa moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga mosligini tushuntiring ?

Buxgalteriya balansini "o'qish"ni tasniflang?

Buxgalteriya balansining gorizontal (davriy) tahlili?

Buxgalteriya balansining vertikal (tarkibiy) tahlili?

Korxona moliyaviy holatining tahlili?

Korxonalar iqtisodiy salohiyati nima?

Korxona iqtisodiy salohiyati tarkibiga nimalar kiradi?

Korxona iqtisodiy salohiyatining ko'rsatkichlar tizimi nima?

Korxona iqtisodiy salohiyat samaradorligi va uning tahlili?

Korxonalar moliyaviy salohiyati nima?

Korxona moliyaviy salohiyati tarkibiga nimalar kiradi?

Korxona moliyaviy salohiyati ko'rsatkichlar tizimi va ularning tahlili?

Korxona moliyaviy salohiyati samaradorligi va uning tahlili?

Buxgalteriya balansi moddalarining likvidlilik bo'yicha turkumlanishi?

Doimiy harakatdagi aktivlar nima?

Tez pulga aylanadigan aktivlarga nimalar kiradi?

Sekin pulga aylanadigan aktivlarga nimalar kiradi?

Qiyin pulga aylanadigan aktivlarga nimalar kiradi?

To‘lov muddati kelgan majburiyatlarga qanday majburiyatlar kiradi?

Qisqa muddatli majburiyatlar nima?

Uzoq muddatli majburiyatlar nima?

Doimiy passivlar nima?

Likvidlikni mutlaq va nisbiy ifodalari?

Likvidlikni oshirish yo‘llari?

Likvidlilik tahlili va uni oshirish yo‘llari?

To‘lov layoqati deganda nimani tushunasiz?

To‘lov layoqatining ko‘rsatkichlar tizimi?

Joriy to‘lov layoqati?

Oraliq to‘lov layoqati?

Umumiy to‘lov layoqati?

To‘lov layoqatini oshirish yo‘llari?

6-BOB. MOLIYAVIY BARQARORLIK TAHLILI

6.1.Moliyaviy barqarorlik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari.

6.2.Moliyaviy barqarorlik va uning tiplari: mutlaq va me'yoriy barqarorlik, nobarqaror va inqirozli holatlar.

6.3.Korxonaning iqtisodiy resurslari, uning moliyaviy tuzilmasi, likvidligi, to'lovga qobiliyatini moliyaviy ahvol va barqarorlikka ta'siri.

6.4.Korxonaning o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganligi tahlili.

6.5.Moliyaviy barqarorlikni dinamik tahlili.

6.6.Korxonaning moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq koeffitsiyentlari (moliyaviy mustaqillik (avtonomiya), moliyaviy qaramlik, o'z va qarz mablag'larining nisbati, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik, o'z aylanma mablag'larining to'planish koeffitsiyenti kabi) va ularning tahlili.

6.7.Korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlash va yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini belgilash.

6.1.Moliyaviy barqarorlik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari

Korxona barqarorligini eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bu moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichidir. Agar korxonada daromadlar xarajatlardan ortadigan bo'lsa, moliyaviy baraqarorlikka erishishi mumkin bo'ladi. Agar korxona mablag'larni erkin tasarruf eta olsa, ulardan samarali foydalansa, doimiy ishlab chiqarish va sotishning mukammal siklik aylanish uzluksizligi ta'minlansa, bunday korxonani moliyaviy barqaror deyishimiz mumkin.

Korxona moliyaviy holatini qisqa va uzoq muddatga baholash mumkin. Qisqa muddatli oraliqda korxonaning to'lovga qodirligiga uzoq muddatli o'rganishda esa uning moliyaviy barqarorligiga ko'proq ahamiyat qaratiladi.

Firma va kompaniyalar moliyaviy jihatdan barqaror rivojlanmas ekan, uning bankrotlikka uchrash ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu sababli, moliyaviy barqarorlikni makro va mikro ko'lamda tadqiq etish doimo iqtisodchilarning doimiy e'tiborida bo'lib kelgan.

Moliyaviy tahlilda moliyaviy barqarorlikning alohida olingan korxonalarda, firma va kompaniyalarda o'rganishga, qisqa, o'rta va uzoq davriylikda baholash amaliyotini yo'lga qo'yishga, uni o'stirishning aniq chora-tadbirlarini belgilashga ahamiyat qaratiladi.

Moliyaviy barqarorlikni baholash bir qancha ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

- firma va kompaniyalarning to'lov qobiliyati;
- korxona o'z mablag'larining qaramlik koeffitsiyenti;
- aktivlarning qaramlik koeffitsiyenti;
- foizlarni qoplash koeffitsiyenti.

Korxonada moliyaviy resurslarni to'g'ri shakllantirish, ularning taqsimlanishi, foydalanish samaradorligi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillari hisoblanadi. Ya'ni, moliyaviy barqarorlik korxona moliyaviy resurslarni qay darajada mohirona boshqarayotganligini ifodalaydi.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yuzasidan quyidagi muhim ahamiyat qaratish lozim: dastlabki kapitalning shakllantirilishiga, ishlab chiqarishni tashkil etilishiga, daromad va xarajatlar farqida ijobiy natijaviylikka, aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligiga, moliyalashtirishda avtonomlik darajasiga, ish va bozordagi aktivligining himoyalanganligiga va h.k. jihatlarga.

Moliyaviy barqarorlik mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda baholanadi.

Moliyaviy barqarorlikning mutlaq ko'rsatkichlari – aktivlar, ishlab chiqarish zaxiralari va ularni moliyalashtirish manbalarining muayyan davriylikdagi holatini ifoda etadi.

Korxona aktivlari va ishlab chiqarish zaxiralarini moliyalashtirish manbalariga albatta birinchi navbatda o'z mablag'lari manbasi (ustav kapitali, rezerv kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda,

maqsadli tushumlardan iborat), uzoq va qisqa davriylikda olingan bank kreditlari va qarzlari kiradi.

Aktivlarni moliyalashtirishda ko'proq uzoq muddatli kreditlar va qarzlar ustunlik qilsa, ishlab chiqarish zaxiralarini to'plash va moliyalashtirishda qisqa muddatli kreditlar va qarzlardan keng foydalaniladi.

Moliyaviy barqarorlikni mutlaq ko'rsatkichlarini aniqlashda, aktivlar va zaxiralarni moliyalashtirishda quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi:

- aktivlar (uzoq muddatli);
- ishlab chiqarish zaxiralari;
- o'z mablag'lari manbasi;
- uzoq muddatli majburiyatlar (kreditlar va qarzlar);
- qisqa muddatli majburiyatlar (kreditlar va qarzlar).

Korxonalar moliyaviy holatini tashhislash va uni sog'lomlashtirishning aniq chora-tadbirlarini ko'rish aslida makro ko'lamdagi barqarorlikni ta'minlashning ham muhim omili hisoblanadi. Shu sababli, yuzaga kelgan holatda e'tiborni, birinchi navbatda korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirishga va ularning kelgusida barqaror o'sishini ta'minlashga qaratmoq lozim.

Korxonaning moliyaviy holati xo'jalik subyektining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish darajasini, ularning maqsadli joylashtirilishi va samarali foydalanish darajasini, boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan moliyaviy munosabatlarni, to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorlik holatini tavsiflashni xarakterlaydi.

Moliyaviy barqarorlik nisbiy ifodalari aktivlarni (uzoq muddatli) va zaxiralarni moliyalashtirishning, moliyaviy mustahkamlik va qaramlikning, o'z va qarz mablag'larini jalb etilishida ijobiy natijaning saqlanishini xarakterlaydi.

Korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlashning eng muhim omili bu uning faoliyat natijaviyligidagi ijobiy natijaviylikning iqtisodni oltin qoidasiga asoslangan tartibining saqlanishidir.

Bu tartibning umumiy ifodasini quyidagi bog'lanishlarda berib o'tish mumkin:

$$SF_1/SF_0 > ST_1/ST_0 > XK_1/XK_0 > A_1/A_0 > 1 \text{ yoki}$$
$$SF_1/SF_0 * 100 > ST_1/ST_0 * 100 > XK_1/XK_0 * 100 > A_1/A_0 * 100 > 100$$

Bu yerda: SF_1/SF_0 - sof foydaning o'sishi;

ST_1/ST_0 - sotishdan tushumning o'sishi;

XK_1/XK_0 - xususiy kapitalning o'sishi;

A_1/A_0 - aktivlarning o'sishi.

Samaradorlik, natijaviylik va daromadlikning barcha ko'rsatkichlari ham moliyaviy barqarorlikni doimo ham ta'minlay olmaydi, agar ular orasidagi yuqoridagi nisbatlar saqlanmasa. Shu sababli, moliyaviy barqarorlikni mutlaq ifodalarini o'rganishda bazan korxonaning foyda bilan chiqish hollarida ham nobarqarorlik holatlari kuzatiladi. Bu bevosita birinchidan foydaning sifatliligi va uning o'tgan yillarga nisbatan o'sishi bilan izohlanadi. Yoki, aktivlar va zaxiralarni ortiqcha ushlab turishlar tufayli yuzaga keladi.

Korxonaning erkin tasarrufida qoluvchi sof foydaning yillar bo'yicha jamlangan qismi balansning taqsimlanmagan foyda qatorida aks etadi. Ushbu qatorning realligini ta'minlash yuzasidan ko'pincha debitorlik majburiyatlarining qisqa muddatlikda oqlanishiga ahamiyat qaratish lozim bo'ladi. Bu jarayon faqat ularning pullik ko'rinishda aktivda to'planishini emas, balki aktivlarning barcha turlari bo'yicha to'planishi mumkinligini ham xarakterlaydi. Shu sababli, ko'pincha passiv tomonda aks etuvchi foyda summasining sifatliligi ta'minlanmaydi.

Majburiyatlar tarkibida kreditorlik majburiyatlarining ko'payib ketishi ham firma, kompaniya faoliyat natijaviyligiga sezilarli ta'sir etadi. Negaki, uning holati ishlab chiqarish jarayoniga va uning boshqa tashkilotlar bilan bo'ladigan oldi-sotdi munosabatlariga ta'sir etadi. Natijada korxonalarga ishonchsizlik tug'iladi. Ishonchsizlik yuz bergan joyda albatta ishning unumi va natijaviyligiga ham putur yetadi.

Aktivlarni joylashtirish nafaqat korxona faoliyat natijaviyligiga balki uning moliyaviy holatiga ham bog'liq ravishda o'zgaradi. Passivlarni joylashtirishdagi eng birinchi talablar bu xususiy sarmoyani jami sarmoya tarkibidagi ulushining yuqoriligi bilan xususiy sarmoyaning qarz sarmoyasiga qaram bo'lmasligi shartlari bilan belgilanadi. Ya'ni, korxona avvalo moliyaviy jihatdan mustaqillikka ega bo'lmog'i, uning to'g'ri nisbatini saqlashi lozim.

Moliyaviy barqarorlikning muhim sharti zaxira va xarajatlarni moliyalashtirish yuzasidan o'z va qarz mablag'lari yetarliligi yoki yetishmasligi ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilishda ham xuddi shu bog'liqlikni ko'rish mumkin. Xususiy sarmoya yetarli bo'lmagan hollarda uzoq va qisqa muddatli majburiyatlarni jalb etish biznesning, tadbirkorlik faoliyatining doimiy sharti hisoblanadi. Shu sababli, aktivlarni moliyalashtirish yuzasidan majburiyatlardan foydalanishda albatta foyda omiliga va uning doimiy davomligini ta'minlashga muhim ahamiyat qaratish lozim.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari qatoriga moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o'z va qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti, moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti, o'z sarmoyasining harakatchanlik koeffitsiyenti, qarz mablag'larining jamlanganlik koeffitsiyenti, hamda qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyentlari kiradi.

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish maqsadi korxonaning o'z majburiyatlarini qoplay olish va uni uzoq muddatga saqlab qolish darajasini baholashga qaratilgan.

Moliyaviy barqarorlik tahlilining vazifalari:

Korxona moliyaviy barqarorligini mutlaq va nisbiy ifodalarining o'zgarishlarini baholash;

Moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda aktivlar va passivlarni joylashtirish va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;

Moliyaviy barqarorlikni o'stirish choralarini ko'rish;

Turli holatlarda resurslardan samarali foydalanishning istiqboldagi o'zgarishlarga ta'sirini baholash, moliyaviy barqarorlikni prognozlash.

Moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

Ichki omillar: aktivlarning optimal tarkibini shakllantirish va ularni to'g'ri boshqarish; moliyaviy resurslar va ularning tarkibini optimallashtirishni to'g'ri boshqarish; jalb qilingan kapitalni optimal nisbatlash va boshqarish.

Tashqi omillarga: mamlakatdagi iqtisodiy muhit (holat); bozordagi raqobat va kurash; makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (valyuta kurslari o'zgarishi, soliq va kredit qiymatidagi o'zgarishlar, tashqi iqtisodiy faoliyat rivoji); siyosiy holat (iqtisodning tartiblanishi, rag'batlantirilishi, huquqlarning himoyalanishi); inflyatsiya holati.

Moliyaviy barqarorlikni tahlil etishning axborot ta'minotiga asosiy va qo'shimcha manbalarni kiritish mumkin. Asosiy manbalariga: buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shakllari kiradi.

Qo'shimcha manbalarga: ta'sis hujjatlari, auditorlik nazorati natijalari, statistik manbalar va boshqa manbalar kiradi.

6.2. Korxonaning iqtisodiy resurslari, uning moliyaviy tuzilmasi, likvidligi, to'lovga qobiliyatini moliyaviy ahvol va barqarorlikka ta'siri

Korxonaning iqtisodiy resurslari.

Iqtisodiy resurslar bu – iqtisodiy manfaatlar ko'rish yuzasidan mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan tabiiy, ishlab chiqarish va inson omillaridir.

Iqtisodiy resurslar ko'pincha ishlab chiqarish omillari ham deb yuritiladi. Ular qatoriga mehnat resurslari; moliyaviy resurslar (pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar); moddiy-ashyoviy resurslar (bino va inshootlar, mashina va uskunalar, tabiiy resurslar, energiya resurslari); nomoddiy resurslar (patentlar, nou-xoular, bilimlar, axborotlar).

Iqtisodiy resurslarning moliyaviy tuzilmasi deganda ularning qiymatining jamlangan hisobotlarda aks etishi nazarda tutiladi. Iqtisodiy resurslarni buxgalterlar, analitiklar biznes tilida korxona aktivlari

sifatida qarash mumkin. Buxgalteriya balansida aktivlar (ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmatlar ko'rsatishda) siklik jarayonda qatnashishi va muhim xususiyatlariga ko'ra (operatsion, investitsion, moliyaviy) uzoq muddatli va joriy aktivlarga tarkiblangan. Uzoq muddatli aktivlarda asosiy kapitalning, joriy aktivlarda aylanma kapitalning muhim tarkibiy birliklari ifoda etiladi.

Iqtisodiy resurslarning moliyaviy tuzilmasi deganda ularni moliyalashtirish manbalarining tarkibiy tuzilishi (o'z mablag'lari va qarz mablag'lari hisobiga) nazarda tutiladi.

Korxonalarning o'z majburiyatlarini (joriy va uzoq muddatli) to'lash imkoniyatlarini uning to'lov layoqati ifoda etadi.

Iqtisodiy resurslar, ularning moliyaviy tuzilmasi va to'lov layoqati korxona moliyaviy barqarorligining muhim ta'sir birliklari hisoblanadi.

Iqtisodiy resurslar va ularning buxgalteriya balansidagi tuzilmasi

Iqtisodiy resurslar		Davr boshi	Davr oxiri	Farqi (+,-)
Uzoq muddatli aktivlar	**Jami**	**10 219 731 945**	**12 593 199 960**	**2 373 468 015**
	Asosiy vositalar	7 104 110 120	10 452 934 960	3 348 824 840
	Nomoddiy aktivlar	417 151	345 379	-71 772
	Uzoq muddatli investitsiyalar	-	-	
	Kapital qo'yilmalar	2 834 711 892	1 572 602 311	-1 262 109 581
	O'rnatiladigan asbob-uskunalar	-	-	-
	Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	567 317 310	286 824 528
Joriy aktivlar	**Jami**	**2 978 372 713**	**11 683 693 105**	**8 705 320 392**
	TMZ	819 530 511	1 047 437 972	227 907 461
	Kelgusi davr	1 366	8 441	7 074 971 055

	xarajatlari	091 169	062 224	
	Debitorlik majburiyatlari	503 338 335	1 566 042 404	1 062 704 069
	Pul mablag'lari	171 917 383	468 669 767	296 752 384
	Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	160 480 738	42 985 423
Jami aktivlar		**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**11 078 788 407**

Korxonaning iqtisodiy resurslari davr boshiga nisbatan 11 078 788 407 ming so'mga ortgan. Jumladan uzoq muddatli aktivlardagi o'zgarish 2 373 468 015 ming so'mni, joriy aktivlardagi o'zgarish 8 705 320 392 ming so'mni tashkil qilgan. Uzoq muddatli aktivlardagi asosiy o'zgarish asosiy vositalar qatoriga to'g'ri keladi. Joriy aktivlar tarkibida eng yuqori o'zgarish kelgusi davr xarajatlari qatoriga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy resurslarning moliyaviy tuzilmasi

Moliyaviy resurslar		**Davr boshi**	**Davr oxiri**	**Farqi (+,-)**
O'z mablag'lari manbasi	**Jami**	**7 745 794 466**	**10 124 233 076**	**2378438610**
	Ustav kapitali	614 384 306	828 202 670	213 818 364
	Qo'shilgan kapital	-	-	-
	Rezerv kapitali	5 737 851 427	8 121 422 920	2 383 571 493
	Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	223 400 675	282 492 932
	Boshqa o'zlik mablag'lari	**885 865 126**	**951 206 811**	**65 341 685**
Majburiyatlar	**Jami**	**5 452 310 192**	**14 152 659 989**	8700349797
	Uzoq muddatli majburiyatlar	4 675 490 146	12 304 013 149	7 628 523 003
	Joriy majburiyatlar	776	1 848	1 071 826

		820 046	646 840	794
Jami moliyaviy resurslar		**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**11078788407**

Iqtisodiy resurslarning moliyaviy tuzilmasida quyidagi o'zgarishlar kuzatilgan. O'z mablag'lari manbasidagi o'zgarish davr boshiga nisbatan 2 378 438 610 ming so'mga, majburiyatlardagi o'zgarish davr boshiga nisbatan 8 700 349 797 ming so'mga ortgan. O'z mablag'lari tarkibida asosiy manba sifatida rezerv kapitali tarkiblangan. Uning davr boshiga nisbatan o'zgarishi 2 383 571 493 ming so'mni tashkil qilgan. Majburiyatlar qatorida uzoq muddatli majburiyatlarning davr boshiga nisbatan o'zgarishi 7 628 523 003 ming so'mni tashkil qilgan.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJning qisqartirilgan buxgalteriya balansi

Ko'rsatkichlar	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi (+,-)
AKTIV			
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**12 593 199 960**	**2 373 468 015**
Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	10 527 417 487	14 773 593 626	4 246 176 139
Asosiy vositalarning eskirish qiymati	3 423 307 367	4 320 658 666	2 991 241 501
Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	7 104 110 120	10 452 934 960	3 348 824 840
Nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati	417 151	345 379	71 772
Kapital qo'yilmalar	2 834 711 892	1 572 602 311	1262109581
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	567 317 310	6331746
2.Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**11 683 693 105**	**8 705 320 392**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	1 047 437 972	227 907 461
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	8 441 062 224	7 074 971 055

Pul mablag‘lari	171 917 383	468 669 767	296 752 384
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	160 480 738	42 985 423
Debitorlar, jami	503 338 335	1 566 042 404	1 062 704 069
Shu jumladan:			
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	163 855 350	268 038 094	104 182 744
Byudjetga avans to‘lovlari	7 740 384	5 252 951	2 487 433
Balans aktiv bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**11078788407**
PASSIV			
1.O‘z mablag‘lari manbasi	**7 745 794 466**	**10 124 233 076**	2 378 438 610
Ustav kapitali	614 384 306	828 202 670	213 818 364
Rezerv kapitali	5 737 851 427	8 121 422 920	2 383 571 493
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	223 400 675	284 292 932
Boshqa manbalar	885 865 126	951 206 811	65 341 685
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**14 152 659 989**	8 700 349 797
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	12 304 013 149	7 628 523 003
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	8 878 479	5865737
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	1 839 768 361	1077692531
Shu jumladan:			
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	514 650 184	294 831 294
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	62 317 043	41 518 913
Balans passivi bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	11 078 788 407

Korxona to'lov layoqatining tahlili

To'lov mablag'lari	To'lov majburiyatlari	Mutlaq to'lovga qobillik	Nisbiy to'lovga qobillik
1	2	3	4
Balans likvidligi			
A1-Doimiy harakatdagi aktivlar	P1-To'lov muddati kelgan majburiyatlar	A1-P1	A1/P1
A2-Tez pulga aylanadigan aktivlar	P2-Qisqa muddatli majburiyatlar	A2-P2	A2/P2
A3-Sekin pulga aylanadigan aktivlar	P3-Uzoq muddatli majburiyatlar	A3-P3	A3/P3
To'lov layoqati			
A1-Doimiy harakatdagi aktivlar	Joriy majburiyatlar (JM)	A1-JM	A1/JM
A1-Doimiy harakatdagi aktivlar		A1+A2-JM	(A1+A2)/JM
A1-Doimiy harakatdagi aktivlar		A1+A2+A3-JM	(A1+A2+A3)/JM

6.3. Moliyaviy barqarorlik va uning tiplari: mutlaq va me'yoriy barqarorlik, nobarqaror va inqirozli holatlar

O'zbekiston amaliyotida moliyaviy barqarorlikni baholash bo'yicha ko'rsatkichlar tizimini o'rganish natijasida shuni alohida qayd etish lozimki, moliyaviy barqarorlikni ko'rsatkichlar tizimi turli manbalarda turlicha keltiriladi. Ularning sonini aniq aytish qiyin. Lekin shunga qaramay ularni balansning tarkibiy qismlari va jamlangan qatorlariga nisbatan bir tizimga solish mumkin.

Moliyaviy barqarorlikni xarakterlovchi ko'rsatkichlar tizimi quyidagi ikkita tarkib bo'yicha guruhlanishi ham mumkin:

1. Aktivlar, kapital va majburiyatlarning tarkibiy tuzilishi bo'yicha moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari. Ular qatoriga moliyaviy mustaqillik (avtonomiya), moliyaviy qaramlik, o'z va qarz mablag'lari nisbati, qoplash koeffitsiyenti va boshqa ko'rsatkichlarni kiritish

mumkin. Mazkur qator bo'yicha moliyaviy barqarorlikni xarakterlovchi ko'rsatkichlar sifatida boshqa manbalarda uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, o'z mablag'lari manbasi va majburiyatlar bilan bog'liq ko'rsatkichlarini alohida tarkiblash tartibi belgilangan.

2. Aktivlarni moliyalashtirish bilan bog'liq barqarorlik ko'rsatkichlari. Mazkur ko'rsatkichlarga o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik, manevrlik koeffitsiyenti, tovar-moddiy zaxiralarning o'z mablag'lari hisobiga moliyalashtirilishi, sof aylanma aktivlar naqdligi ya'ni, o'z aylanma mablag'larining turli aktivlar va kapitalga nisbati orqali hisob-kitob qilinuvchi koeffitsiyentlar kiradi.

Moliyaviy barqarorlikning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari amaliyotida me'yor darajalarini belgilashga amal etiladi. Lekin ushbu amaliyotdan xalqaro tajribada foydalanilmaydi.

Moliyaviy barqarorlikni baholashda yana bir muhim farqli jihat ularning mutlaq ifodada o'rganilishi bilan ham xarakterlanadi. Mazkur tartib bo'yicha moliyaviy barqarorlikning uchta muhim ko'rsatkichi baholanadi. Mazkur ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilar kiritiladi:

1. O'z aylanma mablag'larining naqdligi (O'AMN);

$$\textbf{O'AMN = O'MM - UMA}$$

Bunda: O'MM – O'z mablag'lari manbasi;

UMA – uzoq muddatli aktivlar.

2. Zaxira va xarajatlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirilish manbasi (O'QMHM);

$$\textbf{O'QMHM = O'AMN + UMKQ}$$

Bunda: UMKQ – uzoq muddatli kreditlar va qarzlar

3. Zaxira va xarajatlarni jami manbalar hisobiga moliyalashtirish manbasi (JMHM)

$$\textbf{JMHM = O'QMHM + QMKQ}$$

Bu yerda: QMKQ – qisqa muddatli kreditlar va qarzlar (ular qatoriga mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar ham qo'shiladi)

Uzoq muddatli aktivlarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Me'yor darajasi
Uzoq muddatli aktivlarni (UMA) o'z mablag'lari manbasi (O'MM) hisobiga ta'minlanish koeffitsiyenti	O'MM/UMA	1,0 dan yuqori
Uzoq muddatli aktivlarning o'z va uzoq muddatli majburiyatlar (UMM) hisobiga ta'minlanish koeffitsiyenti	O'MM+UMM/UMA	Minimum 1,0 ga teng deb

Zaxira va xarajatlarni manbalash yuzasidan mablag'lar naqdligini va moliyalashtirish darajasini hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Zaxira va xarajatlarning moliyalashtirish holati (+,-)
O'z aylanma mablag'larining naqdligi (O'AMN)	O'MM – UMA	O'AMN – ZX
O'z mablag'lari va uzoq muddatli qarz mablag'larining naqdligi (O'UMMN)	O'MM + UMM – UMA	O'UMMN – ZX
Jami mablag'larning naqdligi (JMN)	O'MM + UMM – UMA + QMM	JMN – ZX

Zaxira va xarajatlarni manbalashda mablag'lar yetarliligi va yetishmasligini koeffitsiyent usulida ham hisob-kitob qilish mumkin. Koeffitsiyent usuli zaxira va xarajatlarni moliyalashtirishdagi holatni qiyosiy o'rganish, uning ijobiy siljishlarini o'rganishda muhim hisoblanadi.

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Me'yor darajasi
1. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	O'AMN / ZX	0,6-0,8
2. O'z mablag'lari va uzoq muddatli qarz mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	O'UMMN / ZX	Minimum 1,0 ga teng
3. Jami mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	JMN / ZX	1 dan yuqori

Zaxira va xarajatlarning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, joriy aktivlarning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyentining tarkibiy qatori hisoblanadi. Zaxira va xarajatlarni tegishli manbalar hisobidan moliyalashtirishning amaldagi holatidan kelib chiqib korxonaning barqarorlik darajasiga ham baho berish mumkin. Amaldagi normalar quyidagi shartlar asosida tuzib chiqilgan.

Moliyaviy barqarorlikning mutlaq ifodalari bo'yicha tarkiblanish shartlari

Zaxira va xarajatlarning tegishli mablag'lar hisobiga moliyalashtirish manbalari			
O'AMN > ZX	O'AMN < ZX	O'AMN < ZX	O'AMN < ZX
O'AMN + UMM > ZX	O'AMN + UMM > ZX	O'AMN + UMM < ZX	O'AMN + UMM < ZX
JM > ZX	JM > ZX	JM > ZX	JM < ZX
1. Mutlaq moliyaviy barqaror holat	**2. Normal (mo'tadil) moliyaviy barqaror holat**	**3. Nobarqaror holat**	**4. Tang (inqiroz) holatdagi nobarqarorlik**

Moliyaviy barqarorlikning mutlaq ko'rsatkichlari tahlili

Ko'rsatkichlar nomi	Davr boshiga	Davr oxiriga	O'zgarishi (+,-)	O'sish darajasi, %
1. O'z mablag'lari manbasi (O'MM)	7 745 794 466	10 124 233 076	2 378 438 610	130,7
2. Uzoq muddatli aktivlar (UMA)	10 219 731 945	12 593 199 960	2 373 468 015	123,2
3. O'z aylanma mablag'lari naqdligi (O'AMN)	-2 473 937 479	-2 468 966 884	4 970 595	99,78
4.Uzoq muddatli kredit va qarzlar (UMM)	4 675 490 146	12 304 013 149	7 628 523 003	2,63
5. O'z mablag'lari va uzoq muddatli kredit, qarzlar summasi (O'AMN+UMM)	2 201 552 667	9 835 046 265	7 633 493 598	4,46
6. Qisqa muddatli kredit va qarzlar (QMM)	14 744 216	8 878 479	-5 865 737	60,2
7. Zaxira va xarajatlarini moliyalashtirishning jami manbasi (JM)	2 216 296 883	9 843 924 744	7 627 627 861	4,44
8. Zaxira va xarajatlar (ZX)	2 185 621 680	9 488 500 196	7 302 878 516	4,34
9. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti (O'AMN-ZX)	-288 315 799	-11 957 467 080	11 669 151 281	41,4
10. O'z mablag'lari va uzoq muddatli qarz mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti (O'AMN+UMM-ZX)	15 930 987	3 465 498 069	3 449 567 082	231
11. Jami mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti (JM-ZX)	30 675 203	355 424 548	325 049 345	11,8

Korxonada moliyaviy ishlab chiqarish zaxiralarini moliyalashtirishda o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yetarligi va yetishmasligi tahlili yuzasidan shuni ta'kidlash lozimki, o'tgan davrga nisbatan joriy davrda ko'rsatkichlar ijobiy tomonga o'zgargan. Zaxira va

xarajatlarni moliyalashtirishning ikkita sharti bajarilgan. Korxona moliyaviy barqarorligining mutlaq ifodasini umumiy jihatdan ijobiy baholash mumkin.

6.4. Korxonaning o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganligi tahlili

Aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganlik, ishlab chiqarishni tashkil etish va uzluksiz faoliyatni yo‘lga qo‘yish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, moliyaviy ahvolni yaxshilashning, raqobatdoshlik va uni o‘stirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganlik deganda joriy faoliyatning o‘z mablag‘lari hisobiga moliyalashtirish holati tushuniladi. Agar moliyalashtirishga o‘z mablag‘lari yetarli bo‘lmasa, u holda majburiyatlar, qarzga olingan mablag‘lar hisobiga ehtiyoj ta’minlanadi. Lekin bu holat faoliyat natijaviyligining asosiy qismini qarz beruvchilar tomonidan olib qo‘yilishiga olib keladi. Shu bilan birga, globallashgan va kuchli raqobatga asoslangan iqtisodiyotda aktivlarni, faoliyatni moliyalashtirishning mazmuni tubdan o‘zgarganligini ham qayd etib o‘tish lozim. Negaki, faqat o‘z mablag‘lari hisobigagina bugungi iqtisodiyotni rivojlantirishni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bilan birga qarz munosabatlaridagi imtiyozli shartlar, imkoniyatlar tufayli firma va kompaniyalar, tadbirkorlik subyektlari har qachongidan ham qarz kapitaliga ko‘proq zaruriyat sezmoqdalar. Bugungi kunda faqat o‘z mablag‘lari hisobigagina moliyalashtirilgan bironta korxonani uchratish qiyin.

Aktivlar buxgalteriya balansida qayd etilgan tartib bo‘yicha uzoq muddatli va joriy aktivlarga bo‘linadi. Aktivlarni moliyalashtirish manbalarini ham yagona tarkibga ko‘ra o‘z va qarz mablag‘lariga ajratish mumkin. O‘z mablag‘lari bu xo‘jalik yurituvchi subyektning faqat o‘zigagina tegishli bo‘lgan mablag‘lar manbasini (ustav, rezerv, qo‘shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va boshqa o‘zlik mablag‘lari)

ifoda etsa, qarz mablag'lari uzoq va qisqa muddatli (joriy) majburiyatlar hisobiga aktivlarni moliyalashtirishni xarakterlaydi.

Majburiyatlarning uzoq muddatli aktivlarga yo'naltirilgan qismi uzoq muddatli (bir yildan ortiq muddatga) majburiyatlar sifatida, zaxiralarga yo'naltirilganda (bir yilga qadar) qisqa muddatli majburiyatlar sifatida tarkiblanadi.

Aylanma aktivlar qatoriga tovar-moddiy zaxiralar hamda tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr xarajatlari kiritiladi.

Birinchi guruhga asosiy qismini tovar-moddiy zaxiralarning aktiv qismi bo'lgan ishlab chiqarish zaxiralari kiritiladi.

Ikkinchi guruh albatta korxonaning yoki tarmoqning, ishlab chiqarish va ta'minotning, faoliyat va texnologiyalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan aylanma aktivlar qiymati orqali shakllanadi.

Tahlilda asosiy e'tibor: pul fondlarining tashkil etilishi va ishlatilishiga; aylanma mablag'lardan foydalanish darajasiga; aylanma mablag'lardan samarali va optimal foydalanish darajasiga; tejamkorlikni ta'minlashdagi imkoniyatlarni aniqlashga; iqtisod qilish hisobiga foydani o'stirishning aniq yechimlariga qaratiladi.

Asosiy maqsadi – aylanma mablag'lardan samarali foydalanishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni aniqlash, ularni oldini olish, moliyaviy holatni yaxshilash yuzasidan tegishli imkoniyatlarni aniqlash va yo'lga qo'yishdan iborat.

Tahlilda aylanma mablag'larni me'yorlash masalasiga muhim ahamiyat beriladi. Me'yorlashtiriladigan va me'yorlashtirilmaydigan aylanma aktivlar ularning ishlab chiqarishdagi va texnologik jarayonlardagi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ishlab chiqarish zaxiralari, tovarlar, tayyor mahsulotlarning ombor qoldiqlari me'yorlashtiriladigan aylanma aktivlar qatoriga kiritiladi. Qolgan joriy aktivlar me'yorlashtirilmaydigan aylanma aktivlar hisoblanadi.

Aylanma mablag'lar samaradorligini baholashda ularning aylanuvchanlik koeffitsiyentlariga va aylanish davriga baho beriladi.

Aylanuvchanlikni oshirish va aylanish davrini qisqartirish aylanma aktivlar intensiv foydalanuvchanlik darajasini ifoda etadi.

Aylanma mablag'lar naqdligini baholashda sof aktivlar qiymatiga muhim ahamiyat qaratiladi.

Sof aktivlar deganda xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari bilan ta'minlangan uzoq muddatli va joriy aktivlarning qiymati, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektning qarz majburiyatlaridan ozod bo'lgan mol-mulk qiymati tushuniladi[32].

Sof aktivlar qiymatini aniqlash formulasi quyidagi bog'lanishda bo'ladi:

Aktivlar – Majburiyatlar = Sof aktivlar

Joriy aktivlar va ularning o'zgarishi tahlili

Balans moddalari	**Balans satri**	**Davr boshi**	**Davr oxiri**	**Farqi, (+,-)**
Asosiy vositalar:				
Qoldiq (balans) qiymati	012	7 104 110 120	10 452 934 960	3 348 824 840
Nomoddiy aktivlar:				
Qoldiq (balans) qiymati	022	417 151	345 379	71 772
Uzoq muddatli investitsiyalar jami	030			
O'rnatiladigan asbob-uskunalar	090	-	-	-
Kapital qo'yilmalar	100	2 834 711 892	1 572 602 311	1 262 109 581
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	110-120	280 492 782	567 317 310	6331746
Tovar-moddiy zaxiralari, jami	140	819 530 511	1 047 437 972	227 907 461
Kelgusi davr xarajatlari	190	1 366 091 169	8 441 062 224	7 074 971 055
Kechiktirilgan xarajatlar	200	-	-	-
Debitorlar, jami	210	503 338 335	1 566 042 404	1 062 704 069

[32] 14-сонли БҲМС "Хусусий капитал тўғрисидаги ҳисобот" (АВ томонидан 07.04.2004 й.)

Pul mablag'lari	320	171 917 383	468 669 767	296 752 384
Qisqa muddatli investitsiyalar	370	-	-	-
Boshqa joriy aktivlar	380	117 495 315	160 480 738	42 985 423
Jami aktivlar	JA	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**11 078 788 407**
Uzoq muddatli majburiyatlar	490	4 675 490 146	12 304 013 149	7 628 523 003
Joriy majburiyatlar	600	776 820 046	8 878 479	1 848 646 840
Jami majburiyatlar	JM	**5 452 310 192**	**14 152 659 989**	**8 700 349 797**
Sof aktivlar	JA-JM	7 745 794 466	10 124 233 076	2 378 435 610

Korxonada jami aktivlar summasi davr boshiga nisbatan 11 078 788 407 ming so'mga ortgan. O'z navbatida majburiyatlar summasi ham mos ravishda davr boshiga nisbatan 8 700 349 797 ming so'mga ortgan. Sof aktivlar qiymati davr boshida 7 745 794 466 ming so'mni, davr oxirida 10 124 233 076 ming so'mni tashkil etgan. Uning davr boshiga nisbatan o'zgarishi mutlaq ifodada 2 378 435 610 ming so'mni, nisbiy ifodada 131.0 foizni tashkil etgan. O'sish darajasi 31.0 foizni tashkil etgan.

Sof aktivlar va ular samaradorligi tahlili[33]

Ko'rsatkichlar	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi, (+,-)
Sof aktivlar qiymati, ming so'm	7 745 794 466	10 124 233 076	2 378 435 610
Jami aktivlar, ming so'm	13 198 104 658	24 276 893 065	11 078 788 407
Ustav kapitali, ming so'm	614 384 306	828 202 670	213818364
Sof tushum, ming so'm	3 362 225 550	5 180 801 340	1 818 575 790

[33] Васильева Л.С. Финансовый анализ: Учебник/Л.С.Васильева, М.В.Петровская. – 3-е изд., стер. – М.: Кнорус, 2010. – 816 с.

Sof foyda, ming so'm	507 693 607	974 038 284	466 344 677
Sof aktivlarning jami aktivlarda to'planish koeffitsiyenti	0.586	0.417	-0.169
Sof aktivlarning ustav kapitaliga nisbati koeffitsiyenti	12.61	12.22	-0.39
Sof aktivlarning aylanuvchanligi koeffitsiyenti	0.434	0.511	0.77
Sof aktivlarning aylanish davri, kunda	829	705	-124
Sof aktivlar rentabelligi, %	6.5	9.6	3.1

Korxonada sof aktivlarning jami aktivlarda to'planish koeffitsiyenti davr boshiga nisbatan -0.169 ga, sof aktivlarning ustav kapitaliga nisbati koeffitsiyenti davr boshiga nisbatan -0.39 ga kamaygan, sof aktivlarning aylanish koeffitsiyenti davr boshiga nisbatan 0.77 ga ortgan. Sof aktivlarning aylanish davri 829 kundan 705 kunga tushgan. Aylanish tezligi 124 kunga tezlashgan. Sof aktivlarning rentabellik darajasi 6.5 foizdan 9.6 foizga ortgan.

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik zaxira va xarajatlarni moliyalashtirishga nisbatan qo'llaniladi. Zaxira va xarajatlarni moliyalashtirish manbalariga o'z mablag'lari va qarzga olingan (qisqa muddatli) mablag'lari kiritiladi.

O'z mablag'lari manbasi uzoq muddatli majburiyatlar qo'shilgan holda balansda uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Iqtisodiy mazmuni va sharti bo'yicha amalda, uzoq muddatli majburiyatlar to'liq, o'z mablag'larining faqat bir qismi uzoq muddatli aktivlarga yo'naltiriladi.

Bu qiymat analitiklar tilida *o'z aylanma mablag'larining mavjud summasi* deb yuritiladi, uni aniqlash tartibi quyidagicha bo'ladi:

O'MM + UMM – UMA = O'AMN

Bu yerda: **O'AMN** – o'z aylanma mablag'lari naqdligi;
O'MM – o'z mablag'lari manbasi (satr 480);
UMM – uzoq muddatli majburiyatlar (satr 600);
UMA – uzoq muddatli aktivlar (satr 130).

O'z aylanma mablag'lari summasi va uni o'zgarishini tahlili

Ko'rsatkichlar	Balans satri	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi (+,-)
1. O'z mablag'lari manbasi	480	7 745 794 466	10 124 233 076	2 378 438 610
2. Uzoq muddatli majburiyatlar	600	4 675 490 146	12 304 013 149	7 628 523 003
3. Uzoq muddatli aktivlar	130	10 219 731 945	12 593 199 960	2 373 468 015
4. O'z aylanma mablag'lari naqdligi		2 201 552 667	9 835 046 265	7 633 493 598

Korxonada o'z mablag'larining naqdligi davr boshida 2 201 552 667 ming so'mni davr oxirida 9 835 046 265 ming so'mni tashkil qilgan. Davr boshiga nisbatan 7 633 493 598 ming so'mga ortgan.

6.5. Korxonaning moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq koeffitsiyentlar va ularning tahlili

Shuni alohida qayd etish lozimki, moliyaviy barqarorlikni baholashda moliyaviy koeffitsiyentlarning hisob-kitobida qandaydir yagona tizimga tayanilmaydi. Ularning turli manbalarda turlicha turlari va tarkibi keltiriladi.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari – kompaniya egalari va kreditorlar o'rtasidagi tavakkalchilikning qanday taqsimlanganligini ko'rsatadi.

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari sifatida – balansning aktivi va passivi tarkibini tavsiflovchi, aktivlar va passivlarning alohida obyektlari o'rtasidagi munosabatlarni xarakterlovchi ko'rsatkichlar nazarda tutiladi.

Moliyaviy holat va barqarorlikni koeffitsiyentlarda baholash korxonaning joriy va istiqboldagi moliyaviy ahvoliga baho berishda eng maqbul usul hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlikni ko‘rsatkichlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moliyaviy barqarorlikning o‘z mablag‘lari va majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlari;
- moliyaviy barqarorlikning uzoq muddatli va joriy aktivlar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlari.

Moliyaviy barqarorlikning o‘z mablag‘lari va majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlari

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
Moliyaviy mustaqillik (avtonomiya) koeffitsiyenti	O‘MM/BJ	O‘MM– O‘z mablag‘lari manbayi BJ – Jami mablag‘lar
O‘z mablag‘lari manbasi va majburiyatlar nisbati koeffitsiyenti	O‘MM/M	M – Majburiyatlar
Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti	BJ/O‘MM	BJ – Balans jami
Jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsiyenti	JQK/JK	JQK – Jalb qilingan kapital (M) JK – Jami kapital (BJ)
Xususiy kapitalning manyovrlik koeffitsiyenti	O‘AMN/XK	O‘AMN – O‘z aylanma mablag‘lari naqdligi
Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	O‘MM/JQK	JQK – Jalb qilingan kapital (M)
Majburiyatlarning o‘z mablag‘lariga nisbati koeffitsiyenti	M/O‘MM	M – Majburiyatlar O‘MM – O‘z mablag‘lari manbasi
Qarz kapitalini to‘planganlik koeffitsiyenti	M/BJ	M – Majburiyatlar (qarz kapitali) BJ – Jami mablag‘lar
Uzoq muddatli majburiyatlarning jami mablag‘lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog‘i koeffitsiyenti	UMM/ BJ, M	UMM – Uzoq muddatli majburiyatlar
Joriy majburiyatlarning jami mablag‘lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog‘i koeffitsiyenti	JM/ BJ, M	JM – Joriy majburiyatlar
Kreditorlik majburiyatlarining jami mablag‘lar va	KM/ BJ, M	KM – Kreditorlik majburiyatlari

majburiyatlardagi salmog'i koeffitsiyenti		

Moliyaviy barqarorlikning uzoq muddatli va joriy aktivlar bilan bog'liq ko'rsatkichlari

Koeffitsiyentlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
Joriy aktivlarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanish koeffitsiyenti (sof oborot aktivlar)	(O'MM+UMKQ-UMA)/JA	UMKQ – Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar UMA – Uzoq muddatli aktivlar
Joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga nisbati koeffitsiyenti (umumiy to'lovga qobillik)	JA/JM	JM – Joriy majburiyatlar JA – Joriy aktivlar
Joriy majburiyatlarning joriy aktivlarga nisbati koeffitsiyenti	JM/JA	JM – Joriy majburiyatlar JA – Joriy aktivlar
Joriy aktivlarning o'z mablag'lari manbasi bilan qoplanish koeffitsiyenti	O'MM/JA	
O'z mablag'lari va uzoq muddatli jalb qilingan mablag'larni zaxira, xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti	(O'MM+UMKQ-UMA)/ZX	ZX – Zaxira va xarajatlar
Uzoq muddatli aktivlarning o'z mablag'lari va uzoq muddatli qarzga olingan mablag'lari bilan manbalanish koeffitsiyenti	(O'MM+UMKQ)/UMA	UMKQ – uzoq muddatli kreditlar va qarzlar

Korxonalar moliyaviy barqarorligiga baho berishda avtonomiya, moliyaviy qaramlik, o'z va qarz mablag'lari nisbati, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik, manyovrlik, xususiy kapitalning jamlanish koeffitsiyentlariga muhim ahamiyat qaratiladi.

Xalqaro amaliyotda moliyaviy barqarorlikning muhim ko'rsatkichlari qatoriga: avtonomiya koeffitsiyenti; kapitallashuv koeffitsiyenti (sapitalization ratio); aktivlarni qoplash koeffitsiyenti (asset coverage ratio); investitsiyalarni qoplanish koeffitsiyenti; foizlarni qoplash koeffitsiyenti (Interest coverage ratio); moliyaviy qaramlik

koeffitsiyenti (Debt ratio); majburiyatlarning EBITDA ga nisbati koeffitsiyentlari kiradi. Mazmun jihatdan ularning qiyosiy farqlanishi amaldagi tartiblardan farqlanmaydi. Shu bilan birga, bugungi kunda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlariga o'tilishi yoki ularga transformatsiyalash amaliyotining joriy etilishi bilan aniqlanadigan moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining bir xil shakliga ham o'tilmoqda.

Moliyaviy barqarorlikning koeffitsiyentlari tahlili

Koeffitsiyentlar	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi (+,-)
Moliyaviy barqarorlikning o'z mablag'lari va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari			
1. Moliyaviy mustaqillik (avtonomiya) koeffitsiyenti	0.586	0.417	-0.169
2. O'z mablag'lari manbasi va majburiyatlar nisbati koeffitsiyenti	1.420	0.715	-0.705
3. Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti	1.704	2.397	0.693
4. Jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsiyenti	0.413	0.582	0.169
5. Xususiy kapitalning manyovrlik koeffitsiyenti	0.284	0.971	0.687
6. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	1.656	0.822	-0.834
7. Majburiyatlarning o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyenti	0.703	1.397	0.694
8. Qarz kapitalini to'planganlik koeffitsiyenti	0.413	0.582	0.169
9. Uzoq muddatli majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti	0.857	0.869	0.012
10. Joriy majburiyatlarning jami mablag'lar va majburiyatlar tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti	0.143	0.131	-0.012
11. Kreditorlik majburiyatlarining jami mablag'lar va majburiyatlardagi salmog'i koeffitsiyenti	0.139	0.129	-0.010

Moliyaviy barqarorlikning uzoq muddatli va joriy aktivlar bilan bog'liq ko'rsatkichlari			
12. Joriy aktivlarning o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi koeffitsiyenti (sof oborot aktivlar)	0.739	0.841	0.102
13. Joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga nisbati koeffitsiyenti (umumiy to'lovga qobillik)	3.83	6.3	2.47
14. Joriy majburiyatlarning joriy aktivlarga nisbati koeffitsiyenti	0.261	0.158	-0.103
15. Joriy aktivlarning o'z mablag'lari manbasi bilan qoplanishi koeffitsiyenti	2.600	0.866	-1.734
16. O'z mablag'lari va uzoq muddatli jalb qilingan mablag'larni zaxira, xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti	1.007	1.036	0.029
17. Uzoq muddatli aktivlarning o'z mablag'lari va uzoq muddatli qarzga olingan mablag'lari bilan manbalanish koeffitsiyenti	1.226	1.780	0.554

Korxonada avtonomiya koeffitsiyenti davr boshiga nisbatan 0.169 ga tushgan, o'z mablag'lari manbasining majburiyatlarni nisbati koeffitsiyenti 0.705 ga kamaygan, moliyaviy qaramlik koeffitsiyent davr boshiga nisbatan 0.693 ga ortgan, jalb qilingan sarmoyaning to'planish koeffitsiyenti 0.169 ga ortgan, xususiy kapitalning manyovrlik koeffitsiyenti 0.687 ga ortgan, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti 0.834 ga kamaygan, uzoq muddatli majburiyatlarning jami majburiyatlar tarkibidagi salmog'i eng yuqori natijani tashkil etgan va uning davr boshiga nisbatan o'zgarishi 0.012 ga teng bo'lgan.

Joriy aktivlarning o'z mablag'lari manbasi hisobiga moliyalashtirish koeffitsiyenti davr boshiga nisbatan 0.102 ga ortgan, joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga nisbati koeffitsiyenti 3.83 dan 6.3 ga ortgan va bu ijobiy baholanishi lozim. Joriy aktivlarning o'z mablag'lari manbasi bilan qoplanish koeffitsiyenti davr boshiga nisbatan keskin tushib ketgan. Uzoq muddatli aktivlarning o'z va uzoq muddatli qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi davr boshida 1.226 ni tashkil qilgan, davr oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich 1.780 ga teng bo'lgan.

6.6. Moliyaviy barqarorlikni dinamik tahlili

Balans va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning tahlilida xo‘jalik yurituvchi subyektning rivojlanishi va moliyaviy barqarorligini dinamik baholashga alohida ahamiyat qaratiladi.

Dinamik baholash ko‘rsatkichlarni yillar kesimida davriy o‘rganishni xarakterlaydi. Korxonalarda investitsion loyihalarning samaradorligi va qoplanish davriyligini, korxonaning istiqboldagi rivojlanishida strategiyalarni belgilashda dinamik o‘zgarishlarni o‘rganish g‘oyatda muhimdir.

Moliyaviy barqarorlikning mutlaq ifodalarini dinamik tahlili

Ko‘rsat kichlar	Yillar				O‘zgarishi (+,-)		
	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2017 y. 2014y. ga nisbatan	2017 y. 2015y.ga nisbatan	2017 y. 2016 y.ga nisbatan
Sof aktivlar	6 2953 44 335	6 4675 12 422	7 745 794 466	10 1 24 233 076	3 828 8 88 741	3 656 720 654	2 378 43 5 610
O‘z aylanma mablag‘lari naqdligi	1 1042 47 158	1 2146 71 838	2 201 552 66 7	9 835 046 265	8 7307 99 107	8 620 374 427	7 633 493 598
Zaxira va xarajatlarning jami mablag‘lar hisobiga manbalanishi	- 168 25 4 689	-122 854 241	-288 315 79 9	-11 957 467 080	12 125 721 769	12 08032 1 321	11 669 1 51 281
Zaxira va xarajatlar ning o‘z	125 564 238	145 234 589	15 930 987	3 465 498	3 339 933 831	3 320 63 480	3 449 567 082

mablag'lari va uzoq muddatli qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi				069			
5. Zaxira va xarajatlarni o'z mablag'lari hisobiga manbalanishi	144 523 422	156 463 542	30 675 203	355 4245 48	210 901 12 6	198 961 006	325 0493 45

Korxonaning oxirgi 4 yillik natijalari bo'yicha zaxira va xarajatlarning o'z mablag'lari manbasi va qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish holatida bir xil holat kuzatilgan. O'z aylanma mablag'larini naqdligi va uni zaxira xarajatlarini moliyalashtirishdagi holatidan boshqa barcha shartlarda korxonaning moliyalashtirish manbalari ijobiyligiga erishilgan.

Moliyaviy barqarorlikning nisbiy ifodalarini dinamik tahlili

Moliyaviy barqaorlik ko'rsatkichlari	**Aniqlanishi**	**Yillar**				**O'zgarishi (+,-)**		
		2014	**2015**	**2016**	**2017**	**2017 y. 2014y. ga nisbatan**	**2017 y. 2015 y.ga nisbatan**	**2017y. 2016y. ga nisbatan**
1. Avtonomiya (moliyaviy mustaqillik) koeffitsiyenti (Ka) Normal darajasi: 0,5 va undan yuqori (optimal darajasi: 0,6-0,7)	Xususiy kapital / Aktivlar	0,512	0,524	0.586	0.417	-0,95	-0,107	-0.169
2. Uzoq muddatli moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	(O'z mablag'lari manbasi+Uzo	0,865	0,912	0,941	0,923	0,058	0,011	0,018

(Kummm) Normal darajasi: 0,9 Kritik darajasi: 0,75	q muddatli majburiyatlar) / Aktivlar							
3. Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti (Kmq) Optimal darajasi: 0,5	Majburiyatlar / Aktivlar	0,422	0,408	0,413	0,582	0,160	0,174	0,169
4. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti (Ko'amn) Normal darajasi: 0,1 va undan yuqori	(O'z mablag'lari manbasi – Uzoq muddatli aktivlar) / Joriy aktivlar	-	-	-	-	-	-	-
5. Kapitallashuv koeffitsiyenti (Kk) 1 dan yuqori bo'lishi uning qarz kapitaliga qaramligini bildiradi.	Majburiyatlar / O'z mablag'lari manbasi	0,665	0,670	0.703	1.397	0,732	0,670	0.694
6. Moliyalashtirish koeffitsiyenti (Km). Qancha kichik bo'lsa qaramlik kuchayadi	O'z mablag'lari manbasi / Qarz kapitali	1,31	1,45	1,65	10,82	9,51	9,37	9,17

Korxonada avtonomiya koeffitsiyentining yillar kesimida 2014-2016-yillarda o'sishi, 2017-yilda pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Uzoq muddatli moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, uzoq muddatli moliyaviy mustaqillik darajasida barcha yillar bo'yicha o'sish kuzatilgan. Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti majburiyatlarning aktivlarga nisbati darajasida ham o'sish kuzatilgan. Bu albatta salbiy holat deb baholanishi ham mumkin. Ya'ni majburiyatlarning jami kapital tarkibidagi salmog'i o'tgan yillarga nisbatan keskin ortib ketmoqda. O'z va qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbat 2017-yilda eng yuqori natijani qayd etgan, quyi natija 2014-yilda kuzatilgan.

6.7. Korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlash va yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini belgilash

Raqobatdosh iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlik korxona yashovchanligini ta'minlashning bosh omili hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlikni o'stirishning muhim omillari sifatida aktivlarni moliyalashtirish manbalaridagi nisbatni to'g'ri tanlash, uni o'stirib borish, moliyalashtirish samaradorligi, to'lovga qobillik, likvidlikni, ish va bozor aktivligini o'stirish choralarini ko'rish hisoblanadi.

Aktivlarning va foydaning o'sishida to'lovga qobillikni ta'minlash masalasi moliyaviy barqarorlikda markaziy o'rinda turadi. Shu sababli, aktivlarning - tushumning - foydaning o'sishiga, ularning o'sishidagi uzviy bog'liqlik va aloqadorlikka alohida ahamiyat qaratiladi.

Aktivlarning optimal darajasi va tarkibini shakllantirish, ularni moliyalashtirishning maqbul yechimiga chiqish, aktivlardan samarali foydalanish va faoliyat natijaviyligini to'g'ri baholashga moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim e'tibor qaratiladi.

Moliyaviy barqarorlikka ega bo'lmaslik juda ko'p muammolar va tahlikalar paydo qiladi. Bu tahlikalar moliyaviy ahvolning nobarqarorligiga, iqtisodiy nochorlikka, raqobatdoshlikning tushib ketishiga olib keladi.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning tashkiliy, texnik, iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlariga muhim ahamiyat qaratish lozim.

Iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlar juda murakkab jarayonlar tizimini tadqiq etishni talab etadi. Bunda ayniqsa moliyalashtirish imkoniyatlariga alohida ahamiyat qaratish lozim. Korxonaning yashovchanlik darajasini o'stirishda moliyaviy imkoniyatlar birinchi o'rinda turadi. Ularning yechimi esa iqtisodiy hodisa va jarayonlar, ularning samarasida va natijasida paydo bo'ladi. Shu sababli, birinchi navbatda resurslarning muqobil tarkiblanishiga, ulardan samarali foydalanishga, faoliyat natijaviyligiga tahlilda alohida urg'u beriladi.

Shu bilan birga moliyaviy ahvol va uning kelajakda o'zgarishlari haqidagi ma'lumotlar bazasi bilan nafaqat korxona boshqaruvchi xodimlarini, balki tashqi subyektlar (sheriklar, mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar va axborot foydalanuvchilarning keng doirasini ham) axborotlar bilan ta'minlash masalasiga alohida ahamiyat berish zarur.

Moliyaviy holat, barqarorlik bo'yicha salbiy holatlar immunitetni shakllantirish oson kechadigan jarayon emas.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash faqat korxonadagi holat bilangina o'nglanadigan holat emas. Buning uchun albatta tashqi omillar, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillari ham korxonada ijobiy natijaviylikni ta'minlashga yordam berishi lozim.

Moliyaviy barqarorlikni o'stirish yuzasidan nimalar qilish lozim:

Birinchidan, balansning chuqur tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirish lozim. Bunda asosiy e'tiborni moliyalashtirish manbalarida o'z mablag'lari manbasi, xususiy kapital hajmini o'stirishga, uning jami moliyaviy salohiyatdagi salmog'ini imkon darajasida oshirishga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Buning yagona yechimiga dastlabki kapitalni o'stirish, uning ishchanligi, natijaviyligini ta'minlash asosida erishiladigan qo'shilgan kapital, rezerv kapitali va foydani o'stirish hisobigagina erishiladi.

Ikkinchidan moliyaviy barqarorlikni o'stirishning muhim imkoniyatlari zaxira va xarajatlarni optimallashtirish, ularning ishlab chiqarish va faoliyat uchun zaruriy qismini shakllantirish, turib qolishlarga, ortiqcha normalarda saqlanishiga yo'l qo'ymaslik kiradi.

Moliyaviy imkoniyatlarni o'stirishda kreditorlar bilan aloqalarning yaxshi yo'lga qo'yilganligi ham muhim o'rin tutadi.

Moliyaviy barqarorlikning balans moddalari orqali baholashda mutlaq moliyaviy barqarorlik, normal moliyaviy barqaror, nobarqaror, kriziz holatidagi moliyaviy ahvolni darajasiga, korxonaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini tarkibiy jihatdan chuqur tadqiq etish va aniq yechimlarga imkon beruvchi xulosalarini shakllantirish menejerlar doimiy e'tiborida bo'lishi lozim.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda yana bir muhim jihat debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini oqilona boshqarish imkoniyatlariga qaratilmog'i lozim. Ularning aylanuvchanligi va aylanish davrini davriy o'rganish asosida moliyaviy imkoniyatlari hisob-kitob qilinishi zarur.

O'zbekiston temir yo'llari AJ ning jamlangan buxgalteriya balansi

Ko'rsatkichlar	2017-2018yy.				
AKTIV	**01.01.2017y**	**01.04.2017y**	**01.07.2017y**	**01.10.2017y**	**01.01.2018 y**
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**11 151 959 813**	**11 195 178 476**	**11 778 032 823**	**12 593 199 960**
Asosiy vositalar boshlang'ich qiymati	10 527 417 487	11 341 824 771	13 056 620 251	13 186 532 286	14 773 593 626
Asosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	3 788 793 507	3 945 211 086	4 125 679 858	4 320 658 666
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	7 553 031 264	9 111 409 165	9 060 852 428	10 452 934 960
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	335 519	526 894	435 179	345 379
Kapital qo'yilmalar	2 834 711 892	3 308 810 890	1 783 170 063	2 396 325 565	1 572 602 311
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	289 782 140	300 072 354	320 419 651	567 317 310
2. Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**3 522 490 664**	**4 234 880 927**	**10 571 776 648**	**11 683 693 105**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	761 929 334	807 974 274	805 958 807	1 047 437 972
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	1 926 260 257	2 439 824 162	8 466 493 743	8 441 062 224
Pul mablag'lari	171 917 383	167 990 329	198 395 625	199 248 750	468 669 767
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	114 011 429	118 290 042	112 380 694	160 480 738
Debitorlar, jami	503 338 335	552 299 315	670 396 824	987 694 654	1 566 042 404
Shu jumladan:					
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-	163 855 350	162 134 584	179 194 017	304 669 491	268 038 094

kitoblar					
Byudjetga avans to‘lovlari	7 740 384	6 510 004	8 801 153	5 388 750	5 252 951
Aktiv bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**
PASSIV	**01.01.2017y**	**01.04.2017y**	**01.07.2017y**	**01.10.2017y**	**01.01.2018 y**
1. O‘z mablag‘lari manbasi	**7 745 794 466**	**8 567 616 791**	**8 644 944 914**	**8 963 743 430**	**10 124 233 076**
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**6 106 833 686**	**6 785 114 489**	**13 386 066 041**	**14 152 659 989**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	5 329 297 527	5 927 142 095	12 154 367 349	12 304 013 149
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	12 729 877	10 091 394	9 142 953	8 878 479
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	764 806 282	847 881 000	1 222 555 739	1 839 768 361
Shu jumladan:					
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	177 094 949	250 590 908	306 494 641	514 650 184
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	35 632 293	40 718 997	40 080 238	62 317 043
Balans passivi bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ning moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti (2016-2017 yy.)

Ko‘rsatkichlar nomi	2017 yil	2016 yil
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	5 180 801 340	3 362 225 550
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi	3 191 287 162	2 474 622 038
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	**1 989 514 178**	**887 603 512**
Davr xarajatlari	752 744 444	568 302 199
Boshqa operatsion xarajatlar	178 630 359	135 306 333
Asosiy faoliyatning foydasi	**1 415 400 093**	**454 607 646**
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar	833 455 050	159 047 300
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	506 789 162	269 112 080
Daromad (foyda) solig‘ini to‘lagunga qadar foyda	**1 088 734 205**	**564 672 426**
Favquloddagi foyda va zararlar	0	0
Daromad (foyda) solig‘i	30 730 577	16 304 363
Foydadan boshqa soliqlar va yig‘imlar	83 965 344	40 674 456
Hisobot davrining sof foydasi	**974 038 284**	**507 693 607**

Takrorlash uchun savollar

Barqarorlik nima?

Moliyaviy barqarorlik nima?

Moliyaviy barqarorlik tahlili mazmuni, maqsadi va vazifalari?

Moliyaviy barqarorlikning ko‘rsatkichlar tizimi: mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlari?

Mutlaq moliyaviy baqarorlik va uning shartlari?

Me’yoriy barqarorlik va uning muhim shartlari?

Nobarqarorlik va uning sabablari?

Iqtisodiy nochorlik, bankrotlik holatidagi nobarqarorlik va uning muhim shartlari?

Iqtisodiy resurslar nima?

Moliyaviy resurslar nima?

Inson kapitali nima?

Iqtisodiy resurslar va ularning moliyaviy tuzilmasi?

Iqtisodiy resurslar likvidligi?

Iqtisodiy resurslarning tarkibiy tuzilishi va joylashtirilishi to‘lovga qobillikni ta’minlashdagi o‘rni?

Iqtisodiy resurslarning moliyaviy ahvol va barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni?

O‘z aylanma mablag‘lari tushunchasi va uning aniqlanishi?

O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganlikni tahlili?

Moliyaviy barqarorlikni dinamik tahlili?

Korxonaning moliyaviy barqarorligi bilan bog‘liq koeffitsiyentlar?

Moliyaviy mustaqillik (avtonomiya) koeffitsiyenti?

Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti?

O‘z va qarz mablag‘larining nisbati koeffitsiyenti?

O‘z mablag‘lari bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti?

O‘z aylanma mablag‘larining to‘planish koeffitsiyenti?

Korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo‘yicha ichki imkoniyatlarni aniqlash?

7-BOB. KREDITGA LAYOQATLILIK TAHLILI

7.1.Kreditga layoqatlilik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari.

7.2.Kreditga layoqatlilikning tavsifi.

7.3.Kreditga layoqatlilikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullari: ekspert baholash va ballik (skoring) baholash tizimi.

7.4.Kreditga layoqatlilikni baholashda tijorat banklarining kredit siyosatining o'ziga xos jihatlari.

7.5.Korxonaning ishonchliligini baholash.

7.6.Raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish qobiliyatini tahlili.

7.7.Daromad tahlili.

7.8.Kredit resurslari maqsadligini tahlili.

7.9.Kreditga layoqatlilikni moliyaviy koeffitsiyentlarda baholash.

7.10.Kreditni ta'minlanganligini tahlili.

7.11.Risklar tahlili. Kreditga layoqatlilikni baholashda nazoratning davomiyligi.

7.1.Kreditga layoqatlilik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari

Korxonalar iqtisodiy faoliyatida albatta, qarz kapitaliga zaruriyat sezadilar. Negaki, biznesni dastlabki qadamiga tadbirkorlarda doimo ham mablag' yetarlicha bo'lmaydi. Iqtisodi rivojlangan davlatlarning biznes hayotini kuzatish shuni ko'rsatadiki, faoliyatni, biznesni 90 foizi qarz kapitali hisobiga yo'lga qo'yiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonalar doimo aniq biznes loyihalari, rejalari asosida qarz kapitali jalb qiladilar va uni ishlatishdan naf ko'radilar.

Korxonalarni kreditga layoqatliligini baholashni tasdiqlangan me'yoriy dalolatnomalari va nizomlariga tayangan holda har bitta biznes subyektini kreditni, qarzni qaytarib berish layoqati o'rganilmog'i lozim. Bu mezonlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Iqtisodiyot

Vazirligi, Iqtisodiy nochor korxonalar bilan ishlash Qo'mitasi va tegishli Vazirliklar tomonidan tuzib chiqiladi.

Uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlarning tarkiblanishi qarz munosabatlarini rasmiy jihatlariga ta'sir etmaydi. Ya'ni har ikkala holatda ham moliyaviy holat tahlili bo'yicha bir xildagi zaruriy amallar, analitik tadbirlar amalga oshiriladi. Odatda muddatliligi bo'yicha kreditlar va qarzlar uzoq, o'rta va qisqa muddatga tarkiblanishi belgilangan. Lekin hisob amaliyotida ularni uzoq va qisqa muddatli guruhga tarkiblash amaliyoti joriy etilgan.

Uzoq muddatli kreditlar – uzoq muddatli aktivlarni (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar, o'rnatiladigan asbob-uskunalar yuzasidan, ularni sotib olish, qurish, ta'mirlash, ilmiy yangiliklar kiritish kabi yo'nalishlarda) moliyalashtirish yuzasidan bir yildan ortiq muddatga beriladi.

Qisqa muddatli kreditlar – joriy, aylanma aktivlarni to'ldirishga, savdo hajmini oshirishga va boshqa maqsadlarga bir yilgacha muddatga beriladi.

Korxonalarda uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda, aniq va puxta ishlangan biznes rejaga va investitsion loyihalarga e'tiborni qaratishi lozim. Lekin ungacha albatta, ushbu korxonaning, moliyaviy ahvoli o'rganilmog'i lozim.

Kredit resurslarini jalb etishda risklarni baholash masalasiga ham alohida ahamiyat qaratish zarur. Afsuski, bu borada amaliyotda tahliliy yechimlarning aniq metodologik jihatlari belgilanmagan.

Kredit arizasi bergan korxonaning moliyaviy tahlilida muhim obyekt sifatida birinchi navbatda uning to'lov layoqati, qoplov koeffitsiyenti baholanadi.

Korxonalar tomonidan olingan kredit resurslar nafaqat korxonaning to'lovga qobilligiga, balki uning mablag'larini harakatchanlik (likvidlilik) darajasiga ham bog'liq. Shu sababli, tahlil etishda buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida korxonalarning harakatchan mablag'lari holatiga, tez va sekin pulga aylanuvchi aktivlariga, nolikvid mablag'lar holatiga, ularning to'lov muddati kelgan, qisqa va uzoq

muddatli majburiyatlar nisbatiga, doimiy passivlarni nolikvid va likvid mablag'larni manbalashiga baho berish talab etiladi.

So'nggi paytlarda olingan kredit resurslarining o'z vaqtida qaytmaslik hollariga ko'p duch kelinmoqda. Shu sababli, korxonalarning kreditga layoqatliligini tahlil etishda moliyaviy holat tahlilida quyidagi qo'shimcha mavzularni o'rganish tavsiya etiladi;

- korxonalarning rentabellik darajasi;
- aylanma mablag'larning holati;
- o'z mablag'larini hajmi, ularning asosiy va aylanma kapitalidagi ishtiroki;
- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarni o'sish darajalari;
- to'lov muddati kelgan va o'tib ketgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga;
- korxonalarning pul va qimmatli qog'ozlarining mavjudligiga va boshqa jihatlariga ahamiyat beriladi.

Korxona faoliyatining joriy va istiqboldagi rivojlanishini baholashda banklar tomonidan quyidagi muhim jihatlarga ahamiyat qaratiladi:

Kredit oluvchining faoliyatini baholash

Baholash elementlari	Ko'rsatkichlari
Mijozning faoliyatni rivojlantirishga intilishi	o'sish dinamikasi
	o'zgaruvchanlik
	istiqbollik
Mahsulot (ish, xizmat)larga talabning o'zgarishi	mijozlar tavsifi
	bozor hajmi va sifat ko'rsatkichlari
	sotish hajmi
	baho belgilash tartibi
	sotish rejasi
	talabning barqarorligi
	tovarning almashuvchanligi
	xavf-xatarlar
Taklifning o'zgarishi	raqobatchilar holati
	jo'natmalar muvofiqligi
	jo'natmalar xavf-xatari
	narxning barqarorligi

	ishchi kuchi bilan bog'liq sabablar
	xalqaro valyutaga talabning mavjudligi
Mahsulotning sifat tasnifi	texnologiya darajasi
	mahsulot sifati
	kapital va mehnat sig'imi
Raqobat darajasi	raqobatchilar
	raqobatning intensivligi
	bozorga kirishdagi to'siqlar
	peshqadam raqobatchilarning bozordagi ulushi

Kreditga layoqatlilik tahlilining maqsadi – korxonalarning kredit, qarz mablag'larini jalb etishi yuzasidan ularning moliyaviy holati va natijalarini tahlil etish orqali pul mablag'larini ko'paytirish imkoniyatlarini retrospektiv tahlilini amalga oshirishdan iborat.

Korxonalarning kreditga layoqatligini baholashda tahlil oldiga quyidagi *vazifalar* qo'yiladi:

- korxonalarning kreditga layoqatliligini davriy oraliqlar bo'yicha o'rganish;
- korxonalarning moliyaviy barqarorligi, aktivlar va kapital foydaliligini baholash;
- mablag'larni joylashinuvidagi holat, ularning aylanuvchanligini baholash;
- muddati o'tgan majburiyatlarning holati, korxonalarning moliyaviy mustaqillik darajasidagi o'zgarishlar, sotish hajmidagi o'sish, likvid mablag'larning holati kabi qo'shimcha ko'rsatkichlarga baho berish.

Kreditga layoqatlilikni tahlil etishning darajasi va sifati axborot manbalarining to'liqligiga va ularning atroflicha o'rganilishiga bog'liq. Shu sababli tahlil etishda o'rganiladigan axborotlarni tarkiblash va ularni tizimlashtirish muhim masala hisoblanadi. Quyida, korxonalar kreditga layoqatliligini baholash, tahlil etishning axborot manbalari va ularga qo'yilgan talablarni keltirib o'tamiz.

Kreditga layoqatlilikni baholashda ichki va tashqi moliyaviy tahlilni axborot manbalari

Ichki moliyaviy tahlilning axborot	Tashqi moliyaviy tahlilning

manbalari	axborot manbalari
Ta'sis hujjatlari	Ta'sis hujjatlari
Uchinchi shaxslar bilan bog'liqlikni tasdiqlovchi hujjatlar	Faqat qarz beruvchi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar
Biznes reja, texnik iqtisodiy asosnoma	Biznes reja, texnik iqtisodiy asosnoma
Loyiha smeta hujjatlari	-
Birlamchi hujjatlar (asosiy vositalarni baholash, ularning tarkibi, harakati, oborot aktivlarini holati, harakati haqidagi, xo'jalik jaryonlari haqidagi	-
Analitik hisob ma'lumotlari	-
Buxgalteriya hisobotlari	Buxgalteriya hisobotlari
Statistik hisobotlar	Statistik hisobotlar
Soliq hisobotlari	Soliq hisobotlari
Audit xulosalari, nazorat va soliq tekshirishlari dalolatnomalari	Yakuniy auditorlik xulosasi
-	Qarz oluvchining shaxsiy sifatlari haqidagi ma'lumotnoma, qarzdorning dong'i, shuhrat taratishi (Gudvil)
-	Kredit tarixi yuzasidan axborotlar
-	Boshqa kredit tashkilotlari ma'lumotlari
Faoliyatning ruxsat etilgan va etilmagan turlari bo'yicha maxsus axborotlar	Faoliyatning ruxsat etilgan va etilmagan turlari bo'yicha maxsus axborotlar
Makroiqtisodiy va maxsus axborotlar (davlat dasturlari, tarmoqning rivojlanishi haqidagi manbalar va h.k.)	Makroiqtisodiy va maxsus axborotlar (davlat dasturlari, tarmoqning rivojlanishi haqidagi manbalar va h.k.)
Ekologik me'yorlar bo'yicha axborotlar	Ekologik me'yorlar bo'yicha axborotlar

Tahlil etishda taqdim etilgan manbalarning axborotligi va tarkibi yuzasidan ham muhim talablar qo'yiladi. Bu talablar mijozning kreditga layoqatliligini baholashda tashqi tahlilchiga kredit resurslarini jalb etish

yuzasidan tuzib chiqiladigan savolnomaga to‘liq javob tayyorlashga imkon beradi. Bu holat kredit mablag‘larini jalb qilishdagi turli havf-xatarlarni oldini olishga, kredit tashkilotlarining jalb qilingan resurslarni o‘z vaqtida va foizi bilan qaytarib olishiga hamda ularning likvidliligini oshirishiga imkon beradi.

Mijozning kreditga layoqatliligini baholashda taqdim etiladigan manbalarning tarkibi

Axborot manbalari	Axborot tarkibi
Ta’sis hujjatlari	kapital tarkibi
	foydani taqsimlash yo‘nalishlari
	aksionerlar tarkibi
	korporativ mijozning ichki tarkibi
Buxgalteriya hisoboti	korxona mulki tarkibi va tuzilishi
	korxona moliyaviy holati, to‘lovga qobilligi va moliyaviy barqarorligi
	xususiy va qarzga olingan mablag‘lardan samarali foydalanish holati
	debitorlik va kreditorlik majburiyatlar tarkibi, tuzilishi va nisbati
	kreditorlar oldidagi majburiyatlarni qoplash darajasi
	korxonaning foydaliligi
	pul mablag‘larining oqimi
	iqtisodiy nochorlikka tushmaslik xavf-xatarining darajasi
Texnik iqtisodiy asoslash, biznes reja	korxonaning dong‘i, shuhrati
	korxonani rivojlantirish strategiyasi
	tashkiliy tuzilish sifati
	ta’minot sifati
	aktivlar sifati
	operatsion faoliyatning darajasi
	texnik qurollanish darajasi
	mahsulotlarni sotish bozorining divertsifikatsiyasi
	jalb qilinadigan mablag‘larga talabning asoslanishi

Kredit byurolari	boshqa kreditlarning olinganligi
	boshqa kreditlardan foydalanganlik darajasi
	kredit tarixi
Boshqa banklar	boshqa kreditlar
	boshqa kreditlardan foydalanganlik darajasi
	moliyaviy aktivlari
Tashkilotlar, raqobatchilar	bozordagi obro'si
	bozordagi ulushi
	raqobatdagi g'ayratliligi
	tarmoqdagi o'rni
Xaridorlar	raqobatchilar o'rtasidagi shuhrati
	sotish hajmi
	mahsulot sifati
	xaridorlarni kreditlash shartlari
Mol yetkazib bernvchilar	kreditor obro'si
	kreditlash shartlari
	mahsulot yetkazib berish hajmi
	qiyosiy o'rni
Boshqa manbalar (reyting agentliklari, birja ma'lumotlari va.h.k.)	makroiqtisodiy ma'lumotlar
	tarmoq bo'yicha ma'lumotlar
	maxsus hisobotlar
	statistik manbalar

7.2. Kreditga layoqatlilikning tavsifi

Xo'jalik yurituvchi subyektlarini rivojlanishida kredit munosabatlari va to'lov qobiliyatini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Banklar xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholash orqali risklarni kamaytirishga, kredit resurslarini oqilona joylashtirish orqali o'z daromadlarini oshirishga, moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga erishadilar.

Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini ikki tomonlama ko'rib chiqish lozim:

1. Qarz oluvchi nuqtayi nazaridan kreditga layoqatlilik darajasi – kredit shartnomasini tuzish imkoniyati, olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati bilan baholanadi.

2. Bank nuqtayi nazaridan, kreditga layoqatlilik darajasi korxonaga beriladigan kreditning hajmini to'g'ri aniqlay olish mas'uliyati bilan inobatga olinadi.[34]

Ma'lumki, iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarining, banklar faoliyatining tijoratlashuvi yuzaga keladi. Bu esa tomonlarning qaysi mulk shakliga asoslangan bo'lishiga qaramasdan iqtisodiy jihatdan to'liq mustaqil bo'lib, o'z xarajatlarini daromadlari bilan qoplashnishini talab etadi. Faoliyatning moliyaviy mablag'larga tayanishi oqibatida korxonalar faoliyatini rivojlantirishning ichki imkoniyatlari doimo ham yetarli bo'lmaydi. Shu sababli subyektlar ko'pincha qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj sezadilar va bu ehtiyojlar bank kreditlari hisobidan qoplanishi mumkin. Bank kreditlari nafaqat korxona va tashkilotlarni moliyaviy ta'minlash manbasi balki ularni maqsadli, muddatli, ta'minlangan holda joylashtirish orqali o'zining faoliyat davomiyligini ham ta'minlab berishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyatida qo'yilgan maqsadga erishish va bergan kreditlarining samara bilan bankka qaytib kelishini ta'minlashi uchun mijozning moliyaviy holatini uning kreditni o'z vaqtida qaytara olishi imkoniyatlarini tekshirib ko'rishi lozim.

Kreditga layoqatlilikni baholashda banklar nafaqat mijozning o'tgan davr ma'lumotlariga baho berishi, shu bilan birga uning kelajakdagi moliyaviy ahvolini ham bashoratlashi zarur. Moliyaviy barqarorlikni va kredit operatsiyalaridagi risk hisobini obyektiv baholash, bankka kredit resurslarini samarali boshqarish hamda foyda olish imkonini beradi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini liberallashtirish muhim vazifa sifatida qabul qilinishi korxonalarning to'lov qobiliyati va barqarorligini aniqlashda chet el tajribasiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritish zaruriyatini

[34]Ш.З.Абдуллаева "Банк рисклари шароитида тижорат банкларининг кредит портфелини диверсификациялаш" Автореф. дисс. ... и.ф.д. – Тошкент. 2000. 239-240 б;

tug'dirmoqda. Bunda buxgalteriya balansining yangi tahlilini yuritish asosiy o'rinni egallaydi. Balansdagi aktiv va passivlarni qabul qilingan moddalar bo'yicha guruhlashtirilishi, to'lov qobiliyati va kreditga layoqatlilikni yetarli darajada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

7.3. Kreditga layoqatlilikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullari: ekspert baholash tizimi va ballik (skoring) baholash tizimi

Bank va korxonalar faoliyatida kreditga layoqatlilikni baholash uslubiyotini shakllantirishda mezonlarga tayaniladi. Ushbu mezonlar korxonalarning kreditga layoqatliligini to'liq baholash imkoniyatini ochib berish zarur.

Jahonda va mamlakatimiz amaliyotida kreditga layoqatlilikni baholashda quyidagi mezonlarga tayaniladi[35].

- mijozning xarakteri (fe'l-atvori);
- mijozning qarz olish qobiliyati;
- olingan qarzni uzish yuzasidan mablag'lar ishlab topishga qobilligi;
- mijozning kapitali;
- kreditning ta'minlanganligi;
- kredit operatsiyalarini amalga oshirish chog'idagi shart-sharoitlar;
- mijoz faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi.

Korxonalarning kreditga layoqatliligi tahlilining uslubiy asoslari korxona va bank nuqtayi nazaridan alohida belgilanishi, yo'lga qo'yilishi va yuritilishi lozim.

Korxonalarning kreditga layoqatliligini baholash

Uslubiy asosdagi yondashuv	Asos bo'luvchi hujjatlar	Muhimlik
Korxona nuqtayi nazaridan	1-son "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli BHMS	Majburiyatlarni qoplashga layoqatliligi
Bank nuqtayi nazaridan	Kreditlash va unga tenglashtirilgan	Kreditni qaytarishga layoqatliligi

[35]Raximov M. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2015. -392 b.

	operatsiyalarni amalga oshirish tartibi (kredit siyosati)	

Korxonalarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni tartibga solishda asosiy me'yoriy hujjat O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1998-yil 26-iyuldagi 17-17/86-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan (O'zR Adliya vazirligi tomonidan 14.08.1998 y. 474-son bilan ro'yxatga olingan) 1-son "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli BHMS hisoblanadi.

Korxonalarning kreditga layoqatliligini o'rganishda har bir tijorat banki tomonidan ishlab chiqiladigan kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi (kredit siyosati) uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi (kredit siyosati)da korxonalarning kreditga layoqatliligini o'rganishda uslubiy asos sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlarining kreditni to'lash qobiliyatini hisoblash uslubiyoti va tavakkalchilikni baholash tizimi ko'rsatib berilgan.

Har bitta bankning kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra xo'jalik subyektlarining kreditni to'lash qobiliyatini hisoblash uslubiyoti va tavakkalchilikni baholash tizimi (Skoring tahlil tizimi) bir-biridan farq qiladi.

Xo'jalik subyektlarining kreditni to'lash qobiliyatini hisoblash uslubiyoti va tavakkalchilikni baholash tizimida kreditga layoqatlilik – bu xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini, ularning krediti o'z vaqtida va to'la qaytirish qobiliyatini baholash deb ta'rif berilgan.

Xo'jalik subyektlarining kreditga layoqatliligi bir qator ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Ko'rsatkichlar soni chegaralanmaydi va har bir tijorat banki tomonidan xizmat ko'rsatadigan mijozlari faoliyatining o'ziga xos tomonlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Mazkur uslubiyotda kreditga layoqatlilikning zarur majburiy ko'rsatkichlari: kreditni qoplash koeffitsiyenti, likvidlilik va o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik (mustaqillik koeffitsiyenti), shuningdek, o'z aylanma mablag'larining mavjudlik dinamikasi, to'lanmagan qarzlar, foyda olib faoliyat ko'rsatishi va aylanma mablag'larning aylanuvchanligi kabi ko'rsatkichlar ko'rib chiqiladi.

Kreditga layoqatlilikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagi koeffitsiyentlardan iborat:

Qoplash, likvidlilik va o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik (mustaqillik koeffitsiyenti).

Likvidlilik ko'rsatkichlari balansdagi eng likvidli elementlar va qisqa muddatli majburiyatlarning nisbati qandayligini baholash uchun qo'llaniladi. Tez sotiladigan aktivlar hisobiga bu majburiyatlarning qoplanishi qanchalik yuqori bo'lsa, firmaning mavqei shunchalik ishonchli hamda bankdan kredit olishga imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi.

1. Qoplash koeffitsiyenti

Balansning qoplash koeffitsiyenti (KK) joriy aktivlardan (JA) kelgusi davr xarajatlari (KDX), kechiktirilgan xarajatlar (KX) va muddati o'tgan debitor qarzdorliklar (MO'DQ) ayirmasining joriy mabjuriyatlarga nisbati sifatida hisoblanadi.

$$QK = JA - KDX - KX - MUDQ / JM$$

Agar likvidli aktivlar qisqa muddatli majburiyatlardan kamida ikki marta ortiq bo'lsa, xo'jalik subyektining moliyaviy holatini yaxshi deb hisoblash mumkin. Bu mezon (kriteriy)ning eng yuqori chegarasidir.

Xo'jalik yurituvchi subyekt qisqa muddatli majburiyatlari miqdoriga teng likvidli aktivlarga ega bo'lganda bu mezon (kriteriy)ning eng quyi chegarasi deb qabul qilinadi.

"O'zsanoatqurilish" ATBda qoplash koeffitsiyentini belgilangan normalari

№	Mezon (kriteriy)ning chegarasi	Ball
1	QK > 2	12
2	2 > QK > 1	8
3	1 > QK > 0,5	3
4	QK < 0,5	0

O'zbekiston temir yo'llari AJning qoplash koeffitsiyentining tahlili

Ko'rsatkichlar	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi
Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**11 683 693 105**	8 705 320 392
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	8 441 062 224	7 074 971 055
Kechiktirilgan xarajatlar	-	-	
Muddati o'tgan debitorlik majburiyatlari	-	-	
Joriy majburiyatlar	776 820 046	1 848 646 840	1 071 826 794
Qoplash koeffitsiyenti	2,075	1,754	0,321

Qoplash koeffitsiyenti davr boshiga 2,075ni davr oxiriga kelib 1,754ni tashkil qilgan. Mutlaq o'zgarishi 0,321ga teng bo'lgan. Qoplash koeffitsiyentini davr boshida 12 ball bilan davr oxiriga 8 ball bilan baholash mumkin.

2. Likvidlilik koeffitsiyenti.

Likvidlik bu (lotin tilidagi **liquidite** so'zidan olingan bo'lib, suyuq, oquvchan ma'nolarini bildiradi) korxona asosiy yoki aylanma kapitalini tez va oson sota olishi, bank likvidliligi esa bankning naqd mablag'larga bo'lgan ehtiyoji bo'yicha o'zining majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq qoplay olishidir.

Likvidlik bu aktivlar va qimmatliklarni sotish darajasining tezligi va ularning naqd pulga aylanishi, to'lovga qobiliyat esa ehtiyojni qoplash va zarur buyumlarni sotib olish uchun yetarli pul mablag'lariga ega bo'lishdir.

Likvidlilik koeffitsiyenti xo'jalik subyektining to'lov qobiliyati ancha tezligini ko'rsatadi, bunda joriy majburiyatlar eng likvidli aktivlar

(naqd pulga aylantirish muayyan vaqt talab qiladigan tovar-moddiy boyliklardan tashqari) bilan qoplanishi mumkin.

Likvidlilik koeffitsiyenti pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar va hisobvarag'i bo'yicha olinadigan mablag'lar (muddati o'tganidan tashqari) summasining joriy majburiyatlarga nisbati orqali topiladi. Bunda tovar-moddiy zaxiralar emas to'lov mablag'lari qatoriga kiritilmaydi. Ya'ni, haqiqiy likvid aktivlar hisobga olinadi.

$$LK = PM + KMI + DQ - MO'DQ / JM$$

Likvidlilik koeffitsiyenti (LK) pul mablag'lari (PM), qisqa muddatli investitsiyalar (QMI), debitorlik qarzlari (DQ) va muddati o'tgan debitor qarzdorliklar (MO'DQ) ayirmasining joriy mabjuriyatlarga (JM) nisbati sifatida hisoblanadi.

Korxonaning kreditga layoqatliligini likvidlilik koeffitsiyenti orqali baholash

№	Mezon (kriteriy)ning chegarasi	Ball
1	LK > 1,5	15
2	1,5 > LK ≥ 1	10
3	1 > LK > 0,5	3
4	LK < 0,5	0

"O'zbekiston temir yo'llari" AJning likvidlilik koeffitsiyentini tahlili

Ko'rsatkichlar	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi (+;-)
Pul mablag'lari	171 917 383	468 669 767	296 752 384
Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar	117 495 315	160 480 738	42 985 423
Debitorlik majburiyatlari	503 338 335	1 566 042 404	1 062 704 069
Muddati o'tgan debitorlik majburiyatlari	-	-	-
Joriy majburiyatlar	776 820 046	1 848 646 840	1 071 826 794
Likvidlilik koeffitsiyenti	1,020	1,187	0,167

Likvidlilik koeffitsiyenti davr boshiga 1,020ni davr oxiriga kelib 1,187ni tashkil qilgan. Mutlaq o'zgarishi 0,167 ga teng bo'lgan. Qoplash koeffitsiyentini davr boshiga ham, davr oxiriga ham 10 ball bilan baholash mumkin.

3. Mustaqillik koeffitsiyenti

Mustaqillik koeffitsiyenti (MK) xususiy kapitalni (XK) korxona balansi passivlari umumiy yakuniga (BJ) bo'lish yo'li bilan hisoblanadi va korxona mablag'larining qarzga olinadigan manbalaridan mustaqilligini aks ettiradi:

$$MK = XK / BJ$$

Ushbu ko'rsatkichning qiymati 30% dan kam bo'lmasligi zarur. Aylanma mablag'larning aylanuvchanligi yuqoriligida va xo'jalik subyekti faoliyatining xarakteriga bog'liq holda ushbu ko'rsatkichning yo'l qo'yiladigan darajasi birmuncha pastroq bo'lishi mumkin.

Agar ushbu koeffitsiyent 15% dan past bo'lsa, kredit tavakkali eng yuqori deb hisoblanadi.

Korxonaning kreditga layoqatliligini mustaqillik koeffitsiyenti orqali baholash

№	Mezon (kriteriy)ning chegarasi	Ball
1	MK > 60%	12
2	60% > MK ≥ 30%	8
3	30% > MK > 15%	3
4	MK < 15%	0

-jadval

"O'zbekiston temir yo'llari" AJning mustaqillik koeffitsiyentini tahlili

Ko'rsatkichlar	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi
Xususiy kapital	7 745 794 466	10 124 233 076	2 378 438 610
Balans jami	13 198 104 658	24 276 893 065	11 078 788 407
Mustaqillik koeffitsiyenti	0,586	0,417	-0,169

Mustaqillik koeffitsiyenti davr boshida 0,586ga, davr oxirida 0,417ga teng bo'lgan. Mutlaq o'zgarishi -0,169ga teng bo'lgan. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentini 8 ball bilan baholash mumkin.

Agar kreditni to‘lay olish qobiliyatining yuqoridagi uchta ko‘rsatkichi hisoblab chiqilgandan keyin natijalar yig‘indisi 9 balldan kamni tashkil etsa, bunday korxonaga kredit berilmaydi.

Agar ballar summasi 9 dan 19 ballgacha bo‘lsa, bunday korxona kreditni to‘lay olmaydigan hisoblanadi va faqat alohida hollardagina yuqori likvidli aktivlar bilan ta’minlangan holda kredit berilishi mumkin.

Hatto mustaqillik koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan hollarda ham korxona xususiy mablag‘larining anchagina qismi uzoq muddatli aktivlarga qo‘yilgan bo‘lishi va aylanma aktivlar, tovar-moddiy zaxiralar va ishlab chiqarish xarajatlarini shakllantirishda yetarli darajada qatnasha olmasligi mumkin. Shuning uchun korxonaning kreditga layoqatliligini baholashda uning o‘z aylanma mablag‘lari mavjudligi (O‘AMM)ni ham ko‘rib chiqish zarur.

$$\textbf{O‘AMM} = (\textbf{XK} + \textbf{UMKQ}) - \textbf{UMA}$$

Bu yerda:

XK – xususiy kapital;

UMKQ – uzoq muddatli kredit va qarzlar;

UMA - uzoq muddatli aktivlar.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning o‘z oborot mablag‘lari naqdligini tahlili

Ko‘rsatkichlar	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi
Xususiy kapital (O‘z mablag‘lari manbasi)	7 745 794 466	10 124 233 076	2 378 438 610
Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar	4 675 490 146	12 304 013 149	7 628 523 003
Uzoq muddatli aktivlar	10 219 731 945	12 593 199 960	2 373 468 015
O‘z oborot mablag‘lari naqdligi	2 201 552 667	9 835 046 265	7 633 493 598

O‘z oborot mablag‘lari naqdligi o‘tgan yilga nisbatan 7 633 493 598 ming so‘mga ortgan. Bu o‘zgarish xususiy kapital summasining 2 378 438 610 ming so‘mga ortishi va uzoq muddatli kreditlar summasining keskin ravishda, ya’ni 7 628 523 003 ming so‘mga ortishi hisobiga ro‘y bergan.

Korxona kreditga layoqatliligini baholashda tahlikalar tahlili alohida o‘rganiladi. Tahlikalar tahlilining maqsadi – kredit berish imkoniyatlari va darajasini himoyalanganlik darajasini baholashga qaratilgan.

Korxonalar kreditga layoqatliligi tahlilida:

- baholash ko‘rsatkichlari dinamikasiga;
- buxgalteriya balansini tarkibiy tuzilishiga;
- aktivlar va foydaning sifatiga;
- pul tushumlarining kutilishiga;
- moliya-xo‘jalik faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga muhim ahamiyat qaratiladi.

Kreditga layoqatlilik tahlilini miqdoriy ko‘rsatkichlar qatorida quyidagi asosiy baholash ko‘rsatkichlari tahlil etiladi:

- likvidlilik koeffitsiyentlari;
- o‘z va qarz mablag‘lari nisbati koeffitsiyenti;
- aylanuvchanlik va rentabellik ko‘rsatkichlari.

Kreditlarning muddatligi uning zaruriy sharti hisoblanadi. Shu sababli kredit resurslarini uzoq va qisqa muddatlarga jalb etishda uning qaytarilishiga muhim ahamiyat qaratiladi. Kredit resurslari kechiktirilgan to‘lovlar yuzasidan foizlar summasi bilan birgalikda qaytariladi.

Agar to‘lovlar va foizlar o‘z vaqtida amalga oshirilsa, ushbu mijozning kreditor oldidagi ishonchi ortadi. Bu holat esa mijozning kredit tarixiga yoziluvchi eng muhim jihatdir.

7.4. Kreditga layoqatlilikni baholashda tijorat banklari kredit siyosatining o‘ziga xos jihatlari

E’tirof etish joizki, tijorat banklarining kreditlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim o‘rin

tutmoqda. Shu sababli, tijorat banklariga tarmoq va bo‘g‘inning, iqtisodiyotning lakomotivi sifatida qaralayotganligi ham bejiz emas.

Bank Kredit siyosati – joriy yil mobaynida bank kredit portfelini shakllantirish, xususan, kreditlash borasidagi bank faoliyatining Markaziy bankning kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlari talablaridan kelib chiqib, kreditlash tamoyillariga mosligini ta’minlash, kredit portfelini samarali boshqarish, kredit berish jarayonida yuzaga keladigan xatarlarni baholash hamda ularni minimallashtirish, kredit monitoringi o‘tkazish va uni so‘ndirish jarayoni bilan bog‘liq amallarni belgilash, kredit portfelini diversifikatsiyalash hamda bank foiz siyosatini yuritish bilan bog‘liq tadbirlar yig‘indisidan iboratdir.

Bank kredit siyosatining asosiy maqsadi – mavjud resurslarni iqtisodiyotning real sektorini kreditlar va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga yo‘naltirish hisobiga yuqori daromad olinishini ta’minlashga qaratilgan.

Tijorat banklari kredit siyosati alohida hujjat sifatida ishlab chiqariladi va bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Har bir bank o‘z kredit siyosatini ishlab chiqishi va amalda joriy etishi lozim. Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank Kengashi va Boshqaruv a’zolari, bankning boshqa mansabdor shaxslari zimmasiga yuklatiladi.

Kredit siyosati bank faoliyati turlariga qarab mazmuni va tuzilmasi jihatidan farq qiladi.

Kredit siyosatining yo‘nalishlarida berilayotgan kreditlarning hajmi va shakliga, qisqa va uzoq muddatli kreditlar o‘rtasidagi nisbatiga, moliyaviy axborotlarni tahlil etish jarayoniga, kredit portfeli hamda mablag‘larning qaytarilishini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarga muhim e’tibor qaratiladi.

Har qanday kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo‘ladi: uzoq muddatli investitsiyalardan aksiyadorlarga yuqori daromad kelishini ta’minlash, likvidlikni saqlab turish, tavakkalchilikni diversifikatsiya qilish, siyosat va tadbirlar birligini kafolatlash, qonunlar

va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, hududning kreditlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

Kreditlashning strategik yo'nalishlari bank Kengashi tomonidan belgilanadi va tasdiqlanadi.

Kredit siyosati hujjatli kreditlarni boshqarish jarayonining poydevori hisoblanadi. Tijorat banki tomonidan ishlab chiqilgan va yozma ravishda qayd etilgan kredit siyosati kreditlarni oqilona boshqarishning samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Ushbu hujjat bankning kreditlashtirish faoliyatining andozalari va parametrlarini belgilab beradi.

Bank kredit siyosatining mazmuni quyidagilardan iborat:

- Bank kredit portfelini aniqlash va shakllantirish (kredit turlari, qoplash muddatlari, miqdori va sifati) bilan bog'liq masalalar;

- Bank raisining kredit faoliyati uchun javob beradigan o'rinbosari, kredit qo'mitasi raisi va kredit inspektoriga yuklangan vakolatlar ro'yxati (eng ko'p kredit summalari va turlari);

- Bankning kredit berish sohasidagi huquqlari va axborot taqdim etish bo'yicha jami majburiyatlar;

- Kredit arizalari bo'yicha tekshirish va qaror chiqarish tizimi bayoni;

- Kredit arizasiga ilova qilinadigan zaruriy hujjatlar va kredit ishida albatta saqlanadigan hujjatlar ro'yxati (qarzdorning moliyaviy hisoboti, kredit shartnomasi, garov, kafolat haqida shartnoma va hokazolar);

- Kredit ishlari saqlanishi va tekshirilishi uchun kim javobgarligi, kim va qanday holatda ularni olish huquqiga egaligi to'g'risida batafsil ma'lumotlar;

- Kreditning ta'minlanganligi va uni qabul qilish, baholash va amalga oshirishning asosiy qoidalari;

- Barcha kreditlar sifatini belgilaydigan me'yorlar bayoni;

- Eng yuqori kredit imtiyozlarini belgilash va ko'rsatish (ya'ni kredit summalari va bank yalpi aktivlarining eng yuqori nisbati);

- Bank xizmat ko'rsatadigan mintaqa, kredit qo'yilmalarining asosiy qismi joriy etiladigan tarmoq, iqtisodiyot sohasi yoki sektori;

- Muammoli kreditlar tarkibi va tahlili, bunda muammolarni qanday hal etilishi ehtimollari ko'rsatiladi.

Tijorat banklarining kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishning asosi hisoblanadi.



7.1-rasm. O'zbekistonda tijorat banklari kreditlarining dinamik o'zgarishi*

***O'zbekistondagi banklar tarkibi: Chet el kapitali ishtirokidagi banklar(5); Xususiy banklar(7); Aksiyadorlik tijorat banklari(11); Davlat banklari (3)**

Har bitta bankning kredit siyosati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi va bank faoliyatiga doir boshqa qonunlari, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining moliya-bank tizimiga oid farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi nizom talablari asosida mustaqil ishlab chiqiladi.

Tijorat banklarining kreditlash imkoniyatini oshirish ularning kredit portfelini sifatiga bog'liq.

Umumiy jihatlar. Kreditga layoqatlilikni banklar tomonidan tahlil qilishda quyidagi kompleks ko'rsatkichlar tizimi o'rganilishi lozim.

Balans likvidligini tahlil etish metodikasi

Balans likvidligining umumiy tahlili	**Korxona likvidligi ko'rsatkichlarini tahlili**
Aylanuvchanlik ko'rsatkichlari tahlili	
Foyda ko'rsatkichlarining tahlili	
Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili	
Iqtisodiy nochorlik bankrotlik ehtimolining tahlili	

Korxona likvidliligi – bu korxonaning yuzaga kelgan majburiyatlarini qoplash maqsadida tezkor ravishda va minimal xarajatlar bilan o'z aktivlarini pulga aylantira olish qobiliyati hisoblanadi.

Korxonaning to'lovga layoqatliligi – korxona kapitaliga zarar yetkazmagan holda barcha majburiyatlarni to'lay olish qobiliyatidir. Umumiy holda korxona likvidliligi texnologik, ya'ni aktivlarning pulga aylanish tezligi jarayoni, qolaversa, korxona buxgalteriya balansining likvidligi hamdir.

Passivdagi joriy majburiyatlarni qoplash maqsadida aktivlarni tezkor ravishda sotish orqali balans likvidligiga ega bo'linadi.

Passivdagi joriy majburiyatlarni qoplash maqsadida aktiv mablag'larni tezkor ravishda sotish orqali balans likvidligi yuzaga keladi.

Balans likvidligini ta'minlashda mablag'larni joylashtirish muddatining ularning majburiyatlarga jalb qilinishi muddatiga to'g'ri kelishiga alohida ahamiyat qaratish lozim. Ya'ni passiv tomondagi

majburiyatlarni so'ndirish muddati qancha bo'lsa, aktivlarning muddati ham unga mos holda bo'lishi kerak. Aktivlar tarkibida yuqori likvidli aktivlar salmog'ining yuqori bo'lishi korxona likvidligining yuqori bo'lishiga olib keladi.

Likvidlikka bo'lgan ehtiyoj istalgan davr uchun hisoblanishi mumkin. Likvid mablag'larga bo'lgan talab va taklif doimo o'zgaruvchan bo'ladi. Likvidligi bo'lmagan korxona to'lovga layoqatli bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkalari dinamikasi (1994-2017 yy.)

Amal qilish muddati	%	Amal qilish muddati	%	Amal qilish muddati	%
28.06.2017 — ...	14				
01.01.2015 — 27.06.2017	9	01.01.2002 — 15.07.2003	30	01.08.1996 — 01.12.1996	48
01.01.2014 — 31.12.2014	10	01.07.2000 — 31.12.2001	24	01.07.1996 — 31.07.1996	60
01.01.2011 — 31.12.2013	12	01.06.2000 — 30.06.2000	27,6	01.08.1995 — 30.06.1996	84
15.07.2006 — 31.12.2010	14	01.05.2000 — 31.05.2000	28,8	01.07.1995 — 31.07.1995	120
21.12.2004 — 14.07.2006	16	01.04.2000 — 30.04.2000	30	20.03.1995 — 30.06.1995	300
05.07.2004 — 20.12.2004	18	01.01.1998 — 31.03.2000	36	01.02.1995 — 19.03.1995	250
10.09.2003 — 04.07.2004	20	01.11.1997 — 31.12.1997	30	01.10.1994 — 31.01.1995	225
16.07.2003 — 09.09.2003	24	01.01.1997 — 31.10.1997	39,6	02.05.1994 — 30.09.1994	150

Bugungi amaliyotda mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimiga 5 tarkib guruh ko'rsatkichlarni o'rganilishini xarakterlash lozim. Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- to‘lov layoqati va likvidlilik koeffitsiyentlari;
- ish aktivligi koeffitsiyentlari;
- moliyaviy leveridj koeffitsiyentlari;
- rentabellik koeffitsiyentlari;
- qarzni qoplashni tavsiflovchi koeffitsiyentlar.

Tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni kreditga layoqatligini baholashda hisob-kitob qilinadigan ko‘rsatkichlar

Koeffitsiyentlar guruhi	Ko‘rsatkichlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
Moliyaviy holat ko‘rsatkichlari			
Likvidlilik koeffitsiyentlari	Joriy likvidlik	K=JA/KMM	JA – Joriy aktivlar KMM – Qisqa muddatli majburiyatlar
	Tezkor likvidlik	K=LA/KMM	LA – Likvid aktivlar
Ish aktivligini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar	Aktivlar aylanuvchanligi	K=ST/A	ST – Sotishdan tushum A – Aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati
	Asosiy kapital aylanuvchanligi	K=ST/AK	AK – Asosiy kapital
	Joriy aktivlar aylanuvchanligi	K=ST/JA	JA – Joriy aktivlar
	Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi	K=ST/DM	DM – Debitorlik majburiyatlari
	TMZ aylanuvchanligi	ST/TMZ	TMZ – Tovar-moddiy zaxiralar
	TM, Tovarlar aylanuvchanligi	ST/TM,T	TM – tayyor mahsulot T – tovarlar
Moliyaviy leveridj koeffitsiyentlari	Majburiyatlarni aktivlarga nisbati	Maj/A	Maj – Majburiyatlar
	Majburiyatlarni o‘z kapitaliga nisbati	Maj/UK	UK – O‘z kapitali (o‘z mablag‘lari manbasi)
	Majburiyatlarni aksionerlik	Maj/AK	AK – Aksionerlik kapitali

	kapitaliga nisbati		
	Uzoq muddatli majburiyatlarni asosiy kapitalga nisbati	UMM/AK	UMM – Uzoq muddatli majburiyatlar
	O'z kapitalini aktivlarga nisbati	UK/A	
Moliyaviy natijaviylik koeffitsiyentlari			
Foyda normasi koeffitsiyentlari	Yalpi foyda normasi	K=YaF/ST	YaF – yalpi foyda ST – sotishdan tushum
	Sof operatsion foyda normasi	K=SOF/ST	SOF – sof operatsion foyda
	Sof foyda normasi	K=SF/ST	SF – sof foyda
Rentabellik koeffitsiyentlari	Aktivlar rentabelligi	K=SF, STKF/A	STKF – soliq to'loviga qadar foyda
Aksiyaning foyda me'yori	Oddiy aksiyalar daromadlik koeffitsiyenti	K=D/Ak	D – oddiy aksiyalarga e'lon qilingan dividend summasi A – oddiy aksiyalarning soni
	Aksiyaning dividendlik koeffitsiyenti	K=Db/Ab	Db – bitta aksiyaga e'lon qilingan dividend Ab – bitta aksiyaning bozor bahosi
Qarzni qoplashni tavsiflovchi ko'rsatkichlar	Foizning qoplanganlik koeffitsiyenti	K=F/FT	FT – foiz to'lovlari F – hisobot davri foydasi
	Foiz to'lovlarining qoplanganlik koeffitsiyenti	K=F/T	T – To'lovlar=foiz+lizing to'lovlari+imtiyozli aksiyaga dividendlar+boshqa to'lovlar

Asosiy baholash ko'rsatkichlarining amaldagi holati normativ ko'rsatkichlar bilan taqqoslangan holda kredit resurslarini harakati

yuzasidan qarorlar chiqariladi. Uchinchi guruh ko'rsatkichlar bo'yicha odatda optimal va kritik normalar belgilanmasligi mumkin (korxonaning o'ziga xos xususiyatlari, tarmoq xususiyatlari va boshqa aniq shartlarga muvofiq).

Mazkur ko'rsatkichlar natijalariga qarab agar talab qilinsa, reyting ballarini ham hisoblab chiqish mumkin.

Xo'jalik subyektining kreditga layoqatligini baholashda o'rganilishi lozim bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
1. Mustaqillik koeffitsiyenti	O'MM/BJ	O'MM – O'z mablag'lari manbasi BJ – Balans jami
2. Aylanma aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i	JA/A	JA – Joriy aktivlar A – Aktivlar jami
3. O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	O'MM+UMKQ-UMA/JA	UMA – Uzoq muddatli aktivlar UMKQ – Uzoq muddatli kredit va qarzlar
4. Joriy likvidlik koeffitsiyenti	JA/KMM	KMM – Qisqa muddatli majburiyatlar
5. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	PM+QMMQ/KMM	PM – Pul mablag'lari QMMQ – Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar
6. Aktivlarni rentabellik koeffitsiyenti	STQF/A	STQF – Soliq to'loviga qadar foyda A – aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
7. Aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	ST/A	ST – Mahsulot sotishdan sof tushum

Kredit siyosatida bankning kredit resurslarini hajmi, bankning sohaga yo'nalganligi, mijozlarning kredit zaruriyati, davlatning pul-monetar, kredit, soliq siyosatining o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda kredit resurslarini joylashtirish va ularni berish tartiblari bir-

biridan farq qiladi.

Bu borada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, dasturga kiritilgan loyihalar, kelishuvlar bo'yicha imtiyozli kreditlarni berish, imtiyozlarni joriy etish tartiblarida albatta kredit munosabatlariga kirishish imkoniyatlari tubdan farq qilishini kuzatish mumkin.

7.5. Kreditga layoqatlilikni baholashda moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholashda moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Xo'jalik yurituvchi subyektni moliyaviy jihatdan o'rganganda moliyaviy ahvoliga hozirda bank amaliyotida keng qo'llanilib kelayotgan moliyaviy koeffitsiyentlardan foydalanib baho beriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektni moliyaviy jihatdan o'rganganda asosan moliyaviy holatini, moliyaviy natijalarini va pul oqimlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'rganishga va kelgusidagi moliyaviy ahvolini bashoratlashga e'tibor qaratish zarurdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektni moliyaviy ahvoliga baho berishda banklar amaliyotida bir qancha metodlardan foydalanib kelinmoqda. Bulardan eng aniq natija beradigan metodlardan biri kompleks tahlil metodidir. Kompleks tahlil metodi xo'jalik yurituvchi subyektni moliyaviy ahvolini kompleks o'rganish asosida aniq xulosa shakllantirish imkonini beradi.

Kreditga layoqatlilikning baholashni kompleks tahlili quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- korxona likvidlilik ko'rsatkichlari va balans likvidligi tahlili;
- korxona mablag'lari aylanishini tahlili;
- korxona faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili;
- moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili;
- skoring modeli bo'yicha kreditga layoqatlilikni baholash usuli.

Balans likvidliligi tahlili korxonalarning kreditga layoqatliligi tahlilida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Balans likvidliligi korxonaning muddatli majburiyatlarini tegishli aktivlar bilan qoplay olish qobiliyatini bildiradi.

Balans aktivi va passivi moddalarining likvidliligi tahlili

Aktiv moddalar tarkiblanishi				Passiv moddalar tarkiblanishi			
№	Tarkib	Yil boshi	Yil oxiri	№	Tarkib	Yil boshi	Yil oxiri
A 1	Doimiy harakatdagi aktivlar	289 412	629 149	P 1	To'lov muddati kelgan majburiyatlar	762 075	1 893 768
A 2	Tez pulga aylanadigan aktivlar	503 388	1 566 042	P 2	Qisqa muddatli majburiyatlar	14 793	8 878
A 3	Sekin pulga aylanadigan aktivlar	2 185 621	9 488 499	P 3	Uzoq muddatli majburiyatlar	4 675 490	12 250 010
A 4	Qiyin pulga aylanadigan aktivlar	10 219 731	12 593 199	P 4	Doimiy passivlar	7 745 794	10 124 233
Aktiv jami		**13 198 152**	**24 276 889**	**Passiv jami**		**13 198 152**	**24 276 889**

A1 – Pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar;

A2 - Debitorlik majburiyatlari (12 oy davomida pulga aylanuvchi);

A3 - Ishlab chiqarish zaxiralari, kelgusi davr xarajatlari, kechiktirilgan xarajatlar (12 oydan oshuvchi debitorlik majburiyatlari).

Balans likvidligi shartlari: A1 > P1; A2 > P2; A3 > P3; A4 < P4

Balans likvidligi bo'yicha bank amaliyotida joriy, tez va mutlaq likvidlilik ko'rsatkichlari aniqlanadi va davriy baholanadi.

Likvidlikning birinchi elementi va uning o'zgarishlari

№	Tarkib	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)	O'sishi, %
A1	Doimiy harakatdagi aktivlar	289 412	629 149	339 739	218
P1	To'lov muddati kelgan majburiyatlar	762 075	1 893 768	1 131 693	248.4
	Mablag'lar ortiqchaligi, yetishmovchiligi (A1-P1)	-472 663	-1 264 619	-791 954	267.7

Doimiy harakatdagi aktivlarning to'lov muddati kelgan majburiyatlarni qoplashga yetishmovchiligi kuzatilgan. Davr boshidagi yetishmovchilik 1 264 619 ming so'mni, davr oxiriga kelib 791 954 ming so'mni tashkil etgan.

Likvidlikning ikkinchi elementi va uning o'zgarishlari

№	Tarkib	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)	O'sishi, %
A2	Tez pulga aylanadigan aktivlar	503 388	1 566 042	1 062 654	311.3
P2	Qisqa muddatli majburiyatlar	14 793	8 878	5 915	60.0
	Mablag'lar ortiqchaligi, yetishmovchiligi (A2-P2)	488 595	1 557 164	1 068 569	318.7

Tez pulga aylanadigan aktivlar (debitorlik majburiyatlari)ning qiqsa muddatli majburiyatlar (qisqa muddatli kreditlar va qarzlar)ni qoplashga yetarliligi ta'minlangan. Davr boshidagi ortiqchalik 1 557 164 ming so'mni, davr oxiridagi holat 1 068 569 ming so'mni tashkil etgan.

Likvidlikning uchinchi elementi va uning o'zgarishlari

№	Tarkib	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)	O'sishi, %
A3	Sekin pulga aylanadigan aktivlar	2 185 621	9 488 499	7 302 878	334.1
P3	Uzoq muddatli majburiyatlar	4 675 490	12 250 010	7 574 520	162.0
	Mablag'lar ortiqchaligi, yetishmovchiligi (A3-P3)	- 2 489 869	-2 761 511	271 642	110.90

Sekin pulga aylanadigan aktivlar (tovar moddiy zaxiralar)ning uzoq muddatli majburiyatlar (uzoq muddatli kreditlar va qarzlar)ni qoplashga davr boshida 2 489 869 ming so'm va davr oxirida 2 761 511 ming so'm yetishmovchiligi kuzatilgan

Likvidlikning to'rtinchi elementi va uning o'zgarishlari

№	Tarkib	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+,-)	O'sishi, %
A4	Qiyin pulga aylanadigan aktivlar	10 219 731	12 593 199	2 373 468	123.2
P4	Doimiy passivlar	7 745 794	10 124 233	2 378 439	130.7
	Mablag'lar manbasining ortiqchaligi, yetishmovchiligi (P4-A4)	-2 473 937	-2 468 966	4 971	99.8

Qiyin pulga aylanadigan aktivlar (uzoq muddatli aktivlar) summasidan doimiy passivlar (o'z mablag'lari manbasi) o'rtasidagi farqlanish, davr boshida -2 473 937 ming so'mni, davr oxirida -2 468 966 ming so'mni tashkil qilgan.

Korxona likvidlilik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi

Korxonaning likvidlilik koeffitsiyentlari	Aniqlash tartibi	Me'yorlari
Joriy likvidlilik koeffitsiyenti (K_{jl}): korxonaning joriy majburiyatlarini qoplay olish imkoniyatini ko'rsatadi.	(A1+A2+A3)/(P1+P2)	$K_{jl} > 2$
Tez likvidlilik koeffitsiyenti (K_{tl}): korxonaning tez likvidlilik aktivlari joriy majburiyatlarini qoplay olish imkoniyatini ko'rsatadi.	(A1+A2)/(P1+P2)	$K_{tl} > 0,7$
Mutloq likvidlilik koeffitsiyenti (K_{ml}): Korxonaning pul mablag'lari joriy majburiyatlarini qoplay olish imkoniyatini ko'rsatadi.	A1/(P1+P2)	$K_{ml} > 0,2$

Kompleks tahlilning keyingi muhim qatori bu aktivlarning aylanish darajasiga baho berishga ya'ni, korxonaning ish aktivligini o'rganishga qaratiladi. Aylanish ko'rsatkichlari korxonaning o'z mablag'laridan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi. Korxona aktivlarining har bir turlari bo'yicha aylanish turlari yuqori bo'lsa, shunga mos ravishda

kreditga layoqatligi va ulardan foydalanish samaradorligi ham yuqori bo'ladi.

Amaliyotda kreditga layoqatliligini baholashda quyidagi koeffitsiyentlardan foydalaniladi: korxonaning joriy aktivlari aylanish ko'rsatkichlari; korxonaning debitorlik qarzlari ko'rsatkichlari; korxonaning kreditorlik qarzlari ko'rsatkichlari; tovar-moddiy zaxiralari aylanuvchanligi.

Korxonaning joriy aktivlari aylanish koeffitsiyenti (K_{ak}) aktivlardan foydalanish samaradorligini va aylanish tezligini ko'rsatadi.

$$K_{ak} = MST\ (010\text{-}satr\ 2\text{-}shakl) / joriy\ aktivlarning\ o'rtacha\ yillik\ qiymati\ ((A_{yb}+A_{yo})/2,\ 390\text{-}satr\ 1\text{-}shakl)$$

Korxona debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti (K_{dm}) debitorlik qarzlari aylanishi tezligini va davrini ifodalaydi.

$$K_{dm} = MST\ (010\text{-}satr\ 2\text{-}shakl) / Debitorlik\ majburiyatlari\ o'rtacha\ yillik\ qiymati\ ((DM_{yb}+DM_{yo})/2,\ 210\text{-}satr\ 1\text{-}shakl)$$

Korxona kreditorlik qarzlari aylanish koeffitsiyenti (K_{km}) kreditorlik qarzlarining aylanish tezligini va davrini ifodalaydi.

$$K_{km} = MST\ (010\text{-}satr\ 2\text{-}shakl) / Kreditorlik\ majburiyatlari\ o'rtacha\ yillik\ qiymati\ ((KM_{yb}+KM_{yo})/2,\ 601\text{-}satr\ 1\text{-}shakl)$$

Korxona tovar-moddiy zaxiralarining aylanishi koeffitsiyenti (K_{tmz}) tovar-moddiy zaxiralaridan foydalanish natijaviyligini ifodalaydi.

$$K_{tmz} = MST\ (010\ satr\ 2\text{-}shakl) / Tovar\text{-}moddiy\ zaxiralar\ o'rtacha\ yillik\ qiymati\ ((TMZ_{yb}+TMZ_{yo})/2,\ 140\text{-}satr\ 1\text{-}shakl)$$

Korxona faoliyati natijaviyligiga rentabellik ko'rsatkichlari yordamida baho beriladi. Rentabellik ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi, uning natijasida yuqori foyda hisobidan har xil ko'rinishdagi aktivlarni sotib olish imkoniyati yuzaga keladi. Quyidagi eng muhim rentabellik koeffitsiyentlarini keltirib o'tamiz: joriy aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (K_{ja}; ROA); xususiy kapital rentabellik ko'rsatkichi (K_{xk}; ROE); sotish rentabellik ko'rsatkichi (K_s; ROS).

Joriy aktivlar rentabelligi (K_{ja}; ROA) har bir so'mlik aktivlar summasiga to'g'ri keladigan sof foyda summasini ifoda etadi.

$$K_{ja};\ ROA = Sof\ foyda\ (270\text{-}satr\ 2\text{-}shakl) / Joriy\ aktivlar\ (390\text{-}satr,\ 1\text{-}shakl)$$

Xususiy kapital rentabelligi (K_{xk}; ROE) har bir so'mlik korxona xususiy kapitaliga to'g'ri keladigan sof foyda summasini aks ettiradi.

K_{xk}; ROE = Sof foyda (270-satr 2-shakl) / Xususiy kapital (480-460-470)-satr, 1-shakl)

Sotish rentabelligi (K_s; ROS) har bir so'mlik tushumga to'g'ri keladigan yalpi foyda summasini aks ettiradi.

K_s; ROS.= Yalpi foyda (030 satr, 2-shakl) / Mahsulot sotishdan sof tushum (010 satr, 2-shakl)

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili korxona moliyaviy mustaqil yoki qaramliligini ifodalaydi. Mablag'lar tarkibida qarz mablag'lari ulushi yuqori bo'lishi, moliyaviy barqarorlik pasayishiga olib keladi.

Korxonaning kreditga layoqatliligini baholashda foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlar quyidagilar: mustaqillik koeffitsiyenti; qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti; xususiy kapital harakatchanligi koeffitsiyenti.

Mustaqillik koeffitsiyenti (K_{mus}) – jami mol-mulk qiymatida xususiy kapital ulushini ko'rsatadi. Ushbu koeffitsiyentning 0,5 dan yuqori bo'lishi korxonaning moliyaviy barqarorligini 0,5 dan past bo'lishi moliyaviy qaramligini bildiradi.

K_{mus} = Xususiy kapital ((480-460-470)-satr, 1-shakl) / Jami mol-mulk qiymati (780 satr, 1-shakl)

Qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti ($K_{qo'mn}$) – xususiy kapital va qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi.

$K_{qo'mn}$ = Majburiyatlar (770 satr, 1-shakl) / Xususiy kapital ((480-460-470)-satr, 1-shakl)

Xususiy kapital harakatchanligi koeffitsiyenti (K_{xkx}) – xususiy kapital tarkibida o'z oborot mablag'lar ulushini ko'rsatadi. Bu koeffitsiyent normativi $K_{xkx} > 0,2$ yuqori bo'lishi kerak.

$K_{qo'mn}$ = O'z oborot mablag'lari ((480+570+580-130)-satr, 1-shakl) / Xususiy kapital ((480-460-470)-satr, 1-shakl)

Korxonani kreditga layoqatliligini baholashning amaldagi tartibi

Variant	Tarkib	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi

	modeli				(+;-)
Amaldagi tartib	Kreditga layoqatlilikni tahlil etishning an'anaviy shakli	Qoplash koeffitsiyenti	2.075	1.754	-0.321
		Likvidlilik koeffitsiyenti	1.020	1.187	0.167
		O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik (mustaqillik koeffitsiyenti)	0.586	0.417	-0.169
		O'z aylanma mablag'larining mavjudligi (NSOS)	2 201 552	9 835 046	7 633 493

Korxonada qoplanish koeffitsiyenti davr boshiga 2.075ni, davr oxiriga 1.754ni tashkil etgan. Ya'ni qoplanish koeffitsiyenti darajasi keskin ravishda tushib ketgan. Likvidlik koeffitsiyenti 1.020dan 1.187ga ortgan. O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti davr boshida 0.586ni, davr oxiriga kelib esa 0.417ni tashkil qilgan. O'z aylanma mablag'larining mavjud summasi davr boshiga nisbatan 7 633 493 ming so'mga ortgan. Bu albatta ijobiy holatdir.

Korxonani kreditga layoqatliligini baholashning kompleks tahlili

Variant	Tarkib modeli	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+;-)
Komplekks tahlil	Korxona likvidlik ko'rsatkichlari	Joriy likvidlilik koeffitsiyenti	3.906	6.352	2.446
		Tez likvidlilik koeffitsiyenti	1.039	1.193	0.154
		Mutloq likvidlilik koeffitsiyenti	0.371	0.641	0.270
		Balans likvidligi	0.546	0.825	0.279
	Korxona mablag'lari aylanishini tahlili	Korxonaning joriy aktivlarini aylanish ko'rsatkichlari	1.12	0.44	-0.68
		Korxonaning debitorlik qarzlari ko'rsatkichlari	6.68	2.14	-4.54
		Korxonaning kreditorlik qarzlari ko'rsatkichlari	4.41	2.81	-1.60
		Tovar-moddiy zaxiralari aylanuvchanligi	4.10	4.94	0.84
	Korxona	Joriy aktivlar rentabellik	17.0	8.3	-8.7

	faoliyati samaradorlik ko'rsatkich lari tahlili	ko'rsatkichi (ROA)			
		Xususiy kapital rentabellik ko'rsatkichi (ROE)	6.5	9.6	3.1
		Sotish rentabellik ko'rsatkichi (ROS)	26.3	38.3	12.0
	Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkich lari tahlili	Mustaqillik koeffitsiyenti	0.586	0.417	-0.16 9
		Qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti	0.70	1.39	0.69
		Xususiy kapital harakatchanlik koeffitsiyenti	0.28	0.97	0.69

Korxonada joriy likvidlik koeffitsiyenti davr boshiga nisbatan 2.44 ga, tez likvidlik darajasi 0.154 ga, mutlaq likvidlik darajasi 0.270 ga ortgan. Balans likvidligi darajasi davr boshiga nisbatan 0.279 ga ortgan.

Mablag'lar aylanuvchanligi bo'yicha o'zgarishlar quyidagicha bo'lgan. Jumladan joriy aktivlar aylanuvchanligi davr boshiga nisbatan 0.68 ga, debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi 4.54 ga, kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi 1.60 ga kamaygan. Faqat tovar-moddiy zaxiralarning aylanuvchanlik darajasi 4.10 dan 4.94 ga o'sgan.

Korxona rentabellik darajasi joriy aktivlarga nisbatan o'tgan yilga nisbatan 8.7 foizga kamaygan, xususiy kapital rentabelligi o'tgan yilga nisbatan 3.1 foizga ortgan, sotish rentabelligi esa 12.0 foizga ortgan.

Korxonaning mustaqillik koeffitsiyenti o'tgan yilda 58.6 foizdan joriy davrga kelib 41.7 foizga tushib qolgan. Qarz va o'z mablag'lari nisbatidani bog'lanish 0.70 dan 1.39 ga ko'tarilgan. Bu holat joriy davrda kredit va qarzlar summasining keskin ravishda ortganligidan dalolat beradi. Xususiy kapitalning harakatchanlik koeffitsiyenti 0.28 dan 0.97 ga ortgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektni moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: mijozning bozordagi obro'si; mijozning xarakteri; kreditning maqsadli yo'nalishlari; ta'minlanganligi (garov); kreditni qaytarish shartlari va h.k.

Rivojlangan davlatlar bank amaliyotida, **"6S", "CAMPARI", "RARTS"** modellaridan keng foydalaniladi.

Kreditga layoqatlilikni baholashdagi xalqaro modellar va ularning tasnifi

Belgilar	Nimani anglatishi	Tavsifi
"6 C" usuli		
C	Sharacter	Reputatsiya, mijozning xarakteri
C	Capacity	Imkoniyatlar
C	Cash	Naqdlik
C	Collateral	Kafolatlik
C	Conditions	Shartlar
C	Control	Nazorat
"CAMPARI" usuli		
C	Sharacter	Reputatsiya, mijozning xarakteri
A	Ability	Kreditni qaytarishga qobilligi
M	Margin	Marja, daromadliligi
P	Purpose	Kreditlarning maqsadli yo'nalishlari
A	Amount	Kredit miqdori
R	Repayment	Kreditni qaytarish shartlari
I	Insurance	Ta'minlanganligi, kreditni qaytmaslik riski
"RARTS" usuli		
P	Purpose	Kreditning maqsadligi
A	Amount	Qarz miqdori
R	Repayment	Kreditni qaytarish shartlari
T	Term	Kredit berish muddati
S	Security	Kreditni to'lashni kafolatlash

Ushbu modellar ko'p parametrlarni o'z ichiga olganligi sababli korxonalarning kreditga layoqatliligini baholashda eng to'g'ri qaror qabul qilish imkonini beradi.

7.6. Korxonaning ishonchliligini baholash

Quyida tavsiya etilayotgan uslubiyot korxonalar ishonchliligini baholashning, tahlil etishning mavjud nazariy manbalariga tayangan

holda tuzib chiqildi va undan barcha tijorat banklari o‘z kredit siyosatini yo‘lga qo‘yishda, faoliyatini maqsadli boshqarishida foydalanishlari mumkin.

Ushbu metodika amaldagi qonunchilik normalariga, tartiblarga va eng muhimi tahlil uchun zarur bo‘lgan axborotlar bazasini shakllantirishning umum belgilangan talablariga to‘la mos tushadi.

Bunda asosiy jihatlar korxonaning yaqin yillar oralig‘ida bankrot bo‘lmaslik, moliyaviy krizislar qiyinchiliklar, depsinishlar va sinishlar holatiga tushmasligi, majburiyatlarni qoplash yuzasidan ishonchli manbalarga ega va ega emasligini baholashga qaratiladi.

Baholashning umumiy qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin: birinchi navbatda korxonaning e’lon qilinadigan va chop etiladigan moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida uning keng qamrovli moliyaviy ahvolini, uning kutilishlarini baholash lozim. Ayniqsa, aksionerlik jamiyati, yoki mulki fond birjasida sotiladigan korxonalarning qimmatli qog‘ozlari, aksiyalarining aylanishi, bozordagi holatiga muhim ahamiyat qaratish zarur.

Korxona ishonchliligini baholashda eng muhim xulosalar shuningdek, moliyaviy hisobotlar ma’lumotlari asosida aniqlanadigan koeffitsiyentlar natijalariga qarab chiqariladi.

Ekspress tahlil asosida korxonaning faoliyat samaradorligi, moliyaviy sog‘lomligi, ishonchlilik darajasi bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan foyda normasining o‘zgarishi; aksiya bahosining o‘zgarishi; dividend summalarining o‘zgarishiga qarab korxonaning ishonchlilik darajasini dastlabki xulosalarni berish mumkin.

O‘z navbatida korxonalarning, aksionerlik jamiyatlarining dividend stavkalarini doimiy o‘rganish nafaqat ushbu korxonalarning kredit munosabatlarini tartibga solish, balki bank foiz stavkalariga o‘zgarishlar kiritish, kredit shartlarini belgilash moliyaviy boshqaruv strategiyalarini belgilashda ham muhim masala hisoblanadi.

Tahlilda muhim ahamiyat korxonalar aksiyalariga e’lon qilingan dividendlar va bank depozitlari foizi orasidagi nisbat, aloqadorligiga qaratiladi.

Xalqaro amaliyotda ular orasidagi nisbat bo'yicha quyidagi kategoriyalar tarkiblanadi:

- aksiyalar bo'yicha dividend qaytimi depozit foizidan 20 foiz oshganda korxonaning investitsion jozibadorligi eng yuqori deb baholanadi;

- aksiyalar bo'yicha dividend qaytimi depozit foizidan 20 foizdan kam bo'lgan hollarda korxonaning investitsion jozibadorligi nisbatan past deb baholanadi;

- aksiyalar bo'yicha dividend qaytimi depozit foiziga yetmagan hollarda korxonaning investitsion jozibadorligi yo'q deb baholanadi;

- aksiyalar bo'yicha dividend qaytimi depozit foizidan kam bo'lgan va ular orasidagi interval 20 foizdan ortadigan bo'lsa, korxona faoliyat samaradorligi past deb baholanadi va investitsiya jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi (bunda uzoq muddatli investitsiyalar mustasno deb qaralishi mumkin);

- aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanmasa yoki to'lash imkoniyatlari bo'lmasa bunday korxonalar krizis yoki bankrotlik holatida deb qaraladi.

Korxonalar ishonchliligini baholashda ularning moliyaviy holati, samaradorligining reyting bahosiga ham muhim ahamiyat qaratiladi. Reyting baholash amaliyoti yuqoridagi ko'rsatkichlar tizimini kategoriyalar bo'yicha ranjirlashni talab etadi.

Xuddi shu tarkiblash va ranjirlash moliyaviy koeffitsiyentlar bo'yicha ham amalga oshiriladi.

Moliyaviy koeffitsiyentlar bo'yicha quyidagi kategoriyalarni tarkiblash mumkin:

K1 – kategoriyaga barcha moliyaviy koeffitsiyentlar (likvidlik, kapital tarkibi, rentabellik va aylanuvchanlik) darajasi o'rtacha tarmoq ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan korxonalar ishonchli, moliyaviy barqaror, investitsion jozibador, to'lovga qobil, sifat menejmentiga ega korxonalar kiritiladi.

K2 – kategoriyaga likvidlik va xususiy kapital tarkibi bo'yicha moliyaviy koeffitsiyentlari o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlaridan ortadigan

biroq, rentabellik va aylanuvchanlik ko'rsatkichlari o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlaridan past bo'lgan korxonalar kiritiladi. Bunday korxonalarni to'lovga qobil, moliyaviy barqaror deyish mumkin, lekin investitsion jozibadorligi, samaradorlikning sifat menejmenti past deb qabul qilinadi.

K3 – kategoriyaga likvidlikning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori lekin qolgan moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha ahvoli o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlaridan past bo'lgan korxonalar kiritiladi. Bunday korxonalar qisqa muddatli to'lovga qobil, lekin moliyaviy nobarqarorlikga ega, investitsion jozibadorligi va samaradorlikning sifat menejmenti juda past korxonalar sifatida tarkiblanadi.

K4 – kategoriyaga joriy to'lov layoqatiga ega lekin oraliq va tezkor to'lov layoqatiga ega bo'lmagan, qolgan moliyaviy koeffitsiyentlar guruhi bo'yicha o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlaridan juda past bo'lgan ko'rsatkichlarga ega bo'lgan korxonalar kiritiladi. Bunday korxonalar bankrotlikning boshlang'ich bosqichidagi korxonalar sifatida qaraladi.

K5 – kategoriya korxonaning joriy to'lov layoqati 2 dan kichik yoki teng bo'lgan, qolgan barcha moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha natijalari qoniqarsiz bo'lgan korxonalar kiritiladi. Bunday korxonalar bankrot, krizis holatidagi korxonalar deb e'tirof etiladi.

Korxona ishonchliligini baholash ko'rsatkichlari va ularning normalari

Ko'rsatkichlar	Norma	Baho
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	2.0 dan kichik	Qoniqarsiz
	2.0 ga teng va katta yoki 2,0-2,5 orasida	Qoniqarli
	2,5 ga teng va undan katta lekin 3.0 dan kichik	Yaxshi
	3.0 ga teng va undan katta	A'lo
Qayta likvidlik darajasi	1,0 dan kichik	Qoniqarsiz
	1,0 ga teng va katta, lekin 1,5 dan kichik	Qoniqarli

	1,5 ga teng va undan katta, lekin 2,0 dan kichik	Yaxshi
	2,0 ga teng va undan katta	A'lo
O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti	0,1 dan kichik	Qoniqarsiz
	0,1 ga teng va undan katta, lekin 0,15 dan kichik	Qoniqarli
	0,15ga teng va undan katta, lekin 0,3 dan kichik	Yaxshi
	0,3 ga teng va undan katta	A'lo
Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	1,0 dan kichik	Qoniqarsiz
	1,0 ga teng va katta, lekin 1,5 dan kichik	Qoniqarli
	1,5 ga teng va undan katta, lekin 3,0 dan kichik	Yaxshi
	3,0 ga teng va undan katta	A'lo
Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	1,0 dan kichik	Qoniqarsiz
	1,0 ga teng va undan katta, lekin 1,5 dan kichik	Qoniqarli
	1,5 ga teng va undan katta, lekin 3,0 dan kichik	Yaxshi
	3,0 ga teng va undan katta	A'lo
Avtonomiya koeffitsiyenti	Kredit stavkasiga bog'liq	O'rnatilmagan
Xususiy kapital rentabelligi	Bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalarining quyi holati	Qoniqarsiz
	Bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalari inflyatsiya darajasiga nisbatan yuqori 1,25	Qoniqarli
	Bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalari inflyatsiya darajasidan nisbatan yuqori 1,25-1,5	Yaxshi
	Bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalari inflyatsiya darajasidan nisbatan yuqori 1.5-2.0	A'lo

Korxona ishonchliligini baholashda qator ko'rsatkichlar ifodasi va ularning jamlanmasidan iborat Altmanning formulasidan ham foydalaniladi. Ushbu formula korxona iqtisodiy nochorligini baholash modeli sifatida ham tan olingan:

$$Z = 6,56X1 + 3,26X2 + 6,72X3 + 1,05X4$$

Bunda:

X1 – aylanma mablag'lar (joriy aktivlar) / jami aktivlar;

X2 – sof foyda / jami aktivlar;

X3 – foizlar va soliqlar to'loviga qadar foyda / balans jami;

X4 – xususiy kapital / majburiyatlar jami.

Korxona ishonchliligini bilishning qo'shimcha baholash normalari sifatida ustav kapitalining majburiyatlarga nisbatan ustunligiga, korxonaning innovatsion aktivligiga, ko'rgazma va yarmarkalarda qatnashish darajasiga, yutuqlariga, tanlovlarda g'oliblik darajalariga ham ahamiyat qaratish lozim.

7.7. Korxona raqobatdoshligining tahlili

Dunyoning barcha davlatlari uchun bosh maqsad bu iqtisodiy o'sishga, xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Shu sababli, jahonning barcha davlatlarida raqobatdosh xo'jalik yuritish tuzilmalarini yaratishga, ularni modernizatsiya va rekonstruksiya qilishga, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy, samarali shakllariga o'tishga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Korxonani raqobatdoshligi – uning bozordagi raqiblariga nisbatan ustunligi va iqtisodiy naflilikka ega bo'lishidir. Raqobatdoshlik kompleks ko'rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Uni baholashdan maqsad – korxonaning tarmoq, hudud va xalqaro bozordagi o'rnini belgilashdan iborat.

Korxona raqobatdoshligini baholash algoritmi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- baholash maqsadini aniqlash;

- baholash, tahlil etish faoliyat turlarini belgilash;
- taqqoslash tanlovi;
- ko'rsatkichlarini tanlash va tasniflash;
- ko'rsatkichlarni baholash va tahlil etish;
- ko'rsatkichlar baholash natijalarini umumlashtirish;
- raqobatdoshlikni baholash xulosalarini tayyorlash.

Korxonaning raqobatdoshligini aniqlashning ko'rsatkichlar tizimi va ularning aniqlanishi

Ko'rsatkichlari	Aniqlanishi	Ko'rsatkichni baholashdagi roli
1. Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi - En		
1.1. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish xarajatlari	Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum / sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi	Mahsulot ishlab chiqarishda xarajatlarning samaradorligini ko'rsatadi
1.2. Fond qaytimi	Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum / asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymati	Asosiy ishlab chiqarish vositalarining samaradorligini tasniflaydi
1.3. Ishlab chiqarish rentabelligi, %	Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foyda x 100%/sotilgan mahsulotning to'liq tannarxi	Xarajatlarning foyda keltirishini tasniflaydi
1.4. Mehnat unumdorligi, ming so'm/kishi	Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum / xodimlarning o'rtacha ro'yxat soni	Mehnatning samaradorligini tasniflaydi
2. Korxonaning moliyaviy ahvoli - Fn		
2.1. Avtonomiya koeffitsiyenti	Xususiy kapital / Balans jami	Korxonaning qarshi tomonga qaram bo'lmasligini tasniflaydi

2.2. To‘lov layoqati koeffitsiyenti	Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar	Korxonaning majburiyatlarini bajarishini tasniflaydi
2.3. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	Pul mablag‘lari va qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar / qisqa muddatli majburiyatlar	Joriy majburiyatlarni qoplash manbalari bo‘lgan vositalarning sifat tarkibini ko‘rsatadi
2.4. Aylanma aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti	Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum / Aylanma aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati	Aylanma aktivlarning aylanishlar soni va davrini tezligini tasniflaydi
3. Tovarni sotish va ilgari surishni tashkil qilish samaradorligi - Ec		
3.1. Sotuv rentabelligi, %	Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foyda x 100% / Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	Sotish foydaligini tasniflaydi
3.2. Tayyor mahsulotning omborda turib qolish koeffitsiyenti	Sotilmagan mahsulotlar hajmi / Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	Tayyor mahsulotning bozoriyligini tasniflaydi
3.3. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti	Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum / Ishlab chiqarish quvvati hajmi	Quvvatlardan foydalanishning samaradorligini tasniflaydi
3.4. Reklama va sotuvni rag‘batlantirish vositalari koeffitsiyenti.	Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foyda /reklama va sotuv xarajatlari	Reklama va sotuv xarajatlarining qoplanishini tasniflaydi
4. Tovarning raqobatdoshligi- Kt		
4.1. Tovarning sifati	Oliy, Birinchi kategoriyadagi mahsulotlar hajmi / jami mahsulot hajmi	Mahsulotning sifatlilik darajasini tasniflaydi
4.2. Tovarning narxi	Tovarlarning haqiqiy	Mahsulotning taklif

	tannarxi +,- reja tannarxidan farq + foyda	narxini shakllantiradi

Korxonaning raqobatdoshlik koeffitsiyentini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin[36]:

(Kkn): Kkn = 0,15 x En + 0,29 x Fn + 0,23 x Ec + 0,33 x Kt, (1)

Bu yerda:

Kkn – korxonaning raqobatdoshlik koeffitsiyenti;

En – korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini belgilovchi samaradorlik mezoni;

Fn – korxonaning moliyaviy ahvolini belgilovchi samaradorlik mezoni;

Es – tovarni sotish va bozorda ilgari surishni tashkil qilishning samaradorlik mezoni;

Kt – tovarning raqobatdoshlik mezonlari; 0,15, 0,29, 0,23, 0,33 mezonlarning salmoq koeffitsiyentlari.

Salmoq koeffitsiyentlarining miqdori ekspertlar tomonidan aniqlanadi.

Korxona raqobatdoshligini aniqlashning SWOT tahlili metodikasi. Raqobatdoshlikni baholash algoritmi: moliyaviy, ishlab chiqarish, tashkil etish va boshqaruv, marketing, xodimlar tarkibi, texnologik tarkib bo'yicha holatlar alohida o'rganishni xarakterlaydi.

-jadval

Raqobatdoshlikni aniqlash va tahlil qilishning SWOT modeli

Baholash ko'rsatkichlari	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**
Moliyaviy (Rm)					
Aktivlar tarkibi	Ai	Ai	Ai	Ai	Ai
Investitsion jozibadorlik	Ii	Ii	Ii	Ii	Ii
Aktivlar daromadligi	Di	Di	Di	Di	Di
Foyda normasi	Fi	Fi	Fi	Fi	Fi
Kapital foydaliligi	Ki	Ki	Ki	Ki	Ki
Ishlab chiqarish (Ri)					
Uskunalardan foydalanish	Ui	Ui	Ui	Ui	Ui
Ishlab chiqarish quvvatlari	Ki	Ki	Ki	Ki	Ki

[36]М.Р.Болтабаев. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. Тўқимачилик саноати корхоналарининг рақобатдошлигини баҳолаш услубини такомиллаштириш.

Xodimlar soni	Xi	Xi	Xi	Xi	Xi
Sifat nazorati tizimi	Si	Si	Si	Si	Si
Mehnat unumdorligi	Mi	Mi	Mi	Mi	Mi
Texnologik uskunalarning yoshi	Ti	Ti	Ti	Ti	Ti
Tashkil etish va boshqarish (Rb)					
Boshqaruv xodimlari va injener texnik xodimlar soni	Bi	Bi	Bi	Bi	Bi
Boshqaruv xodimlarining tashqi muhit ta'sirida o'zgarishga moyilligi	Mi	Mi	Mi	Mi	Mi
Funksiya va vazifalarning aniq belgilanishi	Fi	Fi	Fi	Fi	Fi
Boshqaruvni tashkil etish strukturasi	Si	Si	Si	Si	Si
Boshqaruvda foydalaniladigan axborotlar sifati	Mi	Mi	Mi	Mi	Mi
Boshqaruv tuzilmasining o'zgaruvchanligi	Ti	Ti	Ti	Ti	Ti
Marketing (Rr)					
Bozordagi ulushi	Bi	Bi	Bi	Bi	Bi
Firma reputatsiyasi	Fi	Fi	Fi	Fi	Fi
Brend prestiji	Pi	Pi	Pi	Pi	Pi
Reklama samaradorligi	Ri	Ri	Ri	Ri	Ri
Strategiya	Si	Si	Si	Si	Si
Baholash siyosati	Tsi	Tsi	Tsi	Tsi	Tsi
Sotishning tashkiliy va texnik jihatlari	Ji	Ji	Ji	Ji	Ji
Xizmatlar sifati	Xi	Xi	Xi	Xi	Xi
Mijozlar soni	Mi	Mi	Mi	Mi	Mi
Kadrlar tarkibi (Rx)					
Kadrlar kvalifikatsiya darajasi	Ki	Ki	Ki	Ki	Ki
Sotishda band bo'lgan xodimlarning texnik kvalifikatsiya darajasi	Xi	Xi	Xi	Xi	Xi
Texnologik (Rt)					
Standartlarning qo'llanishi	Si	Si	Si	Si	Si
Yangi mahsulotlar	Yai	Yai	Yai	Yai	Yai
Innovatsion, ilmiy tadqiqot xarajatlari	Ii	Ii	Ii	Ii	Ii

1,2,3,4,5-qatorlar korxonalarning raqobatdoshlik darajasi bo'yicha sifat mezonlari hisoblanadi. Bunda: 1-a'lo; 2-yaxshi; 3-o'rta; 4-o'rtadan past, 5-tashvishli holat deb beligilanadi.

Korxona raqobatdoshligini aniqlash va tahlil qilishning «4R» modeli

Raqobatdoshlik omillari	**Tahlil qilinayotgan korxonada**	**Raqobatchilarda**		
		A	**V**	**.....**
Mahsulot (Rm)				
Ishonchlilik	Rm1	Rm1	Rm1	Rm1
Xizmat muddati	Rm2	Rm2	Rm2	Rm2
Ta'mir talablik	Rm3	Rm3	Rm3	Rm3
Texnik darajasi	Rm4	Rm4	Rm4	Rm4
Savdo markasi obro'si	Rm5	Rm5	Rm5	Rm5
Ta'mirlash xizmati darajasi	Rm6	Rm6	Rm6	Rm6
Qo'shimcha xizmatlar qulayligi	Rm7	Rm7	Rm7	Rm7
Xizmatlar va mahsulotlarni tanlash variantlari	Rm8	Rm8	Rm8	Rm8
Assortiment tarkibi	Rm9	Rm9	Rm9	Rm9
Narx (Rn)				
Chakana bahosi	Rn1	Rn1	Rn1	Rn1
Ulgurji bahosi	Rn2	Rn2	Rn2	Rn2
Narx chegirmalari	Rn3	Rn3	Rn3	Rn3
Hisob-kitob shakllari	Rn4	Rn4	Rn4	Rn4
Tovarlarni sotish regioni va yo'llari (Rs)				
Sotish strategiyasi	Rs1	Rs1	Rs1	Rs1
Taqsimot turlari	Rs2	Rs2	Rs2	Rs2
Dilerlar soni	Rs3	Rs3	Rs3	Rs3
Distrbyuterlar soni	Rs4	Rs4	Rs4	Rs4
Bozorni egallash darajasi	Rs5	Rs5	Rs5	Rs5
Sotish hududlari	Rs6	Rs6	Rs6	Rs6

Reklama(Rr)				
Reklama shakllari	Rr1	Rr1	Rr1	Rr1
Reklama joylari	Rr2	Rr2	Rr2	Rr2
Reklama byudjeti hajmi	Rr3	Rr3	Rr3	Rr3
Reklama chastotasi	Rr4	Rr4	Rr4	Rr4
Ko'rgazmalarda ishtiroki	Rr5	Rr5	Rr5	Rr5
Ommaviy axborot vositalarida e'lonlar	Rr6	Rr6	Rr6	Rr6
Chegirmalar	Rr7	Rr7	Rr7	Rr7

J.J. Lamben modeli bo'yicha raqobatdoshlik tahlili metodikasi ham amaliyotda keng qo'llaniladi. Unda asosiy ko'rsatkichlar sifatida bozordagi ulushi, tovarlar tarkibi ulushi, xarajatlar sarfi, texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi va imiji olingan.

Raqobatdoshlikning aniqlash va tahlil qilishning Lamben modeli

Baholash ko'rsatkichlari	**Baholash mezonlari**		
	Past 1-2 ball	**O'rta 2-3 bal**	**Yuqori 4-5 ball**
Bozordagi ulushi	3/1 dan kichik	3/1 dan yuqori	lider
Tovar tarkibining ulushi	diferensiyalanmagan	diferensiyalangan	Noyob
Xarajatlar	Raqobatchilarniki dan yuqori	Raqobatchilar niki bilan bir xil	Raqobatchilarni kidan kam
Texnologiyani o'zlashtirish darajasi	O'zlashtirish qiyin kechadi	O'zlashtirish oson kechadi	To'liq o'zlashtirilgan
Imij	yo'q	Rivojlangan	Kuchli imijga ega

Natijalar ballik tizimda baholanadi.

Raqobatdoshlikning, shuningdek, ichki normalar tartiblari ham belgilanadi. Eng ommalashgan formasi bu reyting baholash usuli hisoblanadi.

$$R_j = \sqrt[n]{X_1 + X_2 + \ldots + X_n},$$

Bu yerda:

$\mathbf{R_j}$ – korxonaning reyting bahosi;

X1X2,.. .Xn – tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlarning nisbiy ifodasi;

Shuningdek, korxona raqobatdoshligini aniqlashning matritsali, samaradorlikka bog'langan modellaridan ham amaliyotda keng foydalaniladi.

7.8. Daromad tahlili

Kredit inspektorlari layoqatlilikni baholashda o'rganadigan eng muhim ko'rsatkichlardan biri bu korxonaning daromad ko'rsatkichi hisoblanadi. Daromadlar tahlilida ularning joriy va istiqboldagi ko'rsatkichlarini baholash lozim. Bunda, omilli tahlilga ham muhim e'tibor qaratish lozim. Bu borada kredit inspektorlari, ekspertlar quyidagi muhim jihatlarga ahamiyat qaratishlari lozim: foydani maksimallashtirishning qanday imkoniyatlari mavjudligiga; agar korxona zararga ishlayotgan bo'lsa, buning sabablarini chuqur o'rganishi; tendensiyalariga (tarmoq rivojlantirish yuzasidan dasturlarga, faoliyatning kelajagiga, bozorning kengayishiga va h.k.); xarajatlarni boshqarish imkoniyatlariga va h.k. jihatlariga.

Daromadlar tahlili va uning muhim qatorlari

O'rganish qatorlari	Mazmuni
Daromadning tarkibiy va trend tahlili	Korxonada daromadlarining umumiy hajmi va tarkibiy tuzilishi bo'yicha gorizontal, vertikal va trendli tahlili amalga oshiriladi.
Daromadlarning koeffitsiyentli tahlili	Daromadlarning mutlaq ifodalari moliyaviy natijaviylikni aniq baholash imkonini bermaydi. Shu sababli ko'pincha ularning nisbiy ifodalariga ahamiyat qaratiladi. Bu bir so'mlik aktiv, xarajat, kapitalga to'g'ri keladigan daromad ko'rsatkichini ifoda etadi.

O‘rganish qatorlari	Mazmuni
Daromadlarning omilli tahlili	Daromadlarning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarning ta’sirini aniq baholash va ularni maksimallashtirishning chora-tadbirlarini ko‘rish imkonini beradi.
Daromadlarning moliyaviy natijalarga ta’sirining tahlili	Daromadlar xarajatlar bilan bog‘langan holda moliyaviy natijaviylikning foyda va zararlarda to‘planishi, ularning jamg‘arilishi, ishlatilishi yuzasidan moliyaviy ahvolga ta’sirini baholashni tasniflaydi.

Kredit inspektorlari daromadlar tahlilida operatsion faoliyatdan daromadlarning muhim qatori hisoblangan mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumlar, sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi hamda mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foyda ko‘rsatkichlarini o‘zgarishlariga, ularning o‘zgarish sabablariga, sof foyda tarkibidagi salmog‘iga ahamiyat qaratishlari lozim. Negaki bu foyda kreditlarning foizlarini qoplash manbasi ham hisoblanadi. Kreditorlarning olingan kreditlar hisobiga to‘lovlari va ularga tegishli foizlarning to‘lash imkoniyatlarining mavjudligini faqat ularning o‘zigagina ahamiyatli masala emas.

Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumlarning o‘sishi bilan, sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxining o‘sishi, shu bilan birgalikda mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foydaning o‘zgarishlarini baholashda albatta ularning o‘zaro bog‘liqligiga va uzviylikdagi aloqadorligiga muhim e’tibor berish lozim.

Ya’ni, mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foydaning o‘sishi mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning o‘sishidan yuqori bo‘lishi va uning o‘sishi sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxining o‘sishidan yuqori bo‘lishi lozim.

Buni formula shaklida quyidagicha ifoda etish mumkin:

$$F_S \geq T_S \geq T_x$$

F_S – mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foydaning o'sishi:

F_S = joriy yil sotilgan mahsulot (ish va xizmat)lardan yalpi foyda / o'tgan yil sotilgan mahsulot (ish va xizmat)lardan yalpi foyda

T_s – mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning o'sishi:

T_s = joriy yil sotilgan mahsulot (ish va xizmat)lardan sof tushum / o'tgan yil sotilgan mahsulot (ish va xizmat)lardan sof tushum

T_x – sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxining o'sishi:

T_x = joriy yil sotilgan mahsulot (ish va xizmat)lardan ishlab chiqarish tannarxi foydasi / o'tgan yil sotilgan mahsulot (ish va xizmat)lardan ishlab chiqarish tannarxi

Sof tushumlarni baholashda albatta sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning tan olinishi bilan ular yuzasidan naqd pul mablag'larining shakllanishi darajasiga ham muhim ahamiyat qaratish lozim. Negaki daromadlarni tan olishda yoki sotishdan tushumlarni hisobga olishda "hisobga olish" qoidasiga amal qilinishi bilan ularning naqdligini ta'minlashda "kassa" usuliga amal etilishi doimo ham majburiyatlar yuzasidan naqd mablag'lar mavjudligini ta'minlay olmaydi.

Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning naqdligini quyidagi bog'lanish asosida aniqlash mumkin:

$$Tn = DKb + Ts - DQo$$

Tn – mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan naqd tushum (Pul oqimi to'g'risidagi hisobotdan olinadi);

DQb – davr boshiga mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan debitorlik qarzdorlik summasi;

DQo – davr oxiriga mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan debitorlik qarzdorlik summasi;

Ts – mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum summasi (moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdan olinadi)

Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning omilli tahlili metodikasi

Ta'sir birliklari modeli	Iqtisodiy tasniflari
$T_s = UMA * AV_{umas} * AV_{javs} * FQ_{av}$	UMA – Uzoq muddatli aktivlarning o'rtacha yillik qiymati; AV_{umas} – asosiy vositalarning uzoq muddatli aktivlardagi salmog'i; AV_{javs} – aktiv asosiy vositalarning jami asosiy vositalarning tarkibidagi salmog'i; FQ_{av} – asosiy vositalarning aktiv qismining fond qaytimi
$T_s = \sum JA * T_{jas} - T_{ak}$	JA – Joriy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati; T_{jas} – tovarlarning joriy aktivlardagi salmog'i; T_{ak} – tovarlarning aylanish koeffitsiyenti
$T_s = \sum X * I_{xts} * MU_i$	X – xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni; I_{xts} – ishchilarning xodimlar tarkibidagi salmog'i; MU_i – ishchilarning mehnat unumi

Daromadlarning moliyaviy faoliyatdan va favqulodda holatlardan yuzaga kelgan qismi tahlilda alohida o'rganiladi va ularning ta'sir birliklari yuqoridagi tarkibdan tubdan farq qiladi.

7.9. Kreditlarning muddatliligi va maqsadliligi bo'yicha ishlatilish tahlili

Kreditning muddatliligi – bu olingan kreditni o'z vaqtida qaytarib berishlik bilan tavsiflanadi.

Kreditning muddatlilik tamoyili qarzdor uchun qulay bo'lgan har qanday vaqtda emas, balki kredit bitimida ko'rsatilgan ma'lum muddatda kreditning qaytarilishi zarur ekanligini bildiradi. Kreditning muddatliligi har ikkala tomon, kreditor va qarz oluvchi uchun muhimdir. Agar kreditor qarzni foizi bilan o'z vaqtida qaytib olsa, uni egasiga o'z vaqtida qaytarish yoki yana kreditga berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qarz oluvchi kreditni samarali ishlatib, uni o'z vaqtida kreditorga

qaytarish va shu bilan shartnomadagi jazo choralaridan qutilishidan manfaatdor. Kreditning muddati bo'yicha kredit shartnomada ko'rsatilgan shartlarning buzilishi natijasida qarz beruvchi qarz oluvchiga iqtisodiy choralar (jarimalar shaklida, kredit bo'yicha foiz darajasini oshirish, kreditning muddatini qisqartirish va boshqalar)ni qo'llashi mumkin. Bu choralar ham yordam bermagan hollarda qarz beruvchi moliyaviy talablarni xo'jalik sudi orqali undirib olishi mumkin. Kreditning muddatliligi kelib tushuvchi boyliklarni tejamli va qayta ishlatish, ishlab chiqarilgan mahsulotni jo'natish, tovarlarni sotish muddatlariga va pirovard natijada aylanma fondlarining doiraviy aylanishining tezligiga ham bog'liqdir.

Olingan kreditning maqsadli ishlatilganligi muhim masala hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yo'naltirilganligi, masalan, tovar-moddiy boyliklar sotib olishga yoki biror ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va hokazo aniq biror obyektga maqsadli yo'naltirilganligi korxona bilan bank o'rtasida tuziladigan kredit shartnomada ko'rsatilgan bo'ladi. Korxona olgan kreditini faqatgina kredit shartnomada ko'rsatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak. Bunda kredit muayyan, aniq obyektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zaxiralariga, tayyor mahsulotga, jo'natilgan tovarlarga, hisob-kitob hujjatlariga va hokazolarga beriladi.

Jahon amaliyotida umumiy biror ehtiyojni qoplash uchun ishlatiladigan kreditlar mavjud. Bunda bank tomonidan beriladigan kreditlar qarz oluvchining moliyaviy resurslarga bo'lgan turli ehtiyojlarini qondirish uchun o'z ixtiyori bo'yicha ishlatiladi.

Hozirgi sharoitda ular qisqa muddatli kreditlash sohasida cheklangan tarzda qo'llaniladi, o'rta va uzoq muddatli kreditlashda umuman qo'llanilmaydi. Bizning amaliyotimizda banklar tomonidan biror maqsadni amalga oshirish uchungina kreditlar beriladi.

O'zining faoliyat doirasiga qarab, qarz oluvchi korxona va tashkilotlar bir necha guruhlarga bo'linishi mumkin.

Tijorat sohasi uchun kreditlar berish. Bu soha bo'yicha kreditlar savdo va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik subyektlariga beriladi. Bu kreditlar tez aylanib kelish xususiyatiga ega bo'lib, tijoratchilar ehtiyojini qondirishda katta ahamiyatga egadir.

Bank tomonidan kreditlar qimmatli qog'ozlar bo'yicha oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshiruvchi, fond birjasi vositachilari: broker, makler, dilerlik firmalariga ham beriladi.

Ko'chmas mulk uchun ipoteka kreditlari berilishi ham mumkin. Ular ham oddiy, ham ixtisoslashgan ipoteka banklari tomonidan beriladi. Bu hozirda xorij amaliyotida keng tarqalgan bo'lib, hatto ba'zi manbalarda kreditning alohida shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Banklararo kreditlar – bank kreditining keng tarqalgan shakllardan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi ma'lum bir tijorat bankning boshqa turlardagi ssudalar berish siyosatini aniqlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu me'yorning aniq miqdori (foiz stavkasi) Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Kreditlarning maqsadliligini tasniflashda ularning uzoq va qisqa muddatga kreditlarga bo'linishiga muhim ahamiyat qaratish lozim. Odatda, uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish yuzasidan uzoq muddatli kreditlar, joriy aktivlarni moliyalashtirsh uchun qisqa muddatli kreditlar jalb etiladi. Farqlash muddati sifatida bir yildan oshiq va bir yilgacha muddat chegaralangan.

Balans moddalariga nisbatan joriy holatni baholashda quyidagi sxematik bog'lanishlarini berib o'tish lozim.

Balans aktivini moliyalashtirish tartiblari

Aktivlar	Summa	Passivlar	Summa	Moliyalashtirish manbasi
Uzoq muddatli aktivlar	A4	O'z mablag'lari manbasi	P4	P4 ↔A4, A3
Joriy aktivlar shu jumladan:	$\sum_{i=1}^{n}$	Majburiyatlar shu jumladan:	$\sum_{i=1}^{n}$	
Tovar moddiy	A3	Uzoq muddatli	P3	P3 ↔ A4

zaxiralar		kreditlar va qarzlar		
Debitorlik majburiyatlari	A2	Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar	P2	P2 ↔ A3, A2
Pul mablag'lari	A1	Kreditorlik majburiyatlari	P1	A1 ↔ P1,P2,P3

Kreditning maqsadli ishlatilishi va muddatligini o'rganishdan tashqari ulardan oqilona foydalanish darajasini, samaradorligini ham baholash lozim.

Bu nafaqat kredit va foiz summasini bankka qaytarib to'lashni, bundan tashqari, shu kredit yordamida kreditlanadigan yoki moliyalashtiriladigan soha, tarmoq, korxona qancha samaradorlikka erishayotganligini ham baholash imkonini beradi.

Kreditlar albatta ma'lum bir loyihalarning bajarilishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Banklar loyihalarni kreditlash yoki moliyalashtirishdan oldin loyihani bajarish uchun yo'naltiriladigan mablag'larning samaradorligini hisoblab chiqishlari zarur.

Agar iqtisodi rivojlangan davlatlarda kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish amaliyotiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda korxona, tashkilotlarga kredit berishdan oldin qo'yiladigan mablag'larning samaradorligiga muhim e'tibor qaratilishini ko'rishimiz mumkin.

Agarda loyihaga qo'yiladigan mablag'lar iqtisodiy va moliyaviy samara beradigan bo'lsa, shu loyiha uchun mablag' ajratiladi.

Kreditning samaradorligi ishlab chiqarish va savdo hajmiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Samaradorlik kreditning tamoyillarini bajarilishi uchun asos hisoblanadi. Samaradorlik kreditdan aniq, maqsadli foydalanishni taqozo qiladi.

Ishlab chiqarish va sotish hajmi qanchalik katta, kredit resurslarining aylanish davri qanchalik qisqa bo'lsa, kredit qo'yilmalarining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

7.10. Risklar tahlili. Kreditga layoqatlilikni baholashda nazoratning davomiyligi.

Kredit risklari bilan bog'liq muammolar, shuningdek, risklarni boshqarish zaruriyati bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi va xalqaro iqtisodiyotning globallashuv sharoitida muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Kredit risklari xususida gap ketganda, asosiy e'tiborni ushbu risklarning tabiatiga, mohiyatiga, kelib chiqish sabablari va ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlariga qaratish lozim.

Xalqaro bank amaliyotida risklar bilan bog'liq munosabatlar asosan aktiv operatsiyalar jarayonida ro'y beradi. Tijorat banklarining riskka bog'liq bo'lgan asosiy aktiv operatsiyalari sifatida kredit va investitsiya operatsiyalarini keltirish mumkin.

Bank risklari vujudga kelishi, namoyon bo'lishi jihatidan turli-tuman bo'lib, ularning barchasi pul egasining kredit sifatida yo'naltirgan qiymatining va unga to'lanadigan foiz to'lovlarining to'lig'icha qaytib kelmasligi bilan izohlanadi.

Kredit xatari yoki qarzni qaytarmaslik xavfi kreditorning kredit kelishuviga asosan kreditni o'z vaqtida qaytarilishiga va kredit shartlarini bajara olishiga ishonchsizligidan kelib chiqadi. Kredit riski bank faoliyatida uchraydigan risklarning eng yirigidir. Shuning uchun tijorat banklari kredit siyosatida bu jarayonga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Olingan kreditni o'z vaqtida qaytarilishi va kredit shartlarini bajara olishiga ishonchsizligining ko'rinishlari sifatida kreditlarni to'liq qaytarmaslik, qisman qartarmaslik (bu holat ko'pincha olingan kreditlarning foizlari va komission to'lovlarida tegishli bo'ladi) yoki muddatning kechiktirishlari nazarda tutiladi.

Kredit riski qarz oluvchining kredit shartnomasi shartlariga muvofiq to'lashi lozim bo'lgan majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olmasligi xavf-xatarlarini xarakterlaydi.

Banklarning risklarini yo'qotishning eng maqbul yechimiga qarzdorlarning kredit qobiliyati, moliyaviy barqarorligini doimiy monitoring qilish orqaligina erishiladi. Bunda likvidlilik va mustaqillik (avtonomiya) risklariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kredit riski kredit oluvchining qarzdorlikni so'ndirishi yuzasidan imkoniyatsizligi, pul oqimini to'g'ri shakllantira olmasligi, moliyaviy qiyinchiliklar, rahbar va korxona egalarining ishchanlik reputatsiyasining pastligi yoki kriminal xissiyotlarining ustunligi bilan yuzaga keladi.

Shu bilan birga davlat organlari va ayrim shaxslarninng bosimi tufayli ham ushbu risklarga boriladi.

Kredit risklarining yuqoriligiga xodimlar malakasining pastligi, jamoadagi ijtimoiy keskinlik, poraxo'rlik holatlari ham kuchli ta'sir etadi.

Kredit risklarini baholash birinchi navbatda potensial qarz oluvchilar bilan tanishuvdan boshlanadi. Bunda mijozning reputatsiyasi, tadbirkorlik, ishlab chiqarish, marketing va moliyaviy boshqaruvdagi qobiliyatiga baho beriladi. Kredit taklifining qanchalik yaxshi tayyorlanganligi, uning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik jihatdan qanchalik maqsadga muvofiq ekanligi, kreditning maqsadliligi va uning bank, qarz oluvchi, alohida ijtimoiy qatlamlar, tarmoq, hudud uchun ahamiyatli ekanligiga muhim e'tibor qaratish zarur. Ijobiy baholash kredit mahsulotlari yuzasidan muhim qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu jarayon bevosita mijozning kreditga layoqatliligini, moliyaviy ahvolini va pul mablag'lariga harakatini baholashga imkon beradi. Yakuniy jarayon albatta kredit shartnomasini rasmiylashtirish jarayoni hisoblanadi.

Risklarni boshqarishning muhim yo'nalishi sifatida to'lovlar grafigini shakllantirish va uning doimiy monitoringini tashkil etish hisoblanadi. Bu jarayon tezkor kredit monitoringini olib borishni nazarda tutadi. Uning asosiy maqsadi muammoli kreditlarni aniqlash va ularni undirish choralarini ko'rishga qaratilgan.

Olingan kreditlarni muddatida to'lamaslik, kechiktirish juda ko'p kuzatiladigan holatlar hisoblanadi. Uning muhim sabablari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: debitorlik majburiyatlarining tushib ketishi; likvidlik koeffitsiyentining pastligi; sotish hajmining tushib ketishi; operatsion faoliyat zarari; zaxiralarning ortiqcha jamg'arilishi va ushlab turilishi; muhim mijozlarni yo'qotishi, qarz oluvchining biznes sheriklari ehtiyotkorligi, rahbarlarning bank bilan aloqa qilishdan qochishi, ularning talab qilingan axborotlarni berishdan bosh tortishi yoki kechiktirishlari va h.k.

Risklarni zararsizlantirishning ichki omillariga quyidagilarni kiritish mumkin: mijozning kreditga layoqatliligini baholash (profilaktika amallari, risklarni oldini olish; qarzning hajmiga va potensial tavakkalchilik darajasiga qarab qarz qarorini olish vakolatini chegaralash; loyihani birgalikda moliyalashtirish, qisman qarzdorning o'z mablag'lari hisobiga moliyalash; korxona boshqaruvi va menejmentida muammoli kreditlar bilan ishlashning mavjudligi; shartnomada kelishilgan majburiyatlarning himoyalanganligi (axborot ta'minoti, ta'minot, jarimalar, foizlar to'lovi); ichki bo'g'inlar ish faoliyatining yo'lga qo'yilganligi (iqtisodiy tahlil bo'limi, xavfsizlik bo'limi va h.k.); huquqiy javobgarlikni qo'llash holatlari va h.k.

Kredit riskining (minimal oqibatlari, zararlar) kamaytirishga qaratilgan harakatlarga: kredit portfelini divertsifikatsiyalash; alternativ pul oqimlarini shakllantirish; bitta mijozga beriladigan kreditlarning aniq miqdorini cheklash; diskontlangan ssudalarni berish; qarz majburiyatlarini uchinchi shaxsga chegirmalar bilan sotishni kiritish mumkin.

Korxonalarning kreditga layoqatliligini o'stirishning amaliy chora-tadbirlari, ularning moliyaviy holatida ro'y berayotgan o'zgarishlar va natijalardan kelib chiqib belgilanadi. Ya'ni, to'lovga qobil korxonalarda belgilanadigan chora-tadbirlar, to'lovga noqobil, moliyaviy nobarqaror korxonalarda belgilanadigan chora-tadbirlardan keskin farq qiladi. Ulardan biri moliyaviy barqarorlikni saqlab qolishga harakat qilsa, ikkinchisi muammoni hal etish va yashab qolish harakatiga tushadi.

To‘lovga noqobillik yoki kreditga layoqatlilikni o‘stirishni muhim tadbirlariga quyidagilar kiradi.

Korxonalar aktivlari va passivlarini joylashtirishni qayta ko‘rib chiqish. Uning mazmunini qanday tushunish mumkin?

Korxonalarda likvid mablag‘larining aylanuvchanligini tezlashtirish maqsadida ortiqcha aylanma aktivlarni hisobdan chiqarish, asosiy va nomoddiy aktivlarni ishlab chiqarish zaruriyatidan ortig‘ini aylanma mablag‘lar qatoriga olish (ularni sotish, buzish, hisobdan chiqarish va boshqa yo‘llar bilan), debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini so‘ndirish (yo‘l qo‘yilgan tartiblarda), qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalarni maqsadli joylashtirish.

To‘lov mablag‘lari va to‘lov majburiyatlari orasidagi nisbatdagi manfiy o‘zgaruvchanlik sababini moliyaviy holatdagi tanglikdan emas, balki, ishlab chiqarish va boshqaruvning quyi bo‘g‘inlaridan izlash lozim. Ya’ni, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni yaxshi yo‘lga qo‘yilmasligi, ishlab chiqarish xarajatlarini oshib ketishi, narx belgilash siyosatining to‘g‘ri yuritilmasligi va boshqalar.

To‘lovga noqobillik sharoitida mablag‘lar yetishmovchiligini hal etish yuzasidan avvalo, ichki imkoniyatlarni aniqlab olish va ularni ishga solish lozim. Noqobillik sharoitida boshqa bir subyektdan qarz so‘rash va uning ishonchini oqlashni iqtisodiy imkoniyati bo‘lmaydi.

Korxonalar noishlab chiqarish bo‘g‘inlari, uning balansida turuvchi faoliyatning boshqa obyektlarini xarajatlarini kamaytirish, to‘xtatish yoki o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta’minlashga o‘tkazish lozim.

Korxonalarni pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining aylanishida qat’iy rejalarni belgilash va unga doimiy amal etish lozim. Shuningdek, pul mablag‘larini qarz majburiyatlariga ishlatishini aniq rejasini tuzib olish zarur.

Mablag‘lar aylanuvchanligini tezlashtirishning imkoniyatlarini oshirish yuzasidan hisob-kitoblarning bekor qilingan, to‘xtatilgan, shuningdek, zamonaviy shakllariga keng yo‘l ochish lozim.

Korxonalarning kreditga layoqatliligini ta'minlash va uni o'stirishda albatta, ularning investitsion aktivligiga ham ahamiyat berish lozim. Investitsion aktivlik bu qarz olish va uni qaytarishdan keskin farq etadi.

Korxonalarda kreditga layoqatlilikni baholashni asosiy jihatlaridan biri o'z oborot mablag'lari naqdligiga qaratilganligi bois ularni manbalashni o'z mablag'lari manbasi bilan bog'liq bo'lgan qatorlarini oborot aktivlari normativlaridan kelib chiqqan holda baholash lozim. Bunda oborot aktivlarining ortiqchaligi manbalashdagi holatni buzib ko'rsatishga olib keladi. Kam hollarda esa sun'iy ravishda oshib ketishiga olib keladi.

Korxonalar kreditga layoqatliligini o'stirishning muhim chora-tadbirlaridan biri bu bevosita hisob-kitoblardagi majburiyatlarni ichki va tashqi majburiyatlarga tarkiblash orqali baholash amaliyotiga o'tishdir. Korxona majburiyatlari qatoridan ichki majburiyatlarni chegirish ushbu xarajatlarni yo'q qilmaydi, lekin to'lovga qobillikni oshirishda sezilarli siljishga imkon beradi.

O'zbekiston temir yo'llari AJ ning jamlangan buxgalteriya balansi

Ko'rsatkichlar	**2017 -2018yy.**				
AKTIV	**01-yanvar 2017**	**01-aprel 2017**	**01-iyul 2017**	**01-okt 2017**	**01-yanvar 2018**
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**11 151 959 813**	**11 195 178 476**	**11 778 032 823**	**12 593 199 960**
Asosiy vositalar boshlang'ich qiymati	10 527 417 487	11 341 824 771	13 056 620 251	13 186 532 286	14 773 593 626
Asosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	3 788 793 507	3 945 211 086	4 125 679 858	4 320 658 666
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	7 553 031 264	9 111 409 165	9 060 852 428	10 452 934 960

Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	335 519	526 894	435 179	345 379
Kapital qo'yilmalar	2 834 711 892	3 308 810 890	1 783 170 063	2 396 325 565	1 572 602 311
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	289 782 140	300 072 354	320 419 651	567 317 310
2.Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**3 522 490 664**	**4 234 880 927**	**10 571 776 648**	**11 683 693 105**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	761 929 334	807 974 274	805 958 807	1 047 437 972
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	1 926 260 257	2 439 824 162	8 466 493 743	8 441 062 224
Pul mablag'lari	171 917 383	167 990 329	198 395 625	199 248 750	468 669 767
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	114 011 429	118 290 042	112 380 694	160 480 738
Debitorlar, jami	503 338 335	552 299 315	670 396 824	987 694 654	1 566 042 404
Shu jumladan:					
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	163 855 350	162 134 584	179 194 017	304 669 491	268 038 094
Byudjetga avans to'lovlari	7 740 384	6 510 004	8 801 153	5 388 750	5 252 951
Aktiv bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**
PASSIV	**01-yanvar 2017**	**01-aprel 2017**	**01-iyul 2017**	**01-okt 2017**	**01-yanvar 2018**
1.O'z mablag'lari manbasi	**7 745 794 466**	**8 567 616 791**	**8 644 944 914**	**8 963 743 430**	**10 124 233 076**
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
Taqsimlanmagan					223 400

foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	675
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**6 106 833 686**	**6 785 114 489**	**13 386 066 041**	**14 152 659 989**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	5 329 297 527	5 927 142 095	12 154 367 349	12 304 013 149
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	12 729 877	10 091 394	9 142 953	8 878 479
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	764 806 282	847 881 000	1 222 555 739	1 839 768 361
Shu jumladan:					
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	177 094 949	250 590 908	306 494 641	514 650 184
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	35 632 293	40 718 997	40 080 238	62 317 043
Balans passivi bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ ning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti (2016-2017 yy.)

Ko'rsatkichlar nomi	2017 yil	2016 yil
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum (bez NDS)	5 180 801 340	3 362 225 550
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	3 191 287 162	2 474 622 038
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi	**1 989 514 178**	**887 603 512**

foydasi		
Davr xarajatlari	752 744 444	568 302 199
Boshqa operatsion xarajatlar	178 630 359	135 306 333
Asosiy faoliyatning foydasi	**1 415 400 093**	**454 607 646**
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	833 455 050	159 047 300
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	506 789 162	269 112 080
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda	**1 088 734 205**	**564 672 426**
Favquloddagi foyda va zararlar	0	0
Daromad (foyda) solig'i	30 730 577	16 304 363
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	83 965 344	40 674 456
Hisobot davrining sof foydasi	**974 038 284**	**507 693 607**

Nazorat uchun savollar

Kreditga layoqatlilik deganda nimani tushunasiz?

Korxonaning kreditga layoqatliligini tahlil etishning axborotlar bazasiga nimalar kiradi?

Kreditga layoqatlilik tahlilining mazmunini tushuntiring?

Korxonaning kreditga layoqatliligini maqsadi va vazifalari?

Kreditga layoqatlilikning tavsifi?

Kreditga layoqatlilikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullariga nimalar kiradi?

Ekspert baholash nima?

Ballik (skoring)baholash tizimi?

Kreditga layoqatlilikni baholashda tijorat banklarining kredit siyosatini o'ziga xos xususiyatlari?

Korxonaning ishonchliligini baholash?

Raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish qobiliyatini tahlili?

Daromad tahlili?

Kredit resurslari maqsadliligini tahlili?

Kreditga layoqatlilikni moliyaviy koeffitsiyentlarda baholash?

Kreditni ta'minlanganligini tahlili?

Risklar tahlili?

Kreditga layoqatlilikni baholashda nazoratning davomiyligi?

Raqobatdoshlikni aniqlash va tahlil qilish zaruriyati?

Korxonaning raqobatdoshligini aniqlashning ko'rsatkichlari tizimi va ularning aniqlanishi?

Raqobatdoshlikni aniqlash va tahlil qilishning Lamben modeli?

Korxona raqobatdoshligini aniqlash va tahlil qilishning «4R» modeli?

Raqobatdoshlikni aniqlash va tahlil qilishning SWOD modeli?

Balans aktivini moliyalashtirish tartiblari?

Korxona ishonchliligini baholash indikatorlari va ularning normalari?

Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning omillik tahlili metodikasi?

Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning naqdligini hisoblash tartibi?

Kreditga layoqatlilikni baholashda daromadlar tahlili va uning muhim qatorlari?

"RARTS" usulini tushuntiring?

"CAMPARI" usulini mohiyatini tushuntiring?

"6 C" usulining mohiyatini tushuntiring?

Korxonaning kreditga layoqatliligiga Qoplash koeffitsiyenti orqali baho berish?

Korxonaning kreditga layoqatliligiga likvidlilik koeffitsiyenti orqali baholash?

Korxonaning kreditga layoqatliligini mustaqillik koeffitsiyenti orqali baholash?

Korxonani kreditga layoqatliligini baholashning kompleks tahlili?

Balans aktiv va passiv moddalarining likvidliligi tahlili?

Xo'jalik subyektining kreditga layoqatliligini baholashda o'rganilishi lozim bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlar?

Tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarni kreditga layoqatliligini baholashda hisob-kitob qilinadigan ko'rsatkichlar?

8-BOB. DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI TAHLILI

8.1.Debitorlik, kreditorlik qarzlari tahlilining mazmuni, ularni tahlil qilish maqsadi va vazifalari.

8.2.Debitorlik va kreditorlik qarzlarining shakllanishi.

8.3.Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibi va muddati bo'yicha tahlili.

8.4.Qarzlar dinamikasining natijaviy va samaradorlik ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlili (qarzlarning aylanuvchanligi va qoplanuvchanligi tahlili).

8.5.Debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari.

8.6.Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili. Debitorlik va kreditorlik qarzlari yuzasidan rezervlar tahlili.

8.1.Debitorlik, kreditorlik qarzlari tahlilining mazmuni, ularni tahlil qilish maqsadi va vazifalari

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini doimiy tahlil etish to'lovlar intizomini mustahkamlash, muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi to'lovlar va hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish, byudjetga hamda davlat maqsadli fondlariga soliqlar va majburiy to'lovlarning o'z vaqtida tushishini ta'minlash, byudjetga hamda davlat maqsadli fondlariga qarzlarni qisqartirish va ular vujudga kelishining oldini olish imkoni, qarzdorlikni maqsadli boshqarish imkonini beradi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini (qarzlarini) tahlil etish orqali iqtisodiyotning turli bo'g'inlarida, sektorlarida hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish hamda barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda bank va moliya muassasalari tomonidan to'lov intizomi va hisob-kitoblarning o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash, soliqlar va majburiy to'lovlarning to'liq to'lanishi masalalari bo'yicha

amaldagi qonun hujjatlari normalariga qat'iy rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni yo'lga qo'yish imkoni tug'iladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlari holatini tahlil qilish, korxonalar va tashkilotlarning muddati o'tkazib yuborilgan qarzlari taqqoslanishini muntazam ravishda tashkil etish hamda ularni qisqartirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarni ko'rishda subyektlarning rolini, e'tiborini oshirishni talab etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik qarzlarning vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik, aylanma mablag'lardan oqilona foydalanish, ularning saqlanishini va o'z vaqtida to'ldirilishini ta'minlash bo'yicha mas'ulligini oshirib borish, o'z navbatida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ham yaxshilashga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Debitor va kreditor qarzdorlik bilan ishlash bir muncha murakkab jarayon. Negaki, ularning ikkinchi tomonga bog'langanligi doimo ham manfaatli yechimlar chiqarishga imkon bermaydi. Bu borada analitiklar nimalarga ahamiyat qaratishi lozim:

Birinchi navbatda analitiklar korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini monitoring qilishi, moliyaviy aktivlar va passivlarni inventarizatsiyalashni amalga oshirishi lozim. Avvalo, navbatda qarz mavjudligi, uning miqdori, asosi va uni yuzaga kelish muddatlari dalilini aniqlashi lozim.

Ikkinchidan vujudga kelgan qarzlarni so'ndirish bo'yicha yondashuvni tanlab olish lozim. Qonunchilik me'yorlari kreditorga o'z ixtiyoriga ko'ra sudgacha hal qilish tusidagi choralarni ko'rishga, sud instansiyalariga sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza bilan yoki qarzni undirish to'g'risida da'vo arizasi bilan bevosita murojaat qilishni tanlash imkoniyatini ham ko'zda tutadi.

Uchinchidan qarzni undirishning tanlangan strategiyasiga (talabnomani qarzdorga yuborish, sudga murojaat qilish uchun hujjatlarni tayyorlash, majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish va h.k.) muvofiq amalga oshiriladigan qarzni so'ndirishga qaratilgan aniq

harakatlarni amalga oshirish orqali mavjud chigallikni hal etish yoki uni yumshatish choralarini ko'rish lozim[37].

Qonunchilik bilan belgilanishicha, vujudga kelgan paytdan boshlab 90 kun o'tgan debitorlik qarzi muddati o'tib ketgan debitorlik qarzi deb tan olinadi.[38] Korxonada buning mavjudligi uning mansabdor shaxslariga 10 dan 15 EKIH miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.[39]

Binobarin, muddati o'tgan debitorlik qarzi korxona boshqaruvchilariga ko'p muammolar keltirishi mumkin.

Qayd qilish lozimki, belgilangan muddatlarning o'tishi kontragent tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan paytdan boshlanadi. Binobarin, muammoni hal qilish uchun taraflar shartnomaviy majburiyatlarni bajarish muddatlarini uzaytirish uchun qo'shimcha kelishuvni rasmiylashtirishlari Yetarli bo'ladi. Qarzdorga nisbatan birdaniga sud muhokamasi tashabbusi bilan chiqish va unga nisbatan majburiy undiruv choralarini qo'llash umuman shart emas.

Yuzaga kelgan majburiyatlarni uzoq vaqt va zo'r berib undirishga harakat qilishdan yoki bu harakatlarning befoyda deb tan olgan holda qarz majburiyatlarini bekor qilishdan ko'ra, uni vujudga kelishini oldini olgan maqbul hisoblanadi. Ya'ni qarzdorlik haqida ushbu qarzdorlikning yuzaga kelgandan keyin emas, balki yuzaga kelgunga qadar qayg'urgan maqbul hisoblanadi. Buning uchun nimalar qilish lozim. Avvalo kontragent bilan tegishli shartnomani rasmiylashtirish bosqichining o'zidayoq taraflar majburiyatlarining aniq miqdorlari va majburiyatlarni ta'minlash choralarini ko'zda tutgan holda amalga oshirish mumkin. Bu shartlar qarzdorlik vujudga kelgan taqdirda uni so'ndirishning qo'shimcha kafolati bo'ladi.

Debitorlar va kreditorlar bizning strategik hamkorlarimiz hisoblanadi. Ularga nisbatan muomalada qonuniy va ijtimoiy

---

37 https://www.norma.uz/bizning_sharhlar/debitorlik_qarzi_undirish_mumkin_emas_kechib_yuborilsin

38 *Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Халқ хўжалигида ҳисоб-китоблар ўз вақтида ўтказилиши учун корхона ва ташкилотлар раҳбарларининг масъулиятини ошириш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида" 12.05.1994 йилдаги ПФ-1154-сон Фармони 2-банди*

39 *Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 175-моддаси.*

normalardan kelib chiqqan holda harakat qilish lozim. Hech kim o'z hamkorlari bilan munosabatni buzishni xohlamaydi. Shu sababli debitorlik va kreditorlik majburiyatlarni tahlil etishda avvalo kontragentlarning tarkibiga va ularning doimiy faoliyat hamkorligidagi tarixiga muhim ahamiyat qaratish lozim. Avvalo, kontragentlar bilan aloqada qarzdorlikning yuzaga kelish sabablarini o'zidan va undan keyingina hamkoridan izlash lozim.

Qarzdorlik nafaqat iqtisodiy munosabatlarni, balki jamiyat hayotini, ijtimoiy munosabatlarni ham chigallashtiradi. Korxonaning jismoniy va huquqiy shaxslar bilan bo'ladigan munosabatlari alohida olingan subyektlarning muammosi emas, balki butun iqtisod va jamiyatning ham muammosi hisoblanadi. Shu sababli, ularning yuzaga kelishI, muddatlarining cho'zilishi, oqlanishi, himoyalanishi kabi masalalarga doimo muhim e'tibor qaratish lozim. Qarzdorlikning oshib ketishi o'z navbatida korxonalarning moliyaviy holatiga, barqarorligiga, to'lovga qobilligiga ta'sir etadi. Natijada korxonaning yashovchanligi, hayotiyligi qiyinlashadi.

Debitorlik majburiyatlari deganda – qarshi tomonning (ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari, xodimlar, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar, byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urta badallari bo'yicha, ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlari bo'yicha) korxonaga to'lashi lozim bo'lgan muddatli majburiyatlari nazarda tutiladi.

Kreditorlik majburiyatlari deganda – qarshi tomonga korxonaning to'lashi lozim bo'lgan (mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga, ajratilgan bo'linmalarga, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga, kechiktirilgan daromadlar, majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar, boshqa kechiktirilgan majburiyatlar, olingan bo'naklar, byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz, sug'urtalar bo'yicha qarz, maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz, ta'sischilarga bo'lgan qarzlar, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz, qisqa muddatli bank kreditlari, qisqa muddatli qarzlar, uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi va boshqa kreditorlik qarzlari) majburiyatlari nazar tutiladi.

Majburiyat bu muayyan fuqarolik huquqiy munosabatidan iborat bo'lib, unga amal qilishi orqali bir shaxs (qarzdor) ikkinchi shaxsga kreditor foydasiga ma'lum bir harakatni bajarishi, mol-mulkni topshirishi, ishni bajarishi, xizmat ko'rsatishi, pul to'lashi yoki biror harakatni bajarishdan tiyilishi zarur bo'lgan holatga aytiladi.[40]

Majburiyatlar shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi yoki vujudga keladi.

Majburiyatlar xo'jalik shartnomalari bandlariga to'la amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi.

Taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuv *xo'jalik shartnomasi* deyiladi.

Qarzdorliklar xo'jalik yurituvchi subyekt mansabdor shaxsining aybi bilan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan, uning tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'lari va boshqa mol-mulki maqsadga nomuvofiq foydalanilgan, to'lov intizomi buzilgan, xo'jalik yurituvchi subyekt bankrotlikka duchor qilingan yoki shartnoma munosabatlari sohasida boshqa qoidabuzarliklar sodir etilgan taqdirda yuzaga keladi.

Debitor va kreditor so'zlari ma'nosini ko'payish va kamayish, qo'shish va chegirish, kirim va chiqim ma'nosida qarash mumkin. Uning nomlanishiga asos qilib balansning aktiv va passiv qismlarga, hisobvaraqalarining aktiv va passiv turlarga tarkiblanishi asos qilib olingan.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil etishda *tahlil mazmunini* majburiyatlarni hajmi, tarkibi, vujudga kelish davri bo'yicha o'rganish, majburiyatlarining aylanuvchanligi, tahlikali majburiyatlarning himoyalanganlik darajasini baholash, majburiyatlarning yuzaga kelishi

[40] **Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 234-моддасида**

va ularning muddatini o'tkazib yuborilish sabablarini o'rganish, majburiyatlar balansini tuzish, majburiyatlarning moliyaviy holatga ta'sirini baholash tashkil etadi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tahlilining *vazifalari* qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aniq, to'liq va o'z vaqtida pul mablag'lari va ularning harakati yuzasidan aniq hisob-kitoblarning yo'lga qo'yilganligini baholash;
- hisob-kitoblarning va to'lov intizomiga qat'iy rioya qilinganlik holatini baholash;
- debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining (qarzlarining) turlari, to'lov muddatlari va asoslanganligi bo'yicha tarkibini aniqlash;
- muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari holatiga, ularning jami majburiyatlar tarkibidagi salmog'iga baho berish;
- tovarlarni kreditga sotish, hisob-kitoblarning turli shakllari bo'yicha yuzaga kelgan majburiyatlarni baholash;
- bank kreditlari va qarzlaridan maqsadli foydalanish, ular bo'yicha majburiyatlarning joriy qismining qoplanishi yuzasidan holatini o'rganish;
- mahsulot (tovarlar, ish va xizmat)larni xorijga sotish bo'yicha majburiyatlarning yuzaga kelishi va ularning oqlanishi yuzasidan korxonadagi (hisob-kitoblarning shakli, valyuta kurslarining o'zgarishlariga va h.k. ta'sirida) joriy va istiqboldagi tahlikalarni baholash.

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar moliyaviy hisobotning birinchi shakli "Buxgalteriya balansi" to'g'risidagi hisobotdan, buxgalteriya balansiga ilovadan hamda balansning tegishli qatorlari bo'yicha qaydlar, izohlar va tushuntirishlardan, "Korxonaning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi" statistik hisobot shakllaridan olinadi. Shuningdek, ichki moliyaviy tahlilda bosh kitob, hisob reestrlaridan, qarzdorlik vedemostlari, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari yuzasidan dalolatnomalar va boshqa manbalardan foydalaniladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bevosita korxona bilan qarshi tomon o'rtasida bo'ladigan o'zaro hisob-kitoblardan kelib

chiqadi. Ularning yuzaga kelishi yuzasidan quyidagi sabablarni ko'rsatish mumkin:

- qarzdorlikning yuzaga kelishidagi eng muhim sabab bu – xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lov layoqatiga ega emasligi, moliyaviy holatning yomonligidir. Debitor va kreditor qarzdorlik, ular hajmining o'sib borishi, to'lov muddatlarining cho'zilib ketishi aktivlar va ularning likvidligidan pastligi bilan izohlanadi;

- shartnomaviy munosabatlarga to'liq rioya qilmaslik ham debitor va kreditor qarzdorlikning ortishiga olib keladi va tashkiliy sabablardan bittasidir;

- mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotish yuzasidan pul mablag'lari va o'zaro hisob-kitoblarning mulkka bo'lgan egalik huquqining boshqa birovga o'tishi bilan bog'lanmaganlik sharti majburiyatlar yuzaga kelishining muhim sabablaridan biridir;

- hisob-kitoblar, qarzdorlikni tartibga solishdagi qat'iy me'yorlarni ishlab chiqarish, tijorat va moliya faoliyatining zamonaviy talablariga va shakliga mos emasligi ham qarzdorlikni oshishiga sabab bo'lmoqda. Ya'ni, qarzdorlikni yuzaga kelishining o'zigina emas, balki uni undirish yuzasidan korxona yo'l qo'yadigan xarajatlar summasi tobora oshib ketmoqda;

- qarzdorlikning oshishi va ularni to'lash muddatlarining tobora cho'zilib ketishining asl sabablaridan biri bu jismoniy va huquqiy shaxslarda qarzdorlik madaniyatining yo'qligi hamdir. Qarzdorlikni so'ndirish imkoniyatlari bo'lgan holda, uni ortga surish, kechiktirish, to'lamaslikka afsuski ko'pchilikda moyillik kuchli.

8.2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining shakllanishi

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil etishda ularning shakllanishiga, qarzdorlikning o'zgarishiga, qarzdorlikning muddati o'tgan, uzaytirilgan qismiga muhim e'tiborni qaratish lozim.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining katta summada shakllanishi korxona mablag'larining immobilizatsiyasi, oborotdan chiqib ketishiga,

likvidlikning tushishiga, moliyaviy ahvolning qiyinlashishiga sabab bo'ladi. Muddati o'tgan, uzaytirilgan debitorlik va kreditorlik qarzdorligi ayniqsa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari o'zaro hisob-kitoblarda mahsulot (tovarlar, ish va xizmat)larni sotilgan qatorga kiritish va ular bo'yicha to'lovlarning amalga oshirishning turli hisobot sanalariga tushishidan ro'y beradi. Agarda kelishilgan muddatlar yoki qonunchilikda belgilangan muddatlar oshib ketmasa, ularning yuzaga kelishi hech qanday salbiy oqibatlar olib kelmaydi.

Korxonada debitorlik va kreditorlik qarzlarining bitta korxonada yuzaga kelishi faqat uning o'zigagina jarayonlarni murakkablashtirmaydi, balki qarshi tomonlar bilan bog'langan butun bir tizimdagi holatni ham izdan chiqishiga olib keladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini haqiqiy miqdorini bilish uchun ularni inventarizatsiyalash zarur. Inventarizatsiya natijalari bo'yicha o'zaro hisob-kitoblar saldosini tasdiqlaydigan solishtirish dalolatnomalari yoki xatlar bilan rasmiylashtiriladi.

O'tkazilgan inventarizatsiyalar soni va natijalari, shuningdek, ularni o'tkazmaslik sabablari yillik moliyaviy hisobotga ilova qilinadigan tushuntirish xatida aks ettirilishi kerak.[41]

"Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'iga ko'ra buxgalteriya balansida debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tarkibining quyidagi qatorlari tarkiblanadi.[42]

---

[41] Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2003 йил 24 январда 1209-сон билан рўйхатга олинган Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2002 йил 27 декабрдаги 140-сон буйруғи Молиявий ҳисобот шаклларини тўлдириш бўйича қоидалар

[42] "Молиявий ҳисобот шакллари ва уларни тўлдириш бўйича қоидаларни тасдиқлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг буйруғи 2002 йил 27-декабр 140-сон

Debitorlik majburiyatlarining shakllanish qatorlari[43]

Ko‘rsatkichlar	Balans satri	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi (+,-)
Debitorlar, jami (satr 220+240+250+260+270+280+290 +300+310)	210	459 586 597	468 253 903	8 667 306
shundan: muddati o‘tgan	211	61 242 836	24 341 057	-36 901 779
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220	123 172 327	148 701 321	25 528 994
Ajratilgan bo‘linmalarning qarzi (4110)	230	0	0	0
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzi (4120)	240	195 601 703	197 055 308	1 453 605
Xodimlarga berilgan bo‘naklar (4200)	250	307 414	202 706	-104 708
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar (4300)	260	92 643 705	103 815 079	11 171 374
Byudjetga soliq va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4400)	270	31 126 342	12 441 892	-18 684 450
Maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4500)	280	5 788 131	151 843	-5 636 288
Ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi (4600)	290	0	0	0
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzi (4700)	300	769 100	666 713	-102 387
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310	10 177 875	5 849 041	-4 328 834

Korxonada debitorlik majburiyatlari davr boshiga nisbatan quyidagi o‘zgarishlarga ega bo‘lgan. Jami debitorlik majburiyatlari davr boshiga nisbatan 8 667 306 ming so‘mga ortgan. Shundan: xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi) 36 901 779 ming so‘mga, xodimlarga berilgan bo‘naklar (4200) 104 708 ming

[43] “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ нинг йиллик молиявий хисоботлари. 2015 йил якунлари бўйича

so‘mga, byudjetga soliq va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4400) 18 684 450 ming so‘mga, maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4500) 5 636 288 ming so‘mga, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzi (4700) 102 387 ming so‘mga, boshqa debitorlik qarzlari (4800) 4 328 834 ming so‘mga kamaygan.

Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarning qarzi (4120) 1 453 605 ming so‘mga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar (4300) 11 171 374 ming so‘mga ortganligini ko‘rish mumkin.

Kreditorlik majburiyatlarining shakllanish qatorlari

Ko‘rsatkichlar	Balans satri	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi (+,-)
Joriy majburiyatlar, jami (satr 610+630+640+650+660 +670+680+690+700+710+720+730+740+750+760)	600	654 802 314	674 942 829	2 0 140 515
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr 610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)	601	623 266 697	651 211 265	27 276 076
shundan: muddati o‘tgan joriy kreditorlik qarzlari	602	26 935 189	18 671 676	8 263 513
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	610	139 361 433	132 315 373	7 046 060
Ajratilgan bo‘linmalarga qarz (6110)	620	0	0	0
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga qarz (6120)	630	91 925 580	160 152 370	68 226 790
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640	18 722	179 635	160 913
Soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650	0	0	0
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	660	0	0	
Olingan bo‘naklar (6300)	670	309 086 582	247 864 791	-61 221 791
Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz	680	8 084	19	6 968

(6400)		129	262 500	476
Sug'urtalar bo'yicha qarz (6510)	690	0	0	0
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520)	700	18 646 984	25 615 460	11 178 370
Ta'sischilarga bo'lgan qarzlar (6600)	710	0	0	0
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700)	720	40 920 696	43 590 218	32 669 522
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730	28 324 178	21 397 333	-6 926 845
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840)	740	3 192 717	2 154 596	-1 038 121
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750	0	0	0
Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900)	760	15 241 293	22 410 553	7 169 260

Korxonada joriy majburiyatlar davr boshiga nisbatan 20 140 515 ming so'mga ortgan. Jumladan, tarkibi bo'yicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000) 7 046 060 ming so'mga, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga qarz (6120) 68 226 790 ming so'mga, kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230) 160 913 ming so'mga, byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400) 6 968 476 ming so'mga, maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520) 11 178 370 ming so'mga, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700) 32 669 522 ming so'mga, boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900) 7 169 260 ming so'mga ortgan. Olingan bo'naklar (6300) 61 221 791 ming so'mga, qisqa muddatli bank kreditlari (6810) 6 926 845 ming so'mga, qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840) 1 038 121 ming so'mga davr boshiga nisbatan kamaygan.

8.3. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibi va muddati bo'yicha tahlili

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibi deganda ularning yuzaga chiqish qatorlari tushuniladi. Qatorlarning yagona tarkibini

buxgalteriya balansining tegishli qatorlariga mos ravishda tuzib chiqish mumkin.

Debitorlik qarzlari: xaridor va buyurtmachilarning qarzi, ajratilgan bo'linmalarning qarzi, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi, xodimlarga berilgan bo'naklar, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar, byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlari, maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari, ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi va boshqa debitorlik qarzlari.

Kreditorlik qarzlari: mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga qarz, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar, olingan bo'naklar, byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz, sug'urtalar bo'yicha qarz, maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz, ta'sischilarga bo'lgan qarzlar, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz va boshqa kreditorlik qarzlari.

Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik tahlilida qarzlarning tarkibi, muddati, hajmigagina emas, balki ularning balansiga ham muhim ahamiyat qaratiladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibi bo'yicha tahlili

Ko'rsatkichlar	Balans satri	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi
Debitorlar, jami (satr 220+240+250+260+270+280+290 +300+310)	210	459 586 597	468 253 903	8 667 306
shundan: muddati o'tgan	211	61 242 836	24 341 057	-36 901 779
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220	123 172 327	148 701 321	25 528 994
Ajratilgan bo'linmalarning qarzi (4110)	230	0	0	0
Sho'ba va qaram xo'jalik	240	195	197	1 453

jamiyatlarning qarzi (4120)		601 703	055 308	605
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200)	250	307 414	202 706	-104 708
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)	260	92 643 705	103 815 079	11 171 374
Byudjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400)	270	31 126 342	12 441 892	-18 684 450
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)	280	5 788 131	151 843	-5 636 288
Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600)	290	0	0	0
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi (4700)	300	769 100	666 713	-102 387
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310	10 177 875	5 849 041	-4 328 834
Kreditorlik majburiyatlari tarkibi				
Joriy majburiyatlar, jami (satr 610+630+640+650+ 660+670+680+690+700+710+720+730+740+750+760)	600	654 802 314	674 942 829	2 0 140 515
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr 610+ 630+650+670+680+690+700+710+720+760)	601	623 266 697	651 211 265	27 276 076
shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlari	602	26 935 189	18 671 676	8 263 513
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	610	139 361 433	132 315 373	7 046 060
Ajratilgan bo'linmalarga qarz (6110)	620	0	0	0
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga qarz (6120)	630	91 925 580	160 152 370	68 226 790
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640	18 722	179 635	160 913
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650	0	0	0
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	660	0	0	0

Olingan bo'naklar (6300)	670	309 086 582	247 864 791	-61 221 791
Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400)	680	8 084 129	19 262 500	6 968 476
Sug'urtalar bo'yicha qarz (6510)	690	0	0	0
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520)	700	18 646 984	25 615 460	11 178 370
Ta'sischilarga bo'lgan qarzlar (6600)	710	0	0	0
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700)	720	40 920 696	43 590 218	32 669 522
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730	28 324 178	21 397 333	-6 926 845
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840)	740	3 192 717	2 154 596	-1 038 121
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750	0	0	0
Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900)	760	15 241 293	22 410 553	7 169 260
Debitorlik va kreditorlik qarzlarining farqi		**-163 680 100**	**-182 957 362**	**-19 277 262**
Qarz balansi		623 266 697	651 211 265	**27 944 568**

Korxonada hisobot davri oxiriga qarz balansi 651 211 265 ming so'mga teng bo'lgan. Shundan: 468 253 903 ming so'mi debitorlik majburiyatlari, 651 211 265 ming so'mi kreditorlik majburiyatlaridir. Kreditorlik majburiyatlarining debitorlik majburiyatlarining ortgan qismi 182 957 362 ming so'mni tashkil qilgan. Hisobot davri boshiga debitorlik va kreditorlik majburiyatlari orasidagi farq 163 680 100 ming so'mni tashkil qilgan. Debitorlik kreditorlik balansi 623 266 697 ming so'mga teng bo'lgan. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansi davr boshiga nisbatan 27 944 568 ming so'mga ortgan.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari tarkibida muddati o'tgan, to'lov muddati kelgan va to'lov muddati o'tmagan majburiyatlarni alohida tarkiblash lozim.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining muddati o'tgan sifatida tan olish tartiblari qonunchilik normalari asosida belgilanadi.

Korxona va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini mustahkamlash, yetkazib berilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun iste'molchilarning o'z vaqtida hisob-kitob qilishlarini ta'minlash, xalq xo'jaligida to'lov intizomining ahvoli uchun rahbarlarning mas'uliyatini oshirish maqsadida qabul qilingan "Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-1154 sonli 1995-yil 12-maydagi Prezident farmonida belgilanishicha, barcha mulkchilik shakllaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iste'molchilar va buyurtmachilarga, agar ular yetkazib beriladigan (bajariladigan ishlar, xizmatlar) qiymatining kamida 15 foizini oldindan to'lamasalar, mahsulot jo'natishi, ishlarni bajarishi va xizmatlar ko'rsatishi ta'qiqlanishi belgilangan.

Mazkur farmonga ko'ra, tovarlar amalda jo'natilgan, ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilgan kundan boshlab to'qson kun o'tgandan keyin, yetkazib berilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun mablag'lar kelib tushmaganligi muddati o'tib ketgan debitorlik qarzi deb hisoblanadi.

Muddati o'tib ketgan debitorlik qarzi mavjud bo'lgan taqdirda barcha mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning rahbarlariga, shuningdek, mazkur korxonalarning bosh buxgalterlariga intizomiy choralar, hatto jinoiy javobgarlikka tortish choralari qo'llanishi lozimligi qayd etiladi.

Hukumat qarori bilan muddati uzaytirilgan debitorlik va kreditorlik qarzlariga, respublika tashqarisidagi hamda korxona faoliyatiga aloqador bo'lmagan sabablar tufayli vujudga kelgan qarzlar summasi albatta bundan mustasno hisoblanadi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining muddat bo'yicha tahlili

Ko'rsatkichlar	Balans satri	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi,+,-
Debitorlar, jami (satr 220+240+250+ 260+270+280+290+300+ 310)	210	459 586 597	468 253 903	8 667 306
shundan: muddati o'tgan	211	61 242 836	24 341 057	-36 901 779
Joriy majburiyatlar, jami (satr 610+ 630+640+650+660+670+ 680+690+700+ 710+720+730+740+750+ 760)	600	654 802 314	674 942 829	20 140 515
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr 610+630+650+670+680+ 690+700+710+720+760)	601	623 266 697	651 211 265	27 276 076
shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlari	602	26 935 189	18 671 676	8 263 513

Korxonada debitorlik majburiyatlarining joriy qismi 468 253 903 ming so'mni tashkil qilgan. Ushbu majburiyat hisobot davri boshiga 459 586 597 ming so'mga teng bo'lgan. Davr boshiga nisbatan o'zgarish 8 667 306 ming so'mga ortgan. Debitorlik majburiyatlari tarkibida muddati o'tgan majburiyatlar hajmi hisobot davri boshiga 61 242 836 ming so'mni, hisobot davri oxiriga 24 341 057 ming so'mga teng bo'lgan. Mutlaq o'zgarish 8 667 306 ming so'mga teng bo'lgan. Ya'ni hisobot davri boshiga nisbatan muddati o'tgan majburiyatlar summasi shunchaga ortgan.

Joriy majburiyatlarning davr boshiga nisbatan o'zgarishi 20 140 515 ming so'mga ortganligini ko'rish mumkin. Shundan kreditorlik majburiyatlari hajmi hisobot davri boshiga nisbatan 27 276 076 ming so'mga ortgan. Joriy majburiyatlar tarkibida muddati o'tgan

majburiyatlar hajmi hisobot davri boshiga 61 242 836 ming so'mni, hisobot davri oxiriga 24 341 057 ming so'mni tashkil etgan. Muddati o'tgan majburiyatlar hajmi hisobot davri boshiga nisbatan 36 901 779 ming so'mga kamayganligini ijobiy baholash mumkin.

8.4. Qarzdorlik dinamikasining natijaviy va samaradorlik ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlili (qarzlarning aylanuvchanligi va qoplanuvchanligi tahlili)

Foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlar, xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlarini to'g'ri boshqarish orqali pul mablag'lari va pul ekvivalentlarini hosil qilish qobiliyatiga, uning muddati va aniqligiga baho berishni talab etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning debitorlik va kreditorlik qarzlari yuzasidan sodir bo'lgan o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish, davr mobaynida ularning hajmi, muddati, so'ndirilishi, aylanuvchanligi bo'yicha real holatni o'rganishni talab etadi.

Qarzdorlik korxonaning moliyaviy holatini baholashda eng murakkab masala hisoblanadi. Negaki, uning hal etilishi doimo ham korxonaning o'z ixtiyorida emas. Ayniqsa, debitorlik majburiyatlari va ularning undirilishi, muddatlarga amal qilinishi, qarzdorlik bo'yicha yuzaga keladigan qo'shimcha majburiyatlarning paydo bo'lishi korxona rahbariyatining sa'y-harakatlari bilangina amalga oshadigan oddiygina jarayon emas. O'z navbatida debitorlik majburiyatlaridagi holat korxonaning qarshi tomon oldidagi, kreditorlik qarzlarining ham to'lanishiga, ularning tizimli algoritmiga ta'sir etadi. Negaki, debitorlik va kreditorlik qarzlari bu faoliyatning ikki qirrasi ularning bittasidagi buzilish ikkinchisiga, ikkinchisidagi buzilish birinchisiga ta'sir qiladi. O'z navbatida bitta korxonada qarzdorlikning hal etilishi, tarmoq va bo'g'inda, yakunida mamlakatdagi to'lov intizomiga ham ta'sir etadi.

Qarzdorlikni so'ndirish albatta pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari yordamida amalga oshiriladi. Korxonada pul va pul

ekvivalentlarining asosiy oqimi bu operatsion faoliyatda kuzatiladi. O'z navbatida majburiyatlarning ham asosiy qismi ushbu faoliyat yuzasidan kelib chiqadi. Shu sababli, korxona rahbarlari doimo pul va pul ekvivalentlarini qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga tegishli qismini ushlab turishga harakat qiladilar. O'z navbatida ularning faoliyat va qarzdorlikdan ortiqcha qismini ushlab turish ham korxona uchun maqbul hisoblanmaydi. Negaki, bu aktivlarning oborotdan chetlanishiga sabab bo'ladi. Ortiqcha pul mablag'larini ularning ekvivalentlariga investitsiya qilish bu pul mablag'larini boshqarish bo'lib hisoblanadi.

Pul ekvivalentlari deganda ko'pincha qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar ham nazarda tutiladi. Moliyaviy qo'yilmalarning qisqa muddatli shakli pul ekvivalenti deb tan olinishi uchun, u belgilangan summadagi pul mablag'iga oson aylantiriladigan va qiymatidagi o'zgarishlar riski sezilarsiz darajada bo'lishi lozim.

Qarzdorlikning dinamikasi uning yillar bo'yicha o'zgarishlariga baho berishni ifoda etadi. Bu qarzdorlikning retrospektiv tahlili hisoblanib, kelajakdagi prognozlarini belgilash uchun ham zarur hisoblanadi. Qarzdorlikni muddat bo'yicha o'rganishda ularning muddati o'tgan majburiyatlar sifatida foyda va zararlarga olib borilishiga muhim ahamiyat qaratish lozim. Qarzlarni foyda va zararlarga olib borish ularning to'la nazorat qatoridan chiqarilishini anglatmaydi. So'ndirilgan qarzlar albatta balansdan tashqari hisobvaraqlarida 5 yilga qadar saqlanishi lozim.

Debitorlik majburiyatlarini qiymat ifodasida o'rganish doimo ham korxona moliyaviy ahvoli haqida aniq xulosalar chiqarish uchun yetarli bo'lmaydi. Shu sababli, bu jarayonlarni samaradorlik va natijaviylik ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liqlikdagi nisbiy ifodalariga ham baho beriladi. Bunday ko'rsatkichlar sifatida debitorlik va kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentlari o'rganiladi va tahlil qilinadi.

Debitor va kreditor qarzdorlikni o'rganishda aylanuvchanlikning ikki jihatiga muhim ahamiyat qaratiladi.

Aylanuvchanlik koeffitsiyentlari va ularning o'zgarishiga;

Aylanuvchanlik davri va ularning o'zgarishiga.

Debitor va kreditor qarzdorlikning aylanuvchanlik koeffitsiyentlari va aylanish davri ko'rsatkichlarini tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+,-)	O'sish sur'ati. %
Debitorlar, jami (satr 220+240+250+ 260+270+280+290+300+ 310)	459 586 597	468 253 903	8 667 306	101.9
shundan: muddati o'tgan	61 242 836	24 341 057	- 36 901 77 9	39.3
Joriy majburiyatlar, jami (satr 610 +630+640+650+660+670 +680+690+700+710+720 +730+740+750+760)	654 802 314	674 942 829	20 140 515	103.1
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr 610+630+650+670 +680 +690+700+710+720+760)	623 266 697	651 211 265	27 276 076	104.5
shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlari	26 935 189	18 671 676	-8 263 513	69.2
Sotishdan sof tushum	2 799 935 534	2 938 333 638	138 398 104	104.9
Debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti	6.09	6.27	0.18	102.9
Shundan: muddati o'tgan debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti	45.88	122.41	76.53	271.1
Debitorlik qarzlarining aylanish davri	59.11	57.41	1.70	96.6
Shundan: muddati o'tgan debitorlik qarzlarining aylanish davri	7.8	2.9	-4.9	37.1
Kreditorlik qarzlari aylanish koeffitsiyenti	4.49	4.51	0.02	100.4

Shundan: muddati o'tgan kreditorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti	107.65	163.22	55.57	152.3
Kreditorlik majburiyatlarining aylanish davri	80.1	79.8	-0.3	98.8
Shundan: muddati o'tgan kreditorlik qarzlarining aylanish davri	3.3	2.2	-1.1	66.6
Debitorlik va kreditorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyentlarining bog'liqligi (nisbati)	1.35	1.39	0.04	102.9

Korxonada debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi o'tgan yilga nisbatan 0.18 ga ortgan. Aylanish davri 1.70 kunga tezlashgan. Kreditorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsiyenti esa 0.02 ga ortgan. Aylanish davriyligi esa 0.3 kunga tezlashgan. Muddati o'tgan debitorlik majburiyatlarini undirish, muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlarini qoplash imkoniyatlari korxonada to'la mavjud.

8.5. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari

Qarz majburiyatlarini boshqarish ishida tizimli yondashuv zarur. Boshqaruvni to'g'ri yo'lga qo'yishda qarzdorlik mavjudligiga, uning miqdoriga va paydo bo'lgan sanasiga, qarzlarni undirish muddatlarini belgilashga, ularni so'ndirish usullarini tanlashga alohida ahamiyat qaratish lozim. Bunda, ko'proq qarzdor bilan muzokara olib borish yo'lini tanlash maqsadga muvofiqdir. Masalani uzil-kesil hal qilish imkoni bo'lmasa qonunda belgilangan boshqa choralarni ko'rishga kirishish lozim.

Debitorlik qarzlarini undirish oson jarayon emas. Bu uzoq vaqtni, qo'shimcha tashkiliy va moliyaviy xarajatlarni talab qiladi hamda doim bir necha biznes tuzilmalar manfaatlari to'qnashuvi bilan bog'liq

bo‘ladi. Bu albatta boshqaruvchidan uddaburonlik, shijoat va jiddiylikni talab etadi. Shu bilan birga qarzdorlikni hal etishda qonunchilik normalari bo‘yicha barcha bosqichlardan o‘tish ham doimo ijobiy natijalarga olib kelavermaydi.

Korxonalarda muddatida undirilmagan va undirish imkoni bo‘lmagan debitorlik, kreditorlik qarzlarini hisobdan chiqarish, so‘ndirish quyidagi usullarda amalga oshiriladi.

Birinchi usul: debitorlik qarzi umidsiz bo‘lgan, payti kelganda uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri korxonaning zarariga hisobdan chiqariladi.

Sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da’vo qilish muddati o‘tishi oqibatida uzish mumkin bo‘lmagan qarz umidsiz deb e’tirof etiladi.[44] Bunday qarz hisobdan chiqarilishi kerak.

Qarzdorlikning umumiy da’vo muddati uch yil. Ularni hisobdan chiqarish rahbarning qarori bilan amalga oshiriladi va buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

“Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq da’vo bildirish muddati o‘tgan debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko‘rilgan zararlar boshqa operatsion xarajatlar sifatida korxonaning davr xarajatlari tarkibiga kiradi.

Debitorlik qarzini hisobdan chiqarishning ikkinchi usuli – bu dargumon qarzlar bo‘yicha zaxira tashkil etishdir. Bunda belgilangan muddatda qoplanmagan va tegishli kafolatlar bilan ta’minlanmagan debitorlik qarzi dargumon qarz sifatida tan olinadi.

Korxonaning yuridik va jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblari bo‘yicha dargumon qarzlari summasiga zaxira tashkil qilinadi.[45]

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, har qanday usulda ham zararga hisobdan chiqarilgan qarz hisobdan chiqarilgan paytdan boshlab besh yil mobaynida qarzdorning mulkiy holati o‘zgargan taqdirda qarzni undirish imkoniyatini kuzatish uchun balansdan tashqari schyotida turishi zarur.

---

[44] Солиқ Кодексининг 22-моддаси

[45] Даргумон қарзлар бўйича захирани ташкил этиш ва фойдаланиш тартиби 21-сон БҲМСнинг 2-иловаси 216-бандида белгиланган.

Debitorlik qarzini hisobdan chiqarishning tanlangan usuli korxonaning hisob siyosatida aks etadi. Agarda korxona dargumon qarzlar bo'yicha zaxira tashkil etmoqchi bo'lsa, u holda uni shakllantirish va foydalanish tartibini ham hisob siyosatida ko'rsatishi kerak.

Debitorlik va kreditorlik qarzi muddatlarini o'tkazib yuborish hamda korxonalarning hisobvaraqlarida tegishli mablag'lar bo'lgan holda to'lovlarni amalga oshirishning belgilangan muddatlarini buzish mansabdor shaxslarga EKIHning 10 baravaridan 15 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.[46]

Mahsulot va tovar yetkazib berishda, shuningdek, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishda korxona xaridorlar va buyurtmachilardan bo'nak to'lovini (oldindan to'lovni) talab qilishi mumkin. Bu holatda bo'nak xaridorlar va buyurtmachilardan kelgusi to'lovlarning tushish kafolati va tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomaning bajarilishi kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bunday bo'naklar pul mablag'larini olgan korxona uchun mahsulot va tovarlar yetkazib berilgunga, shuningdek, ish bajarilgunga yoki xizmatlar ko'rsatilgunga qadar yoxud ilgari olingan bo'nak to'lovlari qaytarilgunga qadar majburiyatlar hosil qiladi.

Kreditorlik qarzini hisobdan chiqarish tartiblari soliq kodeksining 136-moddasi bilan tartibga solinadi.

Muddatida so'ndirilmagan kreditorlik qarzi quyidagi hollarda hisobdan chiqarilishi mumkin:

- da'vo bildirish muddati (qarz vujudga kelgan paytdan boshlab uch yil) o'tganda;
- kreditor korxona tugatilganda;
- majburiyatlar sudning yoki vakolatli davlat organining qaroriga binoan hisobdan chiqarilganda.

Hisobdan chiqarilgan kreditorlik qarzi summasi asosiy ishlab chiqarishdan olingan boshqa daromadlar tarkibiga kiritiladi. Kreditorlik

[46] Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 175-моддаси.

qarzini hisobdan chiqarish korxonaning boshqa daromadlariga kiradi hamda asosiy faoliyat turi uchun ko'zda tutilgan stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

Balansda debitorlik qarzini ushlab turish nihoyatda foydasiz, biroq undan aql bilan moliyaviy holatga ziyonsiz va qonunchilik doirasida xalos bo'lish kerak. Aniqlanishicha, amaliyotda kreditorlar uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Kontragent bilan o'zaro munosabatlar tarixi, qarz summasi, uning hosil bo'lish sanasi va boshqa omillarga bog'liq holda:

- qo'shimcha kelishuv yoki vaziyatga mos keladigan boshqa shartnoma tuzish yoki qarzni butunlay kechib yuborish;
- bank yoki soliq inspeksiyasiga murojaat qilish;
- qarzdorga talabnoma yo'llash yoki sudga qarzni undirish uchun ariza berish;
- qarzdorni bankrot deb e'tirof etish.

Yondashuvlarning turli-tumanligiga qaramay amalda, debitorlik va kreditorlik qarzlarini boshqarish iqtisodiyotning barcha bo'g'inlaridagi korxona va tashkilotlarda haliga qadar qiyinligicha qolmoqda. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining muddati o'tgan qismini jami majburiyatlar tarkibidagi salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Ularni hal qilishning amalda moliyaviy mexanizmlari mavjud qarzdorlikni ijobiy hal qilish imkonini bermayapti. Buning oqibatida korxonalarning moliyaviy ahvoli tobora yomonlashmoqda. Ularni moliyaviy sog'lomlashtirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlari samarasizligicha qolmoqda.

Korxonalarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi va ularni muddatli hal etish borasida amaldagi huquqiy normalarni takomillashtirish, kechiktirilgan qarzlar siyosatidan voz kechish, qo'llab quvvatlashning manzilli xaritalarini tuzish, rag'batlantirishning ta'sirchan birliklarini yo'lga qo'yish, hisob-kitob shakllarini kengaytirish, savdo va tijorat faoliyatida sug'urta xizmatlarini yo'lga qo'yish, zaxiralarni tashkil etishning mukammal tizimiga o'tish lozim deb o'ylaymiz.

Debitorlik qarzlarini boshqarishning maqsadi uning hajmini va tarkibini optimallashtirish, shuningdek, samarali kredit siyosatini qo'llash yuzasidan sotish hajmini rag'batlantirishdan iborat.

8.6. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari va ular yuzasidan rezervlar tahlili.

Amalda tovarlar jo'natilgan ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilgan kundan boshlab 90 kun o'tgandan keyin, yetkazib berilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun mablag'lar kelib tushmaganligi muddati o'tib ketgan debitorlik qarzi deb hisoblanadi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.[47]

Muddati o'tgan qarzdorlik tahlilida analitiklar nimalarga e'tibor berishi lozim?

Birinchidan: muddati o'tgan majburiyatlar yuzasidan avvalo axborotlarning aniqligi, ishonchligi va asosligiga ahamiyat qaratish lozim. Debitorlik va kreditorlik qarzlari muddati o'tgan majburiyat sifatida nazoratga olinadi qachonki, yuqorida qayd etilgan (3 oy yoki 90 kalendar kun) muddat o'tsa. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini balans qatorlari bo'yicha juda ko'p tarkibiy qatorlari guruhlanadi. Lekin ushbu tartib qarzdorlikning faqat mahsulot (tovar, ish va xizmat)larga tegishli bo'lgan qismiga tegishli. Ya'ni, xaridor va buyurtmachilardan majburiyatlar hamda mol yetkazib beruvchi va pudratchilardan qarz qatorlariga nisbatan qo'llaniladi. Negaki, qolgan majburiyatlarni undirish va to'lash tartiblari, ularni kechiktirish shartlari va talablari tegishli majburiyatlar bo'yicha qonunchilik normalarida aniq belgilab qo'yilgan. Masalan, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni to'lash tartibi va muddatlari Soliq kodeksida, mehnat haqi bo'yicha majburiyatlarni to'lash tartibi va muddatlari Mehnat kodeksi va kasaba uyushmalari bilan uch tomonlama kelishuv aktlarida,

[47]Президентнинг "Халқ хўжалигида ҳисоб-китоблар ўз вақтида ўтказилиши учун корхона ва ташкилотлар раҳбарларининг маъсулиятини ошириш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида" 12.05.1995 йилдаги ПФ-1154-сон Фармонининг 2-банди.

sug'urta bo'yicha majburiyatlarini to'lash tartiblari va muddatlari sug'urta qonunchiligi (ikki tomonlama shartnomalarda) aniq belgilab qo'yilgan.

Muddati o'tgan debitor va kreditor qarzdorlik korxonalarni umidsiz qarzlari sirasiga kiradi. Ularni undirish ehtimoli kamdan kam hollardagina kuzatiladi. Shu sababli umidsiz qarzlar bo'yicha boy berilgan imkoniyatlarni o'rnini qoplash maqsadida qarzdorlik yuzasidan zaxiralar tashkil etilishi tartibi belgilangan. Kuchli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti albatta bir turdagi korxonalarning iqtisodiy nochorlikka yuz tutishiga sabab bo'ladi. Xaridor va buyurtmachi sifatida doimiy hamkorlarning nochorlikka yuz tutishi va bankrotlikka uchragan korxonalarda qarzni undirishdan harakatlarini boshlashdan yoki davom ettirishdan ko'ra ushbu qarzlardan ba'zan uzil-kesil umidni uzish ham foydali hisoblanadi.

Umidsiz qarzlar yuzasidan zaxiralarni tashkil etishning albatta bitta manbasi mavjud u ham bo'lsa, korxonaning sof foydasidir. Umidsiz qarzlarni xarajatlar hisobiga shakllantirishga yo'l qo'yilmaydi.

Umidsiz qarzlar yuzasidan zaxiralarni shakllantirish tartibi va hajmi korxona mulkdorlari kelishuvi hamda belgilovi asosida hal etiladi.

Umidsiz qarzlar zaxirasini ishlatish oqlanish ehtimoli yo'qqa chiqarilgan va oqlanish ehtimoli kichik bo'lgan qarzdorliklar bo'yicha amalga oshiriladi. Agarda umidsiz qarzlar bo'lmagan, zaxira ishlatilmagan hollarda undagi mablag'lar korxona sof foydasiga qaytariladi va boshqa maqsadlarga ishlatiladi.

Xo'sh umidsiz qarz nima?

Umidsiz qarz – sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud ilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lmagan qarzdir.[48]

Korxonalar debitorlik qarzi bozor qiymatini baholash buxgalteriya hisobining milliy standartlariga ko'ra quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

[48] Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси, 22-модда

birinchidan, qarzdor tashkilotlar buxgalterlik hisoboti (Buxgalterlik balansi (1-shakl)), shuningdek, buxgalterlik balansiga ilova asosida debitorlik qarzi strukturasi va harakati tahlili amalga oshiriladi, keyin esa buxgalterlik hisobi registrlari va birlamchi hujjatlashtirish ma'lumotlari asosida aniq xo'jalik shartnomalari bo'yicha debitorlar kesimida debitorlik qarzi summalari inventarizatsiyadan o'tkaziladi. Inventarizatsiya natijalariga ko'ra debitorlik qarzi qarzdor tashkilotlar bo'yicha aniqlashtiriladi, uning umumiy summasidan undirib olish umidsiz qarzlar va muddati uch oydan ortiq qarzdorlik ajratiladi;

ikkinchidan, korxonalarning moliyaviy holatini baholash va balansning qoniqarsiz strukturasini aniqlash bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlar (va ularning o'lchov qiymatlari) asosida har bir debitorning moliyaviy ahvolini baholash o'tkaziladi.

Shunday qilib, qarzdorlikning umumiy hajmidan undirilishi umidsizlarni ajratishni va keyin debitor korxona moliyaviy holati: joriy likvidlik koeffitsiyentini hisoblash, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti va to'lovga qobillikni tiklash koeffitsiyentini tahlil qilishni nazarda tutiladi. Fikrimizcha, debitor korxonalar tahlili korxona to'lovga noqobil ekanligini ko'rsatsa, aynan turli nuqtayi nazardan korxonalar faoliyatini tavsiflovchi moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish kerak.

Muddati o'tgan majburiyatlarni tahlil etishda buxgalteriya balansiga ilova sifatida beriladigan muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrovkasi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Uning tuzilishi quyidagi tarkibiy birliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu rasshifrovka muddati o'tgan qarzdorlikka mavjud bo'lgan hollarda to'ldiriladi.

Muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrovkasi

N	Muddati o‘tgan qarzdorlikka ega bo‘lgan debitor va kreditorlar ro‘yxati	Muddati o‘tgan umumiy qarz	Tashkilotga bog‘liq bo‘lmagan sabablar bo‘yicha vujudga kelgan muddati o‘tgan qarzlar				
			jami	shu jumladan			
				Hukumat qarorlariga asosan oldindan haq to‘lamay jo‘natilgan (olingan) mahsulotlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzlar	Davlat resurslari va jamg‘armalaridan jo‘natish ko‘zda tutilgan xom ashyo va materiallar bo‘yicha o‘tkazilgan bo‘nak to‘lovlari summasi	Hukumat qarorlari bo‘yicha kechiktirilgan qarzlar	Qonunchilikka muvofiq da’volar bo‘yicha sud jarayonida ko‘rib chiqilayotgan yoki xo‘jalik sudi tomonidan kreditorlardan undirish to‘g‘risida qaror chiqqan qarzlar summasi
1	2	3	4	5	6	7	8
MUDDATI O‘TGAN DEBITORLIK QARZLARI							
1.	Muddati o‘tgan qarzdorlikka ega bo‘lgan debitorlar, jami	24 341 057	24 341 057	24 341 057			
2.	Respublika ichidagi muddati o‘tgan qarzlar, jami	24 341 057	24 341 057	24 341 057			
2.1.	shu jumladan: debitorlar nomi bo‘yicha	xxx					
2.2.	Ichki idoraviy muddati o‘tgan qarzlar, jami						

2.2.1.	shu jumladan: debitorlar nomi bo‘yicha						
3.	Respublikadan tashqaridagi muddati o‘tgan qarzlar, jami						
3.1.	shu jumladan: debitorlar nomi bo‘yicha						
MUDDATI O‘TGAN KREDITORLIK QARZLARI							
4.	Muddati o‘tgan qarzdorlikka ega bo‘lgan kreditorlar, jami	18 671 676	18 671 676		x	18 671 676	
5.	Respublika ichidagi muddati o‘tgan qarzlar, jami	18 671 676	18 671 676		x	18 671 676	
5.1.	shu jumladan: kreditorlar nomi bo‘yicha	xxx			x		
5.2.	Ichki idoraviy muddati o‘tgan qarzlar, jami				x		
5.2.1.	shu jumladan: kreditorlar nomi bo‘yicha				x		

6.	Respublikadan tashqaridagi muddati o'tgan qarzlar, jami				x		
6.1.	shu jumladan: kreditorlar nomi bo'yicha				x		

Korxonada muddati o'tgan debitorlik majburiyatlari joriy davrga 24 341 057 ming so'mni, muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlari 18 671 676 ming so'mni tashkil qilgan. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'liq respublika ichkarisidagi majburiyatlar qatoriga kiradi. Majburiyatlar asosan korxonada bo'lmagan sabablar tufayli yuzaga kelmoqda.

"O'zbekiston temir yo'llari" DATKning yillik hisoboti

Buxgalteriya balansi

Aktiv va passiv	Satr kodi	2013	2014	2015
AKTIV				
I. Uzoq muddatli aktivlar				
Asosiy vositalar:				
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	010	7 837 564 886	7 213 786 827	5 911 307 468
Eskirish summasi (0200)	011	2 839 410 062	2 356 991 690	1 830 177 697
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 010 - 011)	012	4 998 154 824	4 856 795 137	4 081 129 771
Nomoddiy aktivlar:				
Boshlang'ich qiymati (0400)	020	1 439 850	1 154 821	1 105 257
Amortizatsiya summasi (0500)	021	806 352	555 174	305 614
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 - 021)	022	633 498	599 647	799 643
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr 040+050+060+070+080), shu	030	198 827 699	96 337 961	86 764 547

jumladan:				
qimmatli qog‘ozlar (0610)	040	50 499 233	33 158 730	25 772 990
Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050	2 134 992	1 878 656	1 745 115
qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060	125 505 928	45 096 922	45 124 552
Chet el kapitali mavjud bo‘lgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	070	5 626 103	4 844 064	2 333 935
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080	15 061 443	11 359 589	11 787 955
O‘rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090	5 433 299	6 096 507	5 557 874
Kapital qo‘yilmalar (0800)	100	3 013 143 481	1 573 048 668	1 221 413 180
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)	110	2 876 364	3 196 364	1 062 000
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120	17 247 627	10 947 515	8 249 416
I bo‘lim bo‘yicha jami (satr 012+022+030+090+ 100+110+120)	130	8 236 316 792	6 547 021 799	5 404 976 431
II. Joriy aktivlar				
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr 150+160+ 170+180), shu jumladan:	140	740 778 959	629 083 577	552 021 663
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150	661 537 636	586 408 481	506 780 875
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160	52 256 325	28 830 731	21 527 452
Tayyor mahsulot (2800)	170	2 576 252	1 387 641	52 100
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180	24 408 746	12 456 704	23 661 236
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190	868 301 386	543 418 272	476 419 603
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200	0	0	0
Debitorlar, jami (satr	210	468 253	459 586	403 764

220+240+250+260+270+ 280+290+300+310)		903	597	180
shundan: muddati o'tgan	211	24 341 057	61 242 836	28 033 106
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220	148 701 321	123 172 327	118 241 157
Ajratilgan bo'linmalarning qarzi (4110)	230	0	0	0
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarning qarzi (4120)	240	197 055 308	195 601 703	172 422 333
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200)	250	202 706	307 414	231 742
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)	260	103 815 079	92 643 705	93 257 375
Byudjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400)	270	12 441 892	31 126 342	11 036 965
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)	280	151 843	5 788 131	25 073
Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600)	290	0	0	0
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi (4700)	300	666 713	766 100	8567 98
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310	5 849 041	10 180 875	7 692 737
Pul mablag'lari, jami (satr.330+340+350+360), shu jumladan:	320	126 836 535	118 019 899	88 298 309
Kassadagi pul mablag'lari (5000)	330	825	515	80 248
Hisoblashish schyotidagi pul mablag'lari (5100)	340	9 446 497	9 214 222	11 676 869
Chet el valyutasidagi pul mablag'lari (5200)	350	103 516 126	96 474 690	62 285 655
Boshqa pul mablag'lari va	360	13 873	12 330 642	14 255 537

ekvivalentlari (5500, 5600, 5700)		087		
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370	8 634 500	5 596 000	93 000
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380	3 476 418	3 345 157	2 580 980
II bo‘lim bo‘yicha jami (satr 140+190+200+210+ 320+370+380)	390	2 216 281 701	1 759 049 478	1 523 177 735
Balans aktivi bo‘yicha jami (satr.130+390)	400	10 452 598 493	8 306 071 271	6 928 154 166
PASSIV				
I. O‘z mablag‘lari manbalari				
Ustav kapitali (8300)	410	589 489 813	502 851 875	502 842 875
Qo‘shilgan kapital (8400)	420	0	0	0
Rezerv kapitali (8500)	430	3 994 786 936	3 503 930 275	2 530 421 353
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440	0	0	0
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450	217 931 857	624 715 984	911 392 606
Maqsadli tushumlar (8800)	460	1 731 511 300	1 009 043 887	790 280 656
Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar (8900)	470	0	0	0
I bo‘lim bo‘yicha jami (satr.410+420+430-440+450+460+470)	480	6 533 719 906	5 640 542 021	4 734 937 490
II. Majburiyatlar				
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr 500+ 510+520+530+540+550+560+570+580+590)	490	3 243 935 758	2 010 726 936	1 624 575 384
shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr 500+520+540+560+590)	491	0	0	0
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)	500	0	0	0

Ajratilgan bo‘linmalarga uzoq muddatli qarz (7110)	510	0	0	0
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz (7120)	520	0	0	0
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230)	530	0	0	0
Soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)	540	0	0	0
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290)	550	0	0	0
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar (7300)	560	0	0	0
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570	3 241 935 758	2 008 066 936	1 621 195 384
Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840)	580	2 000 000	2 660 000	3 380 000
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar (7900)	590	0	0	0
Joriy majburiyatlar, jami (satr 610+630+640 +650+660+670+680+690+700+ 710+720+730+740+750+760)	600	674 942 829	654 802 314	568 641 292
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr 610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)	601	651 211 265	623 266 697	547 697 671
shundan: muddati o‘tgan joriy kreditorlik qarzlari	602	18 671 676	26 935 189	31 537 061
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	610	132 315 373	139 361 433	167 088 297
Ajratilgan bo‘linmalarga qarz (6110)	620	0	0	0
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga qarz (6120)	630	160 152 370	91 925 580	40 518 194
Kechiktirilgan daromadlar	640	179 635	18 722	100 393

(6210, 6220, 6230)				
Soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650	0	0	0
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	660	0	0	0
Olingan bo‘naklar (6300)	670	247 864 791	309 086 582	249 665 190
Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6400)	680	19 262 500	8 084 129	11 095 990
Sug‘urtalar bo‘yicha qarz (6510)	690	0	0	0
Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6520)	700	25 615 460	18 646 984	25 823 131
Ta’sischilarga bo‘lgan qarzlar (6600)	710	0	0	0
Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarz (6700)	720	43 590 218	40 920 696	39 330 733
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730	21 397 333	28 324 178	18335714
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840)	740	2 154 596	3 192 717	2507514
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750	0	0	0
Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900)	760	22 410 553	15 241 93	14 176 136
II bo‘lim bo‘yicha jami (satr.490+600)	770	3 918 878 578	2 665 529 250	2 193 216 676
Passiv jami		10 452 598 493	8 306 071 271	6 928 154 166

9-BOB. MOLIYAVIY NATIJALAR VA RENTABELLIK TAHLILI

9.1.Moliyaviy natijalar, foyda va rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilining ahamiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalari.

9.2.Umumiy moliyaviy natijalar, ularning tarkibi, tuzilishi va ko'rsatkichlarning bir-biri bilan bog'liqligi.

9.3.Moliyaviy natija, foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini baholash va tahlil qilish yo'llari.

9.4.Xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatidan olingan daromadlari tahlili.

9.5.Marjinal foyda tahlili.

9.6.Mahsulot sotishdan ko'rilgan yalpi foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

9.7.Moliyaviy natijalar tarkibiga kiruvchi xarajatlarning turlari va ularning tavsifi.

9.8.Xarajatlarni baholash va tahlil qilish yo'llari. Xarajatlar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni hisoblash yo'llari.

9.9.Asosiy va umumxo'jalik faoliyati foydasi (zarari), ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llari.

9.10.Favqulodda foyda va zararlar tahlili.

9.11.Soliq to'langunga qadar foyda tahlili.

9.12.Byudjetga to'lovlar va ajratmalarning tahlili.

9.13.Soliq to'lovlari dinamikasi, ularning natijaviy ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlili.

9.14.Korxonalarda soliq yukini hisoblash yo'llari.

9.15.Sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

9.16.Rentabellik ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

9.17.Foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

9.1.Moliyaviy natijalar, foyda va rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilining ahamiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalari

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyat uzluksizligi, rivoji va taraqqiyotini ta’minlab beruvchi asosiy manba bu foyda hisoblanadi. Foyda nafaqat biznesni harakatga keltiruvchi kuch, balki uni istiqbolda raqobatdoshligini ta’minlashning, moliyaviy barqarorligini o‘stirishning ham zaruriy sharti hisoblanadi. Foydaga ishlash korxonaning yashovchanligini oshirishning, risklarga bardoshliligini ta’minlashning muhim vositasidir.

Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning, foyda va zararlarning shakllanish qatorlari bo‘yicha o‘zgarishlari baholanadi, natijaviy ko‘rsatkichlarning omilli tahlili o‘tkaziladi, imkoniyatlari o‘rganiladi, natijaviylikni yaxshilashning chora-tadbirlari belgilanadi. Shuningdek, korxonaning foydalilik darajasini xarakterlovchi rentabellik ko‘rsatkichi va uning omilli tahlili amalga oshiriladi.

Foyda yoki zarar – bu boshqa umumlashgan daromadning tarkibiy qismlaridan tashqari jami daromaddan xarajatlar chegirilganidan keyingi qolgan natijasidir.[49]

Jami daromad – bu davr mobaynidagi operatsiyalar va boshqa hodisalar natijasida kapitalda yuzaga keladigan o‘zgarishlardir. Jami umumlashgan daromad “foyda yoki zarar”ning hamda “boshqa umumlashgan daromad”ning barcha qismlarini qamrab oladi.[50]

Umumlashgan daromad – foyda va zararlarning barcha manbalaridan to‘plangan natijadir.



[49] БҲХС 1. Молиявий ҳисоботларни тақдим этиш
[50] БҲХС 1. Молиявий ҳисоботларни тақдим этиш

9.1-rasm. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning bir-biriga bog'liqligi

Aktivlar – subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir.

Daromad – aktivlarning kelib tushishi yoki ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishi shaklida iqtisodiy nafning hisobot davrida o'sish va ushbu o'sish kapital egalarining kapitalga qo'yilmalari bilan bog'liq bo'lmagan ko'payishidir.[51]

Daromad tushunchasi odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad va boshqa daromadlarni o'z ichiga oladi. Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad tadbirkorlik subyektining odatdagi faoliyati doirasida hosil bo'ladi va turlicha nomlanadi, shu jumladan sotishdan tushum, yig'imlar, foizlar, dividendlar va royaltilar.

Daromadni hisobga olishdagi asosiy masala bo'lib, ushbu daromad qachon tan olinishi kerakligini aniqlash hisoblanadi. Daromad kelgusi iqtisodiy naf tadbirkorlik subyekti tomonidan olinishi ehtimoli mavjud bo'lganida va ushbu naf ishonchli darajada baholanishi mumkin bo'lganda tan olinadi.

Xarajat – aktivlarning chiqib ketishi yoki kamayishi yoxud majburiyatlarning ortishidir.

Foyda – daromad va xarajatlar o'rtasidagi ijobiy farq.

Zarar – daromad va xarajatlar o'rtasidagi salbiy farqdir.

Mavzuning maqsadi – moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini, ularning «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»da ifodalanishini, har bir ko'rsatkichning aniqlanish yo'llarini, moliyaviy natijalarning umumlashgan ko'rsatkichlari tahlilini yoritishdan iborat.

Tahlil jarayonida ushbu bog'liqlikning murakkab tizimi o'rganiladi. Bu uning vazifasini to'g'ri belgilab olishni taqozo qiladi. Korxonaning

[51] МҲХСҚнинг "Молиявий ҳисоботларни тайёрлаш ва тақдим этишнинг концептуал асоси" БҲХСК томонидан 2001 йилда қабул қилинган. 2010 йил сентябрда БҲХСК Концептуал асосни Молиявий ҳисобот учун концептуал асос билан алмаштирди.

moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish vazifalari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy natijalarni ifodalovchi barcha ko'rsatkichlarning to'g'ri aniqlanganligini tekshirish;
- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning hisobot davridagi o'zgarishiga baho berish;
- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning har biriga ta'sir qiluvchi omillarni belgilash va ularni ta'sirini baholash;
- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning bir-biriga bog'liqligini, aloqadorligini, ularni sof foyda o'zgarishiga ta'sirini baholash;
- moliyaviy natijaviylik ko'rsatkichlarini mulkiy holat va samaradorlik bilan bog'liq jihatlarini baholash;
- rentabellik ko'rsatkichlariga baho berish va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil etish;
- foyda va rentabellikni oshirishning ichki imkoniyatlarini axtarib topish va chora-tadbirlarini belgilash.

«Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (OKUD bo'yicha 2-shakl) tahlilning asosiy axborot manbasi hisoblanadi. Shu bilan birga, tahlil jarayonida korxonaning «Buxgalteriya balansi» (1-shakl), «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» (4-shakl), «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot» (5-shakl), «Moliyaviy-iqtisodiy holat bo'yicha ma'lumotnoma» (2b shaklga 1 ilova) kabi hisobotlari, ma'lumotlari va hisob-kitoblari qo'llaniladi.

9.2. Umumiy moliyaviy natijalar, ularning tarkibi, tuzilishi va ko'rsatkichlarining bir-biri bilan bog'liqligi

Xo'jalik subyektlarining hisobot davridagi sof daromadi yoki zarari quyidagi elementlar asosida aniqlanadi:

- xo'jalik umumiy faoliyatidan olingan daromad yoki ko'rilgan zarar;
- favqulodda daromad (zarar);
- daromad solig'i to'langunga qadar umumiy moliyaviy natija (foyda yoki zarar);
- sof foyda.

Yalpi daromad xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatidan olingan daromadlarni o'z ichiga oladi. Asosiy faoliyatdan daromad mahsulot, ishlar, xizmatlar, tovar-moddiy zaxiralar, boshqa aktivlarni sotishdan, shuningdek' mukofotlar, foizlar va dividendlar, gonorarlar va xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatiga bog'liq bo'lgan rentadan olinishi mumkin.[52]

Xo'jalik yurituvchi subyekt asosiy bo'lmagan faoliyat natijasida oladigan daromadlari daromadni aniqlashga mos keladigan moddalarni o'z ichiga oladi.

Birjada muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlarni qayta baholash va boshqalar asosiy bo'lmagan faoliyat natijasida paydo bo'ladigan daromadlarga kiradi. Bunday daromadlar iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda ular haqidagi axborot foydali bo'lganligi sababli alohida qayd etiladi.

Soliqqa tortiladigan daromad (zarar) soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan hisobot davridagi daromad (zarar) summasini ifoda etadi.

Moliyaviy natijalar – xo'jalik yurituvchi subyektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir.[53]

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etish maqsadida faoliyat turlarini chegaralash yo'li bilan ko'rsatilishi mumkin.

Daromadlar va xarajatlarning xo'jalik yurituvchi subyektning ish natijalarini ko'rsatish imkoniyatini beradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, omonat egalarining xususiy sarmoyaga ulushlari daromad hisoblanmaydi, xususiy sarmoyaning egalari o'rtasida taqsimlanishi esa xarajat hisoblanmaydi.

Moliyaviy natijalarni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalasi eng muhim masala hisoblanadi. Bunda quyidagi talablarga amal qilinadi:

---

[52] МҲХС-1- Молиявий ҳисоботларни тақдим этиш.

[53] Молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим этиш учун концептуал асос Мазкур Концептуал асосга АВ 09.09.2016 й. 475-1-сон билан рўйхатга олинган Молия Вазирининг Буйругига мувофиқ ўзгартиришлар киритилган

- aktivlarning ko‘payishi va majburiyatlarning kamayishi bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lg‘usi iqtisodiy foydaning o‘lchangan ko‘payishi paydo bo‘lganda daromad moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks etadi. Daromadlarni tan olish aktivlarning ko‘payishi va majburiyatlarning kamayishini aks ettirish bilan bir vaqtda yuzaga kelishi lozim;

- xarajat aktivlarning kamayishi va majburiyatlarning ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lg‘usi iqtisodiy foydaning o‘lchangan kamayishi paydo bo‘lganda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks etadi. Xarajatlarni tan olish majburiyatlardagi ko‘payish yoki aktivlarning kamayishini aks ettirish bilan bir vaqtda yuzaga kelishi lozim.

Xarajatlarni belgilash mulkni, ishlab chiqarishni boshqarish hamda mahsulot sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va zararlar bilan bog‘liq. Ular odatda pul mablag‘lari, moddiy zaxiralar, inshootlar, uskunalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish, ishlatish shaklida bo‘lishi mumkin.

Zararlar ham iqtisodiy foydaning kamayganligini bildiradi va o‘z tabiatiga ko‘ra boshqa xarajatlardan farq qilmaydi. Zararlar boshqa aktivlarni sotishda yoki tabiiy ofatlar natijasida ham yuzaga kelishi mumkin.

1	Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija (Yamn)	=	Mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan kelgan sof tushum (St)	-	Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxi (Tn)

2	Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi (Mfmn)	=	YaMN	-	Davr xarajatlari (Dx)	+	Boshqa operatsion daromadlar (Bd)

3	Moliyaviy faoliyat natijasi	=	Moliyaviy faoliyatdan kelgan daromadlar	-	Moliyaviy faoliyatga ketgan

	(Mfn)		(Mfd)		xarajatlar (Mfx)

4	Tasodifiy (favqulodda) foyda yoki zarar (Tf) (Tz)	=	Tasodifiy (favqulodda) daromad (Td)	-	Tasodifiy (favqulodda) xarajat (Tx)

5	Soliq to'langunga qadar bo'lgan umumiy moliyaviy natija foyda (Yaf)	=	Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi (Mfmn)	+	Mfn	+	Tf

6	Sof foyda (Sf)	=	Soliq to'langunga qadar umumiy moliyaviy natija foyda (Yaf)	-	Soliqlar va ajratmalar (S)

7	Taqsimlanmagan foyda (Tmf)	=	Sof foyda (Sf)	-	Dividendlar (Dv)

9.2-rasm. Umumiy moliyaviy natijalar, ularning tarkibi, tuzilishi va ko'rsatkichlarning bir-biri bilan bog'liqligi

Moliyaviy natijaga daxldor bo'lgan elementlarning bog'liqligi yuzasidan analitiklar quyidagi qoidaning saqlanishiga muhim ahamiyat qaratishi lozim.

Moliyaviy natijaga daxldor birliklar va ularning uzviyligi

F_1/F_0		ST_1/ST_0		XK_1/XK_0		A_1/A_0		1
Sof foydaning o'sishi	>	Sotishdan tushumning o'sishi	>	Xususiy kapitalning o'sishi	>	Aktivlarning o'sishi	>	100
1. Aktivlar o'sishining sharti								
2. Moliyaviy salohiyatning o'sish sharti								
3. Iqtisodiy salohiyatning o'sish sharti								
4. Faoliyatning rivoji va taraqqiyotning sharti								

Analitiklar yuqoridagi bog'lanishlarda albatta "oltin qoida"ning saqlanishiga e'tibor qaratishlari lozim. Negaki, ushbu qoidaga amal etmasdan biznesning hayotiyligini, faoliyatning davomiyligini, iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlab bo'lmaydi.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJda moliyaviy natijaga daxldor birliklar va ularning uzviyligi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+;-)	O'sishi, %	Daxldorlik
Sof foyda	507 693 607	974 038 284	466 344 677	191.8	191.8 >154.0
Sotishdan sof tushum	3 362 225 550	5 180 801 340	1 818 575 790	154.0	154>130.7
Xususiy kapital	7 745 794 466	10 124 233 076	2 378 438 610	130.7	130.7<184.0
Aktivlar	13 198 104 658	24 276 893 065	11 078 788 407	184.0	184.0>100

Sof foyda daxldorlik darajasi sotishdan sof tushumdan nisbatan yuqori bo'lgan, sof tushumning xususiy kapitalga daxldorlik darajasi yuqori bo'lgan, xususiy kapitalning aktivlarga daxldorlik darajasida nisbat saqlanmagan. Korxonadagi umumiy holatni ijobiy baholash mumkin.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ ning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti (2016-2017 yy.)

Ko'rsatkichlar nomi	2017 yil	2016 yil
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	5 180 801 340	3 362 225 550
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi	3 191 287 162	2 474 622 038
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	**1 989 514 178**	**887 603 512**
Davr xarajatlari	752 744 444	568 302 199
Boshqa operatsion xarajatlar	178 630 359	135 306

		333
Asosiy faoliyatning foydasi	**1 415 400 093**	**454 607 646**
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	833 455 050	159 047 300
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	506 789 162	269 112 080
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda	**1 088 734 205**	**564 672 426**
Favquloddagi foyda va zararlar	0	0
Daromad (foyda) solig'i	30 730 577	16 304 363
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	83 965 344	40 674 456
Hisobot davrining sof foydasi	**974 038 284**	**507 693 607**

9.3. Moliyaviy natija, foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini baholash va tahlil qilish yo'llari

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tahlili o'qish, vertikal, gorizontal, trendli tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar va qiyosiy tahlil, omilli tahlil usullaridan foydalangan holda olib boriladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'qishda uning satrlar bo'yicha ko'rsatkichlar tarkiblanishiga, moliyaviy natijaviylikni xarakterlovchi umumiy qatorlarning qiymat ifodasiga, hisobot davri va o'tgan yilning shu davri bo'yicha ma'lumotlarga umumiy izoh beriladi.

Vertikal tahlilda moliyaviy natijalarning shakllanishini bir qatorli va ko'p qatorli usullarida o'zaro farqlanishlariga va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi. Bunda asosiy jihat yakuniy ya'ni jamlangan moliyaviy natijalar qatorida tarkib bo'yicha foyda va zararlarning salmog'iga baho beriladi.

Gorizontal tahlilda esa moliyaviy natijalarning shakllanish qatorlari, ko'rsatkichlari bo'yicha davriy o'zgarishlariga mutlaq va nisbiy ifodalarda baho beriladi.

Asosli yoki trend tahlilida moliyaviy natijalar va ular tarkibining yillar bo'yicha o'zgarishlariga va dinamik o'zgarishlariga baho beriladi.

Eng muhim jihat asos yiliga nisbatan o'zgarishlariga baho berishga qaratiladi.

Moliyaviy natijalar tahlili tashqi va ichki subyektlar tomonidan olib boriladi. Ichki subyektlar tomonidan olib boriladigan tahlil ichki moliyaviy tahlil qatoriga kiritilib, faqat shu korxonaning xodimlari tomonidan olib boriladi.

Moliyaviy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimi

1.	**Daromadlar**	Mahsulot sotishdan sof tushum
1.1.		Boshqa operatsion daromadlar
1.2.		Moliyaviy faoliyatdan daromadlar
1.3.		Favqulodda daromadlar
2.	**Xarajatlar**	Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxi
2.1.		Davr xarajatlari
2.2.		Moliyaviy xarajatlar
2.3.		Favqulodda xarajatlar
3.	**Foyda va zararlar**	Yalpi foyda (zarar)
3.1.		Asosiy faoliyat foydasi (zarari)
3.2.		Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)
3.3.		Moliyaviy faoliyat foyda (zarar)
3.4.		Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)
3.5.		Favqulodda foyda (zarar)
3.6.		Soliq to'loviga qadar foyda (zarar)
4.	**Rentabellik ko'rsatkichlari**	Sotuv rentabelligi
4.1.		Xarajat rentabelligi
4.2.		Kapital rentabelligi
4.3.		Aktivlar rentabelligi
4.4.		Asosiy vositalar rentabelligi

Tahlilda moliyaviy natijalar (daromad va xarajatlar), foyda va zararlar, rentabellik ko'rsatkichlarini joriy va o'tgan yil ko'rsatkichlari tahlil usullarida retrospektiv tarzda o'rganiladi, o'zgarish sabablari va omillari baholanadi.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarida ko‘pgina tadbirkorlik subyektlari moliyaviy natijalar tahlili yuzasidan quyidagi jihatlarni ochib berishlari lozim[54]:

(a) moliyaviy natijalarni shakllantirgan asosiy omillar va ta’sirlar;

(b) xo‘jalik yurituvchi subyektining faoliyatini moliyalashtirish manbalari va u tomonidan ko‘zlangan majburiyatlarning kapitalga nisbati koeffitsiyenti;

(d) xo‘jalik yurituvchi subyektining (MHXSlarga muvofiq) moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda tan olinmagan resurslari.[55]

Moliyaviy natijalar tahlilida o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar tizimi va ularning tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+,-)	O‘sishi, %
1.	**Daromadlar (mln so‘m):**	3 631 337 630	5 687 590 502	2 056 252 872	156.6
	Mahsulot sotishdan sof tushum	3 362 225 550	5 180 801 340	1 818 575 790	154.0
	Boshqa operatsion daromadlar	0	0	0	0
	Moliyaviy faoliyatdan daromadlar	269 112 080	506 789 162	237 677 082	188.0
	Favqulodda daromadlar	0	0	0	0
2.	**Xarajatlar (mln so‘m):**	3 337 277 870	4 956 117 015	1 618 939 145	148.5
	Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxi	2 474 622 038	3 191 287 162	716 665 124	128.9
	Davr xarajatlari	568 302 199	752 744 444	184 442 245	132.3
	Boshqa operatsion xarajatlar	135 306 333	178 630 359	43 324 026	132.0
	Moliyaviy xarajatlar	159 047 300	833 455 050	674 407 750	523.9
	Favqulodda xarajatlar	0	0	0	0

[54]Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти-1 “Молиявий ҳисоботларни тақдим этиш”

[55]Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти-1 “Молиявий ҳисоботларни тақдим этиш”

3.	**Foyda va zararlar (mln so'm):**				
	Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	887 603 512	1 989 514 178	1 131 910 666	224.2
	Asosiy faoliyat foydasi (zarari)	454 607 646	1 415 400 093	960 792 447	3.12
	Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda	564 672 426	1 088 734 205	524 061 779	193.0
	Daromad solig'i	16 304 363	30 730 577	14 426 214	188.4
	Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	40 674 456	83 965 344	43 290 888	206.0
	Sof foyda	507 693 607	974 038 284	466 344 677	192.1
4.	**Rentabellik ko'rsatkichlar, %**				
	Sotuv rentabelligi	26.3	38.3	12.0	145.6
	Xarajat rentabelligi	35.8	62.3	26.5	174.0
	Kapital rentabelligi	6.5	9.6	3.1	147.6
	Aktivlar rentabelligi	3.8	4.0	0.2	105.2

Korxonada daromad solig'ini to'lagunga qadar bo'lgan foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 93 foizga yoki 524 061 779 ming so'mga ortgan. Sof foyda summasi mos ravishda o'tgan yilga nisbatan 92.1 foizga qiymatda 466 344 677 ming so'mga o'sgan. Rentabellikning tanlangan va tahlil qilingan turlari bo'yicha holatni ham ijobiy baholash mumkin. Jumladan sotuv rentabelligi o'tgan yilga nisbatan 12 foizga, xarajatlar rentabelligi o'tgan yilga nisbatan 26.5 foizga, kapital rentabelligi 3.1 foizga, aktivlar rentabelligi 0.2 foizga ortgan.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ ning buxgalteriya balansi (2016-2017 yy.)

Ko'rsatkichlar nomi	2017 yil	2016 yil	O'zgarishi (+;-)	O'sishi, %
Aktiv				
1. Uzoq muddatli aktivlar	12 593 199 960	10 219 731 945	2 373 468 015	123.2

2. Joriy aktivlar	11 683 693 105	2 978 372 713	8 705 320 392	392.3
Balans aktivi bo'yicha jami	24 276 893 065	13 198 104 658	11 078 788 407	183.9
Passiv				
1. O'z mablag'lari manbalari	10 124 233 076	7 745 794 466	2 378 438 610	130.7
2. Majburiyatlar	14 152 659 989	5 452 310 192	8 700 349 797	259.7
Balans passivi bo'yicha jami	24 276 893 065	13 198 104 658	11 078 788 407	183.9

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ ning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti (2016-2017 yy.)

Ko'rsatkichlar nomi	2017 yil	2016 yil	O'zgarishi (+;-)	O'sishi, %
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	5 180 801 340	3 362 225 550	1 818 575 790	154
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi	3 191 287 162	2 474 622 038	716 665 124	128.9
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	**1 989 514 178**	**887 603 512**	**1 101 910 666**	**224.2**
Davr xarajatlari	752 744 444	568 302 199	184 442 245	132.3
Boshqa operatsion xarajatlar	178 630 359	135 306 333	43 324 026	131.8
Asosiy faoliyatning foydasi	**1 415 400 093**	**454 607 646**	**960 792 447**	**311.6**
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	833 455 050	159 047 300	674 407 750	523.8
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	506 789 162	269 112 080	237 677 082	188.1
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda	**1 088 734 205**	**564 672 426**	**524 061 779**	**192.9**
Favquloddagi foyda va zararlar	0	0	0	0
Daromad (foyda) solig'i	30 730 577	16 304 363	14 426 214	187.5
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	83 965 344	40 674 456	43 290 888	207.5
Hisobot davrining sof foydasi	**974 038 284**	**507 693 607**	**466 344 677**	**192.1**

9.4. Xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatidan olingan daromadlari tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati turi keng qo'llaniladigan va ahamiyatli ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Korxonalarga soliq solish tartiblari, ularning stavkalari, qator imtiyozlar va periferensiyalar ushbu faoliyat turidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlar talabiga muvofiq asosiy faoliyat turini belgilash tartiblariga quyidagicha amal qilinadi:

- Agar asosiy faoliyat turini belgilashda olingan tushumning yoki qo'shilgan qiymat solig'i summasining salmog'iga bosh omil sifatida qaraladi. Eng yuqori tushum olib kelgan, yoki eng yuqori qo'shilgan qiymat solig'ini aniqlangan faoliyat turi deb belgilanadi.

- Statistika organlari korxonalarning asosiy faoliyat turini belgilashda ular tomonidan topshiriladigan statistik hisobot manbalariga tayanadilar. Bunda ham asosiy faoliyat turi statistika organi tomonidan korxona ishtirokisiz, mustaqil, sotishdan olingan sof tushum hajmiga qarab belgilanadi.

Ba'zi hollarda bir yilda bir marta, boshqalarida esa uni har chorakda belgilash talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida asosiy va birgalikdagi faoliyat turlariga quyidagicha ta'rif beriladi:

Asosiy faoliyat turi — yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo'yicha umumiy realizatsiya qilish hajmidagi sof tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyatdir.

Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot — birgalikdagi faoliyat natijasi bo'lgan tovar (ish va xizmat)lardir.[56]

Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar tahlilida joriy davrda mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning hajmi, sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi, davr xarajatlari,

[56]Солиқ Кодекси, 22-модда

operatsion daromadlar va xarajatlarning tahlili amaldagi "Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizom talablari bo'yicha amalga oshiriladi. Shu sababli yuqoridagi tarkibdan bir muncha farq qiladi.

Asosiy faoliyatning moliyaviy natijasini aniqlashda asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat turlarini tarkiblash bir mazmunda qaralmaydi. Asosiy faoliyat sifatida mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan eng yuqori tushumga ega qator tarkiblansa, qolgan barcha sotishlar asosiy bo'lmagan faoliyat sifatida tarkiblanadi. Lekin ularning barchasi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda asosiy faoliyat natijasi (hisobotning 100-satri) sifatida qayd etiladi.

Asosiy faoliyatning moliyaviy natijasi mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning 030-satr), davr xarajatlari (040-satr), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari (090-satr)dan iborat bo'ladi.

Demak, xulosa qilishimiz mumkinki, asosiy faoliyat korxona faoliyatining (ishlab chiqarish, savdo, umumiy ovqatlanish, ijara va h.k.) xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyatlar, soliqqa tortish, imtiyoz va periferensiyalardan kelib chiqib belgilanishi mumkin.

Tushumni tan olishda realizatsiya qilishning mazmunini ham aniq tushunib olish lozim.

Realizatsiya qilish deganda — sotish, ayirboshlash, beg'araz berish maqsadida tovarlarni jo'natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, garovga qo'yilgan tovarlarga bo'lgan mulk huquqini garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish nazarda tutiladi. Hisobvaraq-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, tovarlar jo'natilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi kvitansiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi[57].

[57]Солик Кодеки, 22-модда

Asosiy faoliyat natijasi va uning tahlili

Asosiy faoliyat natijasi ko'rsatkichlari	Satri	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+,-)	O'sishi, %
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	010	3 362 225 550	5 180 801 340	1 818 575 790	154.0
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi	020	2 474 622 038	3 191 287 162	716 665 124	128.9
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr.010-020)	030	887 603 512	1 989 514 178	1 131 910 666	224.2
Davr xarajatlari, jami (satr 050+060+ 070+ 080), shu jumladan:	040	568 302 199	752 744 444	184 442 245	132.3
Boshqa operatsion xarajatlar	070	135 306 333	178 630 359	43 324 026	132.0
Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari	080	-	-	-	-
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	090	-	-	-	-
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (satr 030-040+090)	100	454 607 646	1 415 400 093	960 792 447	3.12

Korxonada mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum summasi o'tgan yilga nisbatan 1 818 575 790 ming so'mga, foizda 54 %ga ortgan. Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi o'tgan yilga nisbatan 716 665 124 ming so'mga foizda 28.9 %ga ortgan. Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 1 131 910 666 ming so'mga foizda 2.2 baravarga ortgan. Davr xarajatlari, operatsion xarajatlarning ham o'sishi

kuzatilgan. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari kuzatilmagan. Asosiy faoliyatning natijasi o'tgan yilga nisbatan 960 792 447 ming so'mga yoki 3.12 baravarga ortganligini ijobiy baholash mumkin.

9.5. Marjinal foyda tahlili

Biznesni boshqaruv qarorlarini asoslashda marjinal tahlil muhim rol o'ynaydi. Marjinal foyda tahlilida o'zaro aloqadorlikka ega bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning uchta guruhini tarkiblash mumkin. Bu ko'rsatkichlar ishlab chiqarish (sotish) hajmi, xarajatlar (o'zgaruvchan va o'zgarmas) va foyda ko'rsatkichlaridir.

Mazkur usul ko'pincha zararsizlik tahlili deb yuritiladi. Ushbu usul amerika olimlari tomonidan 1930-yillarda ishlab chiqilgan. Uning g'oyaviy muallifi asli kasbi injener bo'lgan Uolter Rautenshtrax hisoblanadi. Uslubiyot negizida, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga muvofiqlikda o'zgarib turuvchi va o'zgarmas xarajatlarning tarkiblanishi turadi[58].

Korxonaning marjinal daromadi – sotishdan tushumdan o'zgaruvchan xarajatlarni chegirish asosida aniqlanadi. Mahsulot birligidan marjinal daromad ushbu mahsulotning bahosi bilan unga ketgan o'zgaruvchan xarajatlarning farqiga teng. Baho tarkibida esa faqat o'zgaruvchan xarajatlar emas, balki doimiy xarajatlar va foyda summasi ham aks etadi.

Marjinal tahlilning asosiy jihatlari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- zararsiz ishlash hajmini aniqlash;
- korxonaning xavfsiz (zararsiz) ishlash doirasini belgilash;
- foydaning ko'zlangan hajmida mahsulot ishlab chiqarish hajmini belgilab olish;
- marjinal daromadlikka erishishda doimiy xarajatlarning kritik darajasini aniqlash;

[58]K.R. Subramanyam "Financial statement analysis", eleventh edition Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by

- belgilangan topshiriqlarni uddalashda doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar ta'sirida mahsulot bahosining kritik darajasini belgilab olish.

Marjinal daromadning odatda uchta tur ko'rsatkichi hisob-kitob qilinadi[59]:

- Mutlaq marjinal daromad;
- Nisbiy marjinal daromad;
- Operatsion richag.

Marjinal daromad ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
1. Mutlaq marjinal daromad	ST-O'x	ST – sotishdan tushum O'x – o'zgaruvchan xarajat
2. Nisbiy marjinal daromad	MD/ST	MD – marjinal daromad
3. Operatsion richag	$F_{o'}/ST_{o'}$	Fo' – mahsulot sotishdan foydaning o'sishi STo' – sotish hajmining o'sishi
4. Mahsulot sotishdan foydaning o'sishi	$(F_1-F_0)/F_0$	Foydaning joriy (1) va o'tgan (0) davr ko'rsatkichi
5. Sotish hajmining o'sishi	$(S_1-S_0)/S_0$	Sotish hajmining joriy (1) va o'tgan (0) davr ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblanishi nashr etilgan adabiyotlarda nazariy jihatdan bayon etiladi. Me'yoriy hujjatlarda esa ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblash normalari belgilanmaydi. Shu sababli, amaliyotda ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblagan holda hisobga olish tartibiga amal etilmaydi.

[59]K.R. Subramanyam "Financial statement analysis", eleventh edition Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by

Moliyaviy natijalarni aniqlashning xalqaro amaliyoti[60]

<table>
<tr><td rowspan="10">Mahsulot sotishdan sof tushum X1</td><td colspan="8">Sotishdan sof tushum=sotishdan yalpi tushum-sotishga soliqlar</td></tr>
<tr><td>O‘zgaruvchan xarajatlar</td><td colspan="7">Mahsulot hajmining o‘zgarishiga bog‘liq xarajatlar</td></tr>
<tr><td rowspan="9">Marjinal foyda X2</td><td>Doimiy xarajatlar</td><td colspan="6">Mahsulot hajmining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar</td></tr>
<tr><td rowspan="8">Operation foyda X3</td><td colspan="2">Davr xarajatlari, asosiy faoliyatining boshqa daromadlari</td><td colspan="4">Ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar (sotish, ma’muriy va boshqa umumxo‘jalik xarajatlari), mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tashqari sotishlardan daromadlar</td></tr>
<tr><td rowspan="7">Asosiy faoliyat foydasi X4</td><td colspan="3">Moliyaviy faoliyatdan daromadlar, xarajatlar</td><td>Moliyaviy tasnifga ega jarayonlardan daromadlar va xarajatlar</td></tr>
<tr><td rowspan="6">Umumxo‘jalik faoliyati foydasi X5</td><td rowspan="5">Favqulodda daromadlar, xarajatlar</td><td rowspan="5">Xo‘jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyatidan aniq farq qiladigan, ya’ni tez-tez yoki muntazam sodir bo‘lmaydigan voqealar yoki bitimlar natijasida yuz bergan daromadlar yoki xarajatlar</td></tr>
<tr></tr>
<tr></tr>
<tr></tr>
<tr></tr>
<tr><td>Soliq to‘loviga qadar foyda X6</td><td>Soliq idoralari tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq aniqlangan foyda (zarar)</td></tr>
<tr><td colspan="6">Buxgalteriya hisobi bo‘yicha foyda -soliq xarajatlari chegirib tashlanishidan oldingi davr foydasi yoki zarari</td><td>Soliqlar, to‘lovlar, yig‘imlar X7</td></tr>
<tr><td colspan="5"></td><td colspan="2"></td><td>Sof foyda X8</td></tr>
</table>

[60]K.R. Subramanyam “Financial statement analysis”, eleventh edition Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by

Ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblashdan maqsad shuki, bu xarajatlarni yuzaga chiqish shakli, o'rni va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish hamda xarajatlarni maqsadli boshqarish imkonini beradi. Afsuski, ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlariga tarkiblashda ishlab chiqarish va davr xarajatlariga bir xil mazmunda qarashmoqda. Vaholanki, bu tarkib xarajatlarning har ikkala guruhiga nisbatan ham tarkiblanishi to'g'ri deb qaraladi.

Mahsulot sotishdan olingan tushumni hisoblashda "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" (eski tahriri, 1996-yil) Qonunni qabul qilinishi va amaliyotga kiritilishi bilan kassali usuldan hisobga olish usuliga o'tish belgilandi. Buni bevosita hisobning barcha o'zgaruvchi birliklarini o'z ichiga oluvchi korxona hisob siyosatining o'zgarishi bilan xarakterlash mumkin. Demak, marjinal foyda kontributsiyasiga ta'sir etuvchi asosiy birliklardan biri bu – korxona hisob siyosatining o'zgarishidir.

Kassali usuldan hisobga olish usuliga o'tilishi marjinal foyda, yalpi summasini oshiradi. Lekin keyingi davrlar bo'yicha uning realligini ta'minlash vazifasi qo'yiladi.

Marjinal foyda va uning omilli tahlili hisob-kitoblari

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili shartli	Hisobot yili
Mahsulot sotishdan yalpi tushum	Mo'*Bo'	Mx*Bo'	Mx*Bx
Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxida o'zgaruvchan xarajatlar	Mo'*O'o'	Mx*O'o'	Mx*O'x
Marjinal foyda	Mo'(Bo'-O'o')	Mx(Bo'-O'o')	Mx(Bx-O'x)
Sotilgan mahsulot tannarxida o'zgarmas xarajatlar	Do'	Dx	Dx
Mahsulot sotishdan sof foyda	Mo'(Bo'-O'o')-Do'	Mx(Bo'-O'o')-Dx	Mx(Bx-O'x)-Dx

Belgilar izohi:

Mo‘, Mx – o‘tgan yil (Mo‘) va hisobot yilidagi (Mx) haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori;

Bo‘, Bx – o‘tgan yil (Bo‘) va hisobot yilidagi (Bx) sotilgan mahsulotlar birlik bahosi;

O‘o‘, O‘x - o‘tgan yil (O‘o‘) va hisobot yilida (O‘x) mahsulotlar birligiga o‘zgaruvchan xarajatlar;

Do‘, Dx – o‘tgan yil (Do‘) va hisobot yilida (Dx) jami o‘zgaruvchan xarajatlar.

Yuqoridagi bog‘lanishlardan marjinal foyda va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni ham hisob-kitob qilish mumkin. Marjinal foyda ko‘rsatkichi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi, hisob-kitob qilinadigan omillarga mahsulotlar miqdori, birlik bahosi va bir birlikka o‘zgaruvchan xarajatlar o‘zgarishi ta’siri kiradi.

1. Marjinal foyda va uning o‘zgarishiga mahsulot miqdorini o‘zgarishi ta’sirini topish uchun quyidagi bog‘lanishdan foydalaniladi;

$$\mathbf{Mx * Bo‘ - Mo‘ * Bo‘ = Bo‘ * (Mx - Mo‘)}$$

2. Marjinal foyda o‘zgarishiga baho o‘zgarishining ta’sirini quyidagi bog‘lanishda topish mumkin;

$$\mathbf{Mx * Bx - Mx * Bo‘ = Mx * (Bx - Bo‘)}$$

3. Marjinal foyda o‘zgarishiga mahsulot birligiga o‘zgaruvchan xarajatlar sarfi o‘zgarishini ta’siri quyidagi bog‘lanishda topiladi;

$$\mathbf{Mx * O‘x - Mx * O‘o‘ = Mx * (O‘x - O‘o‘)}$$

Uchta omil yig‘indisi jamlangan holda marjinal va sof foyda o‘zgarishiga omillar ta’sirini hisob-kitob qilib chiqish mumkin.

Korxona foydasini oshirish yo‘llariga: sotish hajmini oshirish (tovarlarni kreditga sotish, sotishdan keyingi kafolatlangan xizmat ko‘rsatishlar, to‘lovlarda turli chegirmalardan foydalanish), narxlarni oshirish, sifatni yaxshilash orqali, talabgor bozorlarni izlab topish, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish), mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish (korxona ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanishni yo‘lga qo‘yish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab

chiqarish zaxiralaridan tejamli foydalanish, sifatsiz va brak mahsulotlarga yo'l qo'ymaslik) orqali erishish mumkin.

9.6. Mahsulot sotishdan ko'rilgan yalpi foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Mahsulot sotishdan ko'rilgan yalpi foyda quyidagi operatsiya va hodisalar natijasida hosil bo'ladigan daromadni hisobga olishda qo'llanilishi kerak:

(a) tovarlarni sotish;

(b) xizmatlarni ko'rsatish;

(v) boshqa tomonlar xo'jalik yurituvchi subyektning foizlar, royalti va dividendlar ko'rinishidagi daromadlarni keltiradigan aktivlardan foydalanishi.

Tovarlarga xo'jalik yurituvchi subyekti tomonidan sotish maqsadida ishlab chiqarilgan tovarlar hamda qayta sotish uchun xarid qilingan tovarlar, masalan chakana savdo bilan shug'ullanadigan sotuvchi tomonidan xarid qilingan tovarlar yoki qayta sotish maqsadida saqlanayotgan yer va boshqa mulklar kiradi.

Xizmat ko'rsatish odatda xo'jalik yurituvchi subyektni shartnomada belgilab qo'yilgan topshiriqni kelishilgan davr davomida bajarishini o'z ichiga oladi. Xizmatlar bir yoki bir necha davrlar davomida ko'rsatilgan hollarda ular tegishli davrlar bo'yicha hisobga olinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning aktivlaridan boshqa tomonlar foydalanishi natijasida quyidagi ko'rinishdagi daromadlar yuzaga keladi:

(a) foizlar – xo'jalik yurituvchi subyektiga tegishli bo'lgan pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlaridan yoki xo'jalik yurituvchi subyektiga to'lanishi kerak bo'lgan summalardan foydalanilgani uchun olinadigan haq;

(b) royalti – xo'jalik yurituvchi subyektiga tegishli bo'lgan uzoq muddatli aktivlar, masalan patentlar, savdo belgilari, avtorlik huquqlari va dasturiy ta'minotlardan foydalanilgani uchun olinadigan haq;

(v) dividendlar – ulushli investitsiyalarning egalariga ularning ayrim turdagi kapitaldagi ulushiga mutanosib ravishda foydaning taqsimlanishi.

Daromadlar xo'jalik yurituvchi subyektining faqat o'zi uchun olingan yoki olinadigan iqtisodiy nafning yalpi tushumini qamrab oladi. Uchinchi tomon nomidan undirib olingan summalar, masalan sotishga soliqlar, tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, xo'jalik yurituvchi subyektga kelib tushadigan iqtisodiy naf bo'lib xizmat qilmaydi va kapitalning ko'payishiga olib kelmaydi. Shu bois, ular daromaddan chiqarib tashlanadi. Shunga o'xshash, vositachilik munosabatlarida, iqtisodiy nafning yalpi tushumi buyurtmachi nomidan undiriladigan summalarni qamrab oladi, lekin xo'jalik yurituvchi subyektining kapitali oshishiga olib kelmaydi. Buyurtmachi nomidan undirilgan summalar daromad bo'lib hisoblanmaydi. Aksincha, daromad bo'lib vositachilik haqi hisoblanadi.

Milliy hisobchilikda asosiy faoliyatdan olingan daromadlarning muhim qatori sifatida sotishdan sof tushum tarkiblanadi.

Sotishdan sof tushum jami tushumdan sotishga soliqlar (egri soliqlarni) chegirish asosida topiladi.

Sotishdan yalpi foyda sotishdan sof tushumdan sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxini chegirish orqali topiladi.

Operatsiya natijasida hosil bo'ladigan daromad summasi odatda xo'jalik yurituvchi subyekt bilan xaridor yoki aktivdan foydalanuvchilar o'rtasidagi kelishuvlar asosida aniqlanadi. U olingan yoki olinadigan tovonning haqqoniy qiymati bo'yicha baholanadi, bunda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ruxsat etilgan har qanday savdo chegirmalari yoki ulgurji savdo chegirmalari hisobga olinadi.

Tovarlarni (mahsulotlarni) sotilgan qatorga kiritish va tushumlarni daromad sifatida tan olishni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida quyidagi normalari belgilanadi:

(a) tovarlarga egalik qilish bilan bog'liq bo'lgan ahamiyatli risklar va mukofotlar xaridorga o'tkazilganda;

(b) xo'jalik yurituvchi subyekt sotilgan tovarlarni endilikda egalik huquqiga xos bo'lgan darajada boshqara olmaganida va ularni samarali darajada nazorat qila olmaganida;

(v) daromadning summasini ishonchli darajada baholash mumkin bo'lganda;

(g) operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy nafning olinishi ehtimoli mavjud bo'lganida;

(d) operatsiya bo'yicha amalga oshirilgan yoki amalga oshiriladigan xarajatlar ishonchli darajada baholana olganda.

Mulkka egalik qilish huquqi bilan bog'liq ahamiyatli risklar va mukofotlar xo'jalik yurituvchi subyekti tomonidan xaridorga o'tkazilishi paytini aniqlash uchun operatsiyaning jihatlarini o'rganish talab etiladi. Aksariyat hollarda, egalik huquqi bilan bog'liq risklar va mukofotlarning o'tkazilishi xaridorga yuridik egalik qilish huquqi yoki tasarruf qilish huquqining o'tishi paytiga to'g'ri keladi.

Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda

Ko'rsat kichlar	Hisobot yili		O'tgan yil		Farqi (+;-)	
	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat
Mahsulot (ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	5 180 801 340	x	3 362 225 550	x	1 818 575 790	x
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi	x	3 191 287 162	x	2 474 622 038	x	716 665 124
Sotishdan yalpi foyda	1 989 514 178		887 603 512		1 131 910 666	
Sotilgan mahsulot o'tgan yil bahosi va tannarxida	4 852 124 352	2 865 241 005	3 362 225 550	2 474 622 038	1 489 898 802	390 618 967

$$K_1 = \sum q_1 s_0 / \sum q_0 s_0$$
$$K_1 * R_0 - P_0$$
$$\sum q_1 p_k - \sum q_1 p_1$$

Korxonada mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larni tannarxi, mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foyda o'tgan yilga nisbatan o'zgarishini omilli tahlili yuzasidan amalga oshirilgan qayta hisoblashlarda sotishdan daromadlar o'tgan yilga nisbatan qiyosiy bahoda 1 418 898 802 ming so'mga, xarajatlar summasi esa 390 618 967 ming so'mga ortganligini ko'rish mumkin.

Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- sotish hajmi;
- mahsulotlar tarkibining o'zgarishi;
- mahsulotlarni sotish bahosining o'zgarishi;
- xomashyolar, materiallar, yoqilg'i sarflari ta'riflari o'zgarishi;
- moddiy va mehnat sarflarining o'zgarishi.

Omillar ta'sirini hisob-kitoblari quyidagi tartibda amalga oshiriladi

Ko'rsatkichlar	Formulalar	Izohi
1. Sotishdan yalpi foydaning umumiy o'zgarishi	$\Delta R = R_1 - R_0$	$R_1;R_0$ – joriy va o'tgan davrdagi yalpi foyda summasi
1.1. Sotilgan mahsulot bahosining o'zgarishi hisobiga	$\Delta R_1 = \sum q_1 p_1 - \sum q_1 p_0$	q_1p_1 – joriy davrda sotilgan mahsulot miqdori va bahosi q_1p_0 – joriy davrda sotilgan mahsulot o'tgan yil bahosida
1.2. Xomashyo, materiallar, energiya sarflari ta'rif bahosining o'zgarishi hisobiga	$\sum q_1 p_k - \sum q_1 p_1$	p_k – xom ashyo, materiallar, energiya sarflari ta'rif bahosining o'zgarishi
1.3. Sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishi hisobiga	$K_1 = \sum q_1 s_0 / \sum q_0 s_0$, $K_1 * R_0 - P_0$	K_1 – sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishi

1.4. Sotilgan mahsulot tarkibining o'zgarishini sotishdan tushumga ta'siri hisobiga	R_0*K_2 $K_2=(\sum q_1p_0/\sum q_0p_0-\sum q_1s_0/\sum q_0s_0)$	R_0*K_2 – sotilgan mahsulot tarkibining o'zgarishining sotishdan tushumga ta'siri hisobiga
1.5. Bir so'mlik mahsulotga xarajat summasining o'zgarishi hisobiga	$\sum q_1s_0-\sum q_1s_k$	s_k – shartli baholar o'zgarishi hisobiga korrektirovka qilingan tannarx
1.6. Sotilgan mahsulot tarkibiy o'zgarishlarining tannarxga ta'siri hisobiga	$\sum q_0s_0*K_1-\sum q_0s_0$	

Omillar ta'sirini jamlash

Ko'rsatkichlar	mln so'm
Sotishdan yalpi foydaning umumiy o'zgarishi	1 131 910 666
1.1. Sotilgan mahsulot bahosining o'zgarishi hisobiga	328 676 988
1.2. Xomashyo, materiallar, energiya sarflari ta'rif bahosining o'zgarishi hisobiga	-488 289 775
1.3. Sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishi hisobiga	178 891 297
1.4. Sotilgan mahsulot tarkibining o'zgarishini sotishdan tushumga ta'siri hisobiga	1 874 444 428
1.5. Bir so'mlik mahsulotga xarajat summasining o'zgarishi hisobiga	-390 618 967
1.6. Sotilgan mahsulot tarkibiy o'zgarishlarining tannarxga ta'siri hisobiga	-371 193 305

Korxonada sotishdan olingan yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ta'sirida sotilgan mahsulot bahosining o'zgarishi (328 676 988 ming so'm), sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishi (178 981 297 ming so'm), sotilgan mahsulot tarkibiy o'zgarishining sotishdan tushumga ta'siri (1 874 444 428 ming so'm) ijobiy ta'sir etgan.

Xomashyo va materiallar, energiya safrining ta'rif baholarining o'zgarishi hisobiga (488 289 775 ming so'm), bir so'mlik mahsulotga xarajat summasining o'zgarishi hisobiga (390 618 967 ming so'm) hamda sotilgan mahsulot tarkibiy o'zgarishlarining tannarxga ta'siri tufayli (371 193 305 ming so'm) yalpi foyda kamayishi kuzatilgan.

Barcha omillar ta'sirida mahsulot sotishdan yalpi foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 1 131 910 666 ming so'mga ortgan.

9.7. Moliyaviy natijalar tarkibiga kiruvchi xarajatlarning turlari va ularning tavsifi

Xo'jalik yurituvchi subyektlar xarajatlari funksiyalar bo'yicha:

- mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari;
- sotish xarajatlari;
- ma'muriy xarajatlar;
- boshqa operatsion xarajatlar;
- moliyaviy xarajatlar;
- favqulodda xarajatlarga tarkiblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarining xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari, davr xarajatlari, moliyaviy xarajatlar va favqulodda xarajatlardan iborat bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning barcha xarajatlari ularning xususiyati (masalan, eskirish, xomashyolar xaridi, transport xarajatlari, xodimlarga haq to'lash xarajatlari)ga qarab birlashtiriladi. Masalan:

- foydalanilgan xomashyolar va materiallar;
- xodimlarga haq to'lash xarajatlari;
- eskirish va amortizatsiya xarajatlari;
- boshqa xarajatlarga tarkiblanadi.

Mahsulot (ish va xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari,

boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi: boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

"Davr xarajatlari"ga quyidagi moddalar kiradi.

1. Sotish xarajatlari:

- tovarlarni temir yo'l, havo, avtomobil, dengiz, daryo transportida va ot-ulovda tashish xarajatlari;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari sotish bo'yicha xarajatlari;
- sotish bozorlarini o'rganish bo'yicha xarajatlar (marketingga, reklamaga sarflangan xarajatlar);
- yuqorida sanab o'tilmagan sotish bo'yicha boshqa xarajatlar.

2. Ma'muriy xarajatlar

Ma'muriy xarajatlarga quyidagilar kiradi: boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari; boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar; xizmat yengil avtotransportini va xizmat mikroavtobusini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari; xo'jalik yurituvchi subyekt va uning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari; boshqaruvning texnik vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlarini va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan boshqaruvning boshqa texnik vositalarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari; telekommunikatsiyalar xizmatlari, shu jumladan: mahalliy tarmoqlar abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov; kanallarni ijaraga berish; ko'chma yo'ldosh va peyjing aloqa; radiochastota spektridan foydalanish; ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, shu jumladan internet uchun haq to'lash; shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun haq to'lash; ma'muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun binolar va xonalar ijarasi uchun haq to'lash; ma'muriy ahamiyatga ega

bo'lgan asosiy vositalarni saqlash va ularni tuzatish, shuningdek, eskirish (amortizatsiya) xarajatlari; boshqa ma'muruiy xarajatlar;

3. Boshqa operatsiya xarajatlari

Boshqa operatsiya xarajatlariga quyidagilar kiradi: kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari, yangi tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektda ishlash uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bundan mustasno; loyiha va qurilish-montaj ishlarida chala ishlarni bartaraf etish xarajatlarini qoplash, shuningdek, obyekt qoshidagi omborgacha transportda tashish chog'idagi shikastlanishlar va buzilishlar, korroziyaga qarshi himoya nuqsonlari tufayli kelib chiqqan taftish xarajatlari (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) va shunga o'xshash boshqa xarajatlar yetkazib berish va ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga mazkur xarajatlar chala ishlar, shikastlanish yoki zarar ko'rish uchun javobgar bo'lgan yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobiga undirilishi mumkin bo'lmagan darajada amalga oshiriladi; maslahat va axborot xizmatlariga haq to'lash; auditorlik xizmatlariga haq to'lash, o'tkaziladigan auditorlik xizmatlariga haq to'lash; zararlar, jarimalar, penyalar; boshqa operatsion xarajatlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar: banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo'yicha foizlar; mol-mulkni moliyaviy ijaraga olish (lizing) bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari; chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar; sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar; o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar; moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

4. Favqulodda zararlar

Favqulodda zararlar – bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir. Bunga favqulodda moddalar va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davr moddalari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emaslik.

Tegishli moddalarni favqulodda xarajatlarga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim. Masalan, agar xo'jalik yurituvchi subyekt alohida iqlim sharoitlarida joylashgan bo'lsa, u holda iqlim sharoitlariga bog'liq holdagi ishlamay turib qolishlar favqulodda deb baholanishi mumkin emas, chunki ushbu modda "bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak" mezoniga javob bermaydi.

Xarajatlar va ular o'zgarishining tahlili

Xarajat ko'rsatkichlari	Satri	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+,-)	O'sishi, %
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi	020	2 474 622 038	3 191 287 162	716 665 124	128.9
Davr xarajatlari, jami	040	568 302 199	752 744 444	184 442 245	132.3
Boshqa operatsion xarajatlar	070	135 306 333	178 630 359	43 324 026	132.0
Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari	080	0	0	0	
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar jami (satr 180+190+200+210), shu jumladan:	170	159 047 300	833 455 050	674 407 750	523.0
Favquloddagi zararlar	230	0	0	0	0
Foyda solig'i	250	16 304 363	30 730 577	14 426 214	188.4

Foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar	260	40 674 456	83 965 344	43 290 888	206.4
Jami xarajatlar		3 394 256 689	5 070 812 936	1 676 556 247	149.4

Korxonada jami xarajatlar o'tgan yilda 3 394 256 689 ming so'mni, joriy yilda 5 070 812 936 ming so'mni tashkil qilgan. O'tgan yilga nisbatan mutlaq o'zgarishi 1 676 556 247 ming so'mni, o'sish darajasi 149.4 foizni tashkil etgan.

Xarajatlar tarkibi bo'yicha eng yuqori o'zgarish moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar qatoriga to'g'ri kelgan. Ushbu tarkib xarajatlar o'tgan yilga nisbatan 5.23 baravarga ortgan. Shuningdek, soliqlar to'lovi bo'yicha xarajatlar ham 188.4 foizga, boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar 2.06 baravarga ortgan.

Davr xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar o'sishi 132 foizni, mahsulot tannarxini o'sishi 128.9 foizni tashkil qilgan.

9.8. Xarajatlarni baholash va tahlil qilish yo'llari. Xarajatlar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni hisoblash yo'llari

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash moliyaviy hisobotlarning muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlarini baholashda albatta ularning tuzilishi va tabiatini bilish talab etiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari "Xarajatlar tarkibi" to'g'risidagi Nizomga muvofiq quyidagi xarajat elementlari bo'yicha tarkiblanadi:

- ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
- ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari va ajratmalari;
- ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita qatnashayotgan asosiy va nomoddiy aktivlarni eskirish xarajatlari;
- ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.

Ularni baholanishi tarkib bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan; mehnat haqini baholanishi hisoblangan mehnat haqi va ajratmalar summasidan yoki mehnat haqi va ajratmalar yuzasidan tan olingan majburiyatlar summasidan kelib chiqib baholanadi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya, eskirish qiymatlari belgilangan, qat'iy, normalar asosida hisob-kitob qilingan qiymat bilan baholanadi[61].

Asosiy aktivlar va nomoddiy aktivlar ularning to'liq boshlang'ich qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Asosiy aktivlar va nomoddiy aktivlar qiymatini hisobdan chiqarish ularning qiymati to'liq to'langunga yoki obyekt safdan chiqib ketgunga qadar bo'lgan eskirishini (amortizatsiyani) hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi. Amortizatsiya ajratmalari obyekt foydalanishga topshirilganidan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi. Yerning qiymati amortizatsiya qilinmaydi.

Moliyaviy qo'yilmalar buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq hisobga olinadi.

Majburiyatlar taraflarning kelishuviga binoan pulda o'lchov bilan aks ettiriladi.

Sud qarori bo'yicha yuzaga kelgan majburiyatlar tegishli summada aks ettiriladi.

Potensial majburiyatlar dastlabki haqiqiy bahosi bo'yicha aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiruvchi moddiy xarajatlarni baholanishi asosiy vositalarni yoki nomoddiy aktivlarni eskirishi, mehnat haqi va ajratmalar baholanishidan keskin farq qiladi.

Aylanma aktivlarni baholash quyidagi ikki bahoning eng pasti bo'yicha balans tuzilayotgan sanadagi haqiqiy tannarxi bo'yicha (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) yoki bozor bahosi bo'yicha (sof sotish qiymati) amalga oshiriladi.

[61] Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонун 12-моддаси. Активлар ва мажбуриятларни баҳолаш

Moddiy resurslar tarkibiga kiruvchi va ishlab chiqarish xarajatlarida asosiy element hisoblangan zaxiralarni baholanishini buxgalteriya hisobini milliy standartlari bo'yicha quyidagi turlari tarkiblanadi:

Meyoriy xarajatlar – bular maqsadli xarajatlar bo'lib, hisobot davri boshida rejalashtiriladi va samarali ish olib borishda ularning kelgusi qiymati qancha bo'lishini ko'rsatadi. Bu usul asosan «**standart-kost**» deb nom olgan xarajatlarni hisobga olish tizimida ishlatiladi, va bu usul bir xil turdagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda qo'l keladi. Bu usulda ishlab chiqarishga sarf qilingan materiallar normativ qiymatda baholanadi. Haqiqiy baho bilan normativ qiymat o'rtasidagi farq hisobot davri oxirida aniqlanib, ularga tegishli tartibda tuzatishlar kiritiladi.

Har bir korxona tashkil topganidan keyin, foyda olish maqsadida, albatta moliyalashtirish bilan shug'ullanadi. Foydani ko'paytirishga yo'naltirilgan aktivlarni boshqarish jarayoni moliyaviy menejmentda leveridj kategoriyasi bilan harakatlanadi.

Leveridj bu – tom ma'noda og'ir narsalarni o'zgartira oladigan ma'lum bir kuch (yelka) bo'lib, uning yordamida nisbatan og'ir yuklarni joyidan ko'chirish imkoni tug'iladi. Iqtisodiyotga tatbiq qilinganda, unga uncha katta bo'lmagan o'zgarish ham natijaviy ko'rsatkichning sezilarli darajada o'zgarishiga olib keluvchi omil sifatida qaraladi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot moddalarini qayta kopanovka qilish va detallashtirish yo'li bilan aniqlanishi mumkin bo'lgan leveridjni uchta turi mavjud.

Daromad va leveridjni o'zaro bog'liqligi. Bu guruhlashtirishning ma'nosi shuki, sof daromad ishlab chiqarish va moliyaviy xarakterdagi foyda va xarajatlar o'rtasidagi farq bilan bog'liqdir. Ular bir-birlarini to'ldirmaydilar, biroq har bir harakatni boshqarish mumkindir. Bularning hammasi korxonaning bozor iqtisodiyoti sharoitida bozorning ma'lum qismini egallab, korxona erkin moliyalashtirishiga xizmat qiladi.

Sof daromadning qiymati ko‘p omillarga bog‘liqdir. Korxona faoliyatini moliyaviy boshqaruvi yuzasidan quyidagi ta’sir birliklarini kiritish mumkin:

- moliyaviy resuslarning qanchalik darajada oqilona ishlatilganligi;
- mablag‘lar manbasi tuzilmasini.

Mahsulot tannarxining asosiy elementlari bu doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar hisoblanadi. Bunda ular orasidagi farq har xil bo‘lishi mumkin. Bu farq korxonaning texnika va texnologiya siyosati bilan bevosita bog‘liqdir. Mahsulot tannarxining o‘zgarishi umumiy sof daromadni o‘zgartirishga olib keladi. Asosiy vositalarni moliyalashtirish, doimiy harakatlarni o‘sishiga va o‘zgaruvchan xarajatlarni kamayishiga olib keladi. Biroq, bu o‘zgaruvchanlik to‘g‘ri chiziq orqali ifodalanmaydi. Shuning uchun doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarning optimal nuqtasini topish oson ish emas. Ana shu o‘zaro bog‘lanish ishlab chiqarish leveridjini tashkil etadi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish leveridji – bu mahsulot tannarxi va ishlab chiqarish hajmini tuzilmalarini o‘zgarishi natijasida yalpi foydaga ta’sir ko‘rsatishning potensial imkoniyatidir.

Moliyaviy leveridjda, korxona o‘zining mablag‘lari va qarzga olgan mablag‘larini moliyalashtirish manbasi sifatida aks ettiriladi. Qarzga olingan mablag‘larni ishlatish korxona uchun ma’lum ushlanishlar bilan bog‘liqdir. Korxonaning o‘zini mablag‘lari bilan uzoq muddatga olingan qarzlar o‘rtasida qanday farq (ularning hajmi) bo‘lishi, ularning daromadga ta’siri moliyaviy leveridjda o‘rganiladi.

Shunday qilib, moliyaviy leveridj – bu korxona passividagi uzoq muddatli qarzlarning hajmi va tuzilmasining o‘zgarishi orqali foydaga potensial imkoniyatlarning ta’sir qilishidir.

Umumiy leveridj – bu o‘z ichiga uchta narsani ya’ni, tushum, moliyaviy va ishlab chiqarish xarakteridagi xarajatlar va sof daromadni oladi.

Bu umumiy leveridjni tahlil qilish uchun iqtisodiyotda ma’lum bo‘lgan, “o‘lik nuqta”sidan foydalaniladi.

"O'lik nuqta" usuli. Har bir korxona ishlab chiqarish jarayonida turli xildagi xarajatlarga duch keladi. Yangi hisobotlar rejasiga binoan, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha ikkita xarajat hisobi varianti bor. Birinchi, sobiq iqtisodiyotga xos bo'lgan, xarajatlarni egri va to'g'ri xarajatlarga bo'lish orqali mahsulot tannarxini aniqlash. Ikkinchi variant, bu iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ko'p qo'llaniladigan sir bo'lib, bunda korxona xarajatlari o'zgaruvchan (ishlab chiqarish) va doimiy xarajatlarga ajratiladi. O'zgaruvchan xarajatlar sotish hajmiga to'g'ri proporsionaldir. Doimiy xarajatlar esa sotishga bog'liq emasdir. Agar biz doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni doimiy, o'zgaruvchan va yarim o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'rtacha tannarx usuli zaxiralarni o'rtacha bahosida ishlab chiqarish tannarxiga olib borishni, Fifo usuli dastlabki kirimni dastlab chiqarishni, Lifo usuli so'nggi kirimni dastlab hisobdan chiqarishni xarakterlaydi.

Bu usullarni farqlashni ahamiyati shundaki, ularning natijaviy ko'rsatkichga ta'siri turlicha bo'ladi. Masalan; o'rtacha tannarx bo'yicha alohida ishlab chiqarish tannarxiga, Fifo usulida alohida, Lifo usulida alohida ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichlariga ega bo'linadi. Buning ta'sirida natijaviy ko'rsatkich ham turlicha bo'ladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholashda boshqa xarajat elementlarini baholanishi xarajatlarning tarkibi bo'yicha farqlanadi. Masalan; xizmatlar shaklida olingan ishlar hajmi ularning haqiqiy qiymati yoki majburiyatlarning tan olingan qiymati bo'yicha baholanadi.

Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxini baholash. 4-son BHMSda TMZlarning mahsulot, ishlar va xizmatlar singari turlari tannarxini aniqlash uchun quyidagi usullar taklif etiladi:

Oddiy usuli – bir turdagi mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqaradigan va yarim tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishga ega bo'lmagan tashkilotlarda qo'llaniladi. Mahsulot (ish va xizmat)lar birligining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari summasini ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ish va xizmat)lar birliklarining umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqariladi.

Me'yoriy usuli – xomashyo, materiallar, mehnat va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning belgilangan me'yorlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olishga asoslangan, u amaliyotda ko'proq qo'llaniladi.

Buyurtma usuli – yakka tartibdagi va mayda turkumli ishlab chiqarishga ega bo'lgan tashkilotlarda qo'llanadi. Barcha xarajatlar buyurtmaning yakunlanishiga qadar to'laligicha tugallanmagan ishlab chiqarish deb hisoblanadi. Agar ushbu buyurtma bir xildagi mahsulot (ish va xizmat)lar turkumidan iborat bo'lsa, mahsulot (ish va xizmat)lar birligining tannarxi mazkur buyurtma bo'yicha xarajatlar summasini mahsulot birliklari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

Bosqichli usul – boshlang'ich xomashyo va materiallar ishlab chiqarish jarayonida bir qator bosqich, faza, pog'onalardan o'tadigan ishlab chiqarishda qo'llanadi. Ushbu usulda avval barcha mahsulotlar (ish va xizmat)larning tannarxi, so'ngra uning birligi tannarxi aniqlanadi. Bunda bosqichli usul tashkilotning tarmoqqa mansubligiga bog'liq holda ikki variantda amalga oshirilishi mumkin: yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz variantlarda.

Xarajatlarni inventar baholash usuli (savdoda). Usul tanlovi TMZlar nomenklaturasiga va ularning turi, ishlab chiqarish turi, uning murakkabligi, tugallanmagan ishlab chiqarish mavjudligi, ishlab chiqarish jarayonining qancha davom etishiga bog'liq bo'ladi. Hisob siyosatida tanlangan usul ochiq ko'rsatiladi.

TMZlarni qayta baholash. Korxona hisob siyosatida TMZlar qiymatini aniqlashtirish davriyligi ham ochiq ko'rsatiladi, bu aniqlashtirish TMZlarni joriy qiymatiga sotishning sof qiymatiga muvofiqlashtirish (agar sotishning sof qiymati tannarxdan past bo'lsa, qiymatni arzonlashtirish) maqsadida amalga oshiriladi.

TMZlarni hisobdan chiqarishda baholash. Korxona ishlab chiqarishga hisobdan chiqariladigan tovar-moddiy zaxiralarni baholash usulini mustaqil ravishda belgilaydi:

Xarid qilingan materiallar birligi tannarxi bo'yicha. Bu usul maxsus loyihalar uchun mo'ljallangan buyumlarga, ular sotib olingan yoki ishlab chiqilganligidan qat'iy nazar qo'llaniladi.

O'rtacha tortilgan qiymat bo'yicha (AVECO). Tovar-moddiy zaxiralar har bir birligining qiymati davr boshida aynan bir xil birliklarning o'rtacha tortilgan qiymati va davr mobaynida xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan aynan bir xil birliklarning qiymatidan kelib chiqib aniqlanadi. TMZlar har bir birligi qiymatini AVECO usuli bo'yicha aniqlash davr boshidagi tovar-moddiy zaxiralar qoldig'ining tannarxi va miqdori hamda ushbu davr mobaynida kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi va miqdoridan shakllanadigan, aynan bir xil birliklarning umumiy tannarxini ularning umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'rtacha qiymat tashkilot tomonidan tanlangan usulga qarab davriy yoki TMZlarning har bir yangi turkumi kelib tushishiga ko'ra hisoblab chiqarilishi mumkin.

Vaqt bo'yicha birinchi xaridlar paytida TMZlar tannarxi bo'yicha (FIFO). TMZlarning chiqib ketayotgan birliklari tannarxiga birinchi navbatda xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan zaxiralarning qiymati kiradi, davr oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar qiymati esa oxirgi bo'lib xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan zaxiralar birliklarining umumiy qiymatidan tashkil topadi.

Tovar-moddiy zaxiralarning har bir guruhi (turi) bo'yicha hisobot davri mobaynida qiymatni aniqlashning bittagina usuli qo'llaniladi. Qo'llanadigan usul hisob siyosatida ham aks ettirilishi lozim.

Zaxiralarni baholash usullarining ustunlik va kamchiliklari

№	Usullar	Ustunligi	Kamchiligi
1.	FIFO	TMZlarni real baholash imkonini beradi	Xarajatlarning eskirishiga olib keladi; foydani potensial tarzda oshiradi; zaxiralar hisobini qiyinlashtiradi
2.	LIFO	Ishlab chiqarish xarajatlarini real bo'lishini va foydaning asosligini ta'minlaydi	Zaxiralarni past bahoda baholashga olib keladi; zaxiralar hisobini qiyinlashtiradi
3.	AVECO	Foydalanish oson, hisob-kitoblar kam	Haqiqatdan farq qiluvchi zaxiralar va ishlab chiqarish xarajatlarini baholashga olib

			keladi
4.	NIFO	Zaxiralar va ishlab chiqarish xarajatlarini real baholash imkonini beradi	Har safar xarajat paytida TMZlar bahosini aniqlash bo‘yicha ko‘p harakat qilish talab qilinadi
5.	Normativ qiymat usuli	Zaxiralar hisobini yengillashtiradi, chunki ularni qiymati bo‘yicha qayd qilishning hojati yo‘q	Normativ qiymat joriy qiymatni aks ettirmasligi va shuning uchun zaxiralar qiymatini buzib ko‘rsatishi mumkin

Amaliyotda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mahsulotga talabning mavsumiyligi, bozor konyunkturasining o‘zgarishi natijasida ishlab chiqarish faoliyati vaqtinchalik to‘xtatilish holatlari yuz berishi mumkin. Ushbu vaziyatda ishlab chiqarish bilan bog‘liq ayrim xarajatlar, xususan, ushbu ishlab chiqarish bilan bog‘liq ish haqi, asosiy vositalarga amortizatsiya xarajatlari to‘xtatilmaydi. Chunki ishlab chiqarish jarayoni to‘xtagani bilan ishlab chiqarish bilan bog‘liq barcha ishchi xodimlar ishdan bo‘shatilmaydi va bu ishchilarga ularni saqlab turish uchun hech bo‘lmaganda minimal daraja bo‘lsa ham, ish haqi hisoblanadi, shuningdek, ushbu ishlab chiqarish bilan bog‘liq amortizatsiya xarajatlari ham amalga oshiriladi.

Xarajatlar o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

Bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar: moddiy sarflar me’yorining o‘zgarishi; moddiy sarflar birligi bahosining o‘zgarishi.

Bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlarining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar: ishchilar sonining o‘zgarishi; bir ishchiga to‘g‘ri keladigan mehnat haqining o‘zgarishi.

Ish haqidan ajratmalarning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar: ajratmalar bazasining o‘zgarishi, ajratmalar stavkasining o‘zgarishi.

Amortizatsiya xarajatlarining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar: amortizatsiyalanadigan qiymat o'zgarishi; amortizatsiya normalarining, tartiblarining o'zgarishi.

Boshqa xarajatlar sarfiga ta'sir etuvchi birliklar yuqoridagi tarkibga kirmaydigan va alohida tarkiblanadigan xarajatlarning turiga qarab o'zgaradi.

Davr xarajatlari o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar sotish, ma'muriy, boshqa operatsion xarajatlar tarkibidan kelib chiqib o'rganiladi.

Moliyaviy xarajatlar o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar ularning shakllanish tarkibidan kelib chiqib baholanadi.

Favqulodda xarajatlar oldindan rejalashtirilmaydi, ularning yuzaga chiqishi oldindan ko'zda tutilmaydi va tasodifiy tasnifga ega.

9.9. Asosiy va umumxo'jalik faoliyati foydasi (zarari), ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llari

Xo'jalik yurituvchi subyekt asosiy va umumxo'jalik faoliyatidan moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

A).Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$YaF = SST - IT$$

Bu yerda:

YaF – yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

B).Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ$$

Bu yerda:

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

S). Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$\mathbf{UF = AFF + MD - MX}$$

Bu yerda:

UF – umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari.

Asosiy va umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda zararlar tahlili

Asosiy faoliyat natijasi ko'rsatkichlari	Satri	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+,-)	O'sishi, %
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	010	3 362 225 550	5 180 801 340	1 818 575 790	154.0
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi	020	2 474 622 038	3 191 287 162	716 665 124	128.9
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr 010-020)	030	887 603 512	1 989 514 178	1 131 910 666	224.2
Davr xarajatlari, jami (satr 050+060+070+080), shu jumladan:	040	568 302 199	752 744 444	184 442 245	132.3
Boshqa operatsion	070	135 306 333	178 630 359	43 324 026	132.0

xarajatlar					
Hisobot davrning soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari	080	-	-	-	-
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	090	-	-	-	-
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (satr 030-040+090)	100	454 607 646	1 415 400 093	960 792 447	3.12
Moliyaviy faoliyatning daromadlari:	110				
Dividendlar shaklidagi daromadlar; foizlar shaklidagi daromadlar; moliyaviy ijaradan daromadlar; valyuta kursi farqidan daromadlar; moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	120-160	269 112 080	506 789 162	237 677 082	188.1
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar:	170				
Foizlar shaklidagi xarajatlar; Moliyaviy ijara bo'yicha foizlar	180-210	159 047 300	833 455 050	674 407 750	523.9

shaklidagi xarajatlar; valyuta kursi farqidan zararlar; moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar					
Umumxo'jalik faoliyatidan moliyaviy natija		564 672 426	1 088 734 205	524 061 779	192.9

Korxona umumxo'jalik faoliyatidan moliyaviy natijalar tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, o'tgan yilga nisbatan umumxo'jalik faoliyati natijasi 524 061 779 ming so'mga yoki 192.9 foizga ortgan. Bu o'zgarishlar asosan asosiy faoliyat natijasidagi ijobiy farqlanishlar hisobiga ro'y bergan. Negaki, joriy davrda moliyaviy faoliyatdan daromadlar 188.1 foizga o'sgan holda, moliyaviy faoliyatdan xarajatlar 523.1 foizga ortishi kuzatilgan. Ya'ni moliyaviy faoliyatdan daromadlardagi o'zgarishlardan 3 baravar ko'p xarajatlar ortishiga yo'l qo'yilgan.

Xo'jalik umumiy (oddiy) faoliyatidan keladigan daromadlar va xarajatlar moddalari muayyan miqdorga etsa va xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati operatsiyalari mazmuni juda muhim bo'lsa, bu moddalarning mohiyati va miqdori ochib ko'rsatilishi kerak.

Moliyaviy hisobotlarga, tushuntirishlarda ochib ko'rsatishni talab qiladigan muhim xo'jalik operatsiyalariga quyidagilar kiradi[62]:

- mahsulotni sotishning sof qiymatiga qadar TMZni qayta baholab, kamaytirish yoki asosiy vositalar qiymati tiklanmay turib, uni qayta baholab narxini arzonlashtirish, shuningdek, bunday qayta baholashlarni bekor qilish;

- xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini kechiktirish, shuningdek, kechiktirishga xarajatlar bo'yicha har qanday zaxiralarni bekor qilish;

- uzoq muddatli investitsiyalarni tugatish;

[62]3-сон БҲМС. Молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот, Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан рўйхатга олинган 27.08.1998 й. N 484

- faoliyatini to'xtatish;
- sud jarayonlarini yo'lga qo'yish;
- zaxiralarni bekor qilish.

9.10. Favqulodda foyda va zararlar tahlili

Foydaning joriy ko'rsatkichi uning o'tgan yillarga tegishli qismi, kelgusidagi kutilishlarini prognoz, ya'ni bashorat qilishda daromad va xarajatlarning alohida tarkibiy qismlarini baholash lozim. Ana shunday tarkibiy birliklardan biri bu favqulodda foyda va zararlar hisoblanadi.

Foyda va zararlarni bashoratlashda uning tarkibiy elementlarining takroriyligiga muhim ahamiyat qaratiladi. Lekin, favqulodda moddalar bunday xususiyatga ega emas.

Shu sababli, ushbu tarkibni o'rganishda favqulodda foyda va zararlarning yuzaga chiqishiga muhim ahamiyat qaratish lozim.

Favqulodda daromad (zarar) – xo'jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyatidan aniq farq qiladigan, ya'ni tez-tez yoki muntazam sodir bo'lmaydigan voqealar yoki bitimlar natijasida yuz bergan daromadlar yoki xarajatlardir.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emaslik.

Tegishli moddalarni favqulodda zararlar qatoriga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim.

Foyda va zararlarning ushbu qatori favqulodda holatlar ya'ni taraflarning xohish irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, tabiat hodisalari (zilzila, ko'chkilar, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko'zlab importni hamda eksportni

ta'qiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar bo'yicha majburiyatlari tufayli yuzaga chiqadi[63].

Favqulodda foyda va zararlar tahlili

Ko'rsatkichlar	Satri	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+;-)	O'sishi, %
1	2	3	4	5	6
Favquloddagi foyda va zararlar	230	**0**	**0**	**0**	**0**
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (satr 220+/-230)	240	**564 672 426**	**1 088 734 205**	**524 061 779**	**192.9**
Foyda solig'i	250	16 304 363	30 730 577	14 426 214	188.4
Foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar	260	40 674 456	83 965 344	43 290 888	206.4
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (satr 240-250-260)	270	**507 693 607**	**974 038 284**	**466 344 677**	**192.1**

Korxonada joriy davrda va o'tgan davrda ham favqulodda daromadlar va xarajatlar qayd etilmagan. Soliq to'loviga qadar foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 524 061 779 ming so'mga yoki 192.9 foizga ortgan. Foyda solig'i bo'yicha o'zgarish 14 426 214 ming so'mga o'tgan yilga nisbatan ko'p to'langan. Foydadan boshqa soliqlar va to'lovlar summasi ham o'tgan yilga nisbatan 43 290 888 ming so'mga ortgan.

9.11. Soliq to'langunga qadar foyda tahlili

Korxona faoliyatining umumiy natijasi soliq to'loviga qadar moliyaviy natijada jamlanadi. Soliq to'loviga qadar foyda – foyda solig'i va boshqa soliqlar to'lovining obyekti bo'lganligi sababli uning

[63]Солиқ Кодекси, 22-модда

nomlanishida "soliq to'loviga qadar" so'ziga urg'u berilgan. Soliq to'loviga qadar foyda summasidan foyda solig'i hamda foydadan boshqa soliqlar va majburiy to'lovlar amalga oshiriladi.

Amaldagi, "Xarajatlar tarkibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq ushbu jamlangan qatorni aniqlash uslubiyotini belgilash mumkin.

Soliq to'langungacha olingan foyda, u umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{STF = UF + FF - FZ}$$

Bu yerda:

STF – soliq to'langungacha olingan foyda;

FF – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ – favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar.

Yilning sof foydasi, u soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi, o'zida foydadan to'lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$\mathbf{SF = STF - DS - BS}$$

Bu yerda:

SF – sof foyda;

DS – daromad solig'i;

BS – boshqa soliqlar.

-jadval

Sof foyda va uning omilli tahlili

Asosiy faoliyat natijasi ko'rsatkichlari	**Satri**	**O'tgan yil**	**Hisobot yili**	**Farqi (+,-)**	**O'sishi, %**
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	010	3 362 225 550	5 180 801 340	1 818 575 790	154.0
Sotilgan mahsulot (ish va	020	2 474 622 038	3 191 287 162	716 665 124	128.9

xizmat)larning tannarxi					
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr 010-020)	030	887 603 512	1 989 514 178	1 131 910 666	224.2
Davr xarajatlari, jami (satr 050+060+070+080), shu jumladan:	040	568 302 199	752 744 444	184 442 245	132.3
Boshqa operatsion xarajatlar	070	135 306 333	178 630 359	43 324 026	132.0
Hisobot davrning soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari	080	-	-	-	-
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	090	-	-	-	-
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (satr 030-040+090)	100	454 607 646	1 415 400 093	960 792 447	3.12
Moliyaviy faoliyatning daromadlari:	110				
Dividendlar shaklidagi daromadlar; foizlar shaklidagi daromadlar; moliyaviy ijaradan daromadlar; valyuta kursi farqidan daromadlar; moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	120-160	269 112 080	506 789 162	237 677 082	188.1
Moliyaviy faoliyat	170				

bo‘yicha xarajatlar:					
Foizlar shaklidagi xarajatlar; moliyaviy ijara bo‘yicha foizlar shaklidagi xarajatlar; valyuta kursi farqidan zararlar; moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar	180-210	159 047 300	833 455 050	674 407 750	523.9
Umumxo‘jalik faoliyatidan moliyaviy natija	220	564 672 426	1 088 734 205	524 061 779	192.9
Favquloddagi foyda va zararlar	230	0	0	0	0
Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar) (satr 220+/-230)	240	564 672 426	1 088 734 205	524 061 779	192.9
Foyda solig‘i	250	16 304 363	30 730 577	14 426 214	188.4
Foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar	260	40 674 456	83 965 344	43 290 888	206.4
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (satr 240-250-260)	270	507 693 607	974 038 284	466 344 677	192.1

Korxonada o‘tgan yilga nisbatan barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilgan.

Jumladan:

- sotishdan yalpi foyda summasi o‘tgan yilga nisbatan 1 131 910 666 ming so‘mga yoki 224.2 foizga ortgan;

- davr xarajatlari o‘tgan yilga nisbatan 184 442 245 ming so‘mga yoki 133.2 foizga o‘sgan;

- moliyaviy faoliyatdan daromadlar 237 677 082 ming so‘mga yoki 188.1 foizga oshgan;

- moliyaviy faoliyatdan xarajatlar 674 407 750 ming so'mga yoki 523.9 foizga ortgan;

- umumjo'jalik faoliyati natijasi 524 061 779 ming so'mga yoki 192.9 foizga ortgan;

- foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 524 061 779 ming so'mga yoki 192.9 foizga ortgan;

- sof foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 466 344 677 ming so'mga yoki 192.1 foizga ortgan.

9.12. Byudjetga to'lovlar va ajratmalarning tahlili

Byudjetga to'lovlar va ajratmalar deganda korxonalarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari bo'yicha majburiyatlari tushuniladi. Ushbu majburiyatlar qisqa muddatli majburiyatlar hisoblanadi. Chunki qonunchilikka muvofiq ular joriy davrda qoplanishi zarur.

Soliqlar deganda – muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi[64].

Boshqa majburiy to'lovlar deganda – davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi[65].

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

3) qo'shilgan qiymat solig'i;

4) aksiz solig'i;

5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;

[64]Солиқ кодекси, 12-модда
[65]Солиқ кодекси, 12-модда

6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

7) mol-mulk solig'i;

8) yer solig'i;

10) benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to'lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar:

- yagona ijtimoiy to'lov;

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga fuqarolarning sug'urta badallari;

- davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar;

Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;

2) davlat boji;

3) bojxona to'lovlari;

4) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlarga:

- yagona soliq to'lovi;

- yagona yer solig'i;

- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Shuningdek, davlat umummilliy dasturlarini amalga oshirish davrida tegishli jamg'armalar tashkil etilishi mumkin bo'lib, ularga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to'lovlar belgilanadi.

Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha korxonalarning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;

- qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;

- davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;

- soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek, mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tahlili quyidagi bosqichda amalga oshiriladi:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ishonchli va to'liq axborot manbaini shakllantirish;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha korxona va soliq organidagi ma'lumotlarni taqqoslash;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'zgarish dinamikasini aniqlash;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tahlili yuzasidan yakuniy xulosalarni shakllantirish;

- ichki va tashqi imkoniyatlardan natijaviy omilga ta'sir etishini boshqarish yuzasidan qarorlarni tayyorlash va realizatsiya qilish.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tarkibi tahlili

Ko'rsatkichlar nomi	Satri	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+,-)	O'sishi, %
1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	280	16 304 363	30 730 577	14 426 214	188.4
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	290	191 645 223	258 722 106	67 076 883	135.1
shu jumladan: shaxsiy jamg'arib	291				

boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ajratmalar					
3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	300	40 674 456	83 965 344	43 290 888	206.4
4. Qo'shilgan qiymat solig'i	310	271 325 645	417 841 490	146 515 845	153.8
5. Aksiz solig'i	320	-	-	-	-
6. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	330	-	-	-	-
6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	340	2 256 400	3 942 012	1 685 612	174.7
7. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	350	213 121 506	313 560 412	82 438 906	146.9
8. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i	360	125 642 301	138 625 410	12 983 109	110.4

Korxonada foydadan soliq to'lovi o'tgan yilga nisbatan 14 426 214 ming so'mga yoki 188.4 foizga ortgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i o'tgan yilga nisbatan 67 076 883 ming so'mga yoki 135.1 foizga, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i o'tgan yilga nisbatan 43 290 888 ming so'mga yoki 206.4 foizga, qo'shilgan qiymati solig'i 146 515 845 ming so'mga yoki 153.8 foizga, suv resurslaridan foydalanganlik solig'i 1 685 612 ming so'mga yoki 174.7 foizga, mol-mulk solig'i to'lovi o'tgan yilga nisbatan 82 438 906 ming so'mga yoki 146.9 foizga ortgan.

9.13. Soliq to‘lovlari dinamikasi, ularning natijaviy ko‘rsatkichlar bilan qiyosiy tahlili

Zamonaviy talablarga javob beradigan soliq tizimini yaratish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirishning asosiy shartlaridan biridir.

Jumladan, bu yo‘nalishda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirish maqsadida, eng avvalo, ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog‘ini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Albatta, soliq yukini kamaytirish natijasida korxonalarda o‘z ixtiyorida qoladigan mablag‘lardan ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida investitsiya faoliyatini kengaytirish hamda xodimlar mehnatini yanada rag‘batlantirish imkoni paydo bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgartirishlar va islohotlarning mantiqiy davomi sifatida, jumladan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan, soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar belgilangan.

Ushbu vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek, soliq ma’muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligini oshirish maqsadida joriy 2018-yilning 18-iyulida Prezidentimizning “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmon bilan soliq tizimini takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanlik darajasini oshirish

maqsadida davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlari belgilab berildi.

Jumladan, soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to'lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish vazifasi belgilandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, bir tomondan soliq to'lovchilarning behuda qog'oz, yo'l va boshqa sarf-xarajatlarini kamaytirsa, ikkinchi tomondan ta'magirlik kabi korrupsiya holatlarini oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish va soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish hamda soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish kabi vazifalar yuqorida aytib o'tilgan ezgu maqsadlarni ko'zda tutadi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil etish orqali soliq solish obektlarini to'liq qamrab olishni ta'minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi esa mahalliy byudjetlarning daromad bazasini oshirib, ularning mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida "sog'lom raqobat"ni ta'minlash va "xufyona biznes" yuritish tartiblarini oldini olish yuzasidan ham qator yangi tartiblar belgilanmoqda.

O'tgan davr mobaynida xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshirishlarni va ularning faoliyatiga asossiz aralashishlarni qisqartirish natijasida qator ijobiy natijalarga erishildi va bu jarayonlar davom ettirilmoqda.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirishlarning bekor qilinganligi, hisobotlarning shakli va topshirish muddatlari soddalashtirilganligi, yangidan imtiyozlar preferensiyalarning joriy etilishi bilan korxonalar ixtiyorida qoladigan

mablag'lar hajmi va ularning samaradorligi hisobiga, byudjetga to'lovlar va tushumlarning salmog'idan o'sish tendensiyalari tobora yaqqolroq ko'rinmoqda.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning byudjetga to'lovlari haqidagi axborotlari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga ma'lumotnomada hisob-kitob qilingan va haqiqatda to'langan qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

- jadval

Soliq to'lovlari dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Yillar				O'zgarishi (+;-)		
	2017 y.	2016 y.	2015 y.	2014 y.	2017 y. 2016 y.ga nisbatan	2017 y. 2015 y.ga nisbatan	2017 y. 2014 y.ga nisbatan
1. Foyda solig'i	30 730 577	16 304 363	18 845 215	26 043 300	14 426 214	11 885 362	4 687 277
2. Foydadan boshqa soliq to'lovlari va yig'imlari	83 965 344	40 674 456	4 443 440	56 999 126	39 290 888	79 521 904	26 966 218

Korxonada foydadan soliq va boshqa soliqlar, to'lovlar dinamikasidan shuni xulosa qilish mumkinki, o'tgan davrlar bo'yicha to'lovlar summasi bir muncha ortgan. Asosiy soliq hisoblangan to'langan foydadan soliq summasi o'tgan yillarga nisbatan 2016-yilga nisbatan 14 426 214 ming so'mga, 2015-yilga nisbatan 11 885 362 ming so'mga, 2014-yilga nisbatan 4 687 277 ming so'mga ortgan.

9.14. Korxonalarda soliq yukini hisoblash yo'llari va tahlili

Soliq yuki mamlakat soliq tizimi ko'rsatkichlarining majmuasini ifodalaydi.

Soliq yuki – soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibidagi ulushidir. Soliq yukini nafaqat mamlakat miqyosida, balki tarmoq, hudud yoki alohida olingan soliq to'lovchilar, korxonalar uchun ham aniqlash mumkin.

Makroiqtisodiy darajada soliq yuki soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.

Uning ko'rinishi quyidagicha:

$$\mathbf{CYu = S + T / YaIM * 100}$$

Bu yerda:

SYu – soliq yuki;

S – soliqlar;

T – to'lovlar;

YaIM – mamlakatdagi yalpi ichki mahsulot.

Korxonalarda soliq yuki ular oladigan daromadlariga nisbatan aniqlanadi. Ya'ni, mahsulot (ish va xizmat)larni sotish hajmidan, yoki yangidan yaratilgan qiymatdan kelib chiqib hisoblanadi.

Korxonalarda soliq yukini mahsulot (ish va xizmat)larni sotish hajmiga hamda qo'shilgan qiymatga nisbatan aniqlash formulalarini quyidagi mazmunda tuzib chiqish mumkin.

Sotishdan tushumga nisbatan:

a) **SYu=S+T/ ST**

Qo'shilgan qiymatga nisbatan:

b) **SYu=S+T/ QQ**

Bu yerda:

F(D) – foyda (daromad);

ST – sotishdan tushum;

QQ – qo'shilgan qiymat.

Qo'shilgan qiymat deganda ma'lum tovar (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish jarayonida tovar (ish va xizmat)larga yangidan ishlov berish jarayonida qo'shiladigan qiymat tushuniladi.

Qo'shilgan qiymat tarkibiga amortizatsiya ajratmalari, mehnat haqi to'lovlari, ijtimoiy ajratmalar, egri va boshqa soliqlar hamda foyda ham qo'shiladi.

Soliq yukining tahlili

Yillar	Hisoblangan va to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasi	Sotishdan tushum	Yangidan yaratilgan qiymat	Soliq yuki	
				Sotishdan tushumga nisbatan	Qo'shilgan qiymatga nisbatan
A	1	2	3	4	5
2016 yil	860 969 894	3 362 225 550	2 474 622 038	25.5	34.7
2017 yil	1 247 387 351	5 180 801 340	3 191 287 162	24.07	39.1
Farqi (+,-)	386 417 457	1 818 575 790	716 665 124	-0.8	4.4

Korxonada soliq yuki sotishdan tushumga nisbatan 25.5 dan 24.07 ga kamaygan. Yangidan yaratilgan qiymatga nisbatan 34.7 foizdan 39.1 foizga ortgan.

9.15. Sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Korxonada raqobatdoshlikni ta'minlash birinchi navbatda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, faoliyat natijaviyligini o'stirishga va uning istiqboldagi ko'rsatkichlarni qay darajada ta'minlashiga bog'liq.

Sof foyda hajmining o'sishi ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishning, mehnatga munosabatni o'zgartirishning, investitsion jozibadorlikni oshirish va bozor aktivligini ta'minlashning ham zaruriy sharti ham hisoblanadi.

Sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga yuqoridagi manbalarni umumlashtirgan quyidagi ta'sir birliklarini kiritish mumkin.

Sof foyda va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar

Natijaviy ko‘rsatkichlar	Ta’sir omillari
1.Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foyda	Sotilgan mahsulot bahosining o‘zgarishi
	Xomashyo, materiallar, energiya sarflari ta’rif bahosining o‘zgarishi hisobiga
	Sotilgan mahsulot hajmining o‘zgarishi
	Sotilgan mahsulot tarkibining o‘zgarishining sotishdan tushumga ta’siri hisobiga
	Bir so‘mlik mahsulotga xarajat summasining o‘zgarishi hisobiga
	Sotilgan mahsulot tarkibiy o‘zgarishlarining tannarxga ta’siri hisobiga
	+,-
2.Asosiy faoliyatning foydasi	Sotish xarajatlari
	Ma’muriy xarajatlar
	Boshqa operatsion xarajatlar
	Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari
	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari
	+,-
Umumxo‘jalik faoliyatidan foydaning	Moliyaviy faoliyatdan daromadlar
	Moliyaviy faoliyatdan xarajatlar
	+,-
Soliq to‘loviga qadar foyda	Favqulodda daromadlar
	Favqulodda xarajatlar
	+,-
Sof foyda	Foydadan soliq
	Foydadan boshqa majburiy to‘lovlar
	-
Sof foydaning taqsimoti	Ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga (jamg‘arish)
	Rezerv (zaxira) fondini shakllantirishga (jamg‘arish)
	Dividendlarga (iste’mol)
	Ustav kapitalini oshirishga (qonunda belgilangan tartiblarda)

	=
Taqsimlanmagan foyda	Jamlangan, umumlashgan holda to‘planadi.

Sof foyda va uning omilli tahlili

Ta’sir omillari	Aniqlash formulasi	Ta’sir darajasi	Izoh
Sotishdan yalpi foydaning umumiy o‘zgarishi	$\Delta R = R_1 - R_0$	1 131 910 666	
Sotilgan mahsulot bahosining o‘zgarishi	$\Delta R_1 = \sum q_1 p_1 - \sum q_1 p_0$	328 676 988	
Xomashyo, materiallar, energiya sarflari ta’rif bahosining o‘zgarishi hisobiga	$\sum q_1 p_k - \sum q_1 p_1$	-488 289 775	
Sotilgan mahsulot hajmining o‘zgarishi	$K_1 = \sum q_1 s_0 / \sum q_0 s_0,$ $K_1 * R_0 - P_0$	178 891 297	
Sotilgan mahsulot tarkibining o‘zgarishini sotishdan tushumga ta’siri hisobiga	$R_0 * K_2$ $K_2 = (\sum q_1 p_0 / \sum q_0 p_0 - \sum q_1 s_0 / \sum q_0 s_0)$	1 874 444 428	
Bir so‘mlik mahsulotga xarajat summasining o‘zgarishi hisobiga	$\sum q_1 s_0 - \sum q_1 s_k$	-390 618 967	
Sotilgan mahsulot tarkibiy o‘zgarishlarining tannarxga ta’siri hisobiga	$\sum q_0 s_0 * K_1 - \sum q_0 s_0$	-371 193 305	
Davr xarajatlari, jami shu jumladan:	$\Delta DX = DX_1 - DX_0$	-184 442 245	
Sotish xarajatlari	$Sc_1 - Sc_0$	-	
Ma’muriy xarajatlar	$Sm_1 - Sm_0$	-	
Boshqa operatsion xarajatlar	$So_1 - So_0$	-43 324 026	
Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari	$St_1 - St_0$	-	
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	$Pb_1 - Pb_0$	-	
Asosiy faoliyatning foydasi	$\Delta Af = Af_1 - Af_0$	960 792 447	

(zarari)			
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami shu jumladan:	Δ Mfd	237 677 082	
Dividendlar shaklidagi daromadlar	D_1-D_0	-	
Foizlar shaklidagi daromadlar	Fd_1-Fd_0	-	
Moliyaviy ijaradan daromadlar	MId_1-MId_0	-	
Valyuta kursi farqidan daromadlar	VKd_1- VKd_0	-	
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	MBd_1-MBd_0	-	
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, jami shu jumladan:	Δ Mfx	-674 407 750	
Foizlar shaklidagi xarajatlar	Fx_1-Fx_0	-	
Moliyaviy ijara bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	MIx_1-MIx_0	-	
Valyuta kursi farqidan zararlar	VKx_1- VKx_0	-	
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	MBx_1-MBx_0	-	
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	Δ Uxfn= $Uxfn_1$-$Uxfn_0$	524 061 779	
Favquloddagi foyda va zararlar		-	
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (satr 220+/-230)	Δ Fn= $Fn_1 - Fn_0$	524 061 779	
Foyda solig'i	Δ Fs= $Fs_1 - Fs_0$	-14 426 214	
Foydadan boshqa soliqlar va majburiy to'lovlar	Δ Fbs= $Fbs_1 - Fbs_0$	-43 290 888	
Sof foyda	SF_1-SF_0	466 344 677	

Sof foyda o'tgan yilga nisbatan 466 344 677 ming so'mga ortgan, bu o'zgarishlar quyidagi ijobiy va salbiy omillar ta'sirida bo'lgan.

Ijobiy omillar qatoriga: sotilgan mahsulot bahosining o'zgarishi (328 676 988 ming so'm), sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishi (178 891 297 ming so'm), sotilgan mahsulot tarkibining o'zgarishi

(1 874 444 428 ming so'm), moliyaviy faoliyatdan daromadlarning o'zgarishi (237 677 082 ming so'm)ni;

Salbiy omillar qatoriga: xomashyo, materiallar, energiya sarflari bahosining o'zgarishi (-488 289 775 ming so'm), bir so'mlik mahsulotga xarajat summasining o'zgarishi (-390 618 967 ming so'm), sotilgan mahsulotlar tarkibiy o'zgarishlarining tannarxga ta'siri tufayli (-371 193 305 ming so'mga), davr xarajatlari hisobiga (-184 442 245 ming so'm), moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarning ortishi hisobiga (-674 407 750 ming so'm), foydadan soliq, foydadan boshqa soliqlar va to'lovlarning o'zgarishi hisobiga (14 426 214 ming so'm hamda 43 290 888 ming so'm) to'g'ri kelgan.

9.16. Rentabellik ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Korxona faoliyati va mahsulotlari raqobatdoshligini ta'minlashning eng muhim tayanchi bu uning rentabellik darajasidir. Rentabellik – nemis tilidangi "rentabel"[66] daromadlik, foydalilik degan ma'noni anglatadi.

Uning iqtisodiy mazmunini moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan, shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi ifoda etadi.

Rentabellikning bir nechta guruhi aktivlar, ishlab chiqarish, sotuv va kapital rentabelligi guruhi tarkiblanadi. Har bitta guruhga bir necha ko'rsatkichlar tizimi kiritiladi. Lekin baholashda, omilli tahlil etishda ularning har bittasi alohida hisob-kitob qilinadi va baholanadi.

Rentabellikning asosiy ko'rsatkichlari:

- Aktivlar rentabelligi (ROA Return On Assets) = Sof foyda / Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati;
- Sotuv rentabelligi = Mahsulot (ish va xizmat)lar sotishning yalpi foydasi / Sotishdan sof tushum;
- Operatsion faoliyat rentabelligi (ROS Return On Sales) =

[66] Рентабельность //Большая советская энциклопедия: [в 30 т.]/гл.ред. А.М.Прохоров. - 3-е изд- М.: Советская энциклопедия, 1969-1978.

Operatsion foyda / Sotishdan sof tushum;

• Xususiy kapital rentabelligi (ROE Return On Equity) = Sof foyda / Xususiy kapital.

Qo'shimcha ko'rsatkichlari:

• Asosiy vositalar rentabelligi = Sof foyda / Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati;

• Xodimlar rentabelligi (ROL) = Sof foyda / Xodimlarga xarajatlar (mehnat haqi fondi va xodimlarga boshqa xarajatlar);

• Aktivlarning bazaviy foydalilik koeffitsiyenti (Basic earning power) – Soliq to'loviga qadar foyda / Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati (BEP = EBITDA / Aktivlar o'rtacha yillik qiymati;

• Investitsiyalangan kapital rentabelligi (ROIC) – Operatsion foyda / O'z mablag'lari manbasi va uzoq muddatli qarz kapitali (ROIC = EBIT × (100% - Foyda solig'i stavkasi) / investitsiyalangan kapital.

Ayrim hollarda qarz kapitali to'liq olinadi. ROIC = (EBIT × (100% - Foyda solig'i stavkasi) – Qarz kapitali bo'yicha foizlar summasi) / (Xususiy kapital + Qarz kapitali);

• Jalb qilingan kapital rentabelligi = Sof foyda / (O'z mablag'lari manbasi + uzoq muddatli qarz mablag'lari) (ROCE);

• Jami aktivlar rentabelligi (ROTA) = Soliq to'loviga qadar foyda / Jami aktivlar;

• Biznes aktivlari rentabelligi (ROBA) = Sof foyda / Biznes aktivlari;

• Sof aktivlar rentabelligi (RONA) = Soliq to'loviga qadar foyda / Sof aktivlar;

• Ishlab chiqarish rentabelligi = Sof foyda / (Asosiy vositalar + Aylanma aktivlar);

• Marja rentabelligi (Profitability of the margin) – Sotilgan mahsulot bahosi - Sotilgan mahsulot tannarxi / Sotilgan mahsulot tannarxi;

• Va boshqa ko'rsatkichlar.

Rentabellikda samaradorlik ko'rsatkichlarining: yalpi tushum, xarajat, aktiv, kapitalning har bir so'miga to'g'ri keladigan natijaviylik ko'rsatkichlari: yalpi foyda, operatsion foyda, soliq to'loviga qadar foyda, sof foyda ko'rsatkichlarini aniqlanadi.

Korxona rentabelligi tahlili

Ko'rsatkichlar nomi	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi, (+,-)	O'sishi, %
A	2	3	4	5
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum (satr 010)	3 362 225 550	5 180 801 340	1 818 575 790	154.0
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi (satr 020)	2 474 622 038	3 191 287 162	716 665 124	128.9
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr 010-020)	887 603 512	1 989 514 178	1 131 910 666	224.2
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (satr 030-040+090)	454 607 646	1 415 400 093	960 792 447	3.12
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari) (satr 100+110-170)	564 672 426	1 088 734 205	524 061 779	192.9
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (satr 220+/-230)	564 672 426	1 088 734 205	524 061 779	192.9
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (satr 240-250-260)	507 693 607	974 038 284	466 344 677	192.1
Aktivlarninng o'rtacha yillik qiymati	13 198 104 658	24 276 893 065	11 078 788 407	183.9
Joriy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati	2 978 372 713	11 683 693 105	8 705 320 392	392.3
Uzoq muddatli aktivlarning o'rtacha yillik qiymati	10 219 731 945	12 593 199 960	2 373 468 015	123.2
Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati	7 104 110 120	10 452 934 960	3 348 824 840	147.1
Aylanma aktivlarning o'rtacha yillik qiymati	819 530 511	1 047 437 972	227 907 461	127.8
O'z mablag'larining o'rtacha yillik qiymati	7 745 794 466	10 124 233 076	2 378 438 610	130.7
Qarz kapitalining o'rtacha yillik qiymati	5 452 310 192	14 152 659 989	8 700 349 797	256.0
Investitsiyalangan kapitalning o'rtacha yillik qiymati	614 384 306	828 202 670	213 818 364	135.0
Xodimlarga va ular nomidan	895 236	1 218 850	323 614	136.1

qilingan xarajatlar	214	312	098	
Aktivlarning rentabelligi, %	3.8	4.0	0.2	105.2
Joriy aktivlarning rentabelligi, %	17.0	8.3	-8.7	48.8
Uzoq muddatli aktivlarning rentabelligi, %	4.9	7.7	2.8	157.1
Asosiy vositalarning rentabelligi, %	7.1	9.3	2.2	131.0
Aylanma aktivlarning rentabelligi, %	61.9	93.0	31.1	150.2
O'z mablag'larining rentabelligi, %	6.5	9.6	3.1	147.6
Qarz kapitalining rentabelligi, %	9.2	6.8	-2.4	73.9
Investitsiyalangan kapitalning rentabelligi, %	82.5	117.6	35.1	142.5
Xodimlarga va ular nomidan qilingan xarajatlar rentabelligi, %	56.6	79.9	23.3	141.1
Sotuv rentabelligi, %	26.3	38.4	12.1	146.0
Ishlab chiqarish rentabelligi, %	35.8	62.3	26.5	174.0
Asosiy faoliyat rentabelligi, %	13.5	27.3	13.8	202.2

Korxonada rentabellik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishini o'tgan yilga nisbatan ijobiy baholash mumkin. Jumladan aktivlarning rentabelligi 0.2 %ga, uzoq muddatli aktivlarning rentabelligi 2.8 %ga, asosiy vositalar rentabelligi 2.2 %ga, ishlab chiqarish zaxiralari rentabelligi 31.1 %ga, o'z mablag'lari rentabelligi 3.1 %ga sotuv rentabelligi 12.1 %ga, ishlab chiqarish rentabelligi 26.5 %ga, asosiy faoliyat rentabelligi 13.8 %ga ortgan.

Aniqlanayotgan rentabellik ko'rsatkichining ta'sir birliklari faoliyat samaradorligi va natijaviyligiga olib keluvchi tashkiliy, texnik, iqtisodiy, mehnatni tashkil etish, marketing, menejment va innovatsion yangiliklarga oid omillarning ta'sirida o'zgaruvchan va aniq hisob-kitob qilinadigan ko'rsatkichlarda jamlanuvchi ko'rsatkichlar tizimi orqali baholanadi.

Ularni rentabellik turlariga muvofiq quyidagi ta'sir birliklarini tarkiblash mumkin.

Rentabellik ko'rsatkichlari va ularning ta'sir birliklari

Rentabellik ko'rsatkichlari	**Ta'sir birliklari**	
Aktivlarning rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	Aktivlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi
Joriy aktivlarning rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	Joriy aktivlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi
Uzoq muddatli aktivlarning rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	Uzoq muddatli aktivlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi
Asosiy vositalarning rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi
Aylanma aktivlarning rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	Aylanma aktivlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi
O'z mablag'larining rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	O'z mablag'lari o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi
Qarz kapitalining rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	Qarz kapitali o'rtacha yillik summasining o'zgarishi
Investitsiyalangan kapitalning rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	Investitsiyalangan kapital summasining o'zgarishi
Xodimlarga va ular nomidan qilingan xarajatlar rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	Xodimlarga va ular nomidan qilingan xarajatlarning o'zgarishi
Sotuv rentabelligi	Sotishdan yalpi foyda o'zgarishi	Sotishdan sof tushum o'zgarishi
Ishlab chiqarish rentabelligi	Sof foyda o'zgarishi	Asosiy va aylanma kapital o'zgarishi

Omillar ta'siri rentabellikni aniqlash formulasining murakkabligidan kelib chiqib oddiy va murakkab matematik modellari asosida hisob-kitob qilinadi. An'anaviy usullar sifatida ko'pincha zanjirli bog'lanish usulidan keng foydalaniladi.

Rentabellik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili (zanjirli usul)

Yillar	**Rentabellik ko'rsatkichlari va ularning darajasi**	**Ta'sir birliklari va ta'sir darajasi**	
	Aktivlarning rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	Aktivlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi
O'tgan yil	3.8	3.5	-3,3
Hisobot yili	4.0		
Farqi (+;-)	0.2	7.3-3.8	4,0-7,3
	Joriy aktivlarning rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	Joriy aktivlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi
O'tgan yil	17.0	32,2	-40,9
Hisobot yili	8.3		
Farqi (+;-)	-8.7	49,2-17,0	8,3-49,2
	Uzoq muddatli aktivlarning rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	Uzoq muddatli aktivlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi
O'tgan yil	4.9	4,6	-1,8
Hisobot yili	7.7		
Farqi (+;-)	2.8	9,5-4,9	7,7-9,5
	Asosiy vositalarning rentabelligi	Sof foyda summasining o'zgarishi	Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi

O‘tgan yil	7.1	20,6	-18,4
Hisobot yili	9.3		
Farqi (+;-)	2.2	27,7-7,1	9,3-27,7
	Aylanma aktivlarning rentabelligi	Sof foyda summasining o‘zgarishi	Aylanma aktivlarning o‘rtacha yillik qiymatining o‘zgarishi
O‘tgan yil	61.9	57,0	-25,9
Hisobot yili	93.0		
Farqi (+;-)	31.1	118,9-61,9	93,0-118,9
	O‘z mablag‘larining rentabelligi	Sof foyda summasining o‘zgarishi	O‘z mablag‘lari o‘rtacha yillik qiymatining o‘zgarishi
O‘tgan yil	6.5	6,0	-2,9
Hisobot yili	9.6		
Farqi (+;-)	3.1	12,5-6,5	9,6-12,5
	Qarz kapitalining rentabelligi	Sof foyda summasining o‘zgarishi	Qarz kapitali o‘rtacha yillik summasining o‘zgarishi
O‘tgan yil	9.2	8,6	-11,0
Hisobot yili	6.8		
Farqi (+;-)	-2.4	17,8-9,2	6,8-17,8
	Investitsiyalangan kapitalning rentabelligi	Sof foyda summasining o‘zgarishi	Investitsiyalangan kapital summasining o‘zgarishi
O‘tgan yil	82.5	76,1	-40,5
Hisobot yili	117.6		
Farqi (+;-)	35.1	158,6-82,5	117,6-158,6
	Xodimlarga va ular nomidan qilingan xarajatlar rentabelligi	Sof foyda summasining o‘zgarishi	Xodimlarga va ular nomidan qilingan xarajatlar rentabelligi
O‘tgan yil	56.6	52,2	-28,9
Hisobot yili	79.9		

Farqi (+;-)	23.3	108,8-56,6	79,9-108,8
	Sotuv rentabelligi	Sotishdan yalpi foyda o'zgarishi	Sotishdan sof tushum o'zgarishi
O'tgan yil	26.3	32,8	-20,7
Hisobot yili	38.4		
Farqi (+;-)	12.1	59,1-26,3	38,4-59,1
	Ishlab chiqarish rentabelligi	Sof foyda o'zgarishi	Asosiy va aylanma kapital o'zgarishi
O'tgan yil	35.8	44,5	-18,0
Hisobot yili	62.3		
Farqi (+;-)	26.5	80,3-35,8	62,3-80,3

Omilli tahlil natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, korxonada barcha rentabellik ko'rsatkichlariga sifat omili bo'lgan sof foydaning o'sishi, mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foydaning o'zgarishi ijobiy ta'sir qilgan.

Ikkinchi ta'sir birligi bo'lgan aktivlar, joriy aktivlar, uzoq muddatli aktivlar, kapital, qarz kapitali, investitsiyalangan kapital, xodimlar nomidan qilingan xarajatlar, sotuv hajmi, ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishi salbiy ta'sir qilgan. Ularning mutlaq ta'sir darajasini yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

9.17. Foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash

Foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash va ular bo'yicha yakuniy analitik xulosalarni tayyorlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim masala hisoblanadi. Shu sababli ham moliyaviy natijalar va rentabellik tahlilining yakunida korxonada foydani kelgusida o'stirish yuzasidan (bo'lib o'tgan jarayonlar natijasi va boy berilgan) imkoniyatlarni kelgusida ishga solish va yuqori unum, natijaga erishish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni belgilashga hamda sotishga alohida ahamiyat qaratiladi.

Foyda va rentabellik doimo qator omillar hisobiga o'zgarib boradi. Shu sababli ham, foyda va rentabellikni o'stirish imkoniyatlarini o'rganishda birinchi navbatda uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi

omillarga ahamiyat qaratiladi. Ularning asosiylari qatoriga ishlab chiqarish xarajatlari, sotish hajmi ta'sir birliklari kiritiladi.

Ta'sir etuvchi birliklarni ichki va tashqi omillarga bo'lib o'rganish ularni boshqarishni to'g'ri belgilash imkonini ham beradi.

Foyda va rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi ichki omillarga quyidagilar kiradi: innovatsion aktivlarda mahsulotlarning yangi tarkibini yaratish va ularga xarajatlarni iqtisod qilishning texnologik yangiliklarini qo'llash; tadbirkorlik layoqatining ustunligi; tovarlarning bozoriyligini ta'minlashning muhim omili bo'lgan mahsulot sifatini boshqarish; yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash orqali energiya tejamkorligi, moddiy xarajatlar yangi turlaridan foydalanish, ularning sarf me'yorlarini kamaytirish; tovar, ish va xizmatlarning raqobatdoshligini oshirish; yangi bozorlarni o'zlashtirish; mahsulotning xarajat sig'imini kamaytirish; asosiy va aylanma kapitaldan imkon qadar samarali foydalanish; boshqaruv hisobi, ichki auditga muhim ahamiyat qaratish; samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish va h.k.lar kiradi.

Tashqi omillar qatoriga: mamlakatda pul-kredit siyosati; byudjet - soliq siyosati; boj to'lovlari va yig'imlari ta'riflari; tovar bozorlari konyunkturasi; inflyatsiya darajasi; ishlab chiqarish resurslari (yoqilg'i, elektr energiya, xomashyo va materiallar) bahosining o'zgarishi va boshqa omillar kiradi.

Sof foyda va uni oshirish imkoniyatlari hisob-kitobi

Ta'sir omillari	Imkoniyatlar	Izoh
1. Sotishdan yalpi foydaning umumiy o'zgarishi		
1.1. Sotilgan mahsulot bahosining o'zgarishi hisobiga	x	Ijobiy
1.2. Xomashyo, materiallar, energiya sarflari ta'rif bahosining o'zgarishi hisobiga	-488 289 775	
1.3. Sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishi hisobiga	x	Ijobiy
1.4. Sotilgan mahsulot tarkibi o'zgarishining sotishdan tushumga ta'siri hisobiga	*x*	Ijobiy
1.4. Bir so'mlik mahsulotga xarajat	-390 618 967	

summasining o‘zgarishi hisobiga		
1.5. Sotilgan mahsulot tarkibiy o‘zgarishlarining tannarxga ta’siri hisobiga	-371 193 305	
2. Davr xarajatlari, jami shu jumladan:	-184 442 245	
2.1. Sotish xarajatlari	-	
2.2. Ma’muriy xarajatlar	-	
2.3. Boshqa operatsion xarajatlar	-43 324 026	
2.4. Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari	-	
2.5. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	-	
3. Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	x	Ijobiy
4. Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami shu jumladan:	x	Ijobiy
4.1. Dividendlar shaklidagi daromadlar	-	
4.2. Foizlar shaklidagi daromadlar	-	
4.3. Moliyaviy ijaradan daromadlar	-	
4.4. Valyuta kursi farqidan daromadlar	-	
4.5. Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	-	
5. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar, jami shu jumladan:	-674 407 750	
5.1. Foizlar shaklidagi xarajatlar	-	
5.2. Moliyaviy ijara bo‘yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	-	
5.3. Valyuta kursi farqidan zararlar	-	
5.4. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar	-	
6. Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (zarari)	x	Ijobiy
7. Favquloddagi foyda va zararlar	-	
8. Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar)	x	Ijobiy
9. Foyda solig‘i	-14 426 214	
10. Foydadan boshqa soliqlar va majburiy to‘lovlar	-43 290 888	
11. Sof foyda	-2 209 993 170	

Korxonada sof foydani oshirishning 2 209 993 170 ming so‘mlik imkoniyati mavjud. Shundan 1 250 102 047 ming so‘m operatsion faoliyatda, 227 766 271 ming so‘m davr xarajatlari va operatsion xarajatlarni iqtisod qilishda, 674 407 750 ming so‘m moliyaviy faoliyatdan, 57 717 102 ming so‘m foydadan soliq hamda foydadan boshqa soliqlar va to‘lovlar qatoriga to‘g‘ri keladi.

Rentabellik va uni o‘stirish imkoniyatlari hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	Imkoniyatar	Izoh
1. Aktivlarning rentabelligi	-3.3	
2. Joriy aktivlarning rentabelligi	-40.9	
3. Uzoq muddatli aktivlarning rentabelligi	-1.8	
4. Asosiy vositalarning rentabelligi	-18.4	
5. Aylanma aktivlarning rentabelligi	-25.9	
6. O‘z mablag‘larining rentabelligi	-2.9	
7. Qarz kapitalining rentabelligi	-11.0	
8. Investitsiyalangan kapitalning rentabelligi	-40.5	
9. Xodimlarga va ular nomidan qilingan xarajatlar rentabelligi	-28.9	
10. Sotuv rentabelligi	-20.7	
11. Ishlab chiqarish rentabelligi	-18.0	

Korxonada barcha rentabellik ko‘rsatkichlari bo‘yicha yetarlicha imkoniyatlar mavjudligini qayd etish lozim. Eng yuqori imkoniyatlar joriy aktivlar rentabelligi, investitsiyalangan kapital rentabelligi, xodimlar va ularning nomidan qilingan xarajatlar rentabelligi, sotuv rentabelligida, ishlab chiqarish rentabelligida deyish mumkin.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning jamlangan buxgalteriya balansi (2017-2018 yy.)

Ko‘rsatkichlar	2017-2018yy.				
	01.01.2017 yil	01.04.2017 yil	01.07.2017 yil	01.10.2017 yil	01.01.2018 yil
AKTIV					
1. Uzoq muddatli aktivlar	10 219 731 945	11 151 959 813	11 195 178 476	11 778 032 823	12 593 199 960

Asosiy vositalar boshlang'ich qiymati	10 527 417 487	11 341 824 771	13 056 620 251	13 186 532 286	14 773 593 626
Asosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	3 788 793 507	3 945 211 086	4 125 679 858	4 320 658 666
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	7 553 031 264	9 111 409 165	9 060 852 428	10 452 934 960
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	335 519	526 894	435 179	345 379
Kapital qo'yilmalar	2 834 711 892	3 308 810 890	1 783 170 063	2 396 325 565	1 572 602 311
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	289 782 140	300 072 354	320 419 651	567 317 310
2. Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**3 522 490 664**	**4 234 880 927**	**10 571 776 648**	**11 683 693 105**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	761 929 334	807 974 274	805 958 807	1 047 437 972
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	1 926 260 257	2 439 824 162	8 466 493 743	8 441 062 224
Pul mablag'lari	171 917 383	167 990 329	198 395 625	199 248 750	468 669 767
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	114 011 429	118 290 042	112 380 694	160 480 738
Debitorlar, jami	503 338 335	552 299 315	670 396 824	987 694 654	1 566 042 404
Shu jumladan:					
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	163 855 350	162 134 584	179 194 017	304 669 491	268 038 094
Byudjetga avans to'lovlari	7 740 384	6 510 004	8 801 153	5 388 750	5 252 951
Aktiv bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**
PASSIV					

1. O‘z mablag‘lari manbasi	**7 745 794 466**	**8 567 616 791**	**8 644 944 914**	**8 963 743 430**	**10 124 233 076**
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**6 106 833 686**	**6 785 114 489**	**13 386 066 041**	**14 152 659 989**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	5 329 297 527	5 927 142 095	12 154 367 349	12 304 013 149
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	12 729 877	10 091 394	9 142 953	8 878 479
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	764 806 282	847 881 000	1 222 555 739	1 839 768 361
Shu jumladan:					
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	177 094 949	250 590 908	306 494 641	514 650 184
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	35 632 293	40 718 997	40 080 238	62 317 043
Balans passivi bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti (2016-2017 yy.)

Ko‘rsatkichlar	2017 yil	2016 yil
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	5 180 801 340	3 362 225 550
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi	3 191 287 162	2 474 622 038
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	**1 989 514 178**	**887 603 512**
Davr xarajatlari	752 744 444	568 302 199

Boshka operatsion xarajatlar	178 630 359	135 306 333
Asosiy faoliyatning foydasi	**1 415 400 093**	**454 607 646**
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	833 455 050	159 047 300
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	506 789 162	269 112 080
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda	**1 088 734 205**	**564 672 426**
Favquloddagi foyda va zararlar	0	0
Daromad (foyda) solig'i	30 730 577	16 304 363
Foydadan boshka soliqlar va yig'imlar	83 965 344	40 674 456
Hisobot davrining sof foydasi	**974 038 284**	**507 693 607**

Nazorat uchun savollar

Moliyaviy natijalar nima?

Moliyaviy natijaga daxldor elementlar va ularning tasnifi?

Daromadlar nima?

Xarajatlar nima?

Foyda va zararlar nima?

Moliyaviy natijalarni xarakterlovchi ko'rsatkichlar tizimi?

Moliyaviy natijalar, foyda va rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilining ahamiyati?

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning muhim qoidalari?

Moliyaviy natijalar tahlilini maqsadi va vazifalarini tushuntiring?

Umumiy moliyaviy natijalar, ularning tarkibi, tuzilishi va ko'rsatkichlarning bir-biri bilan bog'liqligini izohlang?

Moliyaviy natija, foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini baholash va tahlil qilish yo'llarini tushuntiring?

Xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatidan olingan daromadlariga nimalar kiradi?

Marjinal foyda qanday aniqlanadi?

Marjinal foyda tahlil mazmuni?

Mahsulot sotishdan ko'rilgan yalpi foyda va unga ta'sir etuvchi omillarga nimalar kiradi?

Xarajatlarning turlari va ularning tavsifi?

Xarajatlarni baholash va tahlil qilish yo'llari?

Xarajatlar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni hisoblash yo'llari?

Asosiy va umumxo'jalik faoliyati foydasi (zarari) nima?

Asosiy faoliyatdan foyda (zarar)lar qanday aniqlanadi?

Favqulodda foyda va zararlar nima?

Soliq to'langunga qadar foyda tahlili mazmunini tushuntiring?

Byudjetga to'lovlar va ajratmalar tahlilini tushuntiring?

Soliq to'lovlari dinamikasi, ularning natijaviy ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlili?

Korxonalarda soliq yukini hisoblash yo'llari?

Sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili?

Rentabellik ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili?

Foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini tasniflang?

10-BOB. PUL OQIMLARI TAHLILI

10.1.Xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'larini ko'paytirishI, ularning ko'payish vaqtini hisob-kitob qilish va natijaga erishishda tahlilniNg muhimligi va asosiy vazifalari.

10.2.Korxonaning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi va ular oqimini tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

10.3.Pul oqimi to'g'risidagi hisobotning tuzilishi va asosiy elementlari.

10.4.Pul oqimlarining kirimi va chiqimini samarali boshqarishda moliyaviy tahlilning o'rni.

10.5.Asosiy faoliyatdagi pul oqimlari tahlili. Moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari tahlili.

10.6.Pul oqimlarini tahlil qilishning to'g'ri va egri uslubi.

10.7.Pul oqimlarini boshqarishning omilli tahlili. Pul oqimlari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

10.8.Pul oqimlaridagi o'zgarish tendensiyalarini tahlili. Foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari.

10.9.Valyuta mablag'lari harakatining tahlili.

10.1. Xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'larini ko'paytirish, ularning ko'payish vaqtini hisob-kitob qilish va natijaga erishishda tahlilning muhimligi va asosiy vazifalari

Pul mablag'larini oqilona boshqarish masalasi doimo mulk egalari va menejerlar e'tiboridagi masala bo'lib kelgan. Negaki, jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilmasligi oqibatida xo'jalik yurituvchi subyektning qarshi tomon oldidagi majburiyatlari ham ortib boradi. Natijada xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoli va natijaviyligida salbiy holatlar kuzatila boshlaydi. Shu sababli, naqdlikni ta'minlash, ularni to'g'ri boshqarish masalasiga doimo ham muhim ahamiyat qaratilmog'i lozim.

Boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birga foydalanish chog'ida pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar

uchun xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'larini va ularning ekvivalentlarini jalb etish qobiliyatini baholashga asos bo'lib xizmat qilishi bilan foydalidir. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot pul tushumlari va to'lovlarini uchta asosiy toifaga ajratadi: operatsion faoliyat, investitsiya faoliyati va moliyaviy faoliyat. Har uch toifaning pul mablag'iga birgalikda ta'siri hisobot davrida pul mablag'ining sof o'zgarishini belgilab beradi. Pul oqimlari harakati to'g'risidagi axborot bo'lajak pul oqimlari prognozi to'g'riligini tekshirish chog'ida, foyda olish va pul oqimlarining sof harakati va narx o'zgarishi ta'siri o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish chog'ida zarur bo'ladi.

Pul mablag'lari oqimi yuzasidan quyidagi muhim tushunchalarni tasniflash lozim[67]:

Pul mablag'lari – kassadagi naqd pul va talab qilib olinadigan depozitlar, shuningdek, bankning hisob-kitob, valyuta va boshqa schyotlaridagi mablag'lar.

Pul ekvivalentlari – ma'lum pul mablag'iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o'zgarishlar tufayli biroz xatari bo'lgan qisqa muddatli, yuqori likvidli investitsiyalar (moliyaviy qo'yilmalar).

Pul oqimlari – pul mablag'lari hamda ular ekvivalentlarining oqimi (tushumi) va chiqimi (sarflanishi, chiqishi)dan iborat.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot – hisobot davrida pul mablag'i oqimlarini batafsil ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar yig'indisi.

Operatsion faoliyat – xo'jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek, subyektning investitsiya va moliyaviy faoliyatiga oid bo'lmagan o'zga xo'jalik faoliyati.

---

[67]Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., Ефимова О.В. [и др.]. Анализ финансовой отчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с., K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by[67], Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр

Investitsiya faoliyati – pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotish.

Moliyaviy faoliyat – xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo'lib, uning natijasida o'z mablag'i va qarz mablag'lari miqdori va tarkibida o'zgarishlar yuz beradi.

Pul mablag'i ekvivalentlaridan asosan investitsiyalar va boshqa maqsadlar uchun emas, balki faqat qisqa muddatli majburiyatlar bo'yicha to'lovlar uchun foydalaniladi. Investitsiyalarni pul ekvivalenti deb hisoblash uchun ular erkin ravishda naqd pulga aylantiriladigan bo'lishi va qiymatining o'zgarishida biroz xavf bo'lishi lozim. Shu sababli, investitsiya qisqa muddatda to'lanadigan bo'lsa, ya'ni xarid qilingan paytdan boshlab taxminan uch oy ichida to'lanadigan bo'lsa, uni pul ekvivalenti deb hisoblash mumkin bo'ladi.

Bank zayomlari moliyaviy faoliyatga taalluqlidir, lekin talab qilingan paytda to'lanadigan bank overdraftlari korxonalar pul mablag'ini boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu munosabat bilan bank overdraftlari pul mablag'ining tarkibiy qismi yoki ularning ekvivalenti hisoblanadi.

Pul oqimi pul mablag'lari va pul ekvivalentlari moddalari o'rtasidagi harakatni o'z ichiga olmaydi, chunki ular operatsion, moliyaviy yoki investitsiya faoliyatiga kirmaydi yoki xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'larini boshqarishga taalluqlidir. Pul mablag'larini boshqarish pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining ortiqchasini ishga solishni o'z ichiga oladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot hisobot davri davomida operatsiya, investitsiya yoki moliyaviy faoliyat natijasida xo'jalik yurituvchi subyekt olgan pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi lozim bo'ladi.

Operatsion faoliyat. Xo'jalik yurituvchi subyektning operatsion faoliyati natijasida vujudga keladigan pul oqimi hajmi xo'jalik yurituvchi subyekt amalga oshiradigan operatsion faoliyati natijasida olinadigan pul oqimlari harakati ssudalarni to'lash, xo'jalik yurituvchi

subyektning ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab turish, dividendlarni to'lash va moliyalashtirishning tashqi manbalariga murojaat qilinmay yangi investitsiyalar uchun qanchalik yetarli ekanini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Operatsion faoliyatdan keladigan oldingi pul oqimining ayrim qismlari to'g'risidagi axborotdan operatsion faoliyatdan bo'lajak pul oqimlarini prognoz qilish uchun axborotning boshqa turlaridan qo'shib foydalanish mumkin bo'ladi.

Operatsion faoliyatdan pul oqimi xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatidan kelib chiqadi. Odatda xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati mahsulotni sotishga, ishlarni bajarishga yoki xizmat ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi. Operatsion faoliyatdan asosiy pul oqimiga quyidagilar kiradi[68]:

a) tovarlarni sotish va xizmat ko'rsatishdan tushgan pul;

b) royalti, badallar, vositachilik haqi va o'zga yo'llar bilan pul mablag'lari tushumi;

c) tovarlar va xizmatlar uchun ularni yetkazib beruvchilarga pul to'lovlari;

d) xodimlarga va xodimlar nomidan to'lovlar;

e) sug'urta kompaniyasining sug'urta polislari bo'yicha mukofotlari, talablari, yillik va o'zga to'lovlari bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari;

f) soliqlar bo'yicha pul to'lovlari yoki uning o'rnini bosuvchi to'lovlar, agar ular investitsiya va moliya faoliyatiga taalluqli bo'lmasa;

g) savdo yoki dilerlik maqsadlarida tuzilgan bitimlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari;

h) boshqalar.

Asosiy vositalar birliklarini sotish kabi ayrim operatsiyalar bo'yicha foyda kelishi va zarar ko'rilishi mumkin, ular sof foyda yoki zarar qatoriga kiritiladi. Lekin bunday bitimlar bo'yicha pul oqimi investitsiya faoliyatidan chiqadigan pul oqimlariga kiritiladi.

Korxona vositachilik yoki savdo maqsadlari uchun qimmatli qog'ozlar yoki ssuda olgan bo'lishi mumkin, bunday holatlarda ular

[68]Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти 9-сон БҲМС Пул оқими тўғрисидаги ҳисобот. Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги томонидан тасдиқланган 16.10.1998 й.

qayta sotish uchun xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarga o'xshash bo'ladi.

Investitsiya faoliyati. Xo'jalik yurituvchi subyekt investitsiya faoliyatidan keladigan pul oqimi to'g'risidagi axborotni alohida ko'rsatib beradi. Investitsiya faoliyatidan pul oqimi to'g'risidagi axborot kelajakda daromad va pul oqimi miqdorini belgilaydigan resurslar bo'yicha qilingan xarajatlar darajasini ko'rsatadi. Investitsiya faoliyatidan olingan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

a) asosiy vositalarni, nomoddiy va o'zga uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga pul to'lovlari. Bu to'lovlar tajriba-konstruktorlik ishlariga ajratilgan sarmoyalashtirilgan xarajatlar, shuningdek, xo'jalik sudi bilan amalga oshirilgan qurilishlar bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarni o'z ichiga oladi;

b) asosiy vositalarni, nomoddiy va o'zga uzoq muddatli aktivlarni sotishdan olingan pul tushumi;

c) boshqa subyektlarning aksiyalari yoki qarz majburiyatlarini hamda qo'shma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotib olishga doir pul to'lovlari, pul ekvivalentlari hisoblangan yoki dilerlik maqsadlariga yoki savdo maqsadlariga saqlab qo'yilgan to'lov hujjatlari bo'yicha to'lovlar (veksellar kabi hujjatlar bo'yicha to'lovlar)dan tashqari;

d) boshqa subyektlarning aksiyalari va qarz majburiyatlarini hamda qo'shma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotishdan kelgan pul tushumlari, pul ekvivalenti hisoblangan yoki dilerlik yoki savdo maqsadlari uchun saqlanayotgan veksel kabi to'lov hujjatlari bo'yicha tushumlar bunga kirmaydi;

e) boshqa taraflarga berilgan bo'naklar va kreditlar (moliyaviy muassasalarga berilgan bo'naklar va kreditlardan tashqari);

f) boshqa taraflarga berilgan bo'naklar va ssudalar qaytarilishidan pul tushumlari (moliyaviy muassasalarga berilgan bo'naklar va kreditlardan tashqari);

g) fyuchers va forvard bitimlari, opsion bitimlar va svop bitimlar bo'yicha to'lovlar, ular diler yoki savdo maqsadlari uchun mo'ljallangan holatlar bundan mustasno bo'ladi yoki to'lovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi.

h) va boshqalar.

Moliyaviy faoliyat. Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy faoliyatidan bo'ladigan pul oqimlari to'g'risidagi axborotni alohida

ko'rsatadi. Bu axborot moliyaviy faoliyatdan bo'lajak pul oqimlarini taxmin qilish uchun zarur bo'ladi. Moliyaviy faoliyatdan keladigan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

a) aksiyalar yoki o'z mablag'i bilan bog'liq boshqa vositalarni chiqarishdan keladigan pul tushumlari;

b) subyektlar aksiyalarining haqini to'lash yoki sotib olish uchun ularning egalariga to'lovlar;

c) ta'minlanmagan obligatsiyalar emissiyasidan, moliya korxonalari tomonidan berilgan ssudalardan, garovga qo'yilgan va boshqa qisqa hamda uzoq muddatli zayomlardan pul tushumlari;

d) zayomlarni to'lash;

e) moliyaviy lizing bo'yicha majburiyatlarni qisqartirish uchun ijarachilarning to'lovlari;

f) va boshqalar.

Pul oqimini tahlil etishni o'rganish maqsadi va vazifalari.

Tahlil maqsadi: moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida pul oqimini obyektlari, faoliyat turlari, shakli va davri bo'yicha o'rganish orqali xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'larini ichki va tashqi omillarga bog'liq holdagi o'zgarishlarini retrospektiv va perspektiv tahlilini amalga oshirish orqali ularni maqsadli boshqarishni yo'lga qo'yishdan iborat.

Tahlil vazifalari:

- pul oqimi to'g'risidagi hisobotni tasniflash, pul oqimini tarkib qatorlari bo'yicha o'rganish;
- pul oqimini joriy tahlilini va istiqboldagi prognozlarini tashxislash;
- pul oqimining sof kirimi va chiqimiga baho berish orqali biznes samaradorligiga baho berish;
- pul oqimining moliyaviy holat va barqarorlikka ta'sir darajasini, ular naqdligining likvidlik va to'lovga qobillikka ta'sirini baholash;
- operatsion va moliyaviy richaglar orqali pul oqimini moliyaviy koeffitsiyentlarda baholash;
- pul oqimini taktik boshqarishning aniq chora-tadbirlarini belgilab berish va ularni amalga oshirish.

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va ularning kamchiliklari. Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumot moliyaviy

hisobotning 4-shakli bo'lgan "Pul oqimi to'g'risida"gi hisobotdan olinadi. Hisobot kassa usulida tuziladi. Tuzish davriyligi bo'yicha yarim yillik va yillik muddat belgilangan.

Inflyatsiya darajasi, moliyaviy hisobotlarni tuzish davriyligining uzoqligi, hisobga olish va kassali usulning muvofiq kelmasligi, pul oqimi to'g'risidagi analitik ma'lumotlarni olish imkoniyatlari cheklanganligi, axborotlarning ishonchligidagi muammoli jihatlar tahlilning eng muhim kamchiliklari hisoblanadi[69].

10.2. Korxonaning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi va ular oqimini tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari

Xo'jalik yurituvchi subyekt pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini keltirib chiqarish, shuningdek, keltirib chiqarilgan pul mablag'lari va ularning ekvivalentlaridan maqsadli va samarali foydalanish juda qiyin jarayon. Ya'ni pulni topish qiyin uni ishlatish undanda qiyin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida, xo'jalik jarayonlarida doimo pul mablag'lari va ularning ekvivalentlariga zaruriyat seziladi. Negaki barcha munosabatlar ushbu oqim harakati bilan boshlanadi va tugaydi. Barcha moliyaviy munosabatlar ham ushbu birlik orqali tartiblanadi.

Har bitta xo'jalik yurituvchi subyekt yetarli miqdorda pul va pul ekvivalentlari bilan ta'minlangan holdagina uning ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyati uzluksizligi ta'minlanadi. Agar ta'minotda uzilish bo'ladigan yoki zaruriy likvid mablag'larga yetishmovchiliklar kuzatiladigan bo'lsa bunday subyektning nafaqat operatsion faoliyati, balki butun xo'jalik faoliyatida tanglik yuzaga keladi, moliyaviy ahvoli qiyinlashadi va uni boshqarish yanada murakkablashadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning daromad keltiruvchi faoliyat turlari, shakllari qanchalik farqli bo'lmasin, ularning pul mablag'lari va

[69]Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. -М.: ИНФРА-М, 1998. - 448 с.

pul ekvivalentlariga bo'lgan ehtiyojlari bir xil sabablardan kelib chiqadi. Bu uzluksiz va davomli faoliyatni amalga oshirish aktivlarni sotib olish va joylashtirish, o'z majburiyatlarida amalga oshirish, investorlarga daromadlarini to'lash yuzasidan zaruriy amallarning bir xilligidan kelib chiqadi.

Pul mablag'larining manbalarida birinchi navbatda xususiy kapitalning shakllanishiga ahamiyat qaratish lozim. Xususiy kapital xo'jalik yurituvchi subyektning boshlang'ich kapitalidir. Ushbu kapital asosiy va aylanma kapital minimumini ta'minlab beradi.

Pul oqimlarining shakllanishi va ularning ishlatilishidagi umumiy jihatlar bilan bir qatorda albatta har bitta korxonaning ularning harakati, tezligi yuzasidan o'ziga xos jihatlari mavjud. Masalan: pul va pul ekvivalentlarining harakati savdoda, umumiy ovqatlanishda, qurilishda, sanoatda, qishloq xo'jaligida bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu tarmoq va bo'g'inning, korxona faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Pul mablag'laridan samarali foydalanishni tashkil etish ko'p jihatdan korxonalarda pul mablag'larining harakatini optimal boshqarishni tashkil etilganligiga va ular ustidan nazoratni yo'lga qo'yilganlik darajasiga bog'liq. Biroq, ko'plab korxonalarda pul mablag'lari va pul ekvivalentlarini boshqarish va doimiy nazorat qilishdagi kamchiliklar tufayli moliyaviy natijaviylikdagi ijobiy holat, debitorlik majburiyatlarini oshirib yuborish, undirilmagan qarzdorlikning ko'payishi hisobiga moliyaviy holat yomonlashganligini ko'rish mumkin. To'g'ri bu holat keyingi faoliyatlar uchun manba sifatida qaralishi mumkin, lekin ularning doimiy aylanishdan chetlanishlari tufayli korxona ish faolligi, likvidligi sustlashadi, moliyaviy ahvoli qiyinlashadi. Shu sababli, pul mablag'larini boshqarishda har bitta korxonaning pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining faoliyat uzluksizligini ta'minlash, majburiyatlarning ortib ketishiga yo'l qo'ymaydigan taktik boshqaruvini yo'lga qo'yish choralarini ko'rish lozim bo'ladi.

Pulni aylanish doiraviy aylanishlarini tarmoq va faoliyat turlari bo'yicha farqlanishini quyidagi jadval ma'lumotlaridan ham aniq ko'rish mumkin[70].

Pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining faoliyat shakllari bo'yicha doiraviy aylanishlari

	Aylanish muddati					
	0-1-kun	**1-2-kun**	**2-3-kun ...**			
Savdo (chakana), umumiy ovqatlanish, aloqa	Naqd pul 50 mln	Tovar sotib olindi 50 mln	Tovar qayta sotildi Naqdlik 75 mln	x	x	x
	Aylanish muddati					
	0-1-oy	**1-2-oy**	**2-3-oy**	**3-4-oy**	**4-5-oy ....**	
Sanoat, transport,	Naqd pul 50 mln	TMZ sotib olindi 50 mln	Boshqa xarajatlar 30 mln	Tovar zaxiraga olindi 80 mln	Tovar sotildi 100 mln	x
	Aylanish muddati					
	0-1-yil	**1-2 yil**	**2-3-yil**	**3-4-yil**	**4-5-yil**	**5-6-yil...**
Qurilish, qishloq xo'jaligini ayrim bo'g'inlari	Naqd pul 50 mln	TMZ sotib olindi 50 mln	Xarajatlar 55 mln	Tugallanmagan ishlab chiqarish 25 mln	Tovar zaxiraga olindi 85 mln	Tovar sotildi 125 mln

Zaxiralar (tovarlar, tayyor mahsulotlar)ning pul mablag'lari va pul ekvivalentlariga aylanish davriyligining sotish shakllari bo'yicha ham farqlash mumkin.

[70]K.R. Subramanyam Financial statement analysis, eleventh edition Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by

Pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining sotish shakllari bo'yicha farqlanishi

Ko'rsatkichlar	Aylanish muddati					
Zaxiralarni naqdga va naqdsiz sotish	1-kun	2-kun	3-kun	4-kun	5-kun	6-kun....
Zaxiralarni kreditga sotish	1-oy, (1-yil)	2-oy, (2-yil)	3-oy, (3-yil)	4-oy, (4-yil)	5-oy, (5-yil)	6-oy..., (6-yil)...
Zaxiralarni chegirma va ustama asosida sotish	1 oygacha 20 foiz chegirma	2 oygacha 15 foiz chegirma	3 oygacha 10 foiz chegirma	4 oygacha 5 foiz ustama	5 oygacha 10 foiz ustama	6 oygacha 15 foiz ustama

Tarmoq va bo'g'inlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimida faoliyat turlarining salmoq darajalari ham turlicha bo'ladi. Buni bevosita quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rib o'tish mumkin.

Pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining faoliyat bo'g'inlari bo'yicha salmoq darajalari

Kirim / Chiqim	Operatsion faoliyatdan chiqim	Investitsion faoliyatdan chiqim	Moliyaviy faoliyatdan chiqim
Opreatsion faoliyatdan kirim	Sanoat, savdo, transport, qishloq xo'jaligi, qurilish, umumiy ovqatlanish	Sanoat, transport, qurilish	Sanoat
Investitsion faoliyatdan kirim	Sanoat, transport,qurilish	Sanoat, qurilish	Sanoat, qurilish
Moliyaviy faoliyatdan kirim	Sanoat	Sanoat	Sanoat
Balans	xxx	xxx	xxx

10.3. Pul oqimi to'g'risidagi hisobotning tuzilishi va asosiy elementlari

Korxona moliyaviy holatini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim moliyaviy hisobot shakllarini, shu jumladan, pul oqimi

to‘g‘risidagi hisobot shaklini erkin o‘qiy olishi, uning moddalarini tushunishi, shuningdek, xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishlari kerak.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotda pul mablag‘lari harakati bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy resurslardagi barcha o‘zgarishlar aks ettiriladi.

Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotda operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘larining harakati aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobotda kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida sodir bo‘lgan pul mablag‘laridagi barcha o‘zgarishlar shunday tartibda aks ettirilishi lozimki, u pul mablag‘lari bilan ularga ekvivalent bo‘lganlar o‘rtasida, ya’ni, qisqa muddatli va yuqori likvid investitsiyalar, erkin ayirboshlanadigan pul mablag‘lari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini ta’minlasin.

Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotga “Valyuta mablag‘larining harakati to‘g‘risida ma’lumotnoma” ilova qilinib, unda davr boshi va oxiriga bo‘lgan qoldiqlar, valyuta mablag‘lari tushumi va harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etadi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli ko‘p jihatdan real pul aylanmasiga bog‘liq. Korxonaning hisob-kitob va o‘zga hisob raqamlari orqali o‘tadigan pul mablag‘larining kelib tushishi va ularning sarflanishiga *pul mablag‘lari oqimi* deyiladi.

Pul mablag‘lari oqimini tahlil qilish uchun 4-shakl “Pul mablag‘lari to‘g‘risidagi hisobot” moliyaviy hisoboti, shuningdek, 1-sh shaklidagi “Korxona (tashkilot) moliyaviy faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”gi statistika hisoboti asosiy ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot – moliyaviy hisobot hujjati bo‘lib, unda joriy xo‘jalik faoliyati jarayonida pul mablag‘lari kelib tushishi, sarflanishi va ularning yil boshi va oxiridagi qoldig‘i, shuningdek, investitsiya va moliyaviy faoliyatga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari aks ettiriladi. Pul mablag‘lari oqimiga so‘m va valyutadagi pul mablag‘lari kiritiladi.

Pul mablag'lari aylanma aktivlarning eng likvid qismi hisoblanadi. Xo'jalik faoliyati, moliya munosabatlari pul mablag'larini turli aktivlarga ishlatish va uning yakunida oldingi jarayonlarning yutug'i hisoblangan foydaga ega bo'lishni nazarda tutadi. Jarayonlar ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmat)lar o'z egalari tomonidan tan olingan va tasarruf etishga qabul qilingan holda ularga tegishli bo'lgan qiymatliklar sotuvchiga to'la to'lab berilsa yakuniga yetadi. Bu esa jarayonning yangi siklini boshlash uchun ham manba hisoblanadi[71].

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Kirim	Chiqim
1	2	3	4
Operatsion faoliyat			
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari	010	4 517 395,6	
Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari	020		1 725 282,9
Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari	030		
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	040	1 921 254,7	4 320 200,4
Jami: operatsion faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (satr 010-020-030+/-040	050	*6 438 650,3*	*6 045 483,3*
Investitsiya faoliyati			
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	060	1 484,1	
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	070		
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish	080	349 357,3	
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	090		
Jami: investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (satr 060+/-070+/-080+/- -090	100	*350 841,4*	

[71]K.R. Subramanyam Financial statement analysis, eleventh edition Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by

Moliyaviy faoliyat			
Olingan va to'langan foizlar	110	374 998,1	
Olingan va to'langan dividendlar	120		
Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari	130		
Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari	140		
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	150		
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	160		
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	170		
Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirim / chiqim (satr 110+/-120 +130-140+/-150+/-160+/-170)	180	374 998,1	
Soliqqa tortish			
To'langan daromad (foyda) solig'i	190		565 531,2
To'langan boshqa soliqlar	200		16 210,7
Jami: to'langan soliqlar (satr 190+200)	210		581 741,9
Jami: moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi / chiqimi (satr 050+/-100+/-180-210)	220	7 164 489,8	6 627 225,2
Yil boshidagi pul mablag'lari	**230**	240 164,7	
Yil oxiridagi pul mablag'lari	**240**	777 429,3	

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda foydalanilganda, foydalanuvchilarga xo'jalik yurituvchi subyektning sof aktivlaridagi o'zgarishlarni, ularning moliyaviy strukturasi (likvidligi va to'lov qobiliyati)ni va o'zgarayotgan imkoniyatlar va sharoitlarga moslashish maqsadida o'zining pul oqimlari summasi va muddatlariga ta'sir ko'rsata olish qobiliyatini baholash uchun ma'lumot bilan ta'minlaydi. Pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini keltirib chiqarish imkoniyatlarini baholashda foydalidir, hamda foydalanuvchilarga har xil xo'jalik yurituvchi subyektlarga

tegishli kelgusi pul oqimlarining keltirilgan (diskontlangan) qiymatini baholash va solishtirish modellarini ishlab chiqish imkonini beradi. U, shuningdek, turli xil xo'jalik yurituvchi subyektlarning operatsion faoliyati ko'rsatkichlari haqidagi hisobotlarining qiyoslanuvchanligini oshiradi, chunki u bir xil operatsiya va hodisalarning turlicha hisobga olinishi oqibatlarini bartaraf qiladi.

Oldingi davrlardagi pul oqimlari to'g'risidagi axborotdan ko'pincha kelgusi pul oqimlarining summasi, muddati va aniqligining ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. U, shuningdek, kelgusi pul oqimlari bo'yicha oldingi baholarning to'g'riligini tekshirishda, hamda foydalilik va sof pul oqimlari orasidagi bog'liqlikni va o'zgaruvchan narxlarning ta'sirini o'rganishda foydalidir.

Korxona menejerlarining eng muhim e'tibori pul tushumlarini ko'paytirishga va xarajatlarni kamaytirishga qaratiladi. Bu borada birinchi navbatda ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida debitorlik majburiyatlarini doimiy nazorat qilish, zaxiralarni tartiblash, kreditorlik majburiyatlari va qarzlarga bog'lanmaslik siyosatini yuritilishi talab etiladi. Shu sababli, pul oqimini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha doimiy o'rganib turish talab etiladi.

Pul oqimining yo'nalishlari (cash flow)

Pul oqimi	Mazmuni	Kirimi va chiqimi
Asosiy faoliyatdan	Xo'jalik yurituvchi subyekt amalga oshiradigan operatsiya faoliyati natijasida pul mablag'lari kirimi va chiqimi	+sof foyda +amortizatsiya ajratmalari
		+zaxiralar va debitorlik majburiyatlarning qisqarishi
		-zaxira va debitorlik majburiyatlarining ortishi
		-majburiyatlarning kamayishi +majburiyatlarning ortishi
Investitsion faoliyatdan	Kelajakda daromad va pul oqimi miqdorini belgilaydigan resurslar yuzasidan	+oborotdan tashqari aktivlarning chiqib ketishi (uskunalarning sotilishi)
		-oborotdan tashqari aktivlarning o'sishi

	pul mablag'lari kirimi va chiqimi	+hissali qatnashishning sotilishi
		-hissali qatnashishning sotib olinishi
Moliyaviy faoliyatdan	Moliyaviy faoliyatdan pul mablag'lari kirimi va chiqimi (operatsion va investitsion faoliyatdan o'zga faoliyatdan pul mablag'lari kirimi va chiqimi)	+yangi kreditlarning olinishi -kreditlar yuzasidan foiz to'lovlarining qoplanishi
		+yangi aksiyalarning chiqarilishi
		+obligatsiyalarni sotib olish va qoplash yuzasidan to'lovlar
		+aksiyalar emissiyasi - dividend to'lovlari
Sof kirim va chiqim	OF+IF+MF	

Korxonada pul oqimini quyidagi qatorlarini berib o'tish mumkin: shakllanishi; faoliyat yo'nalishlari; pul oqimini natijaviyligi; hisoblash usuli, sof qiymati, davriyligi bo'yicha.

Pul oqimining tarkiblanishi

№	Pul oqimi	Tarkib qatorlari
1	Shakllanish doirasi bo'yicha	Korxona bo'yicha umumiy pul oqimi
		Tarkibiy bo'limlar, filiallar bo'yicha pul oqimi
		Xo'jalik faoliyati turlari bo'yicha pul oqimi
		Alohida xo'jalik jaryonlari bo'yicha pul oqimi
2	Faoliyat yo'nalishlari bo'yicha	Operatsion faoliyatdan
		Investitsion faoliyatdan
		Moliyaviy faoliyatdan
3	Natijaviyligi bo'yicha	Ijobiy pul oqimi
		Salbiy pul oqimi
4	Hajmni hisoblash usuli bo'yicha	Yalpi pul oqimi
		Sof pul oqimi
5	Sof qiymati bo'yicha	Ortiqchalik
		Yetishmovchilik
6	Davriyligi bo'yicha	Joriy pul oqimi
		Kelgusi pul oqimi

Korxonalarning pul oqimlarini moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida jamlangan qatorlari bo'yicha tahlil qilish ularning umumiy o'zgarishlariga gorizontal va vertikal usullarda baho berishdan boshlanadi.

Sof pul oqimining gorizontal va vertikal tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida		O'zgarishi		O'sish daraja si, %	O'sish daraja si, %
		Summa, ming so'm	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %		
1.	Asosiy faoliyatdan sof pul oqimi	195,0	487,5	192,0	274,3	-3,0	-10,0	98,5	-1,5
2.	Investitsion faoliyatdan sof pul oqimi	-115,0	-287,5	-212,0	-302,9	-97,0	-323,3	184,3	84,3
3.	Moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimi	-40,0	-100,0	90,0	128,6	130,0	433,3	-225,0	-325,0
4.	Natijaviy sof pul oqimi	40,0	100,0	70,0	100,0	30,0	100,0	175,0	75,0

Tahlil etishda pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining jamlangan qatorlari har bitta faoliyat turidan pul mablag'lari va pul ekvivalentlarini baholash bilan pul oqimining ichki o'zgarishlari va ularning tendensiyalariga baho beriladi.

Asosiy faoliyatdan pul oqimini tarkibiy tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida		O‘zgarishi		O‘sish darajasi, %	O‘sish darajasi, %
		Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %	Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %	Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %		
1.	Asosiy faoliyatdan pul mablag‘lari kirimi:	4 426,0	100,0	5 466,0	100,0	1 040,0	100,0	123,5	23,5
1.1.	Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan pul mablag‘lari	4 342,0	98,1	5 361,0	98,1	1 019,0	98,0	123,5	23,5
1.2.	Boshqa kirimlar	84,0	1,9	105,0	1,9	21,0	2,0	125,0	25,0
2.	Asosiy faoliyatdan pul mablag‘lari chiqimi:	4 231,0	100,0	5 274,0	100,0	1 043,0	100,0	124,7	24,7
2.1.	Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari chiqimi	3 095,0	73,2	3 796,0	72,0	701,0	67,2	122,6	22,6
2.2.	Xodimlar va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari	580,0	13,7	792,0	15,0	212,0	20,3	136,6	36,6
2.3.	Dividendlar va foizlar to‘lovi	222,0	5,2	198,0	3,8	-24,0	-2,3	89,2	-10,8
2.4.	Soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha chiqim	210,0	5,0	284,0	5,4	74,0	7,1	135,2	35,2
2.5.	Boshqa xarajatlar	124,0	2,9	204,0	3,9	80,0	7,7	164,5	

10.4. Pul oqimlarini bashoratlash

Bashoratlash - (grekcha prgognoses – oldindan ko'rish) moliyaviy menejmentda uzoq istiqbolga moliyaviy holatni bir butun holda va turli qismlarini o'zgartirishni ishlab chiqish tushuniladi. Bashoratlash – bu obyektni yoki hodisani kelajakdagi me'yoriy yoki maqbul holatlari, ularga erishish va ularni ro'yobga chiqarishning alternativ yo'llari to'g'risidagi ehtimolga yaqin tasavvurni ishlab chiqishdir. Bashoratlash – boshqarishning iqtisodiy usullaridan biri bo'lib, iqtisodiy tizimning kelgusidagi holatini aniqlab beruvchi rejalar ishlab chiqish va amalga oshirish yo'llari, usullari va vositalari yig'indisidir.

Naqd pul oqimining bashorati biznes rejaning muhim jihatlaridan biridir. Bu orqali naqd pul oqimini nazorat qilish, yuzaga kelayotgan muammolarni oldini olish yoki mavjud imkoniyatlardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Naqd pul oqimi bashorati qachon daromad olishni va qachon xarajatlarni qoplash zarurligini ko'rsatadi.

Naqd pul oqimi bashoratlari o'z ichiga quyidagilarni olishi shart: sotuvlardan tushgan barcha tushumlar va xaridorlardan olingan naqd pullarni; barcha xomashyo, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk va boshqalar uchun to'lovlarni; boshqa xarajatlar uchun to'lovlarni; oylik maosh, mukofot va boshqalar bo'yicha chiqimlarni; uskuna va texnologiyalar xarid qilishni; kredit, grant yoki korxonaga jalb qilinayotgan boshqa resurslarni; kredit bo'yicha to'lovlarni; soliqlar va majburiy to'lovlarni, ular bo'yicha qarzlarni.

Bashoratlashda o'ta aniqlikni ta'minlash qiyin jarayon. Lekin bu aniqlikni risklarni to'g'ri baholash orqali oshirish imkoni albatta mavjud.

Pul oqimini bashoratlash aniq olingan muddatlarga (kelgusi oylar, choraklar, yillar kesimida amalga oshiriladi. Uning metodik jihatlarini quyida berib o'tishimiz mumkin:

1. Davr oralig'ida pul kirimini bashoratlash. Pul kirimini asosiy manbasi bu mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan tushadi. Bu borada

tayyor mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan pul kirimini o'rtacha ko'rsatkichi (koeffitsiyenti, davri) aniqlanadi. Ushbu birlik orqali yaqin oylarda va yil davomida kelishi kutilayotgan pul mablag'lari kirimini aniqlash mumkin. Shuningdek, balans usuli asosida mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof pul kirimini aniqlash yuzasidan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining davr boshi va oxiriga qoldiqlari farqi sotish hajmiga qayta hisob-kitob qilish orqali naqd pul mablag'lari kirimi ham aniqlanadi.

Bashoratlashda aniqroq hisob-kitoblarni amalga oshirishda debitorlik majburiyatlarining oldingi chorakliklar bo'yicha o'zgarishlarini ham asos sifatida olish mumkin.

Boshqa faoliyat turlari bo'yicha pul mablag'lari kirimi oldingi oylar va choraklar natijasiga qarab belgilanadi va asosiy faoliyatdan pul mablag'lari kirimiga qo'shiladi.

2. Davr oralig'ida pul mablag'lari chiqimini bashoratlash. Birinchi navbatda naqd pul chiqimi belgilanadi. Uning muhim tarkibiy birligi mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan kreditorlik majburiyatlarini qoplash hisoblanadi.

Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga bo'lgan kreditorlik majburiyatlarining to'lov muddatlarini kechiktirilishi korxona uchun boshqa moliyalashtirish manbasi ham bo'lishi mumkin. Shu sababli, ko'pincha xo'jalik subyektlari ushbu majburiyatlarni imkon qadar kechiktirishga harakat qiladilar.

Kreditorlik majburiyatlarining salmoq ulushi ish haqi bo'yicha majburiyatlarga, soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar qatoriga ham to'g'ri keladi.

3. Sof pul oqimini aniqlash. Bashorat qilinadigan sof pul oqimi ularning kirim va chiqimini farqlash asosida aniqlanadi. Natija ijobiy (ortiqchalik) va salbiy (yetishmovchilik) shaklida bo'lishi mumkin

4. Pul mablag'lariga bo'lgan qisqa muddatli moliyalashtirishning umumiy hajmini aniqlash. Moliyalashtirish yuzasidan ko'pgina xo'jalik yurituvchi subyektlari qisqa va uzoq

muddatli bank kreditlari, ssudalarini jalb etishni maqbul ko'rishadi. Uning hajmi albatta bashoratlangan sof pul oqimiga qarab belgilanadi.

Pul oqimlarini bashorati

Ko'rsatkichlar nomi	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
1	3	4	5	6
1.Operatsion faoliyat				
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari	160.0	185.0	195.0	205.0
Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari	100.0	105.0	115.0	125.0
Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari	25.0	28.0	32.0	35.0
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	15.0	15.0	15.0	15.0
Jami: operatsion faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (satr 010-020-030+/-040	*100.0*	*123.0*	*127.0*	*140.0*
Investitsiya faoliyati				
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	-135.0	-125.0	-150.0	-150.0
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	-10.0	-10.0	-10.0	-10.0
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish	25.0	25.0	25.0	25.0
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	15.0	15.0	15.0	15.0
Jami: investitsion faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (satr 060+/-070+/-080+/-090	*-105.0*	*-95.0*	*-120.0*	*-120.0*
Moliyaviy faoliyat				
Olingan va to'langan foizlar	10.0	15.0	15.0	15.0
Olingan va to'langan dividendlar	-	-	-	-
Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari	-	-	-	-
Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari	-	-	-	-
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	25.0	25.0	25.0	25.0

Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	35.0	35.0	35.0	35.0
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	10.0	5.0	5.0	5.0
Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirim / chiqim (satr 110+/-120+130-140+/-150+/-160+/-170)	70.0	*65.0*	*65.0*	*65.0*
Soliqqa tortish				
To'langan daromad (foyda) solig'i	35.0	35.0	35.0	35.0
To'langan boshqa soliqlar	10.0	10.0	10.0	10.0
Jami: to'langan soliqlar (satr 190+200)	45.0	45.0	45.0	45.0
Jami: moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi / chiqimi (satr 050+/-100+/-180-210)	100.0	138.0	117.0	130.0

10.5. Asosiy faoliyat, moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari tahlili

Operatsion faoliyatdan pul mablag'lari kirimi va chiqimida: hisobot davrida sotilgan mahsulot (ish va xizmat)lar uchun korxonaning bank hisobvaraqlari va kassasiga kelib tushgan pul mablag'lari summasi; mahsulot yetkazib beruvchilarga materiallar, tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'langan pul mablag'lari summasi; xodimlarga mehnatga haq to'lash ko'rinishida to'langan pul mablag'lari summasi, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalariga to'langan mablag'lar summalari, byudjetga jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'lash, kasaba uyushmasiga ajratmalar, alimentlar, uy-joy fondiga, xodimlarga berilgan bank kreditlari bo'yicha to'lash, xodimlarga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun korxonaning haq to'lashi, kassadan va bank hisobvaraqlaridan xodimlar bilan va ular nomidan operatsiyalarga doir boshqa sarflar; operatsion faoliyatga doir boshqa pul tushumlari va chiqimlari (royalti, turli xil taqdirlashlar, komission yig'imlar va boshqa operatsion faoliyatdan to'langan pul mablag'lari kirimi va chiqimi); operatsion faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi aks etadi.

Investitsion faoliyatdan pul mablag'lari kirimi va chiqimida: asosiy vositalarni xarid qilganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari summalari, asosiy vositalarni sotishdan kelib tushgan mablag'lar summalari; nomoddiy aktivlarni xarid qilganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchiga to'langan pul mablag'lari, nomoddiy aktivlarni sotganlik uchun kelib tushgan mablag'lar summalari; qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini xarid qilish uchun to'langan pul mablag'lari summasi, shu jumladan vositachilarga komission taqdirlashlar va birjada to'langan foizlar, qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi; boshqa investitsion faoliyatga oid to'langan pul mablag'lari kirim va chiqimi; investitsion faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi aks etadi.

Moliyaviy faoliyatdan pul mablag'larining kirimi va chiqimida: olingan (kirim) va to'langan (chiqim) foizlar summalari; olingan (kirim) va to'langan (chiqim) dividendlar summalari; hisobot yilida chiqarilgan (sotilgan) aksiyalar yoki o'z sarmoyasi bilan bog'liq boshqa dastaklar uchun aksiyadorlardan kelib tushgan pul mablag'lari summasi; sotib olingan xususiy aksiyalarni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari summalari, shuningdek, korxonada bo'lgan xususiy aksiyalar, hissalar va paylar uchun, ularni keyingi sotish yoki yo'q qilish (bekor qilish) maqsadida, egalariga to'langan pul mablag'lari summasi; hisobot davrida kelib tushgan kreditlar va qarzlar (kirim) summasi, kreditlar va qarzlar bo'yicha to'lovlar summasi (chiqim); ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to'langan pul mablag'lari, ijarachidan (lizing oluvchidan) kelib tushgan pul mablag'lari summasi; boshqa moliyaviy faoliyatga oid to'langan va olingan pul mablag'lari summasi; moliyaviy faoliyatdan sof pul mablag'lari kirimi yoki chiqimi aks etadi.

Soliqqa tortish pul mablag'lari chiqimi qatorida: to'langan daromad (foyda) solig'i, to'langan boshqa soliqlar va jami to'langan soliqlar yuzasidan chiqimlar aks etadi.

10.6. Pul oqimlarini tahlil qilishning to‘g‘ri va egri uslubi

To‘g‘ri usulda tahlilning metodologik asoslari.

To‘g‘ri usul – xo‘jalik faoliyatidan pul mablag‘lari harakatini ijobiy va salbiy farqlanishlarini aniqlashning kassa usulida hisob-kitob qilinishidir[72].

Pul mablag‘larini to‘g‘ri usulda tahlil etishning metodologik asosi balans usuli hisoblanadi. Uning mazmunini quyidagilar tashkil etadi:

- pul qiymatliklarining davriy qiymatini hisobga olmaslik
- pul mablag‘larini qoldiq qismini aniqlash quyidagi tenglikka teng:

$$\mathbf{PM_{db} + PM_k - PM_{ch} = PM_{do}}$$

Bu yerda:

PM_{db}, PM_{do} – pul mablag‘larining davr boshi va oxiriga qoldig‘i;

PM_k – pul mablag‘lari kirimi;

PM_{ch} – pul mablag‘lari chiqimi.

-jadval

Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot qatorlari

Ko‘rsatkichlar	Kod
Pul mablag‘larining davr boshiga qoldig‘i	010
Asosiy (joriy) faoliyatdan pul mablag‘larining harakati	
Xaridor va buyurtmachilardan olingan pul mablag‘lari	120
Boshqa kirimlar	130
Mahsulot (ish, xizmat)larni, xomashyo va boshqa aylanma aktivlarni olib kelishga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari	150
Ish haqiga	160
Dividendlar, foizlar to‘loviga	170
Soliqlar va turli yig‘imlarga	180
Boshqa xarajatlarga	190
Asosiy (joriy) faoliyatdan pul mablag‘larining sof kirimi	020
Investitsion faoliyatdan pul mablag‘larining kirimi	
Asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlarni sotib olishdan tushumlar	210
Olingan foizlar	240
Asosiy vositalar olib kelishga, moddiy va nomoddiy aktivlarga daromadli qo‘yilmalar	290

[72] Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б.

Qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy qo‘yilmalarni olish	300
Boshqa korxonalarga berilgan qarzlar	310
Investitsion faoliyatdan sof pul mablag‘larining harakati	340
Moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘larini harakati	
Boshqa korxonalardan olingan qarz va kreditlar	420
Qarz va kreditlarni qoplash (foiz to‘lovisiz)	430
Moliyaviy faoliyatdan sof pul mablag‘lari harakati	040
Pul va pul ekvivalentlarining sof o‘sishi (kamayishi)	050
Pul mablag‘larining davr oxiriga qoldig‘i	060

Pul oqimini asosiy faoliyat bo‘yicha ijobiy natijasi moliyaviy salohiyatning yaxshiligini ifoda etadi

Faoliyat turlari bo‘yicha pul oqimi

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida		O‘zgarishi (+,-)		O‘sish darajasi, %
		Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %	Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %	Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %	
1	Davr boshiga pul mablag‘lari qoldig‘l	124.5	-	171.9	-			
2	Pul mablag‘larining jami kirimi:	4 828.0	100	6 280.0	100	1 452	-	130.0
	Shu jumladan faoliyat turlari bo‘yicha: -asosiy faoliyatdan	3 062.0	63.4	4 821.0	76.7	1 759.0	13.3	157.4
	-investitsion	1 260.0	26.0	889.0	14.2	-370	-11.8	175.6
	-moliyaviy	506.0	10.6	570	9.1	64	-1.6	112.6
3	Pul mablag‘larining jami chiqimi	4 780.7	100	5 983.0	100	-	-	125.1
	Shu jumladan faoliyat turlari	2 180.4	45.6	3 168.0	52.9	987.6	9.2	145.3

	bo'yicha: -asosiy faoliyatdan							
	-investitsion	1 767.2	37.0	2 256.0	37.7	488.8	-2.3	127.6
	-moliyaviy	833.1	17.4	559.0	9.4	274.1	-8.9	67.1
4	Davr oxiriga pul mablag'lari qoldig'i	171.9	-	468.9	-	297.0		273.6

Korxonada pul oqimini tahlilidan shuni qayd etish lozimki, joriy davrda pul oqimining davr boshiga qoldigi 171.6 ming so'mni, pul mablag'lari kirimi (operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyatdan) 6 280 ming so'mni, pul mablag'lari chiqimi 5 983.3 ming so'mni tashkil etgan. Pul mablag'larining davr oxiriga qoldig'i 468.9 ming so'mni tashkil etgan. Pul mablag'lari kirimi va chiqimida asosiy ulushni asosiy faoliyatdan daromad va xarajatlar, investitsion faoliyatdan xarajatlar tashkil etgan.

To'g'ri usulda tahlil etishning imkoniyatlari. Buxgalteriya hisobi schyotlaridagi ma'lumotlar asosida pul mablag'larining kirimi va chiqimini hisoblashni nazarda tutadi. Ya'ni, joriy manbasi buxgalteriya hisobining schyotlar rejasidagi axborotlar hisoblanadi. Pul mablag'lari schyotidagi debet va kredit aylanmalari hajmi tahlilning zaruriy manbasi hisoblanadi.

Barcha schyotlar bo'yicha debet va kredit aylanmalari hajmi faoliyat turlari bo'yicha qayta tarkiblanadi.

To'g'ri usulda pul mablag'larini tahlil etish quyidagi savollarga aniq javob topish imkonini beradi[73]:

- joriy faoliyatdan keladigan pul mablag'larini faoliyat uzluksizligini va rejalashtirilgan investitsion faoliyatni ta'minlashga yetarlimi yoki yetishmasligini baholash;

- moliyaviy faoliyatdan keladigan pul mablag'larining balanslangan sifatiga erishish uchun qancha mablag';

[73]K.R. Subramanyam Financial statement analysis, eleventh edition Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by

- asosiy, investitsion va moliyaviy faoliyatdan xarajatlar va ularning kelish manbalarini korxona bo'yicha jamlangan holda baholash;

- pul mablag'lari kirimi va chiqimining ularning davr oxiriga qoldiq summalariga qay darajada ta'sir etishini baholash;

- faoliyat turlari bo'yicha pul mablag'lari tarkibiga, har bitta faoliyat turi bo'yicha sof pul mablag'lari sof kirimi (chiqimi)ni baholashga imkon beradi.

Joriy faoliyatdan sof pul mablag'lari kirimi (chiqimi) ijobiy va salbiy holatlari kuzatiladi.

Ijobiy holat – korxona faoliyatining va kelgusidagi rivojlanish strategiyasining o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. Investitsion faoliyatdan pul mablag'larining salbiy holati uzoq muddatli aktivlarga investitsiya kiritish holatlarida kuzatiladi. Bu holat samaradorligi va natijaviyligida strategik qarorlar to'g'ri belgilangan bo'lsa, joriy davr bo'yicha xarajatlarni ko'paytiradi va kelgusi davrlar bo'yicha pul tushumlarining oshishiga olib keluvchi holat sifatida baholanadi. Moliyaviy faoliyatdan pul mablag'larining sof harakatida ijobiy holat korxonaning kengaytirilgan faoliyatini tashqi manbalar hisobiga moliyalashtirilayotganligini bildiradi. Yuqoridagilarning aksi salbiy holatni ifoda etadi.

Pul mablag'larini egri usuldagi tahlili. Egri usulda pul mablag'larini tahlil etishning axborot ta'minoti sifatida buxgalteriya balansi, metodologiya asosi tahlilning balans usuli hisoblanadi.

Mazkur usulda pul mablag'larining kirimida balans passivi moddalarining o'sishi va aktiv moddalarning kamayishi, pul mablag'lari chiqimida balans aktiv moddalarining ko'payishi va passiv moddalarining kamayishini xarakterlaydi.

Pul mablag'lari ko'payishida asosiy manba joriy davr foydasi va amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi.

Umumiy ko'rinishda pul mablag'lari harakatini, hisob-kitobini quyidagi formula asosida topish mumkin

$$SPX = SF + AA - (\Delta A + AA) + (\Delta P - SF)$$

Bunda:

SF – joriy davr sof foydasi;

AA – amortizatsiya ajratmalari;

ΔA – aktivlarning o'zgarishi;

ΔP – passivlarning o'zgarishi.

1. Joriy faoliyatdan pul mablag'larining sof harakati hisob-kitobi:

$$\mathbf{PMj.f. = SF + AA - \Delta Z - \Delta DM + (\Delta Kjamg'. - SF) + \Delta KM}$$

Bunda:

ΔZ – zaxiralarning o'sishi;

ΔDM – debitorlik majburiyatlarining o'sishi;

ΔKM – kreditorlik majburiyatlarining o'sishi

(ΔKjam. - SF) – jamg'arilgan kapitalning o'sishi (taqsimlanmagan foyda va rezerv kapitalining) joriy davr foydasidan farqi (farq – joriy davrda ishlatilgan foyda summasi)ni xarakterlaydi.

Joriy faoliyatdan sof pul mablag'lari harakati:

"+" sof foyda summasi amaortizatsiya, kirimga olingan schyotlardagi kamayish, kelgusi davr xarajatlarining o'sishi, nomoddiy aktivlarni sotishdan zararlar, soliqlar bo'yicha majburiyatlarning ortishi qo'shiladi.

"-" qimmatli qog'ozlarni sotishdan tushumlar, avans to'lovlari ortishi, TMZ o'sishi, to'lovga qabul qilingan schyotlarning kamayishi, majburiyatlarning kamayishi, bank kreditlarining kamayishi.

2. Investitsion faoliyatdan sof pul mablag'lari harakati hisob-kitobi:

$$\mathbf{ChDPi.d. = - (\Delta\ OTA + AA)}$$

Bunda:

Δ OTA – oborotdan tashqari aktivlar o'sishi.

Investitsion faoliyatdan sof pul mablag'lari harakati:

"+" moddiy aktivlar va qimmatli qog'ozlarni sotishdan pul mablag'lari kirimi;

"-" moddiy aktivlar va qimmatli qog'ozlarni sotishdan pul mablag'lari chiqimi.

3. Moliyaviy faoliyatdan pul mablag'lari sof harakati hisob-kitobi:

$$\mathbf{PMm.f. = \Delta Kinv + \Delta\ Mu + \Delta\ Mq}$$

Bunda:

Δ Kinv – investitsiyalangan xususiy kapitalning o‘sishi (sotib olingan aksiyalar va qo‘shilgan kapital summasiga farq etuvchi ustav kapitali);

ΔMu – uzoq muddatli majburiyatlarning o‘sishi;

ΔMq – qisqa muddatli kreditlar va qarzlar summasining o‘sishi.

Moliyaviy faoliyatdan sof pul mablag‘lari harakati :

“+” oddiy aksiyalarning emissiyasi;

“-” qarzlarni qoplash va dividendlar to‘lovi

Pul oqimining to‘g‘ri usulda tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Joriy davr	O‘tgan yilning shu davri
1.	Operatsion faoliyatdan pul oqimi	OF_0	OF_1
1.1.	Kirim:	OF_k	OF_k
	Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari		
	Boshqa tushumlar		
	Jami kirim		
1.2.	Chiqim:	OF_{ch}	OF_{ch}
	Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari		
	Xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari	-	
	Boshqa chiqimlar		
	Jami chiqim		
	Operatsion faoliyatning sof kirimi, chiqimi	$OFs_{k/ch}$	$OFs_{k/ch}$
2.	Investitsion faoliyatdan pul oqimi	IF_0	IF_1
2.1.	Kirim	IF_k	IF_k
	Asosiy vositalarni sotish		
	Nomoddiy aktivlarni sotish		
	Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish		
	Boshqa kirimlar		
	Jami kirim		

2.2.	*Chiqim*	IF_{ch}	IF_{ch}
	Asosiy vositalarni sotib olish		
	Nomoddiy aktivlarni sotib olish		
	Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish		
	Boshqa chiqimlar		
	Investitsion faoliyatdan sof kirim, chiqim	$IFs_{k/ch}$	$IFs_{k/ch}$
3.	Moliyaviy faoliyat pul oqimi	MF_0	MF_1
3.1.	Kirim:	MF_k	MF_k
	Olingan foizlar		
	Olingan dividendlar		
	Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari		
	Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo'yicha pul tushumlari		
	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari		
	Boshqa kirimlar		
	Jami kirim		
3.2.	Chiqim	MF_{ch}	MF_{ch}
	To'langan foizlar		
	To'langan dividendlar		
	Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari		
	Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo'yicha pul to'lovlari		
	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul to'lovlari		
	Boshqa chiqimlar		
	Moliyaviy faoliyatdan sof kirim, chiqim	$MFs_{k/ch}$	$MFs_{k/ch}$
4.	**Tahlil qilinayotgan davrda pul oqimining jami o'zgarishi**	ΔPO	ΔPO

Pul oqimini egri usuldagi hisob-kitoblari natijalari quyidagi jadval ma'lumotlarida aks etgan.

Pul oqimini egri usulda tahlili

Ko‘rsatkichlar	Summa, ming so‘m
Pul oqimini qoldig‘i	171.9
Sof foyda	974.0
Hisoblangan amortizatsiya	897
Asosiy vositalarni hisobdan chiqarishdan natija	-
Boshqa korxonalarda qatnashishdan daromadlar	-
Ishlab chiqarish zaxiralaridagi o‘zgarishlar	228
Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlar	-
Kelgusi davr xarajatlari o‘zgarishi	7075
Tayyor mahsulot hajmidagi o‘zgarishlar	-
Debitorlik majburiyatlari o‘zgarishi	1063
Kreditorlik majburiyatlari o‘zgarishi	1077
Qisqa muddatli qo‘yilmalar o‘zgarishi	-
Kelgusi davr daromadlari o‘zgarishi	-
Joriy faoliyat bo‘yicha jami pul oqimi	
Investitsion faoliyat	
Kirim	889.0
Chiqim	2256.0
Investitsion faoliyat bo‘yicha jami pul oqimi	-1367
Moliyaviy faoliyat	
Kirim:	570.0
Chiqim:	559.0
Moliyaviy faoliyatdan jami pul oqimi	-11.0
Pul oqimining davr oxiriga qoldig‘i	

Pul oqimining davr boshiga qoldig‘i 171.9 mln so‘mni tashkil etgan. Joriy davrda sof foyda 974.0 mln so‘mni, hisoblangan amortizatsiya (897 mln.so‘mni), asosiy vositalarni hisobdan chiqarishdan natija (0.0 mln so‘m), boshqa korxonalarda qatnashishdan daromadlar (0.0 mln so‘m), ishlab chiqarish zaxiralaridagi o‘zgarishlar (228 mln so‘m), tugallanmagan ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlar (0.0 mln so‘m), kelgusi davr xarajatlari o‘zgarishi (7 075 mln so‘m), tayyor mahsulot hajmidagi o‘zgarishlar (0.0 mln so‘m), debitorlik majburiyatlari

o‘zgarishi (1 063 mln so‘m), kreditorlik majburiyatlari o‘zgarishi (1 077 mln so‘m), qisqa muddatli qo‘yilmalar o‘zgarishi (0.0 mln.so‘m), kelgusi davr daromadlari o‘zgarishi (0.0 mln so‘m), investitsion faoliyat kirimi (889.0 mln.so‘m), investitsion faoliyat chiqimi (2256.0 mln so‘mni), investitsion faoliyat bo‘yicha jami pul oqimi (1 367 mln so‘m), moliyaviy faoliyat kirimi (570.0 mln so‘m), moliyaviy faoliyat chiqimi (559.0 mln so‘m), sof pul oqimi (11.0 mln so‘m)ni tashkil qilgan. Pul mablag‘larining davr oxiriga qoldig‘i 468 mln so‘mga teng bo‘lgan.

-jadval

Buxgalteriya balansining tuzilishi bo‘yicha pul oqimining hisob-kitobi

Balans tarkibi	Belgi	Hisob-kitobi
Aktivlar		
Uzoq muddatli aktivlar	UMA	+
Joriy aktivlar	JA	+
Tovar-moddiy zaxiralar	TMZ	+
Debitorlik majburiyatlari	DM	+
Pul mablag‘lari	PM	+
Passivlar	=	=
O‘z mablag‘lari manbasi	O‘MM	+
Uzoq muddatli kreditlar	UMKQ	+
Qisqa muddatli kreditlar	QMK	+
Kreditorlik majburiyatlari	KM	+

$\sum A = UMA+TMZ+DM+PM$

$\sum P = O‘MM+UMKQ+QMKQ+KMKQ$

$PM = \sum P - \sum A = O‘MM+UMKQ+QMKQ+KMKQ-UMA+TMZ+DM+PM$

10.7. Pul oqimlarini boshqarishning omilli tahlili. Pul oqimlari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash

Pul oqimini omilli tahlilida koeffitsiyent usulidan foydalaniladi. Bu usul pul oqimini maqsadli boshqarishni yo‘lga qo‘yish yuzasidan quyidagi ko‘rsatkichlar tizimini o‘rganishni talab etadi:

- sof pul oqimining etarliligi;

- sarflangan pul mablag'larining rentabelligi;
- olingan pul mablag'larining rentabelligi;
- o'rtacha pul qoldig'ining rentabelligi.

Sof pul oqimining etarliligi koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$\mathbf{Kpm = PMk / PMch * 100\%}$$

Bu yerda:

PMk – pul mablag'lari kirimi;

PMch – pul mablag'lari chiqimi.

Sarflangan pul mablag'larining rentabelligi koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathbf{Rpm_{ch} = F / PMch * 100\%}$$

Bu yerda:

F – korxona faoliyatining moliyaviy natijasi;

Olingan pul rentabelligi koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathbf{Rpm_k = F / PMk * 100\%,}$$

Pul mablag'lari o'rtacha qoldig'ining rentabelligi koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathbf{Rpm_q = F / PMq * 100\%,}$$

Bu yerda:

PMq – pul mablag'larining o'rtacha qoldig'i.

Pul oqimlarining yetarligi, rentabelligi ko'rsatkichlari pul oqimining shakllanish qatorlari ya'ni operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat bo'yicha ham alohida va butun xo'jalik faoliyatidan pul oqimi bo'yicha ham o'rganiladi. Bu pul oqimining shakllanishi bo'yicha har bitta qatorni omilli tahlil etish va boshqarishda ham muhim masala hisoblanadi. Pul oqimining moliyaviy koeffitsiyentlariga ta'sir etuvchi birliklar sifatida moliyaviy natijaviylikning o'zgarishi, sof pul oqimining o'zgarishlari, pul mablag'lari kirimi va chiqimining o'zgarishlari tarkiblanadi.

Pul mablag'lari bilan bog'liq moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili

Ko'rsatkichlar	Belgi	2014y.	2015y.	2016y.

Pul mablag'lari kirimi, ming so'm	PMk	4 796	6 813	9 639
Pul mablag'lari chiqimi, ming so'm	PMch	4 718	6 874	9 634
Korxona faoliyatining moliyaviy natijasi	F	-202	1 866	2 089
Pul oqimlarining o'rtacha qoldig'i, ming so'm	POq	79	18	23
Sof pul oqimining yetarliligi	Kpm	101,65	99,11	100,05
Olingan pul mablag'larining rentabelligi	Rpm_k	-	27,15	21,68
Sarflangan pul mablag'larining rentabelligi	Rpm_{ch}	-	27,39	21,67
O'rtacha pul qoldig'ining rentabelligi	Rpm_q	-	10 366,67	9 082,61

Korxonada sof pul oqimining yetarliligi 2014-yilda 101.65 %ni, 2015-yilda 99.11 %ni, 2016-yilda 100.05 %ni tashkil qilgan. Sarflangan pul mablag'larining rentabelligi mos ravishda 2015-yilda 27.39 %ni, 2016-yilda 21.67 %ni tashkil qilgan.

Omilli tahlil etish metodikasini quyidagi jadvaldagi hisob-kitoblar asosida ko'rib o'tishimiz mumkin. Har bitta ta'sir omilining natijaviy ko'rsatkichga ta'sirini baholashda zanjirli almashtirish usuli orqali hisob-kitob qilishimiz mumkin.

Pul mablag'larining omilli tahlili

Moliyaviy koeffitsiyentlar	**Hisob-kitoblar**	**Jami o'zgarish**	**Omillar ta'siri**	
			1-omil	**2-omil**
1. Sof pul oqimining yetarliligi			Pul mablag'lari kirimining o'zgarishi	Pul mablag'lari chiqimining o'zgarishi
O'tgan yil	$Kpm_0 = PMk_0 / PMch_0 * 100\%$	$Kpm_1 - Kpm_0$	$Kpm_{1,0} - Kpm_0$	$Kpm_1 - Kpm_{1,0}$
Hisobot yil shartli	$Kpm_{1,0} = PMk_1 / PMch_0 * 100\%$			

Hisobot yili	$Kpm_1 = PMk_1 / PMch_1 * 100\%$			
2. Olingan pul mablag'larining rentabelligi			Moliyaviy natijalarning o'zgarishi	Pul mablag'lari kirimining o'zgarishi
O'tgan yil	$Rpm_{k0} = F_0 / PMk_0 * 100\%$	$Rpm_{k1} - Rpm_{k0}$	$Rpm_{k1,0} - Rpm_{k0}$	$Rpm_{k1} - Rpm_{k1,0}$
Hisobot yil shartli	$Rpm_{k1,0} = F_1 / PMk_0 * 100\%$			
Hisobot yili	$Rpm_{k1} = F_1 / PMk_1 * 100\%$			
3. Sarflangan pul mablag'larining rentabelligi			Moliyaviy natijalarning o'zgarishi	Pul mablag'lari chiqimining o'zgarishi
O'tgan yil	$Rpm_{ch0} = F_0 / PMch_0 * 100\%$	$Rpm_{ch1} - Rpm_{ch0}$	$Rpm_{ch1,0} - Rpm_{ch0}$	$Rpm_{ch1} - Rpm_{ch1,0}$
Hisobot yil shartli	$Rpm_{ch1,0} = F_1 / PMch_0 * 100\%$			
Hisobot yili	$Rpm_{ch1} = F_1 / PMch_1 * 100\%$			
4.O'rtacha pul qoldig'ining rentabelligi			Moliyaviy natijalarning o'zgarishi	Pul mablag'lari o'rtacha qoldig'ini o'zgarishi
O'tgan yil	$Rpm_{q0} = F_0 / PMq_0 * 100\%$	$Rpm_{q1} - Rpm_{q0}$	$Rpm_{q1,0} - Rpm_{q0}$	$Rpm_{q1} - Rpm_{q1,0}$
Hisobot yil shartli	$Rpm_{q1,0} = F_1 / PMq_0 * 100\%$			
Hisobot yili	$Rpm_{q1} = F_1 / PMq_1 * 100\%$			

10.8. Pulning muddatdagi qiymati, foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari

Pul mablag'larini muddatdagi qiymatini aniqlash diskontlashni talab etadi. Bu jarayonga juda ko'p omillar ta'sir qiladi: inflyatsiya, risklar, likvidlik va h.k.

Pul mablag'larining muddatdagi qiymatini aniqlash investorlarga pul mablag'larini joylashtirishning samaradorligi va natijaviyligini baholashga imkon beradi. Naqd pul oqimining kelajakdagi qiymatini aniqlashning asosiy kamchiligi uning noaniqligidir. Lekin bu noaniqlik riskini aniq hisob-kitoblar va taxminlar asosida kamaytirish mumkin.

Pulning muddatdagi qiymati baholangan kelgusi pul oqimlarini diskontlash orqali inobatga olinishi sababli, ushbu pul oqimlari moliyalashtirish faoliyatlari bo'yicha pul kirimlari yoki chiqimlarini o'z ichiga olmaydi. Xuddi shuningdek, diskont stavkasi soliqdan oldingi asosda aniqlanishi tufayli, kelgusi pul oqimlari ham soliqdan oldingi asosda aniqlanadi.

Pulning joriy qiymatining kelgusida qanday daromad keltirishini quyidagi formula asosida hisoblash mumkin.

$$FV = PV \cdot (1+i)^N$$

Bu yerda:

PV – pul oqimining joriy qiymati (bugungi pul mablag'lari summasi);

i – foiz stavkasi;

N – davrlar soni.

Quyida, 1 500,0 mln.so'm 5 yilga, 7.5 %li stavkada investitsiya qilinishi, depozitga qo'yilishi qancha daromad olib kelishini hisob-kitob qilishimiz mumkin.

Pulning kelgusi qiymati hisob-kitobi

Davr	Belgi	Pulning kelgusi qiymati, mln so'm
Dastlabki pul	FV_0	1 500,0
Birinchi yili	FV_1	1 500.0 * $(1+0,075)^1$=1 612,50

Ikkinchi yili	FV_2	1 612,50 * $(1+0,075)^1$=1 733,44
Uchinchi yili	FV_3	1 733,44 * $(1+0,075)^1$=1 863,45
To'rtinchi yili	FV_4	1 863,45 * $(1+0,075)^1$=2 003,20
Beshinchi yili	FV_5	2 003,20 * $(1+0,075)^1$=2 153,44

$$FV=1500*(1+0,075)^5=2153,44 \text{ mlnso'm}$$

Demak, korxona tomonidan 1 500.0 mln so'm mablag' 5 yildan keyin 2 153.44 mln so'mga aylanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt aktivning foydalanishdagi qiymatini baholash uchun qaysi yondashuvni tanlashidan qat'iy nazar, pul oqimlarini diskontlashda foydalaniladigan foiz stavkalari baholangan pul oqimlari to'g'rilangan risklarni aks ettirmasligi zarur[74].

Diskont stavkasi xo'jalik yurituvchi subyektning kapital tuzilishidan va xo'jalik yurituvchi subyekt aktivni sotib olishni moliyalashtirgan usuldan mustaqildir, chunki aktivdan yuzaga kelishi kutilgan kelgusi pul oqimlari xo'jalik yurituvchi subyekt aktivni sotib olishni moliyalashtirgan usulga bog'liq emas.

10.9. Valyuta mablag'lari harakatining tahlili

Keyingi yillarda valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni hamda kichik biznes va xususiy xo'jalik yurituvchi subyektlarni barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Maqbul miqdorda tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan siyosat O'zbekistonning majburiyatlarini o'z vaqtida bajaradigan ishonchli, to'lovga layoqatli xalqaro sherik sifatidagi imidjini ta'minladi, keyinchalik valyuta kursini liberallashtirish uchun zarur oltin-valyuta zaxirasini shakllantirish, valyuta resurslarini real iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta

[74]БҲХС-36. Активларнинг қадрсизланиши

jihozlash va diversifikatsiya qilishning ustuvor sohalariga yo'naltirish, jahon moliyaviy inqirozining salbiy oqibatlarini yumshatish imkonini bermoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy qilish, respublika eksport salohiyatini oshirishni rag'batlantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini oshirish, mamlakatimizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, valyuta bozorini yanada liberallashtirishga muhim ahamiyat qaratilgan va uning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga muvofiq "Valyuta boyliklari" qatoriga quyidagilar kiradi:

- chet el valyutasi;

- qimmatli qog'ozlar – chet el valyutasidagi fond boyliklari (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar);

- chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditivlar va boshqalar);

- qimmatbaho metallar – har qanday ko'rinish va holatdagi oltin, kumush, platina hamda platina guruhiga kiruvchi (palladiy, iridiy, rodiy, ruteniy va osmiy), metallar shunday metallardan ishlangan zargarlik buyumlari va boshqa ro'zg'or buyumlari hamda ularning parchalari bundan mustasno;

- tabiiy qimmatbaho toshlar – sayqal berilgan va sayqal berilmagan shakldagi olmos, la'l, zumrad, yoqut, aleksandrit, shuningdek, marvarid, shunday toshlardan ishlangan zargarlik va boshqa ro'zg'or buyumlari hamda ularning parchalari bundan mustasno.

Chet el valyutasiga tegishli ajnabiy davlatda muomalada bo'lgan va qonuniy to'lov vositasi hisoblangan banknot ko'rinishdagi chet el pul belgilari, shuningdek, muomaladan chiqarilgan yoki chiqarilayotgan, ammo O'zbekiston Respublikasi pul belgilariga almashtirilishi lozim

bo‘lgan chet el pul belgilari, schyotlarda va omonatlarda bo‘lgan xorijiy davlatlarning pul birliklaridagi va xalqaro hisob-kitob birliklaridagi mablag‘lar kiradi.

Chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari yoki xorijiy davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog‘ozlar jumlasiga kiritilgan, qiymati chet el valyutasida ifodalangan hujjatlaridir[75].

Globallashgan iqtisodiyot, shuningdek, dunyo iqtisodiyotining yagonalashuvi bilan davlatlar o‘rtasidagi savdo iqtisodiy munosabatlar tobora kengayib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida har bitta xo‘jalik yurituvchi subyektni eksport-import operatsiyalariga undamoqda. Eksport-import operatsiyalarida ijobiy farqlanishga erishish albatta korxonalar oldiga ham bir qadar murakkab vazifalarni hal etishni va uning mustahkam zaminini yo‘lga qo‘yishni talab etadi.

Bir mamlakat doirasida ko‘p turdagi raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyati cheklangan. Tashqi bozor mahalliy ishlab chiqaruvchilarning o‘zlari uchun ustun bo‘lgan faoliyat turlari bilan keng doirada shug‘ullanishlariga imkon beradi, ularning faoliyat doirasini kengaytiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat nafaqat ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshiradi, balki erkin xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini, shuningdek, aholining turmush farovonligini oshirishning ham zaruriy sharti hisoblanadi.

Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot shakliga ilova sifatida xorijiy valyutada pul mablag‘larining harakati to‘g‘risida ma’lumotnoma tuziladi. Unda hisobot davrida xorijiy valyutada pul mablag‘larining to‘liq harakati ko‘rsatiladi.

Valyuta mablag‘lari operatsiyalarni amalga oshirish paytida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha

[75]Ўзбекистон Республикасининг Қонуни “Валютани тартибга солиш тўғрисида” Тошкент ш.,1993 йил 7 май, 841-XII-сон

O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida, valyuta mablag‘lari qoldig‘i esa – hisobot davrining oxirgi sanasida aks ettiriladi.

Ushbu ma’lumotnomaga asosan korxonaning valyuta mablag‘larini harakati tahlil qilinadi.

Korxona tomonidan kirimga olingan valyuta mablag‘lari qatorida: korxona tomonidan hisobot davrida olingan valyuta tushumi summasi; sotib olingan xorijiy valyuta summasi; moliyaviy faoliyatdan olingan valyuta mablag‘lari summasi; korxonaning valyuta hisobvaraqlari va kassasiga boshqa valyuta tushumlari summasi aks etadi.

Korxona tomonidan turli maqsadlarga sarflangan valyuta mablag‘larining qatoriga: mol-mulkni olishga, bajarilgan ishlarga va ko‘rsatilgan xizmatlarga sarflangan valyuta mablag‘lari summasi; moliyaviy faoliyat bo‘yicha sarflangan valyuta mablag‘lari summasi; boshqa maqsadlarga sarflangan valyuta summasi aks etadi.

Chet el valyutasidagi pul mablag‘larini qayta baholashdan yuzaga kelgan musbat yoki manfiy kurs farqlari, hisobot yili boshiga va oxiriga korxonaning valyuta hisobvaraqlari va kassasida bo‘lgan valyuta mablag‘lari alohida qatorlar bo‘yicha aks ettiriladi.

Tahlil etishda valyuta mablag‘lari balansiga muhim ahamiyat qaratiladi. Valyuta balansi quyidagi birliklar ifodasini jamlashni xarakterlaydi.

$$\mathbf{Vb+Vk=Vch+Vo}$$

Bu yerda:

Vb – valyuta mablag‘lari davr boshiga;

Vk – valyuta mablag‘lari kirimi (mahsulot, tovar, ish va xizmatlarni sotishdan va boshqa tushumlardan);

Vch – valyuta malbag‘lari chiqimi (mahsulot, tovar, ish va xizmatlarni sotib olishdan va boshqa chiqimlar);

Vo – valyuta mablag‘larining davr oxiriga qoldig‘i.

Valyuta mablag‘lari bo‘yicha o‘z-o‘zini moliyalashtirish masalasi xo‘jalik subyektlarining oldidagi eng muhim masala hisoblanadi. Negaki, ba’zan import tovarlari yuzasidan valyuta mablag‘lariga bo‘lgan extiyoj turli qiyinchiliklar tufayli doimo ham hal etilmasligining sababi

ham shundan kelib chiqadi. Shu sababli ham eksport-import operatsiyalaridagi ijobiy qoldiqqa chiqish talab etiladi.

Valyuta mablag'lari bilan moliyalashtirish samaradorligini baholash moliyaviy koeffitsiyentlar orqali baholanadi. Ushbu koeffitsiyent quyidagi formula asosida aniqlanadi.

Kvm=F+A/K+V

Bu yerda:

Kvm – valyuta mablag'lari bilan moliyalashtirish koeffitsiyenti;

F – valyuta mablag'larida ishlab chiqarishni moliyalashtirishga yo'naltirilgan foyda summasi;

A – valyuta mablag'lari hisobiga olib kelingan asosiy vositalarning amortizatsiyasi;

K – valyuta krediti;

V – banklardan va birjadan sotib olingan valyuta.

Koeffitsiyent qancha yuqori bo'lsa, o'z-o'zini moliyalashtirish darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

Valyuta mablag'lari bilan qoplanish koeffitsiyenti (Kqk) quyidagi formula asosida topiladi.

Kqk=Vb+Vk/Vch

Vb – valyuta mablag'lari davr boshiga qoldig'i;

Vk – hisobot davrida valyuta mablag'lari kirimi;

Vch – hisobot davrida valyuta mablag'lari chiqimi.

Kqk>1,0 dan yuqori bo'lishi o'z-o'zini moliyalashtirish shartlarining bajarilganligini bildiradi.

2017-yilning sentyabr oyidan boshlab valyuta kursi shakllanishining bozor mexanizmlariga o'tilishi va ichki valyuta bozori faoliyatining erkinlashtirilishi nafaqat pul-kredit sohasida, balki butun iqtisodiyotda ijobiy tomonga tub o'zgarishlarni amalga oshirish uchun muhim zamin yaratdi.

O'z navbatida, valyuta kursining bozor mexanizmlariga o'tilishi ya'ni, joriy talab va taklif asosida shakllanishi iqtisodiyotdagi valyuta resurslarining samarali taqsimlash mexanizmi yaratilishiga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz tashqi savdo operatsiyalarining asosiy qismi AQSh dollarida amalga oshirilishini inobatga olib, so'mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslarini belgilashda operatsion mo'ljal sifatida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursidan foydalanilmoqda.

Chet el valyutasidagi mablag'larning harakati to'g'risida MA'LUMOT

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	2017 yil	2016 yil	Farqi
Yil boshiga qoldiq	**250**	14 522	30 264	
Kelib tushgan valyuta mablag'lari, jami (satr 261+262+263+264), shu jumladan	**260**	524 362	801 235	
Sotishdan olingan tushum	**261**			
Konvertatsiya qilingan	**262**			
Moliyaviy faoliyat bo'yicha	**263**			
Boshqa manbalar	**264**			
Sarflangan valyuta mablag'lari, jami (satr 271+272+273), shu jumladan	**270**	508 260	763 210	
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar	**271**			
Moliyaviy faoliyat bo'yicha to'lovlar	**272**			
Boshqa maqsadlar uchun	**273**			
Chet el valyutasidagi pul mablag'larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi	**280**			
Yil oxiridagi qoldiq (satr. 250+260-270+/-280)	**290**	30 264	68 289	

Korxonada o'tgan yilda valyuta mablag'larining davr boshiga qoldig'i 14 522 ming dollarni, valyuta kirimi 524 362 ming dollarni, valyuta chiqimi 508 260 ming dollarni, valyuta mablag'larining joriy

davrdagi kirimi 801 263 ming dollarni, valyuta mablag'lari chiqimi 763 210 ming dollarni tashkil qilgan. Joriy yil oxiriga valyuta mablag'larining naqd qoldig'i 68 289 ming dollarni tashkil qilgan.

Nazorat uchun savollar

Pul mablag'larini oqilona boshqarish nima uchun zarur?

Pul oqimlarining sof harakati nima?

Pul mablag'lariga qanday mablag'lar kiradi?

Pul ekvivalentlariga nimalar kiradi?

Pul oqimlari deganda nimani tushunasiz?

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning tuzilishi va mazmunini tushuntiring?

Operatsiya faoliyatidan pul oqimiga nimalar kiradi?

Investitsiya faoliyatidan pul oqimiga nimalar kiradi?

Moliyaviy faoliyatdan pul oqimiga nimalar kiradi?

Pul oqimini tahlil etishni o'rganish maqsadi va vazifalari?

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va ularning kamchiliklari?

Korxonaning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi va ular oqimini tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring?

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning daromad keltiruvchi faoliyat turlariga nimalar kiradi?

Pul mablag'laridan samarali foydalanishni tashkil etishni qanday yo'lga qo'yish mumkin?

Pulni aylanish doiraviy aylanishlarini tarmoq va faoliyat turlari bo'yicha farqlanishini tushuntiring?

Pul oqimi to'g'risidagi hisobotning tuzilishi va asosiy elementlarini tasniflang?

Pul oqimining yo'nalishlariga (cash flow) nimalar kiradi?

Sof pul oqimining gorizontal va vertikal tahlilini tushuntiring?

Asosiy faoliyatdan pul oqimini tarkibiy tahlili?

Pul oqimlarini bashoratlash qanday amalga oshiriladi?

Asosiy faoliyat, moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari tahlilini tushuntiring?

Pul oqimlarini tahlil qilishning to'g'ri va egri uslubini tushuntiring?

Pul oqimlarini boshqarishning omilli tahlilini izohlang?

Pul oqimlari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash?

Pulning muddatdagi qiymati, foiz stavkalari va ularni hisoblash usullarini tushuntiring?

Valyuta mablag'lari harakatining tahlilini tushuntiring?

Pul oqimlaridagi o'zgarish tendensiyalarini tahlilini tushuntirib bering.

Foiz stavkalari va ularni hisoblash usullarini tasniflab bering?

Valyuta mablag'lari harakatining tahlilini tushuntiring?

11-BOB. XUSUSIY KAPITAL TARKIBI VA UNING TAHLILI

11.1.Xususiy kapitalni tahlil etish mazmuni va vazifalari.

11.2.Xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi: ustav fondi (ustav kapitali), qo'shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda.

11.3.Xususiy kapital va uning o'zgarishini tahlili.

11.4.Xususiy kapitalning dinamik tahlili.

11.5.Sof aktivlar tahlili. Xususiy kapital daromadligi (rentabelligi)ning tahlili.

11.6.Moliyaviy leveridj ko'rsatkichlarini tahlili.

11.1. Xususiy kapitalni tahlil etish maqsadi, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari

Iqtisodiyotni liberallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirish nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki moliyaviy jihatdan ham mustahkam tayanchni talab etadi. Shu sababli, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy salohiyatini baholashda o'z mablag'larining qiymatiga, ularning jami kapital tarkibidagi salmog'iga, majburiyatlarga nisbati chegaralariga muhim ahamiyat qaratiladi.

Xususiy kapital korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Xususiy kapital tushunchalariga ta'riflar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos"da hamda "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"da keltirilgan[76].

Xususiy kapital (sarmoya) – subyektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir. Subyekt majburiyatlari – subyekt (qarzdorning) boshqa subyekt (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul

[76]1998 йил 26 июлда 17-07/86-сон билан тасдиқланган "Молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим этиш учун концептуал асос" ҳамда "Ҳисоб сиёсати ва молиявий ҳисобот"да Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигида 1998 йил 26 июлда 17-07/85-сон билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти (1-сон БҲМС)

to'lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o'z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir.

Aktivlar – subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir.

Demak yuqoridagi ta'rif va tasniflashdan quyidagi bog'lanishni berib o'tish mumkin:

Xususiy kapital (XK) = Aktivlar (A) – Majburiyatlar (M)

Buxgalteriya balansidagi xususiy kapitalning miqdori aktivlar qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog'liqdir.

Xususiy kapital ustav fondidan (ustav kapitalidan), qo'shilgan, zaxira kapitalidan va taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi. Zarur hollarda ustav, qo'shilgan zaxira kapitali tahliliy jihatidan hisobga olinadi.

Ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarning (pulda ifodalangan holdagi) yig'indisini aks ettiradi. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar shaklida kiritiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sischilar (ishtirokchilar) o'rtasidagi kelishuvga ko'ra baholanadi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi kerak.

Qo'shilgan kapital aksiyalarni nominal qiymatidan baland narxlarda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini, shuningdek, ekvivalenti chet el valyutasida ifodalangan ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan kurs farqini aks ettiradi.

Zaxira kapitali uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda hosil bo'ladigan inflyatsiya zaxiralarini, qonun hujjatlarida va ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorlarda sof foydadan ajratmalarni, shuningdek, tekinga olingan mol-mulkning qiymatini aks ettiradi.

Taqsimlanmagan foyda foydaning jamg'arilayotganligini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilishi mumkin[77].

Mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, korxonalarda ustav kapitali (fondi) miqdori mazkur korxona tashkil bo'lganda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan miqdorga teng bo'ladi. Uning miqdori yil davomida o'zgarmaydi.

Xususiy kapital tahlilining maqsadi xususiy kapitalni shakllantirishning asosiy manbalarini o'rganish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imokniyatlarini aniqlashdan iborat.

Xususiy kapital tahlilining asosiy vazifalari:

- tahlil uchun zarur bo'lgan axborotlar bazasini (ustav kapitalini ko'paytirish, undan foydalanish, tasarruf etish bilan bog'liq bo'lgan axborotlar to'plamini) shakllantirish;
- qonun hujjatlari va xo'jalik yurituvchi subyektning ustavida belgilangan normalariga amal etilishini baholash;
- xususiy kapital va uning tarkibiy, dinamik o'zgarishlariga baho berish;
- xususiy kapitaldan samarali foydalanish darajasini o'rganish;
- xususiy kapital samaradorligini oshirishning imkoniyatlarini aniqlash va yo'lga qo'yish.

Xususiy kapital tahlilini olib borishda axborot manbalariga "Buxgalteriya balansi" va "Xususiy kapital to'g'risida"gi hisobot shakllari kiradi.

Buxgalteriya balansida xususiy kapital va uning tarkibiy birliklari haqidagi ma'lumotlar hisobot davri boshiga va oxiriga haqiqiy, tan olingan qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

Buxgalteriya balansida o'z sarmoyasi va ularni oshkor qilish xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini tahlil qilishda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun yordam bera oladigan

[77]Ўзбекистон Республикасининг "Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида"ги қонун (янги таҳрир), 2016 йил 13 апрель, 19-модда. Хусусий капитални ҳисобга олиш.

axborotlarni aks ettirishni tasniflaydi. Buxgalteriya balansida xususiy sarmoyani umumiy summasigina oshkor qilinishi kerak.

Xususiy kapital va uning tarkibiy qismlari haqidagi axborotlarni tarkibiy qismi sifatida ochib berilishi 14 son BHMS bilan tarkiblanadi. Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar (banklar va byudjet tashkilotlaridan tashqari) xususiy kapital to'g'risidagi axborotni tayyorlash va ochib berish jarayonida mazkur standart talablarini bajarishlari kerak.

O'z sarmoyasi (xususiy kapital) to'g'risidagi hisobotda o'z sarmoyasining harakati, zaxiralarni shakllantirish, to'lash uchun hisoblangan dividendlar to'g'risidagi axborot taqdim etiladi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzish maqsadi bo'lib, xususiy kapitalning hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan holati va hisobot davri mobaynida uning tarkibidagi o'zgartirishlar haqidagi axborotni ochib berish hisoblanadi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotga bo'lgan tushuntirishda xo'jalik yurituvchi subyekt xususiy kapital qatnashchisining chiqib ketishi, aksiyadorlik jamiyati tomonidan aksiyalarning sotib olinishi yoki sotib olingan aksiyalarni bekor qilinishi, aksiyalar nominal qiymatining pasayishi yoki boshqa sabablarga ko'ra kamayib ketganligi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Hisobotning xususiy kapital to'g'risidagi qismiga oid tushuntirish xati "Hisob siyosati va moliyaviy hisobotlar" Buxgalteriya hisobi milliy standarti (1-son BHMS)da nazarda tutilgan talablarga muvofiq tuziladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari xususiy kapital to'g'risidagi tushuntirishda quyidagilar haqidagi axborotni keltiradilar:

a) obuna amalga oshirilishi nazarda tutiladigan aksiyalarning umumiy soni va nominal qiymati;

b) nazarda tutilgan miqdorlar bilan taqqoslaganda obuna amalga oshirilgan aksiyalarning umumiy miqdori va nominal qiymati;

v) aksiyalarga obunaning borishi chog'ida olingan mablag'lar umumiy summasi;

g) ayrim turlar va toifalar bo‘yicha ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar;

d) imtiyozli aksiyalar bo‘yicha to‘lanmagan jamlangan dividendlar summasi;

e) aksiyalar ko‘rinishida to‘lanadigan dividendlar, xususan, to‘lanadigan aksiyalarning soni va qiymati, shuningdek, ularning turlari yoki toifalari to‘g‘risida;

j) hisobot davrida yuz bergan maydalash yoki qo‘shib yuborishlar va aksiyalarning maydalanishi yoki qo‘shib yuborilishigacha va undan keyingi aksiyalarning nominal qiymati to‘g‘risidagi.

Aksiyalarga obunaning borishi chog‘ida olingan mablag‘lar umumiy summasi tushuntirishda quyidagilar bo‘yicha keltiriladi:

a) aksiyalar uchun haq sifatida kirim qilingan barcha pul mablag‘lari, aksiyalar soni ko‘rsatilgan holda;

b) aksiyalar uchun to‘lov sifatida kirim qilingan mol-mulkning qiymat bahosi, aksiyalar soni ko‘rsatilgan holda;

v) aksiyalar uchun haq sifatida kirim qilingan chet el valyutasining umumiy summasi, aksiyalar soni va hisobda valyuta kirim qilingan kursi ko‘rsatilgan holda.

Ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar haqidagi axborot tushuntirishda ayrim turlar va toifalar bo‘yicha keltiriladi:

a) chiqarilgan aksiyalar soni, ustav kapitalining to‘lanmagan qismi ko‘rsatilgan holda;

b) aksiyaning nominal qiymati;

v) muomalada bo‘lgan aksiyalar sonida hisobot davri mobaynidagi o‘zgartirishlar;

g) aksiyalar bilan bog‘liq huquqlar, imtiyozlar va cheklashlar, shu jumladan dividendlarning taqsimlanishi va kapitalning qaytarib berilishi bo‘yicha cheklashlar;

d) jamiyatning o‘ziga, uning sho‘ba va uyushgan korxonalariga tegishli aksiyalar;

e) ular egalik qilayotgan muassislar ro‘yxati va aksiyalar soni;

j) ijroiya organi a’zolarining mulki bo‘lgan aksiyalar soni;

z) opsionlar va boshqa kontraktlarga binoan chiqarish uchun zaxiralashtirilgan aksiyalar, ularning muddatlari va summalari ko'rsatilgan holda;

i) konvertatsiyalanadigan (aksiyalar yoki obligatsiyalarga) aksiyalarning soni va nominal qiymati hamda ushbu aksiyalarning qarzga oid qimmatli qog'ozlarga konvertatsiya qilinishi hollarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan majburiyatlar.

Boshqa barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarga oid izohlarda quyidagilar to'g'risidagi axborotni keltiradilar:

a) egalik qiluvchilar o'rtasida ustav kapitali ulushining taqsimlanishi;

b) ushbu ulushlarga tegishli huquqlar, imtiyozlar yoki cheklashlar;

v) ustav kapitali tarkibida egalik qiluvchilar ulushi tarkibidagi o'zgartirishlar.

11.2. Xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi: ustav fondi (ustav kapitali), qo'shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda.

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditga oid qonunchilik normalarida "o'z sarmoyasi", "o'z sarmoyasi manbalari", "o'z mablag'lari manbalari", "xususiy sarmoya", "xususiy kapital" degan tushunchalar keng uchraydi. Ularning barchasi bitta mazmunni ya'ni, xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zigagina tegishli bo'lgan mablag'larni ifoda etadi.

Xususiy kapital tarkibiga quyidagi tarkibiy birliklar kiradi:

- ustav kapitali;
- rezerv kapitali;
- qo'shilgan kapital;
- taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar.

Buxgalteriya balansining "O'z mablag'lari manbalari" ("Xususiy sarmoya") bo'limida ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira kapitali, sotib olingan o'z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan

zarar), maqsadli tushumlar hamda bo'lg'usi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari aks etadi.

Buxgalteriya balansida "O'z sarmoyasi" va uning tarkibiy birliklari

I. O'z mablag'lari manbalari	Balans satri
Ustav kapitali (8300)	410
Qo'shilgan kapital (8400)	420
Rezerv kapitali (8500)	430
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450
Maqsadli tushumlar (8800)	460
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar (8900)	470
I bo'lim bo'yicha jami (satr 410+420+430-440+450+460+470)	480

-jadval

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot va uning tarkibiy birliklar ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ)

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Ustav kapitali	Qo'shilgan kapital	Rezerv kapitali	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	Sotib olingan xususiy aksiyalar	Maqsadli tushumlar va boshqalar	Jami
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Yil boshidagi qoldiq	010	614 384	-	5 737 851	507 694	-	885 865	7 745 794
Qimmatli qog'ozlar emissiyasi	020	213 818	-	x	x	x	x	213 818
Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash	030	x	x	2 383 571	x	x	x	2 383 571
Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valyuta kursi farqlari	040	x	-	x	x	x	x	-
Rezerv kapitaliga ajratmalar	050	x	x	-	-	x	x	-
Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)	060	x	x	x	-	x	x	-
Tekinga olingan	070	x	x		x	x	x	-

mol-mulk								
Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag'lar	080	x	x	x	x	x	-	-
Hisoblangan dividendlar	090	x	x	x	284 293	x	x	-284 293
Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari	100	-	-	-	-	-	65 341	65 341
Yil oxiridagi qoldiq	**110**	828 203	-	8 121 423	223 400	-	951 207	10 124 233
Xususiy kapitalining ko'payishi (+) yoki kamayishi (-)	120	+213 818	-	+2 383 571	-284 293	-	+65 341	+2 378 439
MA'LUMOT UCHUN:								
Chiqarilgan aksiyalar soni, dona[78]	130	x	x	x	x	x	x	1 830 762 911
shu jumladan:								
imtiyozli	131	x	x	x	x	x	x	
oddiy	132	x	x	x	x	x	x	1 830 762 911
Aksiyaning nominal qiymati	140	x	x	x	x	x	x	430
Muomaladagi aksiyalar soni, dona	150	x	x	x	x	x	x	1 830 762 911
shu jumladan:								
imtiyozli	151	x	x	x	x	x	x	
oddiy	152	x	x	x	x	x	x	1 830 762 911

Xususiy kapital tarkibiy tahlilining asosiy yo'nalishlari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Xususiy sarmoya tarkibi va harakatining tahlili: davr boshiga qoldig'i; hisobot davrida kelib tushgani; hisobot davrida ishlatilgani; hisobot davri oxiriga qoldig'i; qoldiqlarning mutlaq o'zgarishlari; o'sish darajasi; kirib kelish koeffitsiyenti; chiqib ketish koeffitsiyenti tahlili.

Xususiy kapital tarkibini tahlil etish muhim funksiyalarni bajarish imkonini beradi. Jumladan: faoliyatning uzluksizligini ta'minlash;

[78] Ўзбекистон темир йўллари АЖ устави (янги таҳрири) 2017 йил 23-октябр-22-сон, №-397778 27.10.2017

kapital, qarzlar va zararlardan himoya qilinganlik darajasining kafolatini berish; olingan foydani ishlatishda qatnashish; korxona boshqaruvida ishtirok etish kabi.

Xususiy kapital tarkibiy tuzilishida quyidagi ko'rsatkichlar baholanadi:

Ustav kapitalining xususiy kapital tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti;

$$Kuk = UK/XK\ (O'MM)$$

Bu yerda:

Kuk – ustav kapitalining o'z sarmoyasi tarkibidagi salmog'i;

UK – ustav kapitali;

XK(O'MM) – xususiy kapital (O'z mablag'lari manbasi).

Ustav kapitalining o'z sarmoyasi tarkibidagi salmog'ini ifoda etadi va ushbu ko'rsatkich xususiy kapital tarkibida eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Taqsimlanmagan foyda summasining xususiy kapital tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti:

$$Ktf = TF/\ XK\ (O'MM)$$

Bu yerda:

Ktf – taqsimlanmagan foydaning xususiy kapital tarkibidagi salmog'i koeffitsiyenti;

TF – taqsimlanmagan foyda.

Taqsimlanmagan foyda summasining xususiy kapital tarkibidagi salmog'ini ifoda etadi.

Xususiy kapitalning kompleks tahlilida yuqoridagi tartibda rezerv kapitali, qo'shilgan kapital va o'z sarmoyasining boshqa tarkibiy qismlari bo'yicha ham salmoq darajalari va ularning o'zgarishlariga baho beriladi.

Xususiy kapitalning o'sish darajasi:

$$O'_{xk} = XKdo\ /\ XKdb\ x\ 100\%$$

Bu yerda:

XKdo; XKdb – davr boshi va oxiriga xususiy kapital.

Xususiy kapitalning gorizontal va vertikal tahlili

Ko'rsatkichlar	Davr boshi		Davr oxiri		Farqi (+,-)		O'sish, %
	Summa	Foiz, %	Summa	Foiz, %	Summa	Foiz, %	
O'z mablag'lari manbasi jami	7 745 794 466	100.00	10 124 233 076	100.00	+2 378 438 610	0.00	130,7
Ustav kapitali	614 384 306	7.92	828 202 670	8.19	+213 818 364	+0,27	134,8
Qo'shilgan kapital	-	-	-	-	-		
Rezerv kapitali	5 737 851 427	74.08	8 121 422 920	80.22	+2 383 571 493	+6,14	141,54
Sotib olingan xususiy aksiyalar	-	-	-	-			
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	507 693 607	6.55	223 400 675	2.08	- 284 292 935	-4,47	-44,0
Maqsadli tushumlar							
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar	885 865 126	11.44	951 206 811	9.41	+65 341 685	-2,03	107,4

Aksionerlik jamiyatida o'z mablag'lari manbasi davr boshiga nisbatan 2 378 438 610 ming so'mga ortgan. O'sish darajasi 130.7 %ni tashkil etgan. Shu jumladan ustav kapitalining o'zgarishi mos ravishda 213 818 364 ming so'mga, rezerv kapitalining o'zgarishi 2 383 571 493 ming so'mga, maqsadli tushumlar, kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar hajmi 65 341 685 ming so'mga ortgan. O'z mablag'lari

tarkibida taqsimlanmagan foyda summasi davr boshiga nisbatan 284 292 935 ming so'mga kamaygan. Eng yuqori o'sish darajalari ustav kapitali (134.8 %) hamda rezerv kapitali (141.54%) qatoriga to'g'ri kelgan.

O'zbekiston temir yo'llari AJ ning jamlangan buxgalteriya balansi

Xususiy kapital	2017-2018 yy.				
	01.01.2017 y.	**01.04.2017 y.**	**01.07.2017 y.**	**01.10.2017 y.**	**01.01.2018 y.**
1.O'z mablag'lari manbasi	7 745 794 466	8 567 616 791	8 644 944 914	8 963 743 430	10 124 233 076
O'zgarishi (+,-)	**+2 378 438 610**	**+1 556 616 285**	**+1 479 288 162**	**+1 160 489 646**	
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
O'zgarishi (+,-)	**+213 818 364**	**+213 818 364**	**+213 818 364**	**+213 818 364**	
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
O'zgarishi (+,-)	**+2 383 571 493**	**+7 485 367 457**	**+1 640 595 859**	**+1 530 934 492**	
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
O'zgarishi (+,-)	**-284 292 935**	**-193 352 348**	**-121 528 119**	**+62 403 835**	
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
O'zgarishi (+,-)	**+65 341 685**	**-224 717 188**	**-253 597 942**	**-646 667 045**	

11.3. Xususiy kapital va uning o'zgarishini tahlili

Xususiy kapital va uning o'zgarishini baholashda kapitalning davr boshi va oxiridaga o'zgarishlariga va o'zgarish sabablariga baho beriladi. Kapitalning o'zgarishi jamlangan qator va uning tarkibiy birliklari bo'yicha alohida o'rganiladi.

Xususiy kapital o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklarga: ustav sarmoyasi, qo'shilgan sarmoya, zaxira sarmoyasi, sotib olingan o'z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar hamda bo'lg'usi xarajatlar va to'lovlar zaxiralarining o'zgarishi ta'sir etadi. Jumladan qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan bog'liq jarayonlar ustav va qo'shilgan sarmoyaning o'zgarishiga; uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash rezerv kapitali o'zgarishiga; ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valyuta kursi farqlari qo'shilgan kapital o'zgarishiga; rezerv kapitaliga ajratmalar rezerv kapitali va taqsimlanmagan foyda o'zgarishlariga; joriy yilning taqsimlanmagan foydasi jamlangan, taqsimlanmagan foydaning o'zgarishiga; tekinga olingan mol-mulk rezerv kapitali o'zgarishiga; hisoblangan dividendlar taqsimlanmagan foyda o'zgarishiga ta'sir etadi. Xususiy kapitalning shakllanishini yuqorida keltirilgan manbalaridan tashqari boshqa manbalari barcha tarkibiy birliklarni o'zgarishiga ta'sir etadi.

Xususiy kapital va uning o'zgarishi tahlili

Ko'rsatkichlar nomi	Ustav kapitali	Qo'shilgan kapital	Rezerv kapitali	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	Sotib olingan xususiy aksiyalar	Maqsadli tushumlar va boshqalar	Jami
A	1	2	3	4	5	6	7
Yil boshidagi qoldiq	614 384	-	5 737 851	507 694	-	885 865	7 745 794
Qimmatli qog'ozlar emissiyasi	213 818	-	x	x	x	x	213 818
Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash	x	x	2 383 571	x	x	x	2 383 571

Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valyuta kursi farqlari	x	-	x	x	x	x	-
Rezerv kapitaliga ajratmalar	x	x	-	-	x	x	-
Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)	x	x	x	-	x	x	-
Tekinga olingan mol-mulk	x	x		x	x	x	-
Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag'lar	x	x	x	x	x	-	-
Hisoblangan dividendlar	x	x	x	284 293	x	x	-284 293
Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari	-	-	-	-	-	65 341	65 341
Yil oxiridagi qoldiq	828 203	-	8 121 423	223 400	-	951 207	10 124 233
Xususiy kapitalining ko'payishi (+) yoki kamayishi (-)	**+213 818**	-	**+2 383 571**	**-284 293**	-	**+65 341**	**+2 378 439**

Aksionerlik jamiyatida xususiy kapitalning davr boshiga nisbatan o'zgarishi 2 378 439 mln so'mni tashkil etgan. Uning tarkibiy o'zgarishlari ustav kapitalining oshirilishi (213 818 mln so'm), rezerv kapitali hisobiga (2 383 571 mln so'm) hamda maqsadli tushumlar va boshqa manbalar hisobiga (65 341 mln so'm) ro'y bergan. Jamiyatning xususiy kapitali tarkibida eng yuqori ko'rsatkich rezerv kapitali hisobiga to'g'ri keladi va uning qiymati davr boshida 5 737 851 mln so'mni davr oxirida 8 121 423 mln so'mni tashkil etgan. Rezerv kapitalining xususiy kapital tarkibidagi salmog'i mos ravishda 74.1 %, 80.2 % ni tashkil etgan hamda davr boshiga nisbatan 6.1 % ga ortgan.

11.4. Xususiy kapitalning dinamik tahlili

Xususiy kapitalning dinamik tahlilida xususiy kapitalning yaqin va uzoq davriylikdagi mutlaq, nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi.

Dinamik tahlilda xususiy kapitalning tarkibi, tuzilishi, holati va samaradorligi bo'yicha ko'rsatkichlar tizimi yillar kesimida baholanadi. Tarkib bo'yicha ustav, qo'shilgan, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foydaning o'zgarishlari, tuzilishi bo'yicha tarkib birliklarining salmoq bo'yicha o'zgarishlari; samaradorlik (daromadlik va rentabellik) ko'rsatkichlarining o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga baho beriladi.

O'zbekiston temir yo'llari AJ da xususiy kapital tahlili

Xususiy kapital	2017-2018yy.				
	01.01.2017y.	**01.04.2017y.**	**01.07.2017y.**	**01.10.2017y.**	**01.01.2018y.**
1.O'z mablag'lari manbasi	7 745 794 466	8 567 616 791	8 644 944 914	8 963 743 430	10 124 233 076
O'zgarishi (+,-)	**+2378438 610**	**+1556616 285**	**+1479288 162**	**+1160489 646**	
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
O'zgarishi (+,-)	**+213 818 364**	**+213 818 364**	**+213 818 364**	**+213 818 364**	
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
O'zgarishi (+,-)	**+2 383 57 1 493**	**+7 485 36 7 457**	**+1 640 59 5 859**	**+1 530 93 4 492**	
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
O'zgarishi (+,-)	**-284 292 935**	**-193 352 348**	**-121 528 119**	**+62 403 835**	

Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
O'zgarishi (+,-)	**+65 341 685**	**-224 717 188**	**-253 597 942**	**-646 667 045**	

Aksionerlik jamiyatida o'z mablag'lari manbasi 2017-yil choraklari bo'yicha tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, subyektning xususiy kapitali hajmi davr boshiga nisbatan 1 160 489 646 ming so'mga ortgan. Uni yilning choraklari bo'yicha o'zgarishlari mos ravishda birinchi chorakka nisbatan 1 556 616 285 ming so'mga, ikkinchi chorakka nisbatan 1 479 288 162 ming so'mga teng bo'lgan. Xususiy kapitalning tarkibiy o'zgarishlari davr boshiga nisbatan quyidagicha bo'lgan:

- Ustav kapitali bo'yicha jami o'zgarish 213 818 364 ming so'mga;
- Rezerv kapitali bo'yicha o'zgarish davr boshiga nisbatan 2 383 571 493 ming so'mga;
- Taqsimlanmagan foyda bo'yicha o'zgarish -284 292 935 ming so'mga:
- maqsadli tushumlar va boshqa manbalar hisobiga o'zgarish 65 341 685 ming so'mga teng bo'lgan.

11.5. Sof aktivlar tahlili va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili

Sof aktivlar. Bu tushuncha bilan aksionerlik tashkilotlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar bilan hamkorlikda ishlayotgan buxgalter va auditorlar tez-tez to'qnash kelishadi.

Sof aktivlar deganda xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari bilan ta'minlangan uzoq muddatli va joriy aktivlarning qiymati, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektning qarz majburiyatlaridan ozod bo'lgan mol-mulk qiymati tushuniladi[79].

Oddiy qilib aytganda:

[79]14-сонли БҲМС "Хусусий капитал тўғрисидаги ҳисобот"нинг 10-банди

Sof aktivlar = Aktivlar – Majburiyatlar

Demak:

Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirishga qaratilgan mol-mulki = Sof aktivlar – Ustav kapitali (fondi) – Zaxira kapitali

Bugungi kunda korxonalarning aksariyat qismi mulkchilikning eng keng shakli, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar shaklida tashkil etilmoqda. Ushbu jamiyatlarda ustav kapitali 3 xil tartibda ko'paytirilishi mumkin:

a) jamiyatning mol-mulki hisobiga;

b) jamiyat ishtirokchilarining qo'shimcha hissalari hisobiga;

v) jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslarning hissalari hisobiga.

Yuqoridagilardan kelib chiqsak, jamiyatning mol-mulki hisobiga ko'paytirish qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar va kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralardan sotib olingan xususiy ulushlarni (aksiyalarni) ayirib tashlagan holdagi natijaga amalga oshirish kerakligi belgilangan.

Qo'shilgan kapital, maqsadli tushumlar va kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar hisobiga ustav kapitalini ko'paytirishning umuman iloji yo'q. Chunki, ushbu balans moddalari yoki buxgalteriya hisobi obyektlari foydalanish maqsadi aniq belgilangan.

Sof aktivlarni tahlil etish metodikasi ikkita bosqichda amalga oshiriladi:

1. Sof aktivlar dinamikasining tahlili. Buning uchun davr boshiga va oxiriga sof aktivlar qiymati va ularning o'rtacha ko'rsatkichi aniqlanadi. Olingan natijada o'tgan yillar bilan taqqoslanish o'zgarishlari va o'zgarish sabablari aniqlanadi.

2. Sof aktivlardan samarali foydalanish tahlili. Bunda sof aktivlarning aylanuvchanligi, rentabelligi ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishlari omilli tahlil etiladi.

Sof aktivlardan foydalanish samaradorligini aniqlash quyidagi formula asosida hisob-kitob qilinadi:

Ssa = SF / SA * 100

Bu yerda:

Ssa – sof aktivlar samaradorligi;

SF – sof foyda;

SA – sof aktivlar summasi.

Sof aktivlar aylanuvchanligi sotishdan tushumni sof aktivlarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali topiladi.

Ksa = SST / SA

Aylanish davri quyidagicha hisob-kitob qilinadi:

Kad = SA / SST * 360 yoki 360 / Kad

Bu yerda:

Ksa – sof aktivlar aylanuvchanlik koeffitsiyenti;

SST – sotishdan sof tushum.

Taqsimlanmagan foyda ta'sischilar o'rtasida dividend sifatida taqsimlangandan keyin ta'sischilarning qo'shimcha kiritgan hissalari sifatida ustav kapitalini ko'paytirishi mumkin:

Sof aktivlar tahlili

Ko'rsatkichlar	Balans qatori	Davr boshiga	Davr oxiriga	Farqi (+,–)
A	B	1	2	3
1. Jami aktivlar	400	13 198 104 658	24 276 893 065	+11 078 788 407
2. Majburiyatlar	770	5 452 310 192	14 152 659 989	+8 700 349 797
3. Ustav kapitali	410	614 384 306	828 202 670	+213 818 364
3. Sof aktivlar (1-2)	*	+7 745 794 466	+10 124 233 076	+2 378 438 610
4. Sof aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i	*	58,7	41,7	-17,0
5. Sof aktivlarning ustav kapitalidagi hissasi	*	12,6	12,2	-0,4

Aksionerlik jamiyatida sof aktivlarning summasi davr boshida 7 745 794 466 ming so'mni, davr oxiriga kelib 10 124 233 076 ming

so‘mni tashkil etgan. Sof aktivlarning davr boshiga nisbatan o‘zgarishi 2 378 438 610 ming so‘mni, o‘sish darajasi (10 124 233 076 / 7 745 794 466 *100) 30.7 % ni tashkil qilgan. Sof aktivlarning jami aktivlardagi salmog‘i davr boshiga nisbatan 17 %ga kam bo‘lgan. Bunga asosiy sabab sifatida majburiyatlarning davr boshiga nisbatan 8 700 349 797 ming so‘mga (yoki 2.6 baravarga) ortganligi bilan izohlash mumkin. Sof aktivlarning ustav kapitalidagi hissasi davr boshida 12.6 baravarga, davr oxirida 12.2 baravarga ortiq bo‘lganligini, davr boshiga nisbatan o‘zgarishi 0.4 baravarga yoki 40 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Tahlil yakunida albatta sof aktivlarning samaradorligi baholanadi va uning o‘zgarishlari omilli tahlil etiladi. Samaradorlikni baholashda sof aktivlarning har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan sotishdan sof tushum, sof foyda ko‘rsatkichlari o‘rganiladi.

Sof aktivlardan foydalanish samaradorligining tahlili

Ko‘rsatkichlar	Hisobot shakli	O‘tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+,-)	O‘sishi, %
A	B	1	2	3	4
1. Sof aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m	1-shakl	7 745 794 466	10 124 233 076	+2 378 438 610	+130,7
2. Sotishdan sof tushum, ming so‘m	2-shakl	3 362 225 550	5 180 801 340	+1 818 575 790	+154,1
3. Sof foyda, ming so‘m	2-shakl	507 693 607	974 038 284	+466 344 677	+191,2
4. Sof aktivlarning aylanuvchanligi (2/1)	*	0,434	0,511	+0,077	117,7
5. Sof aktivlarning aylanish davri, kun (360/Ksa)	*	829,4	704,5	+124,9	84,9
6. Sof aktivlar rentabelligi, % (3/1*100)	*	6,5	9,6	+3,1	147,7

Aksionerlik jamiyatida sof aktivlarning samaradorligi o'tgan yilga nisbatan bir qadar yaxshilangan. Jumladan sof aktivlarning har bir so'miga to'g'ri keladigan sof tushum summasi 0.434 tiyindan, 0.511 tiyinga ortgan. Bu o'zgarish asosan sof tushumning o'tgan yilga nisbatan 1 818 575 790 ming so'mga ortishi tufayli ro'y bergan. Sof aktivlarning aylanish davri 829.4 kundan 704.5 kunga qisqargan. Aylanish davri 84.9 kunga tezlashgan. Bu yil taqvimi bo'yicha bir chorakka tezlashish demakdir. Sof aktivlarning rentabelligi mos ravishda o'tgan yilda 6.5 %ni, joriy yilda 9.6 %ni tashkil qilmoqda. Rentabellikning o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi 3.1 %ga ortgan.

Sof aktivlar tahlili, ularning samaradorligi baholash amaliyoti xorij tajribasidan kirib kelgan ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkich korxona to'lovga qobilligini baholashning umumiy ifodasi ham hisoblanadi. U aktivlarning majburiyatlardan ortgan summasini aniqlash orqali sof kapitalni shakllantirish strategiyasini ham belgilab olish mumkin.

Zanjirli bog'lanish usulida xususiy kapital samaradorligi, rentabelligini omilli tahlilini amalga oshirish mumkin va bu jarayon ichki imkoniyatlarni aniq va to'g'ri baholash imkonini beradi.

Sof aktivlardan foydalanish samaradorligining omilli tahlili (zanjirli almashtirish usulida)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+,-)	O'sishi, %
A	1	2	3	4
1. Sof aktivlarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	7 745 794 466	10 124 233 076	+2 378 438 610	+130,7
2. Sotishdan sof tushum, ming so'm	3 362 225 550	5 180 801 340	+1 818 575 790	+154,1
3. Sof foyda, ming so'm	507 693 607	974 038 284	+466 344 677	+191,2
4. Sof aktivlarning aylanuvchanligi (2/1)	0,434	0,511	+0,077	117,7
O'zgarish sabablari:				
-sof tushumning o'zgarishi	5 180 801 340/7 745		+0.2348	-

hisobiga	794 466 -0.434			
-sof aktivlar summasining o'zgarishi hisobiga	0.511-5 180 801 340 / 7 745 794 466		-0.1578	-
5. Sof aktivlarning aylanish davri, kun (360 / Ksa)	829,4	704,5	+124,9	84,9
6. Sof aktivlar rentabelligi, % (3 / 1*100)	6,5	9,6	+3,1	147,7
O'zgarish sabablari:				
-sof aktivlar summasining o'zgarishi hisobiga	974 038 284 / 7 745 794 466*100-6.5		+6.1	-
-sof foyda o'zgarishi hisobiga	9.6 - 974 038 284 / 7 745 794 466*100		-3.0	-

Aksionerlik jamiyatida sof aktivlarning samaradorligini omilli tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, joriy yildagi sof aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti o'tgan yilga nisbatan 0.077 ga ortgan. Bu o'zgarishga sof aktivlar qiymatining ortishi salbiy (-0.1578), sof tushumlar summasining ortishi ijobiy (+0.2348) ta'sir etgan. O'z navbatida sof aktivlarning rentabelligi o'tgan yilga nisbatan 3.1 %ga ortishiga quyidagi omillar ta'sir etgan: sof foyda summasining o'tgan yilgan nisbatan 466 344 677 ming so'mga o'zgarishi rentabellikning 6.1 %ga ortishiga; sof aktivlar summasining 2 378 438 610 o'zgarishi rentabellikning 3.0 %ga kamayishiga olib kelgan.

11.6. Moliyaviy leveridj ko'rsatkichlarini tahlili

Moliyaviy leveridj ko'rsatkichi xalqaro amaliyotdan kirib kelgan muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Uning iqtisodichilar va menejerlar tomonidan baholashga o'tilganiga hali uncha ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ushbu ko'rsatkichni baholash bir qancha moliyaviy koeffitsiyentlar orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy leveridj ko'rsatkichi xususiy kapitalning majburiyatlarga nisbati orqali baholanadi. Uning natijasiga qarab xo'jalik subyektining moliyaviy barqarorligi va rentabellik darajasiga baho berish mumkin.

Quyida moliyaviy leveridj nima ekanligi, uning turlari, aniqlash formulasi, moliyaviy leveridj samaradorligini aniqlash tartiblari hamda ularni tahlil etish tartiblarini ko'rib o'tishimiz mumkin.

Moliyaviy leveridj moliyaviy richag (dastak) deb ham nomlanadi. Uning mazmunini o'z mablag'lari manbasi bilan qarz kapitali o'rtasidagi nisbatda xo'jalik subyektining foydasiga ta'sir etish darajasini baholash tashkil etadi. Shuningdek, xo'jalik subyektining istiqboldagi moliyaviy barqarorligini tahlil etish va bashoratlashda ham ushbu bog'liqlik nisbatidan kelib chiqiladi.

Moliyaviy levridj ko'rsatkichlarini tahlil etish analitiklarga rentabellikni qo'shimcha o'stirish imkoniyatlarini aniqlashda, ichki va tashqi omillar ta'sirida foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning risk darajalarini baholashga imkon beradi.

Foydalanish samaradorligi yuzasidan moliyaviy leveridjlarning quyidagi turlari aniqlanadi:

- ijobiy (foyda summasi kreditlar, qarzlar yuzasidan foizlar to'lovidan ortgan hollarda);
- neytral turlari (foyda summasi kreditlar, qarz yuzasidan foiz to'lovlari summasigagina yetgan hollarda);
- salbiy (foyda summasi kreditlar, qarz yuzasidan foiz to'lovlari summasiga yetmagan hollarda).

Moliyaviy leveridj quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$ML = QK / XK$$

Bu yerda:

ML – moliyaviy leveridj;

QK – qarz kapitali;

XK – xususiy kapital.

Mazkur formula xo'jalik subyektining moliyaviy risklarini ham aks ettiradi. Koeffitsiyentning optimal darajasi sifatida 05.-0.8 daraja qayd etiladi.

Moliyaviy leveridj samaradorligini baholashda moliyaviy leveridj koeffitsiyenti va rentabelligini qiyoslash lozim.

Moliyaviy leveridj samaradorligini baholash, tahlil etishning maqsadi xususiy va qarz kapitalidan foydalanish samaradorligini o'rganishdan iborat.

Moliyaviy leveridj samaradorligini quyidagi bog'lanishda ifoda etish mumkin:

$$MLs = (ROA - Fo's)(1 - Ss) \cdot QK / XK$$

Bu yerda:
MLs – moliyaviy leveridj samaradorligi;
ROA – aktivlar rentabelligi;
Fo's – o'rtacha foiz stavkasi;
Ss – soliq yuki;
QK – qarz kapitali;
XK – xususiy kapital.

ROA = Sof foyda / Aktivlar

ROA (o'tgan yil) = 507 693 607 /13 198 104 658 = 3.85%
ROA (hisobot yili) = 974 038 284 / 24 276 893 065 = 4.01%

Moliyaviy leveridj samaradorligi tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+;-)	O'sish darajasi, %
1. Aktivlar, A	13 198 104 658	24 276 893 065	11 078 788 407	183.94
2. Sof foyda, SF	507 693 607	974 038 284	466 344 677	191.86
3. Aktivlar rentabelligi, ROA (2/1)	3.85	4.01	0.16	104.16
4. Xususiy kapital, ming so'm.	7 745 794 466	10 124 233 076	2 378 438 610	130.71
5. Qarz kapitali, ming so'm.	5 452 310 192	14 152 659 989	8 700 349 797	259.57
6. Foyda solig'i stavkasi, %	10	10	0	100
7. Kredit, qarz foizi, %	9	14	5	155.56
8. Inflyatsiya darajasi, %	5.6	11.6	6	207.14

9. Moliyaviy leveridj samarasi, % (3-7)(1-6)*5/4	-3.26	-12.57	-9.31	385.58

MLs (o'tgan yil)=(3.85-9)*(1-10/100)*5452310192 /7745794466=-3.26%

MLs (hisobot yili)=(4.01-14)*(1-10/100)*14152659989 /10124233076=-12.57%

Ushbu holatda (-12.57 %) qarz kapitalini jalb qilish samarasiz hisoblanadi.

Moliyaviy leveridj samaradorligini qaysi omillar hisobiga o'zgarganligini baholash yuzasidan quyidagi bog'lanishlardan foydalanish tavsiya etiladi:

MLs_{shart1}=(4.01-9)*(1-10/100)*5452310192/7745794466=-3.16%

MLs_{shart2}=(4.01-14)*(1-10/100)*5452310192/7745794466=-6.33%

MLs_{shart3}=(4.01-14)*(1-10/100)*5452310192/7745794466=-6.33%

Moliyaviy leveridj samaradorligining umumiy o'zgarishi 9.31% ni tashkil etgan (-12.57 - (-3.26)).

Shu jumladan:

- investitsiyalangan kapital rentabelligi o'zgarishi hisobiga (-(-3.16+3.26)=0.1%
- foiz stavkasining o'zgarishi hisobiga (-6.33+3.16)= -3.17%
- soliq stavkasining o'zgarishi hisobiga (-6.33+6.33)=0 %
- xususiy kapital o'zgarishi hisobiga (-12.57+6.33)=-6.24%

Jami omillar ta'siri: 0.1-3.17+0-6.24=-9.31%

Agar inflyatsiya ta'siri kuchli bo'lgan holatlarda qarzlar va ularning foizlari qayta indekslanmasa moliyaviy leveridj va xususiy kapital rentabelligi ortadi. Ushbu holatda moliyaviy richag samaradorligi quyidagi formula asosida hisob-kitob qilinadi.

MLS=[ROA-Fo's/(1+I)]*(1-Ss)*QK/XK + I*QK/XK*100%

Bu yerda: I – inflyatsiya normasi.

MLs (o'tgan yil) = (3.85-9 / (1+5.6/100)) * (1-10/100) * 5452310192 /7745794466 + 5.6 * 5452310192 / 7745794466 = 0.98

MLs (hisobot yil) = (4.01-14/(1+11.6/100))*(1-10/100) *14152659989 /10124233076 + 11.6 * 14152659989 / 10124233076 = 5.48%

Omillar ta'sirini zanjirli bog'lanish usulida quyidagi hisob-kitoblarini amalga oshirish mumkin:

MLs_{shart1}=(4.01-9/(1+5.6/100))*(1-10/100) *5452310192 /7745794466 +5.6 * 5452310192 / 7745794466 = 1.08%

$\mathbf{MLs_{shart2}}$=(4.01-14/(1+5.6/100))*(1-10/100) *5452310192 /7745794466 +5.6 * 5452310192 / 7745794466 = -1.92%

$\mathbf{MLs_{shart3}}$=(4.01-14/(1+11.6/100))*(1-10/100) *5452310192 /7745794466 +11.6 * 5452310192 / 7745794466 = 2.76%

$\mathbf{MLs_{shart4}}$=(4.01-14/(1+11.6/100))*(1-10/100) *5452310192 /7745794466 +11.6 * 5452310192 / 7745794466 = 2.76%

Moliyaviy leveridj samradorligining umumiy o'zgarishi 4.5% (5.48 - 0.98), shu jumladan:

- investitsiyalangan kapital rentabelligi o'zgarishi hisobiga:(1.08-0.98)=0.1%
- qarz foiz stavkasining o'zgarishi hisobiga (-1.92-1.08)=-3%
- inflyatsiya darajasi o'zgarishi hisobiga (2.76+1.92)=4.67%
- soliq stavkasi o'zgarishi hisobiga (2.76-2.76)=0%
- xususiy kapital o'zgarishi hisobiga (5.48-2.76)=2.72%

Jami omillar ta'siri: (0.1-3+4.67+0+2.72)=4.5%.

Nazorat uchun savollar

Xususiy kapital nima?

Xususiy kapital tarkibiy elementlariga nimalar kiradi?

Xususiy kapital bilan o'z mablag'lari manbasi orasida farq bormi?

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzish tartibi va qoidalarini tushuntiring?

Ustav kapitali qanday shakllantiriladi va uning o'zgarish sabablarini, yo'llarini tasniflab bering?

Rezerv kapitali qanday shakllantiriladi va nimalarga ishlatiladi?

Qo'shilgan kapital qanday shakllanadi?

Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) balansda aks ettirish tartiblarini tushuntiring?

Sotib olingan xususiy aksiyalar qatorida nimalar, qachon va qanday aks etadi.

Maqsadli tushumlar va moliyalashtirishlar nima?

Kelgusi davr to'lovlari zaxirasi qanday shakllantiriladi?

Xususiy kapitalning o'zgarishi, dinamikasini tahlil etish nimaga kerak?

Xususiy kapital va uning daromadliligini tahlilini kimlar va nima maqsadda o'tkazadilar?

Xususiy kapitalning rentabelligi qanday aniqlanadi va uning o'zgarishiga qanday omillar ta'sir etadi?

Moliyaviy leveridj nima uni aniqlash tartiblarini tushuntiring?

Moliyaviy va ishlab chiqarish leveridjlarini bog'liqligi mavjudmi?

Xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarga, moliyaviy koeffitsiyentlarga qaysi ko'rsatkichlar kiradi?

Sof aktivlar nima?

Sof aktivlar qanday aniqlanadi va uning mazmuni nima?

12-BOB. KORXONALAR IQTISODIY NOCHORLIGI (BANKROTLIGI)NI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH

12.1.Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni baholashning obyektiv zarurligi, uni tahlil qilish maqsadi va vazifalari.

12.2.Bankrotlik instituti va uning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy nochorlikni tartibga solishning huquqiy normalari.

12.3.Iqtisodiy nochorlik tahlilining axborot manbalari

12.4.Bankrotlikni aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularning qiyosiy tahlili.

12.5.Iqtisodiy nochorlikni baholashning milliy va xalqaro tajribalari.

12.6.Iqtisodiy nochorlik xavf-xatarlarini aniqlashda moliyaviy holat tahlili. Bankrotlikni aniqlashning turli modellari.

12.7.Bankrotlik taomillari: kuzatuv, tashqi boshqaruv, sanatsiya, tugatishda moliyaviy holat tahlili.

12.8.Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

12.9.Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni oldini olish chora-tadbirlari.

12.10.Bankrotlikni oldini olishda moliyaviy menejmentdan foydalanish.

12.1. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni baholashning obyektiv zarurligi, uni tahlil qilish maqsadi va vazifalari

Qarzdor o'z majburiyatlarini bajarishga buyurilgan holat kishilik jamiyatining shakllanishining ilk davrlariga borib taqaladi. Shu sababli, ham bankrotlik (iqtisodiy nochorlik)ning tarixini o'rganishda uning yuzaga kelgan davri sanasini aniq belgilash doimo muammo bo'lib kelgan.

Jumladan "Yangi ahd"da yaxudiylarning har yetti yilda bir marta barcha majburiyatlaridan kechish urfi belgilangan. Har ellik yilda bir

marta etnik tarkibidan qat'iy nazar barcha millat vakillarining majburiyatlaridan kechish, qullarni ozod qilish shartlari belgilangan[80].

Qadimgi Gretsiyada oila boshlig'i o'z majburiyatlarini to'lay olmasa, uning barcha oila a'zolari majburiyatlarni to'liq qoplagunga qadar, o'z kreditor qarzini va zararini qoplagunga qadar qullikka mahkum qilingan. Ko'pgina shaharlarda uning muddati 5 yil qilib belgilangan.

Qarzdorning kreditor oldidagi shaxsiy majburiyatlarini belgilashning huquqiy normalari ilk bor Rim qonunlarida uchraydi. Qarzdorlik majburiyatining yuzaga kelganligi va uning muddatining 90 kundan oshganligi ilk bor ushbu qonunlarda aks etgan.

Rim imperiyasi qo'llagandan keyin iqtisodiy nochorlik normalarini belgilash va ularni rasmiy jihatlari Italiyada rivojlana boshlandi. Bu bevosita Italiyada savdo faoliyatining keskin rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Shu sababli ham ushbu jarayon birinchi navbatda savdo faoliyatida qo'llanila boshladi. Iqtisodiy nochorlik masalalari bilan shug'ullanuvchi savdo sudlarining vujudga kelishiga ham ushbu jarayonga sabab bo'lgan. Iqtisodiy nochorlikni e'lon qilish tartiblarida ilk bor qarzdor yoki kreditorlarning murojaati bilan nochorlikni tan olish va belgilash tartiblari qayd etilgan.

Iqtisodiy nochorlikni zamonaviy shakli va jarayonlarini belgilanishida Angliya amaliyoti alohida o'rin tutadi. 1543-yilda iqtisodiy nochorlikni ko'rib chiqish muddatlari va nochorlikni tan olish tartiblari aks etgan protsessual amaliyotga o'tila boshlandi. Uning rivojlanish davri XVII-XIX asrlarga to'g'ri keladi.

Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) tushunchalarining odatda sinonimlari nihoyatda ko'p. Ularning aniq sonini keltirish (odatda o'zbek tilida 20 dan ortiq sinonimlari mavjud) qiyin. Milliy qonunchilik xalqaro normalaridagi talablarni o'rganish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, qarzdorning o'z majburiyatlarini to'liq qoplash layoqatiga ega emasligidan kelib chiqadigan iqtisodiy, moliyaviy

[80] Второзаконие 15:1-3.↕ Книга Левит 25:8-54.

qiyinchilikni bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) deb nomlash juda to'g'ri belgilangan.

Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) – iqtisodiy sud tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligidir.

Raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotida ishtirokchilarning to'lov majburiyatlarini to'lashga qodir emasligini tan olish orqali uni tartibga solishni muhim normalarini belgilamasdan uning rivojlanishini ta'minlab bo'lmaydi. Negaki, ikkita subyekt o'rtasidagi o'zaro qarzdorlik bu shunchaki, qarzdorlik emas. Bu majburiyatlar butun bir iqtisodni, jamiyatning majburiyatidir. Ya'ni, qarzdorlik faqat ularning o'zigagina tegishli muammo emas.

Iqtisodiy nochorlik, bankrotlik tushunchalari odatda bir mazmunda qaraladi. Ularni yuzaga keltiruvchi sabablar nihoyatda ko'p. Lekin sabablarning ildizida albatta kuchli raqobat, iqtisodiy resurslar va moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi turadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan holda, raqobat kurashiga tortiladilar. Bu kurash kimnidir bor, kimnidir yo'q qiladi. G'olib korxonalar o'zining moliyaviy ahvolini mustahkamlagan holda bozorda muqim o'ringa ega bo'la boradilar. Mag'lub korxonalar esa sinadilar yoki o'z faoliyatini to'xtadilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu g'oliblik yoki bu mag'lublik muqarrar narsaki, uni to'xtatib qolish mumkin emas.

Aytish mumkinki, uzluksiz davom etuvchi raqobat kurashi doimo iqtisodiy nochorlik yoki bankrotlik holatiga tushish xavfini tug'diradi.

Bankrotlik tushunchasi italyancha «banco-rotto» degan so'zdan olingan bo'lib, aslida kursi (o'rindiq)ning sinishini anglatsada, bu so'z aslida qarzdorning to'lov majburiyatlarini to'la qoplashga qodir emasligini izohlaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunida bankrotlik alomatlari yuridik shaxslar uchun alohida, jismoniy shaxslar uchun alohida tartiblari belgilangan.

Qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lovlar majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, uning bankrotlik alomatlari deb e'tirof etiladi[81].

Xo'jalik subyektlari va ularning ayrim toifalari (banklar, qishloq xo'jaligi subyektlari, sug'urta tashkilotlari va h.k.), yakka tadbirkorlarning bankrotligini tan olish va uni belgilash tartiblari bankrotlik to'g'risidagi qonunda aniq belgilab berilgan.

Bankrotlikning korxona faoliyatiga nisbatan qo'llanishini tushunish uchun uning siklik jarayonini tushunish muhim masala hisoblanadi. Ya'ni har qanday korxonaning manzil yakuni hisoblangan bankrotlik quyidagi jarayonlarning uzviy ketma-ketligidan tashkil topadi.

Bankrotlikning hayot sikli

Bosqichlari	Mazmuni
Tashkil topish va faoliyatni boshlash	"**Tashkil topish va faoliyatni boshlash**"davrida yangi tovar bozorga tavsiya etiladi, tovarni bozor talabi kuzatilmaydi va sotish darajasi juda past bo'ladi. Mazkur bosqichda ko'proq tovar bilan tanishuvni ta'minlash lozim bo'ladi.
Oyoqqa turish va faoliyatni kengaytirish	"**Oyoqqa turish va faoliyatni kengaytirish**" davrida korxonaning bozorga chiqishi va tovarlarni tavsiya etishi biroz jonlanadi, sotish hajmi bir oz o'sishiga erishiladi, shu bilan birgalikda tovarlarga yangilik kiritish xarajatlari ko'payadi
O'sish, rivojlanish	"**O'sish, rivojlanish**" tovarlarni sotish hajmi, bozorni solishtirma sig'imi o'sib boradi, raqobat kuchayadi va keskin tus oladi. Mazkur bosqichning asosiy vazifasi tovarlarni sotish hajmini va assortimentini oshirish hisobiga maksimal foyda olishga qaratiladi.

[81] Банкротлик тўғрисидаги қонун 4- модда

Gullash, taraqqiy etish	**"Gullash, taraqqiy etish"** tovarlarni sotish hajmi, o'sish darajasi eng yuqori (maksimal) darajaga ko'tariladi, bozor ushbu mollar bilan haddan ziyod to'yinadi, yangiliklarga oid xarajatlar kamayadi, ish hajmini bundan ortiq oshirib bo'lmay qoladi.
Cho'kish va sinish davri	**"Cho'kish va sinish davri"** tovar iste'mol uchun jozibadorligini yo'qotadi, sotish hajmi, mahsulotning bozordagi sig'imi tushib ketadi.

Iqtisodiy nochorlik davomiyligi har bitta korxonada turlicha kechadi va yakun topadi. Bundan shunday xulosaga kelinadiki, har qanday korxonaning oxirgi manzili bu iqtisodiy nochorlik, bankrotlik ekan. Faqat ushbu davriylik har qaysi korxonada turlicha davriylikda kechadi. Ya'ni siklik jarayon bitta korxonada tezroq, bitta korxonada sekinroq kechadi. O'lim muqarrar ekan iqtisodiy nochorlik ham muqarrar hisoblanadi. Lekin uning farqi boshqara olinishi, tartibga solinishi, ya'ni uni o'zgartira olish imkoniyatining mavjudligidadir.

Bankrotlikka olib keluvchi omillarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- ichki omillar
- tashqi omillar

Ichki omillar qatoriga: aylanma mablag'larning yetishmasligi; resurslardan foydalanish samarasining pastligi; normadan ortiq aktivlarning saqlanishi; texnika-texnologiyalarning eskirganligi; ishlab chiqarishni tashkil etishning eskiligi; mijozlar moliyaviy holatining yomonligi; marketingning eskiligi; ortiqcha qarz majburiyatlarining mavjudligi; ishlab chiqarishning asossiz kengaytirilishi; tashqi faktorlarni hisobga olmasdan boshqarish strategisini belgilanishi va h.k. kiradi.

Tashqi omillarga: iqtisodiy (davlatdagi krizis, inflyatsiya); siyosiy omillar; ilmiy texnikaviy omillar; demografik omillar va h.k. omillar kiradi.

Iqtisodiy nochorlik birdaniga kuzatiladigan holat emas. Uning belgilari faoliyat davomida shakllanib, kuchayib, keskinlashib boradi.

Iqtisodiy nochorlikni belgilarini oldindan aniqlash ularga qarshi chora-tadbirlar belgilab borish faoliyat va biznes davomiyligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli, iqtisodiy nochorlikka qarshi kurashni ushbu holat paydo bo'lganda emas, balki paydo bo'lishidan oldin kurashish lozim.

Iqtisodiy nochorlikni aniqlash va unga qarshi turli choralarni ko'rishni tahlilsiz imkoni yo'q. Iqtisodiy tahlil etish orqali yuzaga kelgan va yuzaga kelishi kutilayotgan holatlarni oldindan bashorat qilish mumkin. Bu bashorat aniqligi albatta birinchi navbatda moliyaviy axborotlarning aniqligi, asosligi va ishonchligiga bog'liqdir.

Iqtisodiy nochorlik (bankrot)likni tahlilining maqsadi korxona moliya-xo'jalik faoliyatining "og'riqli nuqtalari"ni aniqlash, ularning yuzaga kelishi va rivojlanishini baholash, sabablarini o'rganish orqali iqtisodiy nochorlik risklarni kamaytirishga yordam beruvchi boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan iborat.

Tahlil mazmunini xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy nochorligi (bankrotligi) yuzasidan tahliliy amallarni bajarish va ularning moliya-xo'jalik faoliyatining joriy va istiqboldagi iqtisodiy, moliyaviy ahvolini raqobatdoshlik taomillari asosida barqarorligini ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan tizimli analitik jarayonlarni o'tkazish tashkil etadi.

Qo'yilgan maqsad va tahlil mazmunidan kelib chiqqan holda tahlil vazifalari sifatida quyidagilarni tarkiblash mumkin:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ning joriy va istiqboldagi holatini baholash;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarda iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ning yuzaga kelish sabablarini o'rganish, tahlil etish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni tahlil etishning modellarini tuzib chiqish va uning o'zgarishlarini baholash;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi) risklarini baholash va ularni minimallashtirish;

- xo'jalik yurituvchi subyekt iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni oldini olish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilash;

- iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni oldini olish va unga qarshi kurashish yuzasidan boshqaruv qarorlarini tayyorlash va uni amaliyotga joriy qilish.

12.2. Bankrotlik instituti va uning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy nochorlikni tartibga solishning huquqiy normalari

Bankrotlik instituti – murakkab huquqiy muassasadir: huquqiy muassasa tomonidan beligilanadigan protsessual me'yorlarni belgilash, tartiblash amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida bankrotlik instituti 1994-yilda tashkil etilgan. O'tgan davr mobaynida bu borada sezilarli ishlar olib borildi va muhim natijalarga erishildi. Eng muhimi ushbu munosabatlarni tartibga solishning puxta va mukammal qonunchilik bazasi shakllantirildi. Dastlab 1994-yilda 5-mayda "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun dastlab 35 moddadan iborat bo'lgan. Lekin qonun amaliyoti bo'yicha mazkur davrda bironta ham bankrotlik holati ko'rilmadi.

Qonun amalda bo'lgan davrda bankrotlik bo'yicha faqat ikkitagina ariza qabul qilingan va ko'rib chiqilgan.

1995-yilda Qonun amaliyoti va bankrotlikni amalga kiritish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori chiqarildi va bu boradagi ishlar biroz jadallashdi. Shu yilda 47 ta bankrotlik holati bo'yicha ishlar ko'rib chiqildi.

1996-yil 11-dekabrda "Bankrotlik to'g'risidagi qonunni amalda qo'llash chora tadbirlari to'g'risida"gi Respublika Prezidentining maxsus farmoni sohadagi ishlarni yanada jadallashtirish imkonini berdi.

1998-yil 28-avgustda qonun yangi tahrirda qabul qilindi. U ko'plab moddalar bilan boyitildi. Xususan, ayrim turdagi qarzdorlarning bankrotligi to'g'risidagi qoidalar, yangi taomil – tashqi boshqaruv qo'shildi va bu kreditorlarning huquqlarini kengaytirdi. Ushbu qonunda

yuridik va yakka tartibdagi tadbirkor bankrotligi alomatlari alohida ajratib ko'rsatildi.

2003-yil 24-aprelda Qonun yana yangi tahrirda e'lon qilindi. U 192 moddadan iborat bo'lib, bankrotlik belgilari va taomillariga tegishli bo'lgan, to'lovga qodir bo'lmagan qarzdorlarning to'lov qobiliyatini tiklashni maqsad qilib qo'ygan ko'plab yangi qoidalarni o'zida mujassamlashtirdi. Qonunga ikkita yangi bob kiritildi va ular yangi bankrotlik taomillarini o'zida ifoda etdi: kuzatuv va sud sanatsiyasi, shuningdek, barcha bankrotlik taomillari sud boshqaruvchilari tomonidan amalga oshirilishi, sud boshqaruvchilari sud tomonidan tayinlanishi va nazorat qilinishi belgilandi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bankrotligi O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi qonuni va unga keyinchalik kiritilgan qo'shimcha, o'zgartirishlar va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra bankrotlik deganda sud tomonidan e'tirof etilgan qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi tushuniladi. Aytish joizki, qarzdorni bankrot deb topishda kreditorlar talablarini va majburiy to'lovlarni to'la qondira olmasligi emas, balki «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunning 5-moddasi ikkinchi qismida belgilangan talablar hisobga olinadi. Ushbu moddada quyidagilar bayon etiladi.

Bankrotlik to'g'risidagi ish iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Bankrotlik to'g'risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo'lgan taqdirda, agar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan jami talablar eng kam ish haqi miqdorining kamida besh yuz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsga nisbatan esa eng kam ish haqi miqdorining kamida o'ttiz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, iqtisodiy sud tomonidan qo'zg'atilishi mumkin, ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno".

Shuningdek, kreditorlarning istalgan talablari bo'yicha emas, balki aniq belgilangan talablar bo'yicha to'lashga qodir emaslik bankrotlik alomatlari hisoblanadi. Qonunchilikda bankrotlik alomatlarini aniqlashda kreditor talabining quyidagi ikki turi: qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha hamda majburiy to'lovlar bo'yicha, ya'ni soliq, yig'im, bojlarni to'lash bo'yicha talabi belgilangan. Qolgan boshqa talablarning bajarilmasligi korxona yoki tadbirkorning bankrot deb topilishiga asos bo'lmaydi.

Qarzdorning pul majburiyatlari tushunchasi bankrotlik qonunchiligida fuqarolik qonunchiligiga nisbatan tor ma'noda berilgan. Bankrotlik qonunchiligiga asosan pul majburiyatlari deganda qarzdorning fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo'yicha hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra kreditorga muayyan pul summasini to'lash majburiyati tushuniladi («Bankrotlik to'g'risida»gi qonunning 3-moddasi).

Pul majburiyatining birinchi belgisi qarzdorning ish bajarishi, xizmat ko'rsatishi yoki tovarni topshirishi emas, balki pul summasini to'lash majburiyati hisoblanadi.

Ikkinchi belgisi esa majburiyatlarning faqat Fuqarolik kodeksiga asoslangan bo'lishidir. Korxonaning o'z vaqtida ishchilariga ish haqini to'lay olmasligi oqibatida korxona bankrot deb topilmaydi. Chunki mehnat haqi bo'yicha kelib chiqqan majburiyat Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi. Shu sababli ushbu majburiyat pul majburiyati hisoblanmaydi.

Bankrotlik instituti tadbirkorlar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'yish, o'zaro to'lov intizomini kuchaytirish, yig'ilib qolgan kreditorlik va debitorlik qarzlarini undirish, oqibat natijada ishlab chiqarishni barqarorlashtirish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarzdorlar bankrot deb e'lon qilinadi qachonki, bankrotlik faktlarini barchasi e'tirof etilsa.

Bankrotlik to'g'risidagi ish oliy sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, "Bankrotlik to'g'risidagi" Qonunning III bobiga ko'ra,

xo'jalik subyektlari sudga murojaat qilmasdan turib ham o'zini o'zi bankrot deb e'lon qilish mumkin. Buning uchun korxonaning rahbari ixtiyoriy tugatish haqida qaror chiqaradi, uni kreditorlar ma'qullaydi, so'ngra bu qaror mulkdor (qarzdorning mol-mulkida davlat ulushi bo'lsa, Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi ham) tomonidan tasdiqlanadi. qaror mulkdor tomonidan (qarzdorning mol-mulkida davlat ulushi bo'lsa Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi tomonidan ham) tasdiqlangan paytdan boshlab qarzdor bankrot bo'lgan deb hisoblanadi. Agar kreditorlarning loaqal bittasi bu qarorni ma'qullamasa yoki kreditorlarning barchasi ma'qullasa-yu, ammo mulkdor bu qarorga norozi bo'lsa, qarzdor o'zini o'zi bankrot deb topa olmaydi. Bunday holda u qonunda belgilangan tartibda sudga bankrotlik arizasi bilan murojaat qilishi mumkin.

Qarzdor o'zini o'zi bankrot deb topgan taqdirda ham u «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunda belgilangan tartibda tugatilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksining 30-moddasiga ko'ra, tashkilotlar va fuqarolarning bankrotligi to'g'risidagi ishlar qarzdor turgan joydagi sudda ko'rib chiqiladi.

Ushbu Kodeksning 23-moddasiga ko'ra, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tashkilotlar yoki tadbirkor jismoniy shaxslar sudda taraf sifatida ishtirok etishlari mumkin. Ya'ni, korxonaning yuridik shaxs huquqiga ega bo'lmagan bo'linmalari bankrot deb topilishi mumkin emas. Chunki ularning qarz majburiyatlari bo'yicha yuqori tashkiloti javob beradi.

Bankrotlik to'g'risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo'lgan taqdirda, agar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan jami talablar eng kam ish haqi miqdorining kamida besh yuz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan esa eng kam ish haqi miqdorining kamida o'ttiz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, sud tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Majburiy to'lovlar majburiyatini bajarmaganligi natijasida qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojat

etish huquqiga qarzdor, prokuror, davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar ega.

Rossiyada bankrotlik №127-F3 son bilan qayd etilgan 2002 yil 26 oktyabrda qabul qilingan «Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi.

Ushbu qonun normalariga ko'ra huquqiy va jismoniy shaxslar uchun alohida tartiblar belgilangan. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) holatlarini ko'rib chiqishda huquqiy shaxslar uchun 300 ming rubldan ortiq va to'lash muddati 3 oydan oshgan to'lov majburiyatlar mavjudligi, jismoniy shaxslar uchun 500 ming rubldan oshiq va to'lov muddati uch oydan oshgan, yakka tadbirkorlar uchun majburiyatlar summasi 500 ming rubldan oshiq va to'lov muddati 3 oydan oshgan majburiyatlar mavjudligi bankrotlik jarayonlarini boshlash uchun norma qilib belgilangan. Bankrotlikka qarshi quyidagi taomillar belgilangan: kuzatuv; moliyaviy sog'lomlashtirish; tashqi boshqaruv; bankrotlik jarayoni; kelishuv shartnomasi.

Belorusiyada bankrotlik institutini tashkil etilishi uning mustaqillikka erishishidan keyin boshlangan. 1991 yil 30 mayda "Iqtisodiy nochorlik va bankrotlik xaqida"gi qonun qabul qilingan. Institut faoliyatining rivojlanishi 2000 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda "Iqtisodiy nochorlik va bankrotlik xaqida"gi qonun "Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) to'g'risida"gi qonun deb qayta qabul qilindi. Mazkur qonun 2012 yilda yangi tahrirda qabul qilindi.

Unda asosiy taomillar sifatida quyidagilar tarkiblangan: himoya qilish muddatini belgilash; konkursli ishlab chiqarishni tashkil etish; kelishuv shartnomasini tuzish.

Konkursli ishlab chiqarish: sudga material tayyorlashni tugallash, sanatsiya, likvidatsiya jarayonlarini o'z ichiga oladi.

AQShda bankrotlik "Bankrotlik to'g'risida"gi Kodeks bilan tartibga solinadi. Yagona talab bankrotlik ishi ko'rilayotgan korxona AQSh hududida bo'lishi lozim. Ixtiyoriy bankrotlik holatlari Direktorlar Kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi. Bankrotlik holati bo'yicha mahalliy sudga murojat qilinadi. Ushbu sudlar Okrug sudlarining

bo'limlari hisoblanadi. Har bitta shtatda kamida bitta bankrotlik bo'yicha sud mahkamasi mavjud.

Avstraliyada "Bankrotlik to'g'risida"gi qonun 1966 yilda qabul qilingan. Bankrotlik ishlari faqat jismoniy shaxslarga nisbatan ko'riladi. Korxonalarga nisbatan bankrotlik holatlari tashqi boshqaruv yoki likvidatsiya jarayoni bilan yakunlanadi. Bankrotlik statusi uch yil davomida saqlanadi.

Kanadada bankrotlik federal qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunchilik normalari korxonalarga nisbatan ham, jismoniy shaxslarga nisbatan ham belgilanadi. Bankrotlikning engilanishi va to'g'ri yuritilishi bankrotlik bo'yicha boshqaruvchilar tomonidan nazorat qilib boriladi. Amaliyotda konkursli boshqaruvga muhim ahamiyat qaratiladi.

Niderlandiyada bankrotlik "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunlar Kodeksi bilan tartibga solinadi. Mamlakat amaliyotida uch turdagi bankrotlik amaliyoti belgilanadi: bankrotlik; kelishuv va qarzlardan kechish (mazkur tartib faqat jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladi).

12.3. Iqtisodiy nochorlik tahlilining axborot manbalari

Bankrotlik – qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga qodir emasligining sud tomonidan e'tirof etilishidir.

Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, bankrotlik iqtisodiy nochorlikni begilash uchun subyektlarning pul majburiyatlarining aks ettiruvchi va ularni qoplash yuzasidan mablag'larning mavjudligini aks ettiruvchi axborot manbalari talab etiladi.

Iqtisodiy nochorlik va bankrotlikni tahlil etishning axborotlar bazasiga juda ko'p manbalarni kiritish mumkin. Ularning mazmun mohiyatiga ko'ra moliyaviy hisobot ma'lumotlari, statistik hisobotlar, soliq hisoboti ma'lumotlarini kiritish mumkin. Shuningdek, ta'sis hujjatlari, auditorlik xulosalari, rejali tekshirish natijalari va h.k. hisobdan tashqari manbalardan ham foydalaniladi.

Muhim e'tibor majburiyatlarning yuzaga kelishida asos bo'luvchi xo'jalik shartnomalari, qarzdorlik dalolatnomalariga qaratiladi

Asosiy manba sifatida xo'jalik subyektlari tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlar va ular bo'yicha auditorlik xulosalarining mavjudligiga ahamiyat qaratiladi. Moliyaviy hisobot shakllari ichida buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shakli, shuningdek moliyaviy hisobotlarning tegishli bandlari bo'yicha tushuntirishlar, qaydlar va izohlarga alohida urg'u beriladi. Moliyaviy hisobotga ilova qilinadigan muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi ilova ham majburiyatlarning kreditorlari va muddatli bo'yicha axborotlari alohida tarkiblanadi.

Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tahlilida axborotlarning aniqligi, ishonchligi, xaqqoniyligiga muhim ahamiyat qaratish lozim. Negaki, ko'pgina hollarda soxta bankrotlik bo'yicha arizalar ham uchraydi.

Soxta bankrotlik va uni tan olishda albatta qonunchilik normalarida og'ir javobgarliklar belgilangan. Lekin shunga qaramay bu borada ayrim muammoli murojatlar kuzatilmoqda. Negaki, sudgacha va suddan keyingi jarayonlarda munozaraga sabab bo'luvchi holatlar ko'pincha axborotlarning etarli va asosli emasligi bilan izohlanadi.

Tahlil qilishda iqtisodiy nochorlikni baholashda quyidagi usullardan foydalaniladi: keng ko'lamli mezon ko'rsatkichlar tahlili; cheklangan miqdordagi ko'rsatkichlar tahlili; indikator ko'rsatkichlar tahlili; skoring modeli; reyting tahlili; multiplikativ diskriminat tahlili.

Moliyaviy hisobotning asosiy shaklari va ular bo'yicha iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tahlili yo'nalishlari

№	Moliyaviy hisobot shakllari	Tahlil yo'nalishlari
1	2	3
1	Buxgalteriya balansi	- mulkiy holatni tahlili, - moliyaviy salohiyatni tahlili; - buxgalteriya balansi likvidligi tahlili - moliyaviy koeffitsiyentlar va to'lov layoqatini tahlili; - moliyaviy barqarorlik tahlili;

		- bozor aktivligi, barqarorligi tahlili; - moliyaviy holatni kompleks baholash.
2	Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot	- ish aktivligini tahlili; - moliyaviy tsikl davomiyligini tahlili; - moliyaviy natijalar va ular dinamikasining tahlili; - xarajatlar tahlili; - foyda dinamikasini tahlili; - rentabellik tahlili; - moliyaviy leveridj tahlili.
4	Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot	-operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdan pul oqimini tahlili.
5	Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot	- aktivlarni moliyalashtirish holatini tahlili; - xususiy kapital va uning tarkibining tahlili; - sof aktivlar holati va samaradorligining tahlili.
-	Moliyaviy hisobotga ilovalar	- debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tahlili; - qarz kapitali va uning tarkibiy tahlili; - asosiy vositalar va ularning holat, harakat, samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlili; - ishlab chiqarish quvvatlari va ulardan foydalanish darajasini tahlili.

Tahliliy jihatdan esa (moliyaviy hisobotlar taqdim etilgan axborotlarga tayangan holda) iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni quyidagi sabablarini ko‘rsatish mumkin.

1. Korxona moliyaviy ahvoli bilan bog‘liq omillari (to‘lovga noqobillik, mablag‘lar nolikvidligi, aylanma mablag‘larni moliyalashtirishning holati, moliyaviy nobarqarorlik)

2. Korxona moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq omillar (moliyaviy natijaviylik, rentabellikni past darajasi yoki manfiy ishorasi)

3. Korxona moliyaviy ahvoli va moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlarni turli jihatlarini ifoda etuvchi boshqa omillar (pul oqimini tarkibiy tuzilishi, asosiy vositalarning holati va harakati, xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari holati).

Bu jihat tarkiblanish moliyaviy hisobot shakllarining tuzilishiga va mazmuniga to'la mos keladi va ularni o'rganish obyektini to'la qamrab oladi.

12.4. Bankrotlikni aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularning qiyosiy tahlili

Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi asosiy sabablardan biri korxonadagi iqtisodiy va moliyaviy salohiyatning pastligi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy va moliyaviy salohiyatni holati va o'zgarish darajalariga qarab xo'jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy nochorligi yo'q, iqtisodiy nochorligi past, iqtisodiy nochorligi yuqori, iqtisodiy nochorligi eng yuqori kategoriyalarini tarkiblash ham mumkin.

Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ning iqtisodiy salohiyatga nisbatan baholanadigan ko'rsatkichlar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- joriy aktivlar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari;
- uzoq muddatli aktivlar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari;

Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ning moliyaviy salohiyatga nisbatan shuningdek, moliyaviy jihatdan barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor, moliyaviy jihatdan nobarqaror va iqtisodiy nochor korxonalarini tarkiblash amaliyoti ham belgilanganligini qayd etish lozim.

Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ning moliyaviy salohiyatga nisbatan baholanadigan ko'rsatkichlar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'z mablag'lari manbasi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari;
- majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar.

Iqtisodiy nochorlikni baholashda o'rganiladigan iqtisodiy va moliyaviy salohiyat bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi

Ko'rsatkichlar nomi	Hisoblash yo'li	Nimani ifoda etishi
1	2	3
O'z mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari		
O'z mablag'larining (O'm) to'planish koeffitsiyenti	Ko'tk = O'm / B	Korxonaning jami mablag'larida (B) o'ziga

(Ko‘tk)		tegishli bo‘lgan mablag‘larining (O‘mm) holatini ifodalaydi
Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti (Kmq)	Qmq = B / O‘m	Bir so‘mlik o‘z mablag‘iga (O‘mm) qancha umumiy mablag‘ (B) to‘g‘ri kelishini ifodalaydi
O‘z mablag‘larining harakatchanlik koeffitsiyenti (Km)	Km = O‘mm + Umm - Uma / O‘m	Xususiy kapitalning har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan oborot mablag‘lar naqdligini ifoda etadi
Umumiy harakatchanlik koeffitsiyenti (Kux) yoki umumiy harakatdagi mablag‘larni faollik koeffitsiyenti (Uxm)	Kux = Uxm / B	Harakatdagi mablag‘larni umumiy mablag‘lardagi hissasi
Sof harakatdagi mablag‘larning faollik koeffitsiyenti (Kf)	Kf = Sxm / O‘xm	Sof harakatdagi mablag‘larning umumiy harakatdagi mablag‘lardagi hissasini ifodalaydi
Chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar		
Chetdan jalb qilingan kapitalni to‘planish koeffitsiyenti (Kchjqm)	Kchjqm = Chjqm / B	Jami mablag‘lar tarkibida (B) chetdan jalb qilingan mablag‘larning (Chjqm) hissasini ifodalaydi
Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘larning o‘z mablag‘larida to‘planish koeffitsiyenti (Kumchjqm)	Kumchjqm = Umchjqm / O‘m	Xo‘jalik faoliyatini uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘lar (Umchjqm) bilan ta’minlanganlik darajasini ifodalaydi
Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘larning chetdan jalb qilingan jami kapitalda to‘planish koeffitsiyenti (Kumchjqm)	Kumchjqm = Umchjqm / Chjqm	Umumiy chetdan jalb qilingan mablag‘larda uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘larning hissasini ifodalaydi
O‘z mablag‘larini chetdan jalb qilingan mablag‘larga qaramlik koeffitsiyenti	Kchjqm = Chjqm / O‘m	Har bir so‘m o‘z mablag‘iga qancha chetdan jalb qilingan mablag‘ to‘g‘ri kelishini

(Kchjqm)		ifodalaydi
Uzoq muddatli aktivlar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlari		
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning umumiy mablag‘lardagi hissasini ifodalovchi koeffitsiyent (Kavx)	Kavx = Av / B	Asosiy vositalarning umumiy xo‘jalik mablag‘laridagi hissasini ifodalaydi
O‘z mablag‘larining kapitallashuvi koeffitsiyenti (Kumk)	Kumk = Av + Na - Ump / O‘x	O‘z mablag‘larining qancha qismi asosiy vositalarga sarflanganligini ifodalaydi
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar jamg‘arilishini umumiy koeffitsiyenti (Kavju)	Kavju = Avue / Av Avue – asosiy vositalarning joriy eskirish summasi	Asosiy vositalarning qancha qismi takror to‘planganligini ifodalaydi
Asosiy vositalar jamg‘arilishining intensivligi koeffitsiyenti	Kin = Avje / Av Avje – asosiy vositalarning joriy yildagi eskirish summasi	Bir yilda asosiy vositalar qiymatining qancha qismi jamg‘arilganligini ifodalaydi
Joriy (aylanma) aktivlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar		
Joriy (aylanma) mablag‘larning (Aym) oborotdagi o‘z mablag‘lari (O‘xm) bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti (Kamt)	Kamt = O‘xm / Aym	Har bir so‘m aylanma mablag‘ga qancha o‘z mablag‘i to‘g‘ri kelishini ifodalaydi
Joriy (aylanma) mablag‘larning qaramlik koeffitsiyenti (Kchjk)	Kchjk = Chjqm / Aym	Chetdan jalb qilingan mablag‘larni aylanma mablag‘lardagi hissasini ifodalaydi
Joriy (aylanma) mablag‘larning qisqa muddatli bank kreditlariga (Kmbk) qaramlik	Kbk = Kmbk / Aym	Qisqa muddatli kreditlarni aylanma mablag‘lardagi hissasi

koeffitsiyenti (Kbk)		
Joriy (aylanma) mablag'larning tez harakatdagi (Pmba) Aym bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kxmt)	Kxmt = Pmba / Aym	Aylanma aktivlarni qancha qismi tez likvid bo'ladigan aktivlar bilan qoplanganligini ifodalaydi
Joriy (aylanma) mablag'larning butun mulkdagi hissasi	Kamx = Aym / B	Aylanma mablag'larni barcha mulkdagi hissasini xarakterlaydi

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy jihatdan barqaror deyish mumkin qachonki, uning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar normal holatdan yuqori darajada bo'lsa, xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy jihatdan xavf-xatari bor deyish mumkin qachonki, ko'rsatkichlar darajasi normal darajada va undan tushib ketsa, moliyaviy nobarqaror deyish mumkin qachonki, uning ko'rsatkichlar tizimini ifodasi normal darajadan keskin tushib ketsa. Uning chegaraviyligini har bitta ko'rsatkichlar tizimiga nisbatan alohida belgilash lozim.

Amaliyotda, moliyaviy barqarorlikni belgilashning eng muhim metodik jihat aktivlarni (uzoq muddatli aktivlar hamda zaxira va xarajatlarni) manbalashdagi holat ko'rsatkichlariga qarab belgilanadi.

Aktivlarni moliyalashtirishda aktivlarning uzoq muddatli va joriy qismi bir-biridan tubdan farq etadi. Odatda uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish yuzasidan o'z mablag'lari va uzoq muddatli qarz mablag'lari jalb qilinadi. Shu sababli iqtisodiy nochorlikni baholashda birinchi navbatda ularning o'tgan yil va joriy holatiga baho beriladi. Bu o'z aylanma mablag'lari naqdligini ifodalaydi.

O'MM + UMKQ – UMA = O'AMN / TMZ

O'AMN + KMKQ / TMZ

O'z aylanma mablag'lari naqdligi va qisqa muddatli qarz kapitali TMZlarni moliyalashtirishning asosiy manbasi hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini oshirish yuzasidan quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish talab etiladi:

- xususiy kapitalni hajmini oshirish. Buning uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar ta'sischilarini qo'shimcha badallarini jalb qilish

shuningdek, faoliyatning keyingi davralari bo'yicha foyda summasini oshirish talab qilinadi;

- ko'p xarajat talab qiladigan asosiy vositalar, texnika va texnologiyalar o'rniga yangilarini olib kirish;

- bank kreditlarini aniq biznes reja va foydali loyihalar hisobiga jalb etish hamda ularni umumiy mablag'lar tarkibidagi hissasini kamaytirib borish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy qaram bo'lib qolmasligiga harakat qilish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'lov intizomiga, shartnomaviy shartlarga to'la amal etgan holda debitor va kreditor qarzlarining ko'payib ketmasligini oldini olish;

- aylanma aktivlarni manbalash yuzasidan ijobiy farqlanishlarni ta'minlash;

- iqtisodiy resurslarni joylashtirish va boshqarishdagi optimallikni yo'lga qo'yish va h.k.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatdoshlik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonalar raqobatda sinmasligi uchun quyidagilarga amal qilishlari lozim:

- mavjud mablag'larini to'g'ri joylashtirish va boshqarish;

- ijobiy faoliyat natijaviyligiga erisha borish;

- debitor qarzlarni ko'paytirmaslik yo'llarini topish, mavjud debitor qarzlarni muddatida qaytarish chora-tadbirlarini ko'rish;

- kreditor qarz majburiyatlarini to'lov muddati bo'yicha nazoratini olib borish.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy nochorligini belgilashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimiga tayanish lozim:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov layoqati, qoplov koeffitsiyentini o'rganish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy mustaqillik va qaramlik darajasini o'rganish;

- uzoq muddatli va joriy aktivlarni manbalashning holatini o'rganish;

- o'z va qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbatni o'rganish;

- aktivlar, kapital va majburiyatlar rentabelligini o‘rganish
- ishlab chiqarish quvvatlaridan haqiqiy foydalanish darajasini o‘rganish;
- asosiy va nomoddiy aktivlardan foydalanish darajasini o‘rganish;
- muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari holatini o‘rganish.

Korxonalar iqtisodiy nochorligini baholashning muhim ko‘rsatkichlari va ularni me’yoriy darajalari

Ko‘rsatkichlar	Aniqlanish tartibi	Me’eriy chegara	Nochorlik belgisi
1	2	3	4
Korxonaning to‘lov layoqati koeffitsiyenti	Kt=Joriy aktivlar/Muddati kelgan to‘lov majburiyatlari	2-3	Kt<2
Korxonaning moliyaviy mustaqillik (avtonomiya) koeffitsiyenti	Km=O‘z mablag‘lari manbai/Jami mulk	Km>50 %	Km<50%
Moddiy aktivlarni manbalanishi koeffitsiyenti	Oborot mablag‘lari naqdligi-Tovar moddiy zaxiralar/O‘z mablag‘lari+Uzoq muddatli qarz mablag‘lari-Uzoq muddatli aktivlar	Ortiqcha lik	Etishmovc hilik
O‘z va qarz mablag‘lari nisbati koeffitsiyenti	Ka=O‘z mablag‘lari/Qarz mablag‘lari	Ortiqcha lik	Etishmovc hilik
Aktivlar, kapital va majburiyatlar rentabelligi	Kr=Sof foyda/Aktiv yoki Kapital+Majburiyat	Kr>0	0 dan kichik
Ishlab chiqarish quvvatlaridan haqiqiy foydalanish darajasi	Kf=Ishlab chiqarish quvvatining haqiqiy darajasidagi mahsulot hajmi/texnik loyiha bo‘yicha ishlab chiqarilishi lozim bo‘lgan mahsulot hajmi	Kf=1>0	Kf=1<0
Asosiy vosita va nomoddiy aktivlar eskirishini jamg‘arilish	Ke=Asosiy va nomoddiy aktivlarni eskirish qiymati/Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni	Ks>0.5	Ks<0.5

koeffitsiyenti	boshlang'ich qiymati		
Muddati o'tgan majburiyatlar holati	Kd/k=Muddati o'tgan majburiyatlar / Jami majburiyatlar	Kd/k<0.5	Kd/k>0.5

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Ko'mitasining "Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi qarori" ga muvofiq korxonalar moliyaviy-iqtisodiy holati bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- iqtisodiy barqaror;
- iqtisodiy tahlikali (xavf-xatarli);
- iqtisodiy nobarqaror (to'lovga qobilligini tiklash imkoniiga ega bo'lgan korxonalar, to'lovga qobilligini tiklash imkoniga ega bo'lmagan korxonalar)

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy holatini baholash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasining "Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi qarori"ga muvofiq quyidagi ko'rsatkichlar tizimini o'rganish tavsiya etiladi.

- to'lov layoqati yoki qoplash koeffitsiyenti (Ktl);
- o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kat);
- korxona aktivlari va xarajatlari rentabelligi (Ra, Rx).

Yakuniy xulosani chiqarish yuzasidan shuningdek, quyidagi ko'shimcha ko'rsatkichlar o'rganiladi:

- o'z mablag'lari va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti (Ko'q);
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti (Kquv);
- asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti (Kesk).

Iqtisodiy nochorlik tahlilida asosiy jihatlar pullik majburiyatlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan kreditorlik qarzlarining mavjudligiga, korxonaning qisqa muddali majburiyatlarini joriy aktivlar

bilan to'lashga qodir emasligiga, rentabellikning quyi darajasi yoki zararga ishlash holatiga alohida ahamiyat qaratiladi.

Korxonalar moliyaviy-iqtisodiy holatini baholashning asosiy ko'rsatkichlari tavsifi:

Muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlari sifatida pullik va majburiy to'lovlar bo'yicha to'lov muddati kelib uch oydan ortiq muddat o'tgan kreditorlik majburiyatlari summasi nazarda tutiladi.

To'lov layoqati koeffitsiyenti joriy aktivlar summasining uzoq muddatli majburiyatlar summasiga kamaytirilgan jami majburiyatlarni qoplashga imkoniyatini xarakterlaydi.

Ushbu koeffitsiyent balans moddalari bo'yicha quyidagicha hisob-kitob kilinadi:

$$\mathbf{Ktl = Tmab / Tmaj}$$

Bunda:

Tmab - to'lov mablag'lari summasi;

Tmaj – to'lov majburiyatlari.

Hisob-kitobda to'lov majburiyatlari summasi uzoq muddatli majburiyatlar summasiga kamaytiriladi.

Balans qatorlari bo'yicha:

$$\mathbf{Ktl = 390satr / 770satr - (730satr + 740satr)}$$

Agar hisob-kitob qilingan ko'rsatkich darajasi 1.25 dan kichik bo'lsa, korxona to'lovga noqobil deb tan olinadi.

O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kat) aylanma aktivlarni moliyalashtirishda o'z mablag'larining mavjudligini xarakterlovchi, moliyaviy barqarorlikni, korxona egalari va qarzdorlari qiziqishini ifoda etuvchi ko'rsatkich hisoblanadi.

O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti quyidagi bog'lanish orqali hisob-kitob qilinadi:

$$\mathbf{Kat = P1 + Umm - A1 / A2}$$

Bunda:

P1 – Buxgalteriya balansi passiv tomoni 1-bo'limi jami "O'z mablag'lari manbai" summasi 480 satr

Umm – Uzoq muddatli aktivlarni olib kelishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar va qarzlar summasi 570+580 satr

A1 – Buxgalteriya balansi aktiv tomoni 1-bo'limi jami "Uzoq muddatli aktivlar" summasi 130 satr

A2 – Buxgalteriya balansi aktiv tomon 2-bo'lim jami "Joriy aktivlar" summasi 390 satr.

Buxgalteriya balansi satrlar kodi bo'yicha hisob-kitobi:

Kat = 480satr + 570satr + 580satr - 130satr / 380satr

Ushbu koeffitsiyent jami mablag'larning qay darajasi aylanma aktivlarga yo'naltirilganligini xarakterlaydi va uning nisbiy ifodasi 0.2 dan kam bo'lmasligi lozim. Agar davr oxiriga kelib ushbu ko'rsatkichning ifodasi 0.2 dan kam chiqsa, korxona o'z aylanma aktivlari bilan ta'minlanmagan deb qaror chiqariladi.

Rentabellik koeffitsiyenti korxona moliya-xo'jalik faoliyatining foydaligini yoki zarar bilan yakunlaganligini ifoda etadi.

Kra = Fstk / A * 100

Bunda:

Fstk – soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda ("Moliyaviy natijalar to'g'risidagi" hisobotning 240 satri)

A – aktivlarning o'rtacha yillik qiymati (aktivlarning o'rtacha yillik qiymat o'rtacha arifmetik va o'rtacha xronologik usulda aniqlanadi)

Krx = Fstk / X * 100

Bunda:

X – xarajatlar summasi ("Moliyaviy natijalar to'g'risidagi" hisobotning 020 satri + 040 satri + 170 satri + 230 satri)

Agar rentabellik darajasi 0 dan kichik bo'lsa, korxona zararga ishlaydigan korxona sifatida tan olinadi.

Agar daraja 0.05 bo'lsa, korxona past rentabelli deb tan olinadi.

O'z mablag'lari va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti (Ko'q) – korxonaning moliyaviy mustaqillik darajasini xarakterlovchi ko'rsatkich sifatida belgilangan.

Korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z mablag‘lari manbasi bilan qaytarishga qodirligini tavsiflovchi ushbu ko‘rsatkich quyidagicha topiladi.

Ko‘/q = P1 / P2 - Umm

Balans qatorlari bo‘yicha:

Ko‘/q = 480satr / 770satr - (730satr + 740satr)

Koeffitsientning tushishi korxonada moliyaviy tahlikalarning ortishini xarakterlaydi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini xarakterlovchi ko‘rsatkich korxonadagi iqtisodiy tahlikaviy holatlarni bilishda o‘rganiladigan qo‘shimcha ko‘rsatkich hisoblanadi.

Ushbu ko‘rsatkich quyidagi bog‘lanishlar orqali topiladi.

Kquv = Qhaq / Qloyiha – (Q ijara + Q konserv.)

Bunda:

Qhaq – hisobot davrida haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi taqqoslama bahoda;

Qloyiha – to‘liq texnologik jarayonda ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan maksimal darajadagi mahsulot hajmi summasi, taqqoslama bahoda;

Qijara – ishlab chiqarish quvvatining ijaraga berilgan qismiga tegishli mahsulot hajmi summasi, taqqoslama bahoda;

Qkonserv – ishlab chiqarish quvvatining konservatsiya qilingan qismiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi summasi, taqqoslama bahoda.

Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti (Kesk) korxona egaligi va tasarrufida bo‘lgan asosiy vositalarning texnik holatini baholovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi bog‘lanishlar orqali topiladi.

Kesk = Aeq / Abq

Bunda:

Aeq – asosiy vositalarning eskirish qiymati;

Abq – asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati.

Balans qatorlari bo‘yicha:

Kesk = 011 satr / 010 satr

Agar ushbu ko'rsatkich darajasi davr oxiriga kelib, 0.5 dan ortadigan bo'lsa, korxona asosiy vositalarining katta qismi eskirgan deb, iqtisodiy holatda esa tanglik mavjud deb qaraladi.

Korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlari

Ko'rsatkichlar	Iqtisodiy holat nobarqarorligi
Asosiy ko'rsatkichlar	
To'lov layoqati yoki qoplash koeffitsiyenti (Ktl):	Ktl - 1.25 dan kichik bo'lsa
O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kat)	Kat - 0.2 dan kam chiqsa
Korxona aktivlari va xarajatlari rentabelligi (Ra, Rx)	Ra, Rx - 0 dan past bo'lsa
Ko'shimcha ko'rsatkichlar	
O'z mablag'lari va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti (Ko'q)	Ko'/q - 1.25 dan tushib ketgan xollarda
Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti (Kquv)	Kqo'v - 0.5 dan tushib ketganda
Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti (Kesk)	Kesk - 0.5 dan oshib ketganda

Yuqoridagi manbalarga tayangan holda shuni ta'kidlash lozimki, Respublikamizda korxonalarning iqtisodiy nochorligini tahlil qilishda uch guruhdan iborat ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Birinchi guruh ko'rsatkichlar, muddati 3 oydan ortgan kreditorlik qarzlarini borligi va manfiy rentabellik darajasi;

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlarga, to'lovga qobillik, aylanma mablag'lar bilan ta'minlaganlik ko'rsatkichlari;

Uchinchi guruh ko'rsatkichlarga, aktivlar rentabelligi, xususiy va chetdan jalb qilingan mablag'lar nisbati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati, asosiy kapitalni eskirishi kabi ko'rsatkichlar kiritiladi.

12.5. Iqtisodiy nochorlik xavf-xatarlarini aniqlashda moliyaviy holat tahlili va bankrotlikni aniqlashning turli modellari

Iqtisodiy nochorlik (bankrot)likni baholashning milliy va xalqaro tajribalaridan shuni kuzatish mumkinki, iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni aniqlashning juda ko'p modellari tuzib chiqilgan va ular tarkibidan eng ommalashgan shakllarini keltirib o'tamiz.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan metodik tartib bugungi kunda dunyoning 100 dan ortiq davlatlarida keng foydalanilmoqda. Ular tarkibida eng muhimi Altman modelidir.

Altman modelining ikki va besh faktorli formulasi mavjud:

Ikki omilli Altman formulasi:

$$Z = -0.3877 — 1.073 * X_1 + 0.0579 * X_2$$

Ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

Omillar belgisi	**Omillar**	**Aniqlanish tartibi**	***MHXS bo'yicha aniqlanishi***
X1	Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Aylanma aktivlar / Qisqa muddatli majburiyatlar	*(Working Capital) /* Current liabilities
X2	Kapitallashuv koeffitsiyenti	Uzoq muddatli majburiyatlar + Qisqa muddatli majburiyatlar/Xususiy kapital	*Book value of Total Liabilities / Value of Equity*

Z<0 – iqtisodiy nochorlik ehtimoli 50 foizdan kam;

Z>0 – iqtisodiy nochorlik ehtimoli 50 foizdan yuqori;

Z=0 – iqtisodiy nochorlik ehtimoli 50 foizga teng.

Besh omilli Altman formulasi:

$$Z = 1.2 * X1 + 1.4 * X2 + 3.3 * X3 + 0.6 * X4 + X5$$

Ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

Omillar belgisi	Omillar	Aniqlanish tartibi	MHXS bo'yicha aniqlanishi
X1	Aylanma kapitalning aktivlarda salmog'i	Aylanma kapital / Aktivlar jami	(Working Capital) / Total Assets
X2	Aktivlarning rentabelligi	Sof foyda / Aktivlar jami	Retained Earnings / Total Assets
X3	Operatsion rentabellik	Operatsion foyda / Aktivlar jami	EBIT / Total Assets
X4	Aktsiyalarning bozor qiymati	Xususiy kapitalning bozor qiymati / majburiyatlar	Market value of Equity / Book value of Total Liabilities
X5	Aktivlar samaradorligi	Tushum / Aktivlar	Sales / Total Assets

Z > 2.9 – moliyaviy barqaror zona (yashil zona);

1.8<Z<2.9=0 – noaniqlik zonasi (kulrang zona).

Odatda, Altmanning formulasi yirik korxonalar uchun, xususiy korxonalar uchun, noishlab chiqarish korxonalari uchun alohida tartibda qo'llaniladi.

Iqtisodiy nochorlikni aniqlashda Altman modelining aniqlik darajasi 90-91 %ni tashkil etadi.

Iqtisodiy nochorlik ehtimoli

Ko'rsatkichlarning aniqlanishi	Hisob-kitobi
Aylanma aktivlar / Qisqa muddatli majburiyatlar	11 683 693 105 / 1 848 646 840 = 6,32
Uzoq muddatli majburiyatlar + Qisqa muddatli majburiyatlar / Xususiy kapital	12 312 891 628 / 10 124 233 076 = 1,21
Ikki omilli formula $Z_a = -0.3877 - 1.073 * 6,32 + 0.0579 * 1,21 = -0,3877 - 6,78136 + 0,070059 = -7,09901$	
Aylanma kapital / Aktivlar jami	11 683 693 105 / 24 276

	893 065 = 0,4812
Sof foyda / Aktivlar jami	974 038 284 / 24 276 893 065 = 0,0401
Operatsion foyda / Aktivlar jami	1 415 400 093 / 24 276 893 065 = 0,0583
Xususiy kapitalning bozor qiymati / Majburiyatlar	10 124 233 076 / 14 152 659 989 = 0,7153
Tushum / Aktivlar	5 180 801 340 / 24 276 893 065 = 02134
Z_a = 1.2 * X1 + 1.4 * X2 + 3.3 * X3 + 0.6 * X4 + X5 = 1.2 * 0.4812 + 1.4 * 0.0401 + 3.3 * 0.0583 + 0.6 * 0.7153 + 0.2134 = 0.5774 + 0.05614 + 0.19239 + 0.42918 + 0.2134 = 1.46851	

Zavgren modeli (AQSh).

Z_z = 0.23883 – 0.108*X1 – 1.583*X2 – 10.78*X3 + 3.074*X4 + 0.486*X5 – 4.35*X6 – 0.11*X7

P = 1/(1+e—z):

Bu yerda: R – bankrotlik ehtimoli.

Koeffitsientlar	Hisoblash formulasi	MHXS bo'yicha
X1	Zaxiralarning o'rtacha qiymati / Tushum	Average Inventories / Sales
X2	Debitorlik majburiyatlarining o'rtacha qiymati / Zaxiralarning o'rtacha qiymati	Average Receivables / Average Inventories
X3	(Pul mablag'lari + Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar) / Aktivlar	(Cash + Marketable Securities) / Total Assets
X4	Aylanma aktivlar / Qisqa muddatli majburiyatlar	Quick Assets /Current Liabilities
X5	Sof foyda / (Aktivlar– Qisqa muddatli majburiyatlar)	Income from Continuing Operations / (Total Assets - Current Liabilities)
X6	Uzoq muddatli majburiyatlar / (Aktivlar – Qisqa muddatli majburiyatlar)	Long-Term Debt / (Total Assets - Current Liabilities)
X7	Tushum / (Sof aylanma aktivlar + Oborotdan tashqari aktivlar)	Sales / (Net Working Capital + Fixed Assets)

Lis modeli. 1972 yilda angliyalik professor tomonidan ishlab chiqilgan. Uni aniqlash formulasi quyidagi ko'rishda:

$$Z_l = 0{,}063\ X1 + 0{,}092\ X + 0{,}057\ X3 + 0{,}001\ X42$$

Iqtisodiy nochorlikni aniqlashning Lis modeli

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarning aniqlanishi	Ehtimollik normasi
X1	Aylanma kapital / Jami aktivlar	Agar: Z < 0,037 – bankrotlik ehtimoli yuqori Z > 0,037 – bankrotlik ehtimoli past
X2	Operatsion foyda / Jami aktivlar	
X3	Sof foyda / Jami aktivlar	
X4	Xususiy kapital / Qarz kapitali	

Angliyalik olimlar Tafler va Tishoular tomonidan bankrotlikni aniqlashning 4-faktorli formulasi tavsiya etiladi (1977 yil).

$$Z_{tt} = 0{,}53\ X1 + 0{,}13\ X2 + 0{,}18\ X3 + 0{,}16\ X4$$

Iqtisodiy nochorlikni aniqlashning Tafler va Tishou modeli

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarning aniqlanishi	Ehtimollik normasi
X1	Operatsion foyda / qisqa muddatli majburiyatlar	Agar: Z > 0,3 – bankrotlik ehtimoli past Z < 0,2 – bankrotlik ehtimoli yuqori
X2	Aylanma aktivlar / jami majburiyatlar	
X3	Qisqa muddatli majburiyatlar / jami aktivlar	
X4	Sotishdan sof tushum / jami aktivlar	

Shuningdek, jahon amaliyotida keng doirada Olson modeli (1980 yil), Fulmer modeli (1984 yil) Springeyt modeli (1978 yil), Konan-Galder modeli (1979 yil), Biver modeli keng foydalaniladi.

Bonkrotlikni aniqlashning turli modellari va ularning qiyosiyligi

Aniqlash formulasi	Ehtimollik normasi
Olson modeli **Y=-1,3-0,4Y1+6,0Y2-1,4Y3+0,1Y4 -2,4Y5-1,8Y6+0,3Y7-1,7 Y8-0,5Y9**	
Y1 = Jami aktivlarning yalpi mahsulot indeksiga nisbati	p=11+e-y formula bo'yicha hisob-kitob qilinadi
Y2 = Jami majburiyatlar / Jami aktivlar	
Y3 = Ishchi kapital / Jami aktivlar	
Y4 = Joriy majburiyatlar / Joriy aktivlar	
Y5 = jami majburiyatlar jami aktivlardan oshsa 1 ga teng aksincha holatda 0 ga teng deb olinadi	
Y6 = Sof ofyda / jami aktivlar	
Y7 = Operatsion faoliyatdan tushum / jami majburiyatlar;	
Y8 = agar oxirgi ikki yilda foyda salbiy bo'lsa 1 ga teng, aksincha bo'lsa 0 ga teng deb olinadi	
Y9 = joriy yil foydasining o'tgan yil foydasidan farqi / modelga olingan foydaning joriy va o'tgan yillar bo'yicha summasi	
Fulmer modeli **Z=5,528A+0,212B+0,073C+1,27D-0,12E+2,335F+0,575G+1,083H+0,894I-6,075**	
A = Sof foyda / Jami aktivlar	Z < 0 holatlarda korxona iqtisodiy nochorlik holati mavjud deb qaraladi
B = Sotishdan sof tushum / Jami aktivlar	
C = Soliq to'loviga qadar foyda / xususiy kapital	
D = Pul mablag'lari qoldig'ining o'zgarishi / kreditorlik majburiyatlari	
E = Qarz kapitali / Jami aktivlar	
F = Joriy majburiyatlar/ Jami aktivlar	
G = Moddiy aylanma mablag'lar / Jami aktivlar	
H = O'z aylanma aktivlari / Kreditorlik majburiyatlari	
Springeyt modeli **Zs=1,03A+3,07B+0,66C+0,4D**	
A= O'z aylanma mablag'lari / Jami aktivlar	Z < 0,862 holatlarda iqtisodiy nochorligi yuqori deyu
B = Soliqlar va foizlar to'loviga qadar foyda / Jami aktivlar	

C = Soliya to'loviga qadar foyda / Joriy majburiyatlar	baholanadi
D = Sotishdan sof tushum / Jami aktivlar	
Konan-Golder modeli **KG=-0,16Y1+0,222Y2+0,87Y3+0,10Y4-0,24Y5**	
Y1 = Pul mablag'lari va debitorlik majburiyatlari /Balans jami	Iqtisodiy nochorlik holati KG indeksi bo'yicha belgilanadi: - (+0,048) - 90%; - (-0,026) – 70%; - (-0,068) – 50%; - (-0,107) – 30%; - (-0,164) – 10%.
Y2 = Xususiy kapital va uo'ovmuddatli majburiyatlar / Balans jami	
Y3 =Kredit va qarz foizlari summasi / Sotishdan sof tushum	
Y4 = Xodimlarga xarajatlar / soliq to'lovidan keyingi ko'shilgan qiymat	
Y5= Soliqlar va foizlar to'langunga qadaor foyda/ qarz kapitali	
Biver modeli	
Kb. = (Sof foyda + Amortizatsiya) / Qarz kapitali	Kb.>0,35 – normal; 0,17<Kb. <0,3 – nobarqaror; 0,15<Kb.<0,16 – krizis
Kt.l. = Aylanma aktivlar / Joriy majburiyatlar	Kt.l.>2 – normal; 1<Kt.l.<2 – nobarqaror; Kt.l.<1 – krizis
Ke.r. = Sof foyda / Balans jami	6-8% va undan yuqori – normal; 2-5% - nobarqaror; (-22%) dan 1 gacha – krizis
Kf.l. = Qarz kapitali / Balans jami	Kf.l.<35% - normal; 40%<Kf.l. < 60% - nobarqaror; Kf.l.>80% - krizis
Kp. = (Xususiy kapital – Oborotdan tashqari aktivlar) / Balans jami	Kp.>0,4 – normal; 0,3<Kp.<0,1 – nobarqaror; Kp.<0,1 – krizis

12.6. Bankrotlik taomillari: kuzatuv, tashqi boshqaruv, sanatsiya, tugatishning o'ziga xos xususiyatlari

Huquqiy shaxsning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda quyidagi taomillar qo'llaniladi:

Kuzatuv – sud tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash, qarzdorning moliyaviy, ahvoli tahlilini o'tkazish maqsadida qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza qabul qilingan paytdan e'tiboran keyingi taomilga qadar qo'llaniladigan taomili;

Sudgacha sanatsiya qilish – qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki uning mol-mulki egalari, kreditorlar va boshqa shaxslar tomonidan qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash hamda bankrotligining oldini olish maqsadida ko'riladigan chora-tadbirlar;

Sudgacha sanatsiya qilish bankrotlik alomatlari yuzaga kelgan taqdirda, qarzdorning rahbari bu haqda qarzdorning muassislariga (ishtirokchilariga), boshqaruv organlariga yoki qarzdorning mol-mulki egasiga yozma shaklda xabar qilishi shart.

Sud sanatsiyasi – sud tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to'lov qobiliyatini tiklash hamda kreditorlar oldidagi qarzini uzish maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o'tkazmagan holda qo'llaniladigan taomil;

Sud sanatsiyasi ko'pi bilan yigirma to'rt oylik muddatga joriy etiladi, bu muddat majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergan shaxslar kreditorlarning talablarini qondirishi uchun sud tomonidan ko'pi bilan olti oyga uzaytirilishi mumkin.

Kelishuv bitimi – taraflarning sud nizosini o'zaro yon berish asosida tugatish to'g'risidagi bitimi.

Tashqi boshqaruv – sud tomonidan bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish chog'ida tayinlanadigan hamda qarzdorning mol-mulkini boshqarish vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o'tkazgan holda qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash maqsadida qo'llaniladigan bankrotlik taomilidir. Sodda qilib aytiladigan bo'lsa, nochor ahvolga

tushgan qarzdorning rahbari o'rniga shu sohani yaxshi biladigan, iqtisodni, boshqaruv sirlarini chuqur o'zlashtirgan boshqa kishi muayyan muddatga sud tomonidan rahbar qilib (tashqi boshqaruvchi) tayinlanadi.

Tashqi boshqaruv joriy etilgan paytdan boshlab, qarzdorning rahbari o'z vazifasidan chetlashtiriladi va uning vakolatlari tashqi boshqaruvchiga o'tadi. Qarzdorning majburiyatlari bo'yicha kreditorlarning talablariga, shuningdek penyalarga nisbatan ham moratoriy joriy etiladi (muzlatiladi).

Tashqi boshqaruvchining nomzodini sudga kreditor, qarzdor, mulkdor, vakolatli davlat organi taklif etishi mumkin. Ammo bu nomzodlarni kreditorlar yig'ilishi ko'rib chiqadi va ko'p ovoz olgan nomzodni (bir nechta bo'lsa) ma'qullashib, so'ngra ushbu nomzodni tayinlash uchun sudga berishadi.

Tashqi boshqaruvchining nomzodi kreditor, qarzdor, mulkdor, vakolatli davlat organi tomonidan taqdim etilmasa, sud Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi taklif etgan nomzodni tayinlaydi. Tashqi boshqaruvchi sud tomonidan tashqi boshqaruvni joriy etish bilan bir paytda tayinlanadi va bu haqda ajrim chiqariladi.

Tashqi boshqaruv, o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha muddatga joriy etiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda quyidagi taomillar qo'llaniladi:

- kelishuv bitimi;
- tugatishga doir ish yuritish.

Amalda bankrot deb e'lon qilingan korxonalarga nisbatan bir nechta tadbirlar rejasi belgilanadi;

- sanatsiyalash (moliyaviy yordam ko'rsatish);
- faoliyat yo'nalishini o'zgartirish;
- diversifikatsiya (bir emas bir necha nomenklaturada mahsulot ishlab chiqarishga o'tish);
- ixtiyoriy tugatish;
- majburiy tugatish.

Ataylab qilingan va soxta bankrotlik holatlarida bankrotlik to‘g‘risidagi Qonun hujjatlariga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari noqonuniy harakatlari uchun javobgarlikka tortiladilar.

Bunday g‘ayri qonuniy harakatlarga qarzdor mol-mulkining yoki majburiyatlarining bir qismini yoki hammasini yashirish, qarzdorning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq hujjatlarni yashirish yoki yo‘q qilish, ularni soxtalashtirish, mansabdor shaxslarning yoki qarzdor mulkdorining shaxsiy manfaatlarini, yoxud uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligini oshirish, kreditorga zarar yetkazish maqsadini ko‘zlagan holda boshqa har qanday usul bilan qasddan bankrotlikka olib kelish va hokazo.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 180 va 181-moddalariga ko‘ra, soxta bankrotlik hamda bankrotlikni yashirganlik uchun jinoiy javobgarliklarni ko‘zda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq kreditorlarning pul mablag‘lari bo‘yicha talablarini to‘la hajmda qondirishga, shu jumladan soliqlar, yig‘imlar, byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashga qodir bo‘lmagan korxonalar bankrot (iqtisodiy jihatdan nochor) deb hisoblanadi. Bunda bankrotlikni sud e’tirof etgan va qarzdorning o‘zi ixtiyoriy ravishda o‘zini tugatish chog‘ida e’lon qilgan bo‘lishi kerak. Sud qarzdor, kreditor va prokuror taqdim etgan bankrotlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqadi. Sud bankrotlikni e’tirof etgandan keyin ishonchli (vakolatli) shaxs tugatish komissiyasining kuzatuvi ostida korxonani tugatish, shu jumladan, qarzlarni uzish bo‘yicha zarur harakatlarni amalga oshiradi.

Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona bankrotligining o‘ziga xos xususiyatlari. Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona bankrotligi to‘g‘risidagi ish, agar qarzdor kreditorlarning pul majburiyatlari bo‘yicha talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir bo‘lmasa, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha tegishli majburiyat mazkur

majburiyatlar va (yoki) to'lovlar bo'yicha mazkur majburiyat boshlangan kundan e'tiboran olti oy ichida bajarilmagan bo'lsa, basharti qarzdorga nisbatan bildirilayotgan talablar eng kam ish haqining kamida besh ming karrasi miqdorini tashkil etsa, iqtisodiy sud tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi va (yoki) tegishli vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, xo'jalik boshqaruvi organi ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida e'tirof etiladi.

Shaharni tashkil etuvchi korxonaning hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi iqtisodiy sud tomonidan kreditorlar yig'ilishining qarori asosida, bunday qaror bo'lmasa, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organining yoki vazirlik, davlat qo'mitasi, idoraning va xo'jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga binoan, ular qarzdorning majburiyatlari yuzasidan ta'minot bergan taqdirda, joriy etilishi mumkin.

Tashqi boshqaruv rejasi shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona tomonidan mazkur rejani kreditorlar yig'ilishiga taqdim etishdan oldin mahalliy davlat hokimiyati organi bilan, davlat mudofaa buyurtmasini amalga oshiruvchi korxonalar bo'yicha esa vazirlik, davlat qo'mitasi, idora va xo'jalik boshqaruvi organi bilan kelishib olingan bo'lishi kerak.

Tegishincha mahalliy davlat hokimiyati organining hamda vazirlik, davlat qo'mitasi, idoraning, xo'jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga binoan ular tomonidan qarzdorning majburiyatlarni bajarishi ta'minoti ta'minlangan taqdirda, shu jumladan davlat kafolatlarini berish yo'li bilan ta'minlanganda, iqtisodiy sud qarzdorning sud sanatsiyasiga o'tishi to'g'risida, agar ilgari bunday taomil qarzdorga nisbatan qo'llanilgan bo'lmasa, qaror qabul qilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi korxonaning hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi mahalliy davlat hokimiyati organining

iltimosnomasi bo'lgan taqdirda iqtisodiy sud tomonidan uzog'i bilan bir yil muhlatga uzaytirilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona faoliyatiga investitsiya kiritish, xodimlarni ishga joylashtirish, yangi ish joylarini yaratish yo'li bilan hamda qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashning boshqa usullari bilan korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash rejasi tashqi boshqaruvni ushbu moddaning nazarda tutilgan muddatdan ko'proq muhlatga uzaytirish uchun asos bo'ladi.

Tegishincha mahalliy davlat hokimiyati organining, vazirlik, davlat qo'mitasi, idoraning hamda xo'jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga binoan qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to'lovlari yuzasidan kafillik berish sharti bilan shaharni tashkil etuvchi korxonaning hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruv muddati besh yilgacha uzaytirilishi mumkin. Bunday hollarda qarzdor va uning kafili kreditorlar bilan hisob-kitob qilishga ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlardan kechikmay kirishishi shart.

Shaharni tashkil etuvchi qarzdor korxona hamda unga tenglashtirilgan qarzdor korxona tashqi boshqaruv chog'ida kreditorlarning talablarini qondirish maqsadida mulkiy majmua sifatida sotilishi mumkin. Shaharni tashkil etuvchi korxonani hamda unga tenglashtirilgan korxonani sotish tanlov yoki auktsion o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Shaharni tashkil etuvchi korxonani tanlovda sotishning majburiy shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- shaharni tashkil etuvchi korxona sotilayotgan paytda unda ishlab turgan xodimlarning kamida etmish foizi uchun ish joylarini saqlab qolish;

- shaharni tashkil etuvchi korxonaning faoliyat sohasi o'zgartirilgan taqdirda mazkur xodimlarni qayta o'qitish yoki ishga joylashtirish borasida xaridorning majburiyatlari.

Davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta'minlovchi korxonani tanlovda sotishning majburiy shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta'minlovchi korxona mulkiy majmuasining hamda safarbarlik maqsadidagi mol-mulkning belgilangan maqsadi saqlab qolinishini ta'minlash;

- qarzdorning davlat mudofaasiga oid buyurtmalar, davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi sohasidagi ehtiyojlarini ta'minlashga doir ishlarni amalga oshirish bilan bog'liq shartnomalarni bajarish.

Tabiiy monopoliyalarning subyekti bo'lgan korxonani tanlovda sotishning majburiy shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlarining tartibga solish predmeti bo'lgan tovarlar yetkazib berish shartnomalari bo'yicha qarzdorning majburiyatlarini sotib oluvchi o'z zimmasiga olishga roziligi, ishlab chiqarilayotgan va (yoki) realizatsiya qilinayotgan tovarlardan (ishlardan, xizmatlardan) iste'molchilarning erkin foydalana olishi ta'minlanganligi;

- agar qarzdorning faoliyati litsenziyalanishi lozim bo'lsa, tegishli faoliyat turini amalga oshirish uchun xaridorda litsenziya bo'lishi.

Agar shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona tanlov shartlarida sotilmagan bo'lsa, korxona auktsionda sotiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari bankrotligining o'ziga xos xususiyatlari. Qishloq xo'jaligi korxonalarining bankrotligi to'g'risida ish qo'zg'atilgunga qadar ularga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudgacha sanatsiya qilish qo'llanilishi mumkin.

Sudgacha sanatsiya qilish muddati mobaynida tabiiy ofatlar va boshqa fors-major holatlar tufayli qishloq xo'jaligi korxonasining ishlab chiqarishida pasayish va moliyaviy ahvolida yomonlashish sodir bo'lgan bo'lsa, sudgacha sanatsiya qilish muddati o'n ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi korxonasining bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganida mahalliy davlat hokimiyati organlari ham ishda ishtirok etuvchi shaxslar bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi korxonasida kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv etishtirilgan tovar qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilish uchun zarur vaqtni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi ishlarining tegishli davri tugagunga qadar bo'lgan muddatga joriy etiladi. Bunda kuzatuv taomili muddati uch oydan, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv taomillari muddati belgilangan muhlatdan oshib ketmasligi lozim.

Sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv muddati mobaynida tabiiy ofatlar va boshqa fors-major holatlar tufayli qishloq xo'jaligi korxonasining ishlab chiqarishida pasayish va moliyaviy ahvolida yomonlashish sodir bo'lgan bo'lsa, sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv muddati o'n ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

Fermer xo'jaliklariga va yuridik shaxsni tashkil etgan holdagi dehqon xo'jaliklariga nisbatan tashqi boshqaruv taomili joriy etilmaydi.

Qarzdorning mol-mulkini sotishda (undan o'zganing foydasiga voz kechishda) sud boshqaruvchisi yoki qarzdorning rahbari qishloq xo'jaligi korxonasini dastlabki kimoshdi savdosida sotishga mulkiy majmua sifatida qo'ymog'i lozim.

Qarzdorning mol-mulkini sotib olishda imtiyozli huquqqa, shuningdek, erga egalik qilish huquqiga qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirish bilan shug'ullanayotgan va qarzdorning er uchastkasiga bevosita tutash er uchastkasiga egalik qiluvchi shaxslar ega bo'ladilar. Sud boshqaruvchisi yoki qarzdorning rahbari mazkur mol-mulkni, shuningdek mulkiy huquqlarni sotishda (ulardan o'zganing foydasiga voz kechishda) mazkur mol-mulk va mulkiy huquqlar qiymatini baholashdan o'tkazishni tashkil etishi hamda shaxslarga mol-mulkni baholangan qiymatida taklif etishi shart.

Qishloq xo'jaligi korxonasi bankrotlik oqibatida tugatilgan taqdirda mazkur korxonaga berilgan er uchastkalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa shaxsga berilishi yoki o'zga shaxsga o'tishi mumkin.

Bankning bankrotligining o'ziga xos xususiyatlari. Bankni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun iqtisodiy sud bank

operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya faqat O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qaytarib olinganidan keyin qabul qiladi.

Qarzdor bank kreditorlarning talablarini qondirishga qodir bo'lmagan taqdirda yuzaga keladigan munosabatlar hamda banklarning bankrotligi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tarzda tartibga solinadi.

Bankka tashqi boshqaruv joriy etilmaydi.

Sug'urtalovchining bankrotligi. Sug'urtalovchining bankrotligi to'g'risidagi ishda, vounda nazarda tutilganlardan tashqari, sug'urta faoliyatini tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi ham ishtirok etuvchi shaxs deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchining mulkiy majmuasini sotish tashqi boshqaruv jarayonida oshirilishi mumkin. Faqat sug'urtalovchining o'zi sug'urtalovchining mulkiy majmuasini sotib oluvchi bo'lishi mumkin.

Sug'urtalovchining mulkiy majmuasi tashqi boshqaruv jarayonida sotilgan taqdirda sug'urtalovchining mulkiy majmuasi sotilayotgan sanadagi sug'urta hodisasi yuzaga kelmagan sug'urta shartnomalari bo'yicha barcha huquq va majburiyatlar majmuani sotib olgan shaxsga o'tadi.

Tugatishga doir ish yuritish o'tkazilayotganida sug'urtalovchining mulkiy majmuasi sotib oluvchi faqat sug'urtalovchi bankrot deb topilgan sanaga qadar sug'urta hodisasi yuzaga kelmagan sug'urta shartnomalarini o'z zimmasiga olishga rozi bo'lganda sotilishi mumkin.

Bankni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun iqtisodiy sud bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya faqat O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qaytarib olinganidan keyin qabul qiladi.

Iqtisodiy sud sug'urtalovchini bankrot deb topgan taqdirda kreditorlarning talablari quyidagi tartibda qondiriladi:

- birinchi navbatda sug'urta qildiruvchilarning hayotni sug'urta qilish sohasidagi majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha talablari;

- ikkinchi navbatda sug'urta qildiruvchilarning boshqa majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha talablari;

- uchinchi navbatda boshqa sug'urta qildiruvchilarning (naf oluvchilarning) talablari;

- to'rtinchi navbatda majburiy to'lovlarni nazarda tutuvchi to'lov (ijro) hujjatlari bo'yicha talablar. Mazkur talablar to'la qondirilganidan keyin ijtimoiy sug'urta bo'yicha talablar va jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik oqibatida fuqarolarning mol-mulkiga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash bo'yicha talablari qondiriladi;

- beshinchi navbatda sug'urtalovchining boshqa kreditorlari talablari.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari bankrotligining o'ziga xos xususiyatlari. Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining bankrotligi qonunda ko'zda tutilgan tutilgan shaxslardan tashqari, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi ham ishtirok etuvchi shaxs deb hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining bankrotligi taomillarining ushbu Qonun bilan tartibga solinmagan o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlari qonunda belgilab qo'yilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari bankrotligining oldini olish va ularning to'lov qobiliyatini tiklashning sudgacha taomillarini o'tkazish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Kuzatuv joriy etilgan paytdan e'tiboran muvaqqat boshqaruvchi o'zi tayinlangan paytdan boshlab o'n kunlik muddat ichida o'zlariga qarashli qimmatli qog'ozlarni qimmatli qog'ozlar bozorining qarzdor professional ishtirokchisiga boshqaruvga topshirgan qimmatli qog'ozlar bozorining investorlariga bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilganligi va muvaqqat boshqaruvchi o'z huquqini amalga oshira boshlaganligi haqida xabarnoma yuborishi shart. Mijozlarning qimmatli qog'ozlar

bozori professional ishtirokchisining tasarrufida bo'lgan qimmatli qog'ozlari va boshqa mol-mulki tugatish massasiga kiritilmaydi.

Tashqi boshqaruv yoki tugatishga doir ish yuritish joriy etilgan paytdan e'tiboran mijozlarning qolgan qimmatli qog'ozlari, agar tashqi boshqaruvchining yoki tugatish boshqaruvchisining mijozlar bilan kelishuvida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, mijozlarga qaytarilishi lozim.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining tashqi boshqaruvi chog'ida tashqi boshqaruvchi o'ziga mijozlar tomonidan boshqaruvga topshirilgan qimmatli qog'ozlarni mijozlarning roziligi bilan va ularning nomidan qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisiga topshirishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkor yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxs bankrotligining tartibga solinishi. Yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsning bankrotligi bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza iqtisodiy sudga qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxs, kreditor, prokuror, shuningdek davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar tomonidan berilishi mumkin.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsni bankrot deb topish to'g'risida ariza berish huquqiga kreditorlar ham ega, hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi, alimentlarni undirish to'g'risidagi talablar, shuningdek shaxsiy xususiyatdagi boshqa talablar qo'yadigan kreditorlar bundan mustasno.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsni bankrot deb topish taomili amalga oshirilayotganda hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi, alimentlarni undirish to'g'risidagi

talablarni, shuningdek shaxsiy xususiyatdagi boshqa talablarni qo'yadigan kreditorlar o'z talablarini taqdim etishga haqli. Mazkur kreditorlarning talablari, agar ular bankrotlik taomili qo'llanilayotganda bildirilmagan bo'lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsning bankrotligi taomili tugaganidan keyin ham o'z kuchini saqlab qoladi.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsning bankrot deb topish to'g'risidagi arizasiga qarzlarni uzish rejasi ilova qilinishi mumkin, rejaning nusxalari kreditorlarga va bankrotlik to'g'risidagi ishda

Kreditorlarning e'tirozi bo'lmasa, iqtisodiy sud qarzlarni uzish rejasini tasdiqlashi mumkin, bu esa bankrotlik to'g'risidagi ish yuritilishini uzog'i bilan ikki oygacha muddatga to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Qarzlarni uzish rejasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

rejani amalga oshirish muddati;

qarzdor yoki uning oila a'zolari iste'moli uchun har oyda qoldiriladigan summa miqdori;

kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun har oyda yuborish mo'ljallanayotgan summa miqdori.

Iqtisodiy sud bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarning asoslantirilgan iltimosnomasiga binoan qarzlarni uzish rejasini o'zgartirishga, shu jumladan uni amalga oshirish muddatini uzaytirishga yoki qisqartirishga, qarzdor yoki uning oila a'zolari iste'moli uchun har oyda qoldiriladigan summa miqdorini ko'paytirishga yoki kamaytirishga haqli.

Agar qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxs qarzlarni uzish rejasini bajarganligi natijasida kreditorlarning talablari to'la hajmda qanoatlantirilgan bo'lsa, bankrotlik to'g'risidagi ish yuritish tugatilishi kerak.

Iqtisodiy sudning qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsni bankrot deb

topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarori hamda undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish to‘g‘risidagi ijro varaqasi qarzdorning mol-mulki sotilishini amalga oshirish uchun davlat ijrochisiga yuboriladi. Quyidagilarning mol-mulki, bundan ushbu Qonunga muvofiq tugatish massasiga kirmaydigan mol-mulk mustasno, sotilishi kerak:

qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning barcha mol-mulki;

qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsning avvalgi tadbirkorlik faoliyatidan olingan mol-mulk. Bunda mol-mulkning, jismoniy shaxsning avvalgi tadbirkorlik faoliyati davrida olingan mol-mulkka kirishi-kirmasligi iqtisodiy sud tomonidan belgilanadi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning bankrotligi. Agar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi va (yoki) o‘z ustav fondini shakllantirmaganligi munosabati bilan tugatilishi to‘g‘risida qaror qabul qilingan yuridik shaxsning mol-mulki qiymati kreditorlarning talablarini qondirish uchun etarli bo‘lmasa, bunday yuridik shaxs Qonunda nazarda tutilgan tartibda tugatiladi.

Iqtisodiy sud tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilib, tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning bankrotligida kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv taomillari qo‘llanilmaydi.

Kreditorlar tugatilayotgan yuridik shaxsga bo‘lgan o‘z talablarini tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish to‘g‘risidagi e’lon chiqarilgan paytdan e’tiboran bir oylik muddat ichida unga taqdim etishga haqli.

12.7. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni oldini olish chora-tadbirlari

Iqtisodiy nochorlik bizning qonunchiligimizga, respublikamizda bozor munosabatlari rivojlana borib, erkin raqobatga tobora keng yo‘l

ochilgan, tadbirkorlarning nochor ahvolga tushib qolishi bilan bog'liq munosabatlar yuzaga kela boshlagan paytdan boshlab, ya'ni, iqtisodiy nchorlik holatining vujudga kelishini huquqiy jihatdan tartibga solishning zaruriyatning ortishi bilan yangi huquqiy institut sifatida kirib keldi.

Xorijiy davlatlarda bankrotlik instituti katta muammoli masala sifatida tan olinadi. Ularda bu mavzu bir necha yuz yillar davomida o'rganib kelinmoqda. Jumladan, ularda bankrotlik bilan bog'liq munosabatlar ilk bora XVI asrning o'rtalarida qonun normalari bilan tartibga solina boshlanganligini alohida qayd etish lozim. Ammo, bu normalar ko'proq jinoiy-huquqiy tusda bo'lgan. Ya'ni, korxonani bankrotlik holatiga tushirganlik uchun aksariyat hollarda jinoiy javobgarlik belgilangan. Bankrotlikning kelib chiqish sabablari chuqur o'rganilgan holda u bilan bog'liq munosabatlar har doim ham jinoiy tusda bo'lmasligi, ko'pincha fuqarolik, moddiy-huquqiy munosabatlarga yaqin bo'lganligi sababli keyinchalik bankrotlik bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalarning aksariyat qismi fuqarolik-huquqiy normalarni tashkil qila boshlagan.

Aksariyat xorijiy davlatlarning qonunchiligiga ko'ra, kreditorlik qarz majburiyatini bajarish muddati boshlangan kunning ertasidan boshlab, korxonani bankrot deb e'tirof etish mumkin. Ya'ni, korxonaning mol-mulki qiymatidan uning qarz majburiyatlari qiymati oshgan bo'lishi yoki kreditorlarning talablari ma'lum vaqt mobaynida ijro etilmayotgan bo'lishi ularning qonunchiligida talab qilinmaydi. Ammo shu bilan birga ularda bankrot deb e'tirof etilishi uchun korxonaning kreditorlik qarzining eng oz qiymati belgilab qo'yilgan. Masalan, AQShda 5 ming dollar, Angliyada 750 funt sterling, Rossiyada eng kam oylik ish haqining 500 (jismoniy shaxslar uchun 100) baravari miqdorida va h. k.

Bankrotlik to'g'risidagi chet el tajribalarini tahlili shuni ko'rsatadiki, bankrotlik to'g'risidagi qonunlar asosan ikki yo'nalishga yoki modelga ega.

Birinchisi, Buyuk Britaniya modeli bo'lib, bunda bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik bankrotga uchragan korxonaga berilgan qarzlarni egasiga qaytarib berilishini ta'minlashga qaratilgan. Masalaning bunday tarzda qo'yilishi asosan korxonani tugatish asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchi model esa Amerika modeli bo'lib, bunda qonunchilik bankrotga uchragan korxonani turli chora-tadbirlar yordamida to'lov layoqatini tiklab, xo'jalik faoliyatini davom ettirishiga qaratilgan.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida ham Bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik ana shu ikki model asosida rivojlanib, takomillashib bormoqda.

Bankrotlikka oid qonunchilik jahon miqyosida 2 xil yo'nalishda rivojlanib bormoqda.

Birinchi yo'nalishning mohiyati shundan iboratki (Angliya, Germaniya va boshqa davlatlarda), bunda bankrotlikka oid qonunchilikning mohiyati asosan nochor ahvolga tushgan korxonani tezroq tugatib (bankrot qilib), uning kreditorlari qarzini qaytarishga qaratilgan bo'ladi.

Qonunchilikdagi ikkinchi yo'nalish bo'yicha (AQSh, Frantsiya va boshqa davlatlarda) rivojlanayotgan davlatlardagi bankrotlikka oid huquq normalarida nochor ahvolga tushgan korxonani imkon qadar saqlab qolib, uni nochor ahvoldan chiqarishga ko'proq e'tibor beriladi.

Respublikamizning 1994 yilda qabul qilingan «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunida yuqoridagi, ikki yo'nalishni birlashtirishga qaratilgan huquqiy normalar aks etgan edi. Ammo keyinchalik qabul qilingan qonunlar va qonun osti hujjatlarining mazmuniga e'tibor berilsa, bizda ham bu sohadagi qonunchilikda ikkinchi yo'nalishning xususiyatlari ko'proq namoyon bo'la boshladi, ya'ni, ularda qarzdorni nochor ahvoldan chiqarishga yondashuvlarga ustunlik berilishi seziladi.

Qonunchiligimizning bu yo'nalish bo'yicha rivojlanishi iqtisodiy jihatdan o'rinlidir. Xuddi shu jihatlarni agrar sektorda xo'jalik subyektlarini iqtisodiy nochorlik batqog'idan qo'tqarishda qo'llanilgan chora tadbirlarda ham ko'rish mumkin. Shu sababli, Respublikamizda

"Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, amaldagi «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunda aynan qishloq xo'jaligi korxonalariga oid maxsus huquqiy normalarning kiritilganligi ham bejiz emas. Chunki bu Qonunlarda iqtisodiy nochorlikka yuz to'tgan qishloq xo'jalik korxonalarini bankrot deb e'tirof etish xususiyatlari bilan birga bunday korxonalarning iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning chora-tadbirlari ham aniq belgilab berilgan.

Korxonalar faoliyatining iqtisodiy nochorligini o'rganishda baholanuvchi indiqatorlar MDH mamlakatlarida quyidagilar tarkiblanadi.

Moliyaviy inqirozlarni xavf xatarini aniqlash indikatorlari

Moliyaviy inqirozlarni kuzatish obyektlari	**Indikator ko'rsatkichlari**	
	Umumiy ko'rsatkichlar	**Tarkibiy ko'rsatkichlar**
Korxonaning sof pul oqimi	1. Korxona bo'yicha jami sof pul oqimi 2 .Operatsion faoliyat bo'yicha sof pul oqimi	1. Sof Pul oqimini etarliligi koeffitsiyenti 2. Pul oqimini likvidlik koeffitsiyenti 3. Pul oqimini samaradorlik koeffitsiyenti 4. Sof pul oqimini reinvestitsiya koeffitsiyenti
Korxonaning bozor qiymati	Korxona sof aktivlarining bozor qiymati bo'yicha summasi	1. Korxonaning bozor qiymati 2. Foydaning kapitallashuvi koeffitsiyenti bo'yicha korxona qiymati
Korxona kapitali tuzilishi	1. Xususiy kapital summasi 2. Qarzga olingan kapital summasi	1. Mustaqillik koeffitsiyenti 2. Kapitallashuv koeffitsiyenti 3. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti

Korxona moliyaviy majburiyatlari tarkibi	1. Uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlar summasi 2. Qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlar summasi 3. Moliyaviy kreditlar summasi 4. Tovar (tijorat) krediti summasi 5. Hisob-kitoblar bo'yicha joriy majburiyatlar summasi	1. Korxonaning uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlari nisbati koeffitsiyenti 2. Jalb qilingan moliyaviy va tovar kreditlari nisbati koeffitsiyenti 3. Kechiktirib bo'lmaydigan xarajatlarning jami majburiyatlardagi salmog'i koeffitsiyenti 4. Kreditorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsiyenti, davri
Korxona aktivlari tarkibi	1. Oborotdan tashqari aktivlar (uzoq muddatli aktivlar) summasi 2.Oborot aktivlar summasi 3.Joriy debitorlik majburiyatlari summasi 4.Pullik aktivlar summasi	1. Yuqori likvidlikka ega mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti 2. Real pullik aktivlar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti 3. Joriy likvidlik koeffitsiyenti 4. Kritik baholash koeffitsiyenti 5. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti 6. Oboorot aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i koeffitsiyenti 7. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari nisbati koeffitsiyenti 8. Debitorlik majburiyatlari aylanish davriyligi 9. Moliyaviy jarayonning davriyligi
Joriy xarajatlar tarkibi	1.Joriy xarajatlarning jami summasi 2. Doimiy joriy xarajatlar summasi	1. Joriy xarajatlar darajasmi 2. Doimiy xarajatlar darajasi 3. Operatsion richag koeffitsiyenti
Moliyaviy operatsiyalarnning nochorlik zonasi bo'yicha kontsentratsiya darajasi	1.Umumiy havf xatar	1. Kritik xavf-xatar koeffitsiyenti 2. Halokatli xavf-xatar koeffitsiyenti

Bankrotlikka qarshi ko'riladigan asosiy chora-tadbirlar:

- Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati ularda investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha qulay sharoitlarni yaratish;
- Majburiyatlarning (joriy va uzoq muddatli) oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik va ularni doimiy nazoratini yo'lga qo'yish;
- Xo'jalik yurituvchi subyektning to'lov layoqatini ta'minlash yuzasidan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining muddatini o'tkazib yubormaslik;
- Xo'jalik yurituvchi subyektlarning aylanma mablag'larini ko'paytirish;
- Xo'jalik subyektining foydasini rentabelligini oshirish;
- Aktivlarni qayta baholash, haqqoniy baholash, ularning optimal tarkibini shakllantirish choralarini ko'rish;
- Moliyaviy salohiyatda o'z mablag'lari hissasini oshirish choralarini ko'rish;
- Boshqaruvning sifat menejmentini yo'lga qo'yish;
- Kadrlar masalasiga muhim e'tibor qaratish va h.k.

12.8. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Iqtisodiyot real sektor korxonalarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, ularni boshqaruvining takomillashtirish iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xo'jalik subyektlarini moliyaviy sog'lomlashtirish, ularning moliyaviy holatini yaxshilashga qaratilgan qator chora-tadbirlar ko'rishni talab etadi. Buning muhim yechimiga kelishda ichki imkoniyatlarni ishga solish doimo ham kutgan natijalarni bermasligi va bu jarayon uzoq davom etishini hisobga oladigan bo'lsak asosiy manba sifatida tashqi manbalarga tayanishga, ularni ishga solishning puxta o'ylangan strategiyasi va taktik rejasini belgilashni, loyihalarni chuqur tahliliy asoslashni talab etmoqda. Shu bilan birgalikda, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash yoki texnik texnologik qayta

rivojlantirish afsuski barchada bir xilda kechadigan, yechim topadigan jarayon emas.

Korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish ishlarida Davlat raqobat Qo'mitasi tomonidan joylardagi mahalliy hokimliklar, tijorat banklari bilan birgalikda kam quvvat bilan ishlayotgan korxonalarni ish hajmini o'stirish, bo'sh turgan obyektlar negizida yangi faoliyat turlarini yo'lga qo'yish shaklida amalga oshirish va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligiga muhim ahamiyat qaratish lozim. Quvvatlardan foydalanish darajasini oshirish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni belgilashda ham shunday yo'l tutish lozimki, bunda birinchi navbatda yangi, innovatsion, raqobatdosh mahsulotlarni yaratishga va ularni keyinchalik xorijga sotish ishlarini yo'lga qo'yishni maqsad qilgan, tashqi iqtisodiy faoliyatga yo'naltirilgan iqtisodni yo'lga qo'yishga muhim ahamiyat berish zarur.

Amalga oshirilayotgan moliyalashtirishlar avvalo, tijorat banklarining resurslari hissasiga to'g'ri keladi. Shu sababli ham loyihalar samaradorligini baholash va uni oqlanishini baholash yuzasidan qator banklar qoshida maxsus guruhlar ish faoliyati yo'lga qo'yilgan.

«NBU Investment», «NBU Invest Group», «Asaka Investments», «Agroinvest Recovery» va «PSB Industrial Investments» guruhlari shular jumlasidandir.

Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy nochor korxonalar negizida yangidan tashkil etilgan korxonalar ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 3 yilgacha qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulk solig'i, er solig'i, daromad solig'i va yagona soliqdan ozod etilganligi, ushbu soliq imtiyozlarining yangi mulkdorlarga ham 3 yilgacha amal qilinishi tartiblari belgilangan.

Shuningdek, ular 2019 yil 1 apreliga qadar ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va kengaytirish uchun olib kelinadigan xomashyo, material va butlovchi qismlar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlaridan tashqari) ozod qilindi.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda har yili 5-10 foiz korxona iqtisodiy nochor deb tan olinib, ularning ish faoliyati to'xtatiladi. Lekin

O‘zbekiston amaliyoti bu daraja nihoyatda kam. Bankrot deb tan olingan korxonalar soni jami korxonalar sonining 1 foizini ham tashkil etmaydi. Shunday ekan bu bilan nega bunchalik chuqur qayg‘urishimiz zarur. Bu yechimi juda sodda. Agar bitta korxona iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli yopiladigan bo‘lsa, undan faqat shu korxona mulkdorlarigina emas, balki butun jamoa va butun jamiyat ziyon ko‘radi. O‘zi, shunday ham ish bilan bandlik va mahsulot ishlab chiqarish hajmini o‘sishi muammo bo‘lib turgan bir paytda yangilar qatorini hisobdan chiqarilgan eskilar bilan to‘ldirishdan hech kimga naf bermaydi. Shu sababli birinchi navbatda iqtisodiy tanglikka tushgan korxonalarni birinchi navbatda qo‘llab quvvatlash chora-tadbirlarini ko‘rish lozim.

Iqtisodiy, moliyaviy tanglikni yuzaga keltirayotgan sabablarni aniq o‘rganib chiqsak, ularning muhimlarini belgilasak, korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirishning aniq chora-tadbirlarini ko‘rish mumkin.

To‘lovga qodir bo‘lmagan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bankrotlik mexanizmini shakllantirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim shartidir. Ushbu mexanizm yordamida ayrim samarasiz faoliyatlarni to‘xtatish, noqobil xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tugatish, ijtimoiy jihatdan muhim va daromad keltiradigan korxonalarni saqlab qolish, mulkchilik munosabatlari barqarorligini ta’minlash, ish bilan bandlikni kafolatlash singari hayotiy muhim tadbirlar amalga oshiriladi.

Bankrotlik taomilini qo‘llashdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad muayyan korxonani inqirozdan moddiy va moliyaviy sog‘lomlashtirish yo‘liga o‘tkazish va bu jarayonni imkon qadar tez va mukammal amalga oshirish ekanligini yuqorida eslatdik. Ammo alohida muhim hisoblangan boshqa bir dolzarb masala ham borki, aslida bankrotlikning joriy etilishiga aynan shu holat sababchi va undan kelib chiquvchi vazifa dastavval ana shu salbiy vaziyatni bartaraf qilishdan iborat. Gap qarzdorlikni tugatish, kreditorlar talabini qondirish haqida ketmoqda.

Moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar ijobiy natijalar bermaydigan korxonalarni «nolga teng qiymat» bo‘yicha xususiy tadbirkorlarga sotilishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprelda PF-5022-sonli “Iqtisodiy korxonalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kengaytirish hamda tijorat banklarining ko‘chmas mulk obyektlari negizida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon qabul qilindi.

Mazkur Farmon bilan tijorat banklari ular tomonidan avval taqdim qilingan kreditlarning qaytarilmasligi natijasida mulk sifatida qabul qilingan ko‘chmas mulk obyektlari negizida bank va uning boshqaruv korxonalarining ishtirok ulushi 100 foizgacha bo‘lgan yangi korxonalar tashkil etish huquqi berildi.

2017 yilning 1 iyulidan boshlab bankrot korxonalarni tijorat banklariga sotish tanlov savdolarida amalga oshirilishi, bunda tijorat banklari o‘rtasida kim oshdi savdolari o‘tkazilmasligi belgilangandi.

Banklar iqtisodiy nochor, zarar ko‘rib ishlayotgan va past rentabelli korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi va ular bo‘yicha xulosalarni xukumat komissiyasiga kiritishi lozim.

Xukumat komissiyasining asosiy vazifalari hamda vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy nochor, zarar ko‘rib ishlayotgan va past rentabelli korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

- bankrot korxonalarning mulklari hamda avval taqdim qilingan kreditlarning qaytarilmasligi natijasida tijorat banklari mulkiga qabul qilingan ko‘chmas mulk obyektlari negizida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining “yo‘l xaritalari” va tarmoq jadvallarini tasdiqlash;

- konkurs savdolari orqali tijorat banklariga sotilishi belgilangan bankrot korxonalar ro‘yxatini aniqlash;

- tijorat banklari tomonidan korxonani qayta tiklash, modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishni ta’minlash majburiyatini qabul qilish sharti bilan tijorat banklariga

bankrot korxonalarni sotish bo'yicha tanlov savdolarining shartlari va natijalarini tasdiqlash;

- bankrot korxonalarning investitsiya majburiyatlarini qabul qilgan holda "nol" xarid qiymatida tijorat banklariga sotish bo'yicha tanlov savdolarini o'tkazish va qaror qabul qilish;

- qabul qilingan investitsiya majburiyatlarining tijorat banklari tomonidan bajarilishi, korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va avval taqdim qilingan kreditlarning qaytarilmasligi natijasida tijorat banklari mulkiga qabul qilingan ko'chmas mulk obyektlari negizida yangi ishlab chiqarishlarning tashkil etilishi hamda ularni keyinchalik yangi mulkdorlarga sotilishi yuzasidan monitoring natijalarini ko'rib chiqish;

- tijorat banklari tomonidan bankrot korxonalar faoliyatini tiklash va investitsiya kiritish bo'yicha qabul qilingan majburiyatlar shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda bajarilmaganda shartnomalarni o'rnatilgan tartibda bekor qilish yuzasidan qaror qabul qilish;

- tijorat banklari shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda investitsiyalar kiritish va bankrot korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarini bajarmagan taqdirda ushbu bank bilan oldi-sotdi shartnomasini o'rnatilgan tartibda bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilish.

12.9. Bankrotlikni oldini olishda moliyaviy menejmentdan foydalanish

Korxonalarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini zamonaviy moliyaviy menejment asosida olib borish va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy qilish globallashgan iqtisodiyotning zaruriy sharti hisoblanadi.

Dunyo bozoriga chiqish, xalqaro kredit olish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy menejmentni joriy qilish va hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish maqsadga muvofiqdir. Chunki, moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga erishish

faqatgina xalqaro standartlarga o'tish orqali amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va uni takomillashtirishda tubdan yangi tizimni joriy etish lozim. Bu borada ilg'or xorij tajribasi bizga qo'l keladi.

Moliyaviy menejment va hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy qilish orqali moliyaviy hisobotlar yig'ish, umumlashtirish, konsolidatsiya qilish hamda ularni haqqoniyligi va to'g'riligini ta'minlaydi, olingan moliyaviy hisobotlar milliy va xalqaro moliyaviy kriteriylar asosida tahlil qilinadi, moliyaviy risklar aniqlanadi hamda tahlil natijalari yuzasidan jamiyat rahbariyati va korxonalarning kuzatuv Kengashlariga ma'lumot va ko'rsatmalar tayyorlanadi

Tahliliy ma'lumotlar asosida to'lov qobiliyati, investitsion, kredit, valyuta, inflyatsion, soliq, bankrotlik alomatlari va aniqlangan boshqa moliyaviy risklarni boshqarish, baholash va ularni kamaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Bu borada kadrlarni tizimli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ham muhim masala hisoblanadi. Ularning ish shakllari va uslublarini takomillashtirish, ma'suliyatni his etishi va unga nisbatan munosabatning tubdan o'zgartirilishi, rag'batlantirishning aniq va puxta mexanizmlarini shakllantirish lozim.

Moliyaviy menejment – bu zamonaviy usullar asosida moliyaviy xo'jalik faoliyatini boshqarishga yo'naltirilgan faoliyat ko'rinishidir.

Moliyaviy menejmentning maqsadi. Butun bir korxona yoki uning foydasi markazi bo'lgan alohida ishlab chiqarish xo'jalik zvenolari faoliyatining maqsadlariga erishish uchun manbalar, usullar va qurollarni ishlab chiqarish va qo'llash hisoblanadi.

Moliyaviy menejmentning funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

Moliyaviy hisobotni tahlil etish;

Pul mablag'larini bashorat qilish;

Qarzlar va kreditlar olish;

Investitsiyalar bilan operatsiya;

Firmalarning qo'shilishi va ajralishi operatsiyalarini baholash.

Investitsion karorlar quyidagi savollar bo'yicha qabul qilinadi:

Aktivlar tuzilmasini optimallash;

Ularni o'zgartirish ehtiyojini aniqlash yoki hisobdan chiqarish;

Investitsion siyosatni, ularning realizatsiyasi usullari va mablag'larini ishlab chikish;

Moliyaviy mablag'larga bo'lgan talabni aniqlash;

Butun firma bo'yicha investitsiyalarni rejalashtirish, ishlab chiqarish bo'limlarida yaratilayotgan investitsion loyihalarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

Qimmatbaho qog'ozlar portfelini boshqarish.

Investitsion qarorlar qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda qabul qilinadi. Qisqa muddatli investitsion qarorlar firmaning joriy davrdagi kapital tuzilmasini aniqlashga yunaltiriladi va balansda aks ettirilgan bo'ladi. Bunday qarorlar qabul qilish moliyaviy menedjerlardan qisqa muddatli moliyalash sohasida firmani boshqarishda, ularni bozor rivojining joriy tendentsiyasini hisobga olgan holda asoslangan usullarini qo'llashda chuqur amaliy bilimga ega bo'lish talab qilinadi.

Uzoq muddatli investitsion qarorlar (strategik) firmaning kelajakda muvaffaqiyat bilan ishlashini ta'minlaydi. Moliyalash manbalari bo'yicha qarorlar quyidagi savollar bo'yicha kabul kilinadi:

Firmaning samarali ishlashini ta'minlash uchun o'zlik va qarz mablag'larini ishlatish va optimal nisbat siyosatini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

Juda foydali sharoitlarda kapitalni jalb qilish siyosatini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

Dividend siyosati va boshqalar.

O‘zbekiston temir yo‘llari AJning jamlangan buxgalteriya balansi

Ko‘rsatkichlar	2017-2018 yy.				
AKTIV	**01.01.2017 y.**	**01.04.2017 y.**	**01.07.2017 y.**	**01.10.2017 y.**	**01.01.2018 y.**
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**11 151 959 813**	**11 195 178 476**	**11 778 032 823**	**12 593 199 960**
Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati	10 527 417 487	11 341 824 771	13 056 620 251	13 186 532 286	14 773 593 626
Asosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	3 788 793 507	3 945 211 086	4 125 679 858	4 320 658 666
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	7 553 031 264	9 111 409 165	9 060 852 428	10 452 934 960
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	335 519	526 894	435 179	345 379
Kapital qo‘yilmalar	2 834 711 892	3 308 810 890	1 783 170 063	2 396 325 565	1 572 602 311
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	289 782 140	300 072 354	320 419 651	567 317 310
2. Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**3 522 490 664**	**4 234 880 927**	**10 571 776 648**	**11 683 693 105**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	761 929 334	807 974 274	805 958 807	1 047 437 972
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	1 926 260 257	2 439 824 162	8 466 493 743	8 441 062 224
Pul mablag‘lari	171 917 383	167 990 329	198 395 625	199 248 750	468 669 767
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	114 011 429	118 290 042	112 380 694	160 480 738
Debitorlar, jami	503 338 335	552 299 315	670 396 824	987 694 654	1 566 042 404
Shu jumladan:					
Xaridor va buyurtmachilar	163 855 350	162 134 584	179 194 017	304 669 491	268 038 094

bilan hisob-kitoblar					
Byudjetga avans to‘lovlari	7 740 384	6 510 004	8 801 153	5 388 750	5 252 951
Aktiv bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**
PASSIV	**01.01.2017 y.**	**01.04.2017 y.**	**01.07.2017 y.**	**01.10.2017 y.**	**01.01.2018 y.**
1. O‘z mablag‘lari manbasi	**7 745 794 466**	**8 567 616 791**	**8 644 944 914**	**8 963 743 430**	**10 124 233 076**
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**6 106 833 686**	**6 785 114 489**	**13 386 066 041**	**14 152 659 989**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	5 329 297 527	5 927 142 095	12 154 367 349	12 304 013 149
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	12 729 877	10 091 394	9 142 953	8 878 479
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	764 806 282	847 881 000	1 222 555 739	1 839 768 361
Shu jumladan:					
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	177 094 949	250 590 908	306 494 641	514 650 184
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	35 632 293	40 718 997	40 080 238	62 317 043
Balans passivi bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ ning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti (2016-2017 yy.)

Ko'rsatkichlar nomi	2017 yil	2016 yil
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	5 180 801 340	3 362 225 550
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi	3 191 287 162	2 474 622 038
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	**1 989 514 178**	**887 603 512**
Davr xarajatlari	752 744 444	568 302 199
Boshqa operatsion xarajatlar	178 630 359	135 306 333
Asosiy faoliyatning foydasi	**1 415 400 093**	**454 607 646**
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	833 455 050	159 047 300
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	506 789 162	269 112 080
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda	**1 088 734 205**	**564 672 426**
Favquloddagi foyda va zararlar	0	0
Daromad (foyda) solig'i	30 730 577	16 304 363
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	83 965 344	40 674 456
Hisobot davrining sof foydasi	**974 038 284**	**507 693 607**

Nazorat uchun savollar

Iqtisodiy nochorlik, bankrotlik nima?

Iqtisodiy nochorlik instituti maqsadi?

Iqtisodiy nochorlikni yuzaga keltiruvchi sabablar, omillarni tushuntiring?

Iqtisodiy nochorlik kimlarga nisbatan qo'llanilmaydi?

Iqtisodiy nochorlikni davlat tomonidan belgilanishi, tartibga solinishini sabablarini tushuntiring?

Korxonalarning moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlariga nimalar kiradi?

Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni baholashning obyektiv zarurligi nimada?

Iqtisodiy nochorlikni tahlil qilish maqsadi va vazifalarini tushuntiring?

Iqtisodiy nochorlikni tartibga solishning huquqiy normalariga nimalar kiradi?

Iqtisodiy nochorlik tahlilining axborot manbalariga nimalar kiradi?

Iqtisodiy nochorlikni aniqlashda o'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimiga qaysi ko'rsatkichlar kiradi?

Iqtisodiy nochorlikni aniqlashning va baholashning asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarini tavsiyalab bering?

Iqtisodiy nochorlikni baholashning milliy va xalqaro tajribalarini tushuntiring, qiyosiy farqini aytib bering?

Iqtisodiy nochorlik xavf-xatarlarini aniqlashda moliyaviy holat tahlili?

Bankrotlikni aniqlashning turli modellari va ularning farqlanishini tushuntiring?

Bankrotlik taomillariga nimalar kiradi?

Kuzatuv nima?

Tashqi boshqaruv nima?

Sanatsiya nima?

Tugatishda moliyaviy holat tahlili qanday amalga oshiriladi?

Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirga nimalar kiradi?

Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni oldini olish chora-tadbirlariga nimalar kiradi?

Bankrotlikni oldini olishda moliyaviy menejmentning o'rni qanday?

13-BOB: KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI REYTING BAHOLASH VA TAHLIL QILISH

13.1. Raqobatdosh iqtisodiyotda xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini reyting baholashning zaruriyati, tahlil maqsadi, mazmuni va vazifalari.

13.2. Korxonalar faoliyati reytingining turlari, mohiyati va baholash usullari.

13.3. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullari.

13.4. Korxonalar moliyaviy holatini va samaradorligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichlar bo'yicha reytingini aniqlash va ularning qiyosiy tahlili.

13.5. Reyting baholash amaliyoti.

13.6. Korxona iqtisodiy va moliyaviy salohiyati samaradorligi bo'yicha reyting ko'satkichlarining qiyosiy tahlili. Reyting baholash bo'yicha korxonalarni ranjirlash.

13.7. Moliyaviy holatni reyting baholash bo'yicha xalqaro tajribalar va ulardan mamlakatimiz tahlil amaliyotida foydalanish imkoniyatlari.

13.1. Raqobatdosh iqtisodiyotda xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini reyting baholashning zaruriyati, tahlil maqsadi, mazmuni va vazifalari

Reyting so'zi amaliyotga ingliz tilidagi **"rating"** so'zidan kirib kelgan bo'lib, "baholash, baho qo'yish" ma'nosini anglatadi. Umumiy mazmunda reytingni ikki xil mazmunda mashhurlik va liderlik ma'nosida ishlatish mumkin. Mashhurlik, liderlik faqat subyektlargagina emas, balki korxonalarga, hududlarga va davlatlarga ham xos tushunchalardir.

Masalan, har yili turli xalqaro tashkilotlar, fondlar, institutlar ekspertlar guruhi tomonidan 100 dan ortiq ko'rsatkichlar bo'yicha alohida subyektlar, korxonalar va davlatlarning reytingi e'lon

qilinmoqda. Ular qatoriga BMT, Jahon banki, turli jamoat tashkilotlarini, mashhur reyting agentliklarini kiritish mumkin.

"Mudis" xalqaro reyting agentligi, "Fitch Ratings" xalqaro reyting agentligi; "Standard & Poor's", "Forbes" va h.k. reyting agentliklar eng mashhur reyting agentliklari hisoblanadi.

Jumladan, "Moody's" va "Standard & Poor's"larning har biri jahon bozori reytingini 40 % ini nazorat qiladilar.

Jumladan, makro ko'lamda davlatlarning reytingini aniqlash yuzasidan har yili turli ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha baholashlar amalga oshirilmoqda va natijalari e'lon qilinmoqda.

- ijtimoiy rivojlanish darajalarini o'zida aks ettiruvchi; (baxtli hayot indeksi, inson rivojlanish indeksi, o'rtacha umr ko'rish darajasi, aholining o'sish darajasi, insonlarning baxtlilik darajasi, ijtimoiy rivojlanish darajasi, ta'lim darajasi, meditsina xizmatini ko'rsatish darajasi, ekologik samaradorlik, yashash uchun eng qulay imkoniyatlar darajasini aks ettiruvchi);

- iqtisodiy rivojlanish darajalarini aks ettiruvchi (YaIM darajasi, aholi jon boshiga YaMM darajasi, biznes yuritishga qulay shart-sharoitlarning yaratilishi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish darajasi, oziq-ovqat xavfsizligi darajasini aks ettiruvchi);

- siyosiy rivojlanish darajalarini aks ettiruvchi (tinchliksevarlik, qonun ustuvorligi, terrorizm xavfining yo'qligi darajasini aks ettiruvchi);

- ilmiy texnikaviy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi (ilmiy tadqiqot faolligi, patentlar olish, innovatsion rivojlanish darajalarini aks ettiruvchi);

- axborot kommunikatsion rivojlanish darajalarini aks ettiruvchi (elektron hukumatning rivojlanishi, internet tizimining joriy etilishi va uning tezligi, mobil aloqa tizimidan foydalanish darajalarini aks ettiruvchi);

O'zbekiston dunyo davlatlari qatorida, biznes yuritishga yaratilgan shart-sharoitlar bo'yicha, qonun ustuvorligi bo'yicha, oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha, patentlar olish darajasi bo'yicha, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha oldingi o'rinlarda turadi.

Jumladan, Jahon banki hamda uning bo‘linmasi bo‘lgan Xalqaro moliya korporatsiyasi “Biznesni yuritish” hisoboti (Doing Business-2016-2017) natijalariga ko‘ra O‘zbekiston, biznesni yuritishga qulay imkoniyatlarning yaratilishi bo‘yicha O‘zbekiston eng yuqori o‘sish darajalariga erishayotgan, TOP-10 talik davlatlar qatoriga kiritilgan. Bu bevosita korxonalarning, iqtisodning ham rivoj topayotganligidan dalolat beradi.

“Biznesni yuritish”ga qulay shart-sharoitlarning yaratilishi bo‘yicha, tadqiqot natijalarida 10 ta muhim ko‘rsatkich, indikator sifatida tanlab olingan. Ushbu ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiritiladi: korxonaning ruyxatga olinishi; qurilishga ruxsatnoma berilishi; energiya ta’minotiga ulanish darajasi; mulkga huquqni ro‘yxatga olinishi; kredit olish; minoritar investorlar himoyasi; soliqqa tortish darajasi; xalqaro savdo; shartnoma majburiyatlarini bajarilishi; to‘lovga noqobillikka ruxsat berilishi darajasi.

Bugungi kunda reyting amaliyotidan oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini baholashda, banklar reytingini chiqarishda, aktsionerlik jamiyatlarida, auditorlik tashkilotlari, sug‘urta agentliklari reytingini aniqlashda keng foydalanib kelinmoqda.

Reyting baholash korxonalar o‘rtasida turli belgilar bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin. Masalan, aktivlar hajmi bo‘yicha, tushum, foyda hajmi bo‘yicha, eksport hajmi va ishlovchilar soni bo‘yicha va h.k. Lekin korxonalar iqtisodiy va moliyaviy salohiyatida ushbu ko‘rsatkichlarning barchasi qamrab olinganligi sababli ularning moliyaviy holatini reyting baholash amaliyotidan keng foydalaniladi.

Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashning juda ko‘p metodik ishlanmalari tuzib chiqilgan. Albatta bu tabiiy xol. Negaki, barcha soha va bo‘g‘inlarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudki, ular uchun yagona normani belgilash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Korxonalar moliyaviy holatini baholashda qiymat, miqdor va boshqa birliklarni ajratish qiyin bo‘lganligi sababli ularni yagona bitta jihatga keltiruvchi nisbiy ifodalar asosida tasniflash mumkin bo‘lgan koeffitsiyentlar usulidan keng foydalanish mumkin.

Moliyaviy koeffitsiyentlar asosida moliyaviy holatning reyting bahosini aniqlash va uning natijalarini qiyosiy o'rganish asosida nimaga erishish mumkin?

Bu jarayon birinchi navbatda hech bir tahlil turi beraolmaydigan natijani bilishga va undan korxonaning taktik va strategik boshqarishda foydalanish uchun zarur. Shu bilan birgalikda uning natijalari faqat ichki boshqaruv xodimlari uchungina emas balki ko'proq tashqi qiziquvchilarning keng doirasi uchun ham ahamiyatlidir.

Reyting baholash korxonalarning reyting baholash mezonlari bo'yicha bir-biriga nisbatan ustunligini belgilab beruvchi va o'sib boruvchi yoki kamayib ketuvchi tarkibda ularning joylashgan o'rnini ko'rsatib beruvchi tartiblashdir. Bu baholash bir tizimga kiruvchi korxonalarning bo'limlari o'rtasida, alohida olingan korxonalar o'rtasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Bu borada albatta reyting bahosini aniqlashning etalon birliklari tanlab olinishi lozim.

Moliyaviy holatni reyting baholashda eng muhim manba uning axborot ta'minoti masalasidir. Bunday axborot manbalari sifatida moliyaviy hisobotlar, statistik hisobotlar, soliq va bojxona hisobotlari va boshqa hisobot ma'lumotlari olinishi mumkin.

Reyting baholashlar mutlaq ko'rsatkichlar orqali ham nisbiy ko'rsatkichlarini jamlash orqali ham aniqlanishi mumkin.

Mutlaq ko'rsatkichlar sifatida ko'pincha mahsulot (ish va xizmat)lar hajmi, sotish hajmi, sof foyda, aktivlar hajmi, xarajatlar sarfi ko'rsatkichlari olinadi. Ushbu ko'rsatkichlarni jamlash, ranjirlash, ketma-ketlikda tuzib chiqish korxonalarning reyting bahosini chiqarishning umumbelgilangan tartib taomillari asosida amalga oshiriladi.

Bu holatlar turli faoliyat sohasiga tegishli bo'lgan korxonalarni, ishlar mazmuni turlicha bo'lgan korxonalarni taqqoslash imkonini bermaydi. Shu sababli ham ko'pincha nisbiy ifodalar asosida aniqlanadigan, moliyaviy manbalari bir xil qoidalarda tuziladigan

moliyaviy holatning koeffitsiyentlardagi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda reyting bahosini chiqarish tartiblaridan foydalaniladi.

Bunday ko'rsatkichlar qatoriga korxonaning to'lov layoqati, ish aktivligi, bozor aktivligi, mablag'lar aylanuvchanligi, kapital tarkibini ifoda etuvchi moliyaviy koeffitsiyentlari kiritiladi.

Bitta ko'rsatkich yoki belgi bo'yicha korxonalarning ranjirlash va ularning liderlik va mashhurlik o'rnini belgilash qiyin jarayon. Negaki, bitta ko'rsatkichning ta'sir birliklari ikkinchi ko'rsatkichning ta'sir birliklari hisoblanmaydi. Ya'ni bitta ko'rsatkich bo'yicha yaxshi natija ikkinchi ko'rsatkich bo'yicha yomon natijani umumiy baholashda hisobga olinmasligiga olib keladi. Shu bilan birgalikda bir necha ko'rsatkichlar bo'yicha ranjirlash qator qiyinchiliklar tug'diradi.

Bu ta'sir birliklarini barchasini hisobga olish yuzasidan odatda matematik usullardan foydalaniladi. Ular qatorida eng mashhurlari va ommaviylashganlari taksometrik modellash, summalarni jamlash usuli, etalon usuli, kenglikni belgilash, omadli raqobatchini belgilash va boshqa usullar hisoblanadi.

Moliyaviy holatni reyting baholash maqsadi korxonalar moliyaviy holatini kompleks ko'rsatkichlari tizimida mutlaq va nisbiy ifodalarda, oshkor etiladigan ma'lumotlar bazasiga tayangan holda davriy o'rganish hamda ranjirlash orqali tarmoq, soha va xudud bo'yicha o'rnini belgilashdan iborat.

Moliyaviy holat bo'yicha reytingni aniqlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Ranjirlash amalga oshiriladigan ko'rsatkichlar tizimini tanlash. Moliyaviy hisobot shakllari asosida aniqlanadigan va korxonaning turli faoliyat natijaviyliklarni aks ettiruvchi bunday ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: mulkiy holatni baholash imkonini beruvchi koeffitsiyentlar; likvidlik ko'rsatkichlari, ish aktivligi, rentabellik ko'rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari.

2. Reyting baholash yuzasidan iqtisodiy birliklarni tanlab olish. Agar korxonalarning soha va tarmoq bo'yicha reytingi aniqlash *tahlil*

maqsadi qilib belgilangan bo'lsa, bitta tarmoqqa va soha tegishli bo'lgan turdosh korxonalargina tanlab olinadi.

Agar hudud va davlat bo'yicha korxonalar reytingini aniqlash talab etiladigan bo'lsa, bunda bir-biriga to'la mos tushuvchi metodik yondashuvlardan foydalaniladi va bu jarayon bir qadar qiyin jarayon hisoblanadi. Bunda ko'pincha ularni ish hajmi bo'yicha joylashuviga muhim ahamiyat qaratiladi.Tanlov doirasi qanchalik kengayib borsa, ranjirlash va reytingni aniqlash qiyinlasha boradi.

3. Koeffitsientlarni tanlash. Koeffitsientlar barcha korxonalarda bir xil metodik asosda hisob-kitob qilinadi va ularning taqqoslash shartlariga to'la amal etish lozim. Shuningdek ko'rsatkichlarning faoliyat va tarmoq turlari bo'yicha muhimlik darajasiga ham alohida ahamiyat qaratish va ularning muhimlik darajasiga ahamiyat qaratish zarur.

Masalan, savdo korxonasida ish aktivligini baholashda tovar oborot ko'rsatkichi, xizmat ko'rsatuvchi bo'g'in uchun rentabellik ko'rsatkichi muhimligi kabi.

4. Tanlangan usullar asosida reyting baholashni amalga oshirish.

Moliyaviy holatni reyting baholash oldiga qo'yiladigan vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Analitik balans ma'lumotlari asosida korxonaning umumiy moliyaviy holatini baholash;
2. Qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini moliyaviy leviridj asosida baholash;
3. Korxona moliyaviy barqarorligini mutlaq ko'rsatkichlarda tahlil etish;
4. Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash va tahlil etish;
5. Moliyaviy natijalarni tahlil qilish;
6. Xulosa va takliflar tayyorlash.

13.2. Korxonalar faoliyati reytingining turlari, mohiyati va baholash usullari

Reyting baholash turlari. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash korxona moliya-xo'jalik faoliyatini kompleks baholashning nazariy va metodologik asoslariga tayanadi.

Yakuniy reyting baholash natijalari korxona moliya-xo'jalik faoliyatining muhim ko'rsatkichlariga; iqtisodiy va moliyaviy salohiyatiga, faoliyat va mahsulot rentabelligiga, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslar samaradorligiga, mablag'larning mavjudligi va ularning manbalariga bog'liq.

Reyting baholashning quyidagi turlarini tarkiblash mumkin.

Korxona tarkibiga kiruvchi bo'limlar, filiallar reytingi;

Tarmoq va soha bo'yicha reyting;

Hudud bo'yicha korxonalar reytingi;

Davlat bo'yicha barcha korxonalar reytingi;

Dunyo bo'yicha korxonalar reytingi.

Reyting baholashda moliyaviy moliya holatning umumiy reytingi va tarkib ko'rsatkichlar bo'yicha reytingi alohida o'tkazilishi mumkin.

Faoliyat turlarining farqlanishi bo'yicha moliyaviy holatning quyidagi turlari tarkiblanadi.

- Korxonalar reytingi;
- Banklar reytingi;
- Sug'urta kompaniyalar reytingi;
- Auditorlik tashkilotlari reytingi;
- Aktsionerlik jamiyatlari reytingi va x.k.

Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashning mohiyatini reyting baholash uchun tanlab olingan ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha axborotlarni shakllantirish, ularning tahlil etish va ranjirlash orqali yakuniy reyting jadvali shakllantirish va ularning aniq ketma-ketligini tuzib chiqish tashkil etadi.

Korxonalar reytingini aniqlash alohida ko'rsatkichlar va ularning kompleks natijasi bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

Reyting baholashda quyidagi usullar tizimidan foydalaniladi: Summa usuli; o'rtacha geometrik usul; koeffitsiyent usuli; ballik usul; masofa usuli.

Reyting baholash usullari

№	Usullar	Aniqlash formulasi
1	Summa usuli	$Kj = \sum_{i=1}^{n} x_{ij}^{\phi} / x_{ij}^{б}$. Bu yerda: x^{f}_{ij}, x^{b}_{ij} – i ko‘rsatkichning joriy va o‘tgan yildagi miqdori; i=1,2,…, n, j=1,2,…, m
2	O‘rtacha geometrik usul	$K_i = \left[\prod_{i=1}^{n} a_{ij}\right]^{\frac{1}{n}}; j = 1,\ldots,m.$
3	Koeffitsient usuli	$K_j = \prod_{i=1}^{n} a_{ij}; j = 1,\ldots,m.$
4	Ballik usul	$K_j = \sum_{i=1}^{n} a_{ij} s_{ij}; j = 1,\ldots, m.$
5	Ob’ekt miqdori usuli	$x_{i,m+1} = \max(x_{ij}); i = 1,\ldots,n; j = 1,\ldots,m.$

13.3. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullari

Moliyaviy holatni reyting baholashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimini aniq soni va tarkibini tanlash bo‘yicha yagona uslubiyot shakllanmagan. Shu sababli analitiklar, ekspertlar va ularning guruhi, reyting agentlari har bitta tarmoq, soha va korxonalarning mulki shakli, faoliyati va boshqa jihatlari bo‘yicha tarkiblangan moliyaviy koeffitsiyentlar guruhi bo‘yicha uni aniqlash tartiblarini belgilaydilar.

Moliyaviy holatni reyting baholashda aniqlanadigan muhim ko‘rsatkichlar qatoriga quyidagi ko‘rsatkichlar tizimini kiritish tavsiya etiladi:

- to‘lov layoqati va likvidlik ko‘rsatkichlari: joriy , oraliq va umumiy to‘lov layoqati likvidlik ko‘rsatkichlari;

- moliyaviy barqarorlikni xarakterlovchi moliyaviy koeffitsiyentlar: avtonomiya, kapitallashuv, manevrlik koeffitsiyentlari va h.k.;

- ish aktivligini xarakterlovchi koeffitsiyentlar: aktivlar, kapital va majburiyatlarning aylanuvchanligi koeffitsiyentlari va h.k.;

- foyda va rentabellikni xarakterlovchi moliyaviy koeffitsiyentlar: aktivlar, kapital, xarajatlar rentabelligi koeffitsiyentlari va h.k.

Korxonaning oxirgi besh yildagi faoliyat natijalari

Ko'rsarkichlar	Yillar				
	2014	2015	2016	2017	2018
1. Avtonomiya koeffitsiyenti	0,613	0,600	0,612	0,605	0,590
2. Joriy likvidlik koeffitsiyenti	1,531	1,383	1,349	1,247	1,197
3. Aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti	0,288	0,291	0,269	0,152	0,216
4. Aktivlar aylanuvchanligi koeffitsiyenti	3,056	3,141	3,531	3,857	4,710

Ko'rsatkichlarning etalon birligi va ularning joylashtirish

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2014	2015	2016	2017	2018
1. Avtonomiya koeffitsiyenti	1	4	2	3	5
2. Joriy likvidlik koeffitsiyenti	1	2	3	4	5
3. Aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti	2	1	3	5	4
4. Aktivlar aylanuvchanligi koeffitsiyenti	5	4	3	2	1
Ob'ekt miqdori	9	8	11	14	15

13.4. Korxonalar moliyaviy holatni va samaradorligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichlar tizimi va ularga qo'yiladigan talablar

Moliyaviy holatni va samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini o'rganishda birinchi navbatda aktivlar va passivlarni, mulkni, daromad va xarajatlarni "odilona baholash"ga muhim ahamiyat qaratish lozim. Negaki o'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimi avvalo ushbu

qiymatning to‘g‘ri aniqlanganligi, asosligi va ishonchligi bilan xarakterlanadi. Uning, g‘oyaviy mualliflaridan biri Raymond Djon Chambers hisoblanadi. Chambers g‘oyaviy qarashlarida inflyatsiya ta’sirida aktivlarni real qiymatini aniqlashning usullari ilgari suriladi.

“Odilona baholash”ning ingliz tilidan tom ma’nodagi tarjimasiga nisbatan odatda turlicha so‘zlar ishlatiladi. Masalan “haqqoniy baholash”, “aniq baholash”, “qonuniy baholash”, “qoidaviy baholash”.

Dastlab, odilona qiymatni aniqlashga qayta baholashning muhim vositasi sifatida qaralgan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti, 32 (MFSO) standartiga muvofiq moliyaviy instrumentlarni mustaqil baholashning birinchi harakatlari boshlandi va bu holat buxgalteriya hisobida yangi bir davrni, o‘zgarishni ochib bergan. Bu holat, investitsion va moliyaviy aktivlar, valyuta balansi qiymatini o‘zgartirgan holda ularning moliyaviy natijalarga ta’sir etmagan.

Odilona baholash balans moddalarini tuzish paytiga xaqiqiy qiymati bo‘yicha hisob-kitob qilinishini xarakterlaydi.

“Odilona baholash” korxonaning mulki, ishlab chiqarish xarajatlarining qiymati uning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda bozorning ta’siridagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda korxonaning moliyaviy holati va uning moliyaviy natijaviyligini qayta baholashni izohlaydi. Ya’ni, subyektning ta’siridan xoli bo‘lgan moliyaviy hisobotlar tuzish talabini hal etadi.

Hozirgi hisobchilik tizimida, xalqaro maydonda odilona baholashning quyidagi xususiyatlari xarakterlanadi.

Qo‘llash sohasi: “Odilona baholash”ning qo‘llanish sohasi cheklangan. Ushbu usul aniq mulkiy birliklarga nisbatan (investitsion mulkka, biologik aktivlarga, moliyaviy instrumentlarga, aktivlarning alohida tarkiblari)ga nisbatan yoki jarayonlarning ayrim turlariga (biznesni birlashtirish, asosiy vositalarni qayta baholash, tekinga olinadigan qiymatliklarni baholash va h.k.) nisbatan qo‘llaniladi.

Hisoblash tartibi: xaqqoniy baholash xo‘jalik faoliyatining aktivlari va jarayonlariga nisbatan farqlanadi.

Aktivlarni odilona baholash korxonalarning moliyaviy natijaviyligiga, jarayonlarni odilona baholash esa kapitallashuv jarayoniga ta'sir etadi. Biologik aktivlarning (boquvdagi va o'stiruvdagi jonivorlar, o'simliklar) odilona baholanishidagi o'zgarishlar foyda va zararlarga, asosiy vositalarni qayta baholanishi esa korxona kapitalining o'zgarishiga olib boriladi.

Biologik aktivlar "odilona baholash" kabi hisobning yangi tushunchasidir. MHXSga muvofiq biotransformatsiyalashuvni boshqarishni nazarda tutuvchi qishloq xo'jalik faoliyati biologik aktivlardan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratishni yoki qo'shimcha biologik aktivlarni etishtirishni nazarda tutadi.

Baholash tartibi. Odilona baholash aktivlarning turiga va ular qiymatining o'zgarish darajasiga bog'liq.

Odilona qiymat raqobatbardosh bozor baholariga (sotuvchi va oluvchilarning axborotlar to'liqligiga tayangan holda dallolsiz kelishuvlarga) tayangan holda aniqlanadi. Agar aktivning bozor bahosini aniqlash imkoni bo'lmasa, ulardan foydalanish va xizmat ko'rsatish muddatlarida keltiradigan daromadligiga qarab aniqlanadi. Agarda, aktivlarning kelgusida, daromad keltirishini aniqlash imkoni bo'lmasa, qayta tiklash qiymati bo'yicha baholanadi. Ayrim va juda kam kuzatiladigan hollarda, ya'ni yuqorida keltirilgan usullardan birontasi odilona qiymatni aniqlash imkonini bermasa, u holda dastlabki qiymat bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

Moliyaviy holatni reyting baholash orqali turli tashkilot va korxonalarning o'zaro bir-biriga nisbatan faollik darajasiga baho beriladi. Ushbu jarayonni, bir tizimga, tarmoqka kiruvchi korxonalarga nisbatan makro ko'lamda o'rganish masalasi sifatida qarash mumkin.

Ushbu masala ikkita jihat bilan xarakterlanadi. Birinchi jihat bir nechta korxonalarning faoliyatini kompleks baholashning tahlil etuvchi tomonidan tarkiblangan muxim ko'rsatkichlar tizimiga tayangan holda taqqoslashni va ularni darajalar bo'yicha ketma-ketligini belgilashni nazarda tutadi.

Ikkinchi jihati korxonalar o'rtasida etalon sifatida olingan bir nechta natijaviy ko'rsatkichlarni taqqoslash asosida o'tkaziladigan jarayonlar nazarda tutiladi.

Birinchi jihatda reyting baholash yuzasidan ko'rsatkichlar tizimi turlicha tanlanishi, ikkinchi jihatda esa rasmiy belgilangan ko'rsatkichlar tizimiga tayaniladi.

Alohida moliyaviy hisobot tuzuvchi, tadbirkorlik subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini reyting baholash orqali tarkiblash bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning kapitallashuv darajasi bo'yicha raqobatdoshligini aniqlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Reyting baholash maqsadini korxonalar moliyaviy barqarorligini baholash orqali ularning raqobatchilar va boshqa subyektlarga nisbatan qiyosiy o'rnini belgilab berish tashkil etadi.

Reyting baholashning quyidagi xususiyatlari tarkiblanadi.

- baholashda ishlatiladigan moliyaviy ko'rsatkichlar rasmiy chop etiladigan moliyaviy hisobotlarda aks etgan bo'lishi lozim;

- reyting baholashning ko'rsatkichlar tizimini tarkibiga: foydalilik ko'rsatkichlari, boshqaruvning samaradorligi ko'rsatkichlari, ish aktivligi ko'rsatkichlari, likvidlilik darajasi va baqarorlik ko'rsatkichlari kiritiladi. Har bitta tarkibda uchtadan ettitagacha ko'rsatkich qatnashadi;

- reyting baholashda barcha tarkib ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori darajaga ega bo'lgan etalon korxona ko'rsatkichi asos qilib olinadi;

- reyting baholash asosida chikariladigan xulosa moliyaviy holat tahlili xulosalaridan keskin farq etadi va bunda korxonani iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalariga muhim ahamiyat qaratiladi.

Reyting baholashda katnashuvchi koeffitsiyent quyidagi talabalarga javob berishi lozim

- maksimal darajadagi axborotlikka ega bo'lishi;

- bir tomonlama xarakterga ega bo'lishi (masalan koeffitsiyent o'sishi moliyaviy holatni yaxshilanishini xarakterlashi lozim)

- barcha ko'rsatkichlar miqdoriy minimal normalarga ega bo'lishi lozim

- rasmiy, chop etiladigan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida hisoblanishi lozim.

13.5. Reyting baholash amaliyoti

Reyting baholash yuzasidan aniqlanadigan va hisob-kitob kilinadigan formulani quyidagi birliklar nisbati orqali ifoda etish mumkin.

$$R = \sum_{i=1}^{L} \frac{1}{L_i} \frac{K_i}{N_i},$$

Bunda:

L – reyting baholashda aniqlanadigan ko'rsatkichlar;

N – koeffitsiyentni normativ talabi;

K – koeffitsiyent 1/ L*;

N – indeks.

Ushbu ko'rsatkichning 1 dan kichkina bo'lishi moliyaviy holatni qoniqarsiz ekanligini xarakterlaydi.

Reyting baholashda eng ko'p ko'llaniladigan ko'rsatkichlar qatoriga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi. Bular:

1. O'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti;
2. Balans likvidligi;
3. Avanslangan kapital aylanuvchanligi;
4. Korxona boshqaruvining samaradorligi;
5. Xususiy kapital rentabelligi.

Reyting baholash ko'rsatkichlari va ularning normalari

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar mazmuni	Norma
1. O'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti	Kt = O'z mablag'lari manbasi (UMM) + Uzoq muddatli kredit va qarzlar (UMKQ) – Uzoq muddatli aktivlar (A) / Jami aktivlar (JA)	Kt>=0.1
2. Balans likvidligi	Kt = Joriy aktivlar (JA) / Joriy majburiyatlar (JM)	Kl>=0.1
3. Avanslangan	Ka = Sotishdan tushum /	Ka>=2.5

kapital aylanuvchanligi	Avanslangan kapital*365	
4. Korxona boshqaruvining samaradorligi	Ks = Sotishdan olingan foyda / Sotishdan tushum	Ks>=(r-1)
5. Xususiy kapital rentabelligi	Kk = Soliq to'loviga qadar foyda / Xususiy kapital	Ka>=0.2

Amaliyotida ko'p ko'llaniladigan ushbu metodik yondashuv yakunida reyting bahosi quyidagi formula asosida hisob-kitob kilinadi.

R=2Kt+0.1Kl+0.08Ka+0.45 s+ Kk

Ushbu amaliyot bankrotlikni, iqtisodiy nochorlikni aniqlashda xorijda ko'llaniladigan modellarga o'xshab ketadi.

Buxgalteriya balansi tahlilini oxirgi bosqichi tahlil natijalarini yakuniy xulosalarini chiqarish va rasmiylashtirish hisoblanadi.

Yakuniy xulosada, korxonalarni mulkiy holati, ularning manbalanishi, iqtisodiy va moliyaviy salohiyati, korxona to'lovga qobilligi, likvidliligi, moliyaviy mustahkamlik va barqarorligini tashxisi qo'yiladi.

Bu tashxis asosida korxonalarning iqtisodiy reyting bahosini ham berish mumkin. Korxonalarni buxgalteriya balansi asosida iqtisodiy va moliyaviy reytingini aniqlashning uslubiy mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- korxonani iqtisodiy va moliyaviy salohiyati;
- korxonaning mulkiy jamg'armasi, aktivlar va passivlar real qiymati;
- korxonaning to'lovga qobilligi;
- korxonaning moliyaviy mustahkamligi va barqarorligi;
- korxona mablag'larini harakatchanligi (likvidliligi).

Tahlil natijalarini rasmiylashtirishni uslubiy tartibida xulosalarni aniq va ravon tilda bayon etilishiga, yutuq va kamchiliklarni asosligiga, o'rinli va obyektivligiga, yuzaga kelish va o'zgarishlarni davriyligiga,

tahlil yakuni bo'yicha korxona boshqaruvini optimal strategiyalarini (chora-tadbirlar) belgilab olinishiga ahamiyat berish lozim.

13.6. Korxona iqtisodiy va moliyaviy salohiyati samaradorligi bo'yicha reyting ko'satkichlarining qiyosiy tahlili. Reyting baholash bo'yicha korxonalarni ranjirlash.

Korxonalar moliyaviy holatining yildan-yilga barqarorlashib, investitsion jozibadorligining oshib borishi ham iqtisodiyotning etakchi tarmoqlariga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish imkonini bermoqda.

Boshqaruv tizimida yuqori samaradorlikka erishish raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida korxonalar moliyaviy holatini, ularning faoliyati samaradorligini aniqlash va tahlil etish nafaqat xo'jalik subyektlarining o'ziga, shuningdek kreditorlar va investorlar uchun ham o'ta muhim ahamiyatiga ega.

Moliyaviy tahlilda korxonaning moliyaviy ahvolinigina oydinlashtirib berilmasdan, balki uning istiqbollarini ham ko'rsatib beriladi. Shuningdek, investitsiyalarni faol jalb etish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsion jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish zarurdir.

Milliy va jahon amaliyotida korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashning turli usullaridan foydalaniladi. Bunday usullarga «o'rinlar yig'indisi», taksonometrik usul, ko'rsatkichlar yig'indisi usuli, ballar usuli, masofalar usuli va hokazolarni kiritish mumkin. Bu usullar korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatining turli tomondan tahlil qilish hamda ularning raqobatchilar orasidagi o'rnini belgilash imkonini beradi. Investorlar uchun reytingi yuqori korxonalarni aniqlash imkoni tug'iladi.

Korxonalar faoliyatining muhim ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Korxonalar						Qatorlar bo'yicha o'rtacha, x_i	O'rtacha kvadratik tafovvut, $_i$
	1	2	3	4	5	6		
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	2	1,76	2,12	1,7	1,6	2,24	1,90	0,57
Sotish rentabelligi	23,3	27,5	30,8	29,2	25,8	28,3	27,50	5,9
TMZ aylanuvchanligi, kunda	55,1	44,0	46,6	39,2	32,3	36,0	42,22	18,3
Mahsulot sotishdan sof tushum, ming so'm	153 750	232 500	236 250	255 000	192 500	167 500	206 250,00	91 719,7

Ko'rsatkichlar	Korxonalar					
	1	2	3	4	5	6
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	3	4	2	5	6	1
Sotish rentabelligi	6	4	1	2	5	3
TMZ aylanuvchanligi, kunda	6	4	5	3	1	2
Mahsulot sotishdan sof tushum, ming so'm	6	3	2	1	4	5
O'rinlar yig'indisi	**21**	**15**	**10**	**11**	**16**	**11**

«O'rinlar yig'indisi» usulida reyting baholashning mohiyati shundaki, bunda baholanayotgan ko'rsatkichlar bo'yicha korxonalarning egallagan o'rinlarining yig'indisi eng kichik bo'lgan korxona eng yuqori reytingga ega bo'ladi va aksincha. Buning mazmuni shundaki, barcha ko'rsatkichlar bo'yicha birinchi o'ringa intilgan sonlar yig'indisi eng kichik son bo'ladi hamda bu barcha ko'rsatkichlar bo'yicha eng yaxshi pozitsiyadagi korxonaga tegishli bo'ladi.

Korxonalar moliyaviy holatini taksonometrik usulda baholash uchun berilgan ma'lumotlarni quyidagi X matritsa ko'rinishida ifodalaymiz

X=	2	1,76	2,12	1,7	1,6	2,24
	23,3	27,5	30,8	29,2	25,8	28,3
	55,1	44,0	46,6	39,2	32,3	36,0
	153 750	232 500	236 250	255 000	192 500	167 500

X matritsaning har bir elementini qator bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan farqini o'rtacha kvadratik tafovutga bo'lib, Z matritsani hosil qilamiz.

Z=	0,18	-0,25	0,39	-0,35	-0,53	0,60
	-0,71	0,00	0,56	0,29	-0,29	0,14
	0,70	0,10	0,24	-0,17	-0,54	-0,34
	-0,57	0,29	0,33	0,53	-0,15	-0,42

Etalon korxona Ze = (Z1e, Z2e, Z3e, Z4e) = (0,60; 0,56; -0,54; 0,53). Etalon Z matritsaning har bir qatoridagi eng yaxshi ko'rsatkichlardan tashkil topgan. Shuni ta'kidlash kerakki, etalon sifatida joriy likvidlik koeffitsiyenti, sotish rentabelligi va mahsulot sotishdan sof tushum ko'rsatkichlari bo'yicha qatordagi eng katta miqdorlar olingan. Chunki bu ko'rsatkichlarning yuqori bo'lishi barqaror moliyaviy holatni aks ettiradi. Aksincha, kun hisobida tovar moddiy zaxiralar aylanuvchanligi ko'rsatkichining eng kichik miqdori aylanishning tezligidan dalolat beradi. Shuning uchun bu ko'rsatkichning eng kichik miqdori etalon sifatida olingan.

O'rganilayotgan korxonalarning ko'rsatkichlarini "Z" etalon korxona ko'rsatkichlaridan farqlarining kvadratlari yig'indisini hisoblash asosida korxonalarning reyting ko'rsatkichlarini aniqlaymiz:

$$R1 = (0,18-0,60)^2 + (-0,71-0,56)^2 + (0,70-(-0,54))^2 + (-0,57-0,53)^2 = 4,56$$

$$R2 = (-0,25-0,60)^2 + (0,0-0,56)^2 + (0,1-(-0,54))^2 + (0,29-0,53)^2 = 1,49$$

$$R3 = (0,39-0,60)^2 + (0,56-0,56)^2 + (0,24-(-0,54))^2 + (0,33-0,53)^2 = 0,69$$

$$R4 = (-0,35-0,60)^2 + (0,29-0,56)^2 + (-0,17-(-0,54))^2 + (0,53-0,53)^2 = 1,12$$

$$R5 = (-0,53-0,60)^2 + (-0,29-0,56)^2 + (-0,54-(-0,54))^2 + (-0,15-0,53)^2 = 2,45$$

$$R6 = (0,60-0,60)^2 + (0,14-0,56)^2 + (-0,34-(-0,54))^2 + (-0,42-0,53)^2 = 1,13$$

Bunda, Z etalon korxona ko'rsatkichlariga eng yaqin bo'lgan, ya'ni ko'rsatkichlar tafovuti eng kichik korxona yuqori reytingga ega deb baholanadi.

Demak, aniqlangan reyting ko'rsatkichlari ichida eng kichik qiymatga ega bo'lgan korxona (3-korxona) 1-o'rinda va, aksincha eng katta qiymatga ega bo'lgan korxona (1-korxona) reytingi eng past deb baholash mumkin. Korxonalarning moliyaviy holati va investitsion jozibadorligi bilan qiziquvchi subyektlarning axborotga bo'lgan talabini yanada to'liqroq qondirish uchun yanada ko'proq ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish mumkin. Bunda har bir axborotdan foydalanuvchining qiziqishidan kelib chiqib u yoki bu ko'rsatkichlarni baholash asosida boshqaruv, investitsion va moliyaviy qarorlarni qabul qilishga asos bo'ladigan xulosalarga ega bo'lish mumkin. Shuningdek, korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashda ularning tarmoq xususiyati, raqobatdagi o'rni, boshqaruv apparatining kompetentligi va boshqa omillar hisobga olinishi zarur, deb hisoblaymiz. O'rganilayotgan ko'rsatkichlarning ahamiyatlilik darajasi ham reyting bahosini o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, investitsion va moliyaviy qarorlarning samaradorligini oshirish uchun moliyaviy holatni reyting baholashda imkon qadar (korxona moliyaviy holati va investitsion jozibadorligini har taraflama baholash imkonini beruvchi) ko'proq ko'rsatkichlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Shuningdek, korxonalarni moliyaviy holatini reyting baholashda ko'rsatkichlar quyidagi talablarga javob berishi lozim, deb hisoblaymiz:

Korxona moliyaviy barqarorlik holatini aniq aks ettirishi hamda maksimal axborot berish xususiyatiga ega bo'lishi;

Barcha ko'rsatkichlar aniq miqdoriy o'lchamga va normativlarning kamida minimal darajasiga ega bo'lishi;

Faqat korxonaning ommaviy buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida hisoblanishi;

Korxonani zamon va makon bo'yicha reyting baholash imkonini berishi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy qilish sharoitida korxonalarning investitsion jozibadorligi va ularning moliyaviy holati to'g'risidagi ishonchli axborotga talab yanada ortadi. Bunday axborot samarali boshqaruv, investitsion va moliyaviy qarorlar qabul qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Korxonalar moliyaviy holati va investitsion jozibadorligini kompleks baholash uslublarini takomillashtirish asosida boshqaruv qarorlarining samaradorligi ortib, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari aniqlanadi[82].

13.7. Moliyaviy holatni reyting baholash bo'yicha xalqaro tajribalar va ulardan mamlakatimiz tahlil amaliyotida foydalanish imkoniyatlari

Iqtisodiy tuzilmalarni isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini yanada oshirish, tizim faoliyatiga yondashuvlarni hamda baholash tizimini tubdan o'zgartirish, hamma tomonidan qabul qilingan xalqaro normalar, standartlar va baholash ko'rsatkichlariga muvofiq reyting amaliyotini tashkil etishning yanada yuqoriroq darajasiga chiqishni ta'minlash oldimizda turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Xalqaro standartlar talablariga muvofiq korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy qudratini oshirish, ularning aktivilar va kapitalini ko'paytirish, daromadligini o'stirish, resurslar bazasini kengaytirish yanada kapitallashtirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, resurs bazasini ko'paytirish, ish sifatini va boshqaruv sifatini oshirish oldimizda turgan eng muhim muammodir.

Etakchi xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan qo'llaniladigan xalqaro normalar, mezonlar va standartlarga asoslangan hamda alohida korxonalar faoliyatini dunyoda qabul qilingan faoliyatini baholash va tahlil qilishning zamonaviy tizimini joriy etish lozim.

---

[82] Исроил Чориев http://finance.uz/index.php/uz/uzm-finansi/1496-korkhonalar-moliyavij-olatini-rejting-ba-olash-usullarini-takomillashtirish?

Normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, zamon talablari va xalqaro normalar hamda standartlarga muvofiq holda amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda yangi qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlar qabul qilish zarur

Korxonalarda investitsiyaviy faollikni kuchaytirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni yanada kengaytirish, loyihalarni ekspertiza qilish va xatarni baholash tizimini takomillashtirish darkor.

Korxonalarni qo'llab quvvatlashda, moliyalashtirishda, himoya qilishda moliya tashkilotlari, kredit uyushmalari, lizing, sug'urta va auditorlik kompaniyalarining rolini yanada oshirish, ularga ko'rsatiladigan xizmatlar turi va ko'lamini kengaytirish, moliya bozori infratuzilmasi institutlarini mustahkamlash lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirishning, aholi bandligi va farovonligini oshirishning g'oyat muhim vositasi sifatida reyting aniqlashda ulshbu qatorning alohida turlarini belgilashga o'tish lozim. Masalan ish bilan bandlikda yoshlarni ishga qabul qilish bo'yicha reyting, yoshlarni tadbirkorligi biznesi reytingi va h.k. nominatsiyalarni belgilash.

Korxonalarda hisob-kitob va hisobotlariga yangicha yondashuvlarini shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalari va uslublarini joriy qilish, axboroti saviyasi hamda sifatini oshirish, etakchi xalqaro reyting tashkilotlari talablariga muvofiq undan keng ko'lamda foydalanishni yo'llariga o'tish zarur.

Korxonalarning dunyoda qabul qilingan standartlar, uslubiyatlar va baholash ko'rsatkichlari tizimida ishlay oladigan, professional tayyorlangan yuqori malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash, shuningdek kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish.

O'zbekiston temir yo'llari AJning jamlangan buxgalteriya balansi

Ko'rsatkichlar	2017 -2018 yy.				
AKTIV	**01.01.2017 y.**	**01.04.2017 y.**	**01.07.2017 y.**	**01.10.2017 y.**	**01.01.2018 y.**
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**11 151 959 813**	**11 195 178 476**	**11 778 032 823**	**12 593 199 960**
Asosiy vositalar boshlang'ich qiymati	10 527 417 487	11 341 824 771	13 056 620 251	13 186 532 286	14 773 593 626
Asosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	3 788 793 507	3 945 211 086	4 125 679 858	4 320 658 666
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	7 553 031 264	9 111 409 165	9 060 852 428	10 452 934 960
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	335 519	526 894	435 179	345 379
Kapital qo'yilmalar	2 834 711 892	3 308 810 890	1 783 170 063	2 396 325 565	1 572 602 311
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	289 782 140	300 072 354	320 419 651	567 317 310
2. Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**3 522 490 664**	**4 234 880 927**	**10 571 776 648**	**11 683 693 105**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	761 929 334	807 974 274	805 958 807	1 047 437 972
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	1 926 260 257	2 439 824 162	8 466 493 743	8 441 062 224
Pul mablag'lari	171 917 383	167 990 329	198 395 625	199 248 750	468 669 767
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	114 011 429	118 290 042	112 380 694	160 480 738
Debitorlar, jami	503 338 335	552 299 315	670 396 824	987 694 654	1 566 042 404
Shu jumladan:					
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-	163 855 350	162 134 584	179 194 017	304 669 491	268 038 094

kitoblar					
Byudjetga avans to'lovlari	7 740 384	6 510 004	8 801 153	5 388 750	5 252 951
Aktiv bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**
PASSIV	**01.01.2017 y.**	**01.04.2017 y.**	**01.07.2017 y.**	**01.10.2017 y.**	**01.01.2018 y.**
1. O'z mablag'lari manbasi	**7 745 794 466**	**8 567 616 791**	**8 644 944 914**	**8 963 743 430**	**10 124 233 076**
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**6 106 833 686**	**6 785 114 489**	**13 386 066 041**	**14 152 659 989**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	5 329 297 527	5 927 142 095	12 154 367 349	12 304 013 149
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	12 729 877	10 091 394	9 142 953	8 878 479
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	764 806 282	847 881 000	1 222 555 739	1 839 768 361
Shu jumladan:					
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	177 094 949	250 590 908	306 494 641	514 650 184
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	35 632 293	40 718 997	40 080 238	62 317 043
Balans passivi bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ ning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti (2016-2017 yy.)

Ko'rsatkichlar nomi	2017 yil	2016 yil
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof	5 180 801 340	3 362 225 550
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi	3 191 287 162	2 474 622 038
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	**1 989 514 178**	**887 603 512**
Davr xarajatlari	752 744 444	568 302 199
Boshka operatsion xarajatlar	178 630 359	135 306 333
Asosiy faoliyatning foydasi	**1 415 400 093**	**454 607 646**
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	833 455 050	159 047 300
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	506 789 162	269 112 080
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda	**1 088 734 205**	**564 672 426**
Favquloddagi foyda va zararlar	0	0
Daromad (foyda) solig'i	30 730 577	16 304 363
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	83 965 344	40 674 456
Hisobot davrining sof foydasi	**974 038 284**	**507 693 607**

Nazorat uchun savollar

Raqobatdosh iqtisodiyotda xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini reyting baholashning zaruriyatini tushuntiring?

Reyting baholash amaliyoti qaerlarda ko'llanilmoqda va uning amaliy tajribalari?

O'zbekistonda korxonalar faoliyati reytingini baholash nazariyasi, metodologiyasi va amaliyotini tushuntiring?

Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi qanday ko'rsatkichlar kiradi?

Reyting baholashda qo'llaniladigan usullarni tushuntiring?

Korxonalar moliyaviy holatni va samaradorligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichlar bo'yicha reytingini aniqlash va ularning qiyosiy tahlilini tushuntiring?

Reyting baholash amaliyotida qanday kamchiliklar mavjud?

Korxona iqtisodiy va moliyaviy salohiyati samaradorligi bo'yicha reyting ko'satkichlarining qiyosiy tahlilini amalga oshirishda axborotlar qanday olinadi?

Reyting baholash bo'yicha korxonalarni ranjirlash nima degani?

Moliyaviy holatni reyting baholash bo'yicha xalqaro tajribalar va ulardan mamlakatimiz tahlil amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini izoxlang?

14-BOB. MOLIYAVIY HISOBOT ELEMENTLARINI BASHORATLASH

14.1. Moliyaviy hisobot elementlarini ahamiyati, maqsadi va tahlil vazifalari.

14.2. Aktivlar, kapital va majburiyatlarni bashoratlash.

14.3. Daromadlar va xarajatlarni bashoratlash: sotish hajmi, mahsulot tannarxi, operatsion daromad va xarajatlar, foyda hajmi va rentabellik darajalarini bashoratlash.

14.4. Pul mabalag'lari naqdligini bashoratlash.

14.5. Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik)ni bashoratlash.

14.6. Bashorat ko'rsatkichlariga ichki va tashqi omillar ta'siri. Bashorat ko'rsatkichlariningehtimolligi va ishonchiiligini baholash. Bashoratlashdagi kamchiliklar.

14.1. Moliyaviy hisobot elementlarini ahamiyati, maqsadi va tahlil vazifalari

Xo'jalik yurituvchi subyektlar maqsadi foyda olishga qaratilgan va bu jarayon yakunidagina sarhisob qilinadi. Shunday ekan kelgusida iqtisodiy naf olish maqsadida aktivlardan foydalanish masalaning asosiy sharti hisoblanadi. Kelgusidagi naflik aktivlarning turlariga qarab farqlanishiga ahamiyat qaratsak, bu uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlarda turlicha kechishini ko'rish mumkin. Shu bilan birga faoliyat turiga qarab ham bu jarayonning davriyliklari turlicha bo'ladi.

Qo'yilgan mablag'larning qanchalik naf keltirishi albatta ma'lum bir muddat, vaqt oralig'ini talab etishi ham ularni oldindan bashoratlashni talab etadi. Bashoratlash orqali aktivlar, kapital va majburiyatlar, daromad va xarajatlar, foyda va zararlar, kelgusidagi pul oqimlari, aktivlarni moliyalashtirish yuzasidan qo'shimcha mablag'lar manbasiga zaruriyat sezilishi hamda ularni hal etish imkoniyati yuzaga keladi.

Kelgusidagi kutilishlarni bashoratlash faqat korxonaning o'zigagina tegishli omillar ta'sirida o'zgaradigan jarayon emas, unga ko'proq tashqi

omillar ham ta'sir etadi. Kelgusida erishilishi kutilayotgan natijaga erishish risklarini kamaytirish orqali aniqlikni yuqori normasiga chiqish imkoniyati mavjudligini hisobga olsak, bashoratlash korxonalarning kelajakdagi moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini, foyda va zararlarini to'g'ri aniqlash va boshqaruvni shunga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi.

Korxonalar moliyaviy holatini bashoratlash moliyaviy hisobotning quyidagi birliklari yuzasidan tuzib chiqiladi.

1. Aktivlar va passivlar balansi bo'yicha;
2. Daromadlar va xarajatlar balansi bo'yicha;
3. Pul mablag'lari kirimi va chiqimi balansi bo'yicha.

Moliyaviy holatni bashoratlash uchun asos bo'luvchi manba bu moliyaviy hisobotlardir. Joriy yildagi moliyaviy hisobot ma'lumotlari yaqin va uzoq davriylikda bashoratlash uchun iqtisodiy va moliyaviy jihatdan asos vazifasini bajaradi. Korxonaning kelgusidagi rivojlanishi yuzasidan belgilangan topshiriqlardan kelib chiqqan holda moliyaviy hisobotning barcha elementlari qayta korrektirovkalash asosida tuzib chiqiladi. Bashoratlash yakunida bashoratlangan buxgalteriya balansi, bashoratlangan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti, bashoratlangan pul oqimi to'g'risidagi hisobotlari tuzib chiqiladi va ushbu manbalar moliyaviy starategiyani belgilashda muhim manba sifatida qaraladi.

Moliyaviy holatni bashoratlash tahlili mazmunini korxonalarning kelgusidagi moliyaviy ahvoli va undagi o'zgarishlarni, moliyaviy natijalarni va pul oqimlarini oldidan aniqlash, kelgusidagi iqtisodiy naflikka yo'naltirilgan boshqaruv qarorlarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan axborotlar bazasini shakllantirishga qaratilgan.

Moliyaviy holatni bashoratlash tahlilining muhim vazifalari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- korxona moliyaviy holati, moliyaviy natijalari, foyda va zararlari, pul mablag'lari kutilishi yuzasidan hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- korxonaning aktivlar, kapitali va majburiyatlarining kelgusidagi kutilishlarini bashoratlash orqali buxgalteriya balansini tuzish va korxonaning moliyaviy holatidagi o'zgarishlarni baholash;

- korxonaning daromadlari va xarajatlari, foyda va zararlarini kelgusidagi kutilishlarini bashoratlash orqali moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish va uning muhim birliklari o'zgarishiga baho berish;

- pul oqimlarining kelgusidagi kirimi va chiqimi yuzasidan mablag'larga zaruriyatni va ortiqchalikni aniqlash orqali pul mablag'lari balansini tuzish va uni baholash.

Bashoratlash kelgusida korxona moliyaviy holatini yaxshilash, iqtisodiy naflikni o'stirish, pul mablag'lari doimiy oqimini optimal boshqaruvini yo'lga qo'yishda muhim masala hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash uning muxim elementlari bo'lgan aktivlar, kapital va majburiyatlar, moliyaviy natijalar, foyda va zararlarni prognozlashni nazarda tutadi. Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash asosida korxonaning kelgusidagi aktivlari, kapitali va majburiyatlari, moliyaviy natijalari, foyda va zararlarini oldindan kutilishini aniqlash va shunga mos ravishda ularning faoliyat va biznes rejasini belgilash, byudjetini shakllantirish imkoni tug'iladi. Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash quyidagi muhim savollarga javob topishg imkonini beradi:

- korxonada nimalardan va qachon pul mablag'lari keladi?

- ular nimalarga ishlatiladi?

- ijobiy pul oqimlariga chiqish yuzasidan korxonaga kancha pul mablag'lari zarur?

- ushbu pul mablag'lariga qachon zaruriyat seziladi?

- pul mablag'lari qaysi shaklda korxonalarga jalb qilinadi (xususiy kapital ko'payishi shaklida yoki qarz kapitali shaklida)?

- keyingi davrlar bo'yicha korxonaning moliyaviy holati qanday holati kuzatiladi?

Moliyaviy hisobot elementlarini mohirona bashorat qilish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- bashorat qilinadigan davrni belgilab olish;

- moliyaviy bashoratlash bo'yicha takliflarni tayyorlash;

- hisob-kitob jadvallarini shakllantirish;

- foyda va zararlarni bashoratlash;
- pul mablag'lari harakatini bashoratlash;
- moliyalashtirishning talab qilingan qiymatini shakllantirish;
- iqtisodiy nochorlikni bashoratlash;
- balans hisobotini bashoratlash;
- yakuniy xulosa va tavsiyalarni tayyorlash.

Tobora rivoj topayotgan va raqobatdoshlik kuchayotgan sharoitda bashoratlangan moliyaviy hisobotlarni talab qiluvchilarning doirasi kengayadi. Shu sababli, bashoratlangan moliyaviy hisobotlarga tayangan holda yaqin va uzoq davriylikdagi xamkorlik aloqalari, sherikchilik, aksiyalarni sotish olish yuzasidan ularning ahamiyati oshib bormoqdi. Ayniqsa, kredit institutlarining berilgan kredit muddatlari bo'yicha korxonaning moliyaviy holati va natijalarining kutilishlarini bilishga zaruriyati yanada oshmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, banklar birinchi navbatda korxonalarning tarixi bilangina emas, balki iqtisodiy jihatdan asoslangan faoliyatning uzluksizligi va davomiyligi, moliyaviy ahvol va natijalarning kelajakdagi kutilishlarini bilish bilan ham qiziqadilar. Shu bilan birga, esdan chiqarmaslik lozimki, kelajakda kutiladigan natijalarning eng ishonchli manbalari ham ma'lum bir taxminlardan, kamchiliklardan albatta holi bo'la olmaydi. Bu esa risklarni baholash ularni kamaytirish choralarini ko'rish bilan hal etiladi.

14.2. Aktivlar, kapital va majburiyatlarni bashoratlash

Moliyaviy holatni bashoratlashda eng muhim obyekt bu buxgalteriya balansidir. Uning muhim elementlariga aktivlar, kapital va majburiyatlar kiradi. Buxgalteriya balansini bashoratlash orqali korxonaning joriy davrdagi holatining kelgusidagi kutilishlari rejalashtiriladi. Bashoratlash modelini tuzib chiqish yuzasidan quyidagi tartibdagi amallar bajariladi.

Buxgalteriya balansining tuzilishi:

$$\mathbf{A = K + M}$$

Bu yerda: A – Aktivlar;

K – Kapital;

M – Majburiyatlar;

Buxgalteriya balansining likvidlik va moliyalashtirish manbalari bo'yicha kengaytirilgan tarkibi

UMA + JA (TMZ+DM+PM) = O'MM + M (UMM+QMM+KM)

Bu yerda: UMA – Uzoq muddatli aktivlar;

JA – Joriy aktivlar;

TMZ – Tovar moddiy zaxiralar;

DM – Debitorlik majburiyatlari;

PM – Pul mablag'lari;

O'MM – O'z mablag'lari manbasi;

UMM – Uzoq muddatli majburiyatlar;

QMM – Qisqa muddatli majburiyatlar;

KM – Kreditorlik majburiyatlari.

Korxonaning joriy buxgalteriya balansidagi ma'lumotlar prognozlash uchun asos sifatida ishlatish mumkin.

Tarkibiy o'zgarishlar hisobiga, masalan ishlab chiqarish va sotish hajmining o'sishi hisobiga balans aktivi va passivida, daromad va xarajatlarida, pul oqimlarida qator o'zgarishlar ro'y berishi mumkin. Qo'shimcha moliyalashtirishlar yuzasidan talabning o'zgarishi stsenariysi shunga mos ravishda belgilanadi.

Bashoratlangan aktivlar bashoratlangan passivlardan kichik yoki teng bo'lgan bashorat qilingan stsenariyni amalga oshirish mumkin bo'ladi.

$$QMB = Ba - Bp <= 0$$

Bu yerda:

QMB – Qo'shimcha moliyalashtirish manbalari;

Ba – Bashoratlangan aktivlar;

Bp – Bashoratlangan passivlar.

Lekin aylanma aktivlarning o'sishi doimo ham moliyalashtirish manbalarining etarligini ta'minlashga imkon bermaydi. Shu sababli, qo'shimcha moliyalashtirish manbalariga zaruriyat seziladi.

Qo'shimcha moliyalashtirishga zaruriyatni pul oqimining shakllanishiga qarab belgilash mumkin:

$$PO = Tf + Am - A + M$$

Bu yerda:

Tf – Taqsimlanmagan foyda;

Am – Amortizatsiya;

A – Aktivlar;

M – Majburiyatlar.

Bashoratlash algoritimi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi

Axborot manbalarini shakllantirish bosqichi. Axborot manbalari sifatida moliyaviy hisobot shakllari olinadi. Xarajatlar tarkibi va ularning salmoq o'zgarishlari o'rganiladi.

Koeffitsientlar hisob-kitob qilinadi. Xarajatlar salmog'i, aylanma aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsiyenti, kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$Kx = X / ST$$

Aylanma aktivlarning aylanishi:

$$Ka = AA / ST * D$$

Kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi:

1. Sotish hajmi bashorati. Korxonaning rivojlanish tendentsiyalari va marketing tadqiqotlari asosida aniqlanadi.

2. Davrlar bo'yicha moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash. Korxonaning xususiyatlaridan va strategiyalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

3. Moliyaviy hisobotni bashoratlash. Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar va pul oqimi to'g'risidagi hisobotlar bashorati asosida analitik balans tuziladi.

Buxgalteriya balansini bashoratlash eng qiyin va murakkab jarayon. Negaki, moliyaviy hisobotning va korxona moliyaviy holatining asosiy jihatlari ushbu hisobot shaklida aks etadi. Uni bashoratlashda ko'pincha sotishdan tushum hajmining o'sishidan kelib chiqiladi.

Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlashda quyidagi qoidalarga, shartlarga amal etiladi:

1. O'zgaruvchan xarajatlar, aylanma aktivlar hajmi va qisqa muddatli majburiyatlar hajmi sotishdan tushumning oshishiga mos ravishda oshadi.

Asosiy vositalarning o'sishi belgilangan o'sish darajasiga mos ravishda oshadi.

3. Boshqa uzoq muddatli aktivlar summasi o'zgarishsiz qoladi.

4. Uzoq muddatli majburiyatlar o'zgarishsiz olinadi.

5. Xususiy kapital elementlari: ustav kapitali, sotib olingan xususiy aksiyalar, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, kelgusi davr xarajatlari zaxirasi o'zgarishsiz olinadi.

6. Taqsimlanmagan foyda bashoratlangan foyda normasi va to'lanadigan dividendlari summasidan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilinadi.:

$$\mathbf{TFB = TF + BST \times TF^* \times (1 - Dn^*)}$$

Bu yerda:

TFB – bashoratlangan taqsimlanmagan foyda;

TF – joriy davr taqsimlanmagan foydasi;

BST – bashoratlangan sotishdan tushum;

TF* – bashoratlangan foyda normasi (sotishdan foyda / sotishdan tushum);

Dn* – dividend ishlatilishi bashoratlangan foyda normasi (dividend /sof foyda).

Yuqoridagi hisob-kitob qilingan ma'lumotlarga tayangan holda qancha passivga zaruriyat hisob-kitob qilinadi. Passivlar summasi (moliyalashtirish manbalariga) zaruriyat quyidagicha aniqlanadi.

$$\mathbf{BP_z = \Sigma BA - \Sigma BP}$$

Bu yerda:

ΣBA – bashoratlangan aktivlar hajmi;

ΣBP - bashoratlangan passivlar hajmi.

Aniqlangan formula asosida qo'shimcha passivlar summasi aniqlanadi

$$QP = \mathbf{TQA - MO - TFO}$$

Bu yerda:

QP – qo'shimcha passivlar;

TQA – talab qilingan aktivlar;

MO – majburiyatlar ortishi;

TFO – taqsimlanmagan foydaning ortishi.

Quyidagi ma'lumotlarga tayangan holda bashorat qilingan buxgalteriya balansini hisob-kitoblarini amalga oshiramiz.

1. Mahsulot sotishdan tushum hajmi joriy davrda - 5 180 801 340 ming so'm.

2. Mahsulot sotishdan tushum hajmining kelgusidagi kutilishi 7 978 434 064 ming so'm

3. Kelgusi yilda kutilayotgan foyda normasi - 0,1.

4. Kutilayotgan dividend normasi - 0,5.

5. Kelgusidagi asosiy vositalar qiymatining o'zgarishi tushum hajmiga mos ravishda o'zgaradi.

O'zbekiston temir yo'llari AJ ning buxgalteriya balansi

AKTIV	01.01.2017 y.	01.01.2018 y.
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**12 593 199 960**
Asosiy vositalar boshlang'ich qiymati	10 527 417 487	14 773 593 626
Asosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	4 320 658 666
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	10 452 934 960
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	345 379
Kapital qo'yilmalar	2 834 711 892	1 572 602 311
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	567 317 310
2. Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**11 683 693 105**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	1 047 437 972
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	8 441 062 224
Pul mablag'lari	171 917 383	468 669 767
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	160 480 738
Debitorlar, jami	503 338 335	1 566 042 404
Shu jumladan:		
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	163 855 350	268 038 094
Byudjetga avans to'lovlari	7 740 384	5 252 951
Aktiv bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**

PASSIV		
1. O‘z mablag‘lari manbasi	**7 745 794 466**	**10 124 233 076**
Ustav kapitali	614 384 306	828 202 670
Rezerv kapitali	5 737 851 427	8 121 422 920
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	223 400 675
Boshqa manbalar	885 865 126	951 206 811
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**14 152 659 989**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	12 304 013 149
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	8 878 479
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	1 839 768 361
Shu jumladan:		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	514 650 184
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	62 317 043
Qo‘shimcha talab qilinadigan moliyalashtirish manbalari	*	*
Balans passivi bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**

Mahsulot sotishdan tushum hajmining o‘sishi = mahsulot sotishdan tushum hajmi joriy davrda / Mahsulot sotishdan tushum hajmining kelgusidagi kutilishi[83].

1. Mahsulot sotishdan tushum hajmi joriy davrda - 5 180 801 340 ming so‘m.

2. Mahsulot sotishdan tushum hajmining kelgusidagi kutilishi 7 978 434 064 ming so‘m

3. Mahsulot sotishdan tushum hajmining o‘sishi = 7 978 434 064 ming so‘m / 5 180 801 340 ming so‘m.=1.54

[83] Block Stanley B., Jlirr Gcojfrev A. Found- Financial management. 5th ed. Irwin: Homewood, 1989. XXX, 7.33 p.

O‘zbekiston temir yo‘llari AJ ning buxgalteriya balansi prognozi

Ko‘rsatkichlar	2017-2018 yy.		Bashorat	
AKTIV	**01.01.2017 y.**	**01.01.2018 y.**	**Bashoratni hisob-kitobi**	**01.01.2021 y.**
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**12 593 199 960**	*	**18 237 784 838**
Asosiy vositalar boshlang‘ich qiymati	10 527 417 487	14 773 593 626	14 773 593 626*1.54	22 751 334 184
Asosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	4 320 658 666	4 320 658 666*1.54	6 653 814 345
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	10 452 934 960	10 452 934 960*	16 097 519 838
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	345 379	o‘zgarishsiz	345 379
Kapital qo‘yilmalar	2 834 711 892	1 572 602 311	o‘zgarishsiz	1 572 602 311
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	567 317 310	o‘zgarishsiz	567 317 310
2. Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**11 683 693 105**	*	**13 434 759 951**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	1 047 437 972	1 047 437 972*1.54	1 613 054 477
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	8 441 062 224	o‘zgarishsiz	8 441 062 224
Pul mablag‘lari	171 917 383	468 669 767	468 669 767*1.54	721 797 642
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	160 480 738	160 480 738*1.54	247 140 336
Debitorlar, jami	503 338 335	1 566 042 404	1 566 042 404*1.54	2 411 705 302
Shu jumladan:				
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	163 855 350	268 038 094	268 038 094*1.54	412 778 664
Byudjetga avans to‘lovlari	7 740 384	5 252 951	5 252 951*1.54	8 089 544
Balans aktivi bo‘yicha	**13 198 104**	**24 276 893**	*	**31 672 544**

jami	**658**	**065**		**789**
PASSIV				
1. O‘z mablag‘lari manbasi	**7 745 794 466**	**10 124 233 076**	*	**10 882 184 312**
Ustav kapitali	614 384 306	828 202 670	o‘zgarishsiz	828 202 670
Rezerv kapitali	5 737 851 427	8 121 422 920	o‘zgarishsiz	8 121 422 920
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	223 400 675	223 400 675+7 978 434 064*0,1*(1-0,5)	981 351 911
Boshqa manbalar	885 865 126	951 206 811	o‘zgarishsiz	951 206 811
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**14 152 659 989**	*	**16 039 458 810**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	12 304 013 149	o‘zgarishsiz	12 304 013 149
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	8 878 479	8 878 479*1,54	13 672 857
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	1 839 768 361	1 839 768 361*1,54	2 833 243 275
Shu jumladan:				
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	514 650 184	514 650 184*1,54	792 561 283
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	62 317 043	62 317 043*1,54	95 968 246
Qo‘shimcha talab qilinadigan moliyalashtirish manbalari	*	*	31 672 544 789-10 616 409 203-16 039 458 810	**4 750 901 667**
Balans passivi bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	*	31 672 544 789

Korxonada aktivlarning o'tgan yildagi holati 13 198 104 658 ming so'mni, joriy yildagi ko'rsatkich 24 276 893 065 ming so'ni tashkil etgan. Sotishdan tushum hajmining o'zgarishiga mos ravishda hisob-kitoblarni amalga oshirish natijalari yuzasidan kelgusi 2018 yilga korxonaning aktivlarini hajmini 31 672 544 789 ming so'm qilib belgilash mumkin. Bunga barcha asoslar etarli hisoblanadi. Negaki, sotish hajmining 1.54 darajaga ortishida aktivlar hajmining o'zgarishi xuddi shu ifodaga olib kela oladi. Passivlar ya'ni o'z mablag'lari va majburiyatlarning joriy qismi 26 921 643 122 ming so'mga teng bo'lgan holda kelgusida korxona 4 750 901 667 ming so'mga qo'shimcha moliyalashtirishlarni talab etadi.

14.3. Daromadlar va xarajatlarni bashoratlash: sotish hajmi, mahsulot tannarxi, operatsion daromad va xarajatlar, foyda hajmi va rentabellik darajalarini bashoratlash

Moliyaviy natijalarni bashoratlash korxona faoliyat natijaviyligini xarakterlovchi ko'rsatkichlarni: daromadlar va xarajatlarni, foyda va zararlarni kelgusidagi kutilishlarini rejalashtirishni, ko'zda tutishni xarakterlaydi.

Daromad va xarajatlar moliyaviy natijalarning muhim elementlari, tarkibiy birliklarini yillar bo'yicha o'sish darajalariga qarab bashorat qilinadi.

Moliyaviy natijalarni bashoratlash amaliyotida quyidagi asosiy metodlardan foydalanish mumkin: iqtisodiy tahlil metodi; normativ metod; balansli hisob-kitoblar va pul oqimlari metodi; ko'p variantlilik metodi; iqtisodiy-matematik modellashtirish metodi va boshqa metodlar.

Moliyaviy natijalarni bashoratlashning quyidagi asosiy bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin: xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalarini tadqiq etish; joriy rejalarning o'zgarishi asosida moliyaviy hisobotlarning bashorat variantlarini ishlab chiqish; xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy resurslarga bo'lgan aniq ehtiyojlarini aniqlash; moliyalashtirish manbalari (shu jumladan,

o‘z va tashqi manbalarning) va ularning tarkibiy tuzilishini bashoratlash; xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarishning tizimini yaratish va uni ushlab turish (qo‘llab-quvvatlash);

Moliyaviy natijalarni bashoratlashning: strategik (uzoq muddatga) va joriy (qisqa muddatga) turlarini tarkiblash mumkin.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ning moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti (2016-2017 yy.)

Ko‘rsatkichlar nomi	2017 yil	2016 yil
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	5 180 801 340	3 362 225 550
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat) arning tannarxi	3 191 287 162	2 474 622 038
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	**1 989 514 178**	**887 603 512**
Davr xarajatlari	752 744 444	568 302 199
Boshka operatsion xarajatlar	178 630 359	135 306 333
Asosiy faoliyatning foydasi	**1 415 400 093**	**454 607 646**
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar	833 455 050	159 047 300
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	506 789 162	269 112 080
Daromad (foyda) solig‘ini to‘lagunga qadar foyda	**1 088 734 205**	**564 672 426**
Favquloddagi foyda va zararlar	0	0
Daromad (foyda) solig‘i	30 730 577	16 304 363
Foydadan boshqa soliqlar va yig‘imlar	83 965 344	40 674 456
Hisobot davrining sof foydasi	**974 038 284**	**507 693 607**

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ning moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti (2018 yil bashorati)

Ko‘rsatkichlar nomi	2016 yil	2017 yil	O‘rtacha o‘sishi indeksi	2018 yil bashorati
Mahsulot (ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	3 362 225 550	5 180 801 340	1.54	7 978 434 064
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi	2 474 622 038	3 191 287 162	1.29	4 116 760 439
Mahsulot (ish va	**887 603**	**1 989**		**3 861 673**

xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	**512**	**514 178**		**625**
Davr xarajatlari	568 302 199	752 744 444	o‘zgarishsiz	752 744 444
Boshka operatsion xarajatlar	135 306 333	178 630 359	o‘zgarishsiz	178 630 359
Asosiy faoliyatning foydasi	**454 607 646**	**1 415 400 093**		**2 930 298 822**
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar	159 047 300	833 455 050	o‘zgarishsiz	833455050
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	269 112 080	506 789 162	o‘zgarishsiz	506789162
Daromad (foyda) solig‘ini to‘lagunga qadar foyda	**564 672 426**	**1 088 734 205**		**2 603 632 934**
Favquloddagi foyda va zararlar	0	0	o‘zgarishsiz	0
Daromad (foyda) solig‘i	16 304 363	30 730 577	(2.8 %)+(2.8 %)/2	72 901 722
Foydadan boshqa soliqlar va yig‘imlar	40 674 456	83 965 344	(7.2 %)+(7.7 %)/2	193 970 653
Hisobot davrining sof foydasi	**507 693 607**	**974 038 284**		**2 336 760 559**

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning samaradorligini baholashning asosiy ko‘rsatkichi sifatida moliyaviy samaradorlik, ya’ni sof foyda bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichini olish mumkin. Uni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$\mathbf{R_k = (C_f : O'_k) \times 100;\ R_a = (C_f : A) \times 100}$$

Bu yerda:

$\mathbf{R_k}$, $\mathbf{R_a}$ – sof foyda bo‘yicha o‘z kapitali va aktivlarning rentabelligi;

$\mathbf{S_f}$ – sof foyda;

$\mathbf{O'_k}$ – o‘z kapitalining o‘rtacha yillik qiymati;

A – aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati.

Bu ko‘rsatkichning o‘sishi foydani soliqqa tortishni qo‘shib hisoblagan holda ichki va tashqi xarakterdagi ko‘plab omillarga bog‘liq. Rentabellikni tarkib toptiruvchilarni tahlil qilish uchun amaliyotda birinchi marta Dyupon formulasidan foydalaniladi.

$$R = (S_f/O'_k) \times (S_f/T_s) \times (T/A) \times (A/O'_k),$$

Bu yerda:

T_s – Sof tushum;

A – Aktivlar.

Bir vaqtning o‘zida bu formuladagi (S_f/O'_k) nisbati sof foydaga ko‘ra o‘z kapitalining rentabellik koeffitsiyentini, (S_f/T_s) nisbati sotuv rentabelligini ifodalab tahlil qilinayotgan davrda sof foyda va sotuv hajmi (tushum) o‘rtasidagi nisbatni aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkchlar sotilgan mahsulotning daromadliligini ham xarakterlaydi.

(T_s/A) nisbat xo‘jalik faolligi koeffitsiyentini ko‘rsatadi. Bu koeffitsiyent aktivlarning aylanuvchanligi ifoda etadi.

(A/O'_k) nisbat bir so‘mlik o‘z kapitaliga to‘g‘ri keluvchi aktivlarning umumiy miqdorini ko‘rsatadi.

Aktivlardan foydalanish darajasi, ularning aylanish tezligi, realizatsiya hajmi va sotilayotgan mahsulotlarning daromadliligi xo‘jalik yurituvchi subyekt moliya-xo‘jalik faoliyatining barcha asosiy parametrlari o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi.

Aktivlarining takror ishlab chiqarishdagi rolini baholash uchun xo‘jalik faolligi koeffitsiyentidan baholanadi.

$$K_{xf} = T_s / A$$

Bu yerda:

K_{xf}– xo‘jalik faolligi koeffitsiyenti.

Bu ko‘rsatkich bir so‘mlik foydalanilayotgan aktivlarga to‘g‘ri keluvchi tushumni xarakterlaydi. Uning o‘sishi boshqa barcha moliyaviy ko‘rsatkichlarining oshishi (ko‘payishi)ga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Aktivlarga joylashtirilgan kapitalning oqilona tarkibiy tuzilishi ham muhim ahamiyatga ega.

$$K_{ot} = A_a / K_f$$

Bu yerda:

$\mathbf{K_{ot}}$ – kapitalning oqilona tarkibiy tuzilishi;

$\mathbf{A_a}$ – aylanma aktivlar;

$\mathbf{K_f}$ – barcha foydalanilayotgan kapital.

Foyda va rentabellik hajmining o'sishini bashoratlashda quyidagi jadval ma'lumotlarini asos qilib olishimiz mumkin.

Foyda va rentabellikni bashoratlash ko'rsatkichlari tahlili

Ko'rsatkichlar	Joriy davrda 2017 yil	Kelgusi davrda 2018 yil
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	1 989 514 178	3 861 673 625
Asosiy faoliyatning foydasi	1 415 400 093	2 930 298 822
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda	1 088 734 205	2 603 632 934
Hisobot davrining sof foydasi	974 038 284	2 336 760 559
Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	18 737 498 861*	27 898 388 932**
O'z mablag'larining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	8 935 013 771	10 882 184 312
Aktivlar rentabelligi, %	5.2	8.3
Kapital rentabelligi, %	10.9	21.4

***13 198 104 658+24 276 893 065/2**

****24 276 893 065+31 672 544 789/2**

Korxonada aktivlarning rentabelligi joriy davrda 5.2 %ni, o'z mablag'lari rentabelligi 10.9 %ni tashkil etgan. Ularning kelgusidagi (2018 yildagi) kutilishi mos ravishda 8.3 hamda 21.4 %ni tashkil etgan. Korxona kelgusi davr uchun jalb qilinadigan kapital tarkibida uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlarni ko'paytirishi uning sof foydasi hisobiga foizlar to'lovini qoplash yuzasidan xech qanday muammoli jihatni ifoda etmaydi.

14.4. Pul mabalag'lari naqdligini bashoratlash

Boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda pul oqimlari to'g'risidagi hisobot axborotlari moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'larini va ularning ekvivalentlarini jalb etish qobiliyatini baholashga imkon beradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot pul tushumlari va to'lovlarini joriy natijalaridan (ularning yuzaga kelishi va shakllanishining faoliyat turlari bo'yicha) kelib chiqqan holda korxonaning kelgusidagi pul tushumlarini ham bashoratlash mumkin.

Bunda albatta har bitta faoliyat turi bo'yicha o'zgarishlarga muhim ahamiyat qaratiladi. Ya'ni, operatsiya faoliyat, investitsiya faoliyat va moliyaviy faoliyat bo'yicha pul mablag'larining kirimi va chiqimi oldindan bashorat qilinadi.

Har uch toifaning pul mablag'lari harakatiga, holatiga ta'siri birgalikda alohidalikda va umumiylikda o'rganiladi.

Ularning jamlangan holati tahlil davrida pul mablag'ining sof o'zgarishini belgilab beradi.

Pul oqimlari harakati to'g'risidagi axborot bo'lajak pul oqimlari bashorati to'g'riligini tekshirish chog'ida, foyda olish va pul oqimlarining sof harakati va narx o'zgarishi ta'siri o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish chog'ida zarur bo'ladi.

Pul mablag'larini bashoratlash tahlilda eng murakkab va qiyin jarayon hisoblanadi. Negaki, bu omillar ko'proq tashqi subyektlarning to'lov intizomiga amal etish darajasi bilan belgilanadi. Negaki, doimo ham sheriklarni, mahsulot sotib oluvchilarni, mol yetkazib beruvchilarni puxta o'rganish imkoni bo'lmaydi. Ular bilan bo'ladigan munosabatlarda qarzdorlik muammosini hal qilish yuzasidan zaxira fondlarining tashkil etilishi ham shuni talab etadi.

Menejerlar birinchi navbatda pul oqimini bashorat qilishning optimal usullarini tanlashi lozim. Negaki bu kelgusida olinadigan foydaning va kapitalning o'sishini ahamiyatligini oshiradi.

Buning uchun birinchi navbatda pul oqimlarini boshqarish strategiyasini to‘g‘ri tanlash lozim:

- pul mablag‘lari kirimi va chiqimi davr boshlanishidan oldin bashoratlanishi;
- sof pul oqimini (ortikcha yoki kamomad) davr boshlanishidan oldin hisob-kitobini qilinishi;
- uzoq va qisqa muddatli moliyalashtirishlarga talablarni davr boshlanishidan oldin aniqlash lozim.

Pul oqimini bashoratlashda albatta debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini holatiga muhim ahamiyat qaratish lozim. Debitorlik majburiyatlari bilan bog‘langan pulning harakati quyidagi formula asosida hisob-kitob qilinadi.

$$\mathbf{DK_B + ST = DK_O + PK}$$

Bu yerda:

DKB – mahsulot (ish va xizmat)larni sotish bo‘yicha debitorlik qarzlarning davr boshiga holati;

ST – davr oraligida sotishdan tushum;

DKO – mahsulot (ish va xizmat)larni sotish buyicha debitorlik qarzlarning davr oxiriga holati;

PK – davr oralig‘ida pul mablag‘lari kirimi.

Pul okimini bashoratlashda ularning chiqim qatorlariga ham muhim ahamiyat qaratiladi. Uning asosiy tarkibiy elementi kreditorlik qarzlarni qoplash bo‘lib hisoblanadi.

Sof pul oqimini bashoratlashda pul mablag‘lari kirimi va chiqimi bashoratlarini solishtirish lozim.

Muddatli moliyalashtirishda mutloq talabni hisoblash hamda pul oqimini bashoratlashda xar bir davr boshi uchun bankning qisqa va uzoq muddatli muddatli ssudalarini jalb qilish hajmi o‘rganiladi.

Ma’lumki, aksiyadorlik jamiyatlarida olingan moliyaviy natijalarning hajmiga qarab ya’ni sof foyda Kengash belgilagan normasida dividend to‘lovlari amalga oshirilishi mumkin. Pul mablag‘larini bashoratlashda bunday to‘lovlar va ularning hajmini albatta aniq hisob-kitob qilish talab etiladi.

Pul oqimlarini bashoratlash

Ko‘rsatkichlar nomi	Joriy yil		O‘sishi indeksi	Kelgusi yil bashorati	
	Kirim	Chiqim		Kirim	Chiqim
Operatsion faoliyat					
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari	4 680 822 612	x	**1.54**	**7 208 466 822**	
Mahsulot (ish va xizmat)lar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari	x	2 254 620 520	**1.45**		**3 269 199 754**
Xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari	x	1 235 420 005	**1.15**		**1 420 736 005**
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlar va to‘lovlari	200 388 440	-	**1.10**	**223 727 284**	-
Jami: operatsion faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (satr 010-020-030+/-040)	**4 881 211 052**	3 490 040 525	*	**7 432 194 106**	**4 689 735 759**
Investitsiya faoliyatining sof pul kirim (chiqim)	560 245 214	1 564 824 562	*	560 245 214	1 564 824 562
Moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi va chiqimi	562 456 324	537 599 198	*	562 456 324	537 599 198
Soliqqa tortish pul chiqimi	x	114 695 921		x	114 695 921
Jami: moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi (satr	**6 003 912 590**	5 707 160 206	*	**8 554 895 644**	**6 907 055 440**

050+/-100+/-180-210)					
Yil boshidagi pul mablag'lari	171 917 383	x	*	468 669 767	
Yil oxiridagi pul mablag'lari	468 669 767	x	*	**2 116 509 971**	

Korxonada pul oqimining joriy yil natijalarida operatsion faoliyatdan pul kirimi 4 811 211 052 ming so'm, ularning chiqimi esa 3 490 040 525 ming so'mni tashkil etgan. Sof pul oqilimi 4 811 211 052-3 490 040 525=1 321 170 527 ming so'mni tashkil etgan. Investitsion faoliyatdan pul kirimi 560 245 214 ming so'mni, chiqimi 1 564 824 562 ming so'mni tashkil etgan. Sof pul oqimi 1 004 579 848 ming so'ni tashkil qilgan. Moliyaviy faoliyatdan pul oqimida kirimi 562 456 324 ming so'mni, chiqim 537 599 198 ming so'mni tashkil qilgan. Korxonada jami pul oqimining sof kirimi prognozi bo'yicha 8 554 895 644 ming so'mni, chiqimi mos ravishda 6 907 055 440 ming so'mga teng bo'lgan.

14.5. Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik)ni bashoratlash

Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) – iqtisodiy sud tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligidir. Lekin bankrotlik sud jarayonidagina o'rganiladigan jarayon emas. Har bitta korxona o'zining moliyaviy holatini, uning kutilishlarini oldindan tahlil qilib unga qarshi chora-tadbirlar ko'rib borishi lozim.

Iqtisodiy nochorlikni bashoratlashda xalqaro amaliyotdan keng qo'llaniladigan turli modellar tizimidan foydalanish mumkin. Ushbu modellari asosida korxonalarning moliyaviy koeffitsiyentlarini baholash orqali korxonalardagi iqtisodiy nochorlikning turi, uni oldini olish yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi, nochorlikni oqibatlarini yumshatish va moliyaviy sog'lomlashtirishning taktik qarorlarini tuzib

chiqish mumkin. Iqtisodiy nochorlik va bankrotlikni bashorat qilingan buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlariga tayangan holda kelgusidagi o'zgarishlarini ham aniqlash va tahlil etish mumkin.

O'zbekiston temir yo'llari AJ ning buxgalteriya balansi prognozi

Balans qatorlari	2019 yil bashorati
AKTIV	
1. Uzoq muddatli aktivlar	**18 237 784 838**
Asosiy vositalar boshlang'ich qiymati	22 751 334 184
Asosiy vositalar eskirish qiymati	6 653 814 345
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	16 097 519 838
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	345 379
Kapital qo'yilmalar	1 572 602 311
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	567 317 310
2. Joriy aktivlar	**13 434 759 951**
Ishlab chiqarish zaxiralari	1 613 054 477
Kelgusi davr xarajatlari	8 441 062 224
Pul mablag'lari	721 797 642
Boshqa joriy aktivlar	247 140 336
Debitorlar, jami	2 411 705 302
Shu jumladan:	
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	412 778 664
Byudjetga avans to'lovlari	8 089 544
Balans aktivi bo'yicha jami	**31 672 544 789**
PASSIV	
1.O'z mablag'lari manbasi	**10 882 184 312**
Ustav kapitali	828 202 670
Rezerv kapitali	8 121 422 920
Taqsimlanmagan foyda	981 351 911
Boshqa manbalar	951 206 811
2. Majburiyatlar	**16 039 458 810**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	12 304 013 149
Boshqa majburiyatlar	13 672 857
Kreditorlik majburiyatlari, jami	2 833 243 275
Shu jumladan:	

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	792 561 283
Byudjetga majburiyatlar	95 968 246
Qo'shimcha talab qilinadigan moliyalashtirish manbalari	**4 750 901 667**
Balans passivi bo'yicha jami	31 672 544 789

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ ning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti (2018 yil bashorati)

Ko'rsatkichlar nomi	2019 yil bashorati
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	7 978 434 064
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi	4 116 760 439
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	**3 861 673 625**
Davr xarajatlari	752 744 444
Boshka operatsion xarajatlar	178 630 359
Asosiy faoliyatning foydasi	**2 930 298 822**
Moliyaviy faoliyat buyicha xarajatlar	833455050
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	506789162
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda	**2 603 632 934**
Favquloddagi foyda va zararlar	0
Daromad (foyda) solig'i	72 901 722
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	193 970 653
Hisobot davrining sof foydasi	**2 336 760 559**

Iqtisodiy nochorlikni bashoratlash

Faktorlar belgisi	Faktorlar	Aniqlanish tartibi	Bashorat
Z= -0.3877 — 1.073*4,74 + 0.0579*1,13=-0,3877-5,08602+0,65427=-6,12799			
X1	Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Aylanma aktivlar / Qisqa muddatli majburiyatlar	13 434 759 951 / 2 833 243 275=4,74
X2	Kapitallashuv koeffitsiyenti	Uzoq muddatli majburiyatlar + Qisqa muddatli majburiyatlar / Xususiy	12 304 013 149+13 672 857/ 10 882 184 312=1,13

		kapital	
Z= 1.2*0,4241 + 1.4*0,0727 + 3.3*0,0925 + 0.6*0,3435 + 0,2519=0,50892 +0,10178+0,30525+0,2061+0,2519=1,37395			
X1	Aylanma kapitalning aktivlarda salmog'i	Aylanma kapital / Aktivlar jami	13 434 759 951 / 31 672 544 789=0,4241
X2	Aktivlarning rentabelligi	Sof foyda / Aktivlar jami	2 336 760 559 /31 672 544 789=0,0727
X3	Operatsion rentabellik	Operatsion foyda / Aktivlar jami	2 930 298 822 / 31 672 544 789=0,0925
X4	Aktsiyalarning bozor qiymati	Xususiy kapitalning bozor qiymati / Majburiyatlar	10 882 184 312 / 31 672 544 789=0,3435
X5	Aktivlar samaradorligi	Tushum / Aktivlar jami	7 978 434 064 / 31 672 544 789=0,2519

Korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlari bo'yicha

Ko'rsatkichlar	**Iqtisodiy holat noabarqorligi**	**Hisob kitob**	**Natija**
Asosiy ko'rsatkichlar			
To'lov layoqati yoki qoplash koeffitsiyenti (Ktl):	Ktl - 1.25 dan kichik bo'lsa	13 434 759 951 / 13 672 857+2 833 243 275	4,71
O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kat)	Kat -0.2 dan kam chiqsa	10 882 184 312+12 304 013 149-18 237 784 838 / 13 434 759 951	0,36
Korxona aktivlari va xarajatlar rentabelligi (Ra, Rx)	Ra, Rx -0 dan past bo'lsa	Ra=2 603 632 934 / 31 672 544 789*100 Rx=2 603 632 934 / (4 116	0,082 0,442

		760 439+752 744 444+17 8 630 359+833 455 050)*100	
Ko'shimcha ko'rsatkichlar			
O'zmablag'lari va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyenti (Ko'q)	Ko'/q -1.25 dan tushib ketgan xollarda	10 882 184 312/(16 039 458 810-12 304 013 149)	2,91
Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti (Kquv)	Kqo'v- 0.5 dan tushib ketganda	0,6*	0,6*
Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti (Kesk)	Kesk- 0.5 dan oshib ketganda	6 653 814 345 / 22 751 334 184	29,2
*-shartli 0,5 dan yuqori deb olindi			

Korxonada bashorat qilingan moliyaviy hisobotning shakllari va ularning birliklarining o'zgarishiga mos ravishda aniqlangan ko'rsatkichlarni baholash natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, korxonada barcha ko'rsatkichlar iqtisodiy nochorlik stadiyasidan tashqarida bo'lgan. Masalan: to'lovga qobillik bo'yicha korxona eng yuqori natijaga erishgan. Uning hisob-kitob qilingan ifodasi 4.71ga teng bo'lgan. Shuningdek aktivlar joriy aktivlarning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi 0.36ga teng bo'lgan. Jami aktivlarning rentabellik darajasi 8.8 %ni, xarajatlar rentabelligi 44.2 %ni tashkil etgan. Asosiy vositalarning eskirish darajasi 29.2 %ni tashkil etgan. Bu korxonada 60.8 % asosiy vosita yaroqli holatda degani.

Moliyaviy holatni bashoratlashga ichki va tashqi omillar ta'siri

Korxonalar moliyaviy holatni, moliyaviy natijalari va ularning kelgusidagi kutilishlarini bashoratlashda yuz foiz aniqlikni ta'minlaydigan formula yoki model ishlab chiqilmagan. Moliyaviy holat va moliyaviy natijaviylikning alohida birliklarini (to'lovga qobillik,

likvidlik, rentabellik, iqtisodiy nochorlik, ish aktivligi va h.k.) bashoratlashning ham ko'pi bilan 90 foizga qadar aniqligini ta'minlash mumkin xolos. Bu ham tashqi ta'sir biliklaridagi (soliq, boj, kredit siyosatidagi uzoq davriylikdagi o'zgarishlar, inflyatsiyaning jilovlanishi, hisob-kitoblar va shartnomaviy munosabatlardagi) aniqlik ta'minlangan holdagina erishiladi.

Korxona moliyaviy holatini, moliyaviy natijalari va pul oqimlarini kelgusidagi kutilishiga ta'sir etuvchi birliklarni quyidagi belgilari bo'yicha tarkiblash mumkin.

1. Yuzaga kelish shakli bo'yicha: ishchi va tashqi;
2. Natijaning muhimligi bo'yicha: asosiy va ikkilamchi;
3. Tarkibi bo'yicha: oddiy va murakkab;
4. Amal etish davri bo'yicha: doimiy va vaqtinchalik omillar

Tarkiblashda eng ommalashgan shakl bu ta'sir etuvchi birliklarni ichki va tashqi omillarga tarkiblash hisoblanadi. Ichki omillar bu korxonaning o'ziga bog'liq omillar, tashqi omillar bu korxonaning o'ziga, uning ish faoliyatiga, natijalariga bog'liq bo'lmagan ta'sir omillardir.

Tashqi omilar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- iste'molchilar to'lov talabining o'zgarishi va dinamikasi;
- hukumatning hisob, moliya-kredit, soliq siyosati;
- raqobatning jiddiyligi;
- siyosiy barqarorlik;
-resurslar bozoridagi holat;
- inflyatsiya i boshqalar.

Moliyaviy hisobotlarni bashoratlashda tashqi omilardan tashqari albatta birinchi navbatda ichki omillarga ahamiyat qaratish lozim. Negaki bu omillarni o'zgartirish, ta'sir darajalarini maqsadga yo'naltirish imkoniyatlari mavjud.

Ichki omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqariladigan yoki ko'rsatiladigan xizmatlarning tarkibi va tuzilishi;
- ishlab chiqarish texnologiyasi va boshqarish modeli;

- korxonaning tarmoq bo‘g‘ini;

- mulk va moliyaviy resurlari, ularning tarkibi va tuzilishi, boshqaruv strategiyasi;

- ishlab chiqarish va faoliyat samaradorligi;

- kapital oqimini tashkil etilishi, uning (daromad va xarajatlar nisbatidagi) mos shakli;

- menejment sifati;

- investitsiyalar hajmi va sifati;

Korxona moliyaviy holati, natijalari va pul mablag‘lariga ta’sir etuvchi birliklariga ta’sir etuvchi omillar ta’sirini hisoblash juda murakkab va qiyin jarayon. Analitiklar bu borada shaxsiy yondashuvlar, asoslarga tayanishga majburlar. Shu sababli ta’sir darajalarini hisoblashda har bitta o‘rganiladigan birlik alohidalikda, bog‘liqlikda va aloqadorlikda baholash talab etiladi.

14.6. Bashorat ko‘rsatkichlarining ishonchliligini baholash hamda bashoratlashdagi kamchiliklar

Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi nafaqat olingan foydaning miqdori bilan balki, biznes (korxonaning bozor) narxining ortishi bilan, faoliyatning kelgusidagi taraqqiyotining muhim dastaklarining mustahkamligi bilan ham baholanadi.

Qarz beruvchi qarz oluvchining pulni u yoki bu muddatda qaytarib berish taklifi haqiqiy ekanligini, investorlar qo‘yilgan mablag‘larga dividend olish ehtimolini, mol yetkazib beruvchilar davomli aloqalarda to‘lovlarda uzilishlar bo‘lmasligini bilishi kerak. Qarz beruvchi buni statistik va moliyaviy prognozlar tuzish yo‘li bilan aniqlashi mumkin, ular asosida arizachiga qarzni qaytarishning haqiqiy muddatini, shuningdek qarzning asosiy summasini qaytarish uchun qilinadigan oylik to‘lovlar miqdori kabi boshqa tafsilotlarni tavsiya qilishi mumkin.

Odatda qarz olmoqchi bo‘lgan tadbirkor naqd pullar harakati jadvali, moliyaviy va statistik prognozlar, loyihadan pul kelishining loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlardan oshishini ta’minlashi, shuningdek qarz beruvchining qarz berishi uning uchun qanchalik xavfsiz ekanligini va qarzga oluvchi pulni, kelishilgan shartlarga muvofiq, qaytarib berishni uddalay olishini baholashi talab

etiladi.

Ba'zan shunday ham bo'ladiki, tadbirkorlik faoliyati jadal kechyapti-yu, natijalar foyda yo'qligini ko'rsatadi. Bu nimadan dalolat beradi. Bu avvalo, xarajatlar nazorat qilinmayatganligidan, bozor etarli emasligidan, marketing to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidan dalolat beradi.

Korxonalarning majburiyatlarni qoplash uchun etarli pul mablag'lari borligini aniqlash uchun qarz beruvchi korxona pul mablag'lari harakati prognozini diqqat bilan ko'rib chiqishi lozim. Shuningdek qarz beruvchi aylanma kapitalni to'ldirish uchun zarur bo'lgan pullarni boshqa sohalariga yo'naltirmasligiga ham ahamiyat qartishi lozim.

Rejalashtirish va prognozlash orqali joriy ishlab chiqarishning ko'lamini, moliyaviy ahvolini, natijalarini va pul oqimini oldindan aytish mumkin.

Biznesining ko'lamiga mos buxgalteriya hisobi tizimini yo'lga qo'ygan tadbirkor, doimo biznesining boshlanishidan to shu kungacha qanday rivojlanganligini ko'ra biladi. Biroq tadbirkor kelgusida barcha majburiy to'lovlarni (masalan, maoshlarni to'lash, materiallarga to'lash, foizlar, ta'minotchiga yoki bankka kreditni qaytarish va b.) to'lay olishiga ishonch hosil qilishi lozim. Hisobot tizimidan olingan raqamlar, ayniqsa mavsumiy xarakterdagi biznes bilan to'qnashganda, bunday bashoratlarni tuzishda juda qo'l keladi.

Moliyaviy bashorat rejasini tuzishning tekshirilgan usuli – pul oqimlari harakati rejasi hisoblanadi. Nomidan ko'rinib turibdiki, bu reja biznesga kiruvchi va chiquvchi pul oqimlarini ko'rsatadi. Pul oqimlari harakati rejasini tuzishda korxonaning bank hisob raqamida turgan pullari ham hisobga olinadi. Biznesga pul oqimlari odatda tovarlar, mahsulotlar va xizmatlarni sotishdan kelib tushadi. Shuningdek, kiruvchi pul oqimining bank krediti, eski uskunalarni sotish, ortiqcha to'langan soliqlarni qaytarish kabi manbalari ham mavjud.

Biznesdan chiquvchi pul oqimi asosan mehnatga haq to'lashga, ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va asosiy kapital xarajatlarini to'lashga ketadi. Qo'l ostida marketing rejasiga ega bo'lgan tadbirkor kutilayotgan kapital aylanmasini va tovarlar ishlab chiqarish yoki harid qilishga rejalashtirilayotgan xarajatlarni ko'rib turadi.

Pul oqimlari harakatining har oylik rejasi tadbirkor uchun har oy mobaynida kutilayotgan moliyaviy mablag'larni kiruvchi va chiquvchi oqimlarini baholashning instrumenti hisoblanadi. Bu tadbirkorda puli tugab qolish vaziyatini chetlab o'tishiga yordam beradi.

Bashorat ko'rsatkichlarining ishonchligidagi eng muhim muammo bu o'z vaqtida, aniq va to'liq axborotlarning olinishida deyish mumkin.

Bashoralashdagi yana bir muhim kamchilik korxonalarda byudjetlashtirish amaliyotiga amal etmaslik yoki uning nomigagina o'tkazilishidir. Ya'ni korxonalar bashoratlangan buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'rsidagi hisobotlarni tuzish amaliyoti yo'lga qo'yilmagan.

Soliqlar, to'lovlarning uzoq davriylikdagi normalarining qat'iy belgilanmaganligi moliyaviy hisobotlarni bashoratlashdagi asosiy kamchiliklardan bittasidir.

Bashoratlash va byudjetlashtirishda eng muhim kamchiliklardan biri boshqaruv hisobining korxonalarda to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va takomillashtirish zaruriyati bilan ham xarakterlanadi.

Moliyaviy hisobot ma'lumotlari konfedentsialligi axborot foydalanuvchilarning talablarini, huquqlarini himoya etganligi sababli ularni olish, mustaqil foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi ham tashqi qiziquvchilarning o'z xatti-harakatlarini belgilash yuzasidan etarli emasligi ham sohadagi muhim kamchiliklardan biridir.

Buxgalteriya hisobining, byudjetlashtirish va prognozlashdagi dasturiy ta'minotlarning etarli yoki mukammal emasligi ham sohadagi asosiy kamchiliklar qatoriga kiradi.

O'zbekiston temir yo'llari AJ ning jamlangan buxgalteriya balansi

Ko'rsatkichlar	2017-2018 yy.				
AKTIV	**01.01.2017 y.**	**01.04.2017 y.**	**01.07.2017 y.**	**01.10.2017 y.**	**01.01.2018 y.**
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**11 151 959 813**	**11 195 178 476**	**11 778 032 823**	**12 593 199 960**
Asosiy vositalar boshlang'ich qiymati	10 527 417 487	11 341 824 771	13 056 620 251	13 186 532 286	14 773 593 626
Asosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	3 788 793 507	3 945 211 086	4 125 679 858	4 320 658 666
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	7 553 031 264	9 111 409 165	9 060 852 428	10 452 934 960
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	335 519	526 894	435 179	345 379

Kapital qo'yilmalar	2 834 711 892	3 308 810 890	1 783 170 063	2 396 325 565	1 572 602 311
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	289 782 140	300 072 354	320 419 651	567 317 310
2. Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**3 522 490 664**	**4 234 880 927**	**10 571 776 648**	**11 683 693 105**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	761 929 334	807 974 274	805 958 807	1 047 437 972
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	1 926 260 257	2 439 824 162	8 466 493 743	8 441 062 224
Pul mablag'lari	171 917 383	167 990 329	198 395 625	199 248 750	468 669 767
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	114 011 429	118 290 042	112 380 694	160 480 738
Debitorlar, jami	503 338 335	552 299 315	670 396 824	987 694 654	1 566 042 404
Shu jumladan:					
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	163 855 350	162 134 584	179 194 017	304 669 491	268 038 094
Byudjetga avans to'lovlari	7 740 384	6 510 004	8 801 153	5 388 750	5 252 951
Aktiv bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**
PASSIV	**01.01.2017 y.**	**01.04.2017 y.**	**01.07.2017 y.**	**01.10.2017 y.**	**01.01.2018 y.**
1. O'z mablag'lari manbasi	**7 745 794 466**	**8 567 616 791**	**8 644 944 914**	**8 963 743 430**	**10 124 233 076**
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**6 106 833 686**	**6 785 114 489**	**13 386 066 041**	**14 152 659 989**

Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	5 329 297 527	5 927 142 095	12 154 367 349	12 304 013 149
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	12 729 877	10 091 394	9 142 953	8 878 479
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	764 806 282	847 881 000	1 222 555 739	1 839 768 361
Shu jumladan:					
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	177 094 949	250 590 908	306 494 641	514 650 184
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	35 632 293	40 718 997	40 080 238	62 317 043
Balans passivi bo'yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ ning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti (2016-2017 yy.)

Ko'rsatkichlar nomi	2017 yil	2016 yil
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	5 180 801 340	3 362 225 550
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxi	3 191 287 162	2 474 622 038
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	**1 989 514 178**	**887 603 512**
Davr xarajatlari	752 744 444	568 302 199
Boshka operatsion xarajatlar	178 630 359	135 306 333
Asosiy faoliyatning foydasi	**1 415 400 093**	**454 607 646**
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	833 455 050	159 047 300
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	506 789 162	269 112 080
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda	**1 088 734 205**	**564 672 426**
Favquloddagi foyda va zararlar	0	0
Daromad (foyda) solig'i	30 730 577	16 304 363
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	83 965 344	40 674 456
Hisobot davrining sof foydasi	**974 038 284**	**507 693 607**

Nazorat uchun savollar

Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash nima?

Bashoratlash va rejalashtirishning farqi nimada?

Bashoratlashning boshqaruvdagi ahamiyati nimada?

Bashoratlashning uzoq qa qisqa davriyliklarini izohlang?

Bashoratlashning kamchiliklari?

Bashoratlashdagi risklarni tushuntiring?

Bashoratlashda tahlilning ahamiyati nimada?

Aktivlar, kapital va majburiyatlarni bashoratlash qanday amalga oshiriladi?

Daromadlar va xarajatlarni bashoratlash qanday amalga oshiriladi?

Sotish hajmi, mahsulot tannarxi, operatsion daromad va xarajatlar, foyda hajmi va rentabellik darajalarini bashoratlashda nimalarga tayaniladi?

Pul mabalag'lari naqdligini bashoratlash qanday amalga oshiriladi?

Bankrotlikni bashoratlash.

Bashorat ko'rsatkichlariga ichki va tashqi omillar ta'sirini tasniflab bering?

Bashorat ko'rsatkichlariningehtimolligi va ishonchliligini baholash qanday amalga oshiriladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Subramanyam K.R. Financial statement analysis. 11th edition. New York, Mc Graw-Hill Education, 2014. - 814 pages.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. Uchebnik. M.: Yurayt, 2018. – 470 s.
3. Jilkina A.N. Finansoviy analiz. Uchebnik. M.: Yurayt, 2018. – 285 s.
4. Raximov M. Iqtisodiyot sub`ektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. T.; Iqtisod-Moliya, 2015. -392 b.
5. Raximov M. Iqtisodiyot sub`ektlari moliyaviy holatining tahlili. Uslubiy qo'llanma. T.; Iqtisod-Moliya, 2015. -156 b.
6. Pardayev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. T.:Print Line Group, 2017.-533 b.
7. Steven M. Bragg. Financial analysis: A business decision guide. 2nd edition. Colorado, Accounting Tools, Inc., 2014. –325 pages.
8. Shagiyasov T.Sh., Sagdillaeva Z.A., Urmanbekova I.F. Ekonomicheskiy analiz. /Uchebnik –T.: Iqtisod-Moliya, 2017. – 428 s.

MUNDARIJA

Kirish.....3

1-BOB. MOLIYAVIY TAHLIL FANINING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Tahlilning zamonaviy boshqaruvdagi roli, o'rni va ahamiyati.....7
1.2. Moliyaviy tahlil fanining predmeti, obyekti, maqsadi, vazifalari, prinsiplari.....13
1.3. Moliyaviy tahlil fanining metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari.....23
1.4. Tahlil metodining o'ziga xos xususiyatlari, uning boshqa fanlardan farqli jihatlari nimalardan iborat? 25
1.5. Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan usullar: an'anaviy (taqqoslash, balans, o'rtacha miqdorlar, zanjirli almashtirish, indeks, farqli, nisbiy ko'rsatkichli kabi) va iqtisodiy matematik (integral, chiziqli va chiziqsiz dasturlash, nazariy o'yin, korrelyatsiya va regretsiya, determinant, logarifm kabi) usullar. 26
1.6. Moliyaviy tahlilning maxsus usullari: moliyaviy hisobotni o'qish, gorizontal, vertikal, trend, qiyosiy, omilli, koeffitsiyentlar tahlili.....76
1.7. Moliyaviy tahlilning boshqa fanlar o'rtasida tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlari 92
1.8. Moliyaviy tahlil subyektlari (haqiqiy va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, xodimlar, shuningdek, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar) va ularning qiziqishlari.....96

2-BOB. MOLIYAVIY TAHLILNI TASHKIL ETISH VA AXBOROT MANBALARI

2.1. Moliyaviy tahlilni tashkil etish, yuritish, xulosalarni shakllantirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning me'yoriy asoslari 102
2.2. Moliyaviy tahlilni tashkil etish shakllari. Moliyaviy tahlilni tashkil etishda korxonaning tarmoq xususiyati, faoliyat ko'lami, raqobatdagi o'rni kabi jihatlarini hisobga olish 110
2.3. Moliyaviy tahlilning asosiy bo'limlari: moliyaviy hisobot tahlili, investitsion tahlil, qimmatli qog'ozlar bozoridagi jarayonlar tahlili, moliyaviy hisobotni bashoratlash. 114
2.4. Moliyaviy tahlil bosqichlari 121

2.5. Moliyaviy tahlilning axborot manbalari (tahlil obyektlari haqidagi ma'lumotlar), ularning ochiqligi va oshkoraligi 123
2.6. Moliyaviy hisobotlar shakllari va ularning tavsifi. Jamlangan moliyaviy hisobotlar va ularni tahlil etish 130
2.7. Moliyaviy hisobotni tuzishda milliy va xalqaro standartlarning moliyaviy hisobot mazmuniga ta'siri..... 145
2.8. Moliyaviy tahlilni muammoli jihatlari (davriy oraliqdagi qiyosiylik, turli korxonalar o'rtasidagi qiyosiylik, axborot operativligi muammolari)..... 153
2.9. Auditor xulosalarini ko'rib chiqish. Auditdan o'tkazilmagan hisobotlar. 159
2.10. Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan boshqa axborotlar..... 163
2.11. Moliyaviy tahlilda kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta'minotlardan foydalanish..... 165

3-BOB. KORXONANING OPERATSION FAOLIYATINI TAHLILI

3.1.Operatsion faoliyat tahlilining mazmuni va muhim vazifalari 170
3.2. Korxona faoliyatining turlari: operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyat..... 189
3.3. Operatsion faoliyat tahlili va uning muhim jihatlari..... 191
3.4. Mahsulot (ish, xizmat)larning tarmoq va faoliyat tavsifi 193
3.5. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, xarajat va foyda aloqadorligini tahlili (CVP tahlil) 196
3.6. Mahsulot (ish, xizmat)larning kritik hajm darajasi va uning omilli tahlili 200
3.7. Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmini tahlili 209
3.8. Mahsulot assortimentini boshqarish va ishlab chiqarish maromiyligi tahlili 213
3.9. Sotish hajmini tahlili 216
3.10. Korxona operatsion faoliyati samaradorligini (mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, innovatsion mahsulot, eksport hajmi ko'rsatkichlarini) baholash. 219
3.11. Operatsion leveridj tahlili..... 224
3.12. Operatsion risklar va ularni boshqarish 225

4-BOB. ISLAB CHIQARISH VA DAVR XARAJATLARI TAHLILI

4.1. Xarajatlar tahlili maqsadi, mazmuni va vazifalari 228
4.2. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar tahlili 235
4.3. Xarajatlarni umumiy hajmi va ularni asosiy elementlari bo'yicha baholash, tahlil qilish 237
4.4. Xarajatlarni faoliyat turlari, javobgarlik markazlari kalkulyatsiya moddalari bo'yicha tahlili 240
4.5. Moddiy, mehnat haqi, asosiy vositalarni saqlash va ishlatish xarajatlari tahlili 246
4.6. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxini tahlili 253
4.7. Mahsulot (ish, xizmat)larning xarajat sig'imini tahlili 257
4.8. Xarajatlarni maqbullashtirish va samaradorlikni oshirish yo'llari 268

5-BOB. BUXGALTERIYA BALANSI TAHLILI

5.1.Buxgalteriya balansi tahlili mazmuni va vazifalari 273
5.2. Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi: aktivlar, kapital va majburiyatlar 280
5.3. Balans ma'lumotlari va uning boshqa moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga mosligi 283
5.4. Korxona moliyaviy holatining tahlili 294
5.5. Buxgalteriya balansini "o'qish" 303
5.6. Buxgalteriya balansining gorizontal (davriy) tahlili 311
5.7. Buxgalteriya balansining vertikal tahlili 314
5.8. Korxonalar iqtisodiy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili 318
5.9. Korxonalar moliyaviy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili 325
5.10. Buxgalteriya balansi moddalarining likvidlilik bo'yicha turkumlanishi 330

6-BOB. MOLIYAVIY BARQARORLIK TAHLILI

6.1.Moliyaviy barqarorlik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari 343
6.2. Korxonaning iqtisodiy resurslari, uning moliyaviy tuzilmasi, likvidligi, to'lovga qobiliyatini moliyaviy ahvol va barqarorlikka ta'siri 348
6.3. Moliyaviy barqarorlik va uning tiplari: mutlaq va me'yoriy

barqarorlik, nobarqaror va inqirozli holatlar 353
6.4. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi tahlili 358
6.5. Korxonaning moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq koeffitsiyentlar va ularning tahlili 363
6.6. Moliyaviy barqarorlikni dinamik tahlili 368
6.7. Korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlash va yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini belgilash 370

7-BOB. KREDITGA LAYOQATLILIK TAHLILI

7.1.Kreditga layoqatlilik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari 377
7.2. Kreditga layoqatlilikning tavsifi 383
7.3. Kreditga layoqatlilikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullari: ekspert baholash tizimi va ballik (skoring) baholash tizimi 385
7.4. Kreditga layoqatlilikni baholashda tijorat banklari kredit siyosatining o'ziga xos jihatlari 392
7.5. Kreditga layoqatlilikni baholashda moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar tahlili 401
7.6. Korxonaning ishonchliligini baholash 409
7.7. Korxona raqobatdoshligining tahlili 414
7.8. Daromad tahlili 421
7.9. Kreditlarning muddatliligi va maqsadliligi bo'yicha ishlatilish tahlili 424
7.10. Risklar tahlili. Kreditga layoqatlilikni baholashda nazoratning davomiyligi. 428

8-BOB. DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI TAHLILI

8.1.Debitorlik, kreditorlik qarzlari tahlilining mazmuni, ularni tahlil qilish maqsadi va vazifalari 437
8.2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining shakllanishi 443
8.3. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibi va muddati bo'yicha tahlili 447
8.4. Qarzdorlik dinamikasining natijaviy va samaradorlik ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlili (qarzlarning aylanuvchanligi va qoplanuvchanligi tahlili) 453
8.5. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish bo'yicha

boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari 456
8.6. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari va ular yuzasidan rezervlar tahlili. 460

9-BOB. MOLIYAVIY NATIJALAR VA RENTABELLIK TAHLILI

9.1.Moliyaviy natijalar, foyda va rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilining ahamiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalari 471
9.2. Umumiy moliyaviy natijalar, ularning tarkibi, tuzilishi va ko'rsatkichlarining bir-biri bilan bog'liqligi 474
9.3. Moliyaviy natija, foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini baholash va tahlil qilish yo'llari 479
9.4. Xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatidan olingan daromadlari tahlili 484
9.5. Marjinal foyda tahlili 487
9.6. Mahsulot sotishdan ko'rilgan yalpi foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili 492
9.7. Moliyaviy natijalar tarkibiga kiruvchi xarajatlarning turlari va ularning tavsifi 497
9.8. Xarajatlarni baholash va tahlil qilish yo'llari. Xarajatlar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni hisoblash yo'llari 501
9.9. Asosiy va umumxo'jalik faoliyati foydasi (zarari), ularni aniqlashva tahlil qilish yo'llari 509
9.10. Favqulodda foyda va zararlar tahlili 513
9.11. Soliq to'langunga qadar foyda tahlili 514
9.12. Byudjetga to'lovlar va ajratmalarning tahlili 518
9.13. Soliq to'lovlari dinamikasi, ularning natijaviy ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlili 522
9.14. Korxonalarda soliq yukini hisoblash yo'llari va tahlili 524
9.15. Sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili 526
9.16. Rentabellik ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili 530
9.17. Foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash 537

10-BOB. PUL OQIMLARI TAHLILI

10.1. Xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'larini ko'paytirish, ularning ko'payish vaqtini hisob-kitob qilish va natijaga erishishda tahlilning muhimligi va asosiy vazifalari 545

10.2. Korxonaning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi va ular oqimini tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari 551
10.3. Pul oqimi to'g'risidagi hisobotning tuzilishi 554
10.4. Pul oqimlarini bashoratlash 562
10.5. Asosiy faoliyat, moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari tahlili 565
10.6. Pul oqimlarini tahlil qilishning to'g'ri va egri uslubi 567
10.7. Pul oqimlarini boshqarishning omilli tahlili. Pul oqimlari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash 575
10.8. Pulning muddatdagi qiymati, foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari 579
10.9. Valyuta mablag'lari harakatining tahlili 580

11-BOB. XUSUSIY KAPITAL TARKIBI VA UNING TAHLILI

11.1. Xususiy kapitalni tahlil etish maqsadi, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari 588
11.2. Xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi: ustav fondi (ustav kapitali), qo'shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda. 593
11.3. Xususiy kapital va uning o'zgarishini tahlili 599
11.4. Xususiy kapitalning dinamik tahlili 601
11.5. Sof aktivlar tahlili va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili 602
11.6. Moliyaviy leveridj ko'rsatkichlarini tahlili 607

12-BOB. KORXONALAR IQTISODIY NOCHORLIGI (BANKROTLIGI)NI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH

12.1. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni baholashning obyektiv zarurligi, uni tahlil qilish maqsadi va vazifalari 613
12.2. Bankrotlik instituti va uning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy nochorlikni tartibga solishning huquqiy normalari 619
12.3. Iqtisodiy nochorlik tahlilining axborot manbalari 624
12.4. Bankrotlikni aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularning qiyosiy tahlili 627
Iqtisodiy holat nobarqarorligi 637
12.5. Iqtisodiy nochorlik xavf-xatarlarini aniqlashda moliyaviy holat tahlili va bankrotlikni aniqlashning turli modellari 638
12.6. Bankrotlik taomillari: kuzatuv, tashqi boshqaruv, sanatsiya, tugatishning o'ziga xos xususiyatlari 644
12.7. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni oldini olish

chora-tadbirlari 655
12.8. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish..... 660
12.9. Bankrotlikni oldini olishda moliyaviy menejmentdan foydalanish..... 664

13-BOB: KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI REYTING BAHOLASH VA TAHLIL QILISH

13.1. Raqobatdosh iqtisodiyotda xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini reyting baholashning zaruriyati, tahlil maqsadi, mazmuni va vazifalari 671
13.2. Korxonalar faoliyati reytingining turlari, mohiyati va baholash usullari 676
13.3. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullari 678
13.4. Korxonalar moliyaviy holatni va samaradorligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichlar tizimi va ularga qo'yiladigan talablar 679
13.5. Reyting baholash amaliyoti..... 683
13.6. Korxona iqtisodiy va moliyaviy salohiyati samaradorligi bo'yicha reyting ko'satkichlarining qiyosiy tahlili. Reyting baholash bo'yicha korxonalarni ranjirlash. 685
13.7. Moliyaviy holatni reyting baholash bo'yicha xalqaro tajribalar va ulardan mamlakatimiz tahlil amaliyotida foydalanish imkoniyatlari..... 689

14-BOB. MOLIYAVIY HISOBOT ELEMENTLARINI BASHORATLASH

14.1. Moliyaviy hisobot elementlarini ahamiyati, maqsadi va tahlil vazifalari 695
14.2. Aktivlar, kapital va majburiyatlarni bashoratlash..... 698
14.3. Daromadlar va xarajatlarni bashoratlash: sotish hajmi, mahsulot tannarxi, operatsion daromad va xarajatlar, foyda hajmi va rentabellik darajalarini bashoratlash..... 706
14.4. Pul mabalag'lari naqdligini bashoratlash..... 711
14.5. Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik)ni bashoratlash 714
14.6. Bashorat ko'rsatkichlarining ishonchliligini baholash hamda bashoratlashdagi kamchiliklar..... 720
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 726